FALSAFA

A.Usmanov

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Usmanov Abdumo‘min Xolmo‘min o‘g‘li

FALSAFA

O‘quv qo‘llanma

(Barcha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun)

Toshkent - 2025

LIK

KBK: 84.1
U - 73
UO'K: 342.4 (575.2)
A.X.Usmanov "Falsafa" (O'quv qo'llanma) Toshkent.
"Oltin qalam nashriyoti". 2025-yil. 330 bet.

Mas'ul muharrir:

O'.Tilavov – O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori. Falsafa fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

B.Mardonov – O'zbekiston Respublikasi davlat Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti Ma'naviyat va yoshlar tarbiyasi markazi boshlig'i. Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

M.Toshboboyev – O'zbekiston Respublikasi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani, Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Mazkur o'quv qo'llanma barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan va ruxsat berilgan.

ISBN:978-9910-8228-8-9

© Oltin qalam nashriyoti
© A.X. Usmanov – 2025

Kirish.

Bugun o'z mustaqil taraqqiyot yo'lini belgilab olgan O'zbekiston yoshlarining tafakkur madaniyatini tarbiyalashda, jahon xalqlari bilan ma'naviy aloqalarni rivojlantirib borishda, barcha madaniy yuksak mamlakatlar bilan munosabatlarni mustahkamlashda falsafa fani, uni chuqur o'rganish va o'zlashtirish shubhasiz muhim va tabiiy vosita, qurol bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, bizni o'rab olgan muhit, tabiat, insoniyat jamiyati, insonning o'zi va uning ruhiy, ma'naviy hayoti hammasi o'zaro bog'lanishda, munosabatda, shu bilan birga o'zgarishda, harakatdadir.

Albatta, falsafa fani insonning bilish jarayonini har tomonlama, ilmiy ravishda tushuntirib beradi. Inson o'zini o'rab olgan muhitni, dunyoni qanday biladi? Bu savol uzoq asrlardan buyon olimlarni o'ziga jalb etib kelgan. U hozirda ham kishini qiziqtiruvchi savollardan biridir. Olamda qotib qolgan, o'zgarmaydigan, yangilanmaydigan narsa, hodisa yo'q. Demak, biz atrofimizdagi predmet, hodisalar o'zgarishi, harakati asosida yotgan qonunlarning avvalo obyektiv, inson xohishidan tashqarida, unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud ekanligini e'tirof etishimiz zarur. Bu masalada falsafa tarixidan turli fikrlar o'rtasidagi o'zaro tortishuvlar hamon davom etmoqda.

Sababi, falsafa, universal ilmiy bilimlarning o'ziga xos tizimi bo'lib, u birinchidan, insonning borliqni aql yordamida idrok etishi, ikkinchidan, inson ongining rivoyat va mif-afsonalar asosidagi shakllardan butkul ajralib chiqish jarayoni hosilasidir. Chunki, xayolparastlik va afsonaviy fikrlash tarzidan voz kechish insonning borliqdagi ilmiy bilimlarni egallashi orqali hosil bo'ladi va bu o'z navbatida insonning falsafiy dunyoqarashini shakllantiradi.

Qadimgi dunyo falsafasining vujudga kelishida afsonaviy va diniy qarashlar juda katta rol o'ynagan. Ammo, olam, uning rivojlanishi, qonunlari haqidagi nazariya va ta'limotlar ko'proq tabiiy-ilmiy bilimlar, astronomiya, matematikaga tayangan. Dastlabki matematik, tabiiy-ilmiy bilimlar eng qadimgi sivilizatsiya markazi bo'lgan Shimoliy Afrika, Yaqin va Uzoq Sharqda hamda Markaziy Amerika, Janubiy-sharqiy Osiyoda vujudga kelgan va umumlashtirilgan.

Sharq qadimdan ilm-fan rivojlangan va yuksak cho'qqilarga erishgan hudud hisoblangan. Natijada milliy davlatchilik, madaniyat, qadriyat, sharqqa xos dunyoqarashning noyob tarixiy, ijtimoiy-falsafiy manbalari yaratilgan.

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 34146

Kishilik jamiyatining falsafiy g'oyalari rivojlanishida Sharq falsafasining o'rni alohida bo'lib, uning tarkibiy qismi hisoblangan. Markaziy Osiyo mintaqasi o'ziga xos ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan ajralib turadi. Bu hududdan yetishib chiqqan mutafakkirlar, faylasuflar, adabiy muhit namoyondalari, ma'rifatparvarlar falsafiy qarashlarini zamonaviy nuqtayi nazardan tahlil etish bugun dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Inson o'zaro va ijtimoiy munosabatlardagina inson bo'la oladi. Bu munosabatlarni yuzaga keltirgan narsa - mehnat, ishlab chiqarishdir. Demak, inson o'z mohiyati bilan ijtimoiydir. Shuning uchun unga xos bo'lgan barcha ruhiy holat va jarayonlar ham ijtimoiy hayot ta'sirida vujudga keladi. Inson o'z amaliy faoliyati jarayonida ehtiyojlarini qondirish uchun tabiat bilan munosabatga kirishib, tabiiy predmetlardan ishlab chiqarish qurollari yasay boshlaydi, ularni o'z manfaatlariga bo'ysundirib boradi. Bu esa o'sha predmetlar xususiyatini bevosita bilish, o'rganish va bu bilimni miyada saqlab qolish, undan amaliy faoliyatda foydalanish imkoniyatini va zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Demak, inson bilimining boshlanishi amaliy faoliyat, ijtimoiy tajribadir. Inson o'z amaliy faoliyati natijasida o'zini o'rab olgan predmet, hodisalarni bilib oladi va mehnat jarayonida bilimlarini boyitib, mukammallashtirib boradi.

Insonni katta va kichikligi jonli va jonsizligi, yumshoq va qattiqligi, chekli va cheksizligi, harakatchanligi va harakatsizligi, soddaligi va murakkabligi, to'qligi va ochligi, rangsizligi va rangliligi, go'zalligi va xunukligi, yaxshiligi va yomonligi, foydaliligi va foydasizligi, halolligi va haromligi, aqlliligi va axmoqliligi kabi xususiyatlari bilan bir biridan farq qiluvchi behisob narsalar, voqealar, hodisa va jarayonlar qurshab turadi. Buni odamlar borliq deb atashadi. Demak, borliq odamzodni o'rab turgan barcha narsa,voqea, hodisa va jarayonlami umumiy tarzda ifodalovchi falsafiy tushuncha hisoblanadi.

Insonning shaxs sifatida kamolotga yetishishida hayotiy tajriba va falsafiy tafakkur muhim ijtimoiy mezon sanalib, unda borliqning butun qiyofasi va ijtimoiy muhitning g'oyalar tizimi mujassam bo'ladi. Shaxs turmush tarzi an'analarining o'zi ham hayot falsafasiga asos bo'lib, amaliy dunyoqarashlar tizimini shakllanib borishida asosiy vosita sifatida qaraladi. Bunda asosan insonning tajribalari asosiy ahamiyatga ega bo'lib, insoniyat erishgan yutuqlarning mantiqiy tahlillari natijasida mustahkamlanib boradi.

Jamiyatda har bir shaxsning o'z falsafasi rivojlanib boradi. Dunyoqarash jamiyatda oddiy kundalik turmush tarzida chuqur singmagan va ilmiy asoslanmagan stixiyali xarakterga ega hisoblanadi. Shu boisdan, ko'p vaziyatlarda kundalik tafakkur masalalarini to'g'ri tushunish hamda baholab borishga ojizlik qilishi ham ko'zga tashlanib qoladi.

Inson o'zining birlamchi bilimlarini tashqi olamdan oladi. U ko'pgina turli-tuman vosita va usullar bilan ta'minlanganki, idrok, sezgi, xotira, tasavvur, mantiqiy tafakkur, aql, nutq orqali voqelikni o'zlashtira boradi. Aynan shu vositalar tufayli inson ilm-fanni yaratadi. Bilish jarayoni cheksiz bo'lib, u inson jonli mushohadasi va aql-zakovatining bilmaslikdan bilishgacha bo'lgan o'ta murakkab va mashaqqatli yo'lni qamrab oladi. Bu yo'nalish hodisalar oqibatini anglashdan uning sababini bilishni, hodisadan mohiyatga, aksidensiyadan substansiyaga yetib borishni maqsad qilib qo'yadi.

Bilish jarayoni tashqi olam ashyolarining sezgi a'zolariga bevosita ta'siri tufayli paydo bo'lgan tashqi ruhiy kuch-quvvatlardan boshlanadi. Bunday quvvatlar aslida beshta bo'lib, ular sezgi, ta'm bilish, hid sezish, tovushlarni eshitish, ko'rish kabilardan iboratdir. Olamni bilish muammosining millatimizga xos falsafiy tahlili, avvalo, qadimgi naqllar, rivoyat, afsona, hikoyat va dostonlarga, ya'ni, xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Ularda dunyoning mifologik manzarasi xilma-xil talqinda o'z ifodasini topgan. Ushbu dunyoqarashda umumbashariy va umuminsoniy masalalarga ko'proq e'tibor berilgan,ularning mohiyati, mazmuni turlicha talqin qilingan. Ibtidoiy kishilar o'zlarini o'rab turgan olam to'g'risida o'ylaganlarida, miflar, afsona, rivoyat, hikoyat yoki dostonlar so'ylaganlarida borliqni yaralishi, olamdagi voqea-hodisalar, koinot va odamzot o'rtasidagi aloqalari, inson ongi, dunyoqarashi va tafakkurining mazmuni kabilarga alohida e'tibor berganlar, ularning ahamiyatini turlicha izohlaganlar. Borliqning o'z tajribalari natijasida bilib olingan qonun-qoidalari, narsa va hodisalarning anglangan qismlaridan foydalanganlar, anglanmagan, tushunmagan qismini ilohiylashtirganlar.

Olamni anglash mavzusi dastlabki, diniy dunyoqarashlar va ularning eng qadimgi shakllarida ham o'z aksini topgan. Har bir din o'ziga xos bilish va haqiqat deb ataladigan dalil va xulosalar tizimiga ega. Ular bir-birlaridan ana shu tizim bilan ham farqlanadilar. Ularning har biri borliq, inson ongi va dunyoqarashidagi haqiqatlarga asoslangan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada ana shu va shu kabi va boshqa qator savollarga baholi qudrat javob berishga harakat qilingan. U falsafa sohasida bilim olayotgan talabalar, tadqiqotchilar va izlanuvchilarga mo‘ljallangan. Ushbu darslikda «Falsafa» tushunchasi, uning tarkibiy qismiga kirivchi fanlar, olamni anglash usullari, haqiqat va unga erishish yo‘llari, olamni anglashda nazariya va amaliyot uyg’unligi, ijod va intellekt kabi muammolar va ularning yechimlariga bag’ishlangan masalalar bayon etilgan. Shu sohadagi ma’lum bo‘lgan bilimlarni umumlashtirish, dalillarni to‘plash. izohlash, ularni o‘quvchilar diqqatiga havola qilish, mavjud muammo va masalalarni ko‘rsatish ushbu kitobdan ko‘zlangan maqsadlar qatoriga kiradi.

1-mavzu. Falsafa va uning jamiyat hayotidagi roli.

Reja:

1. *Falsafa atamasining kelib chiqishi va mazmuni.*
2. *Dunyoqarashning mohiyati, tuzilishi va tarixiy shakllari.*
3. *Fan – ilmiy dunyoqarash shakli, falsafa va fan mutanosibligi.*
4. *Falsafa fanining predmeti, jamiyat hayotidagi roli va funksiyalari.*

Tayanch iboralar: *Falsafa, falsafa fani, dunyoqarash, olam-odam, umuminsoniy ma'naviy qadriyat, falsafa – fan, tadqiqot ob'ekti, predmeti, bahs mavzusi, muammolari, umumnazariy falsafiy fanlar, ontologiya, gnoseologiya, metodologiya, ijtimoiy falsafa, maxsus falsafiy fanlar, falsafaning umumbashariy mohiyati, falsafa fani funksiyalari.*

“Falsafa” atamasi haqidagi asosiy tushunchalar. “Falsafa” so‘zi yunoncha “filosofiya” atamasidan olingan bo‘lib, *“donishmandlikni sevish” (“phileo”* - sevaman, *“sopia”* - donolik) degan ma’noni anglatadi. Bu so‘z dastlab taxminan milloddan oldingi VI asrda yashagan taniqli matematik olim Pifagor tomonidan ishlatilgan va Yevropa madaniyatiga qadimgi yunon faylasufi Aflotun (mil.av.427-347 y.) asarlari orqali kirib kelgan.

Tarixchi olim Laertskiy Diogen (milloddan avvalgi II asri oxiri III asr boshi) tadqiqotlariga ko‘ra, birinchi marta falsafa so‘zini ishlatgan va o‘zini birinchi faylasuf deb atagan olim bu *Pifagor*dir. Pifagor faylasuf kimligini shunday tushuntirgan: «Hayot o‘yinga o‘xshaydi: ba’zilar unga musobaqalashgani kelsa, ayrimlar savdolashgani, eng baxtlilari esa tomosha qilgani keladilar; hayotda ham xuddi shunday, ba’zilar qullar kabi shuhrat va boylikka o‘ch bo‘lib dunyoga keladi, vaholanki, faylasuflar - *faqat haqiqat uchun keladi*».

Falsafaning predmeti bo‘lgan borliqning promateriyasi (birlamchi asosi, boshlanishi) va vujudga kelish sabablari, olam tuzilishining ratsional (ilmiy, aqlga asoslangan) bilishga, yashashning mohiyati, o‘lim, ruh muammolari, inson hayotining mazmunini anglashga urinish falsafaning obro‘sini barcha “fanlarning shohi” darajasiga chiqarib qo‘ygan edi. Faylasufning sinchkov aqli tabiiy va ijtimoiy hayotning barcha burchaklariga kirib boradi. Bu yerda yana bir bor shuni ta’kidlash kerakki, eng umumiy, eng keng qamrovli, muhim

muammolar va masalalar tom ma'nodagi falsafaning bahs mavzulari-predmeti hisoblanadi. Dastlab olamning ratsional anglashga harakat qilgan barcha kishilarni faylasuflar, birinchi fanni esa falsafa deb atashgan. Shu sababli bugungi kunda ham katta ilmiy yutuqlarga erishgan ilm ahliga, masalan, *"matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori", "tibbiyot bo'yicha falsafa fanlari doktori"* kabi ilmiy unvonlar berilib, uning falsafaning «fanlar otasi» maqomi ajdodlardan avlodlarga o'tgan holda saqlanib kelmoqda. Falsafa fan sifatida aniq ilmiy fanlar bilan yaqinlashar ekan, o'zining holatini mantiqiy jihatdan asoslash, isbotlash, ularni nazariy shaklda ifodalashga harakat qiladi. Aniq ilmiy bilimlar obyektiv bo'lib, insonning maqsadlari va qadriyatlariga nisbatan betaraflik kasb etadi. Masalan, fizika va kimyo formulalari axloqiy qadriyatlar jumlasiga kirmaydi.

Falsafaning kelib chiqishi. Dastlabki falsafiy ta'limotlar miloddan avvalgi VII va VI asrlarda bir vaqtning o'zida har xil mintaqalar - Hindiston, Xitoy, Yunonistonda, Turonda paydo bo'lgan. Dastlabki inson va jamiyat to'g'risidagi qadimgi qarashlarda ildiz otgan falsafiy donishmandlik an'anaviy turmush tarzini tanqidiy tahlil qilishning ifodasi bo'lib, uning birinchi kurtaklari kundalik, an'anaviy, patriarxal hayotning adolatligi va haqiqiyligiga shubha bilan qarashlar asosida paydo bo'lgan edi. Umuman, falsafa mifologik-diniy ongning usullari tabiiy va ijtimoiy voqelikni tushuntirishga qurbi yetmay inqirozga uchragan davrida haqiqiylikni umumiylikdan, asillikni yasamalikdan ajratish, mustahkam dunyoqarashni yaratish va yangi hayotiy yo'nalishlami aniqlash zaruriyati tufayli vujudga kelgan. Bu vazifalami hal etishga bo'lgan urinish esa, o'z navbatida dunyo va odam to'g'risida o'zaro qayta birlashishi natijasida paydo bo'lgan va faoliyat yuritayotgan fanlar tizimidir.

Falsafaning jamiyat va inson hayotidagi amaliy ahamiyati:

- olamning eng umumiy qonunlari va tamoyillarini bilish.
- olamda o'zining tutgan o'rnini va umrining mazmunini anglash.
- haqiqiy hayotiy qadriyatlarni ajrata bilish va shunga qarab o'z hayotini tashkillashtirish.
- dialektik tafakkur tarzini egallash, ya'ni hayotning barcha qarama-qarshiliklarini anglash va ular orasidan to'g'ri yo'lni tanlash.
- o'zining barkamolligini ta'minlash yo'lida falsafiy aql-zakovatni ishga solish. O'zining ichki ma'naviy dunyosini har xil hayotiy «taqdir zarbalari»ga bardoshli qilib chiniqtirishni mustahkamlash.

- hozirgi zamon bilimlarini puxta o'zlashtirgan holda, uning kelgusidagi istiqbollarini ko'ra bilish bilan belgilanadi.

Asrlar davomida kishilarning borliq haqidagi bilimlari tafovutlar va mutanosibliklar bilan bog'liq holda rivojlanib kelmoqda. Rivojlanishning asosiy omili sifatida jahon tajribasidan foydalangan holda milliy taraqqiyot yo'lini to'g'ri tanlash, kishilarning ongini zamonaviy dunyoqarash bilan boyitish, ratsional tafakkur qilish qobiliyatini shakllantirishni ko'rishimiz mumkin.

Falsafa, universal ilmiy bilimlarning o'ziga xos tizimi bo'lib, u, **birinchidan**, insonning borliqni aql yordamida idrok qilish, **ikkinchidan**, inson ongining rivoyat va mif-afsonalar asosidagi shakllardan butkul ajrab chiqish jarayoni xosilasisidir. Bu ikki xususiyat bir-biri bilan tizimli dialektik bog'liqdir. Chunki, havoyi xayolparastlik va afsonaviy fikrlash tarzidan voz kechish insonning borliqdagi ilmiy bilimlarni egallashi orqali hosil bo'ladi va bu o'z navbatida insonning falsafiy dunyoqarashni shakllantiradi.

Falsafani o'rganish **"dunyoqarash"** tushunchasining mazmunini bilib olishdan boshlanadi. Dunyoqarashda butun olamning mohiyati va xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar va ularning yechimi to'g'rsida fikr yuritiladi. Bu muammolar olamning kelib chiqishi, uning nechtaligi, tuzilishi, tashqi shakli, o'zgarish va rivojlanish qonuniyatlari, katta kichikligi hamda nimadan tashkil topgani va shu kabi murakkab ilmiy-nazariy masalalarni o'z ichiga oladi.

Dunyoqarash tushunchasi. Har bir insonning o'zini o'rab turgan turfa olam - dunyoga nisbatan qarashlari bo'ladi. O'zbek tilida **"Dunyo"** [arabcha- jahon, olam] so'zi quyidagicha:

1) butun borliq; koinot, olam;
2) Yer yuzi va undagi barcha odamlar, insoniyat;
3) Yer yuzi, undagi barcha qit'alar, mamlakatlar;
4) hayot, tiriklik;
5) kishilaming ma'naviy, ruhiy olami, hayoti.

Demak, *dunyoqarash - bu "dunyo" so'zidan olingan bo'lib, individ, shaxs, katta va kichik jamoalar, elat, millat, xalqlarning - butun dunyoga, unda o'zining egallagan o'rniga, atrofidagi real voqelikka, ulaming ayrim voqea-hodisalariga bo'lgan ilmiy, mafkuraviy, ma'naviy, ilohiy qarashlar tizimidir.*

Falsafiy adabiyotlarda ko'pincha "dunyo" va "olam" atamalari sinonim so'zlar sifatida qo'llaniladi. Chunki, "olam" so'zi ham arabcha bo'lib, odatda dunyo, jahon, koinot, xalq, omma ma'nosini anglatadi.

Dunyoqarash tushunchasi birinchi bo'lib XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida nemis mumtoz falsafiy adabiyotida qo'llanilgan. Bu nemischa "tafakkur" yoki "qarash", degan ma'noni anglatadi. XIX asrning o'rtalarida "dunyoqarash" tushunchasi falsafa predmetini yanada aniqroq aniqlash muammolarini hal qilish bilan bog'liq edi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, dunyoqarash "falsafa" va "metafizika" so'zlarining sinonimi sifatida ishlatiladi.

"Dunyoqarash – olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir"[1]. Inson ruhiyatining bunday tuzilishi uning uchun maqbul bo'lgan fikrlar, g'oyalar, harakatlar va me'yorlarni o'zida birlashtiradi. Bu tushunchalarning birligi bevosita odamlarning olam haqidagi tasavvurlari jamlanmasi bo'lib, zamonaviy g'oyalarni birlashtirishga keng yo'l ochadi. Faylasuf olima N.A.Shermuhamedova "Dunyoqarash bilim, e'tiqod, ishonch, orzu-umidlar, kayfiyat, norma va ideallar o'zaro uyg'un holda mujassam bo'ladi. Umuman olganda dunyoqarash tizimini bilish, qadriyatli-normativ, axloqiy va amaliy komponentlar tashkil qiladi"[2], degan ta'rifni beradi. Dunyoqarashning inson faoliyatida faqatgina aniq maqsadlarga qaratilishi va boshqa mavjudotlardan farqli ravishda butun olamni boshqarishi muhim ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham inson borliqni o'zlashtirish jarayonida turli ko'rinishdagi voqea-hodisalardan o'ziga xilma-xil hayolotlar olamini yaratib, o'z dunyoqarashini kengaytirib boradi.

Dunyoqarashning asosiy xususiyatlari. Dunyoqarash inson tafakkurining atributi sifatida o'ziga xos xususiyatlarga egadir[3]. Dunyoqarashning birinchi muhim xususiyati shundan iboratki, bunda butun olam bilan bog'liq bo'lgan muammolarning nazariy yechimini amalda isbotlab bo'lmaydi. Masalan, olamning makon va zamonda cheklangan va cheklanmaganligini amaliyotda isbotlash amri maholdir. Shuning uchun ham, bu muammolarni yechishda turli va qarama-qarshi xulosalarga kelish tabiiy holdir. Falsafa tarixiga nazar tashlasak, Qadimgi Xitoy falsafasida butun borliq to'g'risidagi qarashlarda "dao" olamdagi barcha narsalaming bosh ibtidosi va intihosidir.

[1] Nazarov Q. va boshqalar. Falsafa asoslari. T.: O'zbekiston. 2005, 18-bet.
[2] Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. T.: Noshir. 2012, 6-bet.
[3] Atribut [lotipcha attributum — qo'shib berilgan, ta'minlangan, qo'shimcha qilingan. Predmet yoki hodisaning o'ziga xos, undan ajratib bo'lmaydigan eng muhim xarakterli xususiyati, belgisi.

Shu bilan birga "dao" butun olamning umumiy qonuni va yo'li. Olamdagi barcha e'tiqod, faoliyat, hayot normalari muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoqarashga yarim funksionallik xos bo'lib, uning asosini odamning dunyo sir-asrorlarini bilishda fizio-psixologik mexanizmlar orqali mo'ljal olishi tashkil qiladi. Bunda so'z inson ma'naviy dunyosining hissiyot, aql, erk va ularning birgalikda harakat qilishi haqida ketmoqda. Shunga ko'ra, dunyoqarashning tarkibiy qismlariga quyidagilarni kiritish mumkin bo'ladi.

Dunyoqarashning tarkibiy qismlari:

dunyoni sezish - bu insonlarning borliqdagi real mavjud narsa va hodisalarni sezgilari orqali his etishi bo'lib, dunyoqarashining ruhiy – emotsional komponentidir;

dunyoni idrok etish – insonlarning borliqni orttirgan tajribasi tufayli timsoliy idrok etishi bo'lib, dunyo haqida tasavvurlarning shakllanishidir;

dunyoni tushunish - dunyoning mohiyatini, undagi narsa va hodisalarning o'zaro aloqalarini bilib olish bo'lib, dunyoqarashning intellektual darajalaridan tashkil topgan bo'ladi.

Dunyoqarashni ob'yektiga ko'ra ikkiga ajratimiz:

a) Individual dunyoqarash;

b) Ijtimoiy dunyoqarash;

Individual dunyoqarash deb dunyo to'g'risida bir kishiga yoki alohida shaxsga xos bo'lgan qarashlarga aytiladi. Uning sohibi - bu konkret odam hisoblanadi. Masalan, talaba S.Nasimovaning dunyoqarashi individual dunyoqarashlar jumlasiga kiradi.

Ijtimoiy dunyoqarash deb dunyo-olam haqida mehnat va xizmat jamoalari, ijtimoiy guruhlar, partiyalar, elat, millat, xalqlar, xullas, butun jamiyatga xos bo'lgan qarashlar tizimiga aytiladi. Masalan, bunga, O'zbekistondagi siyosiy partiyalarning dasturlarini kiritish mumkin.

Jamiyatda turli etnoslar, xalqlar dunyoqarashidan kelib chiqib, shu sotsium a'zosining ham individual dunyoqarashi shakllanadi. Bu o'zida insonning shaxs sifatidagi identifikatsiyani, o'ziga xos mentalitetni, milliy turmush tarzini, axloqiy tafakkurining o'ziga xosligini, o'zini o'rab turgan atrof- muhitda o'z-o'zini anglab borish kabi dunyoqarashlar tizimini saqlaydi. Individual dunyoqarashlar yig'indisidan ijtimoiy dunyoqarash yuzaga kelib, ijtimoiy dunyoqarashda umumiy hamda xususiy shakllar ham muhim o'rin tutadi.

Dunyoqarash o'zining boshqaruvchanlik funksiyasi orqali har bir davr ruhiyatida odamlarni yangilikka chorlaydi va o'zining rolini mustahkamlab boradi.

Bu yuqoridagi tarkibiy qismlar, bir butunlikni tashkil qilib, insonning real hayotida u yoki bu darajada o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi.

Dunyoqarashning komponentlari. Dunyoqarashni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish orqali uning to'rtda substansional komponenti mavjudligini ko'rish mumkin.

Bilish komponenti. Bu asosan odamlaming har kuni olgan oddiy ma'lumotlari, shuningdek, professional aql-zakovati, ilmiy izlanishlari orqali hosil qilingan individual va ijtimoiy bilish natijalarini tizimlashtirish orqali dunyoning ilmiy universal va konkret-ilmiy manzarasini tasavvur etishga asos bo'ladigan tarkibiy qismidir.

Me'yoriy - qadriyatlar komponenti. Dunyoqarash bu insonga xos bo'lgan ideal, maqsad, e'tiqod, vijdon, ishonch kabi sotsiumni tartibga solib turuvchi imperativlar, me'yoriy qadriyatlar tizimidan iboratdir.

Hissiy-idrok komponenti. Bilim, qadriyat va o'rnatilgan me'yorlarni amalda bajarish uchun eng avvalo, ularni har bir odam chin qalbdan his etishi orqali o'zining ishonchiga, maslagiga aylantirishi, shundan so'ng esa biron bir harakatlami sodir etishi uchun hissiy-ruhiy jihatdan tayyor ekanligiga ko'rsatma berishi kerak bo'ladi. Shakllangan ana shu hissiy-idrok jarayoni dunyoqarashning tarkibiy tuzilishidagi muhim qismlardan biri bo'lib, u siz dunyoqarash yetarlicha shakllanmay qoladi.

Amaliy komponent. Dunyoqarash bu shunchaki bilim, qadriyat, ishonch va boshqalarning umumlashmasigina emas, balki insonning muayyan sharoitda o'zining xulq-atvoriga qarab amalda harakat qilishi, odamlarning hayotiy tajribasidan olgan bilimlaridir. Shuning uchun ham xalqimiz orasida "Qari bilganini pari bilmas" va "Qari bor uyda pari bor", degan gaplar bejiz keng tarqalmagan. Xalqimizning bir necha ming yillik hayotiy tajribasidan kelib chiqqan dunyoqarashga taalluqli nihoyatda boy va nodir fikrlari mavjud. Respublikamiz mustaqil va suveren davlat bo'lishi tufayli xalqimiz bunday ziyo va durdona aql sarchashmasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu bilan birga ulug' avlod-ajdodlarimiz bizga nihoyatda katta ma'naviy boylik qoldirib ketgan.

Biz an'anaviy tarzda dunyoqarashni mifologik, diniy, falsafiy va ilmiy dunyoqarashga bo'lib o'rganamiz.

Mifologik dunyoqarash. Miflar insoniyat tarixining ilk bosqichlarida, odamlar madaniyati, xulq-atvori va jamiyatdagi o'zaro munosabatlarini tartibga solish funksiyasini bajargan. Miflarda diniy bilimlar, e'tiqodlarning turli elementlari, ijtimoiy hayot, san'atning dastlabki kurtaklarini tizimlashtirgan ibtidoiy kishilar dunyoqarashini in'ikosidir.

Mifologik ong o'zining sinkretikligi - qorishiqligi, birlashganligi, qism va bo'laklarga ajralganligi bilan farqlanadi. Afsonalarda diniy ishonch, ilmiy bilimlar kurtaklari, falsafa, san'at, siyosiy va ijtimoiy qarashlar murakkab tarzda o'ylab topilib, talqin qilinadi. Afsonalaming ifodalanish shakllari ko'pincha sezgi-shoirona tarzda bo'lib, ularda aql-idrok tushunchasi hali shakllanmagan bo'ladi. Afsonalarda taqqoslash, kinoya, o'xshatish, ishoralardan tez-tez foydalaniladi.

Ijtimoiy hayotda faqat voqelikni anglash va maqsadli takomillashtirish, shunchaki an'analarga, marosimlarda, qaror topgan xulq-atvor me'yorlari va qadriyatlarga tayanish mifologik ongga xosdir. Shu bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va tartibga solish amalga oshiriladi.

Shunday qilib, *mifologik dunyoqarash (grekcha "mifos" - afsona, ertak va "logos" – tushuncha, ta'limot) - bu ibtidoiy odamlarning tevarak- atrofini qurshab turgan voqelikni naql, rivoyat, afsonalar shaklida jonlantirilgan obrazlar vositasi orqali tasavvur qilishi va shu asosda tushuntirilishidir.* Bunday holat, *birinchidan,* ibtidoiy odamning o'zini hali o'rab turgan tabiiy muhitdan ajratmaganligi, *ikkinchidan* esa, ibtidoiy odam tafakkurining emotsional-ruhiy holatlardan aqliy bilishga aniq ajralmaganligi bilan ifodalanadi.

Diniy dunyoqarash. Diniy dunyoqarash insonning g'ayritabiiy narsa va hodisalar (xudolar, tushunarsiz holatlar, qandaydir mutloq, "oliy aql") ga bo'lgan e'tiqodiga asoslanuvchi tegishli xulq-atvori va o'ziga xos harakatlaridir.

Diniy dunyoqarash borliqni yaratuvchisi haqidagi tasavvurlar va yakka xudolik dinlari paydo bo'lganidan so'ng shakllangan turi hisoblanadi. Biz bu dunyoqarash turi insonning voqelikka ilohiy kuch nuqtai nazaridan yondashish orqali shakllanganligini ko'rishimiz mumkin.

"Uning asosini din tashkil etib, voqelikni inson ongidagi fantastik in'ikosi va e'tiqodidan iborat bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanadi"[4]. Unda inson mavhumlik, transsendentga murojaat qiladi, o'zini kelib chiqishi, ikki dunyo haqidagi haqiqatni bilishga, haqiqiy hayot haqidagi dogmatik (qotib qolgan) qarashlarini shakllantirgan. Buning natijasida tashqi muhitdagi g'ayritabiiy kuchlarga nisbatan ilohiy nuqtai nazardan munosabatning shakllanishi namoyon bo'ladi. Nima savob, nima gunoh, narigi dunyo qanday ko'rinishga ega, odamlar bu olamda qachongacha umr kechiradi va hokazolar. Bu savollarga javobni, albatta, ilohiy kitoblarni mag'zini chaqib bilib borgan.

Falsafiy dunyoqarash. Mifologik dunyoqarashdan ta'sirlangan, kerak bo'lsa, oziqlangan sintetik dunyoqarash bu falsafiy dunyoqarashdir. Mifologik dunyoqarashdan farqli o'laroq inson aql-idrokiga tayanadigan, olamning mohiyatini bilishga intiladigan, fikrini mantiqiy izchiligini argumentlashtiradigan dunyoqarash shakllandi. Bu dunyoqarashga xos xususiyatlar gumon qilish, ishonchsizlik, shubhalanishdir. Ushbu dunyoqarash natijasida dunyo, olam va odamning axloqi va go'zalligi haqidagi qarashlar shakllandi. Inson dunyodan zavq olishi, go'zallik yaratuvchisi ekani ta'kidlandi.

Jamiyatda har bir shaxsning ulg'ayib borishi natijasida hayotga nisbatan fikrlari o'zgaradi, yoshiga nisbatan o'zi va boshqalarni tasavvur etishi, dunyo to'g'risidagi xulosalari hamda tasavvurlari kengayib boradi. Shu o'rinda, dunyoqarashni insonning o'rab turgan tevarak-atrofidagi voqelik to'g'risidagi, borliqning yaratuvchisi va bosh ibtidosi to'g'risida, narsa va hodisalarning olamda egallab turgan o'rni, har bir predmetning voqelikda namoyon bo'lish yo'llari, g'oyaviy-e'tiqodiy tushunchalarning paydo bo'lish zamiri sifatida talqin etish mumkin. Bu tushuncha o'zining keng qamrovli mohiyati bilan inson tafakkur doirasining xilma-xil badiiy obrazlarini hosil qiladi va odamlarda estetik ideallarni shakllantirishda o'zining alohida o'rnini namoyon etadi. Shu boisdan ham dunyoqarash har bir inson bolasining tug'ilganidan boshlab to umrining oxiriga qadar rivojlanib boradigan bilimlarning banki sifatida hamisha yillar davomida yangilanib, turli ijtimoiy munosabatlar uyg'un holda o'zining amaliy faoliyati, turmush-tarzi, tabiatga bo'lgan ta'siri hamda xo'jalik mashg'ulotlari jarayonida yuzaga keladi. Tarixiy jarayonda har bir davrning ijtimoiy hayotida dunyoqarashning mavjudligi bu atamaning tarixiy mohiyat kasb etishini anglash mumkin.

[4] Yusubov D.A., Saitxodjayev A.A., Mavlyanov A.A. Falsafa. – T: O'zR IIB Akademiyasi, 2012. 27- bet.

Insonning shaxs sifatida kamolotga yetishishida hayotiy tajriba va falsafiy tafakkur muhim ijtimoiy mezon sanalib, unda borliqning butun qiyofasi va ijtimoiy muhitning g'oyalar tizimi mujassam bo'ladi. Shaxs turmush tarzi an'analarining o'zi ham hayot falsafasiga asos bo'lib, amaliy dunyoqarashlar tizimini shakllanib borishida asosiy vosita sifatida qaraladi. Bunda asosan insonning tajribalari asosiy ahamiyatga ega bo'lib, insoniyat erishgan yutuqlarning mantiqiy tahlillari natijasida mustahkamlanib boradi. Jamiyatda har bir shaxsning o'z falsafasi rivojlanib boradi. Dunyoqarash jamiyatda oddiy kundalik turmush tarzida chuqur singmagan va ilmiy asoslanmagan stixiyali xarakterga ega hisoblanadi. Shu boisdan, ko'p vaziyatlarda kundalik tafakkur masalalarini to'g'ri tushuninish hamda baholab borishga ojizlik qilishi ham ko'zga tashlanib qoladi.

Falsafiy tafakkur rivojlanish jarayoni insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq hodisalardan hisoblanadi. "Taraqqiyot jarayonida davrlar o'zgarishi bilan unga xos ma'naviy, huquqiy, siyosiy va falsafiy mezonlar ham shakllana boshlaydi. Ammo, bu o'z-o'zidan yuz bermaydi. Ayniqsa, inson tafakkurining o'zgarishi, dunyoqarashning yangicha tamoyillarga ega bo'lishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir"[5].

Ilmiy dunyoqarash. Ilmiy dunyoqarash bu tajribalar, kuzatishlar, aniq ilmiy xulosalarga tayanib amalga oshiriladigan nazariy gepotetik bashoratlar va emperik bilimlarning tizimidir. Bu dunyoqarashning muhim jihati shundaki, uning natijalari deyarli aniq faktik jarayonlar, tabiat hodisalarining doiraviy aylanish me'yorlariga mos tushishi, insonning ongli faoliyatidagi tajribalarning yaxliligini ko'rsati beradi. Bunda borliqdagi har bir zarrachaning yaralishidan tortib, mikro, makro va megaolamlarning paydo bo'lishida ilmiylik birinchi o'rinda turadi. Dunyoqarashning barcha turlarida insonning voqelikka munosabati masalasi asosiy mezon vazifasini bajaradi. Insonlarning dastlabki shakllanish bosqichida afsonalarga asoslangan mifologik dunyoqarash muhim o'rin tutadi. Kishilik jamiyati rivojlanishi jarayonida muayyan axloqiy qoidalar, udumlar, tafakkurida e'tiqodiy tushunchalar, olamning yagona yaratgan egasi bo'lgan ilohning mavjudligi va uning irodasini mahsuli sifatida narsalarning yaralishini, azaldan barcha borliqning unsurlari bitta yaratuvchi faoliyati asosida olamning boshqarilishini (*diniy dunyoqarash*); insonlarning tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlarni

[5] Yusubov D.A., Saitxodjayev A.A., Mavlyanov A.A.Falsafa. – Toshkent: O'zR IIV Akademiyasi, 2012. 33-bet.

mantiqiy tafakkur yordamida tahlil etishini, shaxsning jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini, olamning paydo bo‘lishi va rivojlanishi mexanizmlarini, vaqt va fazoda mavjud holatning dialektik aloqadorligini, ideallarni yaratish va unga intilishni (*falsafiy dunyoqarash*); mavjud voqelikdagi real va noreal hodisalarni o‘rganishni, voqelarni sabab va oqibat zanjiriga bog‘lashni, hayotni oqilona tashkil qilishni, barcha ilmiy bilimlarni ta’lim orqali jamiyatga yetkazishni, institutsional, ratsional, subordinatsiya orqali yondashuvni (*ilmiy dunyoqarash*) o‘rgatdi. Bu dunyoqarash turlarining jamiyatda namoyon bo‘lishi bevosita odamlarda zamonaviy tafakkur tarzining shakllanishiga, ilm-fanning taraqqiy etib borishiga xizmat qildi. Dunyoqarashning hamma turi chuqur ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega, kishilarning tajribalarini o‘zida jamlovchi konstruktiv tizimdir.

Dunyoqarash tushunchasi ham falsafiy kategoriya sifatida nafaqat borliqning mavjudlik jihatlarini o‘zida aks ettiradi, balki unda insonning moddiy va nomoddiy qadriyatlar tizimidagi o‘rnini falsafiy tadqiq etadi. Unda inson tomonidan yaratiladigan ikkilamchi tabiatdagi narsalarning etnomadinyat bilan bog‘lanib ketishi, turli folklor janrlarida tabiatdagi uyg‘onishning estetik dunyoqarash bilan burkanishi kabilar vujudga keladi.

Dunyoqarash tizimi va unga nisbatan mustaqil yo‘nalishlarning har birini falsafiy mulohazaning oydinlashgan shakli sifatida ham tushunish mumkin. Chunki olamdagi narsa va hodisalarning birlamchi va ikkilamchi tabiatda namoyon bo‘lishi borliqning mahsuli sifatida inson bilimlarini tizimlashtiradi. Unda inson borliqning sirlaridan kelib chiqadigan zohiriy va botiniy go‘zalliklar dunyosini ajratib, estetik dunyoqarashning xususiyatlarini ochib beradi.

Dunyoqarashni insoniy munosabatlar asosi sifatida ham ko‘rish mumkin. Sababi har bir inson qanday ko‘rinishda yoki tasavvurda bo‘lmasin, baribir olamdagi muayyan elementlarning shakli, mazmuni, mohiyati, kelib chiqish sabablari, rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy makonda yashash shakli borasida fikr yuritadi. Shu boisdan, u insonlarning borliqqa bo‘lgan munosabatida ham o‘ziga xos estetik ideallar va ijtiioiy normalar ta’sirida ko‘zga tashlanadi. Bunda asosan, insonlar manfaatlari, shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, narsa va hodisalarni, ezgulik-yomonlik, foyda-zarar, savob-gunoh kabi qarama-qarshiliklarni o‘zida jamlagan mezonlarda bo‘ladi.

“Inson mavjudligini, ma’no va maqsadlarini aniqlash, insonning borlig‘i, uning yashash mazmuni va mohiyatini o‘rganish, shu asosda kishilik dunyosiga baho berishga intilish tarixiy-ijtimoiy dunyoqarashning asl mohiyatini belgilaydi”[6].

Dunyoqarashning mazmuni, uning bir qator jihatlari, falsafiy, ijtimoiy- siyosiy, estetik, ijtimoiy fanlar orqali ochiladi. Taniqli rus olimi V.S.Ovchinnikov dunyoqarash hodisasini keng (genetik, mantiqiy, epistemologik, aksiologik) va intensiv (xronologik, mafkuraviy) tuzilmalarga bo‘lishni taklif etgan.

Dunyoqarashning mazmunini o‘rganishning uchta tarkibiy qismi (jihatlari) mavjud:

1) dunyoqarash haqiqatni o‘zlashtirishning tarixiy bosqichlarini belgilashga imkon beradi;

2) dunyoqarashning predmet-mazmun tomonini tavsiflash;

3) uning asosiy elementlarini va shaxsni rivojlantirish jarayonida shakllanish mexanizmi[7].

Mazkur holatlarda insonning borliqqa falsafiy-estetik munosabati undagi narsalar mohiyatini idrok etishda namoyon bo‘ladi.

Hozirgi kunda falsafa tarkibida quyidagi mustaqil sohalar mavjud:

1. **Ontologiya** – borliq mohiyatini, asosiy tamoyillari, shakllarini eng umumiy kategoriyalarini tadqiq qiluvchi ta’limot.
2. **Gnoseologiya**– insonning bilish qobiliyati, umuman, olamni anglash, bilish, inson ongi, tafakkuri qonunlarini o‘rganadi.
3. **Praksiologiya**-(praksis-faoliyat, logos-ta’limot) inson amaliy faoliyati haqidagi ta’limot.
4. **Aksiologiya**- qadriyatlar falsafasi, qadriyatlarni ijtimoiy-falsafiy tahlil etadi.
5. **Falsafiy antropologiya** - inson mohiyati to‘g‘risidagi ta’limot.
6. **Ijtimoiy falsafa** – jamiyat mohiyati to‘g‘risidagi ta’limot.
7. **Futurologiya** (futurum - kelajaki va logos - ma’limot) – keng ma’noda kelajak haqidagi ta’limot.
8. **Teosofiya** (thes - xudo sopha - donishmandlik, bilim) xudoni bevosita bog‘lanish orqali bilish haqidagi ta’limot.
9. **Mantiq** – tafakkur qonunlari va shakllari to‘g‘risidagi ta’limot.
10. **Etika** – axloq to‘g‘risidagi ta’limot.
11. **Estetika** – go‘zallik to‘g‘risidagi ta’limot.

[6] Ashirmatov H., Axmedov I. Tarixiy dunyoqarashning shaxs takomillashuvidagi o‘rni. //http://fikr.uz

[7] Широкова А.В. Духовно-творческое на чало личностии мировоззрение. Автореферат канд.фил.наук. Новгород. 2008. Стр.17-18.

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM № 34146

Bugungi o'zbek falsafasida "Falsafa tarixi", "Ontologiya", "Gnoselogiya", "Ijtimoiy falsafa", "Mantiq", "Etika", "Estetika", "Madaniyatshunoslik" kabi an'anaviy yo'nalishlar bilan bir qatorda, "Ma'naviyat falsafasi", "Inson falsafasi", "Qadriyatlar falsafasi", "Fan falsafasi", "G'oyalar falsafasi", "Siyosat falsafasi", "Huquq falsafasi", "Din va hurfikrlilik falsafasi"[8] kabi sohalarda samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. Keyingi yillarda ularga "Iqtisod falsafasi", "Islohotlar falsafasi", "Axborot falsafasi" singari zamonaviy yo'nalishlar ham kiritildi"[9].

Bugungi kunda falsafaning turli soha va yo'nalishlarida faol institututsional o'zgarishlar bo'layotganligi e'tiborga molikdir. Mamlakatimizda milliy o'zlikni anglash milliy istiqlol mafkurasiniing ilmiy-nazariy va falsafiy asoslari orqali rivojlantirilmoqda. Bu esa bugungi va kelgusi avlod uchun ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixida ulkan meros sifatida baholanadi. Bu meros katta intellektual salohiyat mahsuli bo'lib kelajak avlod uchun ulkan tarixiy ahamiyat kasb etadi: "Odam qancha chuqur bilimga ega bo'lsa, dunyoni yaxshi bilsa, yon atrofda bo'layotgan voqealarni to'g'ri anglay olsa, shundan keyingina unda g'urur-iftixor bo'ladi. Shundagina, juda murakkab, tahlikali davrlarda ham ko'pchilik unga murojaat qilib, maslahatlashadi. Maslahat kimdan so'raladi – avvalambor, salohiyatli odamdan, katta falsafiy bilim va intellektual bilimga ega bo'lgan kishidan"[10].

I.M. Mo'minov mustaqillik yillarida bevosita falsafa yo'nalishida faoliyat olib borgan mutaxassislarni o'zbek falsafa maktabi asoschilari sifatida qayd etadi va izdoshlari va shogirdlarining faoliyatini bir tizimga soldi. Xususan, bu faylasuflar o'z davri o'zbek falsafa maktabida institutsional o'zgarish yasab, keng ko'lamli va tarixiy ahamiyatga molik xizmat ko'rsatganlar. Bulardan biri V.Y.Zohidov (1914–1983)bo'lib, u O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureatidir. V.Y.Zohidov o'z ilmiy faoliyati davomida Markaziy Osiyo mutafakkir va shoirlari Beruniy, Navoiy, Bobur, Ogohiy, Furqat hamda qardosh xalqlar adabiyoti namoyondalari Nizomiy va Abaylarning ilmiy merosini tadqiq etdi.

U madaniy meros va adabiy hayotning muhim masalalariga oid monografiyalar ("O'zbek adabiyoti tarixidan", 1961; "Donolar davrasi",

[8] Nazarov Q. O'zbek falsafasi. – O'zbekiston faylasuflar jamiyati nashriyoti, T.: 2013, 189-bet.
[9] Nazarov Q. O'zbek falsafasi. – O'zbekiston faylasuflar jamiyati nashriyoti, T.: 2013, 190-bet.
[10] Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. 14-jild. –O'zbekiston, T.: 2006, 108-109 bet.

1973; "Nafosat ijodkori", 1980) publitsistik asarlar ("Inson va zamon sadosi", 1961; "Sharqni sharaflab", 1973) muallifi hisoblanadi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, Beruniy nomidagi davlat mukofoti sovrindori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, falsafa fanlari doktori, professor, J.T.Tulenov (1927-2002y.y.) ijodi asosan dialektika va bilish nazariyasi, ilmiy tafakkur uslubi masalalariga bag'ishlangan.O'zbekistonda mustaqillik yillarida nafaqat falsafa tarixiga, balki dialektikaga ham alohida e'tibor qaratildi. Faylasuf J. Tulenovning faoliyati, fanga qo'shgan hissasi yuksak e'tirofga sazovordir. Uning "Hayot falsafasi" (1993) asarida falsafiy bilimning o'ziga xos xususiyatlari siyosat bilan bog'lab o'rganildi. Mamlakat mustaqilligining dastlabki yillarida ijtimoiy-siyosiy tafakkurni shakllantirish uchun falsafani rivojlantirish zarurligi asoslandi. "Mustaqillik va milliy tiklanish" (1996) asarida esa O'zbekiston musaqilligining tarixiy ahamiyati, yangi siyosiy tizimli, ko'p ukladli iqtisodning bozor munosabatlariga o'tishga asoslanganligi, mustaqil davlatning ma'naviy, madaniy va axloqiy asoslarini rivojlantirishda milliy mustaqillik mafkurasining maqsadi va yo'nalishlari aniq yoritilgan. Faylasufning "Qadriyatlar falsafasi" (1998) asarida qadriyatlarimizning mohiyati, ularning turlari (tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, estetik va h.k.) mustabid tuzum davrida milliy qadriyatlar mezonlarining buzilishi, mustaqillik sharofati tufayli millatimizga xos qadriyatlarimizga munosabat o'zgarganligi, shuningdek, milliy tiklanish, millatning o'z-o'zini anglash jihatlari mustaqillikni saqlab qolish omili ekanligini e'tirof etilgan.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, Beruniy nomidagi davlat mukofoti sovrindori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, falsafa fanlari doktori, professor H.P.Po'latov(1928-1993y.y.) falsafa, insonfalsafasi, madaniyat falsafasi, dialektika va bilish nazariyasini rivojlantirishda hissasi katta. Bu olim mustaqillik yillari milliy mafkurasi masalalarini asosli izohlagan. O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, Beruniy nomidagi davlat mukofoti sovrindori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, falsafa fanlari doktori, professor A.Q.Valiyev(1929-2002y.y.)ning ilmiy ishlari O'zbekiston ziyolilarining jahon ilmi, madaniyati va ma'naviyatiga qo'shgan buyuk hissasiga bag'ishlangan. Uning asarlarida O'zbekiston ijtimoiy hayotidagi tub o'zgarishlar tadqiq qilingan.

A.Valiyev 1966 yilda nashr qilingan "O'rta Osiyoda milliy ziyolilarining shakllanishi" nomli asarida totalitar tuzumi hukmronligi avj olgan bir paytda, ishchi, dehqonlar orasidan iqtidorlarini tanlab, milliy rahbar kadrlarni tayyorlash lozim, degan g'oyani ilgari surdi.

Bu asarda turli toifadagi ziyolilar dunyoqarashidagi o'zgarishni, ongi, psixologiyasi va kayfiyatidagi o'ziga xos ziddiyatlarni ochib bergan.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, Beruniy nomidagi davlat mukofoti sovrindori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, falsafa fanlari doktori, professor E.Yu.Yusupov(1929-2003y.y.)ning ilmiy faoliyati ijtimoiy falsafa, mantiq, tarix, siyosatshunoslik, ma'naviyat, mafkura masalalariga bag'ishlangan. U mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq millatlararo munosabatlar sohasida mamlakatda uzoq yillar davomida to'planib, hal etilmay qolgan bir qator muammolar, ularning paydo bo'lish holati, rivojlanish va keskinlashish sabablari, ob'yektiv omillari va sub'yektiv zaminlarini tahlil va talqin qilgan. Shuningdek, E.Yu.Yusupov milliy manfaatlar va milliy munosabatlarning dialektik aloqadorligi, millatlar rivojlanishida ijtimoiy- iqtisodiy muammolar omiliga ham jiddiy e'tibor qaratgan.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti sovrindori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, O'zbekiston falsafa jamiyati Prezidenti, falsafa fanlari doktori, professor. S.Sh.Shermuhammedov(1930-2016y.y.) "Yangilanayotgan jamiyatga–yangi falsafa", "Biz qanday jamiyat qurmoqdamiz?" ,"Inson falsafasi" "Istiqlol quyoshi", "Mustaqil O'zbekiston va falsafaning rivojlanishi" kabi asarlarida yangilanayotgan jamiyat rivojida insonning eng oliy qadriyat ekanligi, milliy g'oya va mafkuraning istiqlolga erishishdagi hamda ahamiyatini tahlil qildi.

Mustaqillik S.Shermuxamedov ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga uning ilmiy faoliyatida yangi, sermahsul davrni boshlab berdi. Olim nafaqat falsafa fanining yangilanish konsepsiyasini ishlab chiqdi, balki mustaqillik g'oyalarini yoshlar ongiga singdirish jarayonida ham faollik ko'rsatdi. Xususan, hayot tajribasiga asoslangan holda markscha-lenincha falsafiy g'oyalarning davr sinoviga bardosh bera olmagani va ularning ijtimoiy- tarixiy amaliyotda o'z tasdig'ini topmaganini isbotlab berdi. Shu bois mustaqil davlatda davr sinoviga bardosh beradigan, milliy ma'naviy merosning yirik namoyandalari ta'limotlari va davrning ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradigan

yangilangan falsafa fanining g'oyalarini yoshlar ongiga yetkazish uchun olimlar bilan hamkorlikda izchil faoliyat olib bordi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti laureati, falsafa fanlari doktori, professor O.F.Fayzullaev (1921-2008 yy)ning ilmiy faoliyati fanshunoslik va inson ma'naviy ravnaqining nazariy masalalari, shuningdek, tabiatshunoslikning falsafiy muammolariga bag'ishlangan.

Taniqli olim O.F.Fayzullayevning ilmiy yo'nalishlar doirasi juda keng qamrovli bo'lib, u 500 dan ortiq asarlar muallifidir. Jumladan, "Problemn protivorechiya v trudax klassikov yestestvoznaniya i filosofii Sredney Azii" (1974), "Chelovek i priroda" (1979), "Nauchnoe tvorchestvo Muxammada al- Xorezmi" (1983), "Yestestvoznanie i filosofiya" (1986), "Nafs, jon va ruh (Qur'on, tasavvuf va fandagi talqinlari)" (2005), "Falsafa va fanlar metodologiyasi" (2006) nomdagi kitoblarida falsafaning dolzarb muammolari tadqiq qilingan. Fan darg'asi O.F.Fayzullaevning ilmiy asarlarida quyidagi dolzarb muammolar yoritilgan:

a) fizikaviy "inersiya" tushunchasi falsafiy kategoriya darajasiga olib chiqilgan;

b) tadqiq qilish, bilish va faoliyatning algoritmik metodining genezisiga oid hamda evolyutsion taraqqiyoti o'rganilgan;

v) Markaziy Osiyo tabiatshunosligida dialektik ziddiyat yaxlit tadqiqot asosda amalga oshirilgan;

g) hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan bir qator Markaziy Osiyo olimlarining jahon tabiatshunosligi rivojiga qo'shgan salmoqli hissasi ko'rsatilgan;

d) faylasuf-mutasavvif ulamolar Shayx Umar Suxravardiy - Shayx Zayniddin Bobolarning genealogiyasini asoslab bergan;

ye) O'zbekistonda fundamental va amaliy fanlar tahlil etilib, ilmiy tadqiqot metodlarining hozirgi zamondagi holati mezonlar asosida o'rganilgan;

j) sinergetikada o'z-o'zini tashkil qiluvchi ikki qismga bo'linuvchi dinamik tizim haqidagi g'oyasini ilgari surilgan;

i) Qur'ondagi nafs, jon va ruh tushunchalari mantiqiy lingvistik nuqtai nazardan tadqiq qilingan.

Falsafaning eng asosiy qismi bo'lgan "Ontologiya" va "Gnoseologiya" yo'nalishlarida XXI asr faylasuflari samarali tadqiqot olib bormoqdalar. Fan falsafasi va metodologiyasi bilan bog'liq bu

sohalarda M.Abdullayeva, B.Turayev, B.Karimov, R.Imomaliyeva, J.Ramatov, Z.Davronov, Sh.Qo'shoqov, I.To'xtarov, Z.Qodirova, K.Tulenova, N.Shermuhamedova, X.Salomova, G.Tulenova kabi faylasuflarimiz tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Ular tomonidan chop etilgan asarlar, ilmiy izlanishlar shu sohaning dolzarb masalalariga e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi.

Falsafiy tadqiqotlarda "Ijtimoiy falsafa" yo'nalishi ham muhim bo'lib, u insonlarni intellektual salohiyatga yetaklovchi, keng imkoniyatli, konstruktiv g'oyaviy maqsadni ko'zlovchi sohadir. Ijtimoiy falsafaning asosiy maqsadi va vazifasi shaxs va jamiyat munosabati masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Mustaqillik yillarida aynan bu sohada ham salmoqli va samarali tadqiqotlar olib borildi. Bu yo'nalishda yetakchilik qilgan O'zMUning "Ijtimoiy falsafa" bo'limi, O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari ahamiyatlidir. A.Valiyev, T.Sharipov, Yo.Toirov, M.Abdullayev, A.Choriyev, A.Jalolov, B.To'ychiev, Q.Nazarov, A.Ochildiev, I.Saifnazarov, S.Mamashokirov, D.Norqulov, Sh.Mamadaliev, J.Yaxshilikov kabi faylasuflar ilmiy tadqiqot olib bordilar.

O'zbekistonda tub islohotlarning boshlanishi natijasida falsafaning yangi yo'nalishi bo'lgan "Ma'naviyat falsafasi" sohasi shakllandi va bu sohada tadqiqotlar olib borildi. Bu sohada o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab darsliklar chop etildi, "Ma'naviyat asoslari", "Vatan tuyg'usi", "Odobnoma" va "Milliy istiqlol g'oyasi" kabi fanlar ta'lim tizimiga joriy etildi. Oliy o'quv yurtlarining bakalavr va magistr yo'nalishlarida asosida kadrlar tayyorlandi, kafedralar tashkil etildi. Bu sohada X. Shayxova, A. Begmatov, S.Otamurodov, M.Imomnazarov, A.Erkayev, M.Abdurahmonov, Q.Nazarov, V.Alimasov, A.Muxtorov, T.Alimardonov, F.Ravshanov, V.Qo'chqorov, Sh.To'rayevlar faoliyat olib bordilar.

Jamiyat hayotining barcha sohalarida ijtimoiy-siyosiy islohotlar amalga oshiririldi. Bu xalqimizning dunyoqarashi, kundalik hayotida namoyon bo'layotgan axloqiy tamoyillarning taraqqiyotiga yo'l ochmoqda. Kishilik jamiyati vujudga kelgan dastlabki davrlarda odamlar munosabatini tartibga soluvchi qonunlar hali bo'lmagan vaqtlarda ham bu vazifani axloq qonun- qoidalari intuitiv asosda yo'lga qo'ygan. Shuning uchun, axloqinson ma'naviyatining o'zagi ekanligi bejiz emas. Ijtimoiy-ma'naviy islohotlar xalq va ayniqsa,

yoshlar axloqiy tasavvur va tushunchalariga ta'sir etmoqda. Shu tariqa ma'naviyat va ma'rifatni birlashtiruvchi axloq madaniyati shakllanmoqda va rivoj topmoqda. Demak, islohotlar falsafaning tarmog'i bo'lgan "Etika" fani taraqqiyotida institutsional o'zgarishlar qilinmoqda. "Etika" fani milliy axloqiy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar negizida taraqqiyot yo'liga kirdi. Mustaqillik yillari "Etika" tarixi va nazariyasiga oid tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi.

Mustaqillikni mustahkamlash va kelajakda buyuk davlatni barpo etishda "Estetika" fani yo'nalishida ham institutsional o'zgarishlar bo'lmoqda. Estetik tafakkuri va madaniyati rivojlangan xalq o'z tarixi, ma'naviy merosi va ijtimoiy taraqqiyotiga befarq bo'lmay, hayoti va faoliyatini Vatan rivoji va istiqboli bilan chambarchas bog'laydi. Inson o'zini millat va mamlakat oldidagi burchi,
ijtimoiy tarixiy hayoti chegarasidan yiroqda tasavvur eta olmaydi.

Mustaqillik yillarida "Estetika"ning estetik madaniyat (M.Abdullayev), estetik qadriyatlar (T. Mahmudov), estetika tarixi (A. Qurbonmamedov) kabi yo'nalishlarda salmoqli ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Keyingi yillarda shu muammolar T.Mahmudov, M.Nurmatov, E.Umarov, A.Qurbonmamedov, M.Nurmatova, A.Sherov, B.Husanov, L.Muhamadiyeva, G.Mahmudova, O.G'aybullayev kabi faylasuflarning asarlarida yoritilgan.

Bugungi kunda bizning milliy ma'naviyatimizda haqiqatni anglab yetishdagi bu kabi murakkablik allaqachon idrok bilan qayd etilgan. Haqiqatni anglab yetishda ibrat va taqvo, irfoniy, badiiy, tarixiy, huquqiy, iqtisodiy tafakkur tarzlari, ijodiy-yaratuvchilik tajribasi va boshqalar mantiqiy tafakkur bilan uyg'unlikda inson yo'lini yoritishda eng asosiy vazifa hisoblanadi.

O'zbekistonda mantiq sohasida tadqiqotlar olib borishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda "Mantiq" ilmi bilan bog'liq mavzular tarixi eng olis o'tmishdagi merosni tadqiq etishdan boshlandi. Istiqlol yillarida M.Hayrullayev, M.Haqberdiyev, I.Rahimov, M.Sharipov, D.Fayzixo'jaeva, M.Qodirov, S.Mutalibov, A.Imomxo'jaeva, M.Boltayevlar mantiq fani, uning tarixi, nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy ishlarning rivojiga katta hissa qo'shdilar. So'nggi yillarda M.Xayrullayev va M.Haqberdiyevlarning "Mantiq" kitobi, I.Rahimovning "Mantiq" darsligi, M.Sharipov va D. Fayzixo'jaevalarning "Mantiq" o'quv qo'llanmasi nashrdan chiqdi.

Xulosa. Hozirgi tarixiy jarayonlarning rivojlanishi yangicha hayotiy masalalarga eskicha yondashib bo'lmasligini ko'rsatmoqda. Shunday ekan, falsafiy muammolarni o'zgarmas, hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan qoidalar sifatida emas, balki bugungi hayot talablariga moslashtirib rivojlantirish, ilmiy bilish va amaliy faoliyatga tatbiq etish lozim.

Nazorat savollari:

1. Falsafa qanday ma'noni anglatadi ?
2. Falsafaning predmetlarini sanang ?
3. Falsafa haqidagi faylasuf olimlarning ta'riflarni keltiring ?
4. Dunyoqarash nima ?
5. Dunyoqarashning funksiyalari nimadan iborat ?
6. Mifalogik dunyoqarashni ta'riflang ?
7. Sho'rolar davrida o'zbek falsafasini tadqiq qilgan olimlar kimlar?
8. Mustaqillik davri faylasuflariga misollar keltiring ?
9. Sizning tasavvuringizda falsafa nima ?

2-mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyot bosqichlari. Sharq falsafasi.

Reja:

1. Qadimgi Sharqda (Misr, Bobil, Hindiston, Xitoy va Markaziy Osiyoda) asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo'lishi.

2. Ilk o'rta asrlar Sharq falsafasi va Uyg'onish davri Sharq panteizmi va peripatetizmi.

3. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg'or falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikrlar.

4. XX – XXI asr o'zbek falsafasi.

Tayanch iboralar: *Qadimgi davr, mifologiya, din, "Veda", upanishada, astika, nastika, daosizm, si, yan, in, Konfutsiy falsafasi, Lao Szi, Qadimgi Turon, zardushtiylik, "Avesto", buddaviylik, o'rta asr, islom ilohiyoti, mutakallimlar, mutaziliylar, tasavvuf, Sharq renessansi, Sharq peripatetizmi, Markaziy Osiyo falsafasi, Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, gumanizm, ratsionalizm.*

Sharq qadimdan ilm-fan rivojlangan va yuksak cho'qqilarga erishgan hudud hisoblangan. Mazkur rivojlanish asosida milliy davlatchilik, madaniyat, qadriyat, sharqqa xos dunyoqarashning noyob tarixiy, ijtimoiy-falsafiy manbalari yaratilgan.

Kishilik jamiyatining falsafiy g'oyalari rivojlanishida Sharq falsafasining alohida o'rni bo'lib, uning tarkibiy qismi hisoblangan Markaziy Osiyo mintaqasi o'ziga xos ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan ajralib turadi. Bu hududdan etishib chiqqan mutafakkirlar, faylasuflar, adabiy muhit namoyondalari, ma'rifatparvarlar falsafiy qarashlarini zamonaviy nuqtai nazardan tahlil etish bugun dolzarb bo'lib qolmoqda.

Avesto. Millatimizning tarixiy-falsafiy tafakkuri o'zining butun mazmuning boyligi bilan namoyon bo'lgan ilk yirik asar "Avesto"dir.

Mashhur tarixchi al-Istahriyning ma'lumot berishicha, "Avesto"ning 12000 ho'kiz terisiga tilla bilan yozilgan rasmiy nusxasi Istahr shahri yonidagi ibodatxonaga qo'yilgan bo'lib, makedoniyalik jahongir Aleksandr Makedonskiyning bosqinchilik yurishlari paytida, uning buyrug'i bilan faqat tabiatshunoslik, falsafa, she'riyat, falakiyot, kimyo, jug'rofiya, nabototshunoslik (botanika), tarix, siyosat, axloq kabi sohalarga oid ma'lumotlar qismi qoldirilib, qolgani yoqib yuborilgan.

Sosoniylar davrida (III-VII asrlar) "Avesto"ning yangi rasmiy matni tiklanib, unda "Avesto"ning bor-yo'g'i 21 nasqi (Kitob) tiklangan. Ana shu nusxa ham IX-XIII asrlar mobaynida bir necha marotaba tahrir qilingan, o'zgartirilgan. Eng mo'tabar nusxa deb 1288 yilda ko'chirilgan qo'lyozma e'tirof etilgan. Fransuz tadqiqotchisi A. Perron, undan keyin X.Bartolome, J.Dyushen-Giyemen, V.B.Xenning, X.Xumbax, J.Kelens, M.Boys, I.M.Steblin- Kamenskiy kabilar "Avesto"ni har tomonlama tadqiq etib, uning asosiy qismlari Yasna, Vispred, Vdevdat, Yat, Vendidad kabilardan iborat ekanligini aniqlab berganlar. "Avesto" odatda zardushtiylik dinining asosiy kitobi deb tushuniladi. Haqiqatan ham bu kitob majusiylarning muqaddas kitobi deb, shu kungacha, masalan, Hindistonga ko'chib borgan forslar diniy qavmi a'zolari unga topinadilar.

Hozirgi zamon kishisi, ayniqsa, ekologik halokatni boshidan kechirayotgan bizning Markaziy Osiyo-Orol mintaqasi farzandlari uchun "Avesto"da madh etilgan umuminsoniy, axloqiy o'gitlar, tabiatni muqaddas deb bilish, uni asrab-avaylash, isrof qilmaslik, ifloslantirmaslik haqidagi ko'rsatmalar favqulodda ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda shuni taassuflar bilan qayd qilish o'rinliki, bizning "Avesto" va undagi umuminsoniy, axloqiy, huquqiy, ekologik va boshqa qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlarimiz nihoyatda sayoz, aniqrog'i ular to'g'risida haqiqiy tasavvurga ham ega emasmiz. Holbuki, bu ulug' meros tarix sinovidan o'tgan, xalqimiz ruhi, turmush tarzi, ongi va tafakkuri, talab va ehtiyojlariga nihoyatda mos tushadigan ekologik dunyoqarashimiz hamda tabiatga ta'sir qilish, uni o'zgartirishda eng oqilona va maqsadga muvofiq manbadir.

"Avesto"da o'z aksini topgan xalqimizning eng qadimiy bayramlaridan biri Navro'zdir. Navro'zi olam an'anaviy yangi yil bayrami bo'lib, u haqdagi asosiy ishonchli ma'lumotlarni "Avesto"dan tashqari paxlaviy kitoblaridan hamda Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Kitab-ut- tafqim", Mahmud Qoshg'oriyning "Devonu-lug'otit-turk", Firdavsiyning "Shohnoma", Umar Hayyomning "Navro'znoma"larida uchratishimiz mumkin. Navro'z yangi yilning birinchi kuni yangi kun boshlanishi demakdir. Eski quyosh yili hisobining 21 martdan 22 martga o'tar kechasi-kecha va kunduz tenglashgan kunda bayram qilingan. Navro'z an'anasi juda qadimiy bo'lib, odamlar qadimgi davrlardan, hozirgi yil hisobida 17 fevraldan boshlab, Navro'z bayrami harakatiga kirishganlar.

Navro'z boshlanishining birinchi belgisi sifatida tog'dagi muz va qorlarning eriy boshlashi, qoramolning urchish mavsumini anglaganlar. Navro'zi olam yumushlari xilma-xil bo'lib, ularning eng muhimlari qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik, chorvachilik, ovchilik, hunardmandchilik kabi boshqa mavsumlar bilan bog'liq. Bug'doyning 7 xili maxsus tovoqlarda undirilgan, bu bilan hosilning shu yilda qanday bo'lishini, ob-havo qanday kelishini taxmin qilganlar. Sumalak tayyorgarliklari, daraxtlarni payvandlash ishlari muhim hisoblangan. Bahorning boshlanishi, tabiatning uyg'onishi, umumiy jonlanishga bag'ishlangan tadbirlar 21-martdan 22-martga o'tar kechasi bo'ladigan "Kichik navro'z" bayramida nishonlanib, undan so'ng yana 1 oyga qadar davom etgan. Farvardin oyining 6-kuni esa "Katta navro'z" bayrami boshlangan. Dasturxonga "s" harfi bilan boshlanadigan 7 xil taom (haftsin) tortish an'ana bo'lgan, undirilgan bug'doy, yalpiz, ismaloq kabi turli xil ko'katlardan tayyorlangan somsa, chuchvara, chalpak, sumalak va boshqa taomlar, shuningdek, halim tanovul qilingan. Bu an'analar hozir ham davom etmoqda.

"Avesto"da Axuramazda ezgulik timsoli sifatida odamlarni o'z istaklarida xolis bo'lishga, o'zaro murosa qilib yashashga chorlaydi. Shuhratparastlik va qonunga amal qilmaslikni qoralaydi. Bergan so'zining ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiq, shartnomaga qat'iy amal qilish, qarzni vaqtida to'lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo'lish asosiy axloqiy talab sifatida ulug'lanadi. Har bir ezgu xilqatning yovuz ziddi esa Axriman timsolida yaratiladi. Umumlashtirib aytganda, "Avesto"da yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat, ezgulik va yovuzlik bir biriga qarama-qarshi kuchlar sifatida Ahura Mazda va Axriman timsollarida bayon etiladi.

"Avesto" kitobining mazmunidan joy olgan Zardushtiylik ta'limoti 3 ta tamoyilga asoslanib, ular quyidagilarda aks etadi:

1. Ezgu fikr;
2. Ezgu so'z;
3. Ezgu amal.

Yaxshilik va ezgulik egizak so'zlardir. Ezgulik insonga hamisha hamrohlik qiladi. Buni biz ajdodlarimizning ma'naviyati durdonalaridan, ertak va afsonalaridan, qadimgi yozuvlaridan yaqqol bilishimiz mumkin. Zaminimizda yaratilgan "Avesto" kitobining asosiy g'oyalari ham uch birlikni, ya'ni "ezgu so'z", "ezgu fikr", "ezgu amal" tashkil etgani ham so'zimizning yorqin dalilidir. Yaxshilik ota-bobolarimizning

bunyodkorligi va yaratuvchanligida o‘z ifodasini topgan. Ular halol mehnat va kasb-hunarni ezgulikning manbai hamda yovuzlikni bartaraf etuvchi kuch deb hisoblaganlar. Hozir ham shunday. Yaxshilik yomonlikni yoqtirmagani kabi yomonlik ham yaxshilikdan qochadi. Halollik, poklik, mehribonlik, insonparvarlik, adolat, do‘stlik, hamkorlik kabi axloqiy fazilatlar yaxshilik va ezgulikni qaror topishi hamda yomonlik va yovuzlikning oldini olish uchun xizmat qiladi”[11].

Hindiston falsafasi. Hindlar tarixida miloddan avvalgi II ming yillikning I-ming yilligi o‘rtalarigacha bo‘lgan tarixiy davr “Veda” davri deb ataladi. “Veda” (bilim) o‘sha davrdan qolgan muqaddas matnlar to‘plami bo‘lib, bir necha qismdan iborat. Shundan bizga Rigveda (madhiyalar, duolar to‘plami), Samaveda (qo‘shiqlar to‘plami), Yajurveda (qurbonlik qilish yo‘llari) va Atxarvaveda (sehrli fikrlar to‘plami) kabilar yetib kelgan. Vedalar ichida eng qadimiysi Rigveda hisoblanib, u 10 kitobdan iborat. Bu kitoblarda tabiat hodisalari o‘ziga xos g‘ayritabiiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Masalan, Indra - momaqaldiroq xudosi, Mitra - quyosh xudosi, Varuna -osmon xudosi, Agni - olov xudosi, Yama - o‘lim xudosi, Soma - oy xudosi, Rita - koinot qonuni sifatida gavdalanib, ular sharafiga hamdu sanolar aytilgan, ularga atab qurbonliklar qilingan. O‘sha davr odamlarining tasavvurlariga ko‘ra, inson hayoti, uning baxt-saodati, umri xudolarga qilingan qurbonliklarga bog‘liq bo‘lgan. Samaveda, Yajurveda, Atxarvavedalarda Rigvedadagi qo‘shiqlarga bag‘ishlab kuylar to‘qilgan, mavjud diniy e’tiqod va falsafiy tasavvurlar o‘z aksini topgan. Masalan, Rigvedada quyidagi fikrlar berilgan: “Quyosh nega qulab tushmaydi?”, “Kechasi quyosh qayerga ketadi?”, “Kunduzi yulduzlar qayerda bo‘ladi?”, “Shamol qayerda paydo bo‘ladi va qay tomon boradi?”, “Olamning asosini nima tashkil qilgan” kabi savollarga ular suv, havo, olov deb javob berishgan. Upanishadlarda falsafiy muammolarga keng o‘rin berilgan. Vedada “braxman” so‘zi ko‘p qirrali bo‘lib, bir necha ma’noda ishlatilgan. Chunonchi, braxman - kohinlar varnasining a’zosi, braxmanlar - vedalarning qismlari, Braxman - veda xudolaridan birining ismi.

Braxman falsafiy kategoriya sifatida ham turlicha ma’nolarni anglatgan. Ko‘p hollarda braxman - muayyan shaxs bilan bog‘liq bo‘lmagan universal ideal. U avvalgi rasm- rusumlardan xoli bo‘lgan va abadiy, fazoviy tasavvurlardan yuqori turgan ko‘p qiyofali olamning

[11] Nasirov K. Odob va axloq – insoniylik mezoni. –T.: OHBI. 2017. 30-bet.

mohiyatini ham ifodalaydi. Braxman-javhar barcha borliqning ibtidosi va intihosi, narsa-hodisalarning asosi sifatida tushuniladi. O‘sha davr odamlarining tasavvurlariga ko‘ra, inson hayoti, uning baxt-saodati, umri xudolarga qilingan qurbonliklarga bog‘liq bo‘lgan. Samaveda, Yajurveda, Atxarvavedalarda Rigvedadagi qo‘shiqlarga bag‘ishlab kuylar to‘qilgan, mavjud diniy e’tiqod va falsafiy tasavvurlar o‘z aksini topgan. Masalan, Rigvedada quyidagi fikrlar berilgan: “Quyosh nega qulab tushmaydi?”, “Kechasi quyosh qayerga ketadi?”, “Kunduzi yulduzlar qayerda bo‘ladi?”, “Shamol qayerda paydo bo‘ladi va qay tomon boradi?”, “Olamning asosini nima tashkil qilgan” kabi savollarga ular suv, havo, olov deb javob berishgan. Upanishadlarda falsafiy muammolarga keng o‘rin berilgan. Vedada “braxman” so‘zi ko‘p qirrali bo‘lib, bir necha ma’noda ishlatilgan. Chunonchi, braxman - kohinlar varnasining a’zosi, braxmanlar - vedalarning qismlari, Braxman - veda xudolaridan birining ismi.

Braxman falsafiy kategoriya sifatida ham turlicha ma’nolarni anglatgan. Ko‘p hollarda braxman - muayyan shaxs bilan bog‘liq bo‘lmagan universal ideal. U avvalgi rasm- rusumlardan xoli bo‘lgan va abadiy, fazoviy tasavvurlardan yuqori turgan ko‘p qiyofali olamning mohiyatini ham ifodalaydi. Braxman-javhar barcha borliqning ibtidosi va intihosi, narsa-hodisalarning asosi sifatida tushuniladi. O‘sha davr odamlarining tasavvurlariga ko‘ra, inson hayoti, uning baxt-saodati, umri xudolarga qilingan qurbonliklarga bog‘liq bo‘lgan. Samaveda, Yajurveda, Atxarvavedalarda Rigvedadagi qo‘shiqlarga bag‘ishlab kuylar to‘qilgan, mavjud diniy e’tiqod va falsafiy tasavvurlar o‘z aksini topgan. Masalan, Rigvedada quyidagi fikrlar berilgan: “Quyosh nega qulab tushmaydi?”, “Kechasi quyosh qayerga ketadi?”, “Kunduzi yulduzlar qayerda bo‘ladi?”, “Shamol qayerda paydo bo‘ladi va qay tomon boradi?”, “Olamning asosini nima tashkil qilgan” kabi savollarga ular suv, havo, olov deb javob berishgan. Upanishadlarda falsafiy muammolarga keng o‘rin berilgan. Vedada “braxman” so‘zi ko‘p qirrali bo‘lib, bir necha ma’noda ishlatilgan. Chunonchi, braxman - kohinlar varnasining a’zosi, braxmanlar - vedalarning qismlari, Braxman - veda xudolaridan birining ismi.

Braxman falsafiy kategoriya sifatida ham turlicha ma’nolarni anglatgan. Ko‘p hollarda braxman - muayyan shaxs bilan bog‘liq bo‘lmagan universal ideal. U avvalgi rasm- rusumlardan xoli bo‘lgan va abadiy, fazoviy tasavvurlardan yuqori turgan ko‘p qiyofali olamning mohiyatini ham ifodalaydi. Braxman-javhar barcha borliqning ibtidosi va intihosi, narsa-hodisalarning asosi sifatida tushuniladi. Upanishadlarda “Barcha narsalar o‘shandan paydo bo‘ladi, o‘sha bilan yashaydi va o‘lgach o‘shanga (braxmanga) qaytadi”, deyiladi. “Atman” so‘zi ham bir necha ma’noda ishlatilgan. Atman nafas, ruh, jon, umumiy jon, braxmanga yaqin bo‘lgan ruhiy javhar kabi ma’nolarga ega. Upanishadlarda “barcha narsalar braxmandir, braxman esa atmandir”, deb uqtiriladi. S.Radxakrishnan o‘zining “Hind falsafasi”da reallikni “atman-braxman” deb atab, uning sub’yektiv jihati atmanni ham, ob’yektiv tomoni bo‘lmish braxmanni ham ko‘rsatib o‘tadi. Shuning uchun ham upanishadlarda jon va tana o‘zaro birligi atman-braxmanga alohida e’tibor qaratilgan.

Moddiy olam, jumladan, inson ham atman-braxmandan paydo bo‘lgan va oxir-oqibat yana unga qaytadi. Uning hayoti barcha narsalar qatori umumiy qonuniyat -sansara va taqsirlanish qonuni (karma) bilan uzviy aloqada bo‘ladi. Inson hayoti - tug‘ilish va o‘lishni cheksiz zanjirning muayyan shakli sifatida talqin etish Hind qadimgi ilk animistik tasavvurlaridan boshlangan.

Bunday tasavvurlar aslida tabiatda sodir bo'ladigan muayyan davriy hodisalar hamda ularning o'ziga xos tarzi bilan hamohangdir. Sansara ta'limoti (hayotning cheksiz tug'ilishi va o'lishi haqidagi ta'limot)ning ba'zi unsurlarini braxmanlarda ham uchratish mumkin, ammo upanishadlarda bu fikr mutlaqlashtirilib, falsafiy mavzuning muhim jihatiga aylantirilgan. Inson maqsadga erishishi uchun muayyan axloqiy qonun-qoidalarga, tamoyillarga, karma va dxarma ta'limotiga rioya qilishi shart qilib olingan. Karma qonuniga ko'ra, har bir inson yer yuzidagi sa'y-harakatlari, qilmishiga yarasha taqdirlanadi. Tanosuh - jonning ko'chib yurishi haqidagi ta'limot shu qonunga asoslangan. Upanishadlar ta'limotiga ko'ra, har bir insonning o'z dxarmasi - hayot kechirish tarzi bo'lib, u ilohiy kuch tomonidan azaldan belgilab qo'yilgan.

Upanishadlar hind falsafasi tarixida eng qadimgi zamondan to hozirgi davrga qadar muhim rol o'ynab kelmoqda. Ularda shakllangan g'oyalar turli dunyoqarashning ilk kurtaklari bo'lib xizmat qilib kelgan. Veda va upanishadlar Hindistonda keyingi asrlarda vujudga kelgan va rivojlangan falsafiy fikrlarni tushunishda muhim rol o'ynadi. Hindistonda uzoq asrlardan beri yashab kelayotgan barcha falsafiy yo'nalishlarni ikki guruhga bo'lish odat tusiga kirgan. Veda va upanishadlarning asosiy talab va tamoyillarini o'ziga dasturulamal - asos deb hisoblovchi rasmiy falsafiy tizimga mimansa, vedanta, yoga, sankxya, nyaya va vaysheshika, norasmiy falsafa tizimiga lokayata charvaka, buddizm(buddaviylik) va jaynizm kabilar kiradi. Aslida esa veda va upanishadlarning bevosita yoki bilvosita ta'siridan xoli bo'lgan falsafiy qarashlarni topish amrimahol bo'lib, ularning o'zaro munosabatlari birmuncha murakkabdir. Turli falsafiy fikrlarning ilk kurtaklarini qadimgi hind eposi "Mahabhorat" va "Ramayana"da uchratish mumkin. "Mahabhorat"ning alohida bobi "Bxagavatgita"da, asosan, falsafiy muammolar haqida fikr-mulohazalar yuritiladi. Javoharla'l Neruning ta'kidlashicha, "Bxagavatgita" bir necha asarlar davomida mutafakkirlar va falsafiy yo'nalishlar uchun g'oyaviy manba bo'lib keldi.

Qadimgi Hindiston falsafiy maktablaridan quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Charvaka - lokayata maktabi.
2. Sankxya maktabi.
3. Nyaya maktabi.

1. **Charvaka – lokayata.** Hind faylasufi D.Chattopadxyayaning ta'kidlashicha, lokayata - xalq falsafasi, materialistik yoki dunyoviy falsafa ma'nosini anglatadi. Sho'rolar davrida chop etilgan ko'pgina falsafiy adabiyotlarda charvaka - to'rt so'z, to'rt unsur sifatida talqin qilingan. Bu falsafiy maktab namoyandalari moddiy olam negizini to'rt unsur tashkil etadi, deb hisoblaganlari uchun ularga «charvaka» nomi berilgan, deyiladi. Lokayata- charvaka ta'limoti tarafdorlari jamiyatda hukmron bo'lgan braxmanizm diniy ta'limotiga qarshi chiqqanlar. Ularning ta'kidlashicha, olamni, tabiatda sodir bo'ladigan barcha hodisalarni, jarayonlarni ularning ichki mohiyatidan kelib chiqib o'rganish kerak. Bizga ayon bo'lib turgan moddiy olam to'rt unsur - olov, havo, suv va tuproq birligidan tashkil topadi. Tarkiban inson zoti ham bu qoidadan istisno emas. Toki u tirik ekan, to'rt unsur birligini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Inson yo'qliqdan makon topar ekan, undagi olov unsuri olovga, tuproq unsuri tuproqqa, havo unsuri havoga, suv unsuri suvga aylanadi. Insondagi sezgilar falakka ko'tariladi. Har bir inson bir marta yashaydi. U o'lgandan so'ng donishmand yoki nodon bo'ladimi, bundan qat'i nazar, qaytadan tirilmaydi, yo'qlikdan o'rin oladi. Charvakalar ta'limotiga ko'ra, inson tana va ruh (jon) birligidir. Ruh tananing xossasidir. Shuning uchun ham odamlar "men ko'rman", "men cho'loqman" iboralarini ishlatib, ruhni tana sharpalari bilan qo'shib aytadilar. Ong, ruhning umri tana umri bilan qiyoslanadi. To'rt unsur o'zaro muayyan tartibda birlashganida ong paydo bo'ladi, alohida olingan har bir unsurning hayotida ruh, ong uchramaydi.

Charvaka lokayata ta'limotida oxirat, jannat, do'zax, jon (ruh)ning bir tanadan boshqa tanaga ko'chib yurishi (sansara) haqidagi tasavvurlarni rad etadilar. Ularning fikricha, butun olamda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarning sohibi moddiy borliqdir. Masalan, olovning issiq, suvning sovuq bo'lishini aynan shu hodisalarning o'zidan izlash lozim. Ular bilishning yagona manbai hissiy bilish deb, mantiqiy hukm va xulosalarni inkor qiladilar, jonli mushohada talab va tamoyillariga zid har qanday mulohazani o'rinsiz deb rad etadilar.

2. Sankxya maktabi. Sankxya maktabi miloddan avvalgi VII-VI asrlarda shakllangan. Sankxya (sanash, hisoblash)ning asoschisi Kapiladir. Uning asosiy asari -Sankxya sutra (Sankxya hikmatlari) bizgacha yetib kelmagan. Sankxya tarafdorlarining fikricha, ruhiy javhar (purishi) bilan birga moddiy javhar (prakriti) mavjud bo'lib, tabiatdagi

Bunday tasavvurlar aslida tabiatda sodir bo'ladigan muayyan davriy hodisalar hamda ularning o'ziga xos tarzi bilan hamohangdir. Sansara ta'limoti (hayotning cheksiz tug'ilishi va o'lishi haqidagi ta'limot)ning ba'zi unsurlarini braxmanlarda ham uchratish mumkin, ammo upanishadlarda bu fikr mutlaqlashtirilib, falsafiy mavzuning muhim jihatiga aylantirilgan. Inson maqsadga erishishi uchun muayyan axloqiy qonun-qoidalarga, tamoyillarga, karma va dxarma ta'limotiga rioya qilishi shart qilib olingan. Karma qonuniga ko'ra, har bir inson yer yuzidagi sa'y-harakatlari, qilmishiga yarasha taqdirlanadi. Tanosuh - jonning ko'chib yurishi haqidagi ta'limot shu qonunga asoslangan. Upanishadlar ta'limotiga ko'ra, har bir insonning o'z dxarmasi - hayot kechirish tarzi bo'lib, u ilohiy kuch tomonidan azaldan belgilab qo'yilgan.

Upanishadlar hind falsafasi tarixida eng qadimgi zamondan to hozirgi davrga qadar muhim rol o'ynab kelmoqda. Ularda shakllangan g'oyalar turli dunyoqarashning ilk kurtaklari bo'lib xizmat qilib kelgan. Veda va upanishadlar Hindistonda keyingi asrlarda vujudga kelgan va rivojlangan falsafiy fikrlarni tushunishda muhim rol o'ynadi. Hindistonda uzoq asrlardan beri yashab kelayotgan barcha falsafiy yo'nalishlarni ikki guruhga bo'lish odat tusiga kirgan. Veda va upanishadlarning asosiy talab va tamoyillarini o'ziga dasturulamal - asos deb hisoblovchi rasmiy falsafiy tizimga mimansa, vedanta, yoga, sankxya, nyaya va vaysheshika, norasmiy falsafa tizimiga lokayata charvaka, buddizm(buddaviylik) va jaynizm kabilar kiradi. Aslida esa veda va upanishadlarning bevosita yoki bilvosita ta'siridan xoli bo'lgan falsafiy qarashlarni topish amrimahol bo'lib, ularning o'zaro munosabatlari birmuncha murakkabdir. Turli falsafiy fikrlarning ilk kurtaklarini qadimgi hind eposi "Mahabhorat" va "Ramayana"da uchratish mumkin. "Mahabhorat"ning alohida bobi "Bxagavatgita"da, asosan, falsafiy muammolar haqida fikr-mulohazalar yuritiladi. Javoharla'l Neruning ta'kidlashicha, "Bxagavatgita" bir necha asarlar davomida mutafakkirlar va falsafiy yo'nalishlar uchun g'oyaviy manba bo'lib keldi.

Qadimgi Hindiston falsafiy maktablaridan quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Charvaka - lokayata maktabi.
2. Sankxya maktabi.
3. Nyaya maktabi.

1. Charvaka – lokayata. Hind faylasufi D.Chattopadxyayaning ta'kidlashicha, lokayata - xalq falsafasi, materialistik yoki dunyoviy falsafa ma'nosini anglatadi. Sho'rolar davrida chop etilgan ko'pgina falsafiy adabiyotlarda charvaka - to'rt so'z, to'rt unsur sifatida talqin qilingan. Bu falsafiy maktab namoyandalari moddiy olam negizini to'rt unsur tashkil etadi, deb hisoblaganlari uchun ularga «charvaka» nomi berilgan, deyiladi. Lokayata- charvaka ta'limoti tarafdorlari jamiyatda hukmron bo'lgan braxmanizm diniy ta'limotiga qarshi chiqqanlar. Ularning ta'kidlashicha, olamni, tabiatda sodir bo'ladigan barcha hodisalarni, jarayonlarni ularning ichki mohiyatidan kelib chiqib o'rganish kerak. Bizga ayon bo'lib turgan moddiy olam to'rt unsur - olov, havo, suv va tuproq birligidan tashkil topadi. Tarkiban inson zoti ham bu qoidadan istisno emas. Toki u tirik ekan, to'rt unsur birligini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Inson yo'qliqdan makon topar ekan, undagi olov unsuri olovga, tuproq unsuri tuproqqa, havo unsuri havoga, suv unsuri suvga aylanadi. Insondagi sezgilar falakka ko'tariladi. Har bir inson bir marta yashaydi. U o'lgandan so'ng donishmand yoki nodon bo'ladimi, bundan qat'i nazar, qaytadan tirilmaydi, yo'qlikdan o'rin oladi. Charvakalar ta'limotiga ko'ra, inson tana va ruh (jon) birligidir. Ruh tananing xossasidir. Shuning uchun ham odamlar "men ko'rman", "men cho'loqman" iboralarini ishlatib, ruhni tana sharpalari bilan qo'shib aytadilar. Ong, ruhning umri tana umri bilan qiyoslanadi. To'rt unsur o'zaro muayyan tartibda birlashganida ong paydo bo'ladi, alohida olingan har bir unsurning hayotida ruh, ong uchramaydi.

Charvaka lokayata ta'limotida oxirat, jannat, do'zax, jon (ruh)ning bir tanadan boshqa tanaga ko'chib yurishi (sansara) haqidagi tasavvurlarni rad etadilar. Ularning fikricha, butun olamda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarning sohibi moddiy borliqdir. Masalan, olovning issiq, suvning sovuq bo'lishini aynan shu hodisalarning o'zidan izlash lozim. Ular bilishning yagona manbai hissiy bilish deb, mantiqiy hukm va xulosalarni inkor qiladilar, jonli mushohada talab va tamoyillariga zid har qanday mulohazani o'rinsiz deb rad etadilar.

2. Sankxya maktabi. Sankxya maktabi miloddan avvalgi VII-VI asrlarda shakllangan. Sankxya (sanash, hisoblash)ning asoschisi Kapiladir. Uning asosiy asari -Sankxya sutra (Sankxya hikmatlari) bizgacha yetib kelmagan. Sankxya tarafdorlarining fikricha, ruhiy javhar (purishi) bilan birga moddiy javhar (prakriti) mavjud bo'lib, tabiatdagi

barcha narsalarning asosi prakritidir. Prakriti jism, tana, hislar, empirik aklning sababchisidir. Ruhiy javhar mustaqildir. Purushi va prakritining bir-biri bilan qo'shilishi natijasida olam paydo bo'ladi.

Sankxya falsafasi uzoq asrlar davomida tadrijiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Ilk sankxya g'ayritabiiy kuchlarni inkor etib kelgan. Ushbu maktab asoschisi Kapilaning fikricha, tabiat prakritining energiya va ruh bilan qo'shilishining uzoq davom etgan tadrijiy o'zgarish oqibatida vujudga kelgan. Voqelikdagi barcha hodisalar uchta kuchning -faollik (radjas), ong (sattava) va (tamas) - sustlikning o'zaro munosabatiga bog'liq. Sankxya falsafasi uzoq asrlar davomida tadrijiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Ilk sankxya g'ayritabiiy kuchlarni inkor etib kelgan. Kapilaning fikricha, tabiat prakritini energiya va ruh bilan qo'shilishi uzoq davom etgan evolyuesiyasi oqibatida vujudga kelgan.

Nyaya maktabi. Nyaya (mantiq) maktabining asoschisi miloddan avvalgi III asrda yashagan Akshapada Gotama hisoblanadi. Nyaya asosan mantiqiy muammolar, to'g'ri fikr yuritish va hodisalarni aniq-ravshan bilish kabi masalalar bilan shug'ullangan. Ko'pgina hind tadqiqotchilari uni "Bahslashish to'g'risidagi fan" deb qabul qiladilar. Nyaya bilish nazariyasida sensualistik(shubhalanuvchi) nazariya tarafdoridir. Uning ta'limotiga ko'ra, inson o'zining beshta sezgi a'zolari orqali tabiatdagi narsa va hodisalarni idrok etadi. Sezgilar hukmiga bo'ysunmaydigan har qanday narsa real emas.

Nyaya maktabi vakillari bilish usulini (praman) ishlab chiqishga uringanlar. Ular hissiy idrok (pratyaksha), xulosa (anumana), taqqoslash (upamana) va guvoh (shabda) vositalari orqali dunyoni bilish mumkin, degan g'oyani ilgari surganlar. Inson bilimi o'rganilayotgan narsa, hodisani to'g'ri aks ettirsa, u haqiqiy bilim bo'ladi. Nyayada veda va upanishadlarning bilish to'g'risidagi qarashlariga, masalan, guvoh (shabda)ni talqin etishda xayrixohlik bildiriladi. Bu falsafiy ta'limot ko'p hollarda vaysheshikaga ergashib, undan atomistik nazariyani qabul qilgan. Vaysheshika esa o'z navbatida nyaya tarkibida ishlab chiqilgan mantiqiy usul va vositalarni qabul qilgan. Shuning uchun hind falsafasi tarixida bu ikkala falsafiy ta'limot nyaya- vaysheshika maktabi deb ataladi. Vaysheshika veda va upanishadlarni shaklan chetlab o'tmagan bo'lsa-da, o'ziga xos falsafiy maktabdir. U "vishesha" so'zidan olingan bo'lib, xususiyat degan ma'noni anglatadi, o'z oldiga olam asosini tashkil etuvchi javharlarni izohlab berishni maqsad qilib qo'yadi. Vaysheshikaga milodning I asrida yashagan Kanada asos solgan.

Kanadaning "Kanada sutra" asari bizgacha yetib kelmagan. Vaysheshika falsafasida materialistik qarashlarga moyillik ancha kuchli. U olamning asosini moddiy unsurlar tashkil etadi, eng mayda zarralar - atomlar, deb ta'lim beradi. Vaysheshika falsafasi qadimgi Hindistonda mavjud bo'lgan tabiiy-ilmiy bilimlar, tabiatshunoslik fanlari bilan bog'liq bo'lib, undagi yutuqlarni nazariy asoslashga harakat qilgan. Vaysheshika maktabining qarashlari matematika, astronomiya, kimyo kabi fanlar bilan bog'liq bo'lgan. Uning atomlar haqidagi ta'limoti qadimgi Hindistonda mavjud bo'lgan atomistik nazariyaning xulosasi edi.

Vaysheshika ta'limotiga ko'ra, olamda o'zgarishlar, hodisalarning paydo bo'lishi va yo'q bo'lishi, tuzilishi va buzilishi uzluksiz ro'y berib turadi. Bu doimiy jarayonda atom (anau) abadiy o'zgarmas unsur sifatida amal qiladi. Atomlar abadiy, ular hech kim tomonidan yaratilmagan va yo'q bo'lmaydi. Ular turli-tuman sifat- xossalar (guna)ga ega. Atomlarning muayyan tarzda birlashuvi oqibatida biz sezadigan, his qiladigan jonli va jonsiz mavjudotlar paydo bo'ladi. Atomlarning o'zaro birlashuvi va bir-biridan ajralishi tufayli olamda buzilish va qayta tuzilish doimiy jarayonga aylanadi. Atomlar shar shaklida mavjuddir.

Vaysheshika kategoriyalarni umumiy (samanya) va ayrim (vishesha)ga bo'ladi. Moddiylikdan ajralgan ruhiy narsalar sifat va miqdor jihatidan bir- biridan tubdan farq qilsa-da, ular javharlar (dravya)ga asoslangan. Bunday javharlar to'qqizta. Moddiy javharning asosi suv, olov, tuproq va efirdir. Bundan tashqari, moddiy bo'lmagan, ruhiy javharlar(atman) ham mavjuddir. Ruh nomoddiy, abadiy, ibtido va intihosiz ko'rinishlarda-ishvara va paramatmanda namoyon bo'ladi.

Yoga falsafa maktabi. Yoga falsafa maktabiga kelsak, u an'anaviy veda va upanishadlarning nazariy tamoyillariga tayanadi va ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida sankxyaga yaqin turadi. Yoga asoschisi Patanjali bo'lib, undan «Yoga sutra» (Patanjali sutra) asari qolgan. Keyinchalik Vyasa ismli faylasuf Patanjali asariga batafsil sharhlar yozgan. Yoganing ma'nosi "qo'shilish" bo'lib, muayyan qonun - qoidalar dasturiga amal qilish orqali bajarilgan jismoniy harakatlar tufayli xudo bilan birlashish, qo'shilishni bildiradi. Bu falsafiy maktab tarafdorlarining ta'kidlashicha, olam hech qachon paydo qilingan emas, u o'zining rivojlanish va o'zgarish manbaiga egadir. Xudo materiya (prakriti)ni ong (purishi) bilan bir-biriga qo'sha va ajrata oladi.

Ruhning xalos bo'lishi xudo yordamida amalga oshadi. Purishi bilan prakriti o'rtasidagi muayyan aloqa buzilsa, kishi xalos bo'ladi - inson ruhi -joni xudo bilan qo'shiladi. Buning uchun inson moddiy nozne'matlar, ya'ni moddiyun olamidan yuz o'girib, o'zligini tushunishga, ruhiy olamiga cho'mishga harakat qilmog'i lozimdir. Shunda inson joni moddiy kishan zanjirlaridan qutiladi va orzu qilgan maqsadiga erishadi. Yoga tarafdorlari badan tarbiyaning murakkab tamoyillari (yogaga)ga qattiy amal qilishni muhim deb biladilar. Badan tarbiya, yuksak odobaxloq me'yorlari, o'zini tuta bilish, barcha qiyinchiliklarga barham berish "Yoga sutra"ning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Jonivorlarga zarar yetkazmaslik, axloqiy qadriyatlarga sodiq qolish, histuyg'ularning quliga aylanmaslik, tanani toza tutish, diniy kitoblarni mutolaa qilish, xudoni yoddan chiqarmaslik kabi talablar mimansa, veda, buddaviylik va qator boshqa diniy- falsafiy ta'limotlarga katta ta'sir qilib keldi.

Buddizm. Buddizm Hindistonda sezilarli mavqega ega diniy-falsafiy maktablardan hisoblanadi. Buddaviylikning asoschisi Budda (asl nomi Sidxartxa Gautama) miloddan avvalgi 623-543 yillarda yashagan, laqabi Shakyamunidir. Buddizm braxmanizmning hamma vaqt jamiyatda kastalar mavjud bo'lgan, degan ta'limotiga zid tarzda barcha kishilar tengdirlar, bir-biridan farq qilmaydilar, deb ta'kidlaydi. Lekin bu tenglik aslida «xalos bo'lish»dagi baravarlikdir. Azob-uqubatlardan xalos bo'lish (arxastvaga) maqsad qilib olingan. Unga ko'ra, xalos bo'lishning birdan-bir yo'li barcha xohishlardan voz kechib, nurlangan (nirvana) holatiga erishishdir. U 8 xil yo'llardan iboratdir. Buddizm falsafiy muammolarning ikki jihatiga alohida e'tibor qaratadi. Bular:
1. Narsalar tabiati haqidagi ta'limot. 2. Bilishning yo'llari, uslub va vositalari haqidagi ta'limot. Buddizm falsafasiga ta'limotning uch savati (tri pitaka) kiradi:
1. Dastur savati (vinayapitaka). 2. Pand-nasihat savati (sutta-pitaka). 3. Sof bilimlar, falsafiy qarashlar savati (abxidxamma pitaka).

Jaynizm. Jaynizm ta'limotiga ko'ra, azob-uqubatda kun kechiradigan har bir inson ushbu maktab vakillari ko'rsatmalari asosida yashasa u ozodlikka, kamolotga erishadi, qiyinchiliklardan xalos bo'ladi. Jonning kamolga yetishi uchun tana to'sig'ini yengib o'tish kerak. Jon tana bilan bog'langanligi uchun unga qaramdir. His-tuyg'u jonni tana bilan bog'lovchi kuchdir. Uch "durdona"ga, ya'ni e'tiqod, bilim va yaxshi xulq-atvorga ega bo'lgan inson xalos bo'lish yo'lini topadi.

Jaynizm tabiat hodisalarini jonli deb, jonning bir tanadan ikkinchisiga ko'chib yurishini (karma) tan oladi. Shunday ekan, unga azob berish mumkin emas, unga hurmat bilan qarash lozim. Ilk jaynizmda olam adabiy, u ikki javhardan - jonsiz (ajiva) va jonli (jiva)dan tashkil topadi. Jonli javhar jonga ega. Jonsiz javhar (pudgala) bo'linadigan narsalar - vaqt, fazo, harakat va sukunatdan iboratdir. Materiya - abadiy javhar, u harakat manbai. Paydo bo'ladigan va yo'q bo'ladigan narsalar jismlardir. Materiya miqdori o'zgarmaydi, jismlar miqdori esa doimiy o'zgarishda bo'ladi. Jaynizm ta'limot sifatida uzoq vaqt davomida og'zaki an'ana ko'rinishida yashab keldi. V asrdan boshlab u muayyan qonun-qoidalar shaklida amal qila boshladi. Shuning uchun uning asoslarini yangi talqin va sharhlardan ajratib olish oson emas. Asta-sekin jaynizmda ikki - digambara va shvetambara yo'nalishlariga bo'lindi. Digambara jaynizmning qadimgi an'analarini davom ettirgan bo'lsa, shvetambara ushbu falsafiy ta'limotga o'zgarishlar kiritishga urindi.

Xitoy falsafasi. Xitoy falsafasiga xos jihatlardan biri - tabiat hodisalarini yoppasiga tirik mavjudotlarga aylantirishga urinish. O'lgan odamlarning ruhi ham olamni kezib yuradi, ularning ruhi - arvohlarini hurmat qilish va ulardan madad so'rash odat tusiga aylangan edi. Ruhlar kelajakning sirli pardasini ochib beradi, odamlar xulq-atvori va faoliyatiga qattiq ta'sir etadi. Bunday qadimgi asotirlar miloddan avvalgi ikki minginchi yillarga borib taqaladi.

Daosizm. Falsafiy tafakkur taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri daosizmdir. Uning asoschisi Lao-Schidir (miloddan avvalgi 604 yilda tug'ilgan). U "Yo'nalishlar va fazilatlar haqida risola"ning muallifidir. Kitobda ta'kidlanishicha, dao yerdagi mavjud barcha parsalardan farq qilib, xudolikning namoyon bo'lishining o'ziga xos ko'rinishidir. Daooliy mavjudot sifatvda barcha real narsalar, hodisalar borlig'i, sodir bo'lishining birinchi sababchisidir. Hamma narsalar u tufayli paydo bo'ladi, oxirida yana unga qaytadi. Lao-szining fikricha, olamdagi barcha narsalar doimiy harakatda, o'zgarishda. Insonning tabiat bilan o'zaro qamkorligi uning ruhiy barqarorligi, osoyishtaligini ta'minlaydi. U inson, jamiyatning ortiqcha bezovtaligini, o'ta faolligini ma'qul ko'rmaydi. Ortiqcha faollik sivilizatsiyani tug'dirib, inson va olam o'rtasidagi garmoniyaning buzilishiga, disgarmoniyaga olib keladi. «Narsalar me'yori»ga amal qilish insonning muhim hayotiy vazifasi bo'lmog'i lozim. Voqelikni bilish osoyishtalik vaziyatida amalga oshadi. Bunday fikr Konfutsiyning ta'limotiga ziddir.

Konfutsiylik. Millodning I asrida Xitoy mumtoz kitoblari topilgach, ularning mazmuni, sharhi, talqini to'g'risida bahs-munozaralar avjga chiqadi. Konfutsiylikni davlatning rasmiy mafkurasi darajasiga ko'targan Dun Chjunshuning fikricha, Konfutsiy esa muqaddas kitoblarning sharhlovchisidir, xolos. "Qo'shiqlar kitobi" (Shi szin) miloddan avvalgi birinchi ming yillikda yaratilgan bo'lib, qadimgi xalq poeziyasi namunalaridan iborat. Unda qabilalar, hunar va narsalarning paydo bo'lishiga oid qo'shiqlar, turli-tuman mistik g'oyalar o'rin olgan. "Tartib kitobi" (Li shu) miloddan avvalgi IV-I asrlarda bitilgan bo'lib, u uch qismdan iborat. Kitob Chjou Li davri tartibi, marosimlar tartibi (I, li) va tartib to'g'risidagi yozuvlar (Li szi)ni qamrab olgan. Bu kitobda siyosiy, diniy marosimlar, ijtimoiy - siyosiy faoliyatning me'yor va mezonlari bayoni berilgan. O'tmish jamiyat kelajagi uchun namuna qilib ko'rsatilgan. "Tarix kitobi" –"Shu szin" (miloddan avvalgi birinchi ming yillikning boshlanishi) ko'pincha "Shan hujjatlari" nomi bilan mashhurdir. Bu kitobda rasmiy hujjatlar, o'tmishda sodir bo'lgan tarixiy voqealar bayon qilingan.

"Bahor va kuz kitobi" – "Chun syu" Szo Chjuan (miloddan avvalgi IV asr) sharhlari bilan birgalikda Lu davlatining yilnomasidir. Bu kitob keyingi davrga kelib, axloq-odob, adabiyotning o'ziga xos namunasi vazifasini bajargan. "O'zgarishlar kitobi" – "I szin" qadimgi mumtoz kitoblardan farq qilib, olam va inson to'g'risida ilk falsafiy tasavvurlar ko'zga tashlanadi. Kitobda ilk asotirlar, afsonalardan asta-sekin olamni falsafiy tarzda anglash shakllanganligini ko'ramiz. Unda qator ontologik, gnoseologik muammolar va ularning qadimgi dunyo ma'qul ko'rgan yechimlari berilgan.

Dao-harakatdagi narsalar va olamning yo'nalishidir. Bunda osmon, yer- zamin va inson o'z yo'nalishlari bo'yicha alohida harakat qilsa-da, lekin ular doimo birga bo'ladi. Konfutsiy o'zining diniy-axloqiy falsafasini yaratmagan. U qadimgi Xitoyda bitilgan beshta mumtoz kitobni to'plash, uni har tomonlama sharhlab berish va keng tashviq etishda mashhur bo'lgan. Masalan, uning "Bahor va kuz kitobi"da Lu davlatining tarixiga doyr sharhlar yozilgan. Konfutsiy tomonidan bayon etilgan kitoblarning asosiy mazmuni beshta oddiy, lekin buyuk insoniy fazilatdan iboratdir. Bu donolik, insoniylik, sadoqat, keksalarni hurmat qilish va jasoratni qamrab oladi. Bular kishilar xatti-harakati, xulq-atvorini belgilovchi axloqiy qoidalar bo'lib, amaliy dastur vazifasini bajargan. Bu vijdoniylik va o'zini va o'zgalarni hurmat qilishni bildiradi.

Konfutsiylik miloddan avvalgi I asrda davlat tomonidan e'tirof etilgan ta'limot mavqeiga ega bo'ldi. Konfutsiylik millodning IX asridan boshlab Xitoyda tarqalgan buddizm ustidan g'alabaga erishadi, XI asrga kelib, daosizmni jamiyatning ma'naviy hayotidan siqib chiqara boshlaydi. Konfutsiy ta'limotini Men-szi (Men Ke miloddan avvalgi 371-289 yil) davom ettirdi. U Konfutsiyning axloqiy qarashlarini rivojlantirib, ezgulikni inson tabiatining asosi qilib oldi. Aql tamoyiliga asoslangan insoniylikni tan olmagan, o'zining hukmronligini zo'ravonlik bilan amalga oshirgan hukmdorning xalqdan umidini uzgani ma'qul. Osmon hukmi barcha narsalar, jumladan, kishilar, ularning hayoti, ijtimoiy funksiyasi, hokimiyatini belgilaydi.

Moizm. Moizm maktabining asoschisi Mo Di (miloddan avvalgi 479-391 y.y.)dir. Bu ta'limotda ijtimoiy hayot va axloq muammolariga katta e'tibor berilgan. Moislar ta'limoti Konfutsiy ta'limotidan tubdan farq qiladi. Hech bir falsafiy maktab moislardek mehnatga alohida e'tibor bermagan. Bu maktabning tinglovchilari o'z mehnati bilan kun kechirganlar. Mehr-oqibat, gullab-yashnash va o'zaro manfaatdorlik ularning asosiy shiori bo'lgan. Xilma-xil nazariy tadqiqotlarning hech qanday zaruriyati yo'q, jamiyat uchun eng muhim faoliyat mehnat faoliyatidir. Mo Dining vafotidan so'ng uning izdoshlari bilish masalalari bilan ham qiziqishgan. Ular ta'limotida hissiy mushohada, sezgi a'zolarinnig bilishdagi o'rni, narsa nomlari, hukm- muhokamalarni tajriba orqali tasdiqlash lozimligi kabi masalalar yaqqol sezila boshlangan.

O'rta asr Sharq falsafasi. Al-Xorazmiy jahon ilm-fani va falsafasida Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783 y, Xorazm - 850 y, Bag'dod) matematik, astronom, faylasuf sifatida o'ziga xos o'rin tutadi. U ilk bilimni Xorazmda oldi. Otasi saroy ayonlaridan bo'lgan va arab xalifasi Abbosiylar sulolasidan Horun ar-Rashid (hukmronlik davri 786-809 y.y)ning o'g'li Ma'munning Xorazmga noib (802-805 y.y) etib tayinlangani hamda o'ziga tengdosh Muso al-Xorazmiyni safdoshlari qatoriga qo'shganligi yosh, bo'lajak olimning taqdirida muhim rol o'ynadi. 809 yilda Horun ar-Rashid vafotidan keyin uning katta o'g'li Amin taxtni egallaydi. 813 yilda Xalifa Amin o'ldirilgandan so'ng Ma'mun (813-833 y.y) Bag'dodda xalifa bo'ladi. Ma'mun "Bayt ul-hikma" (Ilmlar uyi)ga asos solib, o'z davrining fozil-fuzalolariga homiylik qiladi. Unga Xorazmiy boshliq qilib tayinlanadi va bu lavozimda umrining oxirigacha faoliyat yuritadi.

Xorazmiy maxsus falsafiy asar yozmagan bo'lsa-da, lekin uning matematika, geometriya, geografiya, astronomiya, tarixga oid barcha kitoblarida ilmiy isbotlangan falsafiy fikr-mulohazalar mavjud.

Ahmad al-Farg'oniy. Al-Farg'oniyning ilmiy asarlarini jahon va tarix tan olgan. Ular ko'plab tillarga tarjima qilinib, asrlar osha turli mamlakatlarda nashr etilgan, binobarin, ulardan olimlar ommasi bahramand bo'lgan. Uning asosan oltita kitobi dunyoga ma'lum va mashhurdir. Bulardan "Kitob fi usul ilm an- nujum", ya'ni "Falakiyot ilmining usullari haqida kitob", "Ilm al- xaya" "Falakiyot ilmi" ni ko'rsatish mumkin. Bu qo'lyozmalar Angliya, Fransiya, AQSh, Marokash, Misr va Sankt-Peterburgda saqlanmoqda va tadqiqotchilar diqqat-e'tiboridadir. Asar 1145 yili Ionna Sevil, 1175 yili Herarad Kremon tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan va 1193, 1422, 1537, 1590, 1910 yillarda Gool, Regiomonton, Shyoner, Xristaman, Kampani kabi olimlar tomonidan Evropaning turli mamlakatlarida chop etilgan. Falsafadagi eng muhim masalalardan biri olam manzarasini ham al-Farg'oniy o'ziga xos tarzda fikran ko'ra olgan. Ptolomeydan (II asr) Kopernikgacha (XVI asr) olamning tuzilishi geotsentrizm qoidalari bilan tushuntirilgan, ya'ni osmondagi jismlarning hammasi (jumladan, Quyosh) umumiy markaz bo'lgan Yer atrofida aylanadi, deb tasavvur qilingan. Al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Ulug'beklarning fikr va hisob-kitoblari ham shu ta'limotdan chetga chiqmagan, zotan, o'rta asrlar davrining ilm darajasi va doirasi shuni taqozo etar edi. Geliotsentrizmga, ya'ni boshqa sayyoralar kabi Yer ham Quyosh tevaragida aylanadi, degan tizimga o'tish uchun hali bir necha asr bor edi. Al-Farg'oniy shimol bilan janub orasidagi kuzatuvlar har xil bo'ladi: janubdan shimolga jo'nayotgan odam uchun avvallari botadigan yoritg'ichlar endi botmasdan osmonda doimo ko'rinayotganini kuzatadi, shuningdek, janubda avvallari chiqib-botadigan yoritg'ichlar, endi chiqmay qoladi, bularning hammasi ma'lum qonunda ro'y beradi, deb hisoblaydi. U vaqtlarda esa Olam sakkiz qavat osmondan: Quyosh, Oy, beshta sayyora - Utorid (Merkuriy), Zuxra, Mirrix, Mushtariy, Zuhal va 1022 ta yulduz sfera (gumbaz)dan tashkil topgan, deb tasavvur qilingan. Al- Farg'oniy ilm-fan tarixida birinchi bo'lib sferalarning radiuslarini aniqlab berdi. Bu esa Olam tuzilishini ilmiy tasavvur etishning muhim vositasidir. Darhaqiqat, yer va yulduzlar sferasining, ya'ni zodiakning markazlari Yer markazida yotadi- ku, sayyoralar sferasining radiuslari turli yo'nalishdaligi uchun bir nuqtada kesishmaydi. Shuning uchun har

bir sayyoraning apogeyi (uzoqlashgani), binobarin, harakatning sekinlashuvi bo'ladi. Yorug'liklari olti xil bo'lgan barcha yulduzlar bir xil harakatdadir. Quyosh ikki xil: Sharqdan G'arbga va eliptika qutblari orqali o'tgan o'q atrofida aylanadi. Oy esa besh xilda harakatlanadi.

Al-Farg'oniy fikricha, qutb balandligi 90 bo'lgan joyda va zenitdagi vaqtda osmon ekvatori doirasi gorizont doiraga to'g'ri keladi. U yerda osmon gumbazining aylanishi tegirmon toshi aylanishi kabi bo'lib, gorizontda paralleldir. Osmonning ekvatordan yuqoridagi shimoliy yarim shari bu yerda doim ko'rinadi, ammo janubiy yarmi doimo ko'rinmaydi. U yerda butun yil -bir sutka, kunduz -olti oy, tun - olti oy. Osmon manzarasini gavdalantirib beradigan ikkita «belbog'» bor, ular osmon ekvatori va Quyosh ekliptikasi. Osmon ekvatori Yer ekvatorining osmondagi davomi, ular bir tekisliqda yotadi. Quyoshning Yer atrofida ko'rinma (aslida Yerning Quyosh tevaragida) harakati natijasida chizilgan traektoriya ekliptika deb atalib, bir yilda to'la yopiq chiziq -aylanani hosil qiladi. Ekvator bilan ekliptika tekisliklari o'zaro doimiy burchakni hosil qiladi. Al-Farg'oniyning yana bir muhim yutug'i, shu burchakni o'z zamonasida 23 daraja-yu 35 daqiqa deb, boshqalarga qaraganda (masalan, Ptolomeyda - 23 daraja 51 daqiqa) aniq o'lchashidir.

Al-Kindiy. Abu Yusuf ibn Is'hoq al-Kindiy arablardan chiqqan eng mashhur faylasuf va o'rta asrning yirik allomasidir. U "Sharq arastuchiligi» deb nom olgan falsafiy oqimning asoschisi. O'rta asr tarixchisi al-Kiftiyning ta'kidlashicha, islomda al-Kindiydan boshqa, haqiqiy faylasuf deb atalishga loyiq, falsafiy bilimlarda dong chiqargan mutafakkir yo'q. Yirik muarrix Ibn al- Nadim (X asr) al-Kindiyga baho berib, uni o'z davrining eng iste'dodli farzandi ekanligini ta'kidlab, ajdodlar qoldirgan donishmandlikning yagona vakili sifatidagi shaxs, deb atagan. Al-Kindiyning merosi ahli bashar madaniyati xazinasiga Sharq xalqlari qanchalik katta hissa qo'shganliklarini ko'rsatish bilan birga, o'sha davrning yuqori madaniyati haqida jonli tasavvur beradi. Al-Kindiy "arab tilida yaratilgan" madaniyat gullab-yashnagan Abbosiy xalifalardan biri bo'lgan al-Ma'mun (813- 833y.y.) davrida yashadi va ijod qildi. Bu davrda tabiatshunoslik va falsafiy tafakkur taraqqiyotiga yirik qadamlar qo'yilayotgan edi. Al-Kindiy dunyoqarashi shakllanishiga yunon falsafasi va mantig'ining ilk bilimdonlari, islom ilohiyotidagi aqliy oqim vakillari bo'lgan mu'taziliylar g'oyalari katta ta'sir ko'rsatdi.

Alloma fikricha, har qanday narsa bir-biri bilan o'zaro bog'langan besh qismning mavjudligini taqozo etadiki, ular quyidagilar: modda, shakl, makon, harakat va zamon. Al-Kindiy qadimgi dunyo mutafakkirlari merosiga chuqur hurmat bilan qarab, Arastu falsafasiga, ayniqsa, katta e'tibor berdi. U «Arastu kitoblari miqdori va falsafani o'zlashtirish uchun zarur bo'ladigan narsalar haqida risola» asarini yozib, unda kimki falsafani o'rganishni xohlasa, yunon faylasufi Arastu falsafasini o'qishi zarurligini ta'kidlaydi. "Besh mohiyat haqida kitob", "Paydo bo'lish va zavolga yetishning yaqin harakatdagi sabablarini tushuntirish" kabi asarlarida Arastu ta'limotini sharhlab, uni rivojlantirdi. Bu jihatdan "Besh mohiyat haqida kitob" asari diqqatga sazovor.

Al-Kindiy fikricha, ruh shunday narsaki, uning joyi javhar (substansiya)ga ega bo'lgan ashyolar va ilohiy narsalar o'rtasidadir. Chunki, har narsaga qodir Alloh ruhning joyini jips narsalar o'rtasida bo'lishga hamda hech jipsligi bo'lmagan nozik narsa orasida bo'lishga tayin qildiki, shu tufayli javharni bilishdan ilohiy narsalarni bilishga o'tish mumkin bo'lsin, negaki, jips narsani bilish nozik narsani bilishga olib kelmasin. Faoliyat ham bir necha ko'rinishlarga ega, ammo bu haqdagi mulohazalarda biz ashyolarni bilish haqida so'z yuritsak ma'qulroq bo'ladi. Al-Kindiyning ta'kidlashicha, ba'zi ashyolar barcha javharlarda mavjud bo'lsa, ba'zilari mavjud bo'lmaydi. Barcha javharlarda bo'ladigan narsalar jamiki jismlar - sayyoralar, doiralar va shunga o'xshashlardir. Barcha javharlarda mavjud bo'lgan narsalar shunday ashyolardirki, ular paydo bo'lish va zavol tutishga mahkum. Ularning ba'zilari yer ichida, ba'zilari yer ustida, uchinchilari esa yer ostidadirlar. Hamma javharlarda mavjud bo'ladigan narsalarga kelsak, deb yozadi al-Kindiy, ular beshtadir: birinchisi - modda, ikkinchisi-shakl, uchinchisi -makon, to'rtinchisi - harakat, beshinchisi -zamon. Javhar mavjud bo'lgan barcha ashyolarda uni tashkil etgan modda bo'lib, biz uni muayyan shaklda mavjudligini ko'ramiz, u boshqa narsalardan ko'rinishi bilan farq qiladi.

Abu Bakr Muhammad Zakariyo ar-Roziy. Ar-Roziy 865-yilning 28-avgustida Ray (hozirgi Tehron) shahrvda tug'ilgan. U yoshligidan she'riyat, musiqaga qiziqdi, keyinchalik falsafa, matematika, astronomiya, kimyo kabi fanlar bilan jiddiy shug'ullandi. U bir necha muddat Ray va Bag'dod shaharlaridagi kasalxonalarda ishladi, "o'z davrining Jolinusi" (Galeni), degan faxrli nomga sazovor bo'ldi.

Olim bir necha yil O'rta Osiyo hududidagi shaharlarda yashadi, ilmiy jamoalar bilan yaqin aloqada bo'ldi, shogirdlar yetishtirdi. Ar-Roziy hayotining so'nggi yillarini ona shahri Rayda o'tkazdi va 925 yilning 26 oktyabrida vafot etdi. Zakariyo ar-Roziy "Sirlar kitobi" («Kitob al-asror»), "Sirlar siri kitobi" (Kitob sir al-asror), "Ta'limga kirish kitobi" (Kitob madhal at-ta'lim), "Ruhiy shifo topish kitobi" (Kitob tibb ar-ruhoniy), "Falsafiy hayot tarzi haqida kitob" (Kitob siyrat al-falsafiyya), "Baxt- saodat va boylikka erishish yo'llari haqida maqola" (Maqola fi amorat iqbol va ad-davlati) kabi asarlarning muallifidir. Bular alloma hayoti, ijodi va dunyoqarashini o'rganishda muhim manba rolini o'ynashi tabiiydir.

Olam o'zining yaxlit holatini o'zgartirib, yo'q bo'lib ketganida ham avvalgi xususiyatini tark etmaydi. Zakariyo ar-Roziy beshta muhim asos - Xudo, ruh, birlamchi modda, makon va zamonni olam mavjudligining zaruriy manbasi, deb e'tirof etar ekan, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ymaydi. Chunki, uning fikricha, beshta asos aslida bir-birini to'ldiradi. Lekin shu bilan birgalikda, ularning bir-biridan tubdan farqi bor ekanligini ham ta'kidlash lozim. Birinchidan, har qanday oddiy kimsa yaratuvchi bilan yaratilgan narsa -hosila bir-biriga monand kelmasligini yaxshi biladi. Ikkinchidan, ruhning mohiyatini turli kayfiyatda talqin qilish mumkin. Uchinchidan esa, birlamchi modda, makon va zamonni beshta javharlarning mustaqil ko'rinishlari sifatida qarab chiqish ba'zi qiyinchiliklarga olib kelishi tabiiy holdir. Har holda borliq masalasida Zakariyo ar-Roziy dualistik qarashga (olamning ikki asosi)ga yuz tutganligi ravshan bo'lib qoladi. Zakariyo ar-Roziyning bilish haqidagi ta'limoti olim falsafiy qarashlarining muhim jabhasini tashkil qiladi. Ar-Roziy bu ta'limotida voqeiy olamni bilishga shubha bilan qaraydigan barcha sa'y-harakatlarga qo'shilmaydi. Uning ta'kidlashicha, inson narsalar, hodisalarni bilish sub'yektidir, usiz bilish jarayoni amalga oshmaydi, olam esa bilishning ob'yektidir. Bilish jarayonining samarali amalga oshishi sezgi a'zolari, jonli mushohada va aqlning mavjudligi orqali ta'minlangan. Har qanday jonli mushohada tashqi olamda mavjud narsalar va sodir bo'layotgan hodisalarning aks sadosidir. Bunday ta'sir jarayoni tufayli inson atrofida ro'y berayotgan hodisalarning holati - katta-kichikligi, qattiq-yumshoqligi, oq-qoraligi kabi xossalaridan xabardor bo'lib boradi. Ar-Roziy, ko'z nur taratadi, bu nur muayyan ashyolarga yetib borib, ularni nurlatadi Natijada, biz ushbu ashyolar holatidan xabardor bo'lamiz, degan Aflotunga tegishli

Alloma fikricha, har qanday narsa bir-biri bilan o'zaro bog'langan besh qismning mavjudligini taqozo etadiki, ular quyidagilar: modda, shakl, makon, harakat va zamon. Al-Kindiy qadimgi dunyo mutafakkirlari merosiga chuqur hurmat bilan qarab, Arastu falsafasiga, ayniqsa, katta e'tibor berdi. U «Arastu kitoblari miqdori va falsafani o'zlashtirish uchun zarur bo'ladigan narsalar haqida risola» asarini yozib, unda kimki falsafani o'rganishni xohlasa, yunon faylasufi Arastu falsafasini o'qishi zarurligini ta'kidlaydi. "Besh mohiyat haqida kitob", "Paydo bo'lish va zavolga yetishning yaqin harakatdagi sabablarini tushuntirish" kabi asarlarida Arastu ta'limotini sharhlab, uni rivojlantirdi. Bu jihatdan "Besh mohiyat haqida kitob" asari diqqatga sazovor.

Al-Kindiy fikricha, ruh shunday narsaki, uning joyi javhar (substansiya)ga ega bo'lgan ashyolar va ilohiy narsalar o'rtasidadir. Chunki, har narsaga qodir Alloh ruhning joyini jips narsalar o'rtasida bo'lishga hamda hech jipsligi bo'lmagan nozik narsa orasida bo'lishga tayin qildiki, shu tufayli javharni bilishdan ilohiy narsalarni bilishga o'tish mumkin bo'lsin, negaki, jips narsani bilish nozik narsani bilishga olib kelmasin. Faoliyat ham bir necha ko'rinishlarga ega, ammo bu haqdagi mulohazalarda biz ashyolarni bilish haqida so'z yuritsak ma'qulroq bo'ladi. Al-Kindiyning ta'kidlashicha, ba'zi ashyolar barcha javharlarda mavjud bo'lsa, ba'zilari mavjud bo'lmaydi. Barcha javharlarda bo'ladigan narsalar jamiki jismlar - sayyoralar, doiralar va shunga o'xshashlardir. Barcha javharlarda mavjud bo'lgan narsalar shunday ashyolardirki, ular paydo bo'lish va zavol tutishga mahkum. Ularning ba'zilari yer ichida, ba'zilari yer ustida, uchinchilari esa yer ostidadirlar. Hamma javharlarda mavjud bo'ladigan narsalarga kelsak, deb yozadi al-Kindiy, ular beshtadir: birinchisi - modda, ikkinchisi-shakl, uchinchisi -makon, to'rtinchisi - harakat, beshinchisi -zamon. Javhar mavjud bo'lgan barcha ashyolarda uni tashkil etgan modda bo'lib, biz uni muayyan shaklda mavjudligini ko'ramiz, u boshqa narsalardan ko'rinishi bilan farq qiladi.

Abu Bakr Muhammad Zakariyo ar-Roziy. Ar-Roziy 865-yilning 28-avgustida Ray (hozirgi Tehron) shahrvda tug'ilgan. U yoshligidan she'riyat, musiqaga qiziqdi, keyinchalik falsafa, matematika, astronomiya, kimyo kabi fanlar bilan jiddiy shug'ullandi. U bir necha muddat Ray va Bag'dod shaharlaridagi kasalxonalarda ishladi, "o'z davrining Jolinusi" (Galeni), degan faxrli nomga sazovor bo'ldi.

Olim bir necha yil O'rta Osiyo hududidagi shaharlarda yashadi, ilmiy jamoalar bilan yaqin aloqada bo'ldi, shogirdlar yetishtirdi. Ar-Roziy hayotining so'nggi yillarini ona shahri Rayda o'tkazdi va 925 yilning 26 oktyabrida vafot etdi. Zakariyo ar-Roziy "Sirlar kitobi" («Kitob al-asror»), "Sirlar siri kitobi" (Kitob sir al-asror), "Ta'limga kirish kitobi" (Kitob madhal at-ta'lim), "Ruhiy shifo topish kitobi" (Kitob tibb ar-ruhoniy), "Falsafiy hayot tarzi haqida kitob" (Kitob siyrat al-falsafiyya), "Baxt- saodat va boylikka erishish yo'llari haqida maqola" (Maqola fi amorat iqbol va ad-davlati) kabi asarlarning muallifidir. Bular alloma hayoti, ijodi va dunyoqarashini o'rganishda muhim manba rolini o'ynashi tabiiydir.

Olam o'zining yaxlit holatini o'zgartirib, yo'q bo'lib ketganida ham avvalgi xususiyatini tark etmaydi. Zakariyo ar-Roziy beshta muhim asos - Xudo, ruh, birlamchi modda, makon va zamonni olam mavjudligining zaruriy manbasi, deb e'tirof etar ekan, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ymaydi. Chunki, uning fikricha, beshta asos aslida bir-birini to'ldiradi. Lekin shu bilan birgalikda, ularning bir-biridan tubdan farqi bor ekanligini ham ta'kidlash lozim. Birinchidan, har qanday oddiy kimsa yaratuvchi bilan yaratilgan narsa -hosila bir-biriga monand kelmasligini yaxshi biladi. Ikkinchidan, ruhning mohiyatini turli kayfiyatda talqin qilish mumkin. Uchinchidan esa, birlamchi modda, makon va zamonni beshta javharlarning mustaqil ko'rinishlari sifatida qarab chiqish ba'zi qiyinchiliklarga olib kelishi tabiiy holdir. Har holda borliq masalasida Zakariyo ar-Roziy dualistik qarashga (olamning ikki asosi)ga yuz tutganligi ravshan bo'lib qoladi. Zakariyo ar-Roziyning bilish haqidagi ta'limoti olim falsafiy qarashlarining muhim jabhasini tashkil qiladi. Ar-Roziy bu ta'limotida voqeiy olamni bilishga shubha bilan qaraydigan barcha sa'y-harakatlarga qo'shilmaydi. Uning ta'kidlashicha, inson narsalar, hodisalarni bilish sub'yektidir, usiz bilish jarayoni amalga oshmaydi, olam esa bilishning ob'yektidir. Bilish jarayonining samarali amalga oshishi sezgi a'zolari, jonli mushohada va aqlning mavjudligi orqali ta'minlangan. Har qanday jonli mushohada tashqi olamda mavjud narsalar va sodir bo'layotgan hodisalarning aks sadosidir. Bunday ta'sir jarayoni tufayli inson atrofida ro'y berayotgan hodisalarning holati - katta-kichikligi, qattiq-yumshoqligi, oq-qoraligi kabi xossalaridan xabardor bo'lib boradi. Ar-Roziy, ko'z nur taratadi, bu nur muayyan ashyolarga yetib borib, ularni nurlatadi Natijada, biz ushbu ashyolar holatidan xabardor bo'lamiz, degan Aflotunga tegishli

mulohazani rad etadi. Uning fikricha, nurning manbai odamning ko'zi emas, aksincha, bizdan tashqarida mavjud ashyolardan tarqaladigan nurdir.

Ar-Roziy inson aql-zakovatini ilohiy aqlga bog'laydi. Ilohiy aql ko'magida uning buyukligi, yagonaligi va yaratuvchiligidan xabardor bo'lamiz. Inson aqli barcha narsalarni bilishga qodir. Bu borada unga murabbiy shart emas. Buning uchun unda bilishga moyillik va istak-xohish bo'lishi kifoya.

Abu Nasr Forobiy. Forobiy o'rta asr musulmon Sharqining mashhur mutafakkiri, sharq falsafaning eng yirik vakilidir.

U 873-yilda Sirdaryo qirg'og'idagi Forob qishlog'ida tug'ilgan. Ba'zi manbalarga qaraganda, Forobiy o'sha davrda arab xalifaligining poytaxti, butun Sharqning iqtisodiy, ilm-fan va madaniyat markazi hisoblangan Bag'dod shahriga ko'chib ketgan. Farobiy bu yerda arab va xristian olimlar ko'magida ilm egalladi, ko'pgina tillarni o'rgandi. Forobiy qadimgi yunon ilm-fanining bilimdoni sifatida avvalgi mualliflar asarlariga turli hajmda sharhlar yozdi. Arastuning "Metafizika", "Fizika", "Meteorologiya" va mantiq sohasiga tegishli kitoblariga, yunon mualliflari Ptolemey, Porfiriy va boshqalarning axloq-odob, psixologiya, tabiiy fanlar bo'yicha yaratgan ilmiy risolalariga sharhlar yozgan. Shu bilan bir qatorda, olim yunon faylasuflari to'g'risida qiziqarli asarlar yaratgan. Bunga misol tariqasida ikki faylasuf Arastu va Galenning barcha fikrlari to'g'risida kitob, "Arastu va Galen o'rtasida vositachilik" kabilarni ko'rsatish mumkin. Alloma "Falsafa manbalari","Mantiq ilmiga kirish", "Masalalar manbai", "Substansiya", "Davlat to'g'risida risola", "Falsafani o'rganishdan avval nimalarni o'rganish lozim", "Falsafiy masalalar va ularga javoblar", "Aql haqida risola", "Fozil odamlar shaxri" kabi 160 dan ortiq asarlarning muallifidir. Uning qarashlarida falsafiy tafakkurga taalluqli ko'pgina muammolar ilgari surilgan. Bularga voqelik, inson, Alloh, bilish va uning ijtimoiy hayotdagi o'rni, mantiq va ilm, tabiat va inson, jamiyat va inson, davlat va boshqarish, ijtimoiy adolat va ideal jamiyat kabilar kiradi. Aslida borliq muammosini hal etishda vujudi-vojib va vujudi-mumkinning o'zaro munosabatiga murojaat etish an'anasi Forobiy dahosiga taalluqlidir. U qator asarlarida bu masalaga to'xtalib, vujudi vojib barcha mavjud yoki paydo bo'lishi mumkin narsalarning birinchi sababi ekanligini uqtiradi. Birinchi sabab sifatida u o'zga sabab yoki turtkiga muhtoj emas. Uning zotiga nuqson va

qusurlar, ziddiyat, nomutanosiblik, ilmda beqarbrlik, bilmaslikdan bilishga qarab yo'nalish kabi jarayonning bo'lishi mumkin emas. U mutlaq borliq va donishmandlik ifodasidir. U yaratadi, lekin uning o'zi o'zga narsalar tomonidan yaratilmaydi. Vujudi mumkin saltanati esa doimo o'zgarish va ziddiyatli munosabatlarda, unda barcha narsalar oddiydan murakkablikka, tartibsizlikdan tartibga, norasolikdan kamolotga qarab yuz tutadi. Vujudi mumkin vujudi vojibning hosilasi. Vujudi vojib tufayli barcha narsalar abadiy yashashga mahkum va har qanday mavjud bo'lmasliqdan mahrum Vujudi vojib yaratgan ashyolarning avvali birinchi aqldir. Brinchi aql faol aql sifatida har bir sayyoraga xos aqllarni vujudga keltiradi.

Eng so'nggi falakiy aql natijasida yer-zamindagi aql-ruh va barcha moddiy jismlarning asosi bo'lmish to'rt unsur- tuproq, suv, havo, olov paydo bo'ladi. Bu to'rt unsur negizida o'simliklar, hayvonot olami va inson zoti vujudga keladi. Bu saltanatlarga o'simlik ruhi, hayvoniy ruh va insoniy ruhlar xosdir. O'z navbatida nafsiy va aqliy quvvatlar yuzaga keladi. Jism va harakat o'zaro uzviy aloqada bo'ladi. Harakat bir qancha shakllarda ifodalanishi mumkin. Fazoviy harakat aylanma harakat bo'lib, harakatlanuvchi jism o'z holatini o'zgartirib turadi. Oddiy jismlarga miqdoriy, sifatiy o'zgarish xos bo'lib, u to'g'ri chiziq bo'ylab yo'nalgandir. Bu harakatning o'zi ham ikki ko'rinishda amal qilib, ulardan biri markazga yo'nalgan, ikkinchisi esa, aksincha, markazdan qochgan harakatdir. Murakkab jismlar harakati murakkab harakat bo'lib, uning u yoki bu shaklda namoyon bo'lishi moddiyun unsurlarining bu harakatda qatnashishiga bog'liqdir.

Inson o'zining birlamchi bilimlarini tashqi olamdan oladi, U ko'pgina turli-tuman vosita va usullar bilan ta'minlanganki, idrok, sezgi, xotira, tasavvur, mantiqiy tafakkur, aql, nutqi orqali voqelikni o'zlashtira boradi. Aynan shu vositalar tufayli inson ilm-fanni yaratadi. Bilish jarayoni cheksiz bo'lib, u inson jonli mushohadasi va aql-zakovatining bilmaslikdan bilishgacha bo'lgan o'ta murakkab va mashaqqatli yo'lni qamrab oladi. Bu yo'nalish hodisalar oqibatini bilishdan uning sababini bilishni, hodisadan mohiyatga, aksidensiyadan substansiyaga yetib borishni maqsad qilib qo'yadi. Bilish jarayoni tashqi olam ashyolarining sezgi a'zolariga bevosita ta'siri tufayli paydo bo'lgan tashqi ruhiy kuch-quvvatlardan boshlanadi. Bunda quvvatlar aslida beshta bo'lib, ular sezgi, ta'm bilish, hid sezish, tovushlarni eshitish, ko'rish kabilardan iboratdir. Bularni Forobiy "his etuvchi quvvat" deb ataydi.

His qiluvchi quvvat o‘z navbatida ichki ruhiy quvvatlarga tayanadi. Ichki ruhiy quvvatlar: a) xotirlovchi va faraz etuvchi, b) his-tuyg‘ularning harakatlantiruvchi quvvati va v) so‘zlovchi yoki aqliy quvvatlardan tashkil topadi. Mutafakkirning ta’kidlashicha, inson hayvonot olamidan “aqliy quvvat”ga egaligi bilan ajralib turadi. Aqliy bilish, tafakkur, hissiy bilish, jonli mushohadadan farq qilib, borliqni mavhumlashtirish, umumlashtirish tufayli in’ikos etadi. Bu birmuncha murakkab jarayon bo‘lib, o‘rganilayotgan jarayonlar, hodisalardagi muhim, zaruriy jihatlarni muhim bo‘lmagan jihatlardan ajratib olib, o‘rganish bilan bog‘liqdir. Aqliy bilish Forobiy talqinida ikki jihatga ega. Birinchidan, u aniqlikdan uzoqlashish va unda umumiy tomonlarni ajratib olishni, ikkinchidan esa, ushbu umumiylik ko‘magida konkret jihatdan mohiyatga chuqurlashishni taqozo qiladi. Pirovard natijada aql yer-zaminda sodir bo‘layotgan hodisalarni bilib olib, falakiy jismlarni bilishga kirishadi, koinot aqli bilan birlashadi.

Forobiyning adolatli, fazilatli jamiyat, davlatni demokratik boshqarish to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari diqqatga sazovordir. Mutafakkirning adolatli ideal jamiyatida kishilarning samarali mehnatiga, ilm sohiblariga, ularning aql- zakovatiga, fazilatli axloq-odobiga, hayotiy tajribasiga yuksak baho beriladi. Diniy adovat, o‘zga dinga e’tiqod qiluvchilarga nafrat kabi sifatlar mutafakkirga xos xususiyat emas. Uning uchun eng muhimi - kishilarning u yoki bu dinga e’tiqod qilishi emas, balki ma’rifatning tantanasi, ilm-fanning istiqboli, inson kamoloti, baxt-saodat, ezgulikning qaror topishi, insonlarning o‘zaro hamjihatligidir. Bunday jamiyatda kasb-hunar, ilm-fanni egallashga keng yo‘l ochib berilgan. Jamiyatda tenghuquqlilik va erkinlik saltanati hukmronlik qiladi, yakka hokimlikka barham berilgan. Davlat boshliqlarini fuqarolarning o‘zlari saylaydilar. Agar saylangan boshliqlar xalq manfaatlariga zid harakat qilsalar, ular o‘z amal-mansablaridan chetlashtiriladilar. Ideal davlat arboblari o‘z faoliyatlarida adolat, tenghuquqlilik, fuqarolar manfaatlarini ko‘zlab ish tutadilar.

Abu Rayhon Beruniy. Beruniy ilm-fanning deyarli barcha sohalari bilan shug‘ullangan tadqiqotchidir. Beruniyning borliq to‘g‘risidagi g‘oyalari uning tabiiy-ilmiy qarashlari bilan uzviy bog‘langandir. Uning borliq, tabiat haqidagi g‘oyalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarga samarali ta’sir qildi. Beruniy e’tiborini borliq, fazo va vaqt, materiya, zaruriyat va tasodif, qonuniyat, harakat va ziddiyat, rivojlanish kabi muammolar o‘ziga jalb etadi. Beruniy aksariyat olimlar kabi

moddiy borliqning tangri tomonidan yaratilganligini e’tirof etadi. Uning fikricha, olam, samo jismlari tangri yaratgan vaqtda tarqoq holda bo‘lib, keyin harakatga kelgan va natijada muayyan nuqtaga to‘plangan bo‘lishi ehtimoli mavjud. Beruniy “Oddiy javharlar paydo bo‘lish va yo‘q bo‘lishni bilmaydi” degan fikrni ilgari surgan, Arastu, Forobiy va Ibn Sinoning birinchi turtkisiga xayrixohlik bildirmasa-da, pirovard natijada olamning yaratilganligini e’tirof etadi. Fazo va vaqt masalalarida ham aniq mazmun kasb etishini, demak, ularning muayyan ashyolar bilan chegaralanishini tan oladi

Abadiylik, uning fikricha, birinchi sabab bilan bog‘liqdir, chunki u yaratuvchining umridir. Lekin olimning taraqqiyot, qonuniyat va zaruriyat haqidagi g‘oyalari behad samaralidir. Masalan, daraxt barglarining miqdori ham zaruriyatdan xoli emas.

Mutafakkirning jamiyat va inson to‘g‘risidagi qarashlari ham o‘ziga xosdir. Inson Allohning yaratuvchilik faoliyati tufayli paydo bo‘lgan. U Alloh buyukligi va donishmandligining nishonasidir. Unga in’om etilgan sezgi a’zolari, aql, ya’ni barcha nafsiy va aqliy quvvatlar behudaga berilmagan. Inson ular orqali Allohning amr- farmonini eshitadi, his etadi, mo‘jizalarni mushohada kilib bular orqali uning yagonaligidan, qudratli, dono va mehribon ekanligidan xabardor bo‘ladi. Inson hayoti va faoliyati moddiy omillar, tabiiy qonuniyat asosida kechadi. Beruniyning ta’kidlashicha, jug‘rofiy omil inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson ortiqcha jismoniy kuch va qudratdan mahrum ekanligi, unda o‘z- o‘zini muhofaza qilish vositalarining yo‘qligi, boshqalar tomonidan qilinadigan xurujlarga duch kelishi oqibatida uni himoya qiladigan va ehtiyojlarini qondirishini ta’minlay oladigan narsaga doimiy zaruriyat sezadi.

Ibn Sino. Ibn Sino tibbiyot sohasida tengsiz olim bo‘lishi bilan birga, u ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarning rivojida ham o‘zining beqiyos o‘rniga ega. Undan 280 dan ziyod asarlar meros bo‘lib qolgan. Olimning asarlari orasida “Shifo kitobi”, “Insof kitobi”, “Najot kitobi”, “Tib qonuni”, “Bilimlar kitobi” va boshqalar g‘oyat darajada e’tiborlidir.

Ibn Sino ta’limotidagi, ruhning muhabbat vositasi bilan kamol topishi, insonning o‘sish jarayonida balog‘atga yetib, fazilat topishi bilan ifodalanadi. U nur, ruh, ishq tushunchalarini o‘zaro jips aloqadorlikda tushuntiradi. Nur ya’ni aql ruhni o‘ziga jalb qiladi, maftun etadi, mukammallikka yetaklaydi. Ana shu da’vat, kamolotga erishishning

ijobiy xislatidir, deb ta'kidlaydi Ibn Sino. Aql timsoli Hayy ibn Yaqzon, insonga tuban xislatlar, nomaqbul xulqdan poklanish yo'lini ko'rsatuvchi kuchdir. Shuningdek, Ibn Sino fikriga ko'ra, barcha falsafiy ilmlar ikki, ya'ni nazariy va amaliy qismlarga bo'linadi. Bunda nazariy qismning maqsadi -haqiqatni bilish; amaliy qismning maqsadi esa saodatga erishishdir. Falsafiy fanlar, Ibn Sinoning fikricha, ikki turga bo'linadi: birinchisi bizning shaxsiy xatti-harakatimiz bilan tanishtiradi va u "amaliy ilmlar" deb nomlanadi. Chunki bilimlarning foydasi, biz bu dunyoda najot topishga umid qilishimiz, undagi ishlarimiz tartibli bo'lishi uchun kerak bo'ladi. Ikkinchisi esa bizni ruhiyatimiz shakllanishi va bu dunyoda baxtli bo'lishimiz uchun narsalar olamining holatini bizga anglatadi. O'z o'rnida tushuntiriladigan bu ilm nazariy deb nomlanadi. Mazkur tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, falsafiy ta'lim tushunish qiyin bo'lgan bilimlardan iborat soha emasligini aynan islom faylasuf olimlari o'zlarining nafaqat ilmiy qarashlari orqali, balki amaliy faoliyatlari asosida ham isbotlashga harakat qilganlar. Ibn Sinoning "Ruh" risolasi asosida bilish nazariyasining mohiyatini anglash mumkin. Olim bilishning turli darajalarini batafsil ko'rib chiqib, tashqi tuyg'ular va ratsional bilish faoliyatiga alohida e'tibor beradi.

Abu Ali Ibn Sinoning "Sog'liqni saqlash ilmiy konsepsiyasi" mantiqiy modelida sog'liqni saqlash ilmining yetti tamoyili keltiriladi. Ya'ni:

- mijozlarni mo'tadil qilish;
- yeyiladigan va ichiladigan narsalarni tanlash;
- gavdani chiqindilardan tozalash va to'g'ri tuzilishni saqlash;
- burunga tortiladigan havoni yetarli va yaxshi qilish;
- kiyiladigan kiyimni yaxshilash;
- jismoniy va ruhiy harakat mo'tadilligi;
- uyqu va uyg'oqlikni mo'tadil qilish.

Ibn Sinoning "Tadbir al-manozil", "Axloqqa oid risola", nomli asarlarida aynan bola tarbiyasi, kamoloti va komilligi haqida so'z yuritiladi.

Ibn Sinoga ta'limotiga ko'ra, barcha mavjudotning asosi va ibtidosi "vujudi vojib"dir, ya'ni tangridir.

Vujudi vojib - birinchi mohiyat, javhar. Uning mavjudligi sababini boshqa narsalardan axtarish o'rinsizdir, chunki birinchi sabab uning natijasi, oqibati bo'lgan xilma-xil jarayonlarning mohiyatiga bog'liq bo'la olmaydi. Vujudi vojibning mavjudligi uning o'ziga bog'liq. U

mustaqil mohiyat. Bu mohiyat yagona. Alloh zotida kamchilik va nuqsonlarning uchrashi imkoniyatdan tashqarida. Doimiy faollik birinchi sababning muhim xususiyatini tashkil qiladi. Birinchi sabab ba'zan faol, ba'zan esa faollikdan xoli bo'lmog'i mumkin emas. Allohning yaratishdan toliqishi, faoliyatni amalga oshirishni istashi yoki istamasligi mohiyatiga ziddir. Istamaslik, ma'qul ko'rmaslik yaratuvchining qodir, rahmdillik kabi sifatlariga putur yetkazadi. Vujudi vojibning oqibati vujudi mumkindir. Vujudi vojib va vujudi mumkin bir-biridan vaqt nuqtai nazaridan farqlanmaydi. Ular o'rtasidagi farq aslida nafislik darajasi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, barcha narsa, jarayonlar ifodasi bo'lgan vujudi mumkinning vujudi vojib tomonidan yaratilishi ixtiyoriy emas, balki zaruriy bo'lib mantiqqa zid kelmaydigan jarayondir.

Ibn Sino harakat muammosiga alohida e'tibor bilan qaraydi. Harakat jismlarning ichki mohiyatidan kelib chiqadi. Olim «Shifo kitobi»da harakat tushunchasini keng ma'noda quyidagicha ta'kidlaydi; 1) moddiylik va harakat;
2) harakat-moddiylikning ichki holati; 3) moddiy olam na harakat ob'yektiv xarakterga ega; 4) harakat jismlarning o'zaro o'rin almashinuvi bo'lib qolmasdan, balki keng ma'noda ularning o'zgarishi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishidir. Ibn Sinoning fikricha, harakat quyidagi uchta ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1. Aksidental harakat. Bu harakatda jism boshqa jismda bo'lib, o'sha jism harakati bilan birga harakat qiladi, bir o'rindan boshqa o'ringa ko'chadi, lekin bu jism o'z o'rnini o'zgartirmaydi.

2. Majburiy harakat. U jismning o'z harakati emas, harakatning sababi jism mohiyatidan tashqarida bo'ladi. Masalan, ot aravani tortadi, suv tashiydi, odam olov yoqadi, toshni otadi va hokazolar.

Tabiiy harakat. Bu harakat jismning o'z-o'zicha harakatidir. Olovning ko'tarilishi, shamolning sodir bo'lishi, toshning pastga tushishi kabilar. Bu o'z navbatida doira va to'g'ri chiziq bo'ylab harakatdan iborat bo'ladi. Harakat, o'z navbatida, fazo va vaqt bilan o'zaro uzviy aloqada bo'ladi. Yaratilish jarayonining ibtidosi va intihosi bo'lmagani kabi, harakat, fazo va vaqt ham abadiydir. Cheksizlik ayrim holda olingan chegaralangan harakat, fazo va vaqtdan tashkil topadi. Mutafakkir «Fanlarning aqlga asoslangan qismlari» asarida barcha falsafiy fanlarni ikkiga - nazariy va amaliy falsafaga bo'ladi. Nazariy fan metafizika (yuqori darajadagi fan), matematika (o'rta bosqichdagi fan) va fizika

(fanning pastki qatlami)dan iborat. Metafizika mutlaq borliq va uning umumiy holatlarini mavhum kategoriyalar vositasida o'rganadi.

Ibn Sino mantiqni ilmlar tasnifiga kiritmaydi, uni bilishning vositasi deb hisoblaydi. Olim ilm sohalarining tasnifini tuzar ekan, uni voqei olam hodisalari real xossalaridan kelib chiqqan holda tadqiq etadi. Olim «Tabiat durdonasi»da ko'pchilikka g'ayritabiiy tuyulgan sarob, jismlarning solishtirma og'irligi, changning yorug' xonada ko'rinmasligi, chaqmoq, momaqaddiroq, nur, yomg'ir, daraxt barglarining funksiyasi to'g'risida g'oyat qiziqarli ma'lumotlar bergan. Zamin qa'rida yuz beradigan geologik o'zgarishlar, ma'danlarning uzoq vaqg davom etgan turli xil tabiiy hodisalar ta'sirida paydo bo'lishi to'g'risidagi fikr- mulohazalari e'tiborlidir. Ma'danlarning tez yoki asta-sekin, evolyutsion tarzda shakllanish jarayonining sabablari birinchi galda moddalarga ta'sir etuvchi tabiiy kuchlarning quvvati va ularning boshqa kuchlar ustidan ustuvor kelishi yoki ulardan mag'lub bo'lishidir. Bu borada suv bilan shamolning tog'lar, tog' jinslarini yaratishdagi, zamin relefini o'zgartirishdagi bunyodkorlik roli behad darajada samarali bo'lgan, deb hisoblaydi Ibn Sino.

Ibn Sino merosida ilm va axloq birligi muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Axloqiy ravnaq insonga xosdir, chumki u aqlning ulkan kuchi, tafakkurning faolligiga asoslanib, haqiqat bilan yolg'on-yashiq o'rtasidagi chegarani belgilab olibgina qolmasdan, balki do'stning dushmandan farqini ham bilib oladi. Agar narsalar, jarayonlarning mohiyatini bilishda intellektual yetuklik, olimlik salohiyati muhim bo'lsa, axloqiy kamolotga erishish uchun bu fazilatlarning o'zi yetarli emas.

Muhammad G'azzoliy. Abu Hamid ibn Muhammad G'azzoliy 1059 - yilda Xurosonning Tus shahrida tavallud topdi. Bolalik va o'smirlik yillarini shu shaharda o'tkazib, o'qishni davom ettirish uchun Nishopurga jo'nadi. 1085 yilda saljuqiylar sulolasining eng mashhur vaziri Nizomul Mulk xizmatiga kirdi. Shu vaqtdan boshlab, u falsafa bilan jiddiy shug'ullana boshladi. 1091 yilda Nizomul Mulk uni Bag'dodda o'zi tashkil etgan Nizomiya madrasasiga falsafa bo'yicha mudarris qilib tayinladi. O'sha zamondagi eng yaxshi o'quv muassasasi bo'lgan bu joyda G'azzoliy to'rt yil davomida dare berdi. Keyinchalik mudarrislikni ukasi Ahmadga topshirib, o'zi ilmiy ishlar bilan mashg'ul bo'ldi. U Makka, Damashq, Quddus va Iskandariya shaharlarida bo'lib, yirik olimlar bilan uchrashdi, mashhur kutubxonalarda ishladi.

G'azzoliy qarashlarida asosiy muammo - fanlar o'rtasidagi qarama- qarshilikni yo'qotish, avvalo, musulmonlar tomonidan rivojlantirilgan yunon ilmiy bilimlari bilan din orasidagi nomuvofiqlikka barham berish edi. Bu qarama-qarshilik, G'azzoliy fikricha, tasavvuf asosidagina bartaraf etilishi mumkin edi. U o'z vataniga qaytib, bu muammo bilan bog'liq bo'lgan qator asarlar yaratdi. G'azzoliy falsafa, axloq, din va tasavvufga doir ko'plab ilmiy asarlar muallifidir. Ularning eng mashhurlari quyidagilar: "Ihyoi ulum ad-din" (Diniy ilmlarning jonlanishi), "Tahofut al-falosifa" (Falsafaning raddiyasi), "Kimyoi saodat" (Baxt-saodatga erishuv kaliti) va "Al-Munqiz min-ad-dalol" (Adashishlardan qutqaruvchi). G'azzoliy Abu Nasr Forobiy va Ibn Sinolarning asarlari bilan yaxshi tanish edi. U "Maqosidul falosifa" (Faylasuflarning maqsadlari) asarida ularning dunyoqarashini bayon etgan. Forobiy va Ibn Sinolarning falsafiy qarashlari islomni mustahkamlashga xizmat qilmaydi degan xulosasiga kelganligi sababli, u ularga qarshi chiqdi.

G'azzoliy "Al-Munqiz min ad-dalol" asarida bu to'g'rida shunday yozadi: Ular tomonidan yo'l qo'yilgan barcha xatolar yigirmaga boradiki, bulardan uchtasi rasmiy aqidaga qarama-qarshi bo'lsa, o'n yettitasi xudosizlikdan iborat, deb hisoblamoq kerak. Rasmiy aqidaga qarama-qarshi bo'lgan uch xatoga quyidagilarni kiritadi: 1) tana qayta tirilmaydi, mukofot va jazo berish ruhiy bo'lib, jismiy xususiyatga ega emasdir; 2) Alloh taolo umumiy bilimga ega bo'lib, har bir narsa to'g'risida bilimga ega emas; 3) dunyoning azaliyligi va foniy emasligi haqidagi aqida. Arastu ta'limotini haqiqiy islom aqidalari uchun xavfli, deb hisoblaydi.

Mirzo Abdulqodir Bedil. Mirzo Abdulqodir Bedil (1644-1721y.y.) Hindistonning Azimobod shahrida tavallud topgan. U ilohiyot va falsafani, qadimgi va o'z davri hind falsafasining sir-asroridan xabardor bo'la bordi. Uning "Chor unsur", "Irfon", "Nukot" kabi asarlari kitobxonlar e'tiborini jalb qilgan. Mirzo Bedil dunyoqarashi, falsafiy idealida ajoyib jihat yaqqol sezilib turadi. Mutafakkir o'z qarashlarini, tasavvuf ta'limoti an'analarini Arastu ijtimoiy-falsafiy, tabiiy-ilmiy ta'limoti, al-Kindiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Zakariyo ar-Roziy, Ibn Sino, Umar Hayyom kabi zabardast olim va mutafakkirlar an'analari bilan uzviy bog'lashga qaror qilganligi aniq.

Biz falsafaning institutsional o‘zgarishlar negizida ajdodlarimiz merosini tahliliy jihatdan tadqiq etish bilan bir qatorda kechagi sobiq tuzum davri buxronlarida to‘zigan falsafiy qarashlarga to‘g‘ri yo‘nalish kasb etishida jasorat ko‘rsatgan akademik, falsafa fanlar doktori, professor Ibrohim Mo‘minovning sharafli nomini va xizmatlarini alohida ehtirom bilan tilga olamiz. I.Mo‘minov o‘zbek faylasuflaridan birinchi bo‘lib, totalitar tuzum siyosati millatni ma’naviy qadriyatlardan mahrum etdi, milliy ongni buzib, o‘z-o‘zini anglashga yo‘l bermadi, deb hisobladi va kommunistik mafkurani taftish qilishga jon-jahdi bilan harakat qildi. Shuningdek, tarixiy va ma’naviy merosimizni, o‘zbek xalqi va Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari yaratgan boy ma’naviy qadriyatlarni har tomonlama o‘rganishga bel bog‘lagan.

Yangi davr O‘zbekiston falsafasi. Mamlakatimizning rivojlanishi natijasida falsafa sohalarida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bular “Madaniyat falsafasi”, “Siyosat falsafasi”, “Huquq falsafasi”, “Ekologiyaning falsafiy muammolari” va “Sinergetika” kabi yo‘nalishlardir. Xususan, “Madaniyat falsafasi” doirasida ilmiy-nazariy tadqiqot olib borgan olimlardan Q.Xonazarov, S.Shermuhamedov, M.Bekmuradov, M.Jakbarov, A.Ochildiyev, Sh.Samadov, S.Choryiev, G.Shermatova, A.Yo‘ldoshyev, S.A’zamxo‘jayevalarni ko‘rsatish mumkin.

Mamlakatimizda davlat qurilishi ehtiyojlaridan kelib, chiqib jamiyat boshqaruvida muhim va dolzarb masalalarni hal etish uchun “Siyosat falsafasiga” ham katta e’tibor qaratildi. Bu sohada T.Jo‘raev, A.Begmatov, A.Qodirov, I.Ergashev, S.Otamurodov, N.Hakimov, A.Mo‘minov, N.Jo‘raev, R.Jumaev, V.Yo‘ldoshev, J.Yaxshilikovlar kabi faylasuflar faoliyat ko‘rsatib, o‘z tadqiqotlarida mustaqillik asosi va taraqqiyoti rivoji masalalarini yoritdilar.

Faylasuf olimlarimizdan S.Mamashokirov, E.Hoshimova, Yu.Shodimetov, S.Sanginov, A.Berdimuratova, X.Salomovalar o‘z tadqiqotlarida “Ekologiyaning falsafiy muammolari” sohasidagi institutsional o‘zgarishlarni tadqiq qildilar. Ularning tadqiqotlarida ekologiyaning tarixi va nazariyasining falsafiy masalarini o‘rganish natijasida bugungi ekologik muammolarni ekologik ta’lim asosida ijtimoiy tafakkurga singdirib jamiyatga tadbiq etish muammolari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi davrda O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li, ya’ni evolyutsion yuksalish konsepsiyasi asosida fanning zamonaviy yo‘nalishlari yanada rivojlanib bormoqda. Bu mamlakatdagi islohotlarni to‘g‘ri yo‘naltirishda yangi paradigma va metod yo‘nalishi bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu boisdan ham jamiyatdagi bunday murakkab o‘zgarishlarni sinergetik paradigmaga suyangan holda chuqur o‘rganish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki, aynan sinergetika ilmi nafaqat tabiatdagi o‘zgarish jarayonlarini balki jamiyatdagi o‘ziga xos tadrijiy rivojlanish holatlarini ob’yektiv o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ilmiy jamoatchilik, fanlararo tadqiqot sohasining yetakchi olimlari yangi ilmiy yo‘nalish bo‘lgan sinergetika sohasida ham keng ilmiy faoliyatlar olib bormoqdalar. Xususan, bu sohada faylasuflarimiz I.Rahimov, M.Abdullayeva, B.Turayev, M.Usmonov, Sh.Qahhorova, D.Bozorov, M.Niyazimbetovlarning izlanishlarini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, mamlakatimiz hayotida ilm-fan, xususan falsafaning rivojlanishida buyuk burilish davri bo‘ldi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O‘zbekistonning yangi davri falsafasidagi institutsional o‘zgarishlar sababi determinatsion aloqadorlik bilan bog‘liq bo‘lib, uning negizida qonuniyatli genetik holatni kuzatish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Avestoda borliq masalasi qanday yoritilgan ?
2. Hind falsafasiy maktablari haqida gapirib bering ?
3. Xitoy falsafiy maktablarida o‘ziga xosligi nimada ?
4. Konfutsiy haqida gapirib bering ?
5. Dao qonunlarida osmon irodasi nimani anglatadi?
6. Moizm qanaqa ta’limot ?
9. O‘rta asr Markaziy Osiyo faylasuflari talimotida borliqni sharhlang ?
10. Mustaqillik davri faylasuflari haqida gapirib bering ?

3-mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari. G'arb falsafasi.

Reja:

1. Qadimgi Yunon-Rim falsafiy maktablari va ularning ta'limoti.

2. Xristianlik va o'rta asr G'arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari.

3. G'arb Uyg'onish davri va falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari.

4. Yangi davr G'arb falsafasidagi asosiy muammolar.

Tayanch iboralar: *Qadimgi yunon-rim, Milet maktabi, Suqrotgacha falsafa, Geraklit, Suqrot, Demokrit, Aflotun, Arastu, Ellin davri, o'rta asr, xristianlik, Avreliy Avgustin, apologetika, patristika, sxolastika, nominalizm, realizm, Foma Akvinskiy, G'arb Renessansi, gumanizm, tabiat falsafasi, ilk burjua inqiloblari, ilmiy inqilob, yangi davr falsafasi, metafizika.*

Qadimgi G'arb falsafiy tafakkuri Sharq, ayniqsa, Bobil va Misrning tabiiy-ilmiy yutuqlari negizida shakllangan. Antik dunyo falsafasining shakllanishida Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi IX-VI asrlarda vujudga kelgan bilimlar, olam va uning tuzilishi to'g'risidagi diniy- falsafiy qarashlar ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Sharq va yunon falsafiy ta'limotlari o'zaro bog'liq holda rivojlanganligi haqidagi fikrlar Gomer, Gerodot va Plutarx kabi tarixchilarning asarlarida bayon qilingan. Ulardan keyingi davrda yashagan ko'plab atoqli faylasuflar ham bu masalaga e'tibor berganlar.

Qadimgi dunyo falsafasining vujudga kelishida afsonaviy va diniy qarashlar juda katta rol o'ynagan. Ammo olam, uning rivojlanishi, qonunlari haqidagi nazariya va ta'limotlar ko'proq tabiiy-ilmiy bilimlar, astronomiya, matematikaga tayangan. Dastlabki matematik, tabiiy-ilmiy bilimlar eng qadimgi sivilizatsiya markazi bo'lgan Shimoliy Afrika, Yaqin va Uzoq Sharqda hamda Markaziy Amerika, Janubi Sharqiy Osiyoda vujudga kelgan va umumlashtirilgan.

Milet maktabi. Qadimgi davrda Yunonistonda keng tarqalgan maktablardan biri Milet falsafiy maktabidir. Milet shahri Kichik Osiyoning g'arbidagi Ioniya orolida joylashgan bo'lib, yirik savdo-sotiq

va madaniyat markazi edi. Bu yerda ilm-fan tez sur'atda rivoj topdi, matematika, jug'rofiya, astronomiya, falsafaga e'tibor kuchaydi. Milet maktabining asoschisi Fales (miloddan avvalgi 624-547y.y.) bo'lib, dunyoning moddiy asosini suv deb hisobladi. U Misr va Bobilda (Vaviloniya) bo'lib, u yerdagi bilim va madaniyat bilan yaqindan tanishib chiqdi Shuni ta'kidlash lozimki, Fales ilmning ko'p sohalari: astronomiya, falsafa, matematika, jug'rofiya bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. Fales borliqdagi barcha narsalar, shu jumladan Yer ham suvdan paydo bo'lgan deb hisoblaydi. Olimning astronomiya sohasidagi kashfiyotlaridan biri Quyosh tutilishi va sabablarini oldindan qanday bo'lishini ham bashorat qilib, bir yilning 365 kundan iborat ekanligini isbotlab bergan.

Pifogor maktabi. Pifagor va uning maktabi vakillari hamma narsaning asosini sonlar tashkil qiladi deb, ularni mutlaqlashtirdilar. Ular sonlarni moddiy narsalardan ajratib, mustaqil kuchga ega, deb isbotlamoqchi bo'ldilar. Pifagorchilar ta'limoticha, olamni bilish sonni bilishdan iborat, uning asosida ilohiylashtirilgan miqdoriy munosabatlar yotadi. Pifagorchilarning fikriga ko'ra, barcha narsalar chegarali-chegarasiz, toq-juft, birlik-ko'plik, o'ng-chap, turg'unlik-harakat, to'g'ri-egri, yorug'-qorong'u, yaxshi-yomon, to'g'ri burchak-to'rt burchak kabi qarama-qarshiliklardan tashkil topgan. Lekin ular tomonidan bu qarama - qarshiliklar harakatsiz, o'zgarmas hodisa sifatida baholangan.

Pifagorchilar xulq-odob masalasida ham o'z fikrlarini bildirganlar. Ular kattalarni hurmat qilish, o'z vazifasini sidqidildan bajarish, urf-odatlarga amal qilish, hissiy lazzatga berilishdan o'zini tiyish, ilm-fan va san'atga ixlos qo'yish kabi an'anaviy fazilatlarni egallash tarafdori bo'lganlar. Pifagorchilar davrida estetik tafakkur rivoj topa boshladi. Ayniqsa, pifagorchilarning musiqa, uning kelib chiqishi, yosh avlodni tarbiyalashdagi roli to'g'risidagi g'oyalari diqqatga sazovordir. Estetikaning ob'yektiv asoslarini qarama- qarshiliklarning o'zaro kelishuvi, uyg'unligidan qidirib, dialektik fikr yuritdilar. Pifagorchilar garmoniya, go'zallik va komillikni bir-biri bilan tenglashtirdilar. Ular musiqaning tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritib, turli kasalliklarni musiqa orqali davolash mumkinligini qayd etdilar. Bundan tashqari, kuy va ohanglar yordamida inson xulqi, g'azabi, qayg'u-alam, tushkunlikka tushish, asossiz rashk qilish va boshqa turli ruhiy kasalliklarni ham tuzatish mumkin. Xullas, musiqa pifagorchilarning fikricha, inson

3-mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari. G'arb falsafasi.

Reja:

1. Qadimgi Yunon-Rim falsafiy maktablari va ularning ta'limoti.

2. Xristianlik va o'rta asr G'arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari.

3. G'arb Uyg'onish davri va falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari.

4. Yangi davr G'arb falsafasidagi asosiy muammolar.

Tayanch iboralar: *Qadimgi yunon-rim, Milet maktabi, Suqrotgacha falsafa, Geraklit, Suqrot, Demokrit, Aflotun, Arastu, Ellin davri, o'rta asr, xristianlik, Avreliy Avgustin, apologetika, patristika, sxolastika, nominalizm, realizm, Foma Akvinskiy, G'arb Renessansi, gumanizm, tabiat falsafasi, ilk burjua inqiloblari, ilmiy inqilob, yangi davr falsafasi, metafizika.*

Qadimgi G'arb falsafiy tafakkuri Sharq, ayniqsa, Bobil va Misrning tabiiy-ilmiy yutuqlari negizida shakllangan. Antik dunyo falsafasining shakllanishida Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi IX-VI asrlarda vujudga kelgan bilimlar, olam va uning tuzilishi to'g'risidagi diniy- falsafiy qarashlar ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Sharq va yunon falsafiy ta'limotlari o'zaro bog'liq holda rivojlanganligi haqidagi fikrlar Gomer, Gerodot va Plutarx kabi tarixchilarning asarlarida bayon qilingan. Ulardan keyingi davrda yashagan ko'plab atoqli faylasuflar ham bu masalaga e'tibor berganlar.

Qadimgi dunyo falsafasining vujudga kelishida afsonaviy va diniy qarashlar juda katta rol o'ynagan. Ammo olam, uning rivojlanishi, qonunlari haqidagi nazariya va ta'limotlar ko'proq tabiiy-ilmiy bilimlar, astronomiya, matematikaga tayangan. Dastlabki matematik, tabiiy-ilmiy bilimlar eng qadimgi sivilizatsiya markazi bo'lgan Shimoliy Afrika, Yaqin va Uzoq Sharqda hamda Markaziy Amerika, Janubi Sharqiy Osiyoda vujudga kelgan va umumlashtirilgan.

Milet maktabi. Qadimgi davrda Yunonistonda keng tarqalgan maktablardan biri Milet falsafiy maktabidir. Milet shahri Kichik Osiyoning g'arbidagi Ioniya orolida joylashgan bo'lib, yirik savdo-sotiq

va madaniyat markazi edi. Bu yerda ilm-fan tez sur'atda rivoj topdi, matematika, jug'rofiya, astronomiya, falsafaga e'tibor kuchaydi. Milet maktabining asoschisi Fales (miloddan avvalgi 624-547y.y.) bo'lib, dunyoning moddiy asosini suv deb hisobladi. U Misr va Bobilda (Vaviloniya) bo'lib, u yerdagi bilim va madaniyat bilan yaqindan tanishib chiqdi Shuni ta'kidlash lozimki, Fales ilmning ko'p sohalari: astronomiya, falsafa, matematika, jug'rofiya bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. Fales borliqdagi barcha narsalar, shu jumladan Yer ham suvdan paydo bo'lgan deb hisoblaydi. Olimning astronomiya sohasidagi kashfiyotlaridan biri Quyosh tutilishi va sabablarini oldindan qanday bo'lishini ham bashorat qilib, bir yilning 365 kundan iborat ekanligini isbotlab bergan.

Pifogor maktabi. Pifagor va uning maktabi vakillari hamma narsaning asosini sonlar tashkil qiladi deb, ularni mutlaqlashtirdilar. Ular sonlarni moddiy narsalardan ajratib, mustaqil kuchga ega, deb isbotlamoqchi bo'ldilar. Pifagorchilar ta'limoticha, olamni bilish sonni bilishdan iborat, uning asosida ilohiylashtirilgan miqdoriy munosabatlar yotadi. Pifagorchilarning fikriga ko'ra, barcha narsalar chegarali-chegarasiz, toq-juft, birlik-ko'plik, o'ng-chap, turg'unlik-harakat, to'g'ri-egri, yorug'-qorong'u, yaxshi-yomon, to'g'ri burchak-to'rt burchak kabi qarama-qarshiliklardan tashkil topgan. Lekin ular tomonidan bu qarama - qarshiliklar harakatsiz, o'zgarmas hodisa sifatida baholangan.

Pifagorchilar xulq-odob masalasida ham o'z fikrlarini bildirganlar. Ular kattalarni hurmat qilish, o'z vazifasini sidqidildan bajarish, urf-odatlarga amal qilish, hissiy lazzatga berilishdan o'zini tiyish, ilm-fan va san'atga ixlos qo'yish kabi an'anaviy fazilatlarni egallash tarafdori bo'lganlar. Pifagorchilar davrida estetik tafakkur rivoj topa boshladi. Ayniqsa, pifagorchilarning musiqa, uning kelib chiqishi, yosh avlodni tarbiyalashdagi roli to'g'risidagi g'oyalari diqqatga sazovordir. Estetikaning ob'yektiv asoslarini qarama- qarshiliklarning o'zaro kelishuvi, uyg'unligidan qidirib, dialektik fikr yuritdilar. Pifagorchilar garmoniya, go'zallik va komillikni bir-biri bilan tenglashtirdilar. Ular musiqaning tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritib, turli kasalliklarni musiqa orqali davolash mumkinligini qayd etdilar. Bundan tashqari, kuy va ohanglar yordamida inson xulqi, g'azabi, qayg'u-alam, tushkunlikka tushish, asossiz rashk qilish va boshqa turli ruhiy kasalliklarni ham tuzatish mumkin. Xullas, musiqa pifagorchilarning fikricha, inson

salomatligini tiklashda muhim ahamiyatga ega. Ular ilk bor musiqiy estetika va estetik tarbiya nazariyasi kurtaklarini yaratdilar.

Pifagorchilarning matematika va geometriya, musiqa, me'morchilik, haykaltaroshlik sohasidagi xizmatlari ham kattadir. Ular uch burchak burchaklari yig'indisi to'g'risidagi teoremasini asoslab berdilar. Bu teorema Pifagor teoremasi, deb atalib, hozir ilmiy-amaliy faoliyatda keng ko'lamda foydalaniladi.

Antik davr falsafasi yirik vakili, dialektika asoschisi **Geraklit** (530- 470y.y.) bo'lib, Efes shahrida tavallud topgan. Shuni aytish lozimki, Geraklitning asarlari bizning davrimizgacha to'liq holda yetib kelmagan. Uning

«Tabiat to'g'risida» asarining 130 bo'lagi yetib kelgan, xolos. Geraklit hamma narsaning asosida olov yotadi, dunyoni xudo ham, inson ham yaratmagan, balki u qonuniy tarzda alangalanib, o'chadigan olovdir, deydi. Uning qarashlarida "Olovga hamma narsa almashinadi", "xuddi oltin - molga, mol - oltinga almashinganidek", degan dialektik fikrlar bor. Darhaqiqat, qadimgi davr faylasuflari orasida u dialektikani har tomonlama asoslab berdi. Faylasuf fikricha, dunyoda hamma narsa harakatlanadi, o'zgaradi, qotib qolgan hech narsa yo'q. "Daryoga doimo yangi suv oqib turadi. Shuning uchun bir daryoga ikki marta kirish mumkin emas", degan hikmatli fikrlarni ilgari surdi. Geraklit olamning moddiyligi, abadiyligi va cheksizligini e'tirof etdi. U moddiy olamni bilish mumkinligiga ishondi. Uningcha, sezgi a'zolari faqat ba'zi narsalar to'g'risida bilim bersa, tafakkur tabiatdagi qonuniyat, ya'ni logos (tushuncha, fikr, aql, qonuniyat, ibtido) to'g'risida bilim beradi. Geraklit ijtimoiy qarashlarida aristokratlar tabaqasini himoya qildi, demokratiyaga qarshi chiqdi. Faylasuf o'zining axloqiy qarashlarida axloqni donolik bilan tenglashtirdi, zeroki, donolik haqiqatni gapirishga, tabiatga quloq solishga undaydi. U insonga faqat foyda keltiradi.

Geraklitning estetika sohasidagi g'oyalari e'tiborga molikdir. U xuddi Pifagor va pifagorchilar singari, nafosat ob'yektiv asosga ega deb hisoblaydi. Lekin uning zaminida sonlar munosabati emas, balki olovning turli ko'rinishi yotadi. Geraklit go'zallik va uyg'unlikni dialektik nuqtai nazardan talqin qiladi, dunyoni xudo tomonidan yaratilganini rad qiladi, uni moddiyligi va adabiyligi haqida fikr yuritadi. Antik davrning buyuk faylasufi uyg'unlikni juda keng ma'noda tushunadi. Eng avvalo, u go'zallikning asosi, qarama-, qarshiliklar birligi sifatida namoyon bo'ladi, u kurash orqali vujudga keladi, deb

hisobladi. Uyg'unlik koinot uchun ham, kishilarning o'zaro aloqasi uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Musiqada ham, san'atning boshqa turlarida ham uyg'unlik ro'y beradi.

Geraklitning me'yor to'g'risidagi fikrlari ham muhim ahamiyatga egadir. Faylasufning talqinida me'yor estetik kategoriya bo'lib, keng ma'no-mazmun kasb etadi. U hamma narsaga, eng avvalo, koinotga tegishlidir. Koinot hamma mavjudotga taalluqli, uni na xudo va na odamzod yaratgan, u hamma vaqt mavjud bo'lgan, bundan keyin ham yonib-o'chib turadigan olov kabi abadiy turadi. Quyosh ham o'z me'yori bilan harakat qiladi. Me'yorni u ob'yektiv qonuniyat sifatida tavsiflaydi. Nafosat, me'yor va uyg'unlik ob'yektiv dunyoning o'zaro aloqadorligi hamda xususiyatlarini aks ettiruvchi estetik tushunchalar hisoblanib, bu qarashlarda materialistik va dialektik mayl sezilib turadi. Milloddan avvalgi V asrdan boshlab Yunonistonda tabiiy fanlar, jumladan, fizika, matematika, san'at, falsafa rivoj topa boshladi. Bu davrda Empedokl (490- 428y.y.), Anaksagor (500-428y.y.), Levkipp (500-440y.y.) kabi ilm sohiblari, faylasuflar yetishib chiqdi. Miletlik Levkipp atomistik g'oyalar asoschisi bo'lib, o'z qarashlari bilan ilm ahliga tanildi. Uningcha, moddiy olam mayda, bo'linmas zarra va bo'shliqdan iborat. Mavjud barcha narsalar mayda zarralar - atomlardan tashkil topgan.

Levkippning atomistik nazariyasini **Demokrit** (miloddan avvalgi 460-370 y.y.) davom ettirdi. Uning ta'limotiga ko'ra, atomlar moddaning bo'linmas mayda zarralaridir. Ular doimiy harakatda, abadiy, sifat jihatidan bir xil, miqdor, ya'ni shakl jihatidan har xil, tartib va holat bo'yicha ham turlicha bo'ladi. Faylasuf harakatni moddaning ajralmas xossasi sifatida e'tirof etadi. Demokritning fikricha, koinot bo'shlig'ida son-sanoqsiz olam (sayyora)lar yo'q bo'lib, yana paydo bo'lib turadi. Bo'shliqda mayda zarrachalar bir-biri bilan birikib, ajralib, harakat qiladi va atom quyunini tashkil etadi. Atomlarning birikishi natijasida Yer, Suv, Havo va Olov paydo bo'ladi. Demokrit ilk bor fazo va vaqt masalasini qo'ydi. Fazoni ulkan bo'shliq deb hisobladi, unda mayda zarralar harakat qiladi. Lekin u fazoning cheksizligini inkor qildi.

Hissiyotni bilishning birinchi bosqichi deb bildi. Ikki xil bilish bor:

1) haqiqiy bilish; 2) xira bilish.

Haqiqiy bilishga ko'rish, eshitish, ta'm bilish, hid bilish, sezish kiradi. Demokrit etika-axloqshunoslik masalalariga ham alohida e'tibor qaratdi. U axloqshunoslikni falsafaning tarkibiy qismi, deb bildi. Demokrit etika-axloqshunoslik masalalariga ham alohida e'tibor qaratdi.

U axloqshunoslikni falsafaning tarkibiy qismi, deb bildi. Rohatlanish, lazzatlanishga intilish insonning tabiiy holati bo'lib, baxt-saodatga erishishning birinchi bosqichidir. Baxtga erishish insonning tabiiy va zaruriy ehtiyojlarini qondirishdir.

Suqrot (miloddan avvalgi 469-399 y.y.) Afinada tavallud topgan va ijod qilgan. Uning asarlari bizgacha yetib kelmagan. Faylasuf ijodi haqidagi ma'lumotlarni Ksenofont va Aflotun asarlaridan topish mumkin. Olim dunyoqarashining muhim xususiyati shundan iboratki, u falsafiy mavzularda bahs-munozaralar olib borib, haqiqatga erishmoqni maqsad qilib qo'yadi. Suqrot olam tuzilishi va uning tabiiy holatini bilib bo'lmaydi, degan fikrni olg'a suradi. Uningcha, inson faqat o'zini bilishi mumkin. Shuning uchun u «o'z- o'zingni bil», degan qoidaga amal qiladi. Suqrot odob-axloqni nazariy jihatdan ilk bor teran tadqiq qilgan olimdir. U hamma uchun bir xil axloq qoidalarini yaratmoqchi bo'ladi. Masalan, adolat, mo'tadillik, ezgulik, sofdillik barcha uchun umumiy bo'lgan tushunchalardir. Uningcha, hech kim ongli ravishda ataylab yomonlik qilmaydi, u buni bilmasdan qiladi. Yaxshilikni biluvchi odam yaxshilik qiladi. Pirovardida, u shijoatkorlik, adolat, iffat va boshqa tushunchalarni hamma bir xil tushunmasligini anglab yetadi. Shunda u shubha usulini ishlab chiqadi: «Men hech nima bilmasligimni bilaman»[12], degan usul bo'yicha hamma narsaga shubha bilan qaraydi. Suqrot bilim, aql va axloq bir- biri bilan o'zaro bog'liqligini ta'kidlab, inson fazilatlarini tug'ma deb bildi. Ayniqsa, Suqrot estetika sohasida o'ziga xos fikrlarni ilgari surdi. Faylasuf dunyoqarashining markazida inson turdi. U inson go'zalligi, estetik faoliyat haqida so'z yuritadi. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, u san'at bilan yoshlikdan tanishadi, haykaltaroshlik bilan mashg'ul bo'ladi, san'atkor va hunarmandlar bilan badiiy ijod, san'atning u yoki bu turi bo'yicha bahs-munozaralar olib boradi. Suqrotning fikricha, bir narsa ham go'zal, ham xunuk, ayni vaqtda yaxshi va yomon bo'lishi mumkin. Chunki bir narsa uchun foydali yoki kerakli narsa, boshqa narsa uchun yaroqsiz bo'lishi ehtimoldan holi emas. Suqrot san'atni taqlid qilish orqali voqelikni tasvirlash sifatida tushundi. Suqrot inson timsolini tasvirlashga katta e'tibor berdi.

Suqrotning fikricha, bir narsa ham go'zal, ham xunuk, ayni vaqtda yaxshi va yomon bo'lishi mumkin. Chunki bir narsa uchun foydali yoki kerakli narsa, boshqa narsa uchun yaroqsiz bo'lishi ehtimoldan holi

[12] https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=32.520.

emas. Uningcha, ochlik kerakli narsa, bezgak kasali uchun zararli bo'lishi mumkin. Suqrot san'atni taqlid qilish orqali voqelikni tasvirlash sifatida tushundi. Suqrot inson timsolini tasvirlashga katta e'tibor berdi. Uning fikricha, bunda asosiy me'yor axloqiy ideal bo'lishi kerak. U o'zida eng yuksak axloqiy fazilatlarga, go'zal fe'l-atvorga ega bo'lgan insonlar siymosini badiiy asarlarda tasvirlash kerak, degan fikrda turadi. Bunda aks ettirilayotgan ob'yekt bilan badiiy tasvirlanayotgan timsol bir-biriga o'xshashi kerak.

Aflotun. (miloddan avvalgi 427-347 y.y.) Suqrotning shogirdi bo'lib, 30 dan ortiq risolalar muallifidir. U "Parmenid", "Davlat", "Bazm", "Fedon", "Fedr", "Meneksen", "Sofist", "Siyosatchi", "Timey", "Qonun", "Gorgiy",
"Kriton", "Laxes", "Xarmid", "Lisis", "Yeftifron", "Ion", "Evtidem", "Protogor", "Fileb" kabi ko'plab asarlar yozgan. Aflotun o'z falsafiy qarashlarida idealistik falsafani, to'g'rirog'i, ob'yektiv idealizmni rivojlantiradi. U g'oyalar to'g'risidagi ta'limotni ishlab chiqdi. Faylasufning fikricha, tabiat g'oyalar mahsulidir. G'oyalar o'zgarmas, abadiy, harakatsiz. His qilinadigan narsalar esa g'oyalar soyasi. Moddiy dunyo o'tkinchi, «g'oyalar dunyosi»da eng oliy g'oya xudodir. Moddiy dunyo - hayvon, mineral, o'simlik va insonlar
«umumiy g'oyalar»ning nusxasidir. Xudo nafaqat tirik mavjudot, u mutlaq farovonlikdir. U farovonlikni maqsadga muvofiqlik va aql bilan tenglashtiradi. Aflotun o'zining «Timey» asarida kosmogonik va kosmologik nazariyani ilgari suradi. U bir asarida xudo tartibsiz jismlarni tartibga solgan desa, ikkinchisida jismlarni shaklsiz materiyadan yaratgan, deydi. Uningcha, yulduz va sayyoralarning mohiyati ilohiydir - dunyoviy ruh ularga jon ato etgan. Yer, suv, olov va havo unsurlari jismoniy bo'lgani uchun ular geometrik jismlardek yassilikdan iborat. Fizik dunyoning unsurlari - olov, suv va havodir. Ularning har biri alohida cheklangan yassilikdan iborat bo'sh makondir. Aflotunning bilish ta'limoti uning qator risolalari, xususan, "Teetet", "Menon", "Fedr" kabilarda o'z ifodasini topgan. Olimning fikricha, bilish ob'yekti g'oyalar dunyosidir. Hissiyotimiz faqat narsa va hodisalar to'g'risida bilim beradi, ular g'oyalarni idrok qila olmaydi. Shuning uchun hissiy bilish haqiqiy bilim bo'la olmaydi. «G'oyalar dunyosi»ni faqat sof tafakkur yordamida bilish mumkin. Bunga Aflotun g'orda yashayotgan asirlar hayotini misol qilib keltiradi. G'orda odamlar eshikka teskari o'girilgan, ular yorug'likni ko'ra olmaydilar. G'or

oldidan ko‘za ko‘targan odamlar o‘tib turibdi. Quyosh ko‘zalarni yorityapti. Ko‘zalarning soyasi qoya devoryda aks etadi. Zanjirband asirlar faqat soyani ko‘rishlari mumkin.

Uning bilish ta’limotida dialektika masalalari muhim o‘rinni egallaydi, dialektikani savol-javob, og‘zaki suhbat, isbotlash, hissiy bilishdan qutulish va tafakkur orqali «g‘oyalar dunyosi»ni idrok qilish vositasi, deb bildi. Olimning qarashlari ba’zi hollarda metafizik xarakterga ega bo‘lib, undagi g‘oyalar harakatsiz va o‘zgarmasdir. Aflotun savol berishni biladigan va unga javob qaytara oladigan kishilarni dialektiklar deb ataydi. Uningcha, dialektika - kishilar savollar berishning uddasidan chiqib, unga javob berishga qodir bo‘lishdir. Aflotunning fikricha, odamlar hissiy qabul qilishdan voz kechib, aqliy bilishga o‘tishlari zarur. Aflotun ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangan bir necha asarlar muallifi hamdir. Bular “Davlat”, “Qonunlar”, “Kritiy”, “Siyosat” kabi risolalardir.

Aflotun davlat va uni boshqarish uslublari to‘g‘risida fikr yuritar ekan, mavjud davlatlarni insonlar hayotida salbiy rol o‘ynayotganligini, zeroki ularda boylar va kambag‘allar mavjudligini aytadi. Bunday davlatlar safiga oligarxiya, demokratiya, tiraniya kiradi. U, ayniqsa, demokratiyaga qarshi kurashib, uni eng yaramas davlat, deb hisoblaydi. Aflotun demokratik davlatdan farqli o‘laroq aristokratik davlat tarafdori bo‘ladi. U mukammal davlat to‘g‘risidagi o‘zining utopik-xayoliy qarashlarini bayon etadi. Bunday davlatni aklli, ishbilarmon, dono, qobiliyatli kishilar guruhi idora qilishi kerak. Mukammal davlatning muhim xususiyati adolat qonun-qoidalariga amal qilishdir. Aflotun aristokratik jamiyatni 3 toifaga bo‘ladi, birinchisi - faylasuflar, ikkinchisi - harbiylar, uchinchisi - dehqon va hunarmandlar. U davlatni faylasuflar boshqarishi lozim, deb hisoblaydi. Harbiylar esa mamlakatda tartib-intizom o‘rnatilishiga yordam berishi, davlat xavfsizligini ta’minlashlari lozim. Lekin, Aflotunning fikricha, faylasuf va harbiylar hech qanday mulkka ega bo‘lmasliklari kerak. Dehqonlar va hunarmandlar mulk egalari bo‘lib, ular faylasuf va harbiylarni ta’minlab turishadi. Aflotun o‘zining ijtimoiy qarashlarida faqat erkin fuqarolar to‘g‘risida fikr yuritadi. Qullarni esa inson qatoriga qo‘shmaydi. Ular jamiyatda har qanday huquqdan mahrum etilgan.

Aflotunning axloqiy qarashlari o‘zi targ‘ib qilgan g‘oyalarga asoslangandir. Faylasuf biz yashab turgan dunyoni haqiqiy dunyoning, ya’ni g‘oyalar dunyosining soyasi, deb bilgani uchun insonning birdan-

bir maqsadi, axloqiy ideali qaytib yana shu g‘oyalar olamiga qo‘shilishdan iboratdir. Mutafakkir axloq muammolariga to‘xtalar ekan, insondagi fazilatlar va salbiy illatlar tug‘ma ekanligini ta’kidlaydi. Uning aqidasiga ko‘ra, yaxshi xulq-odobga ega kishi o‘z fazilatlarini boshqaga bera olmaydi. Yaxshi malakani hatto ta’lim-tarbiya berish, o‘qish-o‘qitish va mashq qilish orqali ham egallab bo‘lmaydi. Umuman olganda, Aflotun kishilar fazilatlarini tug‘ma, bir xil va o‘zgarmas, deb hisoblaydi. Uningcha, insonda tug‘ilganidayoq, yaxshilik, sofdillik, yomonlik, g‘arazguylik, qo‘rqoqlik to‘g‘risida tushuncha hosil bo‘ladi. U har xil tabaqaga turli xislatlar xosligini aytadi. Masalan, donolik faylasuflarga, shijoatkorlik harbiylarga, mo‘tadillik (iffat) quyi tabaqaga xosdir. Ushbu 3 fazilatning yig‘indisidan adolat hosil bo‘ladi. Har bir tabaqa o‘z ishi bilan mashg‘ul bo‘lishi, boshqalarning ishiga aralashmasligi darkor. Davlat esa o‘z fuqarolari, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi bilan shug‘ullanishi lozim.

Arastu. (millodan avvalgi 384-322y.y.). Antik davrning buyuk faylasufi Arastu Afina shahrida Likey maktabini tashkil qiladi. Bu maktab peripatetik- sayr qiluvchi faylasuflar maktabi deb ataladi. Arastu, garchi Aflotunning shogirdi bo‘lib, uning g‘oyalaridan bahramand bo‘lsa ham, uning ta’limoti ko‘p jihatlari bilan Aflotun ta’limoti bilan kelisha olmaydi. Keyinchalik Aflotun ta’limoti va mutlaq g‘oyasini qattiq tanqid ostiga oladi. Quyidagi ibora Arastuga tegishlidir: «Aflotun menga dust bo‘lsa ham, haqiqat qadrliroqdir».

Arastuning borliq haqidagi ta’limotiga to‘xtalsak, eng avvalo, u moddiy narsalarning ob’yektiv mavjudligini tan oladi. Olim fikricha, materiya, umumiy sababdir, chunki busiz borliq yo‘q. Narsalarning mohiyati o‘zida, g‘oyalarda emas. Sababning 4 xili mavjud:

1. Moddiy sabab yoki materiya.
2. Shakliy sabab yoki shakl.
3. Yaratuvchi sabab.
4. Oxirgi sabab yoki maqsad. Materiya narsalarning moddiy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, haykal uchun bronza, idish uchun kumush moddiy asos bo‘ladi. U “shakliy sabab”ni birlamchi deb hisoblaydi. Arastuning e’tiqodiga ko‘ra, inson ruhi tananing shakli va mohiyati, tirik organizmning ibtidosi va sababi, harakat manbaidir. U ruhni uchga bo‘ladi.

1. O‘simliklar yoki nabotot dunyosi ruhi.
2. Hayvonlar yoki his qiluvchi ruh.

3. Insonga xos bo'lgan ongli ruh. Arastu bilish sohasida Aflotunning "g'oyalar dunyosi"ga qarshi chiqadi. U Demokrit singari, tabiatni bilish tajriba va his qilish manbai, deb hisobladi. Sezish orqali moddiy olamni, narsalar shaklini idrok qilish mumkin. Sezgilarimiz ayrim narsalarning umumiy tomonini idrok qiladi. Lekin Arastu sezgilarni tafakkurdan ajratdi, tafakkurning manbai mutlaq aql, degan nuqtai nazarda turdi. Arastu harakat, narsalar bir-birisiz mavjud bo'lmasligini isbotladi. Materiya harakati quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

1. Oddiy o'rin almashuv harakati.
2. Miqdoriy sifat o'zgarish.
3. Sifatiy o'zgarish.
4. Imkoniyatning voqelikka aylanishi.

Bulardan tashqari, Arastu sabab, tasodif, mazmun va shakl, imkoniyat va voqelik kabi kategoriyalar, ular o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilib berdi. Arastu dunyoqarashida ijtimoiy- siyosiy masalalar muhim o'rin egallaydi. Donishmand Yunonistonning boshqa faylasuflari qatori quldorlik tuzumini himoya qildi. Jamiyatning boy va kambag'allar, erkin va qullardan iboratligini tabiiy hol, deb bildi. Quldorlar - erkin fuqarolar bo'lib, ular aqliy mehnat sohiblaridir, qullar esa jismoniy mehnat uchun dunyoga kelgan. Arastu Aflotunning mukammal davlat to'g'risidagi qarashlarini rad qilib, quldorlik tuzumini davlatning mukammal shakli deb bildi. Arastuning fikricha, davlatni o'rtahol quldorlar idora qilishi kerak. U kishilarni 3 tabaqaga bo'ladi:

1) eng boy tabaqa;
2) eng kambag'al tabaqa;
3) o'rtacha boylikka ega tabaqa.

Arastu axloqshunoslik haqida qimmatli fikrlar bildirgan. Uning "Nikomax etikasi", "Evdem etikasi", "Siyosat" risolalari axloq ilmi va uning vazifalariga bag'ishlangan. Arastu, eng avvalo, axloqshunoslikka maxsus fan tarmog'i deb qaradi. Uning vazifasi kishilarga yaxshi fazilatli bo'lish yo'llarini ko'rsatishdan iborat. Arastu, Aflotundan farqli o'laroq, axloqni kishilarning real munosabatidan qidirib, uni jamiyat bilan bog'lagan holda talqin qildi. Axloq jamiyatda, davlatda kamol topadi. Kishilar jamiyatga birlashib, yaxshi fazilatlarni kasb etadilar. Mutafakkir Aflotunning tug'ma g'oyalarini tanqid qilib, inson tabiatan, tug'ilgandan yaxshi xislat egasi bo'lolmaydi, balki hayoti davomida yaxshi malaka yoki yomon odatlarni o'rganadi, deydi. U Aflotunning

"umuman yaxshilik", "umuman farovonlik" kabi tushunchalarini mavhum va hayot bilan bog'lanmagan, deb ta'kidlaydi.

Arastu eng yaxshi fazilatlar qatoriga mo'tadillik, do'stlik, shijoatkorlik, adolat va baxtga intilish kabilarni kiritadi. Bularning ichida eng mukammali adolat hisoblanadi. Uning fikricha, adolat - qonunlarga to'g'ri keladigan xatti- harakat. Quldorlik jamiyatida qonunlar faqat erkin fuqarolar - quldorlar manfaatini himoya qilar edi. «Do'stlik va odillikni, - deb yozadi Arastu, -jonsiz narsalarga hamda ot, xo'kiz va qullarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi». U quldorlar go'zal fazilatlar sohibi, qullar esa bunday fazilatlardan mahrumdir, deb fikr yuritdi. Axloqiy fazilat va xulq-odob qoidalari haqida so'z yuritar ekan, u inson yaxshi fazilat sohibi bo'lib tug'ilmaydi, balki uni oila, maktab, tashki muhit ta'siri va muayyan davlatda egallaydi. Yaxshi fazilatlar insondan ongli faoliyat, ongli maqsadni talab qiladi. Insonning ezgu maqsadi baxt-saodatga erishuvidir. Unga erishishning asosiy shartlari, Arastu fikricha, quyidagilardir:

1) bolaning to'la balog'at va"kam'olga yetishi; 2) sog'liq, farovonlik va boshqa zaruriy ne'matlarga ega bo'lish; 3) davlat, jamiyat tizimidagi hayoti. Arastu axloq aqlga bo'isunishi va uning farmoyishi bilan ish tutishi lozimligini uqtirdi. Uning fikricha, go'zallik narsa va hodisalarning ajralmas xususiyatidir. Go'zallik faqat harakatdagi jismlarga xos bo'lmay, balki harakatsiz narsalarda ham mavjuddir. U taqlidchilik haqida fikr yuritib, odam va hayvonlardagi taqlidchilikning bir-biridan farqini ko'rsatib beradi. San'atni turlarga bo'lib, uning predmeti, taqlid qilish usuli va vositalariga qarab tasnif etadi. Arastucha go'zallik va nafosat ob'yektiv va mutlaqdir, uning ta'limoti pifagorchilik va Aflotunning qarashlaridan farq qilib, Geraklit va Demokritga yaqin turadi. Uningcha, go'zallik g'oyalar va mavhum munosabatlarda mavjud bo'lmasdan, balki real narsa, ularning muhim xususiyatlaridadir.

Xulosa qilib aytganda, Arastuning ta'limoti G'arb va Sharq mamlakatlari olimlarining falsafiy fikri rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Xususan, u Sharq, O'rta Osiyo mutafakkirlari Ibn Miskaveyx, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Tusiy, Ulug'bek, Navoiy, Davoniy, Jomiy, Koshifiy va boshqalarning tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlari shakllanishida muhim rol o'ynadi.

Ellinizm va Rim falsafasi. Milloddan avvalgi IV asrning oxiridan boshlab Aleksandr Makedonskiy saltanati asta-sekin inqirozga yuz tutadi va yunon quldorchilik tuzumi demokratiyasida tanazzul vaziyati

ro‘y beradi. Bu davrda qul va quldorlar o‘rtasida ziddiyatlar kuchaydi, xalq noroziliklari avjga chiqib, tez-tez qo‘zg‘olonlar bo‘lib turdi. Yunoniston sekin-asta o‘z mustaqilligini yo‘qota boshladi. Ellinizm davri boshlandi. Turli falsafiy maktab va oqimlar: stoitsizm, skeptitsizm, epikurchilik paydo bo‘ldi.

Epikur. Ellinizm davrining yirik faylasuflaridan biri Epikur (miloddan. avvalgi 341-270 y.y.) Samos orolida o‘qituvchi oilasida dunyoga keldi. Uning asosiy risolasi “Tabiat to‘g‘risida” deb ataladi. Boshqa asarlaridan esa faqat parchalar yetib kelgan, xolos. Epikur tanazzulga uchrayotgan quldorchilik tuzumini saqlab qolishga intildi. U Afina shahrida “Epikur bog‘i”ni tashkil etdi. Bu falsafiy maktab da butun umr ijod bilan mashg‘ul bo‘ldi.

Epikur tabiat qonunlarini o‘rgandi. Demokritni atomlar to‘g‘risidagi g‘oyalarini o‘rganib, o‘zining atomistik ta’limotini bayon qiladi. Atomlar eng mayda zarralardan iborat bo‘lib, ko‘zga ko‘rinmaydi. Ularning turli shakllari mavjud, ya’ni muayyan shakl, hajm va og‘irlikka ega, miqdor, rang, ta’mi, hid va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Epikur atomlar o‘z vazni tufayli faqat to‘g‘ri chiziq bo‘ylab emas, turli yo‘nalishda harakat qiladi, pastga, yon tomonga og‘adi, degan fikrini ilgari suradi. U dunyoning moddiyligi, materiyaning abadiy va cheksizligini tan oldi. Harakatning abadiyligini ta’kidlab, uning manbai atomlarda ekanligi g‘oyasini ilgari suradi. Uning bu fikrida tabiiy - dialektika unsuri mavjud.

Olimning bilish to‘g‘risidagi ta’limoti ham diqqatga sazovordir. Demokrit singari Epikur ham sensualist (lot. zepziz sezgi. Sezgini bilishning yagona manbai deguvchi falsafiy yo‘nalish) edi. Shuning uchun, u sezgilar bergan ma’lumotni haqiqat, deb hisobladi. Chunki, sezgilar voqelikka to‘g‘ri keladi va bilishning asosini “Sezgilar xato qilmaydi”, deb ta’kidladi faylasuf. Uningcha, narsalarning “timsoli” jismning tashqi tarafidan ajralib, inson sezgilariga ta’sir qiladi. Nazariy tafakkur sezgi, his-tuyg‘u uzatgan ma’lumotlarni qayta ishlaydi. Tafakkurning asosiy vazifasi hissiy obrazlarga tayanib, narsalarning muhim, umumiy tomonlarini ajrata olish, tabiatdagi narsa- hodisalarning asosiy mohiyatini bilishdir. Umuman olganda, Epikur sezgi va tafakkur orqali voqelikni bilish mumkinligiga ishondi. Uning fikricha, inson bilimining manbai moddiy borliq, narsa va hodisalardan iborat. Kuzatish va jonli mushohada orqali tabiat sirlari ochiladi, insonning bilish imkoniyatlari kengaya boradi.

Epikur axloqshunoslik masalalariga katta e’tibor qaratdi. Mutafakkir axloqiy qarashlarining asosida rohatlanish tuyg‘usi yotadi. Rohatlanish ikki xildir. Birinchisi - jismoniy rohatlanish - uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-bosh va boshqa narsalarga bo‘lgan ehtiyoj. Ikkinchisi - ma’naviy yoki ruhiy rohatlanish - bilim va do‘stlik tufayli rohatlanish ruhiy olamidir. Umuman, Epikur rohatlanishni keng ma’noda tushunadi. Rohatlanish, eng avvalo, insonning tabiiy ehtiyojlarini qondirishi, jismoniy va ruhiy azob-uqubatlardan xalos bo‘lishidir. U odamlarni yomonlikdan qutulishga da’vat etdi, chunki yomonlik turli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Inson rohatlanish tufayli yaramas hissiyot va kechinmalardan xalos bo‘la boradi. Har qanday rohatlanishga intilaverish va doimo azob-uqubatdan qochish yaramaydi. Inson rohatlanishning qaysi birini tanlab olishni, azob va qiynoqlar keltiradigan rohatsizlikdan voz kechishni oldindan bilishi, shunga yarasha chora-tadbir ko‘ra bilishi lozim. Mutafakkir rohatlanish masalasini tahlil qilar ekan, inson o‘z faoliyati va xatti- harakatida mo‘tadillikka, ya’ni muayyan me’yorga amal qilishi lozimligini uqtirdi. Ma’lumki, insoning ehtiyojlari cheksiz. Buni yaxshi tushungan Epikur inson hayotda eng zarur bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishi, chegaralangan narsalarga qanoat qilishi kerakligini ta’kidlaydi. Donishmand ruhiy rohatlanishni jismoniy rohatlanishdan yuqori qo‘yadi. Bilimga intilish natijasida inson yuksak ma’naviy kamolotga erishadi. Rohatlanishning yuqori cho‘qqisi - falsafa bilan mashg‘ul bo‘lish, u insonga qanday yashashni, o‘limdan qo‘rqmaslikni o‘rgatishi kerak. Biz mavjudligimizda o‘lim bo‘lmaydi, o‘lganimizdan so‘ng biz mavjud bo‘lmaymiz, deydi Epikur.

Ellinizm davrida turli falsafiy oqimlar, jumladan, skeptiklar, stoiklar, epikurchilar faoliyat ko‘rsatganlar. Skeptitsizm (yunoncha - tanqid qiluvchi, shubhalanuvchi, degan ma’noni bildiradi) miloddan avvalgi IV asrda paydo bo‘lib, mavjud falsafiy bilimlarga o‘z munosabatini bildiradi. Spektitsizm inson bilimining nisbiyligini ta’kidlab, haqiqatni anglashning mezoni borligiga shubha bildiradi. Skeptitsizm oqimining yirik vakili Pirrondir (miloddan avvalgi 360- 270 yil). Uning asosiy g‘oyasi biron narsa to‘g‘risida fikr-mulohaza yuritmaslik kerak, chunki baribir haqiqatga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun inson bu dunyoda xotirjam yashab, baxtga erishish uchun intilishi kerak. Yunonistondan keyin ilm-fan markazi Rimga o‘tdi. Qullar bilan quldorlar o‘rtasida qarama- qarshilik kuchaydi.

Milloddan avvalgi III asrda stoitsizm falsafasi keng tarmoq yoydi. Uning asoschisi **Zenon** (miloddan avvalgi 333-262 y.y.), yirik namoyandalari esa Mark Tulliy Sitseron (106-43 y.y.), Seneka (4-65 milodiy y.y.), Mark Avreliy (121-180 y.y.) va boshqalardir. Stoiklar dunyoqarashining asosida gilozoizm (yunon- jonli narsa) - barcha hodisalarda tiriklik alomatlari mavjud, deb hisoblavchi ta'limot yotadi. Ya'ni, ular tabiatni - jonli, borliqni Ong - Xudo yaratgan, deydilar. Stoiklarning falsafiy .qarashlarida axloq-odob masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Falsafa asosini axloq tashkil etadi, degan fikr ularning dunyoqarashiga xosdir. Stoitsizm tarafdorlari, ayniqsa, Seneka kishilarni xissiy rohatlanishdan qochishga chaqirdi, unga axloqiy kamolotni qarama-qarshi qo'yadi. Inson aql bilan harakat qilib, ozgina narsa bilan qanoat qilsa, shundagina u yuksak fazilatli bo'lib, baxt-saodatga erishishi mumkin. Stoiklar boy va zodagonlarning jabr-zulmi, ta'magirligini qoralagan bo'lsalar ham, quldorlik va boylikni inkor qilmadilar, lekin kishilarni mehr-shafqatli, yaxshi xulqli, odobli bo'lishga da'vat etib, Xudo oldida hammaning tengligi to'g'risida fikr yuritdilar. Stoiklar to'rt fazilat turiga alohida ishora qildilar. Bular - aql bilan ish tutish, mo'tadillik, adolat va shijoatdir. Mazkur fazilatlarning aksi - yaramas illatlar - qo'rqoqlik, adolatsizlik, aqlsizlik, o'zini tiyolmaslikdir. Seneka Xudo tomonidan sinalgan va tabiat bilan uyg'unlashgan inson faoliyatini axloqiy jihatdan kamolotga yetgan, deb biladi. Mark Avreliy esa o'z qarashlarida fatalistik g'oyalarni ilgari surdi. Inson Xudoga to'la bo'ysunadi. Shuning uchun u o'z hayotida biron narsani o'zgartirishga qodir emas. "Odamlar - zaif pashshalar", "Butun insoniyat tutundan iborat", "Inson hayotining muddati - bir lahza, uning mohiyati - doimiy oqim, sezgilar - xira, tananing umumiy tuzilishi-foniy, ruh-beqaror, taqsir-sirli, shon-sharafga ishonib bo'lmaydi. Hayot - kurash va yot o'lkalarda sarson-sargardonlikda yurish; o'lgandan keyingi sharaf unutilguvchidir", deydi Avreliy. Umuman, Mark Avreliyning axloqiy qarashlari umidsizlik va zaiflik ruhi bilan sug'orilgan.

Tit Lukresiy Kar. Epikur g'oyalarini rivojlantirgan mashhur faylasuf Tit Lukresiy Kar (miloddan avvalgi 99-55 yy)dir. Faylasuf o'zining moddiyunchilik qarashlarini bizgacha yetib kelgan «Buyumlarning tabiati haqida» nomli yagona asarida bayon qilgan. U borliq, olam, materiya, fazo, vaqt, mayda zarralar haqida o'z qarashlarini biddirdi. Lukresiyning fikricha, dunyoda jism va fazodan

boshqa narsa yo'q, undagi narsalar atomlardan, ya'ni mayda zarrachalardan iborat. Atomlar bo'linmas, abadiy, mayda, doimo harakatda, hajm, shakl, og'irlikka ega. Fazo to'g'risida fikr yuritar ekan, Lukresiy uning ob'yektivligini tan oladi. Fazo bo'sh, moddiy xarakterga ega emas, shuning uchun uni sezib bo'lmaydi, deydi. Harakatning oddiy shakli turtki va og'irlik natijasida, atomlarning to'g'ri yo'ldan chekinishi tufayli vujudga keladi. Olamdagi hamma narsa doimiy harakatda, bir-biriga o'tib turadi, rivojlanadi, o'zgaradi. Yer atomlarning birikishidan paydo bo'lgan, unda hamma narsalar jarayonda, o'zgarishda. Lukresiy makon va zamonni ham dialektik nuqtai nazardan talqin etadi. Makon-atomlar egallagan o'rin, zamon esa atomlardan tashkil topgan narsa va hodisalarga xosdir. Rim faylasufining bilish to'g'risidagi qarashlari muhimdir. U olam sirlarini bilish mumkinligiga ishonadi.

Mutafakkir rohatlanishni 3 turga bo'ladi: 1) tabiiy na zaruriy. Masalan, ovqatlanishga bo'lgan ehtiyoj; 2) tabiiy, lekin zaruriy bo'lmagan, Masalan, turli shirinliklarga bo'lgan ehtiyoj; 3) tabiiy ham, zaruriy ham bo'lmagan ehtiyojlardir. Bundaylarga mansabparastlik, manmanlik va shuhratparastlikni kiritish mumkin. Bunda Lukresiy Karning axloqiy qarashlarida Epikurning ta'siri yaqqol sezilib turadi.

O'rta asr g'arb falsafasi. Antik dunyoning so'nggi davriga kelib, falsafa bilan dinning bir-biriga o'zaro bog'liqligi kuchaya bordi. Din va mistika haqiqat manbai sifatida talqin qilinib, mantiq va aqliy dalillar falsafiy munozaradan siqib chiqarila boshlandi. Xristianlik dini antik falsafiy tafakkur bilan o'z chegara chizig'ini belgilab olishi zarur edi. Xristianlikning falsafiy jihatlari falsafiy tafakkur bilan bo'lgan kurashda shakllandi. Bu kurash murakkab vaziyatda olib borildi. Bir tomondan, barcha antik madaniyat, jumladan, falsafa rad etildi, har qanday haqiqiy bilim va ezgulik ilohiy oqimdan kelib chiqadi (Tertullian), ikkinchi tomondan, qadimgi yunon falsafasi xudoni bilish va tanishning muhim vositasi, deb tan olinadi (masalan, gnostiklar), uchinchi tomondan esa, ba'zilar (apologetlar, Aleksandriya maktabi) "falsafiy" va "ilohiy" bilimlarning o'zaro hamjihatligini qo'llab-quvvatlab chiqishadi. Lekin, ularning fikricha, bu hamjihatlikda ilohiy tamoyil yetakchi mavqega ega bo'lmog'i lozim. Majusiylik va falsafaga qarshi xristianlik apologetlari (yunoncha apologiya-himoya, muhofaza) hujum qiladilar. Ular xristianlik ta'limotini unga yot bo'lgan barcha ta'sir va siquvdan qutqarib qolishga urunadilar. Apologetlar, asosan, falsafiy muammolarning yechimlarini izlaydilar. Ular birinchi xristian

faylasuflari bo‘lib, qadimgi yunon falsafiy merosini o‘zlarining doktrinalarini asoslab olishga jalb qiladilar. Ulardan ba’zilari ellinistik ma’naviy madaniyatning yorqin tarafdorlari bo‘lishsa, boshqalari esa uning ashaddiy dushmanlari edilar.

Kvint Sentimiy Tertullian (taxminan 160-230 y.y.) falsafa va diniy e’tiqod biron-bir masalada hamohang bo‘lishi mumkin emasligini ta’kidladi. Uning asosiy xizmati xristian dinini tashviq etish, cherkovni Rim hokimiyati va bid’at xavfidan himoya qilishdan iborat bo‘ldi. Uningcha, diniy e’tiqod va aql o‘rtasida tutash nuqta topish mumkin emas. Tertulian majusiylikka xristian dinini, aqlga ilohiy vahiyni qarshi qo‘yadi. Xudoni bilish va tanish manbai bo‘lgan Tavrot mavjud ekan, ilmiy tadqiqotlarga hech qanday o‘rin yo‘q. Xudo hamma narsani biladi va barcha hodisalar yo‘nalishini boshqaradi. Shunday ekan, falsafiy tafakkurning vazifasi qolmaydi, va u turli-tuman bid’atlarga yo‘l ochib beradi. Tertullianning imon-e’tiqodni oliymaqom haqiqat sifatida e’tirof etishi falsafani ilohiyotga bo‘ysundirish harakatlariga zamin yaratib berdi.

Xristian falsafasi an’analari **Avreliy Avgustin** (354-430y.y.) tomonidan davom ettirildi. Avgustin falsafasi xristian va qadimgi falsafiy ta’limotlarning qorishmasi sifatida vujudga keddi. U ilohiyotga oid bir qancha asarlar yozdi. U kichkina olam - «mikrokosm» o‘zida moddiy jism tabiatini mujassamlashtirgan. Bundan tashqari, inson aql va erkin iroda sohibidir. Ruh - nomoddiy abadiy, insonning ixtiyorida erkin. Inson nima qilmasin, nimaga qo‘l urmasin - hammasi xudo amri-farmonidir. Xudo o‘zining azaliy qarori bilan ba’zilarni oxirat azoblaridan ozod yoki unga mahkum etib yaratgan. Avgustinning ruh to‘g‘risidagi fikrlari g‘aroyib. Uning ta’kidlashicha, ruh mustaqil substansiya - javhar sifatida na jism va na uning xossalariga ega. Uning asosiy vazifasi tafakkur etish, iroda va xotiraga ega bo‘lish. Ruh har qanday biologik funksiyalardan xoli. Tanaga nisbatan ruhning barkamolligi bilan ajralib turadi. Bunday qarash Yunon falsafasida ham uchraydi, lekin Avgustin talqinida ruhning barkamolligi uning Xudoga yaqinligi va abadiyligidan kelib chiqadi. Xudo - ruhning ob’yekti hisoblanadi. Tana uni bilishga to‘sqinlik qiladi. Shunday ekan, biz tanani emas, aksincha, ruhni yaxshiroq bilib boramiz. Ruhning tanadan ustunligi insondan ruh, to‘g‘risida o‘ylashni, qayg‘urishni talab qiladi. Shu bois nafsoniy lazzatlarning vujudimizda bosh ko’tarishiga yo‘l qo‘ymasligimiz lozim.

Avgustin falsafasiga aqlparastlik emas, balki irodaparastlik xos. Ruhiy hayotning asosini iroda tashkil etadi. Avgustinning iroda ustuvorligi haqidagi fikri qadimgi yunon ratsionalizmidan farqlanadi. Inson ruhini irratsionalistik tarzda tushunish orqali iroda erkinligining faolligi kelib chiqadi. Avgustin bu fikrni psixologiya bilan birgalikda ilohiyotga kiritadi.

Sxolastik falsafa. Realizm. Sxolastik falsafa vakillari o‘z tadqiqotlarida e’tiqodning aqldan ustuvor turishi, uning birlamchi va muhim ekanligiga asoslanganlar. Bundan tashqari, turli-tuman aqidaviy masalalar muhokamasi qator falsafiy muammolarni keltirib chiqargan. Ulardan eng muhimi umumiylikning ayrimlikka, alohidalikka munosabati masalasidir. Falsafa tarixida ushbu masala bo‘yicha bahs-munozara «universaliyalar», ya’ni umumiy tushunchalar mohiyati to‘g‘risidagi tortishuvlardir. Ba’zi sxolastlarning fikriga ko‘ra, «universiyalar» - umumiy tushunchalar real mavjuddir. Ularning mavjudligi inson fikri, nutqiga bog‘liq emas. Bunday qarashlar «realizm» nomi bilan atala bordi. Realizm qarashlaridan farqli o‘laroq, boshqa yo‘nalish paydo bo‘lib, u universiyalarning real mavjud emasligini e’tirof etadi. Realizm tarafdorlari fikricha, universaliyalar umumiy nomlar, tushunchalardir, xolos. Masalan, «umumiy odam» reallik sifatida mavjud emas. Real tarzda ayrim odamlar mavjud. “Odam” - umumiy nom, bu nom negizida aniq biror inson yotadi. Bunday qarashlar o‘z navbatida «nominalizm» (lot. potta - nomlar) deb atala boshlandi. IX-XII asarlarda realistlarni asosan sxolastlar tashkil etar edi. Ularning yirik namoyondalaridan biri irlandiyalik **Ioann Skot** (Eriugena) edi. Uning ta’limoticha, barcha jismlar aslida ruhiy mohiyatga ega. Jism holat va xossalari, aslida, sezgilarimizning illyuziyasidir, xolos. Tabiat o‘z mohiyatiga ko‘ra, xudoning har xil ko‘rinishda izchillik bilan namoyon bo‘lishidan iborat. Hech qanday vosita va usul bilan bilinishi mumkin bo‘lmagan Xudo tashqariga tarqaladi. Realistlarning birinchi muxoliflari XI asrda o‘z qarashlarini bildirdilar. Ularning fikricha, umumiylik jism emas, balki, so‘z, nom va nutq tovushlaridir, xolos. Nominalizmning birinchi namoyandasi kompenlik Rosselin (taxm. 1050 yil tug‘ilgan) edi. Umumiylikning real mavjud ekanligini rad etish, ayrim, alohida olingan jismlarning mavjudligini e’tirof etish Rosselin bilan cherkov munosabatlarining murakkablashuviga olib keldi. Realizmning yorqin namoyandalaridan yana biri italiyalik Anselm (1033-1109) edi. U o‘z faoliyatini

Normandiyada boshladi. Uning ta'kidlashicha, ezgulik, yaxshilik, haqiqat, adolat tushunchalari ayrim xatti-harakatdan qat'iy nazar, real narsa sifatida mavjuddir. Anselm aql vositasida Xudoning borligini isbotlashga urinadi. Uningcha, Xudo uning to'g'risidagi tushuncha sifatida mavjud bo'lib qolmasdan, balki, aqlimizdan tashqari, kayfiyatimizga bog'liq bo'lmagan tarzda ham mavjuddir. Anselm Rim papaligining siyosiy da'volarini himoya qildi, vafotidan so'ng avliyolar safidan o'rin oldi.

Sxolastlar orasida **P.Abelyar** (1079-1142y.y.) yirik faylasuf sifatida tanildi. U muqaddas kitob va ilohiyot to'g'risidagi adabiyotlardagi ziddiyatlarni hal etishda aqlga murojaat etish zarur, degan chaqiriq bilan chiqdi. Universaliyalar mohiyati bahs-munozaralarida o'ta nominalistik va realistik qarashlarga qarshi edi. Ko'pgina narsaga nisbatan biron-bir narsani tasdiqlar ekanmiz, tasdig'imiz narsaga emas, balki so'zga aloqador bo'ladi. Aynan shunda nominalizmning haqligi namoyon bo'ladi. Abelyar sxolastikaga mo'tadil realizmning kirib kelishi uchun astoydil harakat qildi. Uning bunday qarashlari ko'pchilik realistlarning qahr-g'azabiga uchradi. Shu bilan bir qatorda, mistika, ya'ni insonning turli vositalar ko'magida Xudo bilan muloqotga kirishishi, o'z shaxsini Xudo shaxsiyatiga singdirish to'g'risidagi tasavvurlar, ta'limotlar keng yoyila bordi. Aksariyat mistiklar xudo bilan bevosita muloqotga kirishish mumkinligi haqida bosh qotirdilar. Sub'yektiv aloqa- vositani, Xudo bilan birlashishni har qanday aqidadan, xudo to'g'risidagi ilohiy ta'limotdan yuqori qo'ydilar. Ular uchun shaxsiy his-tuyg'u va sub'yektiv ong guvohligi cherkov ehromi hamda uning ta'limotidan yuqori turadi. Feodal jamiyatning ijtimoiy hayotida mistika rasmiy va hamma uchun shart hisoblangan diniy ta'limotga qarshi muxolifot shakliga aylana bordi. Chunki hamma uchun shart hisoblangan aqidalarga insonning Xudoga bo'lgan shaxsiy munosabatini qarshi qo'ydi.

Akviniyalik Foma (1225-1274y.y.) Neapolitan va Parij universitetlarida ta'lim oldi, averroistlar (Ibn Rushd (lot. Averroes) va uning ta-rafdorlarining falsafiy ta'limoti)ga qarshi ayovsiz kurashdi. U o'z ta'limotida asl haqiqat tomon intilib, ba'zan imon aqidalariga zid kelib qolardi. Bu esa ulardan birini chin, boshqasini xato ekanligini ko'rsatadi. Vahiyda hech narsa xato bo'lmasligini e'tiborga olsak, xatoga imon, ilohiyot emas, balki aql, falsafa yo'l qo'yganligini ko'ramiz, deydi faylasuf. U Xudoning mavjudligini sabab-oqibat

munosabatidan kelib chiqarishga urinadi. Har bir narsaning o'z sababi bo'ladi. Sababning ibtidosi Xudodir. U barcha narsa- hodisalarning eng oliy sababchisi. Materiya passiv, shakl esa faoldir, tamoyili olim uchun muhimdir. Aql jismlar bilan bog'langan. Shunday ekan, u da'vo qilayotgan bilim jismlar olamiga taalluqli, xolos. Ruhiy-ma'naviy hodisalar aql imkoniyatidan chetdadir. Borliqni adekvat tarzda ongimizda aks etishi to'g'risida fikr yuritish mumkin emas. U axloq-odob, davlat, jamiyatni boshqarish, baxt- saodatga erishish kabi masalalar yechimini cherkov ideallari bilan bog'laydi. Hukmdor hokimiyati eng oliy hokimiyat - ruhoniylar hokimiyatiga bo'ysunishi lozim, degan fikrni muhim deb biladi.

Rodjer Bekon (1210-1294y.y.) - sxolastikaga qarshi qaratilgan muxolifatning asosiy vakili. Uning qalamiga "Katta ilmiy tadqiqot" va "Kichik ilmiy tadqiqot"lar mansub. Asarda inson tafakkuri, nazariyasi, fan va nazariya, tilshunoslik, eksperimental fanlar hamda axloq falsafasining masalalari bayon etilgan. Bekon sxolastlarga uch e'tirozni ko'ndalang qo'yadi: 1.Arastu, Ibn Sino va Ibn Rushd o'tmish davrining buyuk faylasuflari. Sxolastlar esa na yunon tilini, na arab tilini biladilar; 2) Matematika barcha fanlarning asosidir, lekin sxolastlar uni durustroq bilmaydilar; 3) Sxolastik metod tarafdorlari barcha muammolarni Injil, Arastu va cherkov otaxonlariga murojaat qilgan holda hal etadilar. Aslida tashqi olam haqida bilimlarning manbai kuzatuv, tajriba bo'lmog'i lozim. Bekon ilmiy tajribalarni amalga oshirish tufayli bor mol- mulkidan ayriladi. U "Fanlarning foydasi haqida" asarida mantiq, grammatika, matematika, amaliy fizika asoslarini ishlab chiqdi. Tajribalar unga qayg'u-alam keltirdi. Cherkov Bekondan tajribalarga chek qo'yishni, o'z kashfiyotlarini tushuntirish va ularni boshqalarga stkazishni man etdi. Bu talabni bajarmagani uchun Bekon Fransiyaga quvg'in qilindi. Bekonning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari sxolastikaga qaqshatqich zarba bergan bo'lsa-da, sxolastikaning tag-tomiri birmuncha baquvvat edi. Uning ustidan to'liq g'alabaga erishish uchun ilm-fan, ma'naviyat, madaniyatga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish, ularni inson manfaatlariga yaqinlashtirish lozim edi.

Nikola Kuzanskiy (1401-1464y.y.) Renessans davri dialektikasining asoschisi hisoblanadi. Kuzanskiy Deventeradagi «Umumiy hayot birodarlari» uyushmasida umumiy ma'lumot oldi va o'qishni Gedelberg, Paduan universitetlarida davom ettirdi. So'ng Rim katolik cherkovining kardinali lavozimlarida ishladi. U faylasuf Uilyam

Okkam ta'limoti bilan har tomonlama tanishdi, uning ijtimoiy va falsafiy dunyoqarashida o'sha zamon ijtimoiy ongida sodir bo'lgan sekulyarizatsiya jarayonining ta'siri sezilarli bo'ldi. Shuningdek, Nikola Kuzanskiy ijodiga zamonasining antropotsentrik qarashlari ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Nikola Kuzanskiy falsafasida Xudo haqidagi ta'limot markaziy o'rinni egalladi. O'rta asr sxolastik an'analariga asoslanib fikr yuritgan mutafakkirning tushuntirishicha, Xudo borlig'i tabiat borlig'i va inson borlig'ini shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Lekin Xudo "o'zgacha" "borliq- imkoniyat", "o'zi imkoniyat", eng muhim "absolyut maksimum" ekanligini, olam esa "cheklangan maksimum"lar cheksizligini ko'rsatdi.

Nikola Kuzanskiy kosmologiyasining asosida Yer koinot markazi emas, degan fikr yotadi. Uning fikricha, Yer ham boshqa sayyoralarga o'xshash tabiatga ega bo'lib, doimo harakatlanib turadi. Bunday fikr o'rta asrlarda uzoq vaqtlardan buyon hukmronlik qilib kelgan, koinot markazida Yer turadi. Boshqa sayyoralar Yerning atrofida aylanib turadi, degan tasavvurga qarshi edi. Tabiat borlig'i, Nikola Kuzanskiyning fikricha, bir butun yaxlit organizm bo'lib, dunyoviy jon tomonidan ilhomlantirib turiladi. Shuning uchun ham bu dunyoning hamma qismlari bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikda bo'lib, doimo harakatda. Tabiat qarama-qarshi kuchlar, holatlarning yig'indisidan iboratdir. Nikola Kuzanskiy falsafasida inson muammosi asosiy o'rinni egalladi. Nikola Kuzanskiy xristianlikdagi inson to'g'risidagi g'oyalardan yuz o'girdi va insonni o'ziga xos "kichik olam" deb hisoblagan antik falsafa g'oyalariga tayandi. "Kichik olam", ya'ni insonning o'zi va "katta olam", ya'ni universum "maksimal olam" - ilohiy mutlaq tushunchalarni muomalaga kiritdi.

Yangi davr falsafasi. Yangi davr fanida ilm-fan sohalarini tasniflashga intilish, olamning bir butun, yaxlit manzarasini yaratish, fanning empirik asoslariga e'tiborni kuchaytirish, amaliyotga murojaat etish, tabiat- shunoslikning nazariy tafakkurga samarali ta'siri falsafiy ta'limotning shakllanishida ijobiy ahamiyat kasb eta bordi.

Frensis Bekon. Bilish nazariyasi va uning metodiga alohida e'tibor qaratgan birinchi faylasuf Frensis Bekon (1561-1626y.y.)dir. F.Bekon birinchi navbatda fan tarixi, davr taqozo etayotgan fanga o'z munosabatini bildirishga jazm qiladi. Uning fikricha, fanning oliy maqsadi - tabiat ustidan hukmronlik qilish va inson hayotini takomillashtirib borish. Insonning narsalar ustidan hukmronligi san'at va

fanlar orqali amalga oshadi. Lekin inson tabiatga bo'ysunmasdan turib, unga hukmronlik qila olmaydi. Insonning bilimi va kuch-qudrati bir-biriga mos keladi.

Inson "tabiat xizmatkori va uni talqin etuvchisi" sifatida fan tarixiga nazar tashlab o'tishi shart. Haqiqatdan, olam tarixi fan tarixidan judo bo'lgan taqdirda u "ko'zi ojiz Polifem haykaliga juda ham o'xshab ketadi". Bu fan tarixi tadqiqotchi uchun bir ibrat. O'tmishga hurmat kishilardan unga tegishli e'tibor berishni, u tomonidan erishilgan yutuqlar, umumiy ahvol ustida bir dam to'xtab turishni, qanday yo'l maqsadga eltishi mumkin ekanligi to'g'risida mushohada yuritishni taqozo qiladi. Maqsad aniqlangach, bir joyda depsinib turmasdan, charchoq nimaligini bilmay, ilgariga qarab shitob bilan ravona bo'lmoq lozim.

F.Bekon fan tarixiga tanqidiy ruhda yondashadi, jumladan, qadimgi grek va arablar tomonidan erishilgan yutuqlar kamtarona bo'lganligini tez-tez ta'kidlab turadi. U azaldan yashab kelgan va bizgacha yetib kelgan alximik, astrologik, sehrgarlik kabi tasavvurlarning mohiyatiga to'xtalib, ularni o'tmish bizga qoldirgan merosi sifatida talqin qiladi. Lekin bu tasavvurlar zaminidagi kuzatuv va tajribalar samarali natija berganligini ham unutmaydi. Har holda, hozirga qadar, ehtimol, fanni rivojlantirish maqsadida kishilarga na tashqari ko'mak, na ularning tinimsiz izlanishlari yaxshi samara bermaganligi uchun tajriba va dalil- isbotlardan foyda kam, deb ta'kidlaydi faylasuf.

Rene Dekart. Dekartning falsafiy qarashlari "Metod haqida mulohazalar", "Falsafaning ilk asoslari" kabi asarlarida bayon etilgan. U tomonidan yaratilgan analitik geometriya matematik fanlar rivojining muhim omili bo'lib xizmat qildi. Olim mexanika, optika, matematika, fiziologiya sohalarida erishgan yutuqlari bilan XVII asr buyuk tadqiqotchilari qatoridan munosib o'rin egalladi. Dekart Yangi davr falsafasida o'zining dualistik falsafasini yaratishi bilan boshqalardan ajralib turadi. Uning "Men fikrlar ekanman, demak, men mavjudman", - degan iborasi tafakkurni barcha narsaning negizi sifatida e'tirof etganligini yaqqol ko'rsatib turibdi. U fizikada materiya va harakat muammolarini qarab chiqar ekan, butun tabiat tizimini mexanistik pozitsiyadan turib talqin etishga harakat qiladi. Dekart materiya deganda, birinchi galda, fazoning muayyan qismini egallagan hajmni tushunadi. U cheksiz tarzda bo'linuvchi zarralardan tashkil topgan, bir-

biridan katta- kichikligi, tuzilishi, mexanik harakat yo'nalishi bilan farqlanadi. Jismlarning hidi, rangi, issiqligi kabi sifatlariga kelsak, ularni Dekart narsalarning xossalari emas, balki inson sezgilari, deb ta'rifladi.

Dekart bilishning ibtidosi sifatida sezgilar, tajriba natijalariga hech qanday ehtiyoj his qilmagan intellektual intuitsiyani tan oladi. Bekon bilishning yagona metodi-induktiv metodni tan olgan bo'lsa, Dekart nazarida deduktiv metoddan afzal bilish metodi bo'lishi mumkin emas. Dekart aql rolini mutloqlashtirib, uning talab va tamoyillari asosida o'z metodini yaratdi. U to'rtta qoidaga amal qiladi:

1. Bilishda hech qanday shubhaga o'rin qoldirmaydigan aniqlik va yaqqollikka erishish.
2. Tadqiq etilayotgan masalani yaxshi tushunib olish uchun qancha qismga bo'lish talab qilinsa, shuncha qismlarga bo'lish.
3. Tadqiqotni oddiy narsalardan boshlab, asta-sekin eng murakkab narsalarga ko'tarilib borish tartibida fikrlashga amal qilish.
4. Bilish jarayonida ob'yektning muhim jihatlarini nazardan qochirmaslik, uni imkoniyat doirasida to'la qamrab olishga intilish.

Dekart bilishda tafakkurning ahamiyatini biroz bo'rttirgan holda, deduktiv metod orqali olam to'g'risidagi barcha bilimlarga ega bo'lish mumkinligiga ishonadi. U bilishda sezgilar va tajribaning ahamiyatini butunlay rad etmasdan, ularni aql, deduksiya ko'magida erishilgan bilimlarni qayta, yana isbotlash sifatida talqin qiladi.

Tomas Gobbs. Gobbs (1588-1679y.y.) ingliz faylasufi, uning "Qonunlar asoslari" (1640y), "Fuqaro haqida" (1642y), "Inson haqida" (1658y), "Leviafan" (1651y) kabi asarlar yozgan.

Gobbs ontologiyasiga ko'ra, olam - xilma-xil jismlarning majmuasi. Uning ta'kidlashicha, jismlarning harakati mexanika qonunlari asosida amalga oshadi. Barcha jismlarning harakati va uning boshqa jismlarga ta'siri turtki orqali ro'y beradi. Jism turtkisi natijasida boshqa jismda zo'riqish hosil bo'ladi. Bordiki, bu zo'riqish qarama-qarshi cho'riqish bilan muayyan bir vaziyatda saqlanib turilmasa, turtki yangi harakatga sababchi bo'ladi. Pirovard natijada, turtki oqibatida yuzaga kelgan zo'riqishlar borgan sari sezilarli tus ola boradi. Bunday zo'riqishlarni muayyan harakat sifatida talqin etish mumkin. Uning ta'kidlashicha, kishi va hayvonlarning ruhiy hayoti sezgilardan tashkil topadi. Sezgi, his-tuyg'ular miya va yurakda ro'y beradigan turli harakat, zo'riqishlarga ta'sir eta olmaydi. Ular aslida bunday ob'yektiv jarayonlarning sub'yektiv ifodasidir, xolos.

Odamlar, hayvonlar o'ziga xos murakkab mexanizmlar bo'lib, ular harakatini tashqi ta'sirlar belgilaydi. Lekin shunga qaramasdan, jonsiz jismlar va jonli avtomatlar bir-biridan farqlanadi. Jonli avtomatlar o'z a'zolariga ega. Ular yordamida avvalgi xotira saqlanib qoladi. Bundan tashqari, ularda yangi va eski xotirani bir-biriga qiyoslash qobiliyati shakllanib, rivoj topgan. Ularni bir-biri bilan qiyoslash xotirani farqlash imkoniyatini yaratadi. Bunday sharoit o'z navbatida ongning shakllanishiga olib keladi.

Gobbs mulohazalari quyidagilardan iborat: a) ruh o'ziga xos mustaqil substansiya sifatida mavjud emas, b) jismlar yagona mustaqil substansiya bo'lmog'i lozim, v) Xudoga e'tiqod qilish inson hayotining mahsulidir.

Jon Lokk. D. Lokk (1632-1704y.y.) ko'zga ko'ringan ingliz faylasufi, psixolog va pedagog. U Oksford universitetida tahsil oladi, yunon tili va notiqlik san'ati bo'yicha o'qituvchilik qiladi. O'qib yurgan paytlaridan boshlab tabiatshunoslikka, o'sha davrning falsafiy nazariyalariga zo'r qiziqish bilan qaraydi. Bekon va Dekart falsafasiga alohida e'tibor beradi. U 1664-1665 yillarda birinchi marta Angliya elchixonasining kotibi vazifasida Yevropa mamlakatlarida yashaydi. Lekin uning diplomatik vazifasi uzoq davom etmasdan, Angliyaga qaytadi, tabiatshunoslik va falsafani o'rganish bilan mashg'ul bo'ladi. U Angliyaga 1688 yildagi inqilobiy harakat natijasida qaytib keladi. Burjuaziya va dvoryanlar tabaqasi o'rtasida o'rnatilgan siyosiy kelishuv olimning ilmiy faoliyati va dunyoqarashida o'z ifodasini topgan. Lokk barcha g'oyalarning yagona manbai sifatida tajribani e'tirof etadi. Tajriba tashqi va ichki ko'rinishlarda amal qiladi. Birinchisi sezgi, ikkinchisi refleksiya tarzida namoyon bo'ladi. His etish g'oyasi tana sezgi a'zolariga tashqi olam hodisalarining ta'siri natijasida paydo bo'ladi. Unga ko'rish, eshitish, hid bilish, sezish va hokazolar orqali vujudga kelgan g'oyalar kiradi. Refleksiya g'oyalari ruhning ichki faoliyati bilan bog'liq bo'lib, tafakkur, his-tuyg'u, kayfiyatda ro'y berayotgan turli xil holatlarga aloqadordir. Sezgilar orqali narsalarning sifat- xossalari aks ettiriladi.

Benedikt Spinoza. Spinoza yahudiy oilasida tavallud topadi(1632-1677y.y.). Uning oilasi diniy ta'qiblardan qutilish maqsadida Portugaliyadan Gollandiyaga ko'chib keladi. U avvaliga diniy maktabda tahsil oladi, so'ngra Dekart falsafasi bilan tanisha boradi. Uni matematikaga, jumladan, geometriyaga xos fikr yuritish uslubi o'ziga

rom qiladi. Spinoza "Geometrik metod bilan bayon qilingan Kartezi falsafasining tamoyillari", "Geometriyada qo'llaniladigan uslub bilan bayon qilingan etika", "Ilohiy siyosiy risola", "Xudo, inson va uning baxt-saodati to'g'risida", "Aqlni takomillashtirish to'g'risida risola", "Siyosiy risola" kabi asarlarni meros qilib qoldirgan. Olim falsafiy tizimining asosini yagona substansiya haqidagi ta'limot tashkil qiladi. Tabiat substansiya sifatida atributlarda, tub, abadiy, uzviy xossalarda namoyon bo'ladi. Substansiyaning nihoyasi yo'q. Shunday ekan, unga taalluqli atributlar ham benihoya va beadaddir. Spinoza «yaratuvchi tabiatni Xudo deb atab, tabiatni Xudoda singdirib yuboradi. Uning ateistik va materialistik panteizmiga ko'ra, tabiat barcha narsalarning sababi, oqibati, mohiyatidir, u abadiy va benihoyadir. Tabiatda unga va uning qonunlariga zid biron-bir narsaning mavjud bo'lishi mantiqdan yiroq, barcha narsalar muayayn qonunlar asosida sodir bo'ladi. Bu borada Spinoza o'zining qatiy determinizmga moyil ekanligini namoyon qiladi. Inson bilishning mavzusi sifatida olamdagi boshqa narsalarning deyarli barchasidan farq qilmaydi. Unda moddiylik modusidan tashqari tafakkur modusi - ruh mujassamlashgandir. Insonni tana nuqtai nazaridan olamizmi yoki ruhiy hodisa sifatida talqin qilamizmi, bundan qat'i nazar, u tabiatning bir qismi, xolos. Inson psixologiyasi, uning qiziqishlari, istak-orzulari, maqsad-maslaklari, xulq-atvori bilish ob'yekti sifatida tabiatning boshqa hodisalaridan tubdan farqlanmaydi.

Immanuel Kant. I.Kant 1724 yilda Kyonigsbergda (hozirgi Kaliningrad) hunarmand oilasida tug'ildi. U shu shaharda ta'lim oldi, o'qituvchilik qildi, universitet professori, keyin esa uning rektori lavozimlarida ishladi. I. Kant 1804 yilda vafot etdi. I. Kant mashhur faylasuf va yirik tabiatshunos olim sifatida jahonga tanildi. Ayniqsa, olimning "Umumiy tabiiy tarix va osmon nazariyasi" asari va unda ilgari surilgan Quyosh tizimining paydo bo'lishi haqidagi ilmiy bashorati o'sha davrdagi tadqiqotchilar muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Uning ta'kidlashicha, Quyosh tizimi fazoda tarqoq holda joylashgan bo'lib, materiya zarralari bir-biriga yaqinlashishi oqibatida meteoritlar, fazoviy sayyoralar paydo bo'lgan. Kant rivojlanish tamoyilini tabiiy jarayonlarga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratadi. Olim Quyosh tizimining shakllanishi to'g'risidagi umumiy nazariya bilan chegaralanmasdan, kurrai-zamin tarixiga taalluqli maxsus masalalarning yechinmalari bilan ham qiziqadi. U kurrai-zamin tarixida dengiz suvining ko'tarilishi va qaytishi masalasiga to'xtalib, shu tufayli Yerning

kecha- kunduz aylanish tezligi sekinlashadi, degan xulosaga keladi.

Olimning "tanqidiy falsafa"si XVIII asr 80-yillari boshida shakllandi. Uning ta'limoti "Sof aql tanqidi", "Amaliy aql tanqidi", "Muhokama etish qobiliyatini tanqid" kabi asarlarda o'z ifodasini topgan. Kant asarlarida bilish ta'limotini, axloq-odob, estetika, tabiatda maqsadga muvofiqlik muammolarini yoritib beradi. Ularning asosini "o'zida narsa", "biz uchun narsa" va "hodisa" to'g'risidagi tamoyil tashkil etadi. Uning fikricha, bizning ong-hissiyotimizga bog'liq bo'lmagan narsalar olami, saltanati mavjud. Uni faylasuf "narsa o'zida" sifatida ta'riflaydi.

Kantning ta'kidlashicha, bilish jarayoni "o'zida narsa"larning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'siri ostida his-tuyg'uning uyg'onishidan boshlanadi. His-tuyg'ular, tushuncha va hukmlar o'z holicha "narsa o'zida"lar to'g'risida muayyan nazariy bilim berishga qodir emas. Lekin ishonchli bilim yo'q ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Matematika va tabiatshunoslik aynan shunday ishonchli bilim manbaidir. Bu fanlar erishgan haqiqatlar eng umumiy va zaruriy xarakterga egadir. Ammo ular qanchalik darajada ishonchli va martabali bo'lmasin, «narsa o'zida»lar haqidagi haqiqiy bilim bo'la olmaydi. Sezgi a'zolarimiz, aql-tafakkurimiz tomonidan shakllangan tushunchalar "narsa o'zida" larni qay darajada to'g'ri yoki noto'g'ri aks ettira oladi, degan savolga tayin bir javob yo'q, deydi Kant. Demak, "narsa o'zida"larni inson tomonidan bilib olish imkoniyati mavjud emas. "Narsa o'zida"larning tashqi ko'rinishi, yaqqol seziladigan jihatlarini, ya'ni hodisani bila olishgagina qodirmiz. Empirik bilish ravnaqi esa uni bilishga yaqinlashtirmaydi. Agnostitsizm Kant bilish nazariyasining asosini tashkil qiladi. Bu yerda gap shundaki, inson ob'yektni o'z tabiatiga ko'ra, hodisa va mohiyat nuqtai nazaridan o'rganadi. Demak, aniq darajada bu jarayon bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Hodisadan mohiyatga o'tish ziddiyatli jarayondir. Sezgi bergan ilk ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri tafakkur "laboratoriya"siga qabul qilinmaydi. Lekin, Kantning ta'kidlashicha, shunday sub'yekt borki, u uchun bilimning darajasi bo'lmaydi, "hozir" va "keyin", hodisa va mohiyat tushunchalari unga nisbatan ishlatilmaydi. Uning bilimi doimo to'liq va haqiqiydir. U Xudodir.

Faylasuf ta'limotiga ko'ra, har qanday bilim hukm orqali ifodalanadi. Hukmda predikat sub'yektdan keltirib chiqarilmasdan, unga bog'lansa, bunday hukm sintetik hukm deb ataladi. Masalan, «ba'zi jismlar og'irdir». Hukmdagi predikat sub'yekt bilan bog'lansa (ya'ni,

bunday bog'lanish tajribada tasdiqlansa), bunday hukm aposterior hukm deb ataladi. Masalan, «ba'zi oqqushlar qoradir». Ular o'rtasidagi aloqa tajribadan oldin kelsa, unga bog'liq bo'lmasa, bunday hukm apriori hukm deb ataladi. Masalan, «sodir bo'ladigan barcha narsalar o'z sababiga ega». Kantga ko'ra, bunday hukm aprior hukmdir, chunki unda barcha narsalarga nisbatan fikr yuritilgan, lekin amalda esa tajriba bir qismini tasldiqlashi mumkin. Kantga ko'ra, insonning axloqiy faoliyati erkindir. U aql tamoyiliga amal qilib, o'z axloqiy sa'y-harakatini belgilab oladi. Yuridik qonun inson erkinligining tashqi qiyofasini belgilaydi, chunki har bir kishining erkinligi o'zgalarning istak-xohishiga zid kelmasligi lozim. Demak, qonuniy sa'y-harakatsiz inson erkinligi haqida so'z bo'lishi mumkin emas.

Iogann Gottlib Fixte. Iogann Gottlib Fixte 1762 yilda Germaniyaning Rammonauda oddiy to'quvchi oilasida tug'ilgan. Yoshligidan, oilaviy an'anaga ko'ra, ishchi bo'lib ishlashi lozim edi. U tasodifan ta'lim tarbiya olish imkoniyatiga erishadi. Fabrika xo'jayini Iogandagi o'qishga bo'lgan qiziqishni payqaydi va unga ko'maklashishga axd qiladi. 1774 yilda Fixte Shulproftdagi o'quv yurtida o'qishni davom ettiradi. Lekin o'sha yilning o'zida uning homiysi vafot etadi. Muhtojlik tufayli Fixte o'qishni to'xtatib, o'qituvchilik bilan mashg'ul bo'ladi. 1790 yilda u Kantning asarlari bilan tanishishga muyassar bo'ladi va Kyonigsbergga piyoda yetib keladi. Fixte ilk bor «Har qanday vahiylikni tanqid tajribasi» risolasini Kantning hukmga havola etadi. Kant Fixtening asari chop etilishini qo'llab quvvatlaydi. Oradan ko'p o'gmasdan Fixte faylasuf sifatida ziyolilar ahliga taniladi.

"Men" Fixte falsafasining ilk nuqtasi hisoblanadi. U mustaqil mavqega egadir. "Men" biron-bir jarayonning hosilasi emas. "Men" tushunchasi Fixte falsafasining nazariy manbaidir. Agar "Men" tashqi olamga qaram bo'lganida, "Men" uning aksidenti - oddiy xossasiga aylangan bo'lardi, chunki hissiyot olami istak-xohishlarimizni uyg'otadi, qo'zg'atadi. "Mutlaq ishlab chiqarish", sezgilar mazmunining shakllanishi "Men" ning nazariy tamoyilidir. U "tasavvur kuchi" harakatiga mos keladi. Aniq tahlillarda tashqi tajribaning muhim ekanligiga e'tiborni qaratadi. Lekin «men» ongsiz faoliyatning mahsuli, deb talqin qilinadi. Bu borada Fixte idealizmni sub'yektiv idealistlar falsafiy qarashlariga yaqinlashtiradi. Avvaliga Fixte qarashlariga xayrixoh munosabatda bo'lgan Shelling uning falsafiy konsepsiyasini

ta'riflab, u uchun "Men" hamma narsadir, deb ta'kidlagan edi. Olimning fikricha, falsafada ikkita asosiy yo'nalish bo'lishi mumkin. Bu - idealistik yoki materialistik nuqtai nazar. Masalaning nazariy tadqiqi emas, aksincha, amaliy yondashish faylasufni muayyan nuqtai nazar tarafdoriga aylantiradi. Materialist moddiy borliqdan ongga qarab yo'nalish oladi. Ammo, Fixte fikricha, moddiy olam, borliqning ongga, tasavvurga aylanishini tasdiqlab berish har qanday real imkoniyatdan yiroqsir. Idealistga kelsa, u ong orqali moddiy borliqni anglashga harakat qiladi.

Artur Shopengauer. Artur Shopengauer 1788 yil Germaniyaning Dansig shahrida bankir oilasida tug'ildi. Uning onasi Anna Shopengauer o'sha davrning mashhur yozuvchisi edi. Ularning uylarida Gyote, Viland, Grimm, aka-uka Shlegellar singari mashhur insonlar yig'ilishib turardi.

Olim dunyoni ikkiga ajratish kerakligini ta'kidlaidi, ya'ni dunyo o'zida, mening hissiyotlarimga bog'liq bo'lmagan va mening tasavvurimda bo'ladigan hodisalar dunyosidir. Uning fikricha, bizning bilish faoliyatimiz dunyoning o'ziga qaratilmagan, balki dunyo hodisalariga qaratilgandir. Shuningdek, u biluvchi ong dunyoni maxsus kategoriyalar, tushunchalar orqali qabul qiladi va tasavvurimizni tartibga soladi, deydi va shu asosda o'zining "Dunyo bu mening tasavvurimdir" degan g'oyasini asoslashga harakat qildi. Lekin bundan Shopengauer ruhiy olamdan boshqa olamni tan olmaydi, degan fikr kelib chiqmasligi kerak. Zero, bilish jarayonida tug'ilgan dunyo, Shopengauer fikricha, haqiqiy dunyodan farq qiladi. Shuning uchun ham birini - hodisa, tasavvur sifatida, ikkinchisini undan ajratilgan, reallik dunyosi, iroda dunyosi deb oladi. Birinchisida sababiyat xukmronlik qiladi, makon va zamonda mavjud bo'lgan hamma narsa unga bo'ysundirilgan. Ikkinchisi makon va zamondan tashqarida. U hech qanday chegara bilan cheklanmagan, shakllanmagan, bepoyondir. Dunyoni ikki jihatdan farqlash, Shopengauer fikricha, falsafaning asosiy vazifasidir. «Dunyo bu mening tasavvurimdir», degan xulosaga kelgan.

Fridrix Gegel. Georg Vilgelm Fridrix Gegel jahon falsafiy tafakkuri taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan nemis mumtoz falsafasining namoyandasidir. U 1770 yilda Vyurtemberg gersogligiga qarashli Shtutgart shahrida yirik mansabdor oilada tug'iddi. Gegel 1788-1793 yillar davomida Tyubingen universitetida falsafa va ilohiyot kabi sohalarni o'rganish bilan mashg'ul bo'ldi. Universitetni tamomlagach,

Bern va Frankfurt shaharlarida ayrim oilalarda murabbiy o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullandi. U 1801 yilda o'zining doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqlab, tez orada Ien universiteti professori lavozimida ishlay boshladi. Bu paytga kelib Gegelning o'ziga xos falsafiy g'oyalari hali shakllanib ulgurmagan edi. U ko'p hollarda F.Shellingning falsafiy idealini tengi yo'q namuna deb bilardi, u bilan hamkorlikda "Tanqidiy falsafiy jurnal"da faol qatnashar, qator maqolalar chop etar edi.

Gegel borliq va tafakkurning o'zaro ayniyligi tamoyiliga o'ta izchillik bilan amal qilgan holda tafakkurni mutlaq g'oyaning o'zgarmas birinchi asosi sifatida emas, aksincha, nihoyasiz bilish jarayoni sifatida talqin qiladi. "Mutlaq g'oya" taraqqiyotining yuqori bosqichi – "mutlaq ruh", ya'ni, insoniyat va uning tarixidir. Shunday qilib, ong voqeiy narsa va hodisalarda o'z mohiyatini kashf etadi va u tufayli o'zini anglash darajasiga ko'tariladi. Tafakkur jonli mushohadaga nisbatan tashqi olamni bilishning yuqori shaklidir. Biz oddiy mushohada orqali endilikda yo'q (o'tmish) va hozircha yo'q (kelajak) hodisalarni idrok eta olmaymiz. Jonli mushohada turli tuman ob'yektlar, narsalar bilan bog'liq bo'lib, ular, o'z navbatida, sezgi a'zolarimizga ta'sir etadi. Fan esa biz ko'rmagan, eshitmagan, sezmagan narsalar va ularning jihatlarini kashf etadi. Tafakkur, fanning mazmuni ulargagina xos mazmundir. Demak, bilish, Gegel fikricha, bizdan tashqarida mavjud narsalarning in'ikosi, aks sadosi emas, aksincha, bu tafakkur, fan mazmunini anglashdir.

Jon Styuart Mill (1806-1873y.y.) dastlabki pozitivizmning yirik vakilidir. U falsafiy qarashlarida Kontning pozitiv g'oyasini qabul qiladi, lekin ijtimoiy-siyosiy qarashlarida unga qo'shilmaydi. J.S.Mill «Mantiq yechimi» (1843y) asarida yangi bilim faqat empirik yo'l bilan olinishi mumkin, degan xulosaga keladi. Shuningdek, u mantiqni psixologiyaning bir tarmog'i sifatida talqin qiladi va mantiq qonuniyatlariga psixologik tus beradi. Deduksiya uslubi, uning fikricha, hech qanday yangi bilim bera olmaydi. Bundan tashqari, har qanday xulosa xususiydan umumiylikka qarab boradi. Matematika, J.Mill fikricha, empirik tarzda kelib chiqqan. Uning hamma aksiomalari kuzatish va umumlashtirishga asoslanadi. Shunday qilib, yangi hamda umumiy bilimlar manbai induktiv mulohazadir. Bekonning induktiv uslubiga tayanib, J.Mill induktiv uslubning to'rt usulini ishlab chikdi: 1) kelishuv uslubi; 2) farq qilish uslubi; 3) qoldiq uslubi; 4) yo'ldosh

o'zgaruvchanlik uslubi. J.Millning sababiy bog'lanishlar to'g'risidagi qarashlari Yumning g'oyalariga o'xshab ketadi.

Postmodern davrda bir qancha falsafiy oqimlar vujudga kelgan. Xususan, pragmatizm, ekzistensializm, neotomizm, germinivtika kabilar.

Ekzistensializm (lotincha "existentia" - yashash, mavjudlik so'zidan olingan) yoki "yashash falsafasi" - hozirgi zamon falsafiy ta'limotlarining eng ko'p tarqalganlaridan biridir. Ekzistensializm falsafa sifatida XX asrning 20- yillarida vujudga kelgan. Uning asosiy vakillari Germaniyada M.Xaydegger, K.Yaspers, Fransiyada P.Marsel, Sh.T.Sartrlardir.

Ekzistensializm falsafasi o'ta ziddiyatli va murakkab bo'lib, unda turli tuman falsafiy ta'limotlarning unsurlari mujassamlangandir. Masalan, ekzistensializm ta'limotida, bir tomondan, Aristotel, K'erkegor, Paskal falsafiy qarashlarining ayrim tomonlari ifodalangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Gegel, Nisshe ekzistensializmni erkinlik falsafasi, deb hisoblaydilar.

Ekzistensializmning ichida ateistik (Sartr, A.Kamyu, Haydegger, Merlo- Ponti) va diniy (Marsel, Yaspers, Shestov, Buber, Berdyaev) tomonlari ham mavjudligi uning ziddiyatli ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, ekzistensializm ta'limotida Gussel fenomenologiyasi, fransuz personalizmi (Lakrua, Mun'e, Nedonsel), nemis dialektik teologiyasi (Tillix, Bultman)ning ta'siri ham sezilarlidir.

Borliq deganda ekzistensialistlar sub'yektning o'z mavjudligini his etishni tushunadilar. Biroq ekzistensialistlar shuning bilan birga, fizik vaqt bilan ekzistensialistik vaqt o'rtasida sifatiy farq borligini ham ko'rsatib o'tishadi, ya'ni agar fizik vaqt cheksiz miqdoriy o'zgarishlar bilan xarakterlanadi, ekzistensialistik vaqt miqdoriy o'zgarishlardan tashqari sifatiy o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi, deyishadi. Demak, ekzistensialistlar vaqtda yo'nalish xususiyatini ham tan olishadi. Bu ular "loyiha", "orzu", "umid" kabi shaxsiy tushunchalar bilan bog'lashadi.

Ekzistensialistlar makon, vaqt, borliq, individ muammolaridan tashqari, transsendentlik (ya'ni, individning o'zining ichki kechinmalari chegarasidan chiqishi), erkinlik, aloqa, ijod masalalari bilan ham shug'ullanishadi. Mazkur masalalar bo'yicha yuqorida eslatib o'tilgan diniy va ateistik ko'rinishlarining qarashlari bir-biridan farq qiladi.

Shunday qilib, ekzistensializm falsafasining mohiyati quyidagilarda ko'rinadi:

1.Ekzistensializm bu inson mohiyati to'g'risidagi falsafadir. Ekzistensialistlarning ijtimoiy-siyosiy sohada qarashlari ziddiyatli. Masalan, Kamyu va Sartr fransuz qarshilik ko'rsatish frontining ishtirokchilari bo'lsa, Yaspers dunyoqarashi o'ta liberal xarakterda bo'lgan.

2. Ekzistensializm falsafasida ijobiy tomonlar ham mavjudligini ko'rsatib o'tmoq lozim. Buni ayniqsa Jan-Pol Sartrning badiiy ijodida kuzatish mumkin.

Jan Pol Sartr yirik fransuz publitsisti, dramaturgi va jamoat arbobi sifatida murakkab hayot yo'lini bosib o'tdi. U faoliyatini 30-yillarda kechgan davrida ko'proq, sub'yektivist, fenomenolog sifatida ijod qilgan bo'lsa, ikkinchi jahon urushida fashizmning insoniyatga qarshi qaratilgan xatti harakatlari uning ko'zini ochdi. Natijada, u individual ekzistensiyaning holati tashqi muhitga, jamiyatdagi hukmron siyosatga, mafkuraga ham bog'liq ekanligini anglab yeta boshlaydi. U 1946 yildagi bir ma'ruzasida ekzistensializm - bu gumanizm, deb e'lon qildi. Uning bu chiqishi tushkunlikni targ'ib etuvchi ekzistensialistlar qarashlariga zid edi. Qator asarlarida, jumladan, «Pashsha» nomli peysasida gumanizm ruhida bo'lgan ijtimoiy mas'uliyat haqida badiiy obraz yaratdi.

Nazorat savollari:

1. G'arb falsafasining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat ?
2. Antik yunon falsafiy maktablari haqida gapirib bering ?
3. Pifagorning olam haqidagi tasavvurlarini sharxlang ?
4. Dimokritni atomistik nazariyasini tushuntirib bering ?
5. Xiristian falsafasining mohiyati nimadan iborat ?
6. Ellinizm madaniyati nima ?
7. Apologetlar kimlar, ular qanday g'oyalarni ilgari surgan ?
8. G'arb uyg'onish davri faylasuflar ta'limotlarini solishtiring ?
9. Yangi davr falsafiy oqimlarini sanab bering ?

4-mavzu. Borliq (Ontologiya) va rivojlanish falsafasi.

Reja:

1. Borliq tushunchasining tahlili. Falsafa tarixida borliq muammosi.
2. Olamning birligi, chekliligi va cheksizligi, substansiya va substrat.
3. Materiya tushunchasi va uning tashkillashuv darajalari.
4. Olamning paydo bo'lishi va evolyusiyasi.
5. Makon va vaqt shakllari.

Tayanch iboralar: *Olam va odam, borliq, ontologiya, ob'ektiv reallik, sub'ektiv reallik, moddiy borliq, ma'naviy borliq, individuallashgan ma'naviy borliq, ob'ektivlashgan ma'naviy borliq, tabiat borlig'i, inson borlig'i, ijtimoiy borliq, virtual borliq, olamning birligi, turli-tumanlik, rivojlanish, evolyusiya.*

Borliq tushunchasi. Insonni katta va kichikligi jonli va jonsizligi, yumshoq va qattiqligi, chekli va cheksizligi, harakatchanligi va harakatsizligi, soddaligi va murakkabligi, to'qligi va ochligi, rangsizligi va rangliligi, go'zalligi va xunukligi, yaxshiligi va yomonligi, foydaliligi va foydasizligi, halolligi va haromligi, aqlliligi va axmoqliligi kabi xususiyatlari bilan bir biridan farq qiluvchi behisob narsalar, voqealar, hodisa va jarayonlar qurshab turadi. Buni odamlar borliq deb atashadi. Demak, borliq - odamzodni o'rab turgan barcha narsa,voqea, hodisa va jarayonlami umumiy tarzda ifodalovchi falsafiy tushuncha hisoblanadi.

Falsafada borliqni mohiyatini o'rganuvchi yo'nalishi ontologiya deb nomlanadi. Ontologiya so'zi yunoncha "ontos"- (mavjudlik, reallik), "logos"- (ta'limot) so'zlari birikmasidan iborat bo'lib, "borliq haqidagi ta'limot" ma'nosini ifodalaydi.

Bu atamani birinchi bor R.Goklenius o'zining "Falsafa lug'ati"da, so'ngra, X.Volf (1679 -1754yy)ning falsafaga oid darsligida qo'llagan.

Har bir inson o'zini o'rab turgan narsa,voqea, hodisa va jarayonlaming boshlang'ich ibtidosini, ya'ni aynan nimalardan tashkil topganini, makon va zamonning qaysi nuqtasida joylashganligini, nima hisobidan, qanday tarzda harakatlanishini bilishni istaydi. Bu masalaga turli davrlarda yashagan faylasuflar bir xilda javob berishgan. Masalan, borliqning mohiyati haqida qadimgi yunon faylasufi Parmenid borliq mavjuddir, u mutlaqo harakatsiz, bir tarkibli, o'zgarmasdir. Borliqdan boshqa hech narsa yo'qdir, ya'ni borliq mavjud, yo'qlik esa mavjud

emas. Bo‘lish va bilish - aynan bir narsadir, deya tushuntirgan bo’lsa, Aflotun esa borliq - bu haqiqiy, o‘zgarmas, abadiy bo‘lgan g‘oyalar dunyosidan iboratdir. U haqiqiy oliy darajadagi borliq bo‘lib, moddiy dunyoda ko‘plab ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi, Geraklit bu haqda barqaror, o‘zgarmas borliqning o‘zi yo‘q. Uning mohiyati borliq va yo‘qlikning birgalikda mavjudligida, borliqning yo‘qlik tomon beqaror harakatlanishidadir, degan falsafiy g‘oyalarni ilgari surgan.

Borliq va uning namoyon bo‘lish shakllari haqida faylasuflar qadimdan qizg‘in munozaralar olib borganlar, maxsus asarlar yozganlar. Sharq mutafakkirlaridan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Abul Barakat, Faxriddin Roziy, Alisher Navoiy, Maxdumi A’zam va boshqa olimlarning qiziqarli g‘oyalari saqlanib qolgan. Abu Nasr Forobiy “Yagona borliqni 6 bosqichdan iborat deb hisoblagan: 1-ilk sabab (sababi-avval) - xudo; 2-sabab - (sababi- soniy) - samoviy jismlar borlig‘i; 3-sabab - faol aql (al-aql al-faol); 4-sabab - jon (an- nafs); 5-sabab - shakl (as-surat); 6-sabab - modda (al-modda)”[13].

Islom dinida borliqni vujudga kelishi “Vahdat-ul-vujud” ta’limoti orqali tushuntiriladi. “Vahdat-ul-vujud” va “ *vahdatu mavjud”* ta’limotiga ko‘ra olamdagi barcha mavjudotlarda, kichik zarralardan tortib, ulkan maxluqotlargacha qudratli, yagona Ollohning jamol va jaloli mujassamlashgan.”Vahdat, “vahdat-ul-vujud” yoki panteizm mashhur tasavvufshunos olim Reje Arnoldsning qisqacha ifodasi bilan aytganda, lug‘aviy jihatdan moddadan(materiya) iborat bo‘lsa, irfon falsafasida ushbu atamadan maqsad “kavnu amkon”, ya’ni butun koinotda faqat bir zot mavjud bo‘lib va u yaratuvchining o‘zi ekanligini ifodalaydi”[14].

Mashhur so‘fiy Husayn Mansur Xalloj Haqqa yetganida «Men haqman» (Analhaq) deydi. Bu bilan biron so‘fiy xudolikka da’vo qilmagan, balki u o‘zini qudratli Ollohning yerdagi, tajalliysi demoqchi bo‘lgan.”Hujjat-ul-islom” Imom Abu Homid G‘azzoliy so‘zlari bilan sharhlanganda, Xallojning nazarida Allohdan boshqa barcha borliq foniydir. Yo‘qlikka mahkum va botil edi. Bu qadar yuksak bir martabaga ko‘tarilgan Xalloj Allohning yolg‘iz bir ismi bo‘lmish Haq – mavjud kalimasini bilur, hatto o‘zini ismini ham xotirlay olmasdi”[15]. Ushbu fikrni quvvatlab tadqiqotchi M.Hoshimxonov shunday yozadi:

[13] Очерки истории общественно-философской мысли в Узбекистане. Т.:Фан, 1977. 63-64-б.
[14] Hoshimxonov M.Mashrabi mo‘tabar o‘zum.VI-jild.-Toshkent:”Noshirlik yog‘dusi” nashriyoti.2018.-B. 145
[15] Ibrohim Haqqul.Irfon va idrok.-Toshkent:”Ma’naviyat”.1998.-B. 9.

“Xalloj na Xudolik, na payg‘ambarlik da’vosi ila maydonga chiqmagan, balki “men doimiy mavjudman, Haqning mavjudligi abadiy bo‘lganidek, fanofilloh saodatiga yetishgan oshiqning umri ham boqiydur”, degan tushunchada ustuvor turgan deyishga to‘g‘ri keladi”[16]. Bas, inson mahluqotlarning, olamlarning gultoji, Allohning Yerdagi xalifasi ekan, demak unda Alloh sifatlari bo‘lishi mantiqiy hol. Bundan tashqari “yashirin xazina” bo‘lgan Haq subhona va taolo ilmu hikmatning bir qismini inson qalbiga joylagan. Shu bois inson ko‘ngli “Irfon maxzani” (Irfon-tanimoq, bilmoq, xudoni tanimoq A.N.) Alloh yashiringan tilsimotdir.

Hozirgi zamon falsafasida ham borliqning mohiyatini tushunish masalasida har xil qarashlar mavjud. Masalan, ekzistensializm (lotincha exsistentia-yashash, mavjudlik) falsafaning obyektini insonning mavjudligi tashkil etadi, neotomizm boshlang‘ich ibtidosi xudo tomonidan yaratilgan, ruhiy-ma‘naviy mazmunga ega bo‘lgan «sof borliq»gina mavjuddir, neopozitivizm esa obyektiv borliq tajriba bilan birdir, tajribadan tashqarida obyektiv reallik yo‘qdir, degan falsafiy fikmi asoslashga harakat qilganliklarini ko‘rish mumkin.

Borliq va yo‘qlik. Inson foniy dunyoga keladi va vaqt o‘tishi bilan boqiy dunyoga ravona bo‘ladi. Shu davr ichida inson yashash uchun kurash olib boradi. Bu kurashda esa dunyo ichki qarama-qarshiliklardan, ziddiyatlardan iborat ekanligini bilib oladilar. Chunki, uning atrofini o‘rab turgan borliqdagi narsalar bir vaqtning o'zida ham o‘zgaruvchan va ham o‘zgarmasdir. Bu kim uchun borliq, yana kim uchun yo‘qlikdir.

Bugungi kunda postmodern sotsiumda borliq yoki yo‘qlik nima, borliqni asoslari nima-yu, yo‘qlik ya’ni borliqni yo‘qolishi, inson o‘limi nima degan savolga javob izlamoqda. Darhaqiqat, yadro falokati, ekologik bo‘xronliklar, turli xil bedavo yuqumii kasalliklar (koronovirus pandemiyasi va shu kabilar) Yer sayyorasidagi million yillar bilan hisoblanadigan insoniyat mavjudligining tabiiy vaqtini o‘nglab bo‘lmaydigan darajada to'xtatib qo‘yishi mumkin. Gap «bor bo’lmoqlik» yo «yo‘q bo‘lmoqlik» haqiqatan ham umumbashariy va mislsiz keskin masala bo‘lib qolayotgan ekan, borliq va yo‘qlik muammosini anglab olish ayniqsa muhimdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, yo‘qlik tushunchasi narsa va hodisalaming mavjud bo‘lmaslik, yo‘q bo'lish, haqiqiy bo‘lmagan xususiyatlarini bildiradi. Yo‘qlik - bu aslida mavjud bo‘lmagan, hali

[16] Hoshimxonov M.Mashrabi mo‘tabar o‘zum.VI-jild.-Toshkent:”Noshirlik yog‘dusi”.2018.-B.139.

paydo bo'lmagan yoki mavjudligini allaqachon to'xtatgan narsa. Borliqning namoyon bo'lish shakli bir narsadir, yo'qlik hech narsa emas.

Substansiya va substrat. Faylasuf olimlar borliqni hodisa sifatida bir necha shakllarga ajratib o'rganishda, uning mazmun-mohiyatiga, ya'ni asosida nima yotadi degan masalaga e'tibor qaratishgan. Shu tariqa falsafada substansiya kategoriyasi shakllangan. "Substansiya (lotincha substantio - mohiyat, asosida yotuvchi nimadir) -bu muayyan narsalar, voqealar, hodisalar va jarayonlar xilma-xilligining ichki birligida namoyon bo'luvchi mohiyatdir"[17]. Demak, substansiya deyilganda falsafada tabiat, jamiyat, inson umuman, borliqdagi barcha narsa va hodisalaming mohiyatida yotuvchi moddiy yoki ma'naviy mohiyat tushunilgan bo'lib, unga qarama-qarshi narsa va hodisalaming o'tkinchi sifatlarini ifodalovchi"aksidensiya" (lot. atssidentia - o'tkinchi, tasodifiy) tushunchasi ishlatilgan.

Abu Nasr Forobiyning yozishicha: "...(olamda) substansiya (javhar) va aksidensiya (javhar bo'lmagan, araz) hamda substansiya, aksidensiyani yaratuvchi marhamatli ijodkordan boshqa hech narsa yo'qdir. Aksidensiyani sezgilar oqrali his etish mumkin, substansiyani esa faqat aql anglab yetadi.

Substansiya ba'zan qizaradi, ba'zan oqaradi, ba'zan uzayadi, ba'zan qisqaradi, ba'zan ko'payadi, ba'zan kamayadi, ba'zan tug'iladi, ba'zan o'ladi, ba'zan kasal bo'ladi, ba'zan sog'ayadi - shunday ekan (substansiyaning) bu o'zgarishlarini ko'rsatib bera oladigan ilmga ehtiyoj tug'iladi. Bu ilm bizga bunday o'zgarishlarni, ularning qandayligini, omillari va sabablarini ko'rsatib beradi. Bu ilm yordamida biz agarda istasak zararli natijalarning oldini olamiz yoki zararli natijalarni kuchaytira olamiz. Bu ilm tabiat to'g'risidagi, ya'ni harakat va o'zgarishlar to'g'risidagi ilmdir.

Uning kelib chiqishini qidiradigan bo'lsak, biz to'rt unsur, xususan - olov, havo, suv va tuproq mavjudligini aniqlaymiz. (Bu to'rt unsur) oy doirasi ostidagi substansiyaning massasini tashkil qiladi; ularning sifatlari to'rtta, xususan, issiq, sovuq, namlik va quruqlik bular subtansiyaning aksidensiyasini vujudga keltirib, harakat va o'zgarishni keltirib chiqaradi (ya'ni, harakat va o'zgarishda bo'ladi). Masalan, olma - substansiya bo'lsa, uning qizilligi esa aksidensiyadir"[18]. Borliqni mohiyatini, substansiyasini, birlamchi asosini tadqiq qilgan

[17] Falsafa qisqacha izohli lug'at.2004. B-102

[18] Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shaxri. - Toshkent: Yangi asr avlodi,2016. - B.269,273

faylasuflar turli xil nazariyalarni yaratishgan. Faylasuf olimlar naziriyalarini
tadqiq qilib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin.

- Monizm;
- Dualizm;
- Plyuralizm.

Monizm (yunon. *monos* - bitta). Ushbu nazariya vakillari borliqni asosida bitta narsa (bitta substansiya) yotadi, deb bilishadi. Materialistik monizm vakillari bu asos moddiydir desa, idealistik monizm vakillari borliqning asosida yakka g'ovaviy negiz, ilohiy substansiya yotadi deb tushuntirganlar.Masalan, Fales suvni, Geraklet olovni, Anaksemin havoni, Empedokl "stixiya", Demokrit "atomlar", Anaksimandr "apeyron", Anaksagor "urug'" deb atagan.

Dualizm (lot.*dualis* - ikkilangan). Ushbu nazariya vakillari borliqni asosida ikkita mustaqil asos bitta moddiy va yana bitta g'oyaviy (ilohiy) asos yotadi, deb hisoblaydilar.

Plyuralizm (lot. *pluralis* - ko'pchilik). Ushbu nazariya vakillari borliqni asosida ko'plab, bir-biridan mustaqil ham moddiy, ham g'oyaviy asoslar mavjud deb bilishadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, borliqning ibtidosini, asosini, manbayini nimalar tashkil qiladi degan savolga javob berish masalasida: monistik qarash tarafdorlari moddiylik yoki ma'naviylik; dualistik mavqeida turuvchilar moddiylik va ma'naviylik; plyuralistik yondashuv tarafdorlari juda ko'p xilma-xil narsalar tashkil etishini ta'kidlaydilar.

Borliqning shakllari. Borliqning shakllari deb borliqning nisbatan turg'un muayyan aloqalari va o'zaro ta'sirlari,uning tuzilishi, strukturasi kabilarning tashkil etuvchilariga aytiladi. Bular quyidagilardan iborat.

1.Moddiy va ma'naviy borliq. Borliqning ushbu shakllari obyektiv va subyektiv reallikdan iborat. Bizni o'rab turgan borliqda ongimizdan tashqari, unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan narsa va hodisalar obyektiv reallik deyiladi. Reallikning inson ongining mahsuli hisoblangan qismi subyektiv reallik hisoblanadi. Obyektiv reallik bu materiyaga, moddiy olam tushunchasiga mos kelsa, subyektiv reallik borliqning ilohiy, g'oyaviy shakliga mos keladi. Ya'ni obyektiv reallik-moddiy borliq bizni o'rab turgan barcha narsalardan iborat, subyektiv reallik-ma'naviy borliq ongimizdagi g'oyalar, mafkuralar, tushunchalardan iboratdir.

1. Aktual va potensial borliq. Borliq vaqtning oqimiga nisbatan qaralganda "o'tmishdagi borliq", "hozirgi borliq" va "kelajakdagi borliq" qismlariga ajratish mumkin.

Borliqning ro'y berib o'tgan qismi o'tmishdagi borliq bo'lib, u tarixiy borliqdir.Tarixiy borliq – borliqning o'tmishda bo'lib o'tgan va tarixiy xotiraga aylangan qismi. Borliqning o'tmishi. Bu bo'lib o'tgan borliq, uning bo'lganini inkor etish mumkin emas. Ammo u hozir yo'q bo'lsa-da, izlari, qoldiqlari, u haqdagi ma'lumotlar, xotiralar kishilar yodida, uni qayd etgan texnik uskunalar xotirasida qolaveradi. Aktual borliq bu borliqning shunday turiki u ayni paytda va ayni shu joydagi narsa va hodisaning namoyon bo'lib turgan va shu narsa va hodisaga aloqadorlikdagi qismidir.

Borliqning hozirgi zamondagi qismi aktual borliqdir. Aktual borliq – (ingl.aktual – zamonaviy, haqiqiy, amalda mavjud) borliqning hozigi zamonda, shu paytda mavjud bo'lgan, ro'y berayotgan, sub'yekt bilan hamnafas bo'lgan hozirgi vaqtdagi qismi. Aktual borliq mavjudlik ham deyiladi.

Borliqning hali ro'y bermagan, lekin ro'y berish ehtimoli bor, ro'y berishi kutilayotgan, ro'y berishi muqarrar bo'lgan qismi ham bor. Borliqning bunday qismini kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan **potensial** borliq yoki imkoniyatdagi borliq, deyish mumkin.

Aktual borliq hali voqelikka aylanmagan va kelgusida voqelikka aylanadigan borliq qismidir. Potensial borliq hali voqelikka aylanishga ulgurmagan borliqdir.

2.Real va virtual borliq. Borliqning ayni paytda biz uchun bor, mavjud shakli real borliqdir. Borliqning yana shunday qismi ham borki, uning bor, mavjud bo'lishi yoki mavjud bo'lmasligi ham mumkin. Borliqning bu shakli ehtimoliy mazmunga ega, virtual borliq deyiladi. «Virtual»lik atamasini Massachuset institutida Jeron Lener kiritgan. Virtual - narsalar va hodisalarning zamon va makonda moddiy mavjudligiga qarama-qarshi o'laroq, obyektiv narsalar yoki subyektiv obrazlar mavjudligining nomoddiy ko'rinishi.

"Virtual borliq (lot. virtualis – ehtimoliy) – borliqning ro'y berish ehtimolligi bor qismi, hayoliy borliq"[19]. Kelajakdagi borliq sinergetika metodologiyasida bugungi hodisalarning yo'nalishiga ta'sir qilishi mumkin, chunki kelajakning kurtaklari hozirdan boshlanadi. Ota-onalar farzandlarining kelajakdagi borlig'ini, bo'lajak nevaralarini oldindan his

[19] https://uz.wikipedia.org/wiki/Virtual_reallik.

qilib, ular uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan mablag'larni bugundan to'plashga harakat qiladilar. "Falonchi beshigidagi qiziga sep yig'ishni boshlabdi" qabilidagi gaplar o'zining real asosiga ega. Yoki qish kelmasdan turib, qishda kiyishingiz mumkin bo'lgan kiyimlaringizni kuzdayoq tayyorlab qo'yishga harakat qilasiz, hali kelmagan mehmonlaringiz uchun taom tayyorlashga kirishasiz va boshqa shunga o'xshash harakatlaringiz virtual borliqning kelishiga oldindan tayyorgarlik ko'rishga misoldir. Bu esa borliqning kelajakdagi shaklining bugungi borliqqa ta'sirining namoyon bo'lishidir. Buning mexanizmi sinergetika konsepsiyasida yaxshi ochib berilgan. Sinergetik tamoyillarda "kelajak bugunga ta'sir ko'rsatadi", deyilgan.

3.Tabiiy borliq. Tabiiy borliq ikki qismdan iborat. Birlamchi tabiat bolig'i - azaliy tabiiy borliq, ya'ni tabiatning o'z holicha mavjud tabiiy borlig'i, u insoniyatdan oldin, uning ishtirokisiz mavjud bo'lgan qismi. Ikklamchi tabiat borlig'i - tabiiy tabiat borlig'idan inson aql - zakovati naijasida qayta ishlangann narsalar (jismlar), hodisa va jarayonlami o'z ichiga oluvchi hosilaviy tabiiy borliq.

Birlamchi tabiat borlig'ining quyidagi ko'rinishini kiritish mumkin tabiatdagi narsa va hodisalarning asl, o'zgarmagan tabiiy borlig'i kiradi.

Ikkilamchi tabiat borlig'ining quyidagi ko'rinishlari ham mavjud.

Inson borlig'i. Inson boshqa tirik mavjudotlardan o'zining aqli, ongi, irodasi va o'ziga xos boshqa belgi va xususiyatlari bilan farqlanadigan tirik mavjudotdir. Inson borlig'ini tahlil qilishda uning tabiatning bir qismi sifatida jismoniy mavjudligini va alohida inson hamda butun insoniyat borlig'i ko'rinishlarida mavjud bo'lishi jihatidan farqlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ijtimoiy borliq. Ijtimoiy borliq ayrim insonning jamiyatdagi borlig'i va jamiyatning o'z borlig'iga bo'linadi. Har bir inson boshqa odamlar bilan muttasil aloqa qiladi, turli ijtimoiy guruhlar - oila, ishlab chiqarish jamoasi, millatning a'zosi hisoblanadi.

Mavjudlik va reallik. Reallikning sub'yekt ongi bilan bog'langan shakli – sub'yektiv reallik. Shuningdek, bunda reallik voqelikka qanday nuqtai nazar bilan yondashishga ham bog'liqdir. Voqelikning fizik aloqadorliklar doirasiga kiruvchi, fizik aloqadorliklar bilan bog'liq qismi fizik reallik, ximiyaviy munosabatlar doirasiga mansub bo'lib, kimyoviy aloqadorliklarda namoyon bo'luvchi qismi kimyoviy reallik, biologik, hayotiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan reallik biologik reallik, voqelikning ijtimoiy aloqadorlikka oid qismi ijtimoiy reallik yoki

psixologik jarayonlar bilan bog'liq qismi psixologik reallik deb ataladi. Ba'zan borliq tushunchasini voqelikning u yoki bu shakli bilan aynanlashtirish, mavjudlikni esa ob'yektiv reallikning hozirgi qismi bilan chegaralab qo'yish, reallikni sub'yektga ayni paytda ko'rinib turgan voqelik bilan almashtirib qo'yish hollari uchrab turadi.

Aslida, borliqning butun mavjudlik va reallikning barcha shakllarini o'ziga qamrab oluvchi universal falsafiy kategoriyadir. Mavjudlik borliqning ro'y berayotgan qismi bo'lib, u ham ob'yektiv, ham sub'yektiv reallikni birday qamrab oladi, reallik esa ro'y bergan, ro'y berayotgan va ro'y berishi mumkin bo'lgan voqelikdir.

Virtual voqelik ehtimoliy voqelik reallikka kirmaydi. Reallik aniqlik (muayyanlik) va zaruriylik belgisiga ega bo'lgan voqelikdir.Borliqni matematik g'oyalar dunyosi sifatida talqin etuvchi konsepsiyalar ham mavjud bo'lib, buning tarafdorlaridan biri Oksford universitetining matematika professori Rodjer Penrouzning fikricha, fizik dunyo "vaqtdan tashqaridagi" matematik g'oyalar dunyosining hosilasidir. Uning fikricha, biz tabiat qonunlarini qanchalik chuqurroq tushuna boshlasak, fizik dunyo shunchalik yo'qolib boradi, "erib ketadi" hamda oxir oqibatda sof matematik g'oyalar, qoidalar va tushunchalar bilan yuzma-yuz kelamiz. Bu go'yoki Aflotun aytgan g'oyalar dunyosini eslatadi. Haqiqatan ham Koinot evolyusiyasining ilk bosqichi haqida gap borganda, shubhasiz, biz odatlanib qolgan qo'pol fizik voqelikdan juda ham uzoqlashib, borliqni matematik g'oyalar dunyosi vositasidagina anglab yetamiz.Albatta, bunday fikrlar voqelikka yondashuvning bir ko'rinishi. Voqelik esa o'zining yanada murakkabligi va xilma-xilligini saqlab qolaveradi. Olimlar esa har doim uning yangi-yangi qirralarini ochib boraveradi.

Borliq moddiy va ma'naviy jarayonlar orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli uning asosiy mavjudlik usullari va shakllari sifatida harakat, fazo va vaqtni o'rganishga to'g'ri keladi. Ular borliqning ajralmas xususiyatlari, ya'ni atributlari jumlasiga kiradi."Atribut" so'zi lotincha attributum (chambarchas, birlashtirilgan) so'zidan olingan bo'lib substansiyaning ajralmas xususiyati, degan ma'noni beradi. Bu atama falsafada aksidensiya atamasining antipodi sifatida qo'llaniladi.

Harakat. Harakat - borliqning asosiy ajralmas xususiyati bo'lgan o'zgaruvchanlikni ifodalovchi falsafiy kategoriya. Harakat tushunchasi olamdagi o'zgarishlarni, imkoniyatlarning voqelikka aylanishini, sababning oqibatni vujudga keltirishini, ro'y berayotgan hodisalarni,

olamning beto'xtov yangilanib borishini aks ettiradi. Olamdagi har qanday jarayon harakat tufayli sodir bo'ladi. Har qanday o'zgarish harakatdir. O'zgarishlar nafaqat moddiy ob'yektlar, balki ma'naviy, g'oyaviy ob'yektlarga ham xosdir.

Harakatni olamning asosiy mohiyati deb qarash muqaddas kitob "Avesto"da ilgari surilgan. Qadimgi Misr, Bobil, Xitoy, Hindiston va Yunoniston olimlari harakatning mohiyatiga oid maxsus asarlar yozganlar. Ular harakatning xususiyatlari, shakllari va manbalari haqidagi ilk g'oyalarni ishlab chiqqan. Ayrim faylasuflar esa harakatning mavjudligini butunlay inkor etganlar. Masalan, eleyalik faylasuf Zenon borliqda harakatning yo'qligini isbotlashga uringan. Zenon «Dixatomiya», «Axill va toshbaqa», «Uchayotgan kamon o'qi», deb nomlangan aporiyalari(yunon. *aporia* - ilojsiz vaziyat)da harakat mavjud emasligini misollar bilan tushuntirishga harakat qiladi.

Yangi davr falsafasida G.Gegel harakatning mohiyatini formal logika (mantiq) vositasida ifodalab bo'lmasligi, uni faqatgina dialektik mantiq doirasidagina izohlash mumkinligini ta'kidlagan. Agar formal mantiq bo'yicha kamon o'qini u uchayotgan paytda biror nuqtada mavjud, deyish uning harakatsizligini tan olish va shu nuqtada emas, deyish hech narsa aytmaslikka teng bo'lsa, dialektik mantiq bo'yicha bu jarayonni ifodalash mumkin.Bu holda, deydi G.Gegel «uchayotgan kamon o'qi hozir qaysi nuqtada?» degan savolga u «kamon o'qi ham shu nuqtada, ham shu nuqtada emas», deb javob berish to'g'ridir. Ya'ni, uchayotgan kamon o'qi avval shu nuqtada bo'ladi va ayni paytda u doimo o'rnini o'zgartirib turganligi sababli shu nuqtadan boshqa nuqtaga siljishga ulguradi va shuning uchun u bu nuqtada emasdir. Navbatdagi nuqtada ham ayni bir vaqtning o'zida ham mavjud (shu nuqtada), ham mavjud emasdir (endi boshqa nuqtada). Bu harakatning ziddiyatli tabiatidan dalolat beradi.

Harakatni suratga tushirish emas, u bilan birgalikda yashash, uni barcha ketma-ket lahzalarda anglab olish dialektik mantiqning missiyasidir.Harakatni tushuntirishda harakatning moddiy tashuvchisi va harakat manbasi haqidagi g'oyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz olimi Jon Toland (1670–1722yy) harakatni materiya bilan chambarchas bog'lab tushuntirgan. Uning fikricha: "Harakat materiyasiz bo'lmaganidek, materiya ham harakatsiz bo'lishi mumkin emas"[20]. Bu ta'rif materialistik falsafada asosiy tamoyilga aylangan.

[20] https://www.britannica.com/biography/John-Toland.

Harakatning moddiy shakllari to‘g‘risida gap borganda, u yoki bu “harakat shaklining moddiy tashuvchisi” degan tushunchaga duch kelamiz. Buning ma’nosi shuki: harakat o‘z-o‘zicha mavjud emas, u har doim “nimaningdir” harakati, “nimaningdir” o‘zgarishidir. O‘sha “nima” harakatning moddiy tashuvchisi bo‘ladi. Harakatlanish bu energetik jarayon. Moddiy jism muayyan energetik holatda bo‘ladi. Jismning harakatlanishi bilan energiya sarflanadi yoki energiya bir turdan boshqa turga o‘tadi. Shunga asoslanib, ayrim faylasuflar harakatni energiya bilan aynanlashtirishtirib tushuntirishga harakat qildilar (E.Max, R.Avenarius). Energiya ham borliqning muayyan shaklidir. Mexanik harakatda harakatlanuvchi kuch “moddiy nuqta” bo‘lsa, fizik harakatda – moddiy jism yoki maydon, atomlar yoki elementar zarra(antizarra)lar, ximiyaviy harakatda - molekulalar, ximiyaviy birikmalar, biologik harakatda - tirik organizmlar, jamiyatda esa odamlar va ijtimoiy guruhlardir. G‘oyaviy shakldagi harakatlar to‘g‘risida gap borganda, “harakatning moddiy tashuvchisi” degan tushuncha o‘z ma’nosini yo‘qotadi. Uning o‘rnini “harakatlanuvchi sistema”, “o‘zgarayotgan sistema” degan tushunchalar egallaydi.

Harakat manbasi to‘g‘risida gapirganda mutafakkirlar qadimdan ziddiyatlarni nazarda tutganlar. Ichki ziddiyatlar harakatning ichki manbaidir. Ayrim olimlar harakat manbasi sifatida tashqi turtkini yoki dastlabki turtkini oladilar. Ularning fikricha, olamda abadiy sokinlik hukmron bo‘lib, keyin dastlabki turtki tufayli u harakatga kelgan. Arastuning nuqtai nazari ham shunday edi. Bu fikrning chegaralanganini Ibn Sino tanqid ostiga olgan va harakatning manbasi hayvoniy va jismoniy mayllarda, degan g‘oyani ilgari surgan. Arastu va Ibn Sino fikrlaridagi xatolarni arab olimi Abul Barakat (vaf.1072y) o‘zining “Kitab-ul mu’tabar filhikmat val ilahiyat val mantiq” asarining 3-jildida “Otilgan tosh muammosi” deb atalgan bobda maxsus tahlil etgan va fan tarixida birinchi bor inersial harakat g‘oyasini ilgari surgan. Ya’ni tinch jismga tashqi ta’sir bo‘lmasa, u o‘zining tinch holatini saqlaydi, harakatdagi jismga ham tashqi kuch ta’siri, ya’ni havoning ta’siri, yerning tortish kuchi ta’siri bo‘lmaganda edi u o‘zining to‘g‘ri chiziqli tekis harakatini saqlagan bo‘lar edi.

Shunday qilib, harakatsiz voqelikni haraktga keltiruvchi kuch nima, degan savol javobsiz qolaverdi. Aslida voqelik harakatsiz bo‘lishi mumkin emas, u doimo harakatda, o‘zgarishda bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar ichki va tashqi ziddiyatlar tufayli amalga oshadi. Ibn Sino jism ayni bir

paytda va shu joyning o‘zida harakatda ham, sukunatda ham bo‘lmaydi, harakat - ziddiyatlidir va uning natijasidir, deb ko‘rsatgan. Haqiqatan ham ziddiyatlar jismni harakatga keltiradi. Shu ma’noda har qanday harakatning manbasi ziddiyatdadir.

Harakat shakllari borliqdagi o‘zaro aloqadorliklarning namoyon bo‘lishidir. O‘zaro aloqadorliklar moddiy va ma’naviy shakllarda bo‘ladi va olamning yaxlitligini ta’minlaydi. Moddiy dunyoning asosida to’rt xil asosiy o‘zaro aloqadorlik - gravitatsion, elektromagnit, kuchli va kuchsiz yadroviy aloqadorliklar yotadi. Aloqadorliklar majmuasi esa fazo va vaqt strukturasini tashkil etadi. Harakat mavjudlik bo‘lsa, harakatsizlik - sokinlik yo‘qlikka mos keladi. Shu sababli, o‘tmish mutafakkirlari harakatni borliqning abadiy va mutloq xususiyati, sokinlikni esa o‘tkinchi va nisbiy xususiyati deb hisoblagan.

Har qanday o‘zgarishni harakatning ob’yektning namoyon bo‘lishi, deb tushunsa bo‘ladi. O‘zgarishlar nafaqat moddiy ob’yektlar, balki ma’naviy, g‘oyaviy ob’yektlarga ham xosdir. Masalan, toshning tarkibidagi ximiyaviy molekulalar, atomlar, zarrachalar beto‘xtov harakatdadir. Toshning sirti ham tashqi ta’sirlar - issiq, sovuq va shamollar ta’sirida o‘zgarib boradi. U issiqda kengayadi, sovuqda torayadi. Qor va yomg‘irlar tosh sirtini yemirib boradi. Toshning sirtini asta-sekin kichik mikroorganizmlar, zamburug‘lar, mayda o‘tlar qoplab oladi. Bu jarayonlarning barchasi uning harakatda ekanidan dalolat beradi. Sokinlik esa o‘tkinchi, nisbiy, muvaqqat holat. Tosh o‘z yonida turgan boshqa toshga nisbatan tinch turgan bo‘lishi mumkin. Bu uning doimo tinch turishini isbotlamaydi, toshning yemirilish jarayoni, tarkibidagi molekulalar, atomlar, elektronlarning beto‘xtov o‘zgarishda ekanligi uning harakatdaligini isbotlaydi. Kemada suzayotgan yo‘lovchilar kemaga nisbatan tinch turgan bo‘lishi mumkin, lekin ular suv va qirg‘oqqa nisbatan harakatdadir. Demak, tinchlik, sokinlik nisbiydir.

Falsafiy tadqiqotlarda moddiy borliqda mavjud quyidagi harakat turlarini ko‘rsatib o‘tiladi:

1) mexanik harakat bu – harakatning yeng sodda shakli, jismning oddiy siljishi - (uni moddiy nuqtalarning fazodagi siljishi);

2) fizik harakat bu - atom yadrosi, elementar zarrachalar va issiqlik, elektr va maydon harakatigacha, yorug‘likdan koinotning gravitatsiya kuchigacha – barchasi mana shu harakat shakliga mansubdir);

3) ximiyaviy harakat bu - molekulalarning assotsiatsiyasi va

dissotsiatsiyasi, moddaning muzlashi va kristallanish jarayonlari, ionlar harakati, ximiyaviy reaksiyalar, yonish va oksidlanish, ximiyaviy sintez va parchalanish va boshqa ximiyaviy jarayonlardan iborat;

4) biologik harakat bu – tirik hayotiy jarayonlardir.

5) sotsial yoki ijtimoiy harakat bu - jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarda o'zgarishlarning namoyon bo'lishi.

Tafakkur - fikrning harakati, informatsion harakat, g'oyaning harakati, ma'naviy harakat, hayoliy harakat va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Shuningdek, falsafada harakatni moddiy ob'yektlarning rivojlanishi bilan takomillashib boruvchi turlarga ajratib tasniflovchi, ya'ni klassifikatsiya qiluvchi yondashuv ham bor. Bunday yondashuvni rus faylasufi B.M.Kedrov ilgari surgan. Uning fikricha mexanik harakat, fizik harakat, ximiyaviy harakatdan so'ng rivojlanish ikki tarmoqqa ajraladi. Ulardan biri yuksaluvchi, yuqoriga ko'tariluvchi, progressiv rivojlanish yo'nalishi bo'lib, bu yo'nalishda biologik harakat va ijtimoiy harakatlar vujudga keladi, ikkinchi yo'nalish esa regressiv yo'nalish bo'lib, pastga tushuvchi, inqirozga yuz tutuvchi yo'nalishdir. Bunda biologik harakatdan, geologik harakatga, undan yana ximiyaviy harakatga yo'naluvchi regressiv yo'nalish namoyon bo'ladi. Bu yo'nalishda B.Kedrov biologik organizmlarning o'lishi natijasida vujudga keluvchi geologik qatlamlarning, marjon orollarining harakatini nazarda tutgan.

Agar har qanday o'zgarishni harakat deb hisoblasak, unda qanday o'zgarishni rivojlanish deyish mumkin? Bu savolga javob berish uchun harakat va rivojlanishning umumiy va xususiy tomonlarini solishtirib ko'raylik. Harakat har qanday o'zgarish bo'lsa, rivojlanish o'zgarishning alohida bir turidir. Rivojlanish jarayonida rivojlanayotgan sistemaning har bir elementi o'ziga xos tarzda o'zgarishga uchraydi. Demak, rivojlanish jarayonida sistema yaxlit va kompleks ravishda o'zgaradi.

Rivojlanish - bu sistemaning aylanishidir. Agar bu jarayonni vaqt oqimida tahlil etsak, hozirgi vaqt, o'tmishning buguni, bugun esa – kelajakka aylanadigan hozirgi zamondir. O'tmish esa hozirgi zamonning bo'lib o'tgan qismi. Kelajak esa hali hozirga aylanishga ulgurmagan bugundir. Aylanish – rivojlanishning natijasidir, oqibatidir. Agar aylanish sistemani inqirozga, tushkunlikka, zaiflashuvga olib borishga xizmat qilsa, bunday aylanish regress sari yo'nalgan bo'ladi, ya'ni u regressiv rivojlanishdir. Demak, rivojlanishning ikki qarama-qarshi yo'nalishi bo'lib, ulardan biri –

progressiv, ikkinchisi esa regressiv rivojlanishdir. Bundan tashqari sistema rivojlanish oqibatida bir holatdan boshqa holatga aylanib qoladi va u orqaga qaytarib bo'lmas jarayondir. Rivojlanishbirinchidan, sistemaning yaxlit, bir butun, kompleks o'zgarishidir, kinchidan, yo'nalishga ega bo'lgan o'zgarishidir, uchinchidan, u sistemaning yaxlit aylanishidir, to'rtinchidan, bu miqdoriy va sifatiy o'zgarishdir, beshinchidan bu orqaga qaytmaydigan o'zgarishdir.

Rivojlanish o'zining manbasi, mexanizmi va yo'nalishiga ega. Rivojlanishning manbai ichki ziddiyatlardir. Rivojlanishning bu xususiyatini qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni tushuntirib beradi. Bu qonun "Sistemalar nima uchun rivojlanadi?"degan savolga javob beradi. Rivojlanishning ichki mexanizmi shundaki, sistemaning bir holatdan boshqa holatga aylanishida miqdoriy o'zgarishlar, sifatiy o'zgarishlarga, sifatiy o'zgarishlar esa miqdoriy o'zgarishlarga aylanadi. Buning mexanizmini miqdor va sifat o'zgarishlarining bir biriga aylanish qonuni tushuntirib beradi. Bu qonun "Sistemalar qanday rivojlanadi?" degan savolga javob beradi. Rivojlanishning uch xil yo'nalishi bo'ladi.

1. Agar sistema nisbatan quyi darajadan yuqori darajaga, sodda holatdan takomillashgan holatga o'tsa, bu progressiv rivojlanish yo'nalishidir.

2. Agar sistema nisbatan yuqori darajadan quyi darajaga, takomillashgan holatdan soddalashgan holatga o'tsa, bunday sistemadagi rivojlanish regressiv yo'nalishga yuz tutganligidan dalolat beradi.

3. Agar sistema o'zining o'sishida bir takomillashgan, sistemalashgan holatdan shu darajadagi holatga o'tsa, bunday rivojlanish bir tekis rivojlanish yo'nalishi deyiladi. Rivojlanishning bunday xususiyatlarini bifurkatsion jarayonlardagi o'zgarishlar qonuniyatlari asosida sinergetik metodologiyani tatbiq etish asosidagina bilib olish mumkin.

Sinergetika (nochiziqli) ko'p tarmoqli, murakkab, ochiq va o'z-o'zini tashkil etuvchi, boshqaruvchi va takomillashtiruvchi sistemalarning rivojlanish mexanizmiga xos qonuniyatlarni ochib beradi.

Butun Koinotning o'zi ana shunday rivojlanuvchi sistemalar qatoriga kiradi. Dastlab, tadqiqotchilar o'zini takomillashtirish xususiyatini jamiyatgagina xos bo'lgan xususiyat, deb o'ylagan edilar. Borib-borib bu xususiyatning barcha tirik organizmlarga va notirik

sistemalarga ham xos bo'lgan universal xususiyat ekanligi aniqlandi. Borliqning yana bir jihati uning strukturasi, jarayonlar sur'ati va qanday tarkibda ekanligini ifodalovchi xossasi fazo va vaqtdir.

Fazo va vaqt. Fazo va vaqt borliqning umumiy yashash shakllari bo'lib, "Fazo dunyoni tashkil etuvchi ob'yektlar va ularning tarkibiy nuqtalarining o'zaro joylashish tartibi, ko'lami va miqyosini ifoda etadi, vaqt esa dunyoda sodir bo'luvchi hodisa va jarayonlarning ro'y berish ketma - ketligi tartibi va davomiyligini ifodalaydi"[21].

Tevarak-atrofimizdagi predmetlaming hammasi muayyan hajmlarga, turli yo'nalishlardagi ko'lamga egadir, ular bir-biriga nisbatan o'rin almashtirib turadilar. Xuddi shuningdek, barcha obyektlar muayyan vaqt oralig'ida paydo bo'lib, o'zgarib turadilar. Demak,ular muayyan vaqt oralig'ida biron-bir fazoda ketma-ket joylashgan bo'ladi. Fazo va vaqt barcha moddiy tizimlar va jarayonlar borlig'ining umumiy shakllaridir. Fazo va vaqtdan tashqarida turuvchi obyekt yo'q, shuningdek, harakat qiluvchi materiyadan tashqarida, o'z-o'zicha bo'ladigan fazo va vaqt ham mavjud emas.

Vaqt. Vaqt borliqning asosiy yashash shakllaridan biri bo'lib, hodisalarning ketma-ket ro'y berishi va izchilligi tartibini, davomiyligini ifodalaydi. Vaqt tushunchasi forsiy til ta'sirida yozilgan falsafiy adabiyotlarda zamon deb ham atalgan. Vaqtning asosiy xususiyatlariga davomiylik, bir jinslilik, anizotroplik (bir xil bo'lmagan yo'nalish), bir o'lchamlilik, orqaga qaytmaslik, kompaktlilik, chiziqli tartiblanganlik kabilar kiradi. Biror obyektdagi vaqtning o'tishi shu obyektning harakatlanish tezligiga hamda obyektni tashkil etuvchi moddalar zichligiga bog'liq. Obyekt qanchalik katta tezlikda harakatlansa, unda vaqtning o'tishi nisbatan tinch turgan obyektlarga qaraganda shunchalik sekin kechadi. Obyektni tashkil etuvchi modda zichligi ham qanchalik katta bo'lsa, unda vaqt shu qadar sekin o'tadi. Bu munosabat xususiy va umumiy nisbiylik nazariyasi xulosalaridan kelib chiqadi.

Falsafada vaqtning mohiyatiga nisbatan ikki xil yondashish va konsepsiyalar mavjud. Ular: substansional va relyatsion yondashish, dinamik va statik konsepsiyalardir. Substansional yondashish zamirida vaqtni alohida substansiya, deb qarash yotadi. Bu yondashish bo'yicha vaqt azaliy va mustaqil substansiya bo'lib, unda hodisalar bo'lib o'tadi. Relyatsion yondashuv bo'yicha vaqt jarayonlar o'lchovi bo'lib, uni

[21] Falsafa: ensiklopedik lug'at. - T.: "O'zbekistan milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashiriyoti, 2010.

jarayondan ajratib bo'lmaydi. Dinamik konsepsiya bo'yicha hodisalar birin-ketin, dinamik ketma-ketlikda ro'y beradi. Vaqtning faqat hozirgi zamoni mavjud. O'tmish bo'lib o'tgan, kelajak esa hali bo'lmagan. Statik konsepsiya bo'yicha vaqtning barcha lahzalari mavjuddir. Biz unda o'tmish yoki kelajakka qarab siljiymiz. Hodisalar ilgari yoki keyin ro'y bergani bilangina bir-biridan farq qiladi. Masalan, ota o'g'ildan ilgari tug'ilgan. Nevara o'g'ildan keyin tug'ilgan va h.k. Vaqt turli tizimlarda turlicha namoyon bo'ladi. Shu sababli fizikaviy, kimyoviy, biologik, geologik, psixologik va ijtimoiy vaqtlarni bir-biridan farqlash lozim[22].

Vaqt hozirgi zamon bilan yashaydi, o'tmish ilgari bo'lgan, hozir esa yo'q, kelajak endi bo'lishi mumkin, lekin hali u yo'q. Vaqt shu lahza va u o'tib yo'qlikka aylandi, yangi lahza paydo bo'ldi, u ham yo'qoldi. Shu tarzda vaqt lahzalari birin ketin paydo bo'lib, yo'qolaveradi. Vaqt bir lahzadan ikkinchi lahzaga, undan keyin uchinchi lahzaga, xullas, shu tarzda birin-ketin hozirgi lahzadan keyingi lahzaga o'tish ro'y beraveradi. Bu o'tishlar shu tarzda dinamik ravishda cheksiz davom etadi.

Nyuton fizikasida fazo va vaqt mutlaq mohiyatga ega deb qaralar edi. Klassik mexanikaga binoan vaqtning xususiyati quyidagi qoidalarga bo'ysunadi:

1. Vaqt o'zicha mavjud bo'lib, uni mavjudligi hech narsaga bog'liq emas.
2. Tabiatdagi barcha jismlar, barcha fizik hodisalar vaqtning o'tishiga

bo'ysunadi. Ammo bu jismlar va hodisalarning hech biri vaqtning o'tishiga hech qanday ta'sir ko'rsata olmaydi.

3. Vaqtning har bir lahzasi bir-biriga teng va bir xildir, u bir jinslidir.
4. Vaqtning o'tishi dunyoning hamma joyida va har doim bir xildir.
5. Vaqtning o'tishi o'tmishda, hozir, kelajakda ham birday va bir xildir.
6. Vaqtning miqyosi hozirgi paytdan o'tmishga ham, kelajakka ham bir xil cheksizlikda nihoyasiz davom etadi. Uning boshlanishi ham, oxiri ham yo'q.

Vaqt bir o'lchovli va orqaga qaytmasdir. Bu hodisa termodinamikada va hozirgi zamon sinergetikasida orqaga qaytmas jarayonlar misolida yetarli darajada ilmiy asoslangan. Masalan,

[22] Falsafa: ensiklopedii lug'at. - T.: " O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashiriyoti, 2010. - B.61-62

entropiyaning o‘sishi jarayonini olaylik: entropiyaning o‘sishi bir tomondan energetik quvvatning pasayib borishi, tartibsizlikning oshib borishi, haroratning pasayib borishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Yopiq sistemada energiya, harorat, tartib tobora kamayib boradi. Agar ikkita xonadan biri issiq va ikkinchisi sovuq bo‘lsa, harorati issiqroq xonadan sovuqroq xonaga issiqlik o‘tadi, aksincha emas. Shu tarzda borib-borib xonaning harorati eng past darajaga tushib qoladi. Tartiblangan sistema ham borib-borib tartiblanmagan sistemaga aylanadi, tartibsizlik tobora oshib boradi. Bunday jarayonlar orqaga qaytmas jarayonlardir. G‘ishtlarni ma’lum tartib bo‘yicha qalab chiqsangiz, u imoratga aylanadi. Bu imorat borib-borib yemirila boshlaydi, yemirilgan imorat o‘z-o‘zidan qayta yangi imoratga aylanib qolmaydi. Makroskopik dunyoda vaqt bir o‘lchovli. Vaqtda ro‘y bergan hodisalar ketma-ketligi bir biri bilan chiziqli bog‘langandir.

Vaqtning bir o‘lchamliligi, bir yo‘nashligi (anizotropligi) va orqaga qaytmasligini asoslash uchun ingliz astrofizigi Artur Eddington (1882–1944yy) 1928 yilda fanga “vaqt o‘qi” tushunchasini kiritdi. (O‘q tushunchasi bu o‘rinda kamon o‘qi ma’nosida qo‘llanilmoqda). U vaqt oqishining yo‘nalishi Koinotning kengayib borishi bilan chambarchas bog‘langandir deb, bu hodisani “vaqt o‘qi” deb atadi. Eddington Koinot siklik kengayib boradi, ya’ni kengayish bir paytga borib torayish bilan almashadi va shunda vaqt o‘qi ham o‘z yo‘nalishini o‘zgartiradi, deb o‘ylagan.

Ko‘pgina real fizik jarayonlar to‘satdan, kutilmaganda va o‘z o‘zicha ro‘y beradi-yu ammo bu jarayonlar hech qachon orqaga qaytmaydi.

Issiqlikning uzatilishi, moddalar almashuvi, diffuziya, yopishqoqlik, elementar zarrachalarning parchalanishi, ishqalanish, yemirilish jarayonlari, shuningdek, kosmik, ximiyaviy, biologik va psixologik evolyutsion jarayonlar orqaga qaytmas jarayonlardir. A.Eddington shularni nazarda tutib, vaqtning orqaga qaytmas uch o‘qini tasvirlab bergan. Bular, vaqtning

1) termodinamik o‘qi;

2) psixologik o‘qi;

3) kosmologik o‘qi.

Vaqtning termodinamik o‘qiga binoan entropiya vaqtning o‘tishi mobaynida o‘sib boradi va hech qachon orqaga qaytmaydi.

Yopiq sistemada o‘z-o‘zidan harorat ko‘tarilmaydi, yemirilgan bino qayta tiklanmaydi, yongan daraxtning kuli qayta daraxtga aylanmaydi. Bu hodisalar vaqtning orqaga qaytmasligini isbotlaydi.

Vaqtning psixologik o‘qi kishining olamda ro‘y berayotgan jarayonlar davomiyligini qanday idrok etishiga bog‘liq. Inson bunday jarayonlarni o‘tmishdan kelajakka qarab oqayotgan vaqt oqimida idrok etadi. Bu jarayon orqaga qaytmas jarayondir.

Vaqtning kosmologik o‘qi nostatsionar (beqaror), muvozanatsiz Koinot evolyutsiyasining yo‘nalishini belgilaydi. Fridman – Xabblning zamonaviy kosmologik modeliga binoan Koinot tobora kengayib bormoqda, unda torayish sari yo‘nalish yo‘q. Bunday orqaga qaytmas jarayonlar vaqtning bir yo‘nalishli, anizotrop, orqaga qaytmaslik xususiyatiga ega ekanligini asoslaydi.

Agar bir qator hodisalar ketma-ketligi o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, ularning ketma-ketligi tartibi saqlangan bo‘lsa, bunday bog‘lanish chiziqli bog‘lanish, deyiladi. Vaqt lahzalari ketma-ketligi, natural sonlar ketma-ketligi va boshqa o‘suvchi yoki kamayuvchi ketma-ketliklar chiziqli bog‘lanishga misol bo‘la oladi. Vaqtda esa hodisalarning ketma-ket kelishidagi izchillikning saqlanishi vaqtning chiziqli bog‘langanligini ifodalaydi. Bunda turli paytlarda ro‘y bergan hodisalarning o‘rni almashib qolmaydi. Masalan, biror kishi ulg‘aygandan so‘ng uylansa va oradan bir yil o‘tgach o‘g‘il farzandli bo‘lsa, undan so‘ng bir yil o‘tgach qiz farzandli bo‘lsa, bu hodisalar ketma-ketligi chiziqli bog‘lanish ko‘rinishida berilgan hisob sistemalarida saqlanadi. Hech qachon bu hodisalar ketma-ketligi avval farzandli bo‘lib, keyin uylanadi yoki “qiz farzandi o‘g‘lidan ilgari tug‘ilgan” tarzida o‘rni almashib qolmaydi.

Fazo. Klassik mexanikaga binoan fazoning xususiyati quyidagi qoidalarga bo‘ysunadi:

1. Fazo o‘z-o‘zicha mavjud bo‘lib, uning mavjudligi hech narsaga bog‘liq emas.

2. Fazo tabiatdagi barcha jismlarni o‘ziga sig‘diradi va barcha hodisalarning ro‘y berishiga joy beradi, ammo unga hech bir narsa ta’sir qilmaydi.

3. Fazo hamma vaqt ham bir xil xususiyatga ega bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi.

4. Fazoning chegarasi yo‘qdir.

5. Fazo barcha yo'nalishlarda nihoyasiz ravishda davom etadi va u cheksiz hajmga egadir.

6. Fazo uch o'lchovlidir.

7. Fazoning xususiyati Yevklid geometriyasi qoidalariga mos keladi. Nisbiylik nazariyasida esa:

1. Fazo va vaqtning tabiati o'rganilayotgan sistemaning harakat tezligiga bog'liq.

2. Fazo va vaqt mutlaq emas, balki nisbiydir.

3. Fazo va vaqtning xususiyati sistemaning harakat tezligi va jism massasi bilan chambarchas bog'liqdir.

4. Koinotning fazo va vaqt o'lchamlari chekli va chegaralidir.

5. Fazo va vaqt Yevklid geometriyasi talablariga har doim ham bo'ysunavermasligi nazariy asoslangan.

6. Koinotning fazoviy o'lchami ham, unda vaqtning o'tishi ham cheksiz emasligi, fazoning hamma nuqtalari ham birday emasligi, vaqtning o'tishi esa har doim birday bo'lgan emasligi kabi jihatlariga aniqlik kiritilgan.

7. Fazoning o'lchamliligi o'zgarib turadi.

Nisbiylik nazariyasida to'rt o'lchovli kontinuum tushunchasi ifodalanadi. Lekin bunda to'rtinchi o'lchov sifatida vaqt qo'shiladi, makonniig o'zi esa uch o'lchovli hisoblanadi.

Fazoning ko'lami bilan metrik munosabatlar mahkam bog'liq bo'lib, bu munosabatlar fazoviy elementlaming aloqasi strukturasini, bu aloqalarning tartibini va miqdoriy qonunlarini ifodalaydi. Tekislikdagi, sferadagi, psevdosferadagi (grammofon karnayini eslatadigan figuradagi) va boshqa sirtlardagi metrik munosabatlar geometriyaning turli tiplarida - evklid va noevklid geometriyalar (Lobachevskiy, Riman)da aks ettiriladi. Makonda muayyan metrik xossalaming mavjudligi, uning yalpi umumiy xarakteristikalari sirasiga taalluqlidir.

Zamonning yalpi umumiy xossalaridan (aniqrog'i, moddiy sistemalardagi zamonaviy munosabatlardan) uning materiyaning makoni va harakati bilan chambarchas aloqasini, moddiy sistemalardagi uzunlik, assimetriya, qaytarilmaslik, notsikllik, uzluklik bilan uzluksizlikning birligi, bog'langanlik, struktur munosabatlarga qaramlikni qayd qilib o'tmoq kerak.

Fazoning uzluksizligi - fazoni tashkil etgan nuqtalarning bir-biri bilan chambarchas bog'langanligi, har qanday predmetlarni bilan tutashtirib turuvchi muhitning ham uzluksiz bog'langanligini ifodalaydi.

Olamda har qanday ob'yekt o'z tarkibiy qismlariga ega va bu qismlarning o'zi ham bir qancha tarkibiy elementlardan tashkil topgan bo'ladi. Bu ierarxik tarzda tarkibiy qismlarga bo'linishning oxiri yo'q. Shuningdek, olam kattaligida ham oxirgi kattalikning bo'lishi mumkin emas. Masalan, quyosh sistemasi yulduzlar to'pi tarkibiga kirsa, yulduzlar to'pi esa galaktika tarkibiga kiradi. Millionlab galaktikalar esa metagalaktikani, metagalaktikalar to'pi yanada kattaroq kosmologik ob'yektni tashkil etadi va shu tarzda davom etaveradi. Bir tomondan barcha moddiy ob'yektlar o'zicha uzluksiz fazoviy strukturaga ega bo'lganligi bilan, ikkinchi tomondan u mustaqil ob'yekt sifatida boshqa ob'yektlardan ajralib turuvchi diskretlik (lotincha: discretus - ajratilgan, uzlukli)ka ega. Bu fazoning ayni bir vaqtning o'zida ham uzluksizlik, ham uzluklilik, ya'ni diskretlik xususiyatiga ega ekanligidandir.

Arab faylasufi al-Kindiy uzluksizlik – uchlarning tutashuvidir. Oraliqdagi bog'lovchi – bir o'lchamga ega bir-biridan mustaqil bo'lgan ikki jismning uchlarini bir–biri bilan tutashtiradi. Har qanday moddiy ob'yektda uzluksizlik uzluklilik (diskretlik) bilan birgalikda bir–birini to'ldiruvchi bo'lib keladi. Vaqtning uzluksizligi ham fazoning uzluksizligi singari bo'lib, ularning asosiy farqi o'lchamliligida. Fazo, aniqrog'i makroskopik fazo uch o'lcham bo'yicha uzluksiz bo'lsa, vaqtda bir o'lcham bo'yicha davomiylikning uzluksizligi namoyon bo'ladi.

O'lchamlilik fazo yoki vaqtning qancha yo'nalishlar bo'yicha erkinlikka ega ekanligini ifodalaydi. Odatdagi makroskopik fazo uch yo'nalish bo'yicha erkinlikka egadir. Bu yo'nalishlarni jismning eni, bo'yi va balandligi bo'yicha, vaqtda esa bitta yo'nalishda (ya'ni o'tmishdan kelajak sari) erkinlik bor deb qarash mumkin. Shundan kelib chiqib fazo uch o'lchovli, vaqt esa bir o'lchovli deb hisoblanadi. Qadimgi yunon olimi Yevklid o'z geometriyasida nuqtani o'lchamga ega emas (0 o'lchamli), chiziqni bir o'lchovli (faqat uzunlikka ega), yuzani ikki o'lchovli (eni va bo'yi bor), hajmni uch o'lchovli (eni, bo'yi va balandligi bor), deb hisoblagan. Bu fazo o'lchamliligini tushuntirishning eng sodda va mavhumlashgan usulidir. Aslida jismning enini, bo'yini va balandligini bir-biridan sira ajratib bo'lmaydi.

Uzunlik moddiy obyektlar mavjudligining izchilligi sifatida, nisbatan barqaror shaklda ularning saqlanishi sifatida yuzaga keladi. Davomiylik har qanday jarayonlarning o'zgarish tezligi nihoyaliligi tufayli zamonning bir lahzasi ketidan ikkinchisi paydo bo'lishi yo'li

bilan tashkil topadi. U makonning ko'lamiga o'xshash bo'lib, materiya va harakatning saqlanish natijasidir. Bu saqlanish zamonniig bog'langan bo'lishiga, unda uzilishlaming yo'qligiga, umumiy va mutlaq uzluksizlikka ham sabab bo'ladi.

Zamonning assimetriyasi yoki bir yo'nalishligi uning faqat o'tmishdan kelajakka qarab o'zgarishini, bu o'zgarishning orqaga qaytmasligini bildiradi. Makonda har qanday yo'nalishlarda harakat qilish mumkin. Zamonda esa o'tmishiga qarab harakat qilish mumkin emas, har qanday o'zgarish shu tariqa sodir bo'ladiki, zamonning kelgusi, bo'lg'usi lahzalari kelaveradi. Har qanday davriylik nisbiy bo'lib, jarayonlaming ko'proq yoki ozroq takrorlanishini ifodalaydi. Davrlarning(sikllaming) har birida hamisha qandaydir yangilik bo'ladi, shunga ko'ra zamon hamisha qaytarilmasdir. Zamonning bu qaytarilmasligi sabab-oqibat munosabatlarning assimetriyasi bilan, materiyaning rivojlantsh jarayonining umumiy qaytarilmasligi bilan belgilanadiki, bunda hamisha yangi imkoniyatlar, sifat holatlari va o'zgarish tendensiyalari paydo bo'lib turadi. So'nggi yillar mobaynida fanning rivojlanishi makon va zamon xossalarining moddiy jarayonlar bilan aloqadorligini yangidan oydinlashtirib berdi. Nisbiylik nazariyasi isbot qilib berdiki, jismlar harakatining tezligi oshib borishi bilan ularning harakat yo'nalishidagi hajmlari nisbatan kamayadi, ularda barcha jarayonlarning (nisbiy osoyishtalik holatidagi jarayonlarga qiyosan) sekinlashuvi sodir bo'ladi. Moddalarning ko'p to'planishlari natijasida vujudga keladigan juda kuchli gravitatsion maydonlaming ta'siri ostida ham jarayonlarning sekinlashuvi yuz beradi. Buning natijasida oq karliklar va kvazarlar chiqaradigan nurlanishning spektral chiziqlari spektrning qizil tomoniga siljigan bo'lib chiqadi.

So'nggi yillarda Galaktikada gravitatsion koilaps (moddaning halokatli ravishda tez qisilishi) natijasida paydo bo'lgan shu xildagi obyektlar topildi. Avvalida, bu obyektlarni (nazariyada bashorat qilingan va «tetiklar» deb atalgan obyektlarni) nurlanish chiqarmaganligi sababli, mutlaq yopiq, deb faraz qilgan edilar. Lekin so'ngra ravshan bo'ldiki, ular statik gravitatsion maydonni vujudga keltirar va tevarak-atrofdagi fazodan yulduzlararo changni va gazni yutib turar ekan. Muayyan o'tkazgich obyekt ustiga tushganda moddaning zarralari doimo o'zaro to'qnashadi, buning natijasida juda kuchli rentgen nurlanishi paydo bo'ladiki, bu nurlanishni yerdagi asboblar qayd qilgan edi.

Materiya tushunchasi. Odamlar o'zlarining hayot faoliyatida dastlab voqelikning moddiylik (modda) ko'rinishiga duch keladilar.

Ayrim falsafiy, xususan, materialistik monizm konsepsiyasida borliqning moddiy shakli bir yoqlama mutlaqlashtirib talqin etiladi va quyidagi xulosa bunday konsepsiyada ustuvor mavqega ega: "Olamda moddiylikdan boshqa narsaning bo'lishi mumkin emas. Moddiylik – materiya butun borliqning asl mohiyatini tashkil etadi. Borliq – bu ob'yektiv reallikdir"[23]. Bu g'oyaviylikning, ma'naviy borliqning inkor etilishiga olib boradi. Bunday konsepsiyani borliqni bir yoqlama moddiylashtirish oqibatida vujudga kelgan konsepsiya, deyish mumkin.

Borliqning asosini tahlil etgan tadqiqotchilar moddiy olamning, ob'yektiv reallikning asosida yotuvchi materiya tushunchasini falsafiy kategoriya sifatida ishlab chiqdilar. Materiya borliqning moddiy shakli hisoblanadi. Materialist olimlar ana shu kategoriyaga mahkam yopishib, "olamda materiyadan boshqa narsa yo'q", deyish darajasiga ham bordilar. Ular hatto borliqni ham materiya bilan aynanlashtirib qo'ydilar. Shu asosda sub'yektiv reallikni borliq sifatiga kiritmadilar. Aslida ob'yektiv reallik qay darajada mavjudlik huquqiga ega bo'lsa, sub'yektiv reallik ham shunday darajada mavjudlik huquqiga egadir. Aks holda, insonning ma'naviy dunyosi, o'y - fikrlari, ongi va tafakkuri bir chaqalik qiymatga ega bo'lmay qolar edi. Sub'yektiv reallik bo'lmasa – siz o'rganayotgan shu falsafiy g'oyalar ham bo'lmagan bo'lar edi. Aslida, sub'yektiv reallikni inkor etish g'oyasining o'zi ham sub'yektiv reallikning bir ko'rinishi-ku?

Materiya - (lot. materia - modda) borliqning moddiy shaklini ifodalovchi umumiy, universal, mavhum tushuncha. Biz olamda materiyaning konkret ob'yekt shaklidagi ko'rinishlariga duch kelamiz. "Umuman odam" bo'lmaganidek "umuman materiya" tushunchasi ham shu singari bir abstraksiya, ya'ni mavhum tushunchadir. "Umuman materiya" - bu tushuncha, abstraksiya, fikrimizning maxsulidir, chunki olamda "umuman materiya" emas, balki materiyaning konkret ko'rinishlari uchraydi. Shu tarzda fikr yuritgan faylasuflar barcha moddiy ob'yektlarga xos xususiyatlarni umumlashtirib ifodalash uchun "materiya" tushunchasini qo'llaganlar.

Fazo va vaqt xossalaridan materiyaning hamma ma'lum darajalarida namoyon bo'ladigan yalpi umumiy xossalarni, xususiy xossalarni, shuningdek, materiyaning faqat ba'zi holatlariga va hatto

[23] Falsafa: ensiklopedii lug'at. - T.: " O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashiriyoti, 2010. - B.61-62

ayrim obyektlarga xos bo‘lgan maxsus xossalarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Yalpi umumiy xossalar materiyaning boshqa atributlari bilan va uning borlig‘ining dialektik qonunlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu xossalar falsafa uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Materiya makonining yalpi umumiy xossalariga avvalo ko‘lam kiradi; ko‘lam turli elementlaming (bo‘laklar, hajmlaming) yonma-yon joylashuvini, biron muayyan elementga kelasi element kelib qo'shilishi yoki elementlar soni kamayishi mumkinligini bildiradi. Ko‘lamsiz makon uning elementlarining miqdor o‘zgarishi mumkinligini, shuningdek, moddiy tuzilmalaming strukturaviyligini istisno qilgan bo‘lar edi. Xuddi moddiy sistemalarda birgalikda yashovchi va bir-biriga ta‘sir ko’rsatib turuvchi elementlar borligi tufayli, bunday sistemalaming ichki makoni ko‘lamlidir.

Hozirgi zamon kosmologiyasida galaktikalarni o‘zida birlashtirgan kosmologik ob’yekt Metagalaktika deb ataladi. Metagalaktika bir tomondan umumiy holda olganda bir jinsli va izotrop ko‘rinishda bo‘lsa-da, uning ichki tarkibi bir-biri bilan chambarchas bog‘langan fazo-vaqt uyalarini biriktirgan asalarining uyasiga o‘xshash g‘ovak katakchalar to‘plamidan tashkil topgandir. Galaktikalar va ulardagi yulduz to‘plari bu uyachalarning devorlarida joylashgan bo‘lib, ularning ichi g‘ovak bo‘shliqdan iboratdir.

Borliqning mavjudlik va reallik shakllarida namoyon bo’lishini barcha faylasuflar tan olishgan. Biroq, uning yaratuvchisi, birinchi ibtidosi haqidagi masalani yechishda hozirgacha bahs-munozaralar davom etmoqda.

Vaqt o‘tgani sayin borliqning turli qirralari ochilib bormoqda. Ana shu ochilgan, ochilayotgan, kelgusida ochiladigan tomonlarini ontologiya - borliq haqidagi ta‘limot sifatida o‘rganilmoqda. Natijada, har bir fan o‘zining tadqiqot obyektini, bahs mavzusini, erishgan natijasini, masalan, “tibbiyot ontologiyasi”, “gen ontologiyasi”, “informatika ontologiyasi” kabilar sifatida o‘rganmoqda.

Nazorat savollari:

1. Borliq tushunchasi mohiyatini tushuntirib bering ?
2. Borliqni yaralishi bo‘yicha diniy nazariya qanday ?
3. Borliqni asosiy turlarini sanang ?
4. Substansiya va aksendensiya tushunchalarining ma’nosi qanday ?
5. Harakat va uning manbasini tushuntiring ?

5- mavzu. Bilish falsafasi (Gnoseologiya).

Reja:

1. Bilish nazariyasining predmeti va o‘ziga xos xususiyatlari.

2. Bilishning asosiy turlari va shakllari.

3. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalari, ularning o‘ziga xosligi va aloqadorligi.

4. Bilishda haqiqat va amaliyot uyg‘unligi. Haqiqatning asosiy shakllari va konsepsiyalari.

Tayanch iboralar: *Bilish, gnoseologiya, empirizm, ratsionalizm, persepsiya, apersepsiya, gnoseologik optimizm, skeptitsizm, agnostitsizm, gnoseologik relyativizm, bilim, kundalik amaliy bilim, o‘yin vositasidagi bilim, mifologik bilim, badiiy bilim, diniy bilim, falsafiy bilim, ilmiy bilim, ijtimoiy bilim, tabiatshunoslik va jamiyatshunoslik, bilishda sub'ekt va ob'ekt, bilish – faoliyat.*

Qadimgi Sharq afsonalaridan birida odamzotning jannatdan quvilish sababi bilim daraxti mevasidan totib ko‘rgani bilan bog‘liqligi haqida hikoya qilinadi. Emishki, odamni yaratgan Xudo uning uchun hech bir muammosiz, hamma narsa muhayyo etilgan makon-jannat ato etibdi. Undagi barcha narsalardan foydalanishga imkon yaratibdi-yu, ammo bilim daraxti mevalaridan yeyishga izn bermabdi. Chunki bu mevadan totib ko’rgan odam turli savollar ortidan ketib, jannatga xos cheksiz imkoniyatlar bilan chegaralanmay qolar ekan. Ya’ni, insonni jannat qoniqtirmasdan, “Nima uchun bunday?”, “Nahotki, shu abadiy bo‘lsa?” kabi oddiy savollardan, murakkab muammolar majmui - bilim dunyosi tomon yo‘l tutar emish. Bu esa odamzotni gohida Xudoga shak keltiradigan, hattoki u bilan raqobat qilish, uni e’tirof etmaslik darajasiga olib boradigan sarob yo‘llarga tomon boshlar emish. Odamzot gohida bilib-bilmay vayronkor va buzg‘unchi g‘oyalar ta’siriga tushib qoladi, aynan izn berilmagan narsalarga ko‘proq qiziqadi, muayyan chegaralardan chiqib ketadi. Alal- oqibat, u bilim daraxti mevasini totib ko’rgan va bunga javoban o‘z jazosini olgan. O‘shandan boshlab odamlar o‘z ehtiyojiga kerak narsalarni o‘zi yaratish, izlash, topish mashaqqatiga mahkum emish.

Bilish muammosi falsafada muhim o‘rin egallaydi. Bilishning strukturasi, harakati va chegarasi – gnoseologiyaning predmetidir. Bilishning borliq asoslarini ontologiya, uning mazmuni va qadriyatini

aksiologiya o'rganadi. Bu uchalasining birligi falsafiy bilimning ichki shaklini tashkil etadi. Bilish metafizikasi esa idealizm va teizm doirasida vujudga keladi.

1. Gnoseologiya tushunchasi va muammolari. Bilishni o'rganadigan falsafa bo'limi «gnoseologiya» yoki «epistemologiya» deb ataladi. Bilishni u yoki bu darajada ba'zi bir ilmiy fanlar ham o'rganadi, masalan, psixologiya. Garchi, falsafa gnoseologiyaning eng umumiy dunyoqarash muammolarini jamlab, ular quyidagi savollar shaklida ifodalanishi mumkin.

- dunyoni bilish mumkinmi?
- odamda dunyoni bilishning qanday qobiliyatlari mavjud?
- odam dunyoni qanday biladi?
- haqiqat nima, uning mezonlari qanday?
- odamning bilishi obyektiv hisoblanadimi?
- bilishning diniy va ilmiy shakllarining xususiyatlari nimada?

Gnoseologiya uchun faqat bilish turlarining o'zinigina ko'rib chiqish ham asosiy maqsad bo'la olmaydi. Bunday holda falsafiy gnoseologiya juda kichik sohaga, maxsus ilmiy tadqiqot yo'nalishiga aylanib qolishi, masalan, fanshunoslik, mantiq yoki ilmiy bilish metodologiyasining bir qismi bo'lib qolishi ham mumkin. U yoki bu bilish turi gnoseologiyani dunyoqarash jihatidan, haqiqatga erishish nuqtai nazaridan qiziqtiradi, xolos. Ammo, ular gnoseologiyaning predmeti doirasini to'la-to'kis qamrab olmaydi.

Olamning chekliligi yoki cheksizligi, rivojlanishi, makon va zamon, vaqt, inson, uning mohiyati singari falsafiy muammolar qatorida odamni o'rab olgan narsalar, munosabatlar, jarayonlarni bilish bilan bog'liq bo'lgan savollar ham muhim o'rin tutadi.

Dunyoni bilish mumkinligi muammosi gnoseologiyada quyidagicha ifodalanadi: bizni o'rab turgan olam to'g'risidagi qarashlarimiz ushbu olamning o'ziga qay darajada mos keladi? Bizning tafakkurimiz olam va borliqni haqiqiy bilishga qodirmi? Biz olam to'g'risidagi o'z tushuncha va tasavvurlarimizda borliqni to'g'ri aks ettira olamizmi? Masalaning bu tarzda qo'yilishi narsalar, jarayonlar, vaziyatlarni bilishning murakkabligi, ularning nafaqat tashqi, balki ichki mohiyatini nazarda tutganligi uchun juda ham nozikdir. U hodisalarning tashqi tomonlarini, juda deganda «ikkilamchi» sifatlarini bilish bilan birga, ko'p hollarda, ularning o'zaro yashirin jihatlarini, ichki sifatlarini ham nazarda tutadi. Shuning uchun masalaning mohiyati dunyoni bilish mumkinligini oddiy

aniqlashdangina iborat emas, balki dunyoni qanday darajada bilish mumkinligi masalaning muhim tomonidir. Aynan ana shu masala haqiqiy falsafiy muammo bo'lib, sog'lom fikrlay oladigan faylasuflar uning mohiyatini bilmasligi mumkin emas.

Inson doimo biron bir narsani bilishga, uni o'zgartirishga intiladi. Shunga ko'ra, bilish, deb insonning borliq va uning obyektiv qonunlarini o'rganish, anglash, o'zlashtirish, egallashlariga aytiladi. Bilish o'z navbatida murakkab jarayon hisoblanadi. Buning natijasida muayyan bilimlar hosil qilinadi. *Bilim* deb insonning hayoti davomida obyektiv borliq haqidagi yoki muayyan tabiiy, madaniy, ma 'rifiy, ma'naviy, harbiy va shu kabi sohalarga oid tartibga solingan ilmiy, amaliy ma'lumotlar, tushunchalar majmuiga aytiladi. Soddaroq qilib aytganda insonning hayoti davomida yangi bilim bilan boyib borish jarayoni bilish deb ataladi,desak ham bo'ladi.

Bugungi kunda bilish jarayonining alohida jihatlari va elementlarini o'rganish bilish rivojlanishining qonuniyatlarini tadqiq etmay turib anglash imkonsizdir. O'z navbatida, bilishning xususiyatlari va qonuniyatlari bevosita uning elementlari xususiyatlaridan kelib chiqmaydi.

Bilish keng ma'noda ongni yaratadigan kuch sifatida faoliyat ko'rsatib, uning chegaralarini kengaytiradi va ongni yangi mazmun bilan boyitadi. Inson doim o'zining borlig'i doirasidan tashqari chiqadi, bilish esa transendensiyaning asosidir. Bilish unsurlari aqlli hayvonlarda ham mavjud, ammo hayot jarayonining ichki tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lib, uning faoliyat yuritishiga xizmat ko'rsatadi. Hech bir hayvon transendensiyaga, o'z hayotini o'zgartirishga qodir emas. Bilish natijasida inson va insoniyat o'z tarixiy taraqqiyotida o'zini tom ma'noda dasturlaydi. Inson olamni bilib, ashyolarning obrazi, tasavvuri va tushunchalarini yaratadi, go'zallik va abadiylik ramzlarini shakllantiradi. Inson o'zini bilib, o'zi haqida tushuncha hosil qiladi, demak – u o'zgaradi. Inson nafaqat o'zini, balki, o'zi yaratadigan turmush muhitini ham o'zgartiradi.

Gnoseologiyani bahs mavzullaridan biri biz erishgan bilimlar tajribada sinalganmi yoki yo'qmi? Ushbu savolga javob berish uchun gnoseologiyada ikkita qarama-qarshi an'ana: bizning bilimlarimiz tajribada sinalganiga urg'u beruvchi empirizm hamda tajribani inkor etuvchi ratsionalizm kurashib keladi.

Ratsionalizm odamda bilimlar tug'ma g'oyalar orqali paydo bo'ladi, masalan, insoniylik, adolat, uyg'unlik g'oyalari va tajribadan olishning imkoni bo'lmagan g'oyalar mavjudligidan kelib chiqadi, deb hisoblovchi ta'limotdir. Zero, tajriba yalpi insoniylik, to'la adolat mavjud emasligini, bizni o'rab turgan borliqda uyg'unlik ustidan xaos(tartibsizlik) hukm surishini namoyon qilmoqda. Ba'zi ratsionalistlar (Aflotun, Avgustin va boshqalar) g'oyalar insonning aqliga xos, tug'ma g'oyalar bo'lib, buni kishilar faqatgina o'z aqllaridan olishini bildiradilar; yana bir toifa, ratsionalistlar (Volf, Leybnis, Baumgarten va boshqalar) bo'lsa, ko'rsatib o'tilgan g'oyalar faqat aql orqali falsafiy mushohada qilish jarayonida tug'ilishini ko'rsatib berishga harakat qiladi.

Empirizm (Lokk, Frensis Bekon, Gobbs, Feyerbax, Yum va boshqalar), inson o'z shaxsiy tajribasiga ega bo'lguncha biror bir g'oya mavjud bo'lishini rad qiladilar. Bu emperistlar fikricha, barcha g'oyalar kishi ongida o'zining shaxsiy tajribasi, yoki boshqa kishilarning orttirilgan tajribasi, yoki butun insoniyatning tajribalarini umumlashtirish orqali paydo bo'lishini ta'kidlaydilar va buni isbotlab berishga urinadilar. Bu olimlarning fikriga ko'ra inson tajribalari orqali uni o'rab turgan borliqni anglab boradi. Falsafada borliqni anglash, idrok etishni **"persepsiya"** (lot perception - idrok etish) deb atashadi. Mashhur olim Leybnisning fikricha, persepsiya, insonni borliqni, undagi voqea va hodisalarni o'z sezgilari orqali anglashidir. Insonni qurshab turgan olamni aql bilan idrok etish, anglash (bilish) falsafada **"apersepsiya"** tushunchasi bilan ifodalanadi.

Optimizm. Skeptitsizm. Agnostitsizm. Inson aqlini ijtimoiy turmush bilan yonma-yon o'sib borishi bilan u o'ziga yangidan-yangi savollarni berib boradi. Inson o'zi bu olamni bilish qobiliyatiga egami yoki yo'qmi? Inson erishish mumkin bo'lgan bilimning chegarasi qanday? Inson olamni oxirigacha bilib olsa nima bo'ladi? Ushbu savollarga javob berishga harakat qilgan faylasuf olimlarni uchta asosiy guruhga ajratish mumkin bular:

- optimizm,
- skeptitsizm,
- agnostitsizm.

Optimistlar bizni o'rab turgan olamni bilish mumkinligiga shubha qilmaydilar, inson qobilyatli mavjudot u albatta bu olamni o'zlashtirib oladi deydilar, dunyoni bilish mumkinligini ta'kidlaydilar,

agnostiklar, aksincha, inson bu dunyoni bila olmaydi deb optimistlar nazariyalarini rad etadilar. Qizig'i shundaki, birinchi pozitsiya tarafdorlariga hamma vaqt ham muammoning murakkabligini anglab yetish nasib qilavermagan. Chunki, «Dunyoni bilish mumkin», degan qarash tarafdorlari aksariyati uchun o'z fikrini isbotlash talab qilinmaydi. Go'yoki, bu borada masala o'z-o'zidan aniqdek tuyuladi. Ammo boshqacha fikrlaydiganlar o'z pozitsiyasi to'g'riligini doimo isbotlashi, asoslashi zarur bo'lgan. Aynan ana shu zaruriyat bilish, uning darajalari bilan bog'liq ko'pgina masalalarni o'rganish ehtiyojini dunyoga keltirgan. Bu esa, o'z navbatida, bilishning qator gnoseologik muammolarini yechish, bir-biridan qiziqarli xulosa va natijalarga erishish imkonini bergan. Xullas, gnoseologiyaning fan sifatidagi taraqqiyotiga gnostiklar ko'proq foyda keltirganmi yoki agnostiklarmi, degan masalaga dialektik yondashgan ma'qul.

Faylasuflar ichida asosiy agnostiklaridan biri I.Kant "Men nimani bila olaman?" degan savolni qo'yib, "Sof aqlni tanqid" asarida uni "Aprior tajribagacha bilish qanday tarzda sodir bo'ladi?", deb o'zgartirgan. Keyin esa bu savol boshqa savollar qatoriga kirib ketgan. Tabiatshunoslik qanday mavjud? Matematika-chi? Metafizika (ya'ni, falsafa) qanday qilib fan holida mavjud bo'la oladi? I. Kant bilimning bu sohalari asosida tashkil topadigan inson qobiliyatlari yoki ruhiy kuchlarini tadqiq etdi. U bu qobiliyatlar tabiatini, ularning imkoniyatlarini o'rgandi, bilishning tafakkurdan nima bilan farq qilishini aniqlashga urindi, aqlning (tafakkurdagi) dialektik ziddiyatlarini ko'rib chiqdi, barcha bilimlar uchun haqiqatning umumiy mezonini topish muammosini hal etishga harakat qildi. Uning ta'kidlashicha, kuzatish va tahlil, tajriba va bilish hajmini uzluksiz kengaytiradi, biroq bilishning o'zi hamisha chegaraga ega, olam hamma vaqt inson oldida "narsa o'zida" bo'lib turaveradi.

Aslida esa falsafadagi agnostitsizm bilishning murakkab hodisa ekanligidan darak beradi. Qadimgi yunon faylasufi Protagor (490-420 yy.) Xudolarning mavjudligiga shubha bildirib, go'yoki agnostik fikrda turgan edi. U "Xudolarning bor yoki yo'qligini men bila olmayman," - deb yozgan edi. Chunki buni bilishga ko'p narsalar to'sqinlik qiladi, masalan nihoyatda murakkab, inson hayoti esa g'oyat qisqadir. Protagor atrofdagi hodisalarni bilish mumkinligini e'tirof etib, bu hodisa "qanday tuyulsa, shunday holda mavjud" degan fikrni tasdiqlashga harakat qilgan.

Skeptiklar bo'lsa, bu olamni bilish mumkinligini rad qilmaydi, ammo, borliq haqidagi bilimlarning haqiqiyligiga shubha bilan qaraydilar. Skeptitsizm namoyandalari davriy qadriyatlar, ijtimoiy tizimlar o'zgarayotgan paytda oldingi haqiqiy deb hisoblangan olam haqidagi xulosalar fan va tajribadan olgan yangi ma'lumotlar asosida isbotlanib rad etilgan paytda rivojlangan, deb hisoblaydi. Masalan, geosentirik yoki geliosentrik nazariyalarni rad etilishi natijasida.

Bilish subyekti. Bilishning mohiyatini, qonuniyatlarini tushunib olmoq uchun kim uning subyekti ekanligini aniqlamoq zarur. Bunday qaraganda hammasi ravshandek ko'rinadi: **bilish subyekti - inson.** Lekin, birinchidan, falsafa tarixi shunday mutafakkirlarni biladiki, ular olamni bilishning prinsipial imkoniyatini inkor etish bilan, aslida, bilishning subyektini ham inkor qiladilar. Ikkinchidan, ba'zi mutafakkirlar va tabiatshunoslar, bilish, jumladan, nazariy tafakkur faqat kishilarga emas, balki ular yaratgan elektron hisoblash mashinalari kabi qurilmalarga ham xosdir, deb da'vo qilmoqdalar.

Ba'zida shunday savol tug'iladi. Hayvonlar bilish subekti bo'lishi mumkinmi? Yo'q, albatta! Hayvon xulq-atvori ma'nosiz emas. Lekin, hayvonlarni aql emas, ichki biologik dastur - instinkt boshqaradi. Fan ma'lumotlarining guvohlik berishicha, bu dastur aniq belgilangan harakatlar - ko'payish, oziq-ovqat izlash, himoyani amalga oshirish natijasida tirik qolishga yo'naltirilgan bo'ladi. Qurshab turgan dunyoni bilish orqali aql uning egasiga instinkt bilan bog'liq bo'lmagan yangi nostandart harakatlar imkonini beradi. Lekin ular unga aqlsiz hayvonlar oldida ustunlik beradi. Shunday qilib, odam yoki kishilik jamiyati, aqlli mavjudot bilishning subyekti hisoblanadi.

Bilish obyekti. Bilish uchun faqat subyekt emas, balki subyekt (inson) bilan o'zaro ta'sir ko'rsatadigan obyekt ham bo'lishi zarur. Obyektiv reallik hodisalari, jarayonlari ongga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir. Bilish subyektining o'zi inson to'g'risida uning bilishi va amaliyotining obyekti bo'lib nima maydonga kelishiga qarab fikr yuritishi mumkin. Masalan, elektron faqat Demokrit va Arastu zamonida emas, balki Galiley va Nyuton zamonida ham garchi reallik sifatida mavjud bo'lsa-da, lekin insonning bilish faoliyati sohasiga kirmas edi, inson u vaqtda hali uni o'z fikri va harakatining obyekti sifatida aniqlab olishga qodir emas edi. Jamiyatning taraqqiyot darajasini bilgandagina tabiatning qanday predmeti kishilaming bilish faoliyatining obyekti bo'lib qolishi haqida xulosa chiqarish mumkin. Masalan, ijtimoiy

amaliyot darajasi hozir shundayki, yerimizni qurshab turgan kosmik fazoni, Quyosh sistemasining boshqa sayyolarini amaliy o'zlashtirish asta-sekin inson faoliyati sohasiga kirib bormoqda.

Inson biron-bir darajada insoniylashgan tabiat ichida yashaydi. U tabiatning yangidan-yangi hodisalarini o'z turmushi bag'riga tortib, ularni faoliyat obyektlariga aylantirmoqda. Insonning dunyosi shu tariqa kengayib va chuqurlashib boraveradi. Shunday qilib, bilish obyektlarining ancha qismi insoniyat tomonidan o'zgartirilib boshqa shaklga solingan tabiat hodisalaridan iborat. Bu bilish obyektlari insonning amaliy faoliyatiga ma'lum darajada bog'liqdir. Ana shu faoliyat vositasi bilan madaniyat vujudga keltiriladi, bilish esa ana shu madaniyatning elementidir.

Falsafaning asosiy masalalaridan biri: subyekt - obyektni bilaoladimi, degan savoldir. Yoki bunday bilish faqat xayolparastlikmi, yoki bilish uchun o'tib bo'lmaydigan devor, obyekt - subyektdan ajralganmi? Bu masalani yechishda har xil falsafiy qarashlar mavjud, G'arb falsafiy an'analari uchun bilishning obyekti va subyektini umumiy qarama qarshi qo'yish xos bo'lib, bundan obyekt va subyekt munosabatining uchta varianti kelib chiqadi.Ular quyidagilar:

- Subyekt obyektni to'lig'icha o'zlashtira olmaydi. Bunday falsafiy qarashga agnostitsizm deyiladi. Bunday qarash tarafdorlari dunyoni bilib bo'lmaydi deb faraz qiladilar. Ularning fikricha, dunyo to'g'risidagi odamning barcha bilimlari subyektiv va xayolparastlikdan iborat bo'lib, dunyoni odam bilmaydi va hech qachon bila olmaydi, ham.

- Subyekt obyektni qisman o'zlashtira oladi . Bunday falsafiy qarashga qisman agnostitsizm deyiladi. Uning tarafdorlari fikricha odam ma'lum bir sharoitlarda dunyoning faqat ba'zi bir parchalarini bila oladi.

- Subyekt obyektni to'liq o'zlashtira oladi. Bunday falsafiy qarash - bilish optimizmi deb ataladi. Uning tarafdorlari dunyo odam bilishi uchun tushunarli va bu bilish xayoliy emas, inson tabiatdagi narsalarning real holatini aks ettirishiga ishonadi. Buni bilish optimizmi deyish mumkin.

Har bir odamning olamni bilishda o'ziga xos bo'lgan shart-sharoitlar natijasida biron bir qobiliyati shakllangan bo'ladi. Hozirgi falsafada, odatda odam bilishining uchta asosiy qobiliyati qayd qilingan: hissiy bilish, ratsional bilish va irratsional bilish (intuitiv). Ularni batafsil qarab chiqamiz.

1. Hissiy bilish. Hissiy bilish bu bilishning bir turi bo'lib, odamning fiziologik sezgi organlari orqali kechadi. Bunday organlar odamda beshta - ko'rish, eshitish, teri, hid va ta'm sezgisi. Sezgi orqali bilish uchta asosiy shaklda amalga oshiriladi. Ular sezish, idrok va tasavvur, deb ataladi.

Sezish - bu sezgi orqali bilishning yagona akti bo'lib, u sezish, ko'rish, eshitish, teri, hid va ta'm orqali bo'lishi mumkin. Shunday qilib, ***sezgi*** *- bu odam organizmiga ta'sir etib turgan narsa yoki hodisalarning ayrim sifat va xossalarini miyasida aks etishidir.*

Idrok - *bir nechta sezgilarning birgalikda ishlashi orqali kishi tevarak- atrofidagi narsa va hodisalarni yaxlit holicha aks ettirishidir.* Idrok odatda murakkab yaxlitlik xarakteriga ega bo'lib, unda tashqi olamdagi buyumlarning hamma tomonlari va xususiyatlari aks ettiriladi. Aniqrog'i, idrok tashqi olamning katta murakkab tasvirining bir qismini aks ettiradi, deyish mumkin. Masalan, qachon odam o'rmondan besh kilometr uzoqlikda tursa, u uni faqat ko'rishi mumkin. Bu yerda bilish, ko'rish sezgisi asosiy rolni o'ynaydi. Qachon odam o'rmonga kirsa, bir vaqtning o'zida har xil sezgi organlari orqali uni bilishi mumkin, daraxtlarni ko'radi, o'rmon ovozini eshitadi va uning hidini sezadi. Bu sezgi idrok deyiladi.

Tasavvur *deb real voqelikdagi narsa va hodisalaming muayyan daqiqada idrok qilinmayotgan hissiy obrazlariga aytiladi.* Tasavvur real olamdagi narsalaming qayta tiklangan obrazidir. Tasavvurning manbai obyektiv reallikdir. Idrokda biz ko'rayotgan, eshitayotgan, bizga tegib turgan narsalar va shu kabilar qo'zg'otuvchilar bo'ladi. Tasavvur uchun esa buyum emas, balki shu buyum haqidagi so'z yoki fikr qo'zg'atuvchi hisoblanadi. Aytaylik, agar siz oldin limon iste'mol qilgan bo'lsangiz, siz uni tasavvur qilishingiz mumkin. Limonning sariq rangi, nordon mazasi, o'ziga xos hidi, siqib shirasini chiqarishdagi ovozini his qilamiz. Shunday qilib odam tasavvurida ilgari qabul qilingan obyektlarning belgilarini qo'shishi mumkin va real dunyoda mavjud bo'lmagan yangi obyektni ichki nuqtai nazarida gavdalantiradi.

Hozirgi tadqiqotchilar odamda fiziologik sezgi organlaridan tashqari, ularning ingichka ruhiy (astral) o'xshashlari ham bor, deb faraz qiladilar. Ko'pchilik odamlarda ular faol ishlamaydi, shuning uchun ularda sezgi orqali bilishning qo'shimcha (zahira yoki paranormal) qobiliyatlari yashirish holda mavjud. Ammo fan oldindan bilish, eshitish, psixometriya kabi(ruhiy o'lchov) kabi, inson zehn tizimining

zahiraviy imkoniyatlarining namoyon bo'lishiga bir necha bor to'qnashdi. Kuzatish bunday imkoniyatlarga ega bo'lgan odamlar sonining o'sib borishiga guvohlik beradi.

Ko'plab hayvonlar inson havasi keladigan hissiy qobiliyatlarga ega. Insonda ham biologik evolyutsiyaning davom etayotganligi unga ozgina bo'lsa- da taskin berishi mumkin, ammo asrlar davomida insonni hissiy aks ettirish qobiliyatida deyarli sezilarli o'zgarish bo'lgani yo'q.

Shu bilan birga, inson organizmida hissiy-sensitiv aks ettirish imkoniyatlari kengligini tasdiqlovchi dalillar ko'p. So'nggi o'n yilliklar ichida o'rganilayotgan teri-optik sezgirlik va biomagnit maydonlari insonda yanada taraqqiy etishi mumkin bo'lgan qobiliyatlar borligidan darak beradi. Inson bilish qobiliyatini o'stirishning bu yo'li qanchalik muhim bo'lmasin u baribir cheklangan. Shu ma'noda insonning bu borada bir qator mavjudotlar bilan raqobatlasha olmasligini tan olish kerak.

Bilish qobiliyatlarini o'rganishdagi faoliyat nuqtai nazaridan yondashuv ularning taraqqiyotida amaliyotning roli muhimligini ko'rsatadi. Amaliyot voqelikni hissiy aks ettirish sohasini kengaytirishni taqazo qiladi. Misol uchun, amaliyot davomida qizil rangning o'nlab turlarini farqlash qobiliyatiga ega bo'lgan po'lat quyuvchilar bor. Qimmatbaho metallar va toshlardan buyumlar yasayligan ustalar, biron-bir mahsulot sifatini, masalan choyni ta'miga yoki xiliga ko'ra baholay oladigan mutaxassislar ham shunga o'xshashdir. Bularning barchasi insonga xos amaliyot qanchalik ko'p va yuqori rivojlangan bo'lsa, uning shunchalik ko'p hissiy taassurot olishini bildiradi. Inson ishlab chiqarish jarayonida tabiatni, narsalarni, ularning turli tomonlarini, xossalari va munosabatlarini qanchalik ko'p o'rgansa, shunchalik ko'p hissiy taassurotga ega bo'lishi haqidagi xulosani keltirib chiqaradi.

Har qanday hissiy bilish o'zining chegarasiga ega va hamma vaqtda ishonarli emas. "Sezgi aldovi" degan tushuncha mavjud. Masalan, mexanik soat tili go'yoki harakatsizday ko'rinadi. Yer go'yoki tep-tekisdek, qalam suvli stakanda go'yoki qiyshiqdek. Bunday "aldov" ning sababi nimada? *Birinchidan,* barcha sezgi organlari idrok bo'sag'asiga ega. *Ikkinchidan,* ba'zi bir tabiat hodisalari tashqi jihatdan o'zining real holatidan farq qiladi yoki hech bo'lmaganda tirik mavjudotning sezgi organlari orqali hayoliy qabul qilinadi.

Aqliy bilish. Insonning voqelikni hissiy aks ettirish qobiliyati ob'yektlar to'g'risidagi bevosita axborotni individual, aniq - hissiy

obrazlar shaklida olish, ya'ni sezgi, idrok va tasavvur qilish qobiliyatidir. Bu qobiliyatning bilish va olamda yashash uchun ahamiyati katta. Ammo, uning kuchi, zaifligi, hamdir; ya'ni, inson bilish jarayonida konkret vaziyatga bog'langan holda qoladi. Garchi u atrof-muhitda jonzotlar singari moslashgan, holda mo'ljal ololsa ham, ammo buni o'zi tabiatni, uni o'rab turgan dunyo narsalarini o'z manfaatlari va ehtiyojlari uchun moslashtirishga yetarli emas.

Intuitsiya (intuvtiv bilish). Yangi bilimni egallashda mantiqiy tafakkur, uning tushunchasi qonunlari, tushunchalarning shakllanish usullari va yo'llari katta ahamiyatga ega. Lekin bilish faoliyati tajribasi shundan dalolat beradiki, ko'p hollarda ilmiy muammolarni hal qilishda oddiy mantiqning imkoniyatlari kamlik qiladi. Yangi axborotning hosil bo'lish jarayonini tafakkurni induktiv va deduktiv tushunishga tenglashtirib bo'lmaydi. Bu jarayonda bilishga yangi kuch, imkon va harakat yo'nalishini beruvchi intuitsiya muhim o'rin egallaydi.

Insonning bunday qobiliyagi borligini ko'plab olimlar e'tirof etishadi. Masalan, Lui de Broyl ta'kidlayliki, agar fan asoslari mutlaqo ratsional bo'lganida, nazariyalarning rivojlanishi va hattoki, tez-tez tubdan almashinuvi mumkin bo'lmas edi. Lui de Broyl fikricha, ilmiy tadqiqotlar jarayoniga olimning nafaqat ratsional, balki boshqa individual tafakkur xususiyatlari katta ta'sir etishiga qattiq ishongan. Intuitsiya esa bizga qandaydir ichki anglashni to'satdan ochib, murakkab, hech qanday umumiylikka ega bo'lmagan reallikning serma'noligini aniqlashga yordam beradi. Ular organik ravishda inson aqliga xos bo'lgan imkoniyatlar bo'lib, fanning paydo bo'lishida muhim rol o'ynagan va bugungi kunda ham shunday rol o'ynamoqda»[24]. Ana shu tufayli ilmiy yutuqlarga erishilmoqda. "Shunday qilib, fan o'z asoslari va uslublariga ko'ra, asosan ratsionaldir, - deb ta'kidlaydi Lui de Broyl. U faqat aqliy qobiliyatlarni yanada samaraliroq ishga solish yo'li bilan borgan sari ko'proq yutuqlarga erishishi mumkin"[25].

Biz bu yerda o'ylash, diqqat, xotira singari insonning boshqa qobiliyatlariga to'xtalib o'tirmaymiz, bu maxsus mavzu bo'lib biz intuitsiya haqida to'xtalamiz. Intuitsiya maxsus bilish jarayoni sifatida, bevosita yangi bilimni hosil qiluvchi jarayon tarzida, kishilarga xos bo'lgan sezgi va abstrakt tafakkur kabi umumiy qobiliyat sifatida namoyon bo'ladi.

[24] «По тропам науки» М. 1962. С. 293-2-14.
[25] Юнг К. Психология бессознательного. Москва: Канон, 2019. – С. 38.

Intuitsiyani eksperimental o'rganish mumkin, uni eksperiment yordamida o'rganishga bag'ishlangan ishlar orasida J. Olton, K. Fakuarui asarlarini alohida ta'kidlash kerak.

Intuitsiyaning umumiyligi va keng tarqalganligini olib borilgan ko'plab kuzatishlar tasdiqlashi mumkin. Kutilmagan vaziyatlarda, axborotlar cheklangan sharoitda tez qaror qabul qilish zarur bo'lganda, o'z qarorini «oldindan sezganday», aynan shunday qilish lozimdek, qabul qiladigan holatlar inson hayotida ko'p uchraydi. Insoniyat tarixida olimlar, konstruktor va rassomlar o'z sohasida «ilhom kelib qolgani» tufayli yoki "to'satdan esga tushib qolish" oqibatida yangi kashfiyotlarga erishilganligi bilan bog'liq misollar ko'plab uchraydi. Bunday misollardan bir nechtasini keltiramiz. Musiqa tarixida yangi kuy yoki ohang bastakorga kutilmagan holda, masalan, tushida kelganligi ko'p bor sodir bo'lgan. Masalan, Djuzepi Tartini tushida skripkada ajoyib musiqa chalayotgan alvastini ko'rgan. Uyg'ongach, bu musiqani zudlik bilan yozib olgan va keyinchalik o'zining mashhur asari – "Shayton tovushlari"ni yaratishda foydalangan.

Elektrotexnika sohasida kashfiyotchi bo'lgan Nikola Teska (1856-1943-yillar) bilan ro'y bergan hodisa ham qiziq. Bir kuni u sayr qilib yurganida, miyasiga bir texnik muammoning yechimi to'satdan kelib qoladi. Oqibatda, bu fikr shu muhim masalaning natijasiga olib keladi. Amerikalik psixolog D. J. Gouenning yozishicha, u bir kun ufqqa qarab she'r o'qiyotganda to'satdan kelgan yangi fikr ongini chaqmoqdek yoritib yuborgan. Ya'ni, o'zgaruvchan tokda ishlaydigan elektr motori konstruksiyasi unga yangilik - g'oya sifatida namoyon bo'lgan. Teskaning miyasiga kelgan obrazlar aniq, ravshan, metall yoki tok singari sezilarli bo'lgan. Jahon elektrotexnikasida ro'y bergan inqilob ana shunday boshlangan edi.

Intuitsiya tushunchasining mazmuni juda keng, hamma vaqt ham olamlar «intuitsiya», deb ataydigan hodisalar intuitsiya bo'lavermaydi. Tafakkurda, ko'plab xulosalar borki, ularga asos bo'ladigan hukm aniq holda ifolalanmaydi, bundan xulosalarning natijasi kutilmagan bo'ladi. Ba'zilar o'ylaganidek intuitiv bo'lmaydi. Instinktlarga mansub hodisalarni doimo ham intuitiv deb o'ylamaslik kerak. U zarur sharoitda ro'y beradigan reaksiyaning avtomatizmi bilan tavsiflanadi va sub'yektning ongsiz bajaradigan fiziologik faoliyati doirasiga kiradi.

Bazida "hissiy intuitsiya" to'g'risida ham fikrlar mavjud. To'g'ri bunday iborani ishlatish mumkin, lekin bu "hissiy" bilish doirasida amalga oshishini unutmaslik lozim.

Gnoseologik konsepsiyada bilish jarayonida sezgi organlari harakatiga katta ahamiyat berilishiga - sensualizm va empirizm deyiladi. Bunday olganda ular o'rtasida jiddiy farq yo'q. **Sensualizm** tarafdorlari bilish jarayonida sezgi hal qiluvchi rol o'ynaydi deb hisoblaydilar. **Empirizm** tarafdorlari esa bilishda hissiy tajriba asosiy o'rinni egallaydi, deydilar.

Bilishni tajriba, tafakkur va intuitsiya kabi asosiy qobiliyatlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mumkin. Aksariyat faylasuflar Kantga qadar tajriba va hissiyotni uyg'un holda ko'rganlariga qaramay, aslida ular bir-biridan farqlanadi. Tajriba bilishga o'ziga xos xususiyat berib, biluvchining noma'lum mohiyat bilan uchrashuvini anglatadi. Uning natijasida kashfiyotlar sodir bo'ladi. Inson faoliyatida takrorlanadigan tajriba tamaddunning negizini tashkil etadi.

Tajriba gnoseologiyaning maxsus muammosi sifatida hozirgi kunga qadar o'rganilib kelinmoqda. Tajriba inson borlig'ining muhim tavsifi sanaladi, gnoseologik jihatdan u tafakkur va intuitsiya bilan bir qatorda bilishga asos bo'luvchi qobiliyatdir. Intuitsiya o'z navbatida insonning voqea-hodisalar va ob'yektlarning ma'nosini insayt, ruhiy va botiniy ichki bilish vositasida tushunish, anglash va shakllantirishdir. Intuitsiya haqiqatni bilishda dalil va isbot talab qilmaydi. Tajribaning mohiyati sifatida insonning atrof-muhit bilan hech qanday vositasiz o'zaro ta'siri ishtirok etib, u insonning o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Empirizm mo'tadil va radikal shaklga ega. Mo'tadil empirizm tajribani bilishnig asosi sifatida ko'radi, bunda aqlning tabiatiga oid turli savollarga javob berib, odatda, tajriba va intuitsiya o'rtasidagi farqqa ko'p e'tibor qaratmaydi. Radikal empirizm tajribani yagona bilish manbai deb hisoblaydi. Ratsionalizm tajribaning ahamiyatini bilishning moddiy sharti sifatida inkor etmay, umumiy va zaruriyni aql yordamida bilish mumkin deb ta'kidlaydi. Ratsionalistlar tarafidan intuitsiya intellektual mushohada qilish deb tushuniladi. G'arb falsafasida empirizm inglizlar o'rtasida, ratsionalizm esa Yevropaning kontinental qismida keng tarqalgan.

Tajriba bu voqelikni amaliy jihatdan hissiy bilish jarayoni bo'lib, u malaka va ilmning birligidan iborat. Tajriba bilim, malaka va ko'nikmadir. Tajriba empirik bilim, empirika yoki insonning tashqi olam

bilan o'zaro munosabatga kirishish jarayonida, shuningdek, ichki kechinmalar jarayonida qo'lga kiritgan bilim va malakalarning yig'indisi, hissiy idrok etish hamda miya ruhiy faoliyatining butun jamlanmasidir. K.Yung[26] tajribaning bir qismini inson to'plab boshqalarga uzatadi, boshqa qismi ongsizlikka aloqador bo'lib, to'planadi, ammo uni bir odamdan ikkinchisiga berishning imkoni yo'q[1] deb aytadi.

Tajriba tushunchasi yuqorida zikr qilganimizdek, empirizm va ratsionalizm o'rtasidagi kurash asnosida rivojlangan. Radikal empiriklar tajribani haqiqatni bilishning yagona manbai desalar, radikal ratsionalistlar tajribani adashishlar manbai deb, uni to'liq inkor etganlar.

Falsafa tarixida tajriba to'g'risidagi fikrlar Qadimgi Gretsiya faylasuflarining qarashlarida o'z aksini topgan. Qadimgi yunon faylasuflarining tasavvuriga ko'ra, inson aqli xuddi ko'zlarimiz hissiy idrok etiladigan ob'yektlarni ko'rish va mushohada qilishga qodir bo'lganidek, umumiy qonunlar va g'oyalarni "ko'rish", "mushohada qilish"ga qodir.

Aytish joizki, aql yordamida umumiy g'oyalarni mushohada qilish haqidagi qarash materialist yunon faylasuflari, xususan, Demokritga xos bo'lib, u tabiatni tadqiq etish hissiy tajribaga tayanishi lozim[27] deb hisoblagan. Shu bilan birga u hissiy idrok etish haqiqiy bilimni bermasligini ham ta'kidlagan.

Antik ilm-fanda asosiy o'rinni Arastuning "birinchi boshlanishlar va tamoyillar" to'g'risidagi qarashlari asosidagi falsafiy tadqiqotlar egallagan bo'lib, uning tajriba haqidagi fikrlariga ko'ra "tajriba odamlarda xotira tufayli paydo bo'ladi; aynan bitta narsa to'g'risidagi ko'p xotiralar bitta tajriba ma'nosini anglatadi. Shuning uchun tajriba fan va san'at bilan bir xildek tuyuladi"[28]. Biroq, fan va san'at odamlarda tajriba orqali vujudga keladi. San'at esa egallangan fikrlar tajribasi asosida o'xshash predmetlarga bitta umumiy qarash shakllangan paytda paydo bo'ladi.

Arastu o'z fikrini davom ettirib, yozadi: "Xuddi shunday, masalan, Kalliy biror bir kasallikka chalinganida unga qandaydir vosita yordam berdi va u yana Suqrotga, shuningdek, ko'pchilikka yordam berdi deb hisoblasak, bu tajribaning ishi bo'ladi; bu vositaning qaysidir kasallikda

[26] Юнг К. Психология бессознательного. Москва: Канон, 2019. – С. 320.
[27] Маковельский А.О. Материалисты Древней Греции. Госиздат полит. литературы. Москва, 1955. – С.79.
[28] Аристотель. Метафизика. Перевод с греческого П.Д.Первова и В.В.Розанова. М.: Институт философии, теологии и истории св.Фомы, 2006. – С. 29.

barchaga nima bilandir va qandaydir tuzilishdagi odamlarga (masalan, zaif, loxas, kuchli bezgakka chalingan kishilarga) nimagadir yordam berishini aniqlash esa – bu san'atning ishidir"[29].

Arastuning nazdida, faoliyatga nisbatan tajriba san'atdan farq qilmaydi; hatto tajribaga ega bo'lganlar yuzaki ilmga ega bo'lgan, lekin tajribasiz odamlardan ko'ra muvaffaqiyatga ko'proq erishadilar. Buning sababini u tajriba yagonalik haqidagi bilim ekanligida deb biladi, san'at esa umumiylik bilimi deydi. Har qanday xatti-harakat va ijod esa yagonalikka taalluqli, deb hisoblaydi, chunki tabib umuman insonni emas, balki Suqrot, Kalliy yoki boshqa bir nomdagi kishini davolaydi. Shuning uchun, agar inson yuzaki bilimga ega bo'lsa-yu, tajribaga ega bo'lmasa va yagonalikni o'z ichiga olmagan umumiyni bilsa, bunday kishi tabobatda ko'p xato qiladi, chunki u yagonalikni davolashiga to'g'ri keladi, deb mulohaza qiladi faylasuf.

Ibn Sino tajriba ma'lumotlari bu ko'p marotaba kuzatishlar natijasida, xulosa chiqarish qobiliyati ishtirokida olingan mulohazalar, deb ta'kidlaydi. Tajriba yordamida olingan eng oddiy mulohazaga misol, bu tayoq bilan urilganda u og'riq berishi. Bu hech kimda shubha uyg'otmaydi va uning sabablarini izlashga hojat yo'q[30]. Ibn Sino fikricha, tajriba ma'lumotlari bilan intuitsiya ma'lumotlari o'xshash bo'lib, u ham xulosa chiqarishda ishtirok etadi, ya'ni inson Quyosh va Oydan chiqadigan yorug'likni kuzatish va taqqoslash natijasida, Oy nurni Quyoshdan oladi degan hukm chiqaradi.

Ibn Sino Arastuning sharhlovchisi va himoyachisi sifatida odamlarning mantiqiy xulosalarga ishonchi ularning hissiy idroki bilan bog'liq deydi. Odamlar birinchi navbatda o'zlarining hissiyotlari va hissiy tajribasiga ko'proq ishonadilar.

G'arb falsafasi namoyandalarining tajriba to'g'risida turli xil qarashlari mavjud bo'lib, ularni bir necha guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin. Radikal empirizm vakillaridan D.Yum, J.Berkli tajribaning asosida ob'yektiv reallik yotishini inkor etganlar. Ular tajribani sezgilar majmui, deb hisoblaganlar. Faylasuflar F. Bekon, T.Gobbs, J.Lokk, Didro va Gelvesiy esa tajriba manbai bu moddiy olam, deb uqtirishgan. Ratsionalizm oqimining vakillari Dekart, Spinoza, Leybnis fikriga ko'ra olamni bilishda tajriba ahamiyatsiz bo'lib, u aniq bilimga tayanmaydi. Shuning uchun ham nomukammal bo'lgan bilimlarni tizimlashtirish va

[29] Аристотель. Метафизика. М.: Институт философии, теологии и истории св.Фомы, 2006. –С. 30.
[30] Сагадеев А.В. Ибн-Сина (Авиценна). М.: Мысль, 1980. –С. 94-95.

umumlashtirish aqliy tafakkurga muhtojdir deyishadi. I.G.Fixte o'z o'zini bilishning maxsus tajribasini kashf etib, uni tavsiflaydi. F.V.Shelling tarixda mif va vahiy vositasida bilishning maxsus tajribasi to'g'risida fikr yuritadi. Nemis faylasufi Karl Yaspers nuqtai nazariga ko'ra, olamda inson borlig'ining o'lchamlarini belgilashda tajriba ekzistensiyaga, tafakkur kommunikatsiyaga, intuitsiya esa transsendensiyaga mos keladi.

Kantning ta'limotiga muvofiq, "narsa o'zida" hissiy a'zolar bilan o'zaro munosabatga kirishib, insonda turli xil hislar (u ilmning shaklidan ko'ra, uning mazmunini tashkil etadi) ko'p xilligini vujudga keltirib qolmay, odamdagi ichki qobiliyatlarni faollashtiradi. Bu qobiliyatlar esa insondagi bilimga predmetli, ya'ni qandaydir bir shaklga jo etilgan xarakterni bag'ishlaydi.

Ushbu aprior(tajribagacha), mazmunidan mustaqil bo'lgan har qanday bilish faolligining tajribasini qo'llash, vosita (instrumentlar) yordamida amalga oshiriladi. Kant uning sharti sifatida narsani tasavvur qilish va tushunchani aytadi. Insonlar mushohadaning aprior shakli yordamida sezgilar orqali olingan ma'lumotlarni sintez qilib, tasavvur orqali esa qat'iy tartibga soladi.

Gegel ham Kant singari apriorizm tarafdori sanaladi, biroq u kategoriyalarning tajribadan tashqarida bo'lishini inkor qiladi. Kant esa ularni tajriba ma'lumotlariga nisbatan qo'llagan edi. Gegelning fikriga ko'ra, mantiqiy kategoriyalar tajriba va umumlashtirish orqali alohida kuzatishlar asosida shakllanadi[31].

Ingliz faylasufi Jon Mill F.Bekonning induktiv metodini rivojlantirib, kuzatish va tajriba tushunchalarining dixotomiyasini kiritadi. Ma'lumki, induktiv usul bu xususiy fakt, fikr va mulohazalardan umumiy xulosa chiqarishdir. Mill kuzatishni shaklsiz, deskriptiv (tavsiflovchi) bilim deb, tajribaviy ekperimentga alohida e'tibor qaratadi. U eksperimentni kuzatishdan ko'ra kengroq deb ta'kidlaydi. Uning tabiat insonga taklif qilgan vaziyatlarda o'zgarishlarning ko'p miqdorini ishlab chiqarishdan tashqari minglab holatlarda kerakli bo'lgan o'zgarishni yaratishga imkon beradi[32] deydi. Bu o'zgarishlar esa ushbu hodisa qonuniyatini ochish uchun kerak bo'ladi.

[31] Ситковский Е. Философская энциклопедия Гегеля. М., "Мысль", 1974. –С. 27.
[32] Милль Дж. Ст.Система логики силлогистической и индуктивной. М.: «Ленанд», 2011. –С. 305.

XX asrda tajriba tushunchasi keng ma'no kasb eta boshlaydi. Fenomenologiyada tafakkurning o'zi tajribaning o'ziga xos turi deb tushinilgan. Fenomenologiya birinchi tajribaga murojaat etishni nazarda tutadi. Avstriyalik faylasuf E. Gusserl tajribani ongni bilish, ongni o'zini esa "transsendental Men" va "sof ma'no yaratish (intensionallik)"[33] deb ta'riflaydi.

Falsafiy jihatdan tasniflaganda tajribaning o'zini besh qismga bo'lish mumkin:

1. Jismoniy tajriba;
2. Emotsional tajriba;
3. Mental tajriba;
4. Ijtimoiy tajriba;
5. Diniy (mistik, ma'naviy) tajriba.

Jismoniy tajriba atrof-muhitdagi o'zgarishlar kuzatishga asoslanib, uning asosiy unsurlari tasavvur to'g'risidagi hissiyot va idrok hisoblanadi. Boshqacha aytganda, jismoniy tajriba tashqi olam ob'yektlarini kuzatish bilan cheklanadi. U narsalarning fizik xususiyatlarini bilishning hissiy shaklini ustuvor tafakkur jarayoni sifatida ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Fransuz faylasufi Eten Kondilyak mulohazasiga ko'ra, fanlar "boshida oddiy g'oyalardan iborat bo'lib, biz ularni hislar va fikr yordamida olamiz"[34]. J. Lokk ham tafakkurning barcha materiallari his va refleksiya vositasida olinadi[35], deb ta'kidlaydi.

Emotsional tajriba deganda yaxshi ko'rish va bu holatdan chiqish nazarda tutiladi. Nikohning institutsional me'yorlari bo'lmagan jamiyatlarda individlardagi sevib qolish emotsional tajribasini "yordamchini" tanlash ta'siri[36], deb atashlari mumkin.

Mental tajribaga aql va ongning jihatlari kiradi. Ular fikr birliklari, idrok, xotira, emotsiya, iroda va tasavvurlar jamlanmasida taraqqiy topib, barcha ongsiz bilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Mental tajriba miya faoliyati bilan bog'liq. Matematiklar o'z ishlaridagi ko'nikma va yondashuvlarda mental tajribani namoyon etadilar. Ular matematik shakllarni inson aqlining hosilasi emas, balki real mavjudlik deb qaraydilar.

[33] Гуссерль Э. Картезианские размышления. СПб.: Наука, 2001. –С. 50
[34] Кондильяк Э. Б. Сочинения в трёх томах. Т.I. АН СССР, Институт философии. М.: «Мысль», 1980. – С.286.
[35] Локк Дж. Сочинения в III тт. Т.1., Институт философии. М.: «Мысль», 1985. –С. 181.
[36] Kim, Jungsik; Elaine Hatfield. Love types and subjective well-being: a cross-cultural study // Social Behavior and Personality , 2004. –Vol. 32, no. 2. – P. 173-182.

Ijtimoiy tajriba rivoji jamiyatdagi hayot va ulg'ayishga ko'maklashadi[37]. U individga jamiyat hayotida ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni beradi, chunki jamiyat tajriba, urf-odatlar, qadriyatlar, ijtimoiy rollar va til almashinuvi orqali shakllanadi. Har bir ijtimoiy tajribaning rivojlanayotgan va tug'aayotgan tizimi o'z an'anasiga ega. Har bir an'ana ham o'z genezisi va taraqqiyotida ijtimoiy-madaniy jihatdan shartlashgan bo'lib, "u bo'lmagan joyda uni singdirish uchun ulkan urinishlar talab etiladi"[38].

Diniy (ma'naviy, mistik) tajribaning o'ziga xosligi kechinmalarning o'ta sub'yektivligi bilan bog'liq, buning oqibatida, bu tajribani translyatsiya qilib bo'lmaydi. Har bir diniy ta'limot o'z ergashuvchilarini bunday tajribani olish, sharhlash, anglash va baho berishga turli yo'llar bilan olib boradilar.

Falsafiy tahlil asnosida inson tajribasini shartli ravishda yetti turga ajratamiz. Tasniflashda biz falsafa fani uchun fundamental bo'lgan "inson va olam" tushunchasiga asoslandik. Inson tajribasi hayot jarayonida o'zgarishi va tranformatsiyaga uchrashi mumkin, shuningdek, har bir tur bir tajribadan boshqasiga o'tishda xizmat qiladi.

1. Odatiy yoki kundalik tajriba. Bu oddiy tajriba bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy, oilaviy va boshqa sharoitlarda kundalik madaniyatda shakllanadi. Bu tajribada inson "Meni" ego tarzida bo'lib, butun olam "men uchun" mavjud hisoblanadi. Inson kundagilik vazifalari va muammolarini o'z foydasiga hal qiladi hamda g'arazli maqsadlarni ko'zlaydi. Kundalik tajriba inson turmushini ko'pincha borliqni chetga suradi, so'ndiradi va almashtiradi. Bu insonni dunyo va o'zligidan begonalashishiga olib keladi. Ba'zi falsafiy qarashlarda kundalik tajribani ijobiy baholaydi, chunki inson hayotidagi muammolarni hal qilish o'ta individual hisoblanadi.

2. Ob'yektiv yoki gnoseologik tajriba. Bunda inson va olam o'rtasida predmetlar, instrumentlar (qurollar), ramzlar va boshqa narsalar vositasida aloqa hamda munosabatlar vujudga keladi. Inson – sub'yektning olam – ob'yektga nisbatan qarama-qarshiligi ko'zga tashlanadi.

3. Sub'yektiv, ichki - yoki ekspiriental tajriba. Ob'yektiv tajribadan farqli ravishda, unda inson "Meni" olamdan ayri, mustaqil va parallel holda mavjud bo'ladi. Inson o'z sub'yektiv, ichki voqeligini

[37] Стюарт М. Появление среднего класса: социальный опыт в американском городе, 1760-1900. Cambridge University Press, 1989. –С. 434.
[38] Поппер, К.Р. Предположения и опровержения: Рост научного знания. М.: «АСТ», 2008. – С. 210.

yaratadi, u muqobil va empirik hisoblanadi. Sub'yektiv tajribada inson mavjud olamga nisbatan bevosita borliq sifatida aloqasi bo'lmaydi.

4. Dialogik yoki kommunikatsion tajriba. Inson umri mobaynida tinimsiz ravishda o'zi bilan o'zi va olam bilan dialog olib boradi. Katta dialogda "Men" olam bilan teng muloqotga kirishadi. Bunda insonning olam bilan munosabati halok bo'lmaydi, ammo boshlang'ich vositasizlikni saqlab qoladi.

5. Ekzistensial tajriba. U insonning olamdagi tajribasi hisoblanadi. Bunda inson o'zining o'zligiga qaytadi va o'z "Meni"ni aynan olamda topadi. Bu insonning katta borliqqa o'zining egosi qafasidan chiqishi va yangi sifat kasb etgan holda mavjudligining boshlanishi hisoblanadi. Inson bilan munosabatda asosiy o'rinni olam egallab, keng ma'noda u butun olamni anglatadi. Shunday qilib, ekzistensial tajribada insonning olamga munosabati unga xos bo'lgan ochiqlik tufayli begona va texnologik hisoblanmaydi.

6. Mistik birlik tajribasi. Bunda inson "Meni" olam bilan uyg'un va barovar, olam esa Xudo bilan uyg'un bo'lib, binobarin, "Men" ham Xudo bilan uyg'un hisoblanadi. Bunda "Men" yo'qolib, to'liq butun olamga, Xudoga singib ketadi. Ba'zi zamonaviy tadqiqotchilar mistik Birlik va ontologik tajriba o'rtasida, xususan, ekzistensial tajriba o'rtasidagi farqni ajrata olmaydilar. Ular mistik tajribani "haqiqatning ekzistensial kechinmasi" deb ataydilar. Aslida bu ikki tajribada inson va olam birligining xarakteri bir-biridan farq qiladi.

7. Tasavvufiy tajriba. U shariat, tariqat va haqiqat tamoyillariga asoslanadi. Tariqat yo'liga kirgan solik ilohiy huzur va qurbatga diniy ahkomlarga amal qilish vositasida erishadi. Tasavvufiy tajriba diniy ilm, amal va holga asoslanadi. So'fiyning tajribasi Alloh huzuriga erishish, unda fano bo'lish – yo'qlikka ketish hisoblanadi.

Tasavvufiy tajribani aniq va ziddiyatli bo'lmagan mulohazalar yig'indisiga keltirishning imkoni yo'q. Zero, tasavvufiy tajriba aniq emas, balki emotsional mazmunga ega; uning o'quvchi yoki tinglovchiga ta'siri ko'p hollarda ularning sezilmas tasavvurlar o'rtasidagi bog'liqlikni ushlab olish qobiliyati va o'zining shaxsiy kechinmalari bilan bog'lash orqali aniqlanadi. Shuning uchun so'fiylar tasavvufiy kechinmalarni ko'pincha nazmiy shaklda berishga harakat qiladilar. Tasavvufiy tajriba verbalizatsiyani, ya'ni so'fiyning Alloh tomon tariqatda yurishini, ilohiy hadya bo'lgan bir holdan boshqa holga va bir maqomdan boshqa maqomga o'tishini tavsiflashni talab qiladi.

Tasavvufiy tajriba darhaqiqat, o'z asosida shaxsiy tajribani nazarda tutadi. So'fiylar yozgan asarlarda tasavvufiy tajribaga doir kechinmalarni sayri suluk – sayohat sifatida tasvirlaydilar.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning Me'rojga ko'tarilishi esa so'fiylar uchun tasavvufiy tajribaning namunasi bo'ldi. Me'roj hodisasi ko'pchilik avliyolarning tajribasida o'z aksini topdi. Boyazid Bistomiy qush misoli samoga ko'tarilgani va daraxtga o'tirib Xudo bilan suhbat qurganligini aytadi. Shayx Ro'zbehon avliyolarning tasavvufiy tajribasiga shubha qilganlar bilan bahsga kirishib, ularning payg'ambarlar vahiysi bilan mustahkam bog'langanligini ta'kidlagan: "Men qo'rqamanki, Muhammad (s.a.v.) xalqi munkirlikka tushib, halok bo'ladi. Kimki, solihlarning vahiylariga ishonmasa, u nabiy va rasullarning mo'jizalariga ham imon keltirmaydi. Zero, valiylik va nabiylik dengizi bir-biriga o'zaro quyilguvchidir"[39]. Ko'rinib turibdiki, avliyolar karomati ham tajribaning moddiy olamda, real voqelikda namoyon bo'lishi hisoblanadi.

Islomning birinchi asri davridagi ahl uz-zuhd sabr, ochlik (ju'), ma'rifat va shu kabi atamalarni axloqiy tarbiya usullari va tasavvufiy tajribani tavsiflash uchun qo'llaganlar. Ahli zuhddan bo'lgan Ibn Muborak (VIII asr) o'z tasavvufiy tajribasini shunday ifodalaydi: "Ma'rifat (Allohni tanish) biror bir narsaga hayratlanishdan voz kechishdir"[40]. Abu Tolib al-Makkiy tasavvufiy tajriba bevosita intuitiv bilish organi bo'lgan qalb yordamida mushohada qilish yo'li bilan hosil bo'ladi[41] deydi.

Haqiqat tushunchasi. Falsafiy ta'limotlarning asosiy tushunchalaridan biri haqiqatdir. Haqiqat – insonning bilish faoliyati mahsulidir, haqiqat inson ongida yashaydi. Har qanday bilishning maqsadi - bilinayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlar to'g'risida haqiqatni topishdan iboratdir.. "Haqiqat" nima? Bu savolga javob topish unchalik ham oson emas. Masalan, pragmatizm tarafdori (amerika falsafiy oqimi) bo'lgan V.Djems amaliy ahamiyatga ega bo'lgan narsa haqiqatdir deb faraz qiladi. Garchi, haqiqatning klassik konsepsiyasi keng tarqalgan va tan olingan bo'lib, unga binoan, ***haqiqat - bilimning voqelikka, o'z predmetiga mos kelishidir.*** Unday bo'lsa *yanglishish - bu*

[39] Карл В. Эрнст. Суфизм. М.: ФАИР-ПРЕСС, 2002. –С. 39.
[40] Насыров И. Р. Основания исламского мистицизма (генезис и эволюция). М.: Языки славянских культур, 2009. – С. 34.
[41] Насыров И. Р. Основания исламского мистицизма (генезис и эволюция). М.: Языки славянских культур, 2009. – С. 35.

yaratadi, u muqobil va empirik hisoblanadi. Sub'yektiv tajribada inson mavjud olamga nisbatan bevosita borliq sifatida aloqasi bo'lmaydi.

4. Dialogik yoki kommunikatsion tajriba. Inson umri mobaynida tinimsiz ravishda o'zi bilan o'zi va olam bilan dialog olib boradi. Katta dialogda "Men" olam bilan teng muloqotga kirishadi. Bunda insonning olam bilan munosabati halok bo'lmaydi, ammo boshlang'ich vositasizlikni saqlab qoladi.

5. Ekzistensial tajriba. U insonning olamdagi tajribasi hisoblanadi. Bunda inson o'zining o'zligiga qaytadi va o'z "Meni"ni aynan olamda topadi. Bu insonning katta borliqqa o'zining egosi qafasidan chiqishi va yangi sifat kasb etgan holda mavjudligining boshlanishi hisoblanadi. Inson bilan munosabatda asosiy o'rinni olam egallab, keng ma'noda u butun olamni anglatadi. Shunday qilib, ekzistensial tajribada insonning olamga munosabati unga xos bo'lgan ochiqlik tufayli begona va texnologik hisoblanmaydi.

6. Mistik birlik tajribasi. Bunda inson "Meni" olam bilan uyg'un va barovar, olam esa Xudo bilan uyg'un bo'lib, binobarin, "Men" ham Xudo bilan uyg'un hisoblanadi. Bunda "Men" yo'qolib, to'liq butun olamga, Xudoga singib ketadi. Ba'zi zamonaviy tadqiqotchilar mistik Birlik va ontologik tajriba o'rtasida, xususan, ekzistensial tajriba o'rtasidagi farqni ajrata olmaydilar. Ular mistik tajribani "haqiqatning ekzistensial kechinmasi" deb ataydilar. Aslida bu ikki tajribada inson va olam birligining xarakteri bir-biridan farq qiladi.

7. Tasavvufiy tajriba. U shariat, tariqat va haqiqat tamoyillariga asoslanadi. Tariqat yo'liga kirgan solik ilohiy huzur va qurbatga diniy ahkomlarga amal qilish vositasida erishadi. Tasavvufiy tajriba diniy ilm, amal va holga asoslanadi. So'fiyning tajribasi Alloh huzuriga erishish, unda fano bo'lish – yo'qlikka ketish hisoblanadi.

Tasavvufiy tajribani aniq va ziddiyatli bo'lmagan mulohazalar yig'indisiga keltirishning imkoni yo'q. Zero, tasavvufiy tajriba aniq emas, balki emotsional mazmunga ega; uning o'quvchi yoki tinglovchiga ta'siri ko'p hollarda ularning sezilmas tasavvurlar o'rtasidagi bog'liqlikni ushlab olish qobiliyati va o'zining shaxsiy kechinmalari bilan bog'lash orqali aniqlanadi. Shuning uchun so'fiylar tasavvufiy kechinmalarni ko'pincha nazmiy shaklda berishga harakat qiladilar. Tasavvufiy tajriba verbalizatsiyani, ya'ni so'fiyning Alloh tomon tariqatda yurishini, ilohiy hadya bo'lgan bir holdan boshqa holga va bir maqomdan boshqa maqomga o'tishini tavsiflashni talab qiladi.

Tasavvufiy tajriba darhaqiqat, o'z asosida shaxsiy tajribani nazarda tutadi. So'fiylar yozgan asarlarda tasavvufiy tajribaga doir kechinmalarni sayri suluk – sayohat sifatida tasvirlaydilar.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning Me'rojga ko'tarilishi esa so'fiylar uchun tasavvufiy tajribaning namunasi bo'ldi. Me'roj hodisasi ko'pchilik avliyolarning tajribasida o'z aksini topdi. Boyazid Bistomiy qush misoli samoga ko'tarilgani va daraxtga o'tirib Xudo bilan suhbat qurganligini aytadi. Shayx Ro'zbehon avliyolarning tasavvufiy tajribasiga shubha qilganlar bilan bahsga kirishib, ularning payg'ambarlar vahiysi bilan mustahkam bog'langanligini ta'kidlagan: "Men qo'rqamanki, Muhammad (s.a.v.) xalqi munkirlikka tushib, halok bo'ladi. Kimki, solihlarning vahiylariga ishonmasa, u nabiy va rasullarning mo'jizalariga ham imon keltirmaydi. Zero, valiylik va nabiylik dengizi bir-biriga o'zaro quyilguvchidir"[39]. Ko'rinib turibdiki, avliyolar karomati ham tajribaning moddiy olamda, real voqelikda namoyon bo'lishi hisoblanadi.

Islomning birinchi asri davridagi ahl uz-zuhd sabr, ochlik (ju'), ma'rifat va shu kabi atamalarni axloqiy tarbiya usullari va tasavvufiy tajribani tavsiflash uchun qo'llaganlar. Ahli zuhddan bo'lgan Ibn Muborak (VIII asr) o'z tasavvufiy tajribasini shunday ifodalaydi: "Ma'rifat (Allohni tanish) biror bir narsaga hayratlanishdan voz kechishdir"[40]. Abu Tolib al-Makkiy tasavvufiy tajriba bevosita intuitiv bilish organi bo'lgan qalb yordamida mushohada qilish yo'li bilan hosil bo'ladi[41] deydi.

Haqiqat tushunchasi. Falsafiy ta'limotlarning asosiy tushunchalaridan biri haqiqatdir. Haqiqat – insonning bilish faoliyati mahsulidir, haqiqat inson ongida yashaydi. Har qanday bilishning maqsadi - bilinayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlar to'g'risida haqiqatni topishdan iboratdir.. "Haqiqat" nima? Bu savolga javob topish unchalik ham oson emas. Masalan, pragmatizm tarafdori (amerika falsafiy oqimi) bo'lgan V.Djems amaliy ahamiyatga ega bo'lgan narsa haqiqatdir deb faraz qiladi. Garchi, haqiqatning klassik konsepsiyasi keng tarqalgan va tan olingan bo'lib, unga binoan, ***haqiqat - bilimning voqelikka, o'z predmetiga mos kelishidir.*** Unday bo'lsa *yanglishish - bu*

[39] Карл В. Эрнст. Суфизм. М.: ФАИР-ПРЕСС, 2002. –С. 39.
[40] Насыров И. Р. Основания исламского мистицизма (генезис и эволюция). М.: Языки славянских культур, 2009. – С. 34.
[41] Насыров И. Р. Основания исламского мистицизма (генезис и эволюция). М.: Языки славянских культур, 2009. – С. 35.

bilimning o 'z haqiqiy predmetiga mos kelmasligidir. Haqiqat ob'yektiv va sub'yektiv bo'ladi. Haqiqat ob'yektivligining darajasi va chegarasi mutlaq va nisbiy haqiqat tushunchasi orqali ifodalanadi.Ularning bir-biridan farqlarini ko'rib chiqamiz.

Mutlaq haqiqat - bu biron narsa to'g'risida har tomonlama to'liq, aniq, mukammal, kelgusida tuzatilmaydigan, to'ldirilmaydigan, tugallangan bilimlardir. Bunday bilim bo'lishi mumkinmi? Mutlaq haqiqatni bilish - dialektika qonuni bo'yicha kechadigan abadiy ma'naviy jarayonlardan biri hisoblanadi. Bir tomondan odamga dunyo to'g'risidagi bilimini kengaytirish va chuqurlashtirishga hech narsa to'sqinlik qilmaydi. Boshqa tomondan, odam dunyoni mutlaq bilish nuqtasiga yaqinlasha olmaydi, shunday ekan hamma vaqtda ham bilinmagani mavjud bo'ladi. Mutloq haqiqat (agar gap murakkab ob'yekt to'g'risida ketsa) - bu "gorizont" bo'lib u hamma vaqtda uzoqda turadi. Agar gap oddiy obyektlar yoki hodisalar to'g'risida ketsa - mutlaq haqiqatga to'la erishish mumkin. Masalan, morfologik normal odamning qo'lida barmoqlar soni to'g'risida mutlaq haqiqatni o'rnatish mumkin - ular beshta. Mutlaq haqiqat uning ob'yektivligi bilan to'liq mos keladi. Mutlaq haqiqat voqelikning aniq, to'liq in'ikosidir. U abadiy haqiqatdir. Mutlaq haqiqatga alohida faktlargina emas, balki fundamental ilmiy qonunlar, qoidalar ham misol bo'la oladi. Har qanday haqiqat ob'yektiv va mutlaq bo'lib, doimo nisbiydir. Shuning uchun har qanday ob'yekt yoki jarayonning tarkibiy xususiyati cheksiz murakkab bo'lganligi sababli, ularni hech qachon to'laligicha bilish mumkin emas. Bu bilishning cheksizligi, uning chegarasi va miqdori, me'yori yo'qligini bildiradi. Yangi nazariyalar eskilarini to'laligicha inkor etmaydi, balki, ularning qo'llanish sohasini chegaralaydi.

Nisbiy haqiqat -bu bizning borliqdagi predmet va hodisalar to'g'risidagi taxminan to'g'ri, lekin to'liq bo'lmagan bilish jarayonida tuzatilib, to'ldirilib borilishi lozim bo'lgan bilimlardir. Masalan, yer shar shaklida deyiladi. Nisbatan bu to'g'ri. Lekin, bunday deyish unchalik ham aniq emas. Agar aniqroq qilib aytganda yer planetasi - bu ellipsoid (yopiq, sirt), sal yalpoqli shardir.

Nisbiy haqiqat yanglishmi va yolg'onga oid qandaydir lahzalarni istisno qiladi, ya'ni hamma narsa o'z oti bilan aytiladigan bo'lsa, haqiqat bu haqiqat, xato va yolg'on esa doimo yolg'on va xatoligicha qolaveradi. Haqiqat barcha zamonlarda real hodisalarni adekvat aks ettiradigan haqiqatligicha qoladi. Demak, nisbiy haqiqat ham

yanglishishni va yolg'onni istisno qiluvchi ob'yektiv haqiqatdir.

Ilmiy haqiqat. Ilmiy haqiqatga erishish uchun muayyan ilmiy mezonlar qo'llaniladi. Ilmiy, haqiqatning barcha belgilari o'zaro bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Faqat sistemani tarzda, o'zining bir butunligida ular ilmiy haqiqatni ro'yobga chiqara oladi. Ana shu jihati bilan ilmiy haqiqat kundalik bilish, haqiqatidan yoki boshqa bilish shakllaridan farq qiladi.

Amaliy-kundalik bilish kundalik hayot tajribasiga asoslanadi, unchalik isbot talab qilmaydigan tamoyil, qat'iy talablarga javob bera olmaydigan ba'zi induktiv qoidalardan vujudga keladi. Ilmiy bilimning diskursivligi (mantiqiy asoslanganligi) tushunchasi esa xulosalarning qat'iy izchilligiga, aniq qoidalarga tayanadi, haqiqatga erishuvda ishonarli natijalarni shakllantiradi.

Ob'yektiv haqiqat - bu bilish subyektining xususiyatlariga bog'liq bo'lmagan ob'yektiv mavjud narsalar, voqea, hodisalar to'g'risidagi bilimlardir. Masalan, Yer Quyosh atrofida aylanadi. Bu ob'yektiv fakt. Odam bu to'g'rida biladimi - bilmaydimi, unga yoqadimi - yoqmaydimi - Yerning Quyosh atrofida aylanishi unga bog'liq bo'lmagan obyektiv haqiqat.

Sub'yektiv haqiqat - bilish sub'yektining xususiyatlariga bog'liq bo'lgan bilimlardir. U obyektiv haqiqatga mos kelishi yoki mos kelmasligi mumkin. Masalan, o'rta asr ilohiyotchilari yerni dunyoning markazi deb o'ylaganlar. Bu ulaming subyektiv nuqtai nazari (subyektiv haqiqat) edi. Uyg'onish davrining naturfaylasuflari N.Kopemik va Dj.Bruno yer dunyoning markazi emas va Quyosh atrofida aylanadi, deb faraz qildilar. Ularning subyektiv kosmologik qarashlari obyektiv haqiqatga mos keladi.

I.Kant bilish jarayonini, uning ayrim lahzalarini - hissiyotni, farosatni, aqlni batafsil tahlil qilib chiqqan. Bu analiz gnoseologiyaga qo'shilgan muhim hissa edi. Lekin, I.Kantning barcha nazariy bilish muhokamalarining yo'nalishi va umumiy xulosasi noto'g'ri. I.Kant bilishning murakkab va ziddiyatli olamini topgan-u, lekin uni real olam narsalaridan ajratib tashlagan. «...ular o'z- o'zligicha qandayligi to'g'risida biz hech nima bilmaymiz, - deb yozgan edi Kant, - biz faqat ularning zohirotlarini, ya'ni ular sezgi organlarimizga ta'sir qilib bizda hosil qiladigan tasavvurlarni bilamiz»[42].

[42] Кант. И. Сочинение. 4-том. 1-часть. - М.:Наука,1965. — С. 105.

Ong. Inson ongi murakkab va serqirra hodisadir. U to‘g‘risidagi tasavvurlar juda xilma-xil bo‘lib, ular kishilar bilimi va hayotiy tajribalarining turli-tumanligi bilan bog‘liq. Ongning serqirraliligi uni ko‘pgina fanlar uchun o‘rganish va tadqiqot ob’yekt bo‘lishi uchun asos bo‘lgan. Bunday fanlar qatorida falsafa, psixologiya, biofizika, informatika, kibernetika, yurisprudensiya, psixiatriya kabilar bor.

Maxsus dunyoqarash sifatidagi falsafiy bilish nazariyasi ongga beradigan ta’rifida falsafiy ontologiyaga ko‘proq tayanadi. Bu usul, afsuski, hozirgacha ongni tadqiq etayotgan falsafiy urinishlarni bir xulosaga birlashtira olmayotgan usulligicha qolmoqda. Shuning uchun ongga u yoki bu darajadagi mukammal boshlang‘ich ta’rif berilmay kelinmoqda. Lekin masalaning mohiyati umum- dunyoqarash ma’nosida olib qaralsa, shunga o‘xshash, hol gnoseologiyada ham mavjud.

Ongning bir necha falsafiy-gnoseologik konsepsiyalari mavjud hozir ong deganda, borliqni ruhiy aks ettirish, voqelikning ob’yektiv mazmunini sub’yektiv mazmunga aylantirish, shuningdek, uning turli bosqich va darajalarida bunday in’ikos ettirilishining o‘ziga xos sotsial-psixologik mexanizmlari, shakllari tushuniladi. Aynan ongga xos sub’yektiv dunyoda ob’yektiv reallikni aks ettirish va o‘zgartiruvchi amaliy faoliyatda fikriy tayyorgarlik, uni rejalashtirish, maqsad-muddaoni ishlab chiqish amalga oshiriladi. Ong deganda, oddiy ruhiy in’ikos emas, balki ijtimoiy rivojlangan inson tomonidan voqelikni ruhiy aks ettirishning oliy shakli tushuniladi. Ong ilgarigi tajriba yordamida to‘plangan taassurotlarni o‘zaro bog‘laydi, o‘zini atrof-muhitdan ajratib, ob’yektga sub’yekt sifatida qarama-qarshi qo‘yadi. Ong voqelikni emotsional baholash, maqsadga muvofiq faoliyatni ta’minlashdir. Shaxsiy xatti-harakatlarni aqlan fikriy qurishdan iborat, shaxsning atrofida va ayni paytda, o‘z ma’naviy dunyosida sodir bo‘layotgan hodisalar to‘g‘risida hisob berishidir. Ushbu ta’kidlangan ongga tegishli belgilardan uning quyidagi ta’rifi kelib chiqadi: ong faqat insongagina xos bo‘lgan, miyaning til va nutq yordamida voqelik aksini umumlashtiradigan, maqsadga muvofiq, konstruktiv va ijodiy namoyon bo‘ladigan oliy funksiyadir.



Ong-inson funksiyasi sifatida to‘rtta teng komponentdan iborat quyidagi holatda aks etishi mumkin:

1. Oddiy ma’naviy qobiliyatlar va ular asosida olinadigan bilim sohasi. Bunday qobiliyatlarga sezgi, idrok va aniq tasavvurlar kiradi. Inson ular yordamida tashqi dunyo o‘z vujudi hamda o‘zgalar bilan aloqasi to‘g‘risida dastlabki axborotni oladi. Ongning asosiy boshqaruvchisi - inson vujudi xatti- harakatlari, uni o‘rab olgan tabiiy va sotsial jismlar dunyosidagi foydalilik va maqsadga muvofiqlilik hisoblanadi.

2. Ongning mantiqiy-tushunchaviy komponentlari. Tafakkur yordamida inson bevosita, hissiy ma’lumotlardan ob’yektlarning mohiyatli darajalariga chiqadi; bu soha umumiy tushunchalar. tahliliy operatsiyalar va qag’iy mantiqiy dalillardan iborat. Mantiqiy-tushunchaviy ong sohasining asosiy maqsadi va tartibga soluvchisi haqiqat hisoblanadi. I va II komponentlar ongning tashqi bilish (yoki tashqi predmetli) qismini tashkil qilishga intiladi. «Men»ning funksional ahamiyati shundaki, unga normal sharoitlarda harakatga undash ustidan hukmronlik qilish huquqi berilgan. «U»ga nisbatan «Men» chavandozga o‘xshab ot kuchini jilovlab borishi kerak, ya’ni uni chavandozdek qayoqqa xohlasa, o‘sha tomonga boshlaydi. Xuddi shunga o‘xshash tarzda «Men»
«U»ning odatdagi xohishini, go‘yoki uning o’zi istagandek harakatga aylantiradi. Freyd «U»ning «Men»ga nisbatan mohiyatini bo‘rttirib yuborgan. Bunday bo‘rttirish ongsizlik va onglilik o‘rtasidagi munosabatini gnoseologik jihatidan ko’ra psixologik jihatiga, inson xatti-harakatlarining sabablari masalasiga ham ta’sir ko‘rsatali. Lekin bu holat. Freyd dunyoqarashi ongsizlikdan boshlanishini bo‘rttirishga tomon yo‘naltirilgan an’ananing ichki mohiyatini belgilaydi. Olimning asosiy qarashlariga qarama-qarshi bo‘lgan fikr “barcha ruhiy jarayonlar asosan ongsizlikdir”[43], degan fikrdir.

3. Freydning dunyoqarashini idealistik yoki materialistik, deb baholagandan ko‘ra, uni gnoseologiyaga, umuman fanga qay darajada hissa qo‘shganlngini hisobga olish, ya’ni e’tirof etish to‘g‘ri bo‘lar edi.

4. Freyd konsepsiyasi ongsizlikka urg‘u berish kuchaygan falsafiy an’analar Shopengauer, Gartman, Bergson va boshqalar ustuvorligi bilan belgilanadi.

[43] Фрейд З. «Лекции по введению в психоанализ». М.; П. 1423. с. 28

U birinchi bo‘lib ongsizlikning inson ruhiyatida tutgan o‘rnini asosli ravishda, eksperiment va klinik ma’lumotlar asosida ko‘rsatib berdi. Uning konsepsiyasini bugungi psixologiya ham, ilmiy falsafa ham aslo inkor eta olmaydi.

Nazorat savollari:

1. Bilish falsafasining ahamiyatini tushunirib bering ?
2. Gnoseologiya va epistemologiyani farqi nimada ?
3. Gnostik, agnostik va skeptiklar nazariyalarini sharhlab bering ?
4. Ratsionalizm nima va uning namoyondalari kimlar ?
5. Bilish turlarini sharhlab bering ?
6. Falsafada haqiqat masalasi to‘g‘risida gapirib bering ?
7. Ong va ongsizlik masalasidagi nazariyalarni tushuntiring ?
8. Intuitsiyaga amaliy misollar keltiring.

6-mavzu. Mantiq.

Reja:

1. *Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari.*
2. *Formal mantiqning predmeti va strukturasi.*
3. *Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalari.*
4. *Tushunchalar bilan bajariladigan mantiqiy amallar.*

Tayanch iboralar: *Mantiq, logika, tafakkur, tafakko'rning mantiqiy tarkibi, bilish, hissiy bilish, aqliy bilish, tafakkur shakllari, tafakkur qonunlari, formal mantiq, mantiqning boshqa fanlar bilan aloqasi, tushuncha, tushuncha va til, tushuncha turlari, tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar, tushunchalar bilan mantiqiy amallar.*

Mantiq qadimgi fanlardan bo‘lib, jamiyat tarixida ikki ming yildan ko‘proq davr mobaynida o‘rganib kelinadi. U insonga o‘z atrofidagi olamni o‘rganish, bilimlarini ko‘paytirish, boshqa insonlar bilan munosabatda bo‘lish kabi muhim vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Mantiq ilmi masalalari hozirda jamiyatimizda har tomonlama o‘rganilmoqda. Olimlarimizning qator tadqiqotlarida mantiq ilmining muhim vazifalari ishlab chiqilmoqda, uning boshqa fanlar tizimida tutgan o‘rni, ular bilan munosabati, hozirgi ilmiy-texnik va ijtimoiy taraqqiyot ta’sirida boyib borishi, ilmlar sohasiga ta’siri kabi masalalarda qator yangi xulosalar olg‘a surildi.

Olimlarning mantiq ilmi masalalarini yanada chuqur o‘rganishga bag‘ishlangan qator ilmiy tadqiqotlari bilan birga mantiqshunoslikka oid bir necha o‘quv qo‘llanmalar ham vujudga keldi.

Har bir fanni o‘rganishda biz hammadan oldin uning asosiy maqsadi, vazifalarini bilishga intilamiz. Mantiq- logika fani ham o‘zining aniq maqsadiga ega. Logika so‘zi grekcha - logike so‘zidan olingan bo‘lib, so‘z, fikr, aql ma’nolarini bildiradi. O‘rta Osiyo xalqlarida, umuman, Yaqin va O‘rta Sharq musulmon davlatlarida, logika mantiq atamasi bilan yuritiladi, u arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, so‘z, fikr, ma’no mazmunida ishlatiladi. Mantiq atamasi ikki xil ma’noda qo‘llaniladi.

Birinchidan, u narsa va hodisalar taraqqiyotidagi hodisalarning o‘zaro bog‘lanishini yoki tafakkur yordami bilan vujudga keladigan tushunchalar aloqasi va bog‘lanishini ifodalaydi.

Ikkinchidan, mantiq deb tafakkur qonunlari, shakllari va usullarini o'rganadigan fanga aytiladi. Ko'pincha adabiyotlarda «narsalar mantig'i», «voqealar mantig'i», «hayot mantig'i» kabi ifodalar uchraydi. Bunday vaqtlarda so'z ob'yektiv taraqqiyot, voqealar bog'lanishi, tartibining ichki zaruriyati haqida boradi. Agar so'z biror odamning nutqidagi mantiqning kuchi yoki, aksincha, uning muhokamasida mantiq yo'qligi haqida boradigan bo'lsa, u vaqtda so'z ichki zaruriy qonuniyatli bog'lanish, borliqdagi narsalar va hodisalar haqida emas, balki bizning buyumlar haqidagi muhokamamiz, mulohazamiz, fikrimiz haqida boradi.

Biz tafakkurimizdagi muhokama yordami bilan bir hukmdan ikkinchi hukm chiqarib, fikrda aks ettirilgan buyumlar va ularning munosabatini aniqlaymiz. Chunki ob'yektiv reallikdagi narsa va hodisalarning turli munosabati bizning muhokamamizda ham o'z ifodasini topadi. Masalan, hamma vaqt biz yilning to'rt fasli bor, qishdan so'ng bahor, bahordan so'ng yoz va yozdan so'ng kuz keladi, bir yil 12 oydan iborat va hamma vaqt kalendar yilning birinchi oyi yanvar va oxirgi oyi dekabr deb, o'z muhokamamizni ifodalaymiz.

Tafakkur ko'p ma'noli murakkab, shu bilan birga, bir butunni tashkil etadigan aqliy jarayondir. Mantiq deganda biz insonlarning kundalik faoliyati, munosabatlarida, tartibli, aniq, asosli, ya'ni mantiqiy fikr yuritishini tushunamiz. Masalan, suhbatda «Gapingizda mantiq bormi?», «Ahmad mulohazasidagi mantiq kuchli» deyilganda shunday ma'nolarda ishlatiladi. Shu bilan birga mantiqiy to'g'ri fikr yuritishni o'rganuvchi maxsus fan, ilm tarmog'i ham logika
- mantiq atamasi bilan ifodalanadi. Shu ma'noda mantiq inson tafakkurining shakllari va qonun-qoidalari haqidagi fandir.

Mantiqiy an'analar Xitoy, Hindiston, Yunoniston va dunyoning boshqa mamlakatlarida bir-biriga bog'liq bo'lmagan tarzda yuzaga keladi. Qadimgi Xitoy mutafakkirlari mantiqdagi tasnif va uning buyumlarga bo'lgan munosabatini aniqlashga urindilar.

Fan tarixida o'z uslubi va fikrlash strukturasini o'rganish jihatidan bir- biridan farq qiluvchi ikki xil mantiqiy sistema - hind mantig'i va qadimgi yunon mantig'i ma'lum. Birinchi mantiq sistemasi Xitoy, Yaponiya, Mo'g'uliston, Koreya, Indoneziya mamlakatlarida keng tarqaldi va rivojlandi. Qadimgi Yunonis- tonda vujudga kelgan mantiq fani asosida hozir bizga ma'lum bo'lgan formal, umumiy logika fani shakllandi.

Hind falsafasida mantiqiy bilimlarning rivojlanishi miloddan oldingi VI-V asrlarga to'g'ri keladi.Hindistonda mantiq ilmining rivojlanishini qadimgi va feodalizm davridagi mantiqqa ajratish mumkin. Milloddan avvalgi IV asrdan boshlab tafakkur tuzilishi haqida turli fikrlar hosil bo'ldi. Millodning boshlariga kelib, II-IV asrlarda charvak, vaysheshika, nyaya, lokayata kabi materialistik xarakterdagi falsafiy maktablar vujudga kelishi bilan mantiq ilmi mustaqil fan sifatida shakllandi. Bu jihatdan- Hind faylasuflari Dignaga (VI), Dxarmakirti (VII), Dxarmottari (IX) va Ratnakirti (X) larning asarlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Dignaga mantiqiy bilimlarni boshqa falsafiy bilimlardan mustaqil holda ajratib, uni ma'lum sistema sifatida ishlab chiqdi. «Bilish manbalari haqida» asarida u mantiqiy shakllar, xususan xulosa chiqarishni keng talqin etdi. Hindistonda VII asrning mashhur faylasufi va mantiqshunosi sifatida Dignaganing shogirdi **Dxarmakirti** nom qozondi. U mantiqqa oid «Mantiq tomchilari» (o'quv darsligi), «Mantiqiy asos to'g'risida qisqacha darslik», «Mantiqiy aloqalar haqida tadqiqotlar», «Bilimning haqiqiyligi to'g'risida» kabi yettita kitob yozib qoldirdi. Dxarmakirtidan so'ng ham bir necha asr davomida hind mantig'i rivojlandi va qo'shni mamlakatlarda falsafiy bilimlarning rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Hind mantig'ining muhim xislati fikrlash shakllarini bevosita konkret mazmun bilan bog'langan holda tahlil etish bo'ldi. Hind mantig'i uchun xususan besh qismdan tashkil topgan sillogizm haqidagi, umumiy asosni konkret misol bilan bog'lab berish to'g'risidagi ta'limot xosdir. Bundan tashqari, hind mantig'ida hukm fikrning mustaqil shakli sifatida berilmasdan xulosa chiqarishning elementi sifatida bayon etiladi. Undan tashqari, idrok fikrlashning boshlang'ich shakli sifatida foydalaniladi. Bu jihatdan **hind mantiqiy** -sistemani matematik aksiomalar bilan bog'liq bo'lgan qadimgi Yunon mantiq ilmidan farq qiladi.

Milloddan oldingi V-IV asrlarda Yunonistonda qadimgi Sharq - Vaviloniya, Misr, Kichik Osiyoda vujudga kelgan matematik bilimlarning ta'sirida mustaqil ravishda mantiq ilmi shakllana boshladi. Xususan, yunon materialist faylasufi **Demokrit** (mil. avval. 460-370yy) o'z asarlarida «logos» terminini umuman dunyoning va bilishning asosi sifatida keng qo'llab, tafakkurning shakllariga - induksiya, analogiya, tushuncha kabilarga to'xtab o'tdi.

Tafakkur va uning shakllanishini idealistik talqin etish jihatidan **Suqrot** (mil. avval. 469-309yy), va **Aflotun** (mil. avval. 428-347yy) ta'limotlari xarakterlidir. Suqrot turli mantiqiy usullar va mantiqiy vositalar haqidagi fikrlarini og'zaki bayon etgan bo'lsa, Aflotun «Fedon», «Teotet», «Permenid»,
«Sofist» kabi dialoglarida turli mantiqiy shakllar, masalan, tushuncha, hukm, ayrim mantiqiy usullar to'g'risida qator fikrlarni bayon etib, mantiqiy bilimlarni boyitdi. Xususan, Aflotun o'z dialoglarida tushuncha, uni ta'riflash va taqsimlash, hukmning tasdiq va inkor shakllari ustida to'xtaydi.

Bu vazifani buyuk yunon faylasufi **Arastu** (mil. avval; 384-322y) bajardi. Arastu tafakkurning mantiqiy shakli va qonuniyatlari haqidagi ilmni analitika - xulosa chiqarish va apadeptika- isbotlash deb atadi. Arastu mantig'i- bu xulosa chiqarish nazariyasidir. Xulosa chiqarish aksiomatik prinsipga asoslanadi va bu jihatdan Arastuning mantiq ta'limoti matematik kategoriyalar va usullarni falsafiy umumlashtirish natijasida vujudga kelgan. Lekin shu bilan birga Arastu tafakkurning boshqa shakl, qonuniyatlari va usullari to'g'risida ham maxsus asarlar yaratdi. Umuman, Arastu turli falsafiy masalalarga oid ko'p asarlar yozib qoldirdi. Uning shogirdlari mantiqqa oid asarlarini to'plab va sistemaga solib «Organon» nomini berdilar. «Organon» Arastuning bevosita tafakkur shakllari to'g'risidagi bilimlarni bayon etuvchi 6 asarini o'z ichiga oladi. Bulardan «Kategoriya» asarida tushunchalar, ularning turlari, asosi, eng umumiy ilmiy tushuncha - kategoriyalar ularning ilmiy qiymati kabilar bayon etiladi. «Talqin haqida» deb nomlanuvchi ikkinchi asar hukmlar haqidagi ta'limotni, ularning tuzilishi, turlari, ahamiyati, fikrlash jarayonida tutgan o'rni kabi masalalarni o'z ichiga oladi. «Birinchi analitika» asarida mantiqiy tafakkurning eng muhim shakli - xulosa chiqarish, uning elementlari, turli usul va xillari kabi juda ko'p masalalar bayon etilgan. «Ikkinchi analitika» asarida xulosa chiqarish bilan bog'liq bo'lgan falsafiy isbotlash nazariyasi, isbotlashning asoslari, tuzilishi, turlari, xarakteri, alohida-alohida ahamiyati kabi qator masalalar izchil yoritilgandir.

"Topika" kitobi fikrlash jarayonida foydalaniladigan turli mantiqiy kategoriyalar, usullar, yo'l-yo'riqlarni tahlil etishga bag'ishlangan. «Sofistik raddiyalar haqida» asarida Arastu fikrlash, muhokama jarayonida vujudga keladigan turli noto'g'ri xulosalar, ularning sabablari; turlari, zarari va ularni aniqlash va to'g'rilash yo'llari

haqida fikr yuritadi. Arastuning «Organonga kiritilmagan boshqa asarlari ham, ayniqsa, uch kitobdan iborat «Jon to'g'risida», «Fizika», «Ritorika» mantiq ilmining turli masalalariga oid fikrlarga boydir.

Arastuning eng muhim falsafiy asari - «Metafizika»da ham mantiqning asosiy masalalari-qonunlari xususida fikr yuritiladi. Arastu kashf etgan va izohlab bergan tafakkurning 3 ta mantiqiy qonuni mavjud: Ular ayniyat qonuni, qarama- qarshilik qonuni va istisno qonunlaridir.

Stoya maktabi vakillari - Zenon, Xrisipp, Ariston, Posidoniy va boshqalar tafakkurning shakl va qonunlarini o'rganuvchi fanni birinchi bo'lib «Mantiq», deb atadilar. Ma'lumki, Arastu bu ilmni «Analitika» nomi bilan yuritgan edi. Stoya maktabi Arastu merosini o'zlashtirgan holda o'zlarining mantiqiy qarashlarida asosan materialistik tendensiyalarni rivojlantirdi.

Mantiq ilmi ular talqinida falsafaning birinchi qismi bo'lib, etika, fizika kabi qismlari bilan bog'liq va inson axloqini saqlash uchun xizmat qiladi. Umuman stoyachilar mantiqni ritorika, tilshunoslik, grammatika fanlari bilan bog'lab talqin etdilar va bu jihatdan tafakkur va nutq birligini o'rganishga hissa qo'shdilar.

Stoya falsafiy maktabi milloddan avvalgi IV asrdan tortib millodning II asriga qadar davom etdi va ma'lum o'zgarishga uchradi. Mantiq ilmiga nisbatan munosabat ham o'zgarib bordi.

Stoya mantiqshunosligi ikki qismdan iborat edi: biri dialektika (ya'ni munozara, bahslashuv san'ati) hamda ritorika. Dialektikaning o'zi ikki qismdan - grammatika va bilish nazariyasidan iborat edi. Shunga ko'ra mantiq ilmi belgilar va ularni ifodalovchi fikr haqidagi fan sifatida talqin etilar edi. Shunday qilib, Stoya maktabi mantiq ilmining belgilar nazariyasini asos qilib olgan edilar, ular mantiqiy munosabatlarni belgilar munosabati orqali tahlil qildilar.

Bilish va uning asosiy bosqichlari. Bilim, fan, insonning aqliy qudrati, uning tabiat sirlarini ochib, tabiiy hodisalarni o'ziga bo'ysundirishi, jamiyatni o'zgartirishi, ijodiy yaratuvchilik faoliyati insonning bilish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir.

Sezgilar orqali bilish. Sezgilar yordamida bilish-bilishning birinchi, boshlang'ich pog'onasini tashkil qiladi. Sezgilar, idrok, tasavvur orqali bilish - sezgilarimizga bevosita ta'sir etgan tashqi konkret predmetlar yoki ular xossalarining obrazlar shaklida ongimizda aks etishidir.

Insonni tashqi reallik bilan bog‘lovchi, undagi predmet va hodisalar to‘g‘risida tasavvur hosil qiluvchi sezgilar asosan besh turlidir: ko‘rish, eshitish, ta’m- maza sezish, hid sezish, teri sezgisi. Sezishning boshqa turlari esa shu asosiy besh sezgidan kelib chiqadi yoki ularni to‘ldiradi. Biz hissiy bilishning muhim va boshlang‘ich shakli - sezish ustida to‘xtab o‘tdik.

Idrok sezishga nisbatan ancha murakkab bo‘lib, u sezish asosida vujudga keladi. Idrokning sezishdan farqi shundaki, unda predmetlarning ayrim xossalari emas, balki predmet butun holda aks etadi. Boshqacha qilib aytganda, predmetning yaxlit obrazi vujudga keladi. Hissiy bilishning yana bir shakli **tasavvur**dir. Tashqi ta’sir natijasida vujudga kelgan nerv va miya qobig‘ining ma’lum qismidagi qo‘zg‘alish - sezish, idrok-ma’lum davrgacha o‘z izini qoldiradi. Demak, tasavvur predmetlarning miyada qolgan obrazlarining tiklanishi, obrazli xotira, obrazlarda eslashdir.

Aqliy bilish va tafakkur. Insonning bilish jarayoni, yuqorida aytilganidek, boshlang‘ich bilish, sezgilar bilangina cheklanmaydi. Hissiy bilish, sezgilar inson bilishining quyi bosqichini tashkil etadi, bu bosqich asosida ijtimoiy mehnat jarayonida ikkinchi yuqori bosqich - aqliy bilish, tafakkur paydo bo‘ladi. Sezgilar orqali ob’yektiv reallikdan olingan «materiallar»ni qayta ishlash, ularning munosabatlari, ichki xususiyatlarini aniqlash, muhim va asosiy tomonlarini nomuhimlaridan ajratib olish, ularning qonuniyatlarini ochish aqliy bilish va tafakkurda amalga oshiriladi.

Insonga xos bo‘lgan barcha ruhiy xususiyatlar ham ijtimoiy mehnat, ijtimoiy ishlab chiqarish bilan bog‘liqdir. Nutq, tafakkur, fikrlash qobiliyati ham mehnatning natijasidir. Tafakkur, fikr yuritish - sog‘lom inson miyasining faoliyati, ajralmas xususiyati, yashash shaklidir. Fikr yuritish qobiliyati barcha sog‘lom insonlarga xosdir.

Mavhum tafakkur voqelikni vositali aks ettirishdir. Voqelikni tafakkur orqali bilishda sezgilar vosita halqasidir. Biz sezgilar yordamida olingan mahsulotni o‘z ongimizda ishlab chiqib, narsa va hodisalarning o‘zaro bog‘lanishi va taraqqiyot qonunlarini ochamiz. Masalan, inson bevosita kuzatish natijasida suv yoki havoning trubkadagi bo‘shliqda yoki havo nasosi ichida qanday tezlik bilan joy olishini ko‘rib, tafakkur yordami bilan bu hodisa mohiyati va sababini, ya’ni atmosfera bosimini ocha oldi.

Bevosita idrokda jamiyat tarixi turli tasodifiy hodisalar yigindisidek, turli faoliyatlarning tartibsiz to‘qnashuvidek ko‘rinadi. Aslida esa bu hodisalar ijtimoiy taraqqiyotga xos bo‘lgan ichki qonuniyatlarning ifodalanishi, zaruriyatning tasodiflar orqali yuzaga chiqishidir.

Bizning tafakkurimiz sezgi, idrok va tasavvurdan o‘zining qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?

Birinchidan, tafakkur sezgi organlariga nisbatan narsalar va hodisalarni ancha chuqur ochib, biz bevosita sezmagan va seza olmagan hodisalar, jarayonlar, ularning xossalarini bilishga imkon beradi.

Ikkinchidan, tafakkur sezgilarga nisbatan voqelikni umumiyroq aks ettirib, narsa va hodisalarning mushtarak xossalarini ifodalash bilan ular orasidagi doimiy munosabat va aloqalarni aniqlaydi.

Uchinchidan, sezgilar yordami bilan biz ayrim narsa, hodisalar va ular orasidagi oddiy munosabatlarnigina bilamiz. Tafakkur esa narsa va hodisalarning o‘zaro umumiy bog‘lanishi, taraqqiyot qonunlari, ularning umumiy va muhim xossalari haqida bilim beradi. Biz turli-tuman hodisalarni, masalan, ba’zi jismlarning suvda suzishi, havo shari yoki pechka tutunining osmonga ko‘tarilishini idrok etamiz.

Tafakkur yordami bilan voqelikning umumiy tomonlarini aks ettirish orqali biz yakka, konkret predmetlar mohiyatini ham bilib olamiz. Tafakkur orqali biror narsani bilish uchun avvalo u haqida tushuncha hosil qilish zarur. Ongimizda predmet haqida tushuncha hosil qilishda umumiy qonun yoki umumiy tushuncha- dan foydalaniladi. Masalan, suv molekulasi vodorod va kislorod atomlaridan iborat bo‘lgan murakkab kimyoviy modda ekanligini bilamiz. Bu o‘rinda “murakkab kimyoviy modda”, “vodorod” va boshqa shu kabi tushunchalardan foydalanib, hodisani umumiy qonunlarga moslashtiramiz. Shunday qilib, hamma vaqt mavhum fikrlash bosqichi ayrim hodisalarni kuzatish orqali hodisalardagi umumiy holatni ochadi va unga tayanib, yakka holatlarni tushuntiradi. Bu holat bilish jarayonining yakkadan umumiyga va umumiydan yakkaga qarab boradigan uzluksiz harakatdan iborat ekanligini bildiradi.

Tafakkur va til. Tafakkurning muhim xususiyati uning til bilan uzviy bog‘langanligidir. Biz til elementlari yordamida ongimizda ob’yektiv voqelikdagi narsa va hodisalar mohiyati hamda qonunlarini aks ettiramiz. Til yordamida shakl, mazmun, qism, materiya, harakat va shunga o‘xshash mavhum tushunchalarni yaratamiz. Bu mavhum

tushunchalar yordamida buyumlarga xos bo‘lgan bir necha umumiy va muhim belgilar ajratiladi. Tafakkur va tilning muhim xislati ularning aniq maqsadli faoliyatlar ekanligidir.

Tushuncha ma’lum predmetlar, hodisalar xususiyatlarining umumiy va muhim belgilarini yaxlit holda ifodalaydi. Masalan: “jonivor”, “inson”, “mustaqillik” va boshqalar. Tushuncha yakka predmetni ham ifodalashi mumkin – “Toshkent”, “O’zbekiston Respublikasi” va boshqalar.

Hukm predmet, hodisa yoki xislatlar o‘rtasidagi aloqa, munosabat, bog‘lanish jarayonini ifodalaydi, masalan, “inson – jonivordir”, “chinor – daraxtdir”, “uran-kimyoviy elementdir” kabilar. Hukm bir buyum to‘g‘risidagi tasdiq yoki inkor shaklida kelgan fikrdir.

Xulosalar yoki xulosa chiqarish ikkidan ortiq predmetlar o‘rtasidagi bog‘lanish, munosabatlarni ifodalaydi. Xulosa yangi bilimni vujudga keltirishning muhim va asosiy usuli hisoblanadi. Chunonchi «Inson jonivordir, hech qanday jonivor ovqatsiz yashay olmaydi. Demak, inson ham ovqatsiz yashay olmaydi» yoki «Mehnat baxt keltiradi; ilm-mehnat bilan qo‘lga kiritiladi. Biz tafakkur yordami bilan ongimiz mazmunining chin yoki xatoligini tekshiramiz. Buning uchun ong mazmunini voqelik bilan solishtirib ko‘rish lozim. Agar voqelikni aks ettirgan tafakkur hayotga zid bo‘lmasa, u chin tafakkur bo‘la oladi. Bulardan tashqari, inson tafakkuri voqelikni vositali bilishga yordam beradi. Masalan, inson ko‘ziga ko‘rinmaydigan tirik mavjudot olamini yoki atom va uning tarkibiy qismlarini bevosita ko‘rmay turib, undagi holatlarni vositali bila boshlaydi.

Inson o‘zining o‘tmish tajribalari natijalariga asoslanib, narsa va hodisalarni vositali bilishdan xolis bo‘ladi. Bu esa uning hamma vaqt xulosa chiqarishiga va undan foydalanishiga yordam beradi. Inson tafakkurining yana bir xislati uning yangi muammolar qo‘yish qobiliyatiga ega bo‘lishidir. Bu bilan inson buyumlarning o‘zaro bog‘lanishidagi muhim, hali ochilmagan mohiyatlarini gipoteza - faraz yo‘li bilan kashf etishga intiladi. Shuning uchun voqelik, undagi doimiy taraqqiyot va murakkab qarama-qarshilikni bilish, muammolar qo‘yish mavhum fikrning muhim holatlaridandir.

Har bir chin fikr muayyan mazmun va shaklga ega bo‘lib, tafakkur qonunlariga itoat etadi. Fikrlar tuzilishi, ularning bog‘lanishi, munosabatlarining ifodasi tafakkur shaklini tashkil etadi. Tafakkur mazmuni konkret fikr- tushunchada ifodalangan bilimdan tashkil topadi.

Birinchidan, tafakkur shakli va mazmuni o‘zaro uzviy bog‘langan. Shuning uchun ham har bir fikr bir vaqtda ham mazmunga, ham mantiqiy shaklga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, har bir fikr til atamalari va so‘zlar orqali ifodalanadi. Aksincha, agar bu tushunchani aniq bilmasak va boshqa tushunchalardan ajrata olmasak, uni yaxshi talqin etolmaymiz.

Bunday holat inson tafakkurining boshqa shakllarida ham bo‘ladi. Hukm mazmuni turlicha bo‘lishiga qaramay, ular bog‘lanish, umumiylik, bir xillikka ega bo‘ladi. Shuning uchun hukm shakli haqida gap boradigan bo‘lsa, biz diqqatimizni uning konkret mazmunidan chetlashtiramiz. Misol uchun, «butun insoniyat - tinchlik tarafdori», «hamma metallar - elektr toki o‘tkazuvchilar», «hamma o‘simliklar - organizmlar» desak, bular har xil mazmunga ega bo‘lgan hukmlar bo‘ladi. Ammo bu uch xil mazmunga ega bo‘lgan hukmlar bir xil shaklda. Ularning bir xilligi hukmlarning hammasi tasdiqlovchi hukm ekanligidan bilinadi.

Mantiqda mantiqiy shakl bayon etilgan tasdiq hukmlar quyidagi sxemada ifodalanadi: “Hamma -S- R dir”. S sxemadagi hukmning mantiqiy sub’yektini, R esa hukmning mantiqiy predikatini ifodalaydi.

Shuning uchun mantiqiy shakl mazmuni jihatidan turlicha bo‘lgan juda ko‘p umumiy fikrlar uchun bir xildir. Mantiqiy fikrlar shakli ifoda etiladigan fikr tarkibiga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Misol uchun quyidagi ikki hukmni olib ko‘raylik:

Birinchi hukm: “Agar talaba mehnatsevar va intizomli bo‘lsa, u hurmatga sazovor bo‘ladi”.

Ikkinchi hukm: “Agar sim orqali elektr toki o‘tsa, sim atrofida magnit maydoni paydo bo‘ladi”.

Bu ikki hukmning mantiqiy shakli yuqorida bayon etilgan hukmlar shaklidan farq qilmoqda. Yuqorida ifoda etilgan uch hukm “hamma” so‘zi bilan boshlanib, S uchun R ning katta xizmati borligidan darak berayotgan bo‘lsa, pastda ifoda etilayotgan ikki hukm “agar” so‘zi bilan boshlanib, S bilan R orasidagi munosabatda qandaydir bir shart borligidan darak bermoqda. Shu bilan birga, bu ikki hukm bir shakldagi mantiqiy fikrni tashkil etmoqda.

Bayon etilgan shartli hukmlar shakli mantiqda quyidagi sxema bo‘yicha ifodalanadi:

“Agar S-R bo‘lsa, unda S -P dir”.

Bunday formula fikrning rasmiy (formal) mazmunini tashkil etadi. Fikrning bunday munosabatdagi xislati maxsus ahamiyatga ega bo'lgani uchun mantiqiy munosabat yoki mantiqiy aloqa deb aytiladi.

Shakl fikrlarning umumiy belgisi bo'lib, o'zining konkret mazmuni bilan ajraladi. Masalan, hukmda ma'lum mantiqiy munosabat tasdiq yoki inkor shak- lida bo'lib, turli fikrlar mazmunini ochib beradi.

Bayon etilgan mulohazalarga asoslanib, tafakkur shakli muayyan tipdagi buyumlar munosabatini aks ettiruvchi mantiqiy usul deb aytish mumkin.

Tafakkur qonunlari chin bilimga erishish maqsadiga xizmat qiladigan to'g'ri fikrlashning aniq normalaridir. Tafakkur qonunlari ayrim kishilar to- monidan o'ylab topilgan emas, balki inson tafakkuriga xos bo'lib, u inson ongida ob'yektiv voqelikning ayrim xislatlari va tomonlarini aks ettiradi. Agar inson tafakkurning mantiqiy qonunlaridan to'gri foydalanmasa, uning xulosasi chin bo'la olmaydi.

Tafakkur mazmuni narsa va hodisalarning belgilarini, tafakkur shakli esa narsa va hodisalarning bu belgilarining mavjudlik yo'llarini aks ettiradi.

Boshqacha qilib aytganda, tafakkur mazmuni buyumlarni, uning mantiqiy shakli esa buyumlarning mavjudlik yo'llarini aks ettiradi.

Tafakkur mazmuni hamma vaqt rivojlanadi, boyiydi va chuqurlashadi. Shuning uchun ham tafakkur mazmuni hammadan ko'proq ixcham va harakatchan bo'ladi, u hech vaqt bir joyda qotib qolmaydi.

Amaliyot - inson bilishining boshlanishi, asosi, mezoni va yakunidir. Inson olamni, tabiatni va jamiyatni o'zgartirish uchun ularni o'rganadi va biladi. Uning bilimi amaliy faoliyat, ijtimoiy rivojlanish uchun xizmat qilsagina foydalidir.

Mantiq mustaqil fan sifatida tafakkurning tabiiy, zaruriy qonunlari, shakllari, fikrlash usullarini o'rganadi. Umumiy mantiq tafakkurni hech qachon har taraflama o'rgana olmaydi. Lekin bundan tafakkurning shakllari uning kon- kret mazmunidan ajralgan holda mavjud, degan fikr mutlaqo kelib chiqmaydi. Tafakkur shakllarini uning mazmunidan ajratib qo'yish fikrni ob'yektiv dunyodan ajratib qo'yishga olib keladi. Shakl va mazmun o'rtasidagi bog'lanishni dialektika, ilmiy bilish nazariyasi yordamida to'g'ri tahlil etish mumkin. Shaklsiz mazmun, mazmunsiz shakl bo'lmaganidek, tafakkurning shakllari uning mazmunini ifodalash vositasidir.

Mantiqni yaxshi bilish ayniqsa yuridik sohada xizmat qiluvchilar uchun nihoyatda zarurdir. Ayblov, oqlov, suddagi savol-javob kabilarning natijalari avvalo faktlar bilan birga mantiq kuchini, dalilning ishonarli bo'lishini, fikrning asosli, isbotli, ziddiyatsiz bo'lishini talab etadi.

Belgi boshqa bir predmetning vakili vazifasini bajaruvchi hamda u haqda ma'lum bir xabarlar berishi, uni saqlash, qayta ishlash va uzatishga imkoniyat yaratuvchi moddiy predmetdir. Har qanday belgi ham til belgisi bo'la olmaydi. Tilga aloqasi bo'lmagan belgilar qatoriga nusxa - belgilar (masalan, fotografiya kartochkasi, barmoq izi va shu kabilar), indeks - belgilar yoki ko'rsatuvchi belgilar (masalan, badan haroratining ko'tarilishi - kasallik belgisi, tutun- olovning belgisi va shu kabilar) kiradi. Til belgisi simvol - ramzlar shaklida mavjud bo'lib, o'zi ifoda qiladigan predmetlar bilan tuzilishiga ko'ra hech qanday o'xshashlikka ega emas. Mantiq o'z e'tiborini ana shunday til belgilarini o'rganishga qaratadi.

Belgilarning vazifasini o'rganishga Arastu, Leybnis kabi mutafakkirlar katta e'-tibor berganlar. Belgilar haqidagi ta'limotni taraqqiy ettirish XIX asrda dolzarb masalaga aylangan. Mana shu davrda amerikalik faylasuf Charlz Pirs (1839-1914) belgilar hadidagi fan- semiotikaga asos solgan. Bu fan til belgisini uch xil yo'nalish bo'yicha tahlil qiladi. Birinchisini, **semantika** tashkil qilib, bu belgi bilan u ifoda qilayotgan ob'yekt o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Ikkinchisi, **pragmatika** bo'lib, u kishilarning belgilarga munosabatini hamda belgilar yordamida kishilar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni o'rganadi. Uchinchisi **sintaksis** deyilib, u belgilar o'rtasidagi munosabatlarni (tilni qurish qoidalarini) o'rganadi. Mantiq fanini ko'proq til belgilarining semantikasi qiziqtiradi.

Tabiiy va sun'iy til.Tilning ikkita turi mavjud. Ular tabiiy va sun'iy tillardir. **Tabiiy** yoki **milliy tillar** tarixan shakllangan tovushlar (nutq) va grafika (yozuv)ning axborot belgilari sistemasidan iborat. Tabiiy tilning alohida olingan har qanday belgisi o'z holicha hech narsani ifoda qilmaydi.

Sun'iy til. Sun'iy tillar hozirgi zamon fani va texnikasida keng qo'llaniladi. Ularning, ayniqsa matematika, fizika, kimyo, kibernetika, hisoblash texnikasi va shu, kabi sohalar rivojlanishida hissasi katta. Sun'iy tillarning ishlatilishiga misol qilib matematikadagi to'g'ri burchakli uchburchak tomonlarini ifoda qiluvchi $Cos^2a + Sin^2a = 1$

formulani, kimyodagi suvni ifoda qiluvchi N_2O formulani, mexanikadagi tezlikni ifoda qiluvchi V= - formulani va shu kabilarni ko'rsatish mumkin. Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar tuzishda esa maxsus algoritmik tillar yaratiladi. Ular «Algol-60», «Algol-65», «Fortran», «Kobol», «Pl-1», «Assembler», «Beysik» va boshqalardan iborat.

Umumiy mantiq o'zining, maxsus ilmiy, formallashgan tiliga ega. U inson tafakkurining tuzilishini aniq va ravshan holda ifoda qilish uchun yaratilgan. Buning mohiyatini tushunish uchun formallashtirishning o'zi nima ekanligini aniqlab olish zarur.

Formallashtirish konkret mazmunga ega bo'lgash fikrlarni simvollar bilan almashtirish, ya'ni propozitsional funksiya hosil qilish, formulalar kiritish, mantiqiy qoidalarni yaratish orqali tafakkurning strukturasini ifoda qilish demakdir. Tafakkurning strukturasi bilan mantiqning tilda ifoda qilinishi strukturasi o'rtasida o'zaro muvofiqlik mavjud, ya'ni har bir konkret fikr strukturasiga ma'lum bir til strukturasi muvofiq keladi. Buni proporsional funksiya hosil qilish misolida ko'rishimiz mumkin. «Toshkent –O'zbekistonning poytaxti» degan fikrdagi «Toshkent tushunchasini - S, «O'zbekistonning poytaxti» tushunchasini R bilan almashtirsak, S-R[44] ko'rinishiga ega bo'lgan propozisitonal funksiya hosil bo'ladi. Propozitsional funksiya o'zgaruvchi qiymatga ega ifoda bo'lib, bu qiymat argument bilan almashtirilganda konret mazmunli fikr hosil bo'ladi.

Tilning semantik kategoriyalari. Tafakkurning mantiqiy shaklini o'rganishda semantik kategoriyalar muhim ahamiyatga ega. Semantik kategoriyalar til ifodalarining sinflaridan iborat bo'lib, ular bir-biridan qanday ob'yektlarni aks ettirishi bilan farq qiladilar. Gap hukmni, savolni va normani (buyruqni) ifoda qilishi mumkin. Hukmni ifoda qiluvchi gap predmetga birorta belgining (xossa yoki munosabatning) xosligini tasdiqlaydi yoki inkor qiladi. U darak gapdan iborat.

Mantiqiy atamalar (mantiqiy konstantalar) doimiy mantiqiy qiymatga ega bo'lib, gapda deskriptiv atamalarni bog'lashda ishlatiladi. Ular o'zbek tilida

«va», «ham», «hamda», «yoki», «yoxud», «barcha», «hech bir», «ba'zi»,

«emas» kabi so'zlar orqali ifodalanadi va turli xil (oddiy va murakkab)

[44] S va R lotincha Sybiektum va Praedicalum suzlarining bosh harflari; ular yordamida tafakkur shakllaridan biri bulgan hukmning strukturasi ifoda qilinadi.

hukmlar, mulo- hazalarni hosil qiluvchi elementlar hisoblanadi. Masalan, «hech bir tovar qiymatsiz emas» degan fikrda «hech bir», «emas» mantiqiy atamalar bo'lib, ularsiz deskriptiv atamalarni - «tovar», «qiymat» so'zlarini bog'lab bo'lmaydi.

Hukmlar (mulohazalar) mantig'i hukmlarning ichki tuzilishini o'rganishdan chetlashib, ularning o'zaro mantiqiy aloqasini hisobga olgan holda muhokama qilish jarayonini tahlil qiladigan formallashgan mantiqiy sistemadir. Hukmlar mantig'i tili alifboni, ifodalar ta'riflari va ularning talqin qilinishini o'z ichiga oladi.

Predikatlar mantig'i - muhokama jarayonini hukmlarning ichki tuzilishini hisobga olgan holda o'rganuvchi formallashgan mantiqiy sistemadir. Predikatlar mantig'i alifbosi hukmlar mantig'i alifbosiga yangi simvollar qo'shish orqali hosil qilinadi.

Mantiq qonunlari. Qonun deganda, avvalo, ob'yektiv reallikning muhim tomoni haqida gap boradi. Yuridik qonunlar qonunshunos olimlar ijodiy faoliyatining mahsuli, u jamiyatda tartibni saqlab turish va davlatning siyosatini himoya qilish uchun ma'lum ijtimoiy- iqtisodiy tuzum taqozosida hukumat qarori bilan ta'sis etiladi va fuqarolarning jamiyatdagi xatti-harakatini boshqarib turish va ularning huquqini, majburiyatini aniqlab berish uchun qabul etiladi. Ular turli sharoitlar va davrlarda, turli davlatlarning ijtimoiy-siyosiy tuzumida turlicha bo'ladi. Bu huquqiy qonunlar davlatning kelib chiqishi, qonun ta'sis etuvchi organlarning vujudga kelishi bilan kelib chiqadi.

Fan qonunlarida, ilmiy qonunlarda o'z ifodasini topgan tabiat va jamiyatning ob'yektiv qonunlari davlatning, sharoitning o'zgarishi bilan o'zgarmaydi ham, yo'q bo'lmaydi ham. Chunki ularning ob'yektiv mavjudligi shundaki, biz ularni bilamizmi-yo'qmi, baribir u hodisalar munosabatida amal qilaveradi. Turli fanlarni o'rganish bilan, masalan, butun olam tortilish qonuni, planetalar harakati qonuni va o'simliklarning o'sish qonunlarini bilib olamiz. Lekin bizning ularni bilish yoki bilmasligimizdan qat'i nazar, planetalar o'z qonuniga binoan harakat qilaveradi, o'simliklar o'saveradi, qish, bahor, yoz o'zgaraveradi va hokazo.

Tabiat, jamiyat qonunlarining ob'yektivligi shundaki, ularni odamlar yo'qota olmaydilar ham, o'zgartirib yarata olmaydilar ham. Bu qonunlarning bizga foyda yoki zararidan qat'i nazar, ular real hodisalar munosabatlarida mavjud bo'lib turaveradilar.

Agar bu qonunlarning talablari nazarga olinmasa va ularga zid holda ish olib borilsa, unda inson o‘z faoliyati, kundalik hayotida to‘siqlarga yo‘liqadi, mag‘lubiyatga duchor bo‘ladi. Chunki ob’yektiv qonunlar insonlarni o‘z talabiga bo‘ysunishga majbur etadi. Masalan, inson Yerning tortish qonuni bilan o‘z faoliyati davomida hamisha hisoblashmog‘i zarur, aks holda bu qonunga zid qilingan har qanday ish mag‘lubiyatga uchraydi.

Qonun narsa va hodisalar o‘rtasidagi ob’yektiv, muhim, zaruriy, eng umumiy, takrorlanuvchi, qat’iy, nisbiy o‘zgarmas, bir xil bog‘lanishlarni ifoda- laydi. Dunyodagi barcha tabiiy, ijtimoiy, ma’naviy va ruhiy hodisalar ma’lum qonunlar asosida mavjud va o‘zgarib boradi. Bu ob’yektiv qonunlar mavjudligi shart-sharoitga qarab inson uchun yo ijobiy, yoki salbiy natijalarga olib keladi. Agarda inson faoliyati shu qonunlarning talabiga mos holda amalga oshirilsa, u ijobiy natija beradi, agarda inson faoliyati shu qonunga zid holda amalga oshirilsa, u ijobiy natija emas, aksincha salbiy natijalarga olib keladi. Bu esa ob’yektiv qonunlarni to‘g‘ri bilish, aks ettirishga hamda ulardan nazariy va amaliy faoliyatda to‘g‘ri foydalanishga bog‘liqdir.

Boshqa qonunlar singari mantiqiy qonunlar o‘z sohasining - mantiqiy fikrlashning to‘g‘ri amalga oshishini ta’minlab turadi. Ularni buzish, almashtirish, o‘zgartirish, yangilash mumkin emas. Aks holda to‘g‘ri tafakkurning mavjudligi yo‘qoladi. Tafakkur qonunlari birinchi ko‘rinishda shaxslarga xos qonunlardek bo‘lib tuyuladi.

Tafakkur, fikr yuritish, insonga, inson miyasiga xos bo‘lgan tabiiy xususiyatdir. Inson mavjud ekan uning miyasi salomat va sog‘lom ishlar ekan, u tafakkur etadi. Demak, tafakkur insonlarga xos bo‘lgan tabiiy xislat, tabiiy jarayon ekan, uning qonunlari ham tafakkurning tabiiy qonunlaridir. Bu jihatdan mantiqiy qonunlar grammatik qonunlarga o‘xshab ketadi.

Grammatikaning qonun-qoidalari bir-birini tushunib olishni, to‘g‘ri so‘zlashny" ta’minlovchi til esa nutq qonun-qoidalarini ifodalaydi. Til va nutq inson uchun hamda inson miyasi uchuy tabiiy xislat, jarayondir.

Asosiy mantiqiy qonunlar esa mantiqiy tafakkurning barcha shakllariga, elementlariga xos bo‘lgan, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan aniqlik, izchillik, isbotlilik xislatlarini ifodalaydi. Bu xislatlar to‘rt asosiy mantiqiy qonun orqali ifodalanadi. Ular ayniyat qonuni, ziddiyat qonuni, istisno qonuni hamda yetarli asos qonunidir:

Ayniyat qonuni. Ob’yektiv borliqdagi buyumlarning ana shunday nisbiy barqarorligi, muayyanligi bizning tafakkurimizda ayniyat qonuni shaklida aks etib qolgan bo‘lib, bu qonun ma’lum narsalar haqida fikr yuritgan chog‘imizda, u bizning fikrlarimizni muayyan va doimiy bo‘lishini ifodalaydi

«Lekin ular bir-birlari bilan aralashib, qo‘shilishib ketmasdan, o‘z muayyan mazmunini saqlab qoladi. Fikrning bunday muayyan va aniq bo‘lishi mantiqda ayniyat qonunida ifoda etiladi. Bu qonunga binoan ma’lum muhokama, bahs, munozarada har bir fikr aynan bir ma’noda ishlatilmog‘i lozim. Fikr ma’lum muhokamada o‘z ma’nosini aynan saqlab qoladi, ya’ni u o‘ziga aynandir. Buning formulasi A-A yoki A-bu A dir. Bunda A har qanday fikrni ifodalaydi. Bu qonundan muhokama jarayonida turli fikrlarni aralashtirib yubormaslik, bir ma’- nodagi fikrni boshqa ma’noda qo‘llamaslik zarurligi haqidagi talab kelib chiqadi. Masalan, «uch» so‘zi raqamni («3») ham, bir predmetning uchini (boshlanishi, ya’ni qalamning uchi) ifodalaydi. Suhbatda yoki muhokamada «uch» so‘zini ham raqam ma’nosida, ham ikkinchi ma’noda ishlatish chalkashliklarga, tushunmov- chilikka olib kelishi muqarrardir.

Ziddiyat qonuni. Aynanlik, muayyanlik hislati predmetlar o‘rtasidagi o‘zaro tafovut xislatini (o‘zgarish va rivojlanishning uzluksizligiga qaramay), muayyan ma’lum sharoit va bog‘lanishda predmetlarning bir-biridan farqli o‘laroq, alohida-alohida mavjudligi xislatini vujudga keltiradi. Bir predmetning bir vaqtning o‘zida ikki zid xislatga ega bo‘lishini, ya’ni bir vaqtda, bir sharoitda ham «oq», ham «qora» bo‘lishini yoki bir samolyotning bir vaqtning o‘zida ham uchib yurganini, ham yerda qo‘nib turganini inson o‘z hayotida hech qachon uchratmagan. Bir vaqtning o‘zida bir predmetga ikki xil xislatning xos bo‘lmasligi va bu jihatdan predmetlarning bog‘lanishi ma’lum izchillik asosida mavjudligi tafakkurda ham aks etib, fikrlar bog‘lanishidagi izchillik xususiyati shaklida o‘rnashib qolgandir. Ya’ni, agar bu narsaning o‘zi ayni bir sharoitning va ayni bir vaqtning o‘zida ma’lum bir xususiyatiga birdaniga ham ega bo‘lishi, ham ega bo‘lmasligi mumkin emas ekan, bas, to‘g‘ri tafakkurda ham xuddi bir ma’noda olingan masala yuzasidan bir-biriga qarama-qarshi ikki hukmni aytish, ya’ni ziddiyatga yo‘l qo‘yish mumkin emas.

Bu xususiyat mantiqning ziddiyat qonunida va uning talablarida ifodalanadi. Bu qonunga binoan bir buyum haqida aytilgan ikki qarama-qarshi fikr ayni bir vaqtning o'zida va ayni bir nisbatda birdaniga chin bulishi mumkin emas. Mantiqda qo'llaniladigan belgilar yordamida bu qonunning formulasi A.A. dir (ya'ni A va A emas, bir vaqtning o'zida to'g'ri.) Bu yerda A hukmni bildiradi. A hukmi birinchi hukmni inkor etuvchi hukmni ifodalaydi. Fikrlar o'rtasidagi bunday bog'lanishni ifodalovchi mantiqiy qonunning nomi ziddiyat qonuni deb atalsa-da, u aslida ziddiyatga yo'l qo'ymaslikni talab etuvchi, fikriy ziddiyatning oldini olishga qaratilgan qonundir.

To'g'ri tafakkur bir vaqtning o'zida, bir ma'noda bir-birini inkor etuvchi fikrlarga asoslana olmaydi. Mantiqiy tafakkurda ziddiyatning bo'lmasligini noto'g'ri talqin etish, metafizik tushunish ob'yektiv reallikning muhim xislati bo'lmish dialektik qarama- qarshilikni inkor etishga olib keladi. Real hayot ziddiyatlari, ya'ni dialektik ziddiyat bilan mantiqiy tafakkurdagi ziddiyatni bir- biridan keskin farq qilish, ularni almashtirib yubormaslik kerak.

To'g'ri fikrlarning ziddiyatsiz bo'lishi ma'lum shart-sharoitni taqozo etadi. Bir vaqtning o'zida, bir masalaga nisbatan bir ma'noda ikki zid fikrning to'g'ri bo'lishi mumkin emas. Lekin turli ma'noda yoki turli vaqtda turli nisbatda ikki zid fikrning mavjud bo'lishi hamda ular to'g'ri bo'lishi mumkin. Chunki predmet, hodisa vaqt o'zgarishi bilan o'zgaradi, hatto u qarama-qarshi xususiyatlarga ega bo'lishi ham mumkin. U turli vaqtlarda turli xususiyatni qabul qiladi.

Masalan: Orol dendizining suvi ko'p (30 yil avval). Orolning suvi oz (hozirgi kunda). Bu hukmlar ham to'g'ri, haqiqatdir, chunki ular turli nisbatda, turli vaqtga nisbatan kelayotir. Yoki:

Iskandar yosh dam.

Iskandar qari odam.

Bu hukmlar ham bir vaqtning o'zida to'g'ri bo'lishi mumkin, agarda Iskandar nomi bilan ikki shaxs tushunilsa yoki Iskandarning 20 yoshlik chog'i va 65 yoshlik chog'i haqida gap borsa. Bunday holda ikki hukm o'rtasida ziddiyat yo'q.

Ziddiyat qonuni zaruriy shart-sharoitlar mavjud bo'lsa, ikki zid hukmdan birining chinligidan ikkinchisining yolg'onligi namoyon bo'lishinigina qayd qiladi. Tafakkur rivojlanishida, inson bilimining o'sib borishida turli sharoit turli nisbatda qarama-qarshi fikrlarning ishlatilishi va to'g'ri bo'lishi, ob'yektiv reallikni aks ettirishi tabiiydir.

Uchunchisi istisno qonuni. Uchinchisi istisno qonuni mantiqiy ziddiyat qonuni bilan uzviy bog'liq. U vujudga kelgan ikki imkoniyatdan birinigina tanlash mumkinligini ifodalaydi.

Bu qonun asosida ob'yektiv reallikdagi predmet, hodisalar o'rtasidagi farq va tafovut, predmetlarning bir-biridan mustaqil holda mavjudligi yotadi. Bu tafovut reallikda turli shaklda uchraydi, bir-biriga zid ikki holat, ya'ni bir-birini inkor etuvchi ikki imkoniyat shaklida mavjud bo'lsa, bunday holat tafakkurda uchinchisi istisno qonuni shaklida ifodalanadi. Masalan, qo'limizdagi qog'oz hozirda yoki oq, yoki oq emas,- uchinchi holatning mavjudligi mumkin emas. Uyimizning oldidagi daraxt yoki qarag'ay, yoki qarag'ay emas, o'rtancha imkoniyat mavjud emas. Shuningdek, bugun yomg'ir yog'adi yoki yog'maydi. Eshikdan kirib kelgan odam yoki ayol, yoki ayol emas, erkak.

Uchinchisi istisno qonunining ifodalanishi quyidagicha: bir-biriga zid bo'lgan hukmdan biri hamisha chin bo'lib, ikkinchisi xatodir, uchinchisining bo'lishi mumkin emas. Bu formulani aniqroq va to'laroq qilib ifodalaganda u quyidagi shaklga kiradi. Bir predmet haqidagi ikki zid fikr bir vaqtning o'zida va bir nisbatda birdaniga chin ham, xato ham bo'la olmaydi, biri chin bo'lsa, ikkinchisi yolg'on bo'ladi, uchinchi imkoniyat mavjud emasdir.

Yetarli asos qonuni. Chin fikrlashning aniq, muayyan, izchil, ziddiyatsiz bo'lishligi yuqorida ko'rib o'tilgan mantiqiy qonunlarda ifodalangan bo'lsa, uning isbotli, ishonarli bo'lishlik xususiyati yetarli asos qonuni, deb nomlangan mantiqiy qonunda o'z ifodasini topgandir.

Bu qonunning talabi bo'yicha tafakkur jarayonida har bir chin fikr yetarli asosga ega bo'lmog'i zarur, ya'ni har bir fikr, mulohaza, muhokamaning chinligi boshqa chinligi isbotlangan fikr yordami bilan asoslab berilmog'i kerak. Bu yerda gap fikrning mantiqiy jihatdan asoslab berilishida, uning mantiqiy isbotga ega bo'lishi haqida boradi, chunki mantiqan boshqa bir fikrdan keltirib chiqarilmagan, u bilan isbotlab berilmagan fikrni umuman chin deb atash, mantiqli deb tavsiflash noto'g'ridir. Demak, yetarli asos qonunida mantiqli tafakkurning eng muhim xislatlaridan bulmish fikrlarning umumiy izchillik, qator fikrlarning birin-ketin ma'lum va muayyan tartibda bog'lanib kelish xususiyati ushbu mantiqiy qonunning muhim talabidir. Demak, yetarli asos qonuni avvalgi ko'rib o'tilgan mantiqiy qonunlarga so'zsiz amal qilishni nazarda tutadi.

Albatta, bayon etiladigan fikrni turli yo‘l bilan isbotlab berish mumkin. Masalan, bahor keldi, daryo ko‘pirib oqmoqda, samolyot uchmoqda, xonada ikki deraza bor kabi hukmlar maxsus isbot talab etmaydi, ularni oddiy ko‘rsatish bilan ifodalash yetarlidir. Ular mantiqiy asosni, isbotni talab etmaydi, ularni oddiy kuzatish, ko‘z bilan ko‘rish orqali ishonch hosil etish mumkin. Shuningdek, «2x2 = 4», «butun o‘z bo‘lagidan katta» kabi hukmlarni ham maxsus isbotlash talab etilmaydi, chunki bunday hukmlarning chinligiga hamma maxsus isbotsiz ishonaveradi. Bunday hukmlar fanda aksiomalar nomi bilan ma’lum bo‘lib, isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Ularning chinligi inson tajribasida million-million marta sinab ko‘rilgan.

Suv sovuq; metall elektr tokini o‘tkazadi kabi hukmlarning chinligi bevosita tajribada sinab ko‘rilib, eksperiment yordamida isbotlanib, asoslab beriladi.

Lekin fanda, insonning kundalik tafakkur tajribasida juda ko‘p uchraydigan fikrlar mavjudki, ularning chinligi avvaldan isbotlangan boshqa bir fikr bilan isbotlanadi. Masalan: Temir elektr tokini o‘tkazadi, chunki temir metalldir. Har bir metall elektr tokini o’tkazadi. Temirning elektr tokini o‘tkazishini eksperiment bilan isbotlash ham mumkin, mantiqiy yo‘l bilan, ya’ni boshqa chin hukm yordamida-«hamma metallarning elektr tokini o‘tkazishi» haqidagi fikr yordamida isbotlash ham mumkin.

Demak, biz hayotda o‘z fikrimizni har doim ham dalillarga murojaat etish yoki har safar tajriba o‘tkazish bilan isbotlavermaymiz va bundan tashqari, faktlarga bevosita murojaat qilish hamma vaqt ham mumkin bo‘lavermaydi. Chunonchi, organik hayotning bundan bir yarim, ikki milliard yil ilgari paydo bo‘lganligi to‘grisidagi fikrning chinligini tasdiqlamoq uchun hayotning yuzaga kelishidagi eng birinchi faktni ko‘rsatish mumkin emas. Shuningdek, fikrning chinligini tasdiqlamoq uchun har safar bevosita faktni ko‘rsata berishga hech qanday zaruriyat ham yo‘q. Insonning tabiat qonunlarini bilishdan maqsadi tajribada uchragan har bir ayrim voqeaga ko‘r-ko‘rona osilib olishdan iborat emasdir. Inson ayrim buyumlarni yanada yaxshiroq bilish va bu yakka-yakka buyumlar haqidagi fikrlarni mantiqiy jihatdan isbotlash uchun, yuqorida ko‘rsatilganidek, umumiylashgan fikrlardan foydalanadi. Masalan, temir, mis, alyuminiy kabilarning elektr tokini o‘tkazishini isbotlash uchun barcha metallarning elektr tokini o‘tkazishi haqida konkret holdagi umumiy fikrni bili- shimiz kifoyadir.

Nazorat savollari:

1. Mantiq so’zini kelib chiqishini tushuntiring ?
2. Yunon mantig’i va Hind mantig’ini solishtiring ?
3. Tabiiy va sun’iy tillarni sharhlab bering ?
4. Tilning semantik kategoriyalari nima ?
5. Mantiqiy atamalar (mantiqiy konstantalar)ga misol keltiring ?
6. Hukmlar (mulohazalar) mantig‘i, ularning ichki tuzilishini ta’riflarini keltiring ?
7. Predikatlar mantig‘i - muhokama jarayonini hukmlarning ichki tuzilishini asoslang ?
8. Ayniyat qonuni, Ziddiyat qonuni, Istisno qonuni hamda Yetarli asos qonunlarini sharhlang ?

7-mavzu. Tafakkur shakllari. Tushuncha, hukm va xulosa.

Reja:

1. *Tushunchalar bilan bajariladigan mantiqiy amallar.*
2. *Tushunchalarning shakllanishi va qo'llanishi.*
3. *Tushunchaning ta'rifi, tuzilishi va turlari.*
4. *Mulohaza (hukm) va xulosa chiqarishning tarkibiy qismi sifatida.*

Tayanch iboralar: *Tushuncha, hukm, xulosa, deduksiya, induksiya, analogiya, raddiya, agrument, formal mantiq, bayon, taqqoslanadigan tushunchalar, hajm, predikat, mantiq fanining ob'ekti, predmeti, tafakkurning mantiqiy tarkibi, bilish bosqichlari, mantiqning boshqa fanlar bilan aloqasi, formal mantiqning asosiy qonunlari, tafakkurning asosiy shakllari va ular orasida tushunchaning o'rni.*

Tushuncha. Buyumlarning umumiy va muhim belgilarini inson ongida yaxlit aks ettiruvchi tafakkur shakli tushuncha deb ataladi. Tushuncha fikrning ob'yektiv dunyodagi narsa va hodisalarning umumiy va muhim belgilarini aks ettiruvchi shaklidir.

Tushuncha insonning oddiy bilish shakllari - sezish, idrok va tasavvurdan farq qiladi. Sezish buyumlardagi ayrim sifatlar (rang, ta'm, hid va boshqalar) ning inson ongidagi aksidir, idrok esa buyumlarning inson ongida to'la yaxlit holda in'ikos etishidir. Shuning uchun idrok sezishga nisbatan inson psixik faoliyatining murakkabroq holatidir. Masalan, biz mo'ridan chiqayotgan tutunni ko'rayotganda, bu hodisaning ko'p hislatlarini: tutunning rangini va tutun zarralarining harakatini, buruqsib chiqayotgan tutunning quyuqligini va qaysi tomonga ketayotgayligini, uning qancha baland ko'tarilganlngini va shu kabilarni idrok qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ammo inson tutunni ko'rishi bilan darrov boshqa narsani ham, ya'ni «demak, pechkada yoki o'choqda o't yoqilyapti», deb o'ylaydi.

Haqiqatda esa, ko'rish organi faqat mo'ridan chiqayotgan tutunni bildiradi va uning ko'zga ko'rinadigan ba'zi tashqi belgilarini aks ettiradi, xolos. Boshqa sezgi organlari bu hodisani aks ettirishda mutlaqo qatnashmaydi. Sezgi bilan idrok bu holatda bevosita bog'langandir. Demak, inson pechkada yoki o'choqda yoqilgan o'tni boshqa faktlar vositasida bildi. Buning asosiy sababi tutun bilan o't orasidagi bog'lanish va munosabat borligini anglab olishdir.

Idrok etilgan narsalar haqidagi bilim asosida tasavvur paydo bo'ladi. Ya'ni, idrok etilgan narsalarning obrazi ongda birdan yo'q bo'lib ketmaydi, ma'lum iz qoldiradi, xotiraga yoziladi. Ma'lum sabab bilan yoki inson o'z xohishi bilan eslab qolgan narsalar obrazini yana ko'z oldida tiklashi mumkin - bu tasavvurdir.

Tushuncha buyumlarning yakka belgilaridan uzoqlashadi va bir-biriga o'xshash ko'p narsalar va hodisalarning umumiy tomonlarini ongimizda aks ettiradi. Agar biz qo'l soatiga qarasak, bu bizning idrokimiz bo'ladi. Soatni ko'zga ko'rinmaydigan joyga qo'ysak, uning obrazi bizning xotiramizda qoladi. Bu - tasavvur qilishdir.

Tushuncha belgilari. Buyumlarning ikki xil belgilarini aniqlash mumkin.

Ular ongda ifodalanib, tushuncha belgilarini tashkil etadi:

1) muhim, 2) muhim bo'lmagan belgilar.

Mantiq ilmi buyumlarning tushunchalarda aks etgan muhim belgilarini o'rganadi.

Buyumlarning ma'lum nisbatda olingandagi tub xususiyatlarini ifodalovchi belgi muhim belgi deb ataladi. Muhim belgilar buyumlardagi bir guruh sifatlarni va bu guruhdagi sifat zarur ekanini, belgilar majmui esa buni boshqa buyumlardan ajratish uchun yetarli asos ekanini ifodalaydi.

Inson o'z tajribasiga tayanib, buyumlarning, ayni zamonda, muhim va muhim bo'lmagan belgilarini ajratadi. Boshqacha aytganda, muhim va muhim bo'lmagan belgilar munosabati nisbiydir. Inson buyumlarning bir tomonini chuqurroq bilish uchun uning shu maqsadga muvofiq bo'lmagan belgilarini hisobga olmaydi. Demak, insonning aniq amaliy faoliyati o'ziga xos ma'lum maqsadga qaratilgani uchun, uning predmetlardagi muhim belgilarni ajratishi ham shu maqsadga bo'ysundirilgan bo'ladi. Buyumlardagi qator belgilarni ajratib yaxlit ifodalovchi tushuncha buyumlar mohiyati haqidagi tushuncha bo'ladi. Predmetning muhim belgilarini ajratish uchun hayotda shu buyumlarga nisbatan munosabatning o'zgarishini, tajribaning talabini hisobga olish lozim. Muhim belgini ajratish va uni ta'riflash uchun tajriba asosiy rol, o'lchov bo'ladi.

Tushuncha shakllanishining asosiy mantiqiy usullari. Tushunchaning vujudga kelishida inson tafakkurining voqelikni aks ettirish jarayonida foydalaniladigan usullari: taqqoslash, analiz, sintez, mavhumlashtirish va umumlashtirish muhim rol o'ynaydi.

Mantiq ilmi esa bu usullarning eng umumiy va asosiy mazmunini o'rganadi. Tushunchalar o'zining hajmi va mazmuni, mantiqiy vazifalari va hokazolarga qarab turlarga bo'linadi. Ba'zan bir tur mazmundagi ikki tushunchani o'zaro solishtirib, ulardagi umumiy belgilarni topa olamiz. Shuningdek, ba'zi belgilar esa o'sha ikki tushunchani bir-biridan ajratadi. Misol uchun "olim" va "san'atkor" tushunchalari munosabatini ko'rib chiqaylik. Bu ikki tushuncha mazmunidagi umumiy belgi ularning aqliy mehnat xizmatchilari bo'lishlaridir. Bu jihatdan ular o'z ijodiy mehnatlari bilan xalq uchun xizmat qiladilar. Ammo bu tushunchalar mazmunining boshqa belgilari, ya'ni olimlarning voqelikni bilishlari san'atkorlarning hayotni badiiy bilishlaridan ajratadi. O'z mazmunida umumiy belgilarga ega bo'lgan ikki tushuncha taqqoslanadigan tushuncha bo'ladi.

Shunday qilib, tushunchaning paydo bo'lishidagi asosiy omillardan biri taqqoslash bo'ladi. Taqqoslash faqat buyum yoki voqealarning bir-biriga o'xshashliklarini aniqlash bilangina emas, balki buyumlar orasidagi tafovutni aniqlash uchun ham xizmat qiladi.Demak, taqqoslash, bu voqelikdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutni aniqlash uchun xizmat qiluvchi mantiqiy usuldir. Taqqoslash natijasi chin bo'lishi uchun quyidagilarni hisobga olishimiz lozim:

- hamma vaqt bir-biri bilan haqiqatda bir tarzda o'zaro real bog'lanishi bo'lgan buyumlarni taqqoslab ko'rishimiz zarur;
- taqqoslash chin bo'lishi uchun qanday belgiga ko'ra qiyoslashimiz oldindan ma'lum bo'lishi shart;
- har qanday taqqoslash tasodifiy, duch kelgan belgilarga qarab emas, balki taqqoslanadigan buyumlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan belgilar asosida amalga oshirilishi lozim.

Analiz va sintez. Analiz va sintez fikrlash jarayonining barcha bosqichlarida faol amalga oshirilib, u bilishda muhim rol o'ynaydi.

Mantiqiy analiz tadqiq etiluvchi ob'yektni fikran tarkibiy qismlarga ajratishdan iborat. Ma'lumki, ob'yektiv voqelik nihoyatda murakkab bo'lsada, biroq u konkret narsa-hodisalardan tashkil topadi. Ular o'z navbatida xilma-xil xususiyat va sifatlarga ega.

Bunday hodisa va narsalarni bilish, ular to'g'risidagi bilimlarimizni chuqurlashtirish uchun shu murakkab narsalarni tarkibiy qismlarga, elementlarga, bo'laklarga fikran ajratish, ya'ni analiz qilish zarur. Masalan, kimyogar biror kimyoviy jarayon yoki o'zgarishni tushunish uchun bu jarayonni tahlil qiladi, qanday bo'laklardan, kimyoviy

elementlardan iborat ekanligini tekshirib ko'radi. Bunday holda fikriy tahlil amaliy tahlil bilan bog'liq bo'ladi.

Analiz qilish jarayonida fikr murakkabdan oddiylikka, umumdan yakkaga, butundan bo'lakka qarab boradi. Lekin fikrlash jarayonida narsalarni bilish uchun analizning o'zi kifoya qilmaydi, chunki analiz toza holda uchramaydi. **Sintez** - bu analiz yordamida butunning bo'laklarga ajratilgan qismlari, elementlarini yana fikran to'plab, yaxlit holda o'rganishdir. Masalan, mashina motorini o'rganish, bilish jarayonida uning qismlarini ajratib qaraymiz, so'ng motorni yig'amiz.

Mavhumlashtirish(abstraksiyalash) - bu bilishda ob'yektiv reallikdagi predmet, hodisalarning ikkinchi darajali, muhim bo'lmagan, alohida xususiyatlaridan uzoqlashish, mavhumlashtirish yordamida ularning eng muhim, asosiy umumiy tomonlarini aniqlashdir. Mavhumlashtirish jarayonida turli ilmiy kategoriyalar, qonun, qonuniyat, sababiyat, materiya kabi mavhum tushunchalar vujudga kelib, ular olamni ilmiy bilishning muhim yakunlari, natijalaridir. Konkret belgilardan uzoqlashish va muhim belgilarni topish jarayoni abstraksiyalash deyilsa, shu jarayonning natijasi, yakuni, xulosasi abstraksiya deyiladi. Abstraksiya tushuncha, kategoriya shaklida miyada mavjud bo'ladi. Mavhumlashtirish asosan tafakkurning muhim xususiyati hisoblansa-da, lekin tasavvurda ham abstraksiyaning ayrim elementlarini uchratish mumkin.

Ob'yektiv reallikdagi har bir predmet boshqa predmet bilan bog'liq, boshqa predmetlar bilan ma'lum tomondan qandaydir umumiylikka ega, masalan, "terak-daraxt, o'simlik - organizm va boshqalar". Shuning uchun har bir predmetning faqat o'ziga xos xislatlari ham borki, bu tomonlar shu predmetning ma'lum sistemaga, qandaydir umumiy qonuniyatga bo'ysunishini ko'rsatadi. Shu umumiy tomonlarda bir turdagi qator predmetlarning hammasiga xos bo'lgan xususiyatlar ifodalanib, bu xususiyatlarni faqat predmetning yakka tomonlaridan mavhumlashish, ulardan uzoqlashib, umumiy tomonlarga e'tibor berish yordamidagina bilish mumkin.

Umumlashtirish - narsa va hodisalarning o'xshash hamda muhim belgi va xususiyatlarini, bog'lanishlarini fikran muayyan tushunchaga birlashtirish jarayoni va uning natijasidir. Umumlashtirish- ilmiy bilishning muhim vositalaridan biri. Umumlashtirishda ayrimlikdan umumiylikka o'tiladi (masalan, «issiqlik» tushunchasidan «energiya»

tushunchasiga o‘tish) va umumiy tushuncha, hukm, nazariyalar hosil qilinadi (sabzi, piyoz, karam - sabzavot, olma, nok, behi - meva). Bunday tushunchalardan yuzaga kelgan umumiy bilim moddiy olamni chuqurroq aks ettirib, uning mohiyatini anglab olishga yordam beradi.

Mantiq ilmi nuqtai nazaridan umumlashtirishda fikr xususiylikdan umumiylikka, turdan jinsga qarab harakat qiladi. Jins tushunchasining mazmuni tur tushunchasi mazmunidan torroq bo‘ladi (qiyoslang: olma meva daraxt), chunki tur (olma) tushunchasidan jins (meva) tushunchasiga o‘tilganda turning o‘ziga xos ko‘plab belgi-xususiyatlari ajratilib, fikran e’tibordan soqit qilinadi. Jins (meva) tushunchasi esa yakka (olma) va shu kabi ko‘plab konkret turlarning barchasiga xos o‘xshash muhim tomon, belgi-xususiyatlarni tafakkurda umumlashtirish natijasida vujudga keladi.

Tushunchaning mazmuni va hajmi. Tushunchaning mantiqiy tarkibi - uning hajmi va mazmunidir. Buyumlarning tushunchada aks etgan muhim belgilari yig‘indisi tushuncha mazmunidir. Masalan, “odam” tushunchasi mamzuniga ishlab chiqarishni vujudga keltiruvchi, abstrakt fikrlash, nutq qobiliyati va hokazolarga ega bo‘lgan tirik vujud xislatlari kiradi.

Insoniyat jamiyati tarixi odamlarning hayotdagi voqealarga bo‘lgan amaliy munosabatlariga qarab ularda tushuncha mazmunining ham doimiy ravishda o‘zgarib borishi, ya’ni yangi belgilar bilan boyib, eskirgan belgilarining tushib qolishidan darak beradi.

Tushunchaning turlari va ular orasidagi munosabat.

Tushunchalar:

a) ularda aks etgan narsa-hodisalarning miqdoriga, ya’ni tushuncha hajmiga;

b) ularda aks etgan narsa-hodisalarning xarakteriga, mazmuniga;

v) tushunchalarning mazmuni jihatidan munosabatiga;

g) hajmi jihatidan munosabatiga qarab bir necha turga bo‘linadi.

Avvalo tushunchalar hajm tafovutiga qarab umumiy va yakka tushunchalarga bo‘linadilar. Buyumlar guruhiga va bu guruhning belgilariga taalluqli tushuncha umumiy hisoblanadi. Bunga “samolyot”, “davlat”, “ko‘l”, “raqam” va boshqa umumiy tushunchalar misol bo‘la oladi. Yakka bir buyumga bog‘liq bo‘lgan tushunchalar yakka bo‘ladi. Masalan: “Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti”, “Abu Ali ibn Sino”, “Maysaraning ishi” peysasi muallifi va boshqalar. Umumiy tushunchalar ikki va undan ortiq buyumlarni, yakka tushuncha

esa bir buyumnigina aks ettiradi. Umumiy tushunchalar yakka tushunchalarga nisbatan hajm jihatidan keng, yakkalari esa tor bo‘ladi. Masalan, “meva daraxti” tushunchasi “daraxt” tushunchasiga nisbatan torroqdir. Lekin biz “olma daraxti” va “meva daraxti” desak, unga “meva daraxti” tushunchasi “olma daraxti” tushunchasiga nisbatan kengroq bo‘ladi. Jamlovchi tushuncha umumiy tushunchadan farq qiladi. Ya’ni jamlovchi tushunchaning belgisi yangicha belgi bo‘lib, uning tarkibiga kiruvchi, jamlanuvchi elementlarda bu belgi uchramaydi. Ya’ni ma’lum o‘xshash predmetlar to‘plami yangi xislat kasb etadi.Masalan, ma’lum miqdordagi odamlarning ma’lum maqsadga erishib, biror umumiy masalalarni muhokama etishi “majlis”dir. Juda ko‘p daraxtlar o‘sgan joy yaxlit holda “o‘rmon” deyiladi.

Konkret va mavhum tushunchalar. Konkret tushunchalar - bu ob’yektiv borliqda real moddiy holatda mavjud bo‘lgan, sezgilar yordamida bilish mumkin bo‘lgan predmetlarni aks ettiruvchi tushunchalardir. Konkret tushunchalar ularda aks etgan predmetlar belgilarini yaxlit ifodalaydi, “shahar”, “jamiyat”, “stadion”, “haykaltarosh”, “kosmonavt” va boshqa shunga o‘xshashlar konkret tushunchadir. Agarda tafakkurda buyumning sifatlari, munosabatlari, belgisi ajratilib, mustaqil holda aks ettirilsa, u mavhum tushuncha bo‘ladi. Mavhum tushunchada buyumlar va hodisalar emas, balki ularning qandaydir bir xususiyati yoki munosabati yaxlit mavjud narsa shaklida in’ikos ettiriladi. Masalan, “qahramonlik”, “oshkoralik”, “tenglik”, “onglilik”, “johillik” va boshqalar mavhum tushunchalardir.

Musbat va manfiy tushunchalar ham tushunchaning mazmuniga qarab, buyumlarda belgi borligini tasdiqlashi yoki uni inkor etishi bilan bir-biridan farqlanadi. Agar tushunchada belgi borligi ifodalansa, u musbat, aksincha, belgi yo‘qligi ko‘rsatilsa, manfiy bo‘ladi. Masalan, “obro‘li”, “madaniyatli”, “intizomli”, “savodli” degan tushunchalar musbat va “obro‘siz”, “madaniyatsiz”, “intizomsiz”, “savodsiz”, “e’tiqodsiz” tushunchalari esa manfiy tushunchalardir.

Mazmuniga qarab tushunchalar yana **nisbatli va nisbatsiz** tushunchalarga bo‘linadi. Agar bir tushuncha ikkinchi tushuncha orqali bilinadigan bo‘lsa, u **nisbatli** bo‘ladi. Bunga misol qilib «oila», «boshliq», «sabab», «natija», «shakl», «mazmun», «yakka», «umumiy» kabi tushunchalarni ko‘rsatish mumkin. Tushuncha boshqa tushunchalarsiz bilinadigan bo‘lsa **nisbatsiz** bo‘ladi. Bunga misol qilib «davlat», «talaba», «shartnoma» va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Tushuncha turlari orasidagi munosabatlar. Tushunchalar orasidagi munosabat masalasi muhim ahamiyatga ega. Tushunchalar mazmunan o'zaro munosabatiga qarab bir qancha qismlarga bo'linadi.

Bu munosabatning muhim turlarini ko'rib chiqaylik:

1. **Taqqoslanadigan munosabat.** Bunday munosabat o'zaro muhim va umumiy belgilarga ega bo'lgan tushunchalar orasida mavjud. Masalan, «tarix» va «adabiyot», «mantiq» va «falsafa» kabi tushunchalar o'rtasidagi muhim umumiylik - ularning hammasi fanligi, fanning turli tarmoqlari ekanligidadir. Shunga ko'ra taqqoslanmaydigan tushunchalarda muhim va umumiy belgilar bo'lmaydi. Bunga misol qilib «qahramonlik», «meneral o'g'it» tushunchalarini ko'rsatish mumkin. Bu tushunchalar o'rtasida o'xshashlik, mazmunan bog'lanish yo'q. Ba'zi taqqoslanadigan tushunchalar hajm jidatidan sig'ishadigan, mos keladigan tushunchalardan iborat bo'ladi. Sig'ishmaydigan munosabatda tushuncha hajmlari, aksincha, o'zaro mos bo'lmaydi.

Sig'ishmaydigan munosabatlar uch turga bo'linadi:

a) bir ma'noli tushunchalar munosabati. Bunda tushuncha o'z hajmi jidatidan ikkinchi tushuncha bilan to'la sig'ishadi va ayniyat munosabatida bo'ladi. Misol uchun «Sharq Arastui», «Ikkinchi muallim», «Forobiy» yoki Islomning asosiy mudaddas kitobi «Qur'on» tushunchalarini ko'rib chiqaylik. Bu misollarda, tushunchalar o'z hajmi bilan to'la mos ekanligini ko'ramiz. Mantiqqa bunday munosabat sxemada quyidagicha ifodalanadi (1-rasm).

Bunday hollarda tushunchalar mazmun jidatidan bir-biridan farq qilishi mumkin, ammo hajm jihatidan bir buyumning ma'nosini ifodalaydi.

1-rasm. Bunda ikki xil tushunchada bir predmet ikki o'zaro farq qiluvchi belgisi orqali ifodalanadi. Mantiqda hajm jihatidan bunday munosabat ayniyat munosabati deyiladi. Albatta, ayniyat tushunchaning hajmiy munosabatidir, chunki mazmun jihatidan tushuncha bunday vaqtlarda aynan bo'la olmaydi;

b) bo'ysunish munosabati. Bu munosabatda bir tushuncha



ikkinchi tushuncha hajmiga nisbatan bo'ysunish munosabatida bo'ladi. Odatda, bir tushuncha hajmi torroq, ikkinchisiniki esa kengroq bo'lib, torroq tushuncha kengroq tushuncha hajmiga kiradi. Kengroq, ya'ni jinsiy tushunchani bo'ysundiruvchi va torroq tushunchani bo'ysunuvchi tushunchalar deb atash mumkin. Misol uchun, «terak» va «daraxt», «O'zbekiston» va «Respublika», «zavod» va «sanoat korxonasi» kabi juft tushunchalarning birinchilari o'z hajmlari jihatidan ikkinchilariga bo'ysunish munosabatida bo'ladi. Bu misollarda «terak», «O'zbekistan», «zavod» tushunchalari jins tushunchalari, «daraxt», «respublika», «sanoat korxonalari» tushunchalari tur bo'lib, hajmi tor, bo'ysunuvchidir. Bo'ysunish munosabati 2-rasm bilan ifodalanadi.

Biz, odatda, buyumlar va hodisalar haqida fikr yuritganimizda «butun» va «bo'lak» degan tushunchalarni ham qo'llaymiz. Ammo,





bunday tushunchalar yuqorida keltirilgan ma'noda o'zaro bo'ysunish munosabatyda bo'lmaydi. Chunki bunday tushunchalar o'zaro jins va tur munosabati bilan bog'lanmaydi, balki bir butunning bo'lagi shaklida ifodalanadi. Masalan, «kun» va «hafta», «sinf» va «maktab» kabi tushunchalar jins tushunchasining turi bo'lmay, balki butunning ayrim bo'lagini tashkil etadi;

s) **hajmlarning qisman mos bo'lib kelish munosabati.** Bunday tushunchalar hajmi bir-biriga qisman mos kelib, o'zaro chatishadi. Misol uchun, «kitobxon» va «olim» yoki «shoir» va «shaxmatchi» degan tushunchalarni olib qaraylik. Masalan, har qanday shaxmatni yaxshi biladigan odam shoir bo'lavermaydi. Bu munosabat 3- va 4-rasmlarda ifodalangan.

2. **Sig'ishmaydigan tushunchalar munosabati.** Bular zidlik, qarama-qarshilik va birga bo'ysunish munosabatlarida bo'ladi. Tushunchaning zidlik munosabatida hajmlar o'zaro sig'ishmaydi. Bu munosabat ma'lum umumiylikka ega bo'lgan tushunchalar orasida mavjud bo'ladi. «Oq», «oq emas», «baland», «baland emas», «sog'», «sog' emas», «tinch», «notinch», «minnat», «beminnat» kabi misollarda bu holat aniq ko'rinadi. Bunda hamma vaqt inkor etuvchi tushunchaning

mazmuni noma'lum bo'lib qoladi. Bunday munosabatda shu umumiylik doirasida uchinchi tushunchaning mavjudligi to'lig'icha inkor etiladi. «Oq» va «oq emas» belgilari rang tushunchasi hajmini to'lig'icha qamrab oladi. Mantiqda uning sxematik ifodasi 5- rasmda berilgan.

3. Ba'zan zid tushunchalar o'z hajmlarining qismi bilan to'g'ri kelmay bir- birini inkor etadi, lekin o'rtancha holat bo'lishiga yo'l qo'yiladi.

5-rasm.



6-rasm.



Bunday munosabat tushunchalarini qarama-qarshi (yoki kontrast) munosabat deyiladi. Bunda bir umumiy belgi doirasida bir- birini inkor etuvchi ikki tushuncha umumiy tushuncha hajmini to'lig'icha ifoda eta olmaydi va qamrab ham ololmaydi. Masalan, «oq» va «qora» yoki «o'spirin» va «chol», «shirin» va «achchiq» tushunchalari munosabati bularga misoldir. Bunday munosabatda biror o'rtancha holning bo'lishi tabiiydir, ya'ni «oq» yoki «qora» bo'lmay, «qizil» bo'lishi yoki «shirin» va «achchiq» emas, «sho'r» bo'lishi mumkin. Bunda biz tushuncha munosaba- tini 6-rasm bilan ifodalaymiz.

Tushunchalar qarama-qarshi bo'lishiga qaramay, bir jins tushunchasi hajmiga kiradi. Agar biz «oq rang», «qora rang» desak, bu tushunchalar uchun umumiy jins «rang» bo'ladi.

Birga buysunuvchilik munosabatda sig'ishmaydigan tushunchalar bir jinsning turlari deb qabul qilinadi. Hajmi jihatidan bir qancha tushunchalar bir jins- ga mansub bo'lgani sababli birga bo'ysunuvchi bo'ladi.



7-rasm.

Ammo, mazmun jihatidan bir jinsdagi turli tushunchalar bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Quyidagi misollarni analiz qilib ko'raylik: «chiziq» degan tushuncha jinsiga «to'g'ri», «egri», «siniq» turlari kiradi. Shunga o'xshash «burchak» tushunchasi jinsiga «to'g'ri», «o'tkir», «o'tmas» degan tushunchalar kiradi. Shunday qilib, birga bo'ysunish munosabati ikki yoki ko'p turdagi munosabatlarni bir umumiy darajaga qaratishni aks ettiradi. Bunday munosabat quyidagi rasm bilan ifodalanadi (7-rasm).

Hukm. Hukm ham tushunchaga o'xshash fikrni ifodalashning mantiqiy shaklidir. Bizning har bir chin (yoki xato) fikrimiz voqelikdagi narsa va hodisalarning o'zaro munosabatlari borligi yoki yo'qligi va bu voqelik elementlari orasidagi munosabatning doimiyligi, muvaqqatligi yoki tasodifiyligi haqida borsa, unda bizning bu fikrimiz hukm shaklida ifodalanadi. Demak, hukm narsa va hodisalar, ularning turli belgilari, xususiyati va munosabatlari haqidagi tasdiq yoki inkor shaklidagi fikrdir.

Tasdiq yoki inkor har bir hukmning xarakterli belgisidir. Shuning uchun, agar hukm o'ziga xos bo'lgan tasdiq yoki inkor belgisiga ega bo'lmasa, u hukm bo'la olmaydi. Masalan, agar biz «Har bir fan xalq uchun xizmat qilnshi kerak» desak, bunda tasdiqlash orqali fanning muhim belgisi - «xalq uchun xizmat qilishini» aniqlaymiz. Aksincha, «koinotning chegarasi yo'q» degan hukmda, koinotning chegarasiz ekanligi xislati inkor orqali aniqlanadi.

Hukm ham tafakkurning boshqa shakllariga o'xshash ob'yektiv voqelik in'ikosi natijasidir. Hukm buyum uchun belgining taalluqli yoki taalluqli emasligini aks ettiradi. Har bir hukm chin yoki xato bo'lishi mumkin. Chin hukmda buyum va uning belgisi haqidagi fikr voqelikda buyum va uning belgisi qanday bo'lsa, xuddi shunday olinishi lozim. Agar voqelikda birlashgan buyumlar ajralgan deb va ajralganlar esa

birlashgan, deb olinsa, unda hukm albatta xato bo'ladi. Haqiqatan ham agar biz «mis - metall», «Quyosh yulduz emas» desak, bu hukmlarimiz xato bo'ladi. Ma'lumki, mis eritib qo'shilgan quyma, Quyosh esa haqiqatda yulduzlarning biridir. Keltirilgan hukmlarda voqelikka zid bo'lgan mulohazalar ko'rsatilgan. Shuning uchun chin yoki xato hukmlar inkor yoki tasdiq hukmning chin yoki xato bo'lish sababchisi degan xulosa chiqarish xatodir.

Tushuncha va hukm bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydilar. Ular bizning hamma vaqt takomillashayotgan tafakkurimizda o'zaro bog'liq holda rivojlanadi. Tushuncha va uning belgilari hukm asosida paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Biz hukmni tahlil etib, uning buyum va buyum emasligini aks ettiruvchi xislatga ega ekanligini bilib oldik. Odatda, har bir hukmning uch asosiy qismi, elementi bo'ladi. Hukmning birinchi elementi mantiqda sub'yekt (lotin tilidagi «Subjektum» so'zidan), ikkinchi elementi predikat (lotin tilidagi «Predikatum» so'zidan) olingan. Hukmning uchinchi elementi bog'lovchi, deb aytiladi.

Shuning uchun mantiqda hukmning birinchi tushunchasini hukmning mantiqiy egasi, hukmning ikkinchi tushunchasini hukmning mantiqiy kesimi va bular orasidagi munosabatni vujudga keltiruvchi hukm elementini hukm bog'lovchisi deb aytiladi.

Mantiq ilmida hukmning sub'yekti (egasi) va predikati (kesimi) hukm terminlari deb aytiladi.

Hukmning umumiy sxemasi quyidagicha ifodalanadi. S-R, bunda S - sub'yekt (ega), R - predikat (kesim) simvoli bo'lib, «-» belgisi esa sub'yektning predikat bilan bo'lgan munosabatini ifodalovchi bog'lovchidir.

Hukm ma'lum bir fikrni ifoda etgani kabi, uning ayrim elementlari ham ayrim tushunchalarni ifoda etadi.

Hukm o'z tabiati bilan hamma vaqt dialektik xarakterga egadir. Bunda yakka, juz'iy va umumiylik, ayniyatlik, tafovutlik va boshqa kategoriyalar o'z ifodasini topgan. Hukmdagi ega va kesim elementlari o'zaro nisbiy bog'langandir. Mantiqda ega kesimga, kesim esa egaga nisbatan mavjud. Agar biz ega va kesimni bir-biridan ajratib qaraydigan bo'lsak, ular yakka holatda hukm bo'la olmaydi. Masalan, yakka olingan «kino» tushunchasi ega hukmi va yakka olingan «san'at» tushunchasi kesim hukmi bo'la olmaydi. Agar biz - «kino - san'atdir» desak, bunda ikki tushunchaning o'zaro dialektik munosabati ma'lum bir

hukmni tashkil etadi, ya'ni bunda «kino» hukmning ega elementiga va «san'at» uning kesim elementiga aylanadi. Shunga o'xshash, agar biz «Karim - injiner» degan hukmni ifoda etsak, bunda «Karim» - yakka, «injener» esa umumiy tushunchani tashkil etib, bundagi qarama-qarshilik hukm birligi orqali ifodalangan bo'ladi.

Hukm yordami bilan inson tabiat, jamiyat va tafakkur qonunlarini o'rganadi. ob'yektiv qonunlarni ochadi va yangi bilimlarni aniqlaydi.

Hukmning son jihatidan bo'linishi. Har bir hukm faqat o'z sifati bilangina ajralmasdan, balki soni bilan ham ajraladi. Buning asosiy sababi har bir hukm bir yoki bir necha buyumni, uning bir necha narsa, xislatini aks ettirishi mumkin. Shuning uchun mantiqda hukmlar son jihatidan uch asosiy qismga: yakka, xususiy va umumiyga ajraladi.

Yakka hukm bir buyumga xos bo'lgan xususiyatni aks ettiradi. Odatda, yakka hukmlar sub'yekti yakka tushunchalar bo'ladi. Agar hukm narsa va hodisaning yig'indisini ifodalab, ayrim yaxlit holda kelsa, u ham yakka hukm bo'la oladi.

Juz'iy hukmlar deb buyumlar sinfining ma'lum qismi ifodalangan hukmlarga aytiladi. Bunga misol silib «Ba'zi korxonalarda sanoat mollari ishlab chiqaradi», «Ba'zi ixtirolar XX asrda paydo bo'ldi», «Ba'zi olimlar respublika Beruniy mukofoti laureati», degan hukmlarni ko'rsatish mumkin. Juz'iy hukm «Ba'zi S-R dir» yoki «ba'zi S-R emasdir» formulasiga ega.

Umumiy hukmlar. Agar bayon etilgan fikr predikat (kesim) shaklida hamma aytilgan buyumlar sinfini o'z ichiga oladigan bo'lsa, u chog'da hukm umumiy bo'ladi. Umumiy hukm egasi (sub'yekt) hamma vaqt tasdiqlovchi bo'lsa, «hamma», «har bir», inkor etuvchi bo'lsa «hech bir», «hech qaysi» va boshqa tushunchalar orqali ifodalanadi. Umumiy hukmlar tasdiqlovchi shaklda «Hamma S-R dir», inkor shaklida esa «Hech bir S-R emas» formulalari bilan ifodalanadi. Misollar: «Hamma xalqlar o'zaro do'stlikda yashamog'i zarur». «Hech bir shaxs boshqa bir shaxsga o'xshamaydi» va boshqalar.

Xulosa chiqarish. Xulosa chiqarish ham tafakkurning asosiy shakllaridan biridir. Bizning bilimimizning ko'p qismi xulosa chiqarish shaklida tuzilgan. Shuning uchun xulosa chiqarish mantiqda mantiqiy fikrlashning muhim shakli hisoblanadi.

Xulosa chiqarish deb bir yoki bir nechta hukmlardan ob'yektiv voqelikdagi narsalar va hodisalar haqida yangi hukmni vujudga keltirish uchun xizmat qiladigan tafakkurning maxsus shakliga aytiladi.

Boshqacha qilib aytganda, xulosa chiqarish ma'lum bo'lgan bilim orqali noma'lum bilimni vujudga keltirishdir. Xulosa chiqarish vositali yangi bilim bo'lib, u bizning oldingi bilimlarimizga asoslanadi.

Xulosa chiqarish buyumlar orasidagi ob'yektiv munosabatlarni aks ettiradi. Ammo, xulosa chiqarishda bu munosabatlar bizning oldingi bilimlarimizga asoslangan holda bilib olinadi., Misol uchun quyidagi mulohazani ko'rib chiqamiz: bizga A va S miqdori berilgan. Ammo ular orasidagi munosabat biz uchun noaniq. Unda biz bularni uchinchi V miqdori bilan solishtirib ko'ramiz. Bu ikki miqdorning ham V ga teng ekanligi aniqlansa, unda biz A-V ga va V-S ga tenglingini bilib, A-S ga teng degan xulosaga kelamiz. Demak, bu xulosa bizning oldingi bilimimiz asosida paydo bo'ldi. Vositali yoki bevosita bilim hamma vaqt bizning tajribamizga tayanadi. Ma'lumki, har qanday bilim vositasiz va vositali yo'llar bilan ob'yektiv reallikni aks ettiradi. Masalan, sezgilar va hissiy idrokka tayangan bilim - bu bevosita bilimdir. Masalan, «yomg'ir yog'moqda», yo «kun issiq» kabi holat bevosita ko'rish, his etish yordamida bilib olinadi. Lekin bilimlarimizning ko'pchiligi bevositadir. Masalan, suv o'zaro bog'liq bo'lgan vodorod va kisloroddan tashkil topganligi, momaqaldiroq va chaqmoq o'zaro sababli aloqada ekanligi, tinchlikni saqlash muqaddas burch ekanligi haqidagi bilimlar boshqa ma'lum bo'lgan bilimlar orqali, ya'ni bevosita bilib olinadi. Har qanday xulosa chiqarish o'z strukturasi, tuzilishi va tarkibiga ega.

Xulosa chiqarishning tarkibi ikki muhim qismdan tashkil topgan.

1) bu ma'lum bilimlarni ifodalovchi hukmlar bo'lib, ular yangi bilim uchun asos bo'ladi. Ular, xulosa chiqarishning asoslari deb ataladi.

2) Bu ma'lum hukmlar asosida kelib chiqqan yangi bilimni ifodalovchi hukm xulosa chiqarish natijasi, ya'ni xulosa deb ataladi. Masalan, Asos - barcha respublikamiz fuqarolari dam olish huquqiga ega. Asos - Axmedov respublikamiz fuqarosi. Xulosa - Ahmedov dam olish huquqiga ega.

Bevosita xulosa chiqarish. Agar natija yoki xulosa bir asos yordamida qo'lga kiritilsa, u bevosita xulosa chiqarish deb aytiladi. Bevosita xulosa chiqarishga misol: «Universitetimizning ba'zi talabalari shoir, demak, ba'zi shoirlar universitetimizning talabaridir», yoki «Siyosiy mustaqil bo'lgan mamlakat mustamlaka mamlakat emas. Demak, «Mustamlaka mamlakat siyosiy jihatdan mustaqil bo'la olmaydi» va boshqalar.

Aylantirish orqali xulosa chiqarish. Aylantirish shunday bevosita xulosa chiqarishdirki, bunda boshlang'ich asos hukmning sub'yekti, xulosa hukmda saqlanib qoladi, lekin predikat qarama-qarshi mazmundagi predikatga, bog'lovchi ham qarama-qarshi ma'nodagi bog'lovchiga aylantiriladi.

«Ba'zi xulosalar bevosita chiqariladi»,

«Ba'zi xulosa chiqarish vositali emas» yoki,

«Har qanday xiyonat jazolanmog'i darkor»,

«Hech qanday xiyonat jazosiz qolmasligi kerak».

Bu yerda biz birinchi hukmdagi bog'lovchini uning qarama-qarshisiga, predikatini esa qarama-qarshi tushunchaga aylantirdik.

Aylantirishning bu xususiyatini biror nimaning qo'sh inkori uning tasdig'iga tengdir, degan qoida bilan ifodalash mumkin. Haqiqatda ham birinchi hukmning mazmuni o'zgarmagan holda u ikki marotaba inkor shaklida ifodalanadi - yangi bog'lovchi ham, predikat ham o'z aksiga aylantiriladi. Lekin ma'no saqlanib qoladi.

Aylantirish quyidagi sxemada

boradi. S-R dir.

S-R mas emas.

Aylantirish yordamida fikrlanuvchi predmetning predikatda aks etgan xislatining teskarisiga aylana olmasligi aniqlanadi. Aylantirishda xulosa hukm birinchi asos hukm mazmuninigina takrorlab qolmasdan, uni aniqlashga yordam beradi.

Sifat va son jihatidan turlicha bo'lgan hukmlarda aylantirish natijasida olinadigan xulosalarni ko'rib o'tamiz.

Umumtasdiq hukmlari (A) umuminkor hukmlariga (Y) aylantiriladi.

«Hamma S-R dir. Hech bir S-R mas emas».

«Barcha hakiqiy demokratii davlatlar tinchlikparvardir».

«Hech bir haqiqiy demokratii davlat tinchlikparvarmas emasdir».

Umumiy inkor hukmlar (Y) umumtasdiq hukmlarga aylanadi (A). Sxemasi:

«Hech bir S-R emasdir. Har bir S-R siz (mas) bo'ladi».

«Hech bir imperialistik urush adolatli emas».

«Hamma imperialistik urushlar adolatsizdir».

Qisman tasdiq hukmlar (S) qisman inkor hukmlarga (O) aylanadi. _

Sxemasi: «Ba'zi S-R dir, ba'zi S-R mas (siz) emasdir».

«Ba'zi mamlakatlar ekvatorda joylashgan».

«Ba'zi mamlakatlar ekvatorda joylashmagan emas».

Qisman inkor hukmlar (O) qisman tasdiq hukmga (I) aylanadi.

Sxemasi:

«Ba'zi S-R emas, ba'zi S-R sizdir».

«Sinfimizdagi ba'zi o'quvchilar shaxmat o'ynaydi».

«Sinfimizdagi ba'zi o'quvchilar shaxmat o'ynamaydi».

Demak, aylantirish orqali xulosa chiqarishni barcha hukmlarga, ularning sifat va sonidan qat'i nazar, tatbiq etish mumkin. Aylantirish natijasida barcha hukmlarning sifati o'zgaradi, lekin soni o'zgarmay qolaveradi.

Predikatga qarama-qarshi qo'yish. Aylantirishni almashtirish bilan bog'lash predikatga qarama-qarshi shakldagi bevosita xulosa chiqarishni vujudga keltiradi.Predikatga qarama-qarshi qo'yishda yangi hukmning sub'yekti asos hukmning predikatiga zid, predikati esa uning sub'yektiga qarshi hukm bo'ladi.Bunday xulosa chiqarish quyidagi sxema bilan ifodalanadi:

S-R

R emas S emasdir

Misol: Maktab o'qituvchilari (S) tarbiyachidirlar (R), «Hech qachon tarbiyachi bo'lmagan kishi (R) maktab o'qituvchisi bo'la olmaydi (S)».

Bunday yangi xulosa yoki yangi hukm birinchi hukm predikatiga ikki inkor tushuncha qo'yilishidan kelib chiqdi.

Deduktiv xulosa chiqarish (sillogizm). Deduktiv xulosa chiqarish vositali xulosa chiqarishning muhim turidir. Deduktiv xulosa chiqarishning asosiy xususiyati fikrimizning umumiydan xususiyga, yakkaga qarab borishini ifodalaydi. Mantiqda deduktiv xulosa chiqarish sillogizm[45], deb aytiladi.

Sillogizm deb ikki yoki undan ko'p asoslardan yangi xulosa chiqarishga aytiladi. Sillogizm shuning uchun vositali xulosa chiqarishdirki, unda ikki hukm bir- biri bilan mantiqiy qo'shilib, yangi, uchinchi hukm, ya'ni xulosa paydo bo'ladi.

Sillogizmda umumiy qonun, qoidalar asosida yakka yoki juz'iy natija olinadi. Boshqacha qilib aytganda, sillogizm xulosasi tayyor qonun va qoidalarni yakka yoki juz'iy natijalar uchun ham daxldor qilib ko'rsatishdir. Albatta, bunday vaqtda xulosaning chin bo'lishi uchun asoslarning ham chin bo'lishi shart. Bun- dan tashqari, asoslar ham o'zaro mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim. Agar hukmlar buyumlarning

[45] Sillogizm — grekcha Syllogismos so'zidan olingan bo'lib,— "hisoblash.;, «hisoblab olish" degan ma'noin bildiradi.

o'zaro ob'yektiv bog'lanishini aks ettirmasalar, ularni sun'iy bog'lashdan hech qanday chin xulosa, ya'ni uchinchi hukm chiqara olmaymiz. Masalan: "Hamma baliqlar suvda yashaydi" va "Issiqko'l Osiyo qit'asida joylashgan" desak, bu ikki hukmdan xulosa chiqarib bo'lmaydi, chunki bu ikki hukm orasida hech handay mantiqiy bog'lanish yo'q.

Sillogizm shaklida xulosa chiqarish ikki yoki undan ko'p hukmlarning ob'yektiv bog'lanishlariga tayanib uchinchi yangi hukmni vujudga keltirishdir deyish mumkin.

Induktiv xulosa. Induktiv xulosa chiqarish vositali xulosa chiqarish shaklidir. Induktiv xulosa chiqarishda bizning bilimimiz yakka va xususiydan umumiyga qarab boradi. Induktiv xulosa chiqarishning xarakterli xususi- yatlaridan biri yakka, xususiy buyumlar mohiyatini o'rganish orqali tegishli qonunlarni ochishdir.

Tajribada ko'p takrorlash orqali induktiv xulosa yordami bilan erishilgan umumiy natijalar bizning bilimimizni o'zgartirishga, to'ldirishga va aniqlashga yordam beradi.

Induktiv xulosa chiqarishning moddiy asosini bilishda umumiylik, xususiylik va yakkalik dialektikasi haqidagi ta'limotga asoslanamiz.

Turli g'ayriilmiy ta'limotlar voqelikdagi umumiylik, xususiylik hamda yakkalikni bir-biridan ajratib qo'yadi. Masalan, umumiylikning ham, xususiy- likning ham umuman ob'yektiv xarakterga ega ekanligini idealistlar inkor etadilar. Ayrim hollarda umumiylik faqat aqlga xos narsa, yakkalik bo'lsa sezgilar bilan bog'liq degan tezis olg'a suriladi. Metafiziklar esa umumiylik bilan xususiylikni mutlaqo ajratib qo'yadilar. Ular zo'r berib ob'yektiv reallik faqat yakka jismlarning tasodifiy to'plamidan iborat va ular o'rtasida hech qanday qonuniyat hamda umumiylik yo'q degan fikrni asoslashga urinadilar.

Ilmiy dunyoqarash esa bu fikrlarga qarama-qarshi o'laroq ob'yektiv voqelikda umumiylik, xususiylik va yakkalik uzviy dialektik bog'lanishda mavjuddir, degan ta'limotni ilgari suradi. Ilmiy bilish yakkani umumiydan ajratish mumkin emasligini, yakkalik, xususiylik va umumiylik o'zaro uzviy bog'langan ekanligini asoslab beradi. Yakkalik, xususiylik va umumiylik birligi induksiyaning ob'yektiv asosidir.

Induksiya orqali yakka narsalar va hodisalar xususiyati o'rganiladi hamda ulardagi umumiy xislatlar, qonuniyatlar aniqlanadi. Buyumlardagi umumiylik qonuniyatlarini bilish faqat yakka, xususiy xislatlarni o'rganish orqali amalga oshiriladi.

Ammo bundan umumiylik faqat yakka yoki xususiy xislatning sun'iy yig'indisi degan xulosa chiqmaydi, albatta. Umumiylik ham o'ziga xos bo'lgan ayrim xislatlarga egadir.

Induktiv xulosa chiqarish turlari. Mantiqda ikki shakldagi induktiv xulosa chiqarish diqqatga sazovordir.

1. To'liq induksiya.
2. To'liqsiz induksiya.

To'liq induksiya xulosa chiqarishning shunday shaklidirki, bunda biz bir gurux narsa yoki hodisaning o'xshash belgilariga qarab ularga taalluqli bo'lgan umumiylikni belgilaymiz. Masalan, O'rta Osiyodagi mustaqil respublikalarning har biri paxta mahsuloti yetishtirish bilan shug'ullanishini aniqlab, bu hududagi hamma mustaqil respublikalar paxta yetishtirish ishlari bilan shug'ullanadilar, degan umumiy xulosaga kelamiz. Bu xulosa to'liq induksiya natijasidir.

To'liq bo'lmagan induksiya. Bunday induksiya ayrim narsa yoki hodisadagi belgiga qarab shu jinsdagi boshqa buyumlarda ham shu belgi borligi haqida xulosa chiqarishdir. To'liq bo'lmagan induksiya bir sinfga mansub barcha hodisalarni tekshirmaydi, ayrim hodisalar belgisini shu hodisa jinsi uchun xarakterli deb qaraydi.

To'liq induksiyaning to'liq bo'lmagan induksiyadan farqi shundaki, to'liq induksiya bir jins yoki sinfdagi hamma narsalar yoki hodisalarni birin-ketin ko'rib, ularga xos bo'lgan umumiy xislatni aniqlab xulosa chiqaradi. To'liq bo'lmagan induksiya uchun bir sinf yoki jinsga xos bo'lgan belgini to'la ko'rib chiqish shart emas. Bunda ayrim narsa yoki hodisa belgisi aniqlangach, bu belgi shu jinsdagi narsa yoki hodisaga xos xulosa chiqariladi.

Induktiv metodlar ob'yektiv olam qonuniyatlarining yakka narsa va hodisalarda ko'rinishini ochishga imkon beradi. Bu qonuniyatlarni bilish insonning kundalik ish faoliyatida katta ahamiyatga ega. Bekon tomonidan kashf etilgan va J. St. Mill tomonidan rivojlantirilgan ilmiy yutuqlar asosida yanada aniqlangan va sabab-oqibat munosabatlarini bilish uchun xizmat qiladigan induktiv metodlar: a) o'xshatish; b) tafovut; v) qoldiqlar; g) yo'ldosh o'zgarishlar d) o'xshatish va tafovut qo'shma metodlaridir. Biz quyida shularning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

A. O'xshatish metodi. O'xshatish metodining mohiyati quyidagi tarzda ifodalanadi: agar ikki yoki undan ko'p narsa-hodisalarda bir xil oqibat namoyon bo'lsa, bunda uning yagona sababi ham mavjud deb

xulosa chiqariladi. O'xshatish metodi orqali ikki yoki undan ko'p hodisalardagi yagona umumiy sabab tekshirilib aniqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, o'xshatish metodi hodisalar sababini yechib berishga yordam beradi. Masalan, ulug' rus olimi M. V. Lomonosov issiqlik paydo bo'lishi uchun xizmat qiladigan bir qator hodisalarni tekshirish natijasida uning asosiy sababi mexanik harakat, ya'ni ishqalanishdir, deb ko'rsatadi.

B. Tafovut metodi. Bu metod voqeaning ayrim holatda ko'rinishi va boshqa bir holatda ko'rinmasligiga qarab xulosa chiqarishdir. J. St. Mill o'zining «Mantiqiy sistema» degan asarida tafovut metodiga.quyidagi misolni keltiradi: Bir shaxsning yuragiga o'q tekkani uchun u o'lgan. O'limning yagona sababi yurakning yaralanishidir. U shaxsning tirik bo'lgan vaqtidagi organizmining boshqa holati buzilgan emas. Faqat uning yuragi yaralangan. Demak, u shaxs o'limining sababi yuragining yaralanishidir. Tafovut metodi asosida quyidagi aksioma bor, har bir voqeaning sababi uning oqibati uchun ham asosdir. Aksincha, har bir voqeaning oqibati ham sabab uchun asos bo'ladi.

V. Qoldiqlar metodi. Qoldiqlar metodi - bu voqea sababini ba'zi holat yoki qisman voqea-sabab bog'lanishiga qarab induktiv xulosa chiqarishdir. 1846 yilda qoldiqlar metodi yordami bilan Neptun planetasi borligi aniqlangan edi. Neptun planetasining mavjudligini aniqlash eng avvalo Uran planetasining hisoblangan orbita atrofidan aylanishida siljish sodir bo'layotganligini qayd qilishdan boshlandi.Uran planetasini kuzatish natijasida ko'ringan siljish boshqa bir planetaning bu harakatga ko'rsatgan ta'siridangina bo'lishi mumkinligi belgilangan. Tanish bo'lgan planetalarning siljish darajasi hisoblanganda, Uran planetasining siljish miqdori tanish planetalar siljishidan sezilarli darajada ko'p ekanligi aniqlangan. Shunga ko'ra olimlar hozirgacha biz bilmagan yana boshqa planeta (A) bo'lsa kerak, u planeta shunday notanish siljish (a) sababchisidir, degan taxminiy xulosaga kelganlar. Olimlar notanish siljish miqdorini (A) bilib, notanish planetaning holatini hisoblab chiqqanlar. Shunday qilib Neptun planetasining borligi aniqlangan.

G. Yo'ldosh o'zgarish metodi. Yo'ldosh o'zgarish metodi bir voqea o'zgarishi boshqa bir voqea o'agarishi uchun yo'ldosh bo'ladi deb xulosa chiqarishga imkon beradi, ya'ni agar, aniq bir holning o'zgarishi boshqa bir hol- ning o'zgarishi uchun sabab bo'lsa, bunday vaqtda ularning birinchisi sabab, ikkinchisi esa natijasi yoki oqibati deb aytiladi.

D. O'xshatish va tafovut qo'shma metodi. Bu metod tekshirilayotgan ikki yoki ko'p miqdordagi voqealar uchun o'tgan holatlardan faqat biri umumiy bo'lib, qolgan ikki yoki undan ko'p holatlar esa o'tgan voqealarda ko'rinmasligi umumiy va faqat shu orqali ikki qator voqealar bir-birlari bilan ajraladigan bo'lsalar, bu holat tekshiriladigan voqea sababi deb ko'rsatiladi.

O'xshatish va tafovut qo'shma metodi voqealar orasidagi sabab bog'lanishlarni ta'riflash uchun xizmat qiladi. Buning uchun hammadan oldin ikki qator voqealar olib qaraladi va har bir qatorning o'ziga xos bo'lgan o'xshash va tafovutli hollari borligi aniqlanadi.

Ob'yektiv reallikdagi buyum hodisalarning belgilari, munosabatlarini o'rganish, o'zi haqida to'g'ri xulosalar chiqarishda inson kuzatish va eksperiment deb yuritiluvchi usullardan ham keng foydalanadi.

Kuzatish - fan uchun zarur bo'lgan hodisalarni bevosita o'rganishning eng oddiy shakli sanaladi. Bunda olim tabiat hodisalariga aralashmaydi, balki ularni chetdan tomoshabin sifatida kuzatib, turli tabiiy o'zgarishlarni belgilab boradi. Kuzatishda olim bilan tabiiy hodisalar o'rtasida faol bo'lmagan munosabat vujudga keladi. Lekin bu chetdan kuzatib turish har doim kutilgan natijani tezda beravermaydi va fan ehtiyojini qondira olmaydi. Bu esa fanda kuzatishni sun'iy ravishda tezlashtirib maqsadga muvofiqlashtirish ya'ni kuzatilmoqchi bo'lgan hodisaga bevosita aralashish metodi bo'lib, u eksperimentni yuzaga keltiradi. Eksperiment tabiiy hodisalar bilan olimning faol munosabatiga asoslanadi. Bunda olim kuzatilmoqchi bo'lgan hodisalarning yaratilishida, ulardagi zarur jarayonlarning yuzaga chiqishida bevosita ishtirok etadi.

Analogiya. Analogiya xulosa chidarishning maxsus shaklidir. Analogiya induktiv va deduktiv xulosa chiqarish singari vositali bo'ladi. Bunda biz ayrim buyum yoki buyumlar guruhi uchun xos bo'lgan xususiyatlar boshqa buyum yoki hodisalar haqida yangi bilim olishga intilamiz. Analogiya deb o'xshatish orqali bir belgining ikki buyumda borligini aniqlab, bu buyumlarning boshqa o'xshash belgilarga ega ekanligini ko'rsatishga aytiladi. Birinchi narsa yoki hodisaning hamma belgilari biz uchun tanish. Ikkinchi narsa yoki hodisaning faqat ba'zi bir belgilarinigina bilamiz, Biz bunday vaqtda bu ikki narsa yoki hodisani bir-biriga o'xshatamiz. Agar birinchi narsa yoki hodisaning muhim tanish belgilari ikkinchi narsa yoki hodisada borligini aniqlasak,

bunday holda ikkinchi narsa yoki hodisada ham birinchi narsa yoki hodisadagi ayrim belgi bor deb tasdiqlaymiz. Biz tabiiy va ijtimoiy fanlar sohasidagi ilmiy xulosalarni aniqlaganda ayrim konkret buyum va holatlarga taqqoslash orqali bilishga intilamiz. Bunday xulosa chiqarish ijtimoiy-tarixiy voqealarni tahlil qilish paytida yaqqol ko'rinadi.

Nazorat savollari:

1. Tushuncha mazmuni va hajmi nima ?
2. Quyidagi tushunchalar mazmuniga kiradigan belgilarni aytib bering?
3. Mustaqillik. Oshkoralik. Qishloq. Kitob. Demokratiya ?
4. Quyidagi belgilar qaysi tushuncha mazmuniga kiradi ?
5. Isitadi, yoritadi. Inson ijodi. Ko'chib yurish uchun xizmat qiladi. Yer sathini tasvirlaydi. Harakatni ifodalovchi so'z ?
6. Quyidagi belgilar qaysi tushuncha mazmunini tashkil etadi ?

Inson. Oliy o'quv yurti. Suv to'lg'azilgan chuqur, hamma tomondan quruqlik bilan o'ralgan. Katta va kichik hajmli ?

7. Quyidagi tushunchalarning mazmun jihatdan, qaysi biri boyligini aytib bering; Tong. Bahorgi tong. O'zbek tili. Navoiy tili ?
8. Quyidagi buyumlar hajmini tashkil etuvchi tushunchalarni ayting - Stol. Ruchka. «A». Odamlar ?
9. Quyidagi tushunchalarning hajm jihatidan qaysi biri keng - Odam, injiner. Adabiyot. O'zbek adabiyoti. Fan. Tarix. Raqam. Toq raqamlar ?
10. Quyidagi tushunchalarni mazmunan o'zgarmaydigan boshqa tushunchaga aylantiring: Eng katta qobiliyat. Gapning bosh bo'lagi. Tafakkur ?

8- мавзу. Jamiyat falsafasi.

Reja:

1. Jamiyat tushunchasi, jamiyatning mohiyati, kelib chiqishi va taraqqiyoti to'g'risidagi diniy va hozirgi sotsiologik qarashlar.

2. Jamiyatga ilmiy-falsafiy yondashishning asosiy tomonlari.

3. Jamiyatimizda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlar, ularning tarixiy ahamiyati.

4. Insoniyat istiqboli, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy global muammolar.

Tayanch iboralar: *Ijtimoiy falsafa, jamiyat, iqtisodiy kichik tizim, ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiya, mafkura, ijtimoiy soha, ijtimoiy jamoa va guruhlar, etnik guruh, tabaqa, sinf, ijtimoiy institutlar, siyosiy tizim, davlat, partiyalar, siyosat va siyosiy ong, fuqarolik jamiyati, siyosiy erkinlik, demokratiya, fuqarolik uyushmalari, sivilizatsiya, sivilizatsiya tiplari, madaniyat, madaniy kommunikatsiya.*

Jamiyat tushunchasi. Odamlarning birlashmalarini va ularning birga yashashini jamiyat deb ataymiz. Bunday ta'rif ushbu hodisaning to'la mohiyatini ochib berolmaydi. Axir birgalikdagi hayot nafaqat odamlarga, hayvonlarga ham xos. Asalarilar, chumolilar, pingvinlar va boshqalar ham birga yashaydiku. Agar shunday ekan odamlar birlashmalarining - hayotning quyi shakli boshqa birlashmalardan sifat jihatdan farqi bormi? Jamiyat odamlarga dunyoni bilish va o'zgartirishda, o'zini va birgalikdagi hayotni shakllantirishda, yig'ilgan tajribani bir avloddan boshqasiga berishda yordam beradi, shunday qilib, jamiyat - odamlarning birgalikda yashashi emas, ulaming birgalikdagi faoliyati, balki ongli ravishdagi maqsadlarni amalga oshirishi hamdir.

Endi biz jamiyatga berilgan dastlabki ta'rifini aniqlashimiz mumkin. Jamiyat - bu umumiy ehtiyojlar, manfaatlar va maqsadlar yo'lida birlashgan odamlaming aqlli uyushgan, madaniy hayoti va faoliyati shaklidir. Jamiyatni o'rganib, shunga e'tibor berish kerakki, u alohida odamlaming, individlaming oddiy mexanik yig'indisi emas. Jamiyat individlar tizimi bo'lib, ularda alohida elementlarga xos bo'lmagan sifatning namoyon bo'lishidir. Masalan, hech qanday kuch yerning qiyofasini o'zgartirishga qodir emas. Lekin insoniyat jamiyati bugun shunday qudratli geoplanetar kuchdir.

Jamiyat rivojlanishi nazariyalari. Jamiyat taraqqiyotini ijtimoiy-tarixiy voqelik sifatida izohlashga ilk intilishni yunon tarixchisi Polibiy (mil.avv. 210-122 yy)ning "Umumjahon tarixi" va xitoy tarixchisi Sim syan (mil. avv. 145-86 yy)ning "Tarix"asarlarida uchratamiz. To'g'ri, bunday talqin "tarix fanining otasi" Gerodot (er. avv. 481-425 yillar), Fukidid (er. avv. 460-390 yillar), Tatsit va Plutarx kabi tarixchilar asarlarida ham u yoki bu fikrlar, mulohazalar tarzida uchraydi. Jamiyat rivojlanishi qadimgi Xitoyda Konfutsiy ta'limotida, qadimgi Yunonistonda Gesoid qarashlarida ko'zga tashlanadi. Bu qarashlar mifologik xususiyatlaridan ajralmagan protofalsafiy ta'limotlar bo'lsada, jamiyat rivojlanishi haqidagi daslabki g'oyalar sifatida keyingi davr allomalari qarashlariga u yoki bu darajada ta'sir o'tkazgan. Ikki mutaffakkir ham jamiyat rivojlanishiga bergan bahosi bir-biriga yaqin, ular o'zlari yashayotgan davrni jamiyat tanazzul bosqichi sifatida ifodalab, ijtimoiy yuksalishni regressiv jarayon deb biladilar.

Gesiodning jamiyat rivojlanishi konsepsiyasi odamlarning besh avlodi: oltin, kumush, bronza va temir avlodlar haqidagi afsonasida beriladi. Birinchi avlod «mangu xudolar» tomonidan oltindan yaratilgan bo'lib "u odamlar xudolardek hayot kechirgan". Keyingi avlodlar bundan yomonlashavergan. Eng oxirida temir davri yetib kelib, "Yerda endi temir odamlar yashaydi. Ular kunduzi ham, tunda ham mehnat, qayg'u va baxtsizliklardan boshini ko'tara olishmaydilar. Xudolar ularga og'ir ishlar yuklagan" Protofalsafiy qarashlarning biz uchun muhim jihati ularda ilk marotaba ijtimoiy hodisalar o'zgaruvchanligi ko'rsatilishi, o'zgarishlar kelib chiqish sabablarini tushuntirishga urinishadi.

Bu davr oralig'ida ijtimoiy-falsafiy tafakkurda keskin burilish kuzatilmaganligi uchun qadimgi yunon, o'rta asrlar yevropa va mumsulmon Sharqining qarashlarida tipologik mushtaraklik ko'zga tashlanadi. Faqat ilgari surilgan umumiy g'oyaning aniqlashtirilishini uchratishimiz mumkin. Ushbu fikrning tasdiqi sifatida qadimgi yunon, jumladan, Evropa va musulmon Sharqining ijtimoiy-falsafiy qarashlarini belgilagan Aflotunning falsafasini ko'rsatish mumkin. Aflotun o'zi yashagan davrni past, adolatsiz jamiyat sifatida ta'riflaydi va ushbu holatga ideal jamiyat modelini qarshi qo'yadi. Ularning (davlatlarning) nomlari uzunroq bo'lishi kerak, chunki ularning har biri bir qancha davlatlarning birligi hisoblanadi. Arastu qarashlariga to'xtaladigan bo'lsak, u ustozining fikrlarini aniqlashtirishga, undagi mifologik

o‘xshatishlarni kamaytirib, ma’lum darajada real asosga qo‘yishga harakat qilishini ko‘ramiz. Jamiyat taraqqiyotiga utopik yondashuv Aflotun davridan mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Faylasufning ideal davlat, baxt-saodatli jamiyat haqidagi qarashlari aslida utopiya edi. Al Forobiyning fozil odamlar shahri va ezgu amalli shahar, “Sof birodarlar”ning ijtimoiy utopik ideali bo‘lgan “Ma’naviy shahar”, Ibn Rushdning “Umum baxtiyor baxt saodat”ga qurilgan shahar kabi ta’limotlari ham ob’yektiv hayotdan, mavjud ijtimoiy munosabatlardan uzoq utopiyalar edi. K.Mangeym ta’rifiga ko‘ra, utopiya “yon-atrofdagi borliqqa muvofiq bo‘lmagan”, “prinsipida amalga oshirish mumkin bo‘lmagan tasavvurdir”.

Jamiyat taraqqiyotiga oid har qanday g‘oyada, tasavvurda utopiya elementlari bo‘ladi, real borliqdan farq qilmaydigan qarash ushbu borliqning o‘zidir, u o‘zida hech qanday yangilik, o‘zgarishni ifoda etmaydi. Jamiyat taraqqiyoti, umuman, taraqqiyot bilan bog‘liq voqeliklar kelajakka intilgani, mavjud reallikdan nimasi bilandir farq etgani bilan e’tiborlidir. Shu o‘rinda K.Mangeym ijtimoiy falsafa uchun muhim bo‘lgan utopiya va ong ustida to‘xtaladi. Uning fikriga ko‘ra, utopiya mavjud reallikni, borliqni keskin o‘zgartirish, hatto “mavjud borliq tizimini barbod etish” tarzida kelishi mumkin.

Ong esa, ko‘pincha mavjud reallikdan kelib chiqadi, an’analarga tayanadi, g‘oyaviy voqelik sifatida yon atrofdagi borliqni ifoda etadi. “Shuning uchun ma’lum bir “tartib” tarafdorlari va vakillari borliqqa nisbatan dushmanlik pozitsiyasida bo‘lishmagan, ularning maqsadi mavjud ijtimoiy tuzumda amalga oshirish mumkin bo‘lmagan g‘oya va intilishlarni jamiyat va tarix doirasidan siqib chiqarish orqali ularni xavfsiz qilishga intilishgan bo‘lgan”. Utopiyaga berilish mavjud ijtimoiy tartiblarga zid kelmagunicha va ochiqdan-ochiq ushbu tartiblarni g‘ayrihayotiy tarzda o‘zgartirishga da’vat etmagunicha xavfli emas, goho u badiiy estetik g‘oya, tasavvur sifatida inson tasavvurlarini boyitadi, uni yaratib yashashga undaydi.

Jamiyat taraqqiyoti uchun, ijtimoiy tartiblar va hayot tarzini modernizatsiyalash uchun bunday utopiyalar zarur, aynan ular tufayli ijtimoiy hayot yangilanib, o‘zgarib turadi, borliq dinamik hodisa namoyon bo’ladi.

Qadimgi Xitoy manbalarida esa antik davr jamiyatlariga oid qarashlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Xitoy tarixchisi Sim Nyan o‘zining “Tarixiy yodnomalar” asarida jamiyat hayotini

ma’lum bir tizim, o‘zining immanent qonunlariga ega borliq sifatida talqin qilishini kuzatamiz. Buyuk yurtdoshimiz, ensiklopedik olim Abu Rayhon Beruniy (973-1050 yy) esa o‘zining “Hindiston”, “O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarlarida jamiyat hayotini, taraqqiyotini ulkan bir voqelik, bir-biriga ulanib keladigan “sikl”lar tarzida talqin etadi. Boshqa bir buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy jamiyat hayoti va taraqqiyotini fozil odamlar, baxt saodat fenomeni bilan bog‘lab qaraydi. Jamiyat taraqqiyotini ma’lum bir ijtimoiy-tarixiy voqeliklar bilan bog‘lab talqin qilish buyuk Sharq allomasi Ibn Xaldun (1332-1406 yy)ning asarlarida o‘z aksini topgan.

Bugun jamiyat taraqqiyotini u yoki bu model tarzida qarashga intilmaydigan ilmiy izlanish yo‘q, jamiyat, uning kelajagi va o‘tmishi haqida fikrlaydigan har bir kishi, tadqiqotchi o‘zicha model, nazariya yaratishga intiladi. Jamiyat taraqqiyotini ijtimoiy-tarixiy voqelik sifatida talqin etish har bir davrning o‘ziga xos jihatlariga, undagi muhim voqealar va o‘zgarishlarga izchil qarashni taqozo qiladi. Shu nuqtai nazardan jamiyat taraqqiyoti izchil davom etadigan, davrlarni, voqea-hodisalarni dialektik uyg‘unlashtiradigan jarayonlar sifatida namoyon bo‘ladi. To‘g‘ri, bu modelda, yondashuv va talqinda tekis rivojlanishga moyillik mavjud.

Agar ijtimoiy tarixiy jarayonlar, voqea hodisalar bir-biriga dialektik bog‘liq talqin qilinsa, sub’yekt ularni ma’lum bir tekis rivojlanish tarzida izohlashga majbur bo‘ladi. Masalan, ingliz tarixchisi va faylasufi A.Toynbi sivilizatsiyalarni klassifikatsiya qilib, ular o‘rtasidagi mushtarakliklarni va o‘ziga xosliklarni ochib berishga intilganida, hatto o‘zi sezmagan tarzda, Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi bilan Yevropa, boshqa sivilizatsiyalar o‘rtasida ijtimoiy-tarixiy o‘xshashlik, yaqinlik borligini qayd etadi. Hind sivilizatsiyasining shakllantirgan ko‘pgina g‘oya, falsafiy spiritualistik ta’limotlar o‘z navbatida Yevropa sivilizatsiyasi negizida uchrashini kuzatish mumkin. Bunday ijtimoiy-tarixiy jarayonlardagi izchillik va mushtarakliklar borligini akademik N.I.Konrad ham qayd etadi.

Uning yozishicha, tarix falsafasining asoschilari bo‘lgan Polibiy va Sim syan ijtimoiy- tarixiy jarayonlarni “tarixiy zaruriyat”, “uzluksiz aylanish” tarzida talqin qilishgan[3]. Ushbu ikki mutafakkirning jamiyat taraqqiyotini ijtimoiy-tarixiy konsepsiya sifatida talqin qilishiga asosni N.I.Konrad ularning hokimiyatga e’tibor qaratganida ko‘radi.

Shuning uchun, deb yozadi akademik, "ularning falsafasi tom ma'nodagi tarix falsafasi emas, balki siyosiy hokimiyat falsafasidir. Aniqroq qilib aytganda, ular falsafasi tarix falsafasini hokimiyat falsafasi orqali ochib berishdir".

Jamiyat taraqqiyotini ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog'liq tarzda talqin qilish ilmiy adabiyotlarda keng tarqalgan. Hatto bunga jamiyat taraqqiyotini talqin qilishdagi eng asosiy yondashuvlardan biri sifatida qarash mumkin. Qadimgi "Artxashastra"(ml. avv. IV-III asrlar)dan tortib Nizomulmulk ("Siyosatnoma"), Xoja Samandar Termiziy ("Dastur al Muluk")gacha barcha asarlarda jamiyat hayoti va taraqqiyoti siyosiy hokimiyat, davlat, boshqaruv ishlari bilan uyg'un talqin qilinadi. Bu an'ana, talqin hanuzgacha ustuvorlik qiladi[2]. Zamonaviy jamiyatlar taraqqiyotini siyosiy institutlarsiz, davlatsiz tasavvur qilish qiyin, shu sababli ham ilmiy adabiyotlarda davlat boshqaruviga diqqat, e'tibor beriladi. Keyingi yillarda nodavlat institutlariga, fuqarolik jamiyatiga qiziqish kuchaydi, jamiyat taraqqiyotini ana shu institutlarning ishtirokini faollashtirish tarafdorlari oshib bormoqda. Biroq bu, yaqin o'rtada siyosiy institutlar o'rniga nodavlat tashkilotlari keladi, ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning asosiy sub'yekti nodavlat institutlari bo'ladi, degan xulosa chiqarishga asos bo'la olmaydi.

Jamiyat taraqqiyotini teomifologik talqin qilish ilmiy xarakterga ega yondashuv bo'lmasa-da, u falsafada, tafakkurda salmoqli o'rin tutadi. Ratsional bilan irratsionalni, din bilan jamiyat hayotini uyg'unlashtirishga bo'lgan bugungi intilish teomifologik talqinga qiziqish uyg'otmoqda. Taniqli ingliz etnografi va madaniyatshunosi E.Taylor va akademik A.F.Losevning fikriga ko'ra, miflar ilk odamlarning tafakkur tarzi, hayot falsafasi edi. Bu kishilar tabiat oldidagi ojizligini sirli, mavhum kuchlar totem, shaman, sehrgar, avliyo, xudo obrazlari orqali niqoblab, o'z qarashlarini ifoda etganlar. Ilk kishilar bu mifologik obrazlarni yaratib, inson bilan jamiyat, Yer bilan Osmon o'rtasidagi aloqalarni, kelajak haqidagi tasavvurlarini bildirganlar.

Jamiyat taraqqiyotini, kelajakni bunday talqin qilish deyarli barcha dinlarda uchraydi. Jumladan, jahon dinlari bo'lgan xristianlik va islomda u "behisht", "jannat", buddaviylikda "nirvana" tushunchalari sifatida talqin etiladi. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hadislarni talqin qilar ekan, Nabiy sollalohu alayhi vassalamning "Zamon bir-biriga yaqin

bo'ladir. O'ta baxillik ilqo qilinur va xarj ko'payur, degan so'zlarini keltiradi. Ushbu hadisda qiyomat yaqinligi, vaqtning barakasi qolmasligi, kishilar savobli ish qilmay qo'yadilar, natijada nizolar, odam o'ldirish ko'payib ketadi, degan fikr aytilgan. Qiyomat-qoyim, do'zax ana shu illatlarning natijasi sifatida keladi. Jamiyat taraqqiyotini bunday teomifologik talqin qilish kishilarni ezgu amallar bilan yashashga da'vat etishi bilan ibratlidir. Dinning avvalo axloqiy hodisa ekani, kishilar qalbida kelajakka ma'lum bir tasavvurlar uyg'otishi didaktik xususiyatga ega. Hatto din ma'lum bir dogmaga asoslansa, ushbu dogmasi orqali kishilarda kelajakka munosabatlar uyg'otsada, jamiyat taraqqiyoti doimo uning diqqat markazida turganini bildiradi. Kishilar o'zining kelajagi, qaerga borayotgani, nimalar uni kutayotgani haqida o'ylamasligi mumkin emas edi. To'g'ri, behishtni ham, jannatni ham, nirvanani ham ko'rgan odam yo'q, ammo kishilar qalbida ular nimagadir, qandaydir pok ijtimoiy makon borligiga ishonib yashashga ishonch uyg'otgan. Jamiyat taraqqiyoti aslida ana shunday ishonch orqali ta'minlangan.

O'rta asrlar Yevropasi antik davrda to'plangan g'oyalar diniy dogmalarga moslashtirilishini, bunday muvofiqlik Plotinning emanatsiya nazariyasi qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin. Plotinning bu nazariyasi Aflotunning jamiyat ideal holatidan uzoqlashib borishi haqidagi yarim mifologik qarashlarini ontologik asoslashga imkon berdi. Aflotun falsafasi asos bilan hodisani ajratib, ular o'rtasidagi ziddiyatni aks ettirgan bo'lsa, ularning bir-biriga o'tishi noaniq, obrazli, mifologik tushuntirlar edi. Plotin esa dunyoni borliqning kamayib borishini tushuntirib, tabiat va ijtimoiy hodisalarni jarayon sifatida tushunishga yordam berdi. Aytish mumkinki, Plotin falsafasida tarixiylik prinsipining kurtaklarini ko'rishimiz mumkin. Plotin yashagan davr va makoni ko'proq qadimgi yunon bilan bog'liq bo'lsa ham, uning qarashlari o'rta asrlarda dolzarblik kasb etadi. O'rta asrlar Yevropa falsafasining yirik vakili Avgustin Aflotun singari real jamiyat bilan ideal jamiyatning qarama-qarshiligini ta'kidlaydi. Avgustinda ushbu g'oya diniy tus olib, "Xudo shahri" va "yer shahri" qarama-qarshiligi ko'rinishada ifodalanadi. Shahar – lotincha civil so'zi bilan belgilanganlikdan Avgustin falsafasida bu atama bevosita shahar ma'nosida emas, ijtimoiy tuzilma sifatida qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin. Avgustin jamiyat rivojlani tushuntirilishi alohida ahamiyatga ega.

Jamiyat taraqqiyotini madaniy, sivilizatsiyaviy voqelik sifatida talqin qilishni nemis faylasufi, ma'rifatparvari I.G.Gerder (1744-1803 y.y.) boshlab bergan deyish mumkin. U o'zining mashhur "Insoniyat tarixi falsafasiga oid g'oyalar" asarida yozadi: "Insondagi barcha insoniylik uning hayotining barcha tomonlari bilan bog'liq: ma'naviy genezisiga muvofiq tarbiya ota-onalari, muallimlari, do'stlari, xalqi va ota-bobolari bilan bog'langan. Insoniyat avlodini tarbiyalash an'analarni yetkazish tufayli ham organik, ham genetik hodisa"[46].

Faylasuf fikriga ko'ra, insoniyat hayoti an'analar, ma'lum bir ijtimoiy tajribalar, tarbiya, din, axloq kabi ijtimoiy - madaniy hodisalar tufayli barqaror, uzluksiz, bir-biriga ulangan tarixiy jarayonlar ifodasidir.

O'zining «Tengsizlikning kelib chiqishi haqida» asarida J.J. Russo jamiyatning tanazzuli sababi sifatida xususiy mulkning kelib chiqishini ko'rsatadi. Xususiy mulkning kelib chiqishi temirning qo'llanila boshlanishi va unga bog'liq bo'lgan dehqonchilik kashf etilishi bilan bog'lanadi. "Temir va non odamlarni sivilizatsiyaladi va insoniyat avlodini qiyratdi"- deb yozadi J.J.Russo. Bundan ko'rinadiki insoniyat sivilizatsiyasi mutaffakir qarashlarida salbiy baholanadi. U "yovvoyilik" holatini oddiylik, soddalik, tabiiylik bilan "sivilizatsiya"ni aksincha, yolg'on va yasamalik bilan bog'laydi. T. Gobbs bilan J.J.Russo qarashlarida asos yaqin bo'lishiga qaramasdan undan kelib chiqadigan xulosalar har xil. Bizning fikrimizcha, J.J.Russo insoniyatning "yovvoyilikdan" – "sivilizatsiyaga" o'tishi sababini aniqlandi. Bu – inson moddiy ishlab chiqarish sohasidir. Ushbu g'oyasi bilan J.J.Russo T. Gobbsning "sun'iy" nazariyasini real jamiyat rivojlanishini tushuntiruvchi nazariyaga aylantira oldi. J.J. Russoning g'oyalarini jamiyat rivojlanishi haqidagi bir butun nazariya, deb qarash qiyin, u ko'proq o'z davri tanqidiga e'tibor qaratadi. Shunga qaramasdan, J. J. Russo taklif qilgan jamiyat rivojlanishida moddiy ishlab chiqarish munosabatlari, mulkchilik roli haqidagi g'oyalari K.Marks "formatsion" nazariyasiga ta'sir o'tkazadi.

Kant jamiyatni inson bilishining alohida o'rganish ob'yekti sifatida olib qaramaydi. U insonning bilish jarayoniga biroz terangroq nazar tashlaydi. Kant inson bilish faoliyati qaratilgan predmetlarni ikki asosiy turga ajratadi. Bular: insonning o'ylash faoliyati, tabiat va aqliy faoliyati bilan bog'liq erkinlikdir.

[46] Гердер И.Г. Идеи к философии истории человечества. Москва: Наука, 1972. С.51 -52.

Bundan kelib chiqqan holda jamiyat ham ikki tomonlama talqin qilinadi. Bir tomondan, tabiat rivojlanishining bir bosqichi, ikkinchi tomondan, inson erkinligi realizatsiyalanishi ko'rinishidir.

Kant tabiat, shu jumladan, jamiyat rivojlanishini inson taraqqiyotining bir tomoninigina tashkil etadi deb hisoblaydi. Buni fizikoteologiya deb ataydi. Insonning eng oliy maqsad sifatida rivojlanishi uning axloqiy sub'yekt sifatida shakllanishiga ham bog'liq. Buni Kant etikoteologiya deb nomlaydi. Etikoteologiyada Kant insonning real mazmunini emas, balki bo'lishi kerak mazmunni nazarda tutadi. Demak fizikoteologiyada jamiyatni tabiat singari ob'yektiv jarayon sifatida ifodalanadi, etikoteologiyada esa Kant so'zlari bilan aytadigan bo'lsak, dunyo rivojlanishining oliy maqsadi bilan aloqasini aks ettirib, unga qadriyatli munosabat bildiriladi.

Hozirgi sotsiologiyaning asoschisi hisoblangan Ogyust Kontning fikricha jamiyat rivojlanishi axloqiy yuksalish bilan bog'liq. U insoniyat jamiyati ham inson ruhi va har qanday fan singari o'z rivojlanishida uch bosqichni bosib o'tadi. Birinchi bosqich "teologik yoki fiktiv" (1300-yillargacha davr), ikkichi bosqich "metafizik yoki abstrakt" (1300-1800-yillar oralig'i), uchunchi bosqich "pozitiv yoki real" (uning fikricha XIX asr boshlaridan boshlanadi).

Birinchi bosqich dunyoning yaratilishi, uning asoslari haqidagi savollarni qo'yish, ya'niy mutlaq bilimlarga intilish bilan bog'liq. Ushbu intilish savollarga insonlarning xususiyatlari bilan bog'liqlikni tushuntiruvchi diniy bilimlarni keltirib chiqaradi. Birinchi bosqich ham o'z navbatida: fetishizm, politeizm va monoteizm davrlaridan iborat. Monoteizm ikkinchi bosqichning paydo bo'lishiga olib keladi. Ushbu metafizik bosqichda Xudo o'rnini asoslar ontologiyasi egallaydi. Ilgariga bosqichdagi singari mutlaq bilimga intilish davom etadi. Kontning fikricha falsafa - bu, qadrsizlanayotgan din. Uchunchi bosqichga kelganda insoniyat mutloq bilimga intilishtan voz kechadi va o'ziga real maqsadlarni qo'yadi. Ogyust Kont falsafada katta burilishni amalga oshirgan faylasuflaring biri sifatida qaralsa ham, uning jamiyat rivojlanishi nazariyasi ilmiy bilish masalalariga oid fikrlariga nisbatan kuchsizroq, deb hisoblash mumkin. U jamiyat rivojlanishini tahlil qilishta teskari, noto'g'ri yo'nalishni tanlaydi. Kont jamiyatning tarkibiy qismining rivojlanish qonuniyatlaridan jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini keltirib chiqaradi. Bu esa uning tanlagan metodining o'ziga xosligi bilan bog'liq.

O.Kont fikriga ko'ra, jamiyat taraqqiyotiga bolalik, yoshlik va kattalik xos. Individual ong va shakllanishga xos bu bosqichlar o'z navbatida jamiyat va insoniyatga ham xosdir. Mazkur har bir bosqich, o'sish, rivojlanish o'ziga xos ruhiy holatga, madaniy munosabatlarga bog'liqdir. Bolalik davrini O.Kont "teologik", yoshlik bosqichini "metafizik", kattalik davrini esa "pozitiv" deb atadi. Pozitiv bosqichda insoniyat taraqqiyoti ilm-fan, aqlu tafakkur, ijodiy izlanish bilan bog'liq bo'ladi.

Jamiyat taraqqiyotini organik vujud, madaniyatga xos jarayonlar tarzida talqin qilish sinfiy, marksistik formatsion yondashishni tanqidiy tahlil qilish avj olgan XX asrning oxirlarida an'anaga aylandi. Har qanday madaniyatga, sivilizatsiyaga o'zgarish, bosqichma bosqich transformatsiya xos, bu jarayonlar esa turli ziddiyatlarni, kurashlarni keltirib chiqaradi, qaysidir madaniyat shakli g'olib keladi, qaysidir shakli assimilyatsiyaga uchraydi. Bunday jarayonlarni hozir, ayniqsa globallashuv avj olayotgan XXI asrda yaqqol kuzatish mumkin. Xullas, jamiyat taraqqiyotini rang-barang madaniyatlar va sivilizatsiyalar uyg'unligi, to'qnashuvi va muloqotlari tarzida talqin qilish (L.Gumilev, A.Toynbi, P.Sorokin, N.D.Kondratev, S.Xantington, F.Brodel) bugun yetakchi yondashuvlardan biriga aylangan.

XIX asr o'rtalarida K.Marks tomonidan ishlab chiqilgan jamiyat rivojlanishi nazariyasi hozirgi kungacha ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixida salmoqli o'rin egallaydi. Nazariy aqidaning kuchli tomoni sifatida quyidagi omillarni ta'kidlab ko'rsatish maqsadga muvofiq sanaladi: Birinchidan, Marksgacha jamiyat rivojlanishi odamlarning istagi, manfaati o'zgarishlari asosida izohlangan. Odatda, insoniyat tarixi aniq shaxslar ma'naviy fazilatlari hosilasi sifatida idrok etilib, uning kelajagi ham buyuk siymolar shakllanishi bilan bog'langan. Bu holat esa jamiyat haqida ilmiy nazariya ishlab chiqishga to'sqinlik qiladi. Mashhur sotsiolog masalani keskin qo'yadi. Uning fikricha, "o'zi to'g'risida qanday fikrda ekanligigiga qarab insonga baho bera olmaganimizdek, qaltis davrga uning dunyoqarashi vositasida baho bera olmaymiz. Aksincha, bu holatni moddiy hayot ziddiyati, ijtimoiy ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi keskinlik yordamida tushuntirish kerak. Tezisda inson xohishi jamiyat ob'yektiv shart- sharoitlari bilan belgilanishi dalolatlandi. Unga muvofiq, jamiyat materiya harakatining bir shakli sifatida qayta ishlanib, tabiat kabi mustaqil nazariy tahlil ob'yekti bo'lishi ehtimoli nazariy

jihatdan asoslandi.Ikkinchidan, jamiyat rivojlanadigan va o'z-o'zini tashkillashtiradigan tizim sifatida tahlil qilinib, uning asosida turadigan muayyan soha maxsus ajratiladi. Joriy yo'nalish inson moddiy ishlab chiqarish faoliyatiga bog'lanadi. Endi jamiyat odamlar jamuljami sifatida emas, ishlab chiqarish munosabatlari bilan belgilanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi tarzida talqin etiladi; Uchinchidan, jamiyat rivojini harakatga keltiruvchi kuch sifatida moddiy boyliklarni ishlab chiqarish usuli ichki ziddiyati ko'rsatiladi. Marksning jiddiy yutug'i Gegel tomonidan ishlab chiqilgan dialektik metodni ilmiy tahlil metodologiyasiga joriy qilishi bilan o'lchanadi. Marks yangi dialektik ta'limotni ishlab chiqmadi, muallif ta'biricha, dialektikani faqat "to'nkarib qo'ydi". Uning bu harakati, ayniqsa, jamiyat rivojini ob'yektiv jarayon sifatida maxsus o'rganishga katta yordam beradi. To'rtinchidan, Gegel falsafasidagi markaziy g'oyalardan biri – "begonalashuv" kategoriyasi asosida K. Marks yangi jamiyat ichki qarama-qarshiliklarini ko'rsata oldi. Sotsiolog ijodi cho'qqisi – "Kapital" asari XIX asr o'rtalarida Yevropadagi ijtimoiy jarayon chuqur tahlilini yuzaga keltirdi va o'z davrida ham, keyinchalik ham jamiyat haqida qarashlarga jiddiy ta'sir o'tkazdi. K. Marks moddiy ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'lib, keyinchalik munosabatlarni belgilovchi omilga aylanadigan qo'shimcha mahsulot rolini asoslab beradi.

Ibtidoiy jamoa tuzumiga xos prinsiplar va hayot tarzini kelajakka ko'chirishga intilgan Marksni K.Popper "ochiq jamiyat dushmani" va u qo'llagan yondashuvni "istoritsizm" deb atadi[47]. Istoritsizm, K.Popper talqiniga ko'ra, o'tmishda qolgan, yangi davr va muhitga muvofiq kelmaydigan an'analar, hayot tarzi va boshqarish usullarini kelajakka ko'chirish prinsipidir. Bunday ko'chirish jamiyat talablari va ehtiyojlariga muvofiq kelsa xavfli emas, agar u mazkur talablar va ehtiyojlarga to'g'ri kelmasa, jamiyatga nisbatan kuch ishlatishga to'g'ri keladi.

Odam o'zini yakka holda emas, balki ma'lum bir jamiyatda aloqalar va munosabatlarga singish orqali ishlab chiqar ekan, bu ishlab chiqarishni ta'minlovchi ishlab chiqarish munosabatlari ham bo'lishi kerak. Odamlarni ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarish munosabatlariga jinslar o'rtasidagi munosabatlar (oila-nikoh munosabatlari), avlodlar o'rtasidagi munosabatlar, etnik guruhlar

[47] Поппер К. Открытое общество и его враги. Москва: "Культурная инициатива", 1991.

o‘rtasidagi aloqa, qarindosh qondoshlar o‘rtasidagi munosabatlarni kiritish mumkin. Jamiyatda barcha munosabatlar moddiy ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog‘liq. Lekin bu munosabatlar tabiiy munosabatlarni inkor eta olmaydi. Odamlarni ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarishi usuli unga mos ijtimoiy va individual ong turlari bilan ham farqlanib turadi. Jamiyat hayotini ishlab chiqarish usuli o‘z navbatida moddiy boyliklarni ishlab chiqarish singari bir-biriga chambarchas bog‘liq

- Odamning turlik xususiyatlari deganimizda avvalambor mehnat qilishga layoqati, shuningdek, qobiliyat, talab va manfaatlaring ortib borish xususiyatlari nazarda tutiladi va bu ikki komponentdan iborat bo‘ladi. Bular: jamiyat hayotini ishlab chiqarish kuchlari (tabiiy, moddiy ishlab chiqarish va inson) va jamiyat hayotini ishlab chiqarish munosabatlari (insonlar o‘rtasidagi tabiiy munosabatlar, inson biln tabiat munosabatlari, moddiy ishlab chiqarish munosabatlari)

- Jamiyat hayotini ishlab chiqarish kuchlari tarkibiga moddiy ishlab chiqarish kuchlaridan farqli tarzda quyidagilar kiradi: birinchidan, o‘z faoliyati davomida moddiy ne’matlarni va o‘z hayotini yaratuvchilari hisoblangan odamlar; ikkinchidan, jamiyat tomonidan ishlab chiqiladidan moddiy va ma’naviy ne’matlar; uchinchidan jamiyat bilan tabiat o‘rtasida mahsulot ayirboshlashga xizmat qiladigan geografik muhit. Umumiy ishlab chiqaruvchi kuchlarining belgilovchi komponenti bu jamiyat strukturasiing muhim qismi bo‘lgan inson omili hisoblanadi. Geografik muhitning jamiyat hayotiga ta’siri haqida gapirishdan oldin, geografik muhit faqatgina inson yashashi uchun zarur bo‘lgan tabiiy resurslar va sharoitlardan iborat bo‘lmay, u o‘z tarkibiga inson faoliyati oqibatlari yig‘indisini ham olishini nazardan qochirmasligimiz zarur. Jamiyatda hayot kechirayotgan tabiiy muhit undagi moddiy ishlab chiqarish usuli o‘ziga xosligini belgilaydi. Tabiiy sharoitlar, ishlab chiqarishning ma’lum bir sohalari ustunligini, inson ishlab chiqarilishi va qayta ishlab chiqarilishi jarayoniga o‘z ta’sirini o‘tkazib, jamiyat rivojlanishidagi o‘ziga xoslik kelib chiqishini belgilay oladi.

Postindustrial sivilizatsiya. Insoniyat sivilizatsiyasi XX asr o‘rtalaridan boshlab shakllanayotgan yangi bosqichini nomlash bo‘yicha adabiyotlarda turlicha fikrlar mavjud. Ayrim manbalarda postindustrial jamiyat deb nomlash, bazilarida axborot jamiyati, boshqalarida esa “ishlab chiqarishning yangi ilmiy- informatsion bosqichi” deb nomlash

taklif etiladi. Bizning fikrimizcha, sivilizatsiya rivojlanishi bu bosqichi belgilari shakllanish jarayonida, shuning uchun ham yangi sivilizatsiya xususiyatlarini to‘liq tahlil qilishga imkon bermaydi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatni ishlab chiqarish usulini rivojlanish asosi sifatida talqin qilish masala mohiyati haqidagi qarashlarni tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Bizningcha, jamiyat hayotini ishlab chiqarish usulini faqat formatsion yondashuv yordamida tushuntirish mumkin emas. Tadqiqot davomida formatsion usul ayrim prinsiplari inkor qilinishi guvohi bo‘ldik. Birinchidan, moddiy boyliklarni ishlab chiqarish usulining faqat o‘zi jamiyat rivojlanishini belgilamasligi ayon bo‘ladi; Ikkinchidan, barcha jamiyatlar yagona bir rivojlanish yo‘li bilan emas, balki odamni ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarish usuli, geografik muhit ta’sirida o‘ziga hos yo‘l bilan rivojlanishi aniqlandi; Uchinchidan, jamiyat rivojlanishi asosida ko‘rsatilgan moddiy boyliklarni ishlab chiqarish usuli tarkibidagi ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari o‘rtasidagi birlik va kurash emas, balki ustuvor jamiyat hayotini ishlab chiqarish usuli komponentlari o‘rtasidagi moslik va tafovut qonuni turishi aniqlandi. Lekin jamiyat hayotini ishlab chiqarishni takomil asosi sifatida olinishi formatsion usulni butunlay inkor qilmaydi. Formatsion usulda jamiyat rivojlanishi asosi sifatida ko‘rsatilgan moddiy boyliklarni ishlab chiqarish usuli jamiyat hayotini ishlab chiqarish usuli muhim tarkibiy qismi sifatida tan olinadi. Bularning barchasi jamiyat hayotini ishlab chiqarish usuli asos qilib olinadigan sivilizatsion usul formatsion usul yutuqlarini o‘z ichiga oluvchi, uning kamchiliklarini boshqa adqiqot usullari xulosalari bilan boyitadigan jamiyat rivojlanishini poliparadigmal asosda tadqiq qiluvchi usul ekanligini ko‘rsatadi.

Fuqarolik jamiyati. “Fuqarolik jamiyati” tushunchasi ham “davlat” tushunchasi kabi qadimiydir. Ob’yektiv voqelikning ushbu ikki holati ham o‘zaro aloqador bo‘lib ikki ming yildan ortiq vaqt mobaynida mavjuddir. Ular shu vaqt davomida ushbu tushunchalarning yuzaga kelishi va mavjudligi borasidagi nihoyatda ziddiyatli nazariyani ilgari surgan olimlar tomonidan tadqiq qilinadi. Fuqarolik jamiyati genezisini ba’zi tadqiqotchilar “Avesto”dan boshlab o‘rganishni tavsiya etadilar. Professorlar T. Do‘stjonov va S. Xasanov “Avesto”da fuqarolik jamiyatining o‘z davriga xos, o‘ta oddiy shakldagi asoslari, belgilari va xususiyatlarini ko‘rishimiz mumkin. deb ta’kidlaydilar. “Avesto”da “Nmanapati” (uy - ko‘rg‘on jamoasi), “Vispati” (qishloq jamoasi),

"xamjamana" (tuman - bir necha qishloq jamoasi), "dah'yupati" (viloyat - bir necha tuman jamoasi), "daxigo sastar" (viloyatlar jamoasi), "kavi" (mamlakat - kabilalar ittifoqi)"[48] kabi boshqaruv tartibi tilga olinganini keltiradilar. F.Musaev esa ular bilan bahsga kirishib, boshqacha fikrni bildiradi. "...Bunday boshqaruv shakllari barcha davrlarga va barcha davlatlarga xos hodisadir, chunki subordinatsiya aloqalarisiz biror siyosiy tuzum, hokimiyat bo'lishi mumkin emas... Agar S. Hasanov va T.Do'stjonov "Avesto"dagi hech bo'lmaganda "fuqarolik jamiyati" yoki "fuqarolik uyushmasi" atamasini misol qilib keltirganlarida ularning yukoridagi fikrlari e'tiroz uyg'otmas edi. Demak, har bir ijtimoiy hodisaning genezisini aniqlashda uning eng muhim belgisini topishdan kelib chiqqan ma'qul." Fuqarolik jamiyatiga xos ushbu "muhim belgi" nima? F.Musaev fikrlaridan ma'lum bo'ladiki, u, eng avvalo, o'zini o'zi boshqarish institutlarining to'laqonli faoliyat ko'rsatishi uchun siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy omillarning mavjudligidir.

Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Farobiy fuqarolik jamiyati, uning o'ziga xos xususiyatlariga doir ulkan ilmiy meros qoldirgan. Uning "Fozil odamlar shahri" nomli falsafiy asarida fuqarolarning demokratik tafakkurini takomillashtirish, davlat siyosatini samarali amalga oshirishga xizmat qiladigan xislatlar amaliy tavsiyalar tarzida bayon etilgan. Ushbu asar o'n to'qqiz bobdan iborat, o'n beshinchi bobi fozil jamiyat to'g'risida bo'lib, unda inson hojati va o'zaro yordami, jamiyat turlari, fozil shaharning idora usuli haqida so'z boradi". O'z o'zidan ayonki, inson huquqi va erkinliklariga, shaxs manfaatlarini qondirishga urg'u berilganida individ ongi (individual ong) bosh planga chiqadi, fuqarolik jamiyati u bilan hisoblashishi shart. Individ ongini (individual ongni) hisobga olmay shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarish haqida so'z yuritib bo'lmaydi. Xo'sh, ushbu muammo fuqarolik jamiyati va ijtimoiy ongning dialektik uyg'unligi, bog'likligi nuqtai nazaridan qanday hal etilishi mumkin?

Nazariy jihatdan olganda fuqarolik jamiyati fenomeni, uning ijtimoiy hayotning boshqa shakllari bilan o'zaro bog'liqligini o'rganishga qaratilgan. Bunday tadqiqotning umumiy natijasi o'rganish ob'yektining xususiyatini har tomonlama aniqlash, uning milliy o'ziga xosligini tushuntirish va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish yo'llari aniq maqsadini aniqlashga qaratilgan.

[48] Do'stjonov T.. Xasanov S. O'zbekiston demokratii tarakkiyot yo'lida. -Toshkent: Adolat, 2004. - 8 b.

Fuqarolik jamiyati fenomeni epistemologik vaziyatning o'zi tomonidan muammoga duch keladi. Ammo, nafaqat bu muammo balki, mamlakatimizdagi ijtimoiy hayot mohiyatini tahlil etib, ijtimoiy mexanizmining rivojlanish sublimatsiya[3]si-ijtimoiy tizimning past darajasidan yuqori samaradorlik mexanizmi darajasiga o'tadi. Taraqqiyot sublimatsiyasi fuqarolik jamiyati qurish samaradorligini oshiradi, jamiyat va shaxs tafakkurida o'zgarish yasaydi, eng og'iridan engiligacha, eng pastdan, eng yuqorigacha, ya'ni ma'naviy yuksalish sari yo'naltirilgan madaniy va tarixiy jarayon mexanizmi vazifasini bajaradi. Sublimatsiya konsepsiyasi bugungi zamonaviy falsafada keng ishlatilmoqda. Bu orqali falsafiy tafakkurga yangilangan g'oyalar kiritiladi, inson amalga oshirishi bilan bog'liq barcha ijobiy va salbiy tomonlar ochiladi.

"Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun asosida davlat va nodavlat tashkilotlarining jamoatchilik nazoratini kuchaytirishda asosiy subyektlar sifatida belgilanishi, o'z navbatida, fuqarolik jamiyati instituti faoliyatini o'zgartirish va ularning jamiyatdagi rolini oshirish vazifasini qo'ydi. Shu asosda Prezidentimizning 2018-yil 5-mayda "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora- tadbirlari to'g'risida"[1] alohida Farmoni qabul qilinib, jamiyatning ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu Farmonning ijtimoiy hayotga tatbiqi Prezident huzurida davlat va nodavlat tashkilotlarining barcha sohalarda ko'p tomonlama hamkorlikka qaratilgan jamiyatdagi barcha harakatlarni fuqarolik jamiyatini institutlarini shaffof tizim asosida birlashtiruvchi Maslahat kengashining tashkil etilganligi hamda ushbu masalaning dolzarbligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda taraqqiyotning yangi bosqichida samarali ijtimoiy siyosat yuritish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini «Fuqaroga xizmat qilishga yo'nalganlik» tamoyili asosida transformatsiya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Islohotlardan bosh maqsad inson hayotining sifati ni oshirishdan iborat.O'tgan qisqa davrda amalga oshirilgan islohotlar samarasini jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy–iqtisodiy, ijtimoiy–siyosiy, ma'naviy sohalardagi faollikda ham kuzatish mumkin. Maqsad «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan tamoyilni hayotga tatbiq etish, demokratik davlat va adolatli jamiyat asoslarini yanada mustahkamlashdan iborat.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" tamoyil asosida amalga oshirilayotgan islohotlar, "Fuqaroga xizmat qilishga yo'nalganlik", fuqarolarning manfaat-ehtiyojlarini qondirish, xalq bilan muloqot tizimi nafaqat bugungi shiddatli davrning haqli talabiga kreativ javob berilayotganini, balki kelgusi avlodlar bizdan ko'ra to'kis va baxtli yashashi uchun mustahkam asos yaratilayotganini ham anglatadi.

Davlat xizmatchilarining aholiga xizmat qilishga yo'nalganlik tamoyillarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- Hududning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, etnik xususiyatlari balansini tuzish;
- Hech bir fuqaroni bee'tibor qoldirmaslik;
- Aholini «yaxshi», «o'rta», «o'rtaga yaqin», «ehtiyojmand» ijtimoiy tabaqalarga tasniflash;
- Muammolarni nuroniylar, ayollar, yoshlar kesimida ajratib tahlil etish;
- Muammolarni yechishga kirishganda ularning eng dolzarb va eng murakkabidan boshlash;
- Muammolar yechimini davriy-vaqt, moliyalash, mutasaddilarga bog'lash, monitoring qilish kesimida hal etish bo'yicha «yo'l xaritalari»ni ishlab chiqish;
- Fuqaroga ratsional va obrazli tafakkur uyg'unligi asosida munosabatda bo'lish;
- Har bir fuqaro muammosini yechishda faqat murojaatchi ko'targan masalani hal etib berish bilan cheklanmas dan uning shukronaligini shakllantirish;

«Fuqaroga xizmat qilishga yo'nalganlik» tamoyili bevosita ijtimoiy faollikni talab qiladi. Bu esa traqqiyot, harakat tushunchalari bilan bevosita bog'liq. «Taraqqiyot» so'zi arab tilida «tez yuksalish»,«tez rivojlanish» degan ma'nolarni anglatadi. «Harakat» so'zi esa «turg'un narsani joyidan qo'zg'atish»,
«o'rnidan siljitish» ma'nosini ifoda etadi. Taraqqiyot so'zi o'z ichiga maqsad qo'yish, rejalashtirish, loyihalash, dasturlash, «yo'l xaritalari»ishlab chiqish, poydevorini yaratish, imoratni qurish, yangi hayot tarziga aholini tayyorlashni ham ifoda etadi.

Yangi O'zbekistonda «Xalq davlatga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak» tamoyili yangi tariximizda ilk daf'a amal qilmoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlarning jadal sur'atlarda bajarilayotganligi natijasida yuzaga kelgan o'zgarishlar O'zbekistonda shiddatkor ruhini hamda mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatda yangi imidjini yuzaga keltirdi.

Xalq qalbiga yo'l «Fuqaroga xizmat qilishga yo'nalganlik» ning muhim negizi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi mohiyatini anglatuvchi yuz maqsad negizida muqaddas bir katta haqiqat, ya'ni o'zbek xalqini millat sifatida birlashtirish, odamlarni bir-biriga xuddi ota-onaning o'z farzandiga mehri darajasida mustahkam bog'lash o'zaro oqibatli va totuv bo'lish, birga rivojlanish va birgalikda baxt-saodatga erishish uchun yakdil intilish ruhini qaror toptirish g'oyasi mujassamdir.

Bugungi kunda islohotlarning yana bir jihati boshqaruvda gorizontal yondashuvga allohida e'tibor qaratiliyapti.Prezidentimiz barcha islohotlarimiz mahallada o'zining aksini topishi kerak, deb ta'kidlab kelmoqdalar. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev joriy 2022 yil aprel oyida Farg'onaga qilgan tashrifi chog'ida "Mahalla xalq bilan davlat o'rtasidagi ko'prik bo'lishi kerak. Odamlarning quvonchu tashvishidan doimo xabardor bo'lish mahallaning asosiy vazifasidir", - deb ta'kidlagan edilar.

Yangi O'zbekistonda islohat fenominining barcha talab va mezonlariga javob beradigan amaliy ishlar olib borilmoqda. Har qanday hodisa, tushuncha yoki atamaning o'ziga xos shakllanish jarayoni bor. Yangi O'zbekiston fenomeni ham bundan mustasno emas. Ushbu tushuncha mamlakatimizning zamonaviy qiyofasini shakllantirish, yurtimizda demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi islohotlarimizning tayanch g'oyasini ifoda etadi. Ana shu g'oya asosida yurtimizda "Yangi O'zbekiston - Uchinchi Renessans sari" degan shior ilgari surilayotgani ham bejiz emas.

Yangi O'zbekistondagi adolatli siyosat uchun asos bo'layotgan va unda o'z aksini topayotgan asosiy jihatlar, mezonlar quyidagilardan iborat:

- butun mamlakatimizda keng ko'lamda islohotlarni amalga oshirilayotgani, eng muhimi, raqobatbardosh va tashqi dunyo uchun ochiq ijtimoiy-iqtisodiy makonni barpo etishga kirishilgani;

- bu tarixiy jarayonda dasturilamal bo'lib xizmat qilayotgan, mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasini to'liq amalga oshirish mas'uliyati butun xalqimiz tomonidan chuqur his etilayotgani;

Prezidentimizning turli darajalardagi chiqishlari, intervyu hamda nutqlariga diqqatimizni qaratsak, uning davrga nisbatan "eski zamonning umri tugab, yangi zamon boshlanayotgan lahzalar", "milliy tariximizning eng keskin va tahlikali davri», «notinch zamon», «notinch mintaqa", "global moliyaviy inqiroz", "xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlar kuchayib borayotgan", "turli mintaqalarda hamon davom etayotgan qurolli to'qnashuvlar" singari konseptlarning ta'kidlanishi, yangi o'zbek davlati bugun o'zini qay tarzda namoyon etmog'i, davlat strategiyasini belgilashda davrdan chiqishning ma'no- mazmuni o'z o'zidan ayon bo'ladi.

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar hozirgi zamon insoniyat taraqqiyotining talabi bo'lib, bu davomiylik jamiyatni modernizatsiyalash sari yetaklaydi. Shu asosda o'zbek falsafasidagi yangilanish tarixan zarur va muqarar bo'lgan jarayon hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan adolatli islohotlar chuqur o'ylangan, ilmiy asoslangan rejalarga muvofiq amalga oshiriladi. O'zining strategik maqsadini belgilab olgan jamiyat qayerga borayotganini aniq bilishi zarur, bu maqsadga borish uchun davlat va boshqaruv institutlari faoliyatini adolatli, ratsional tashkil etishi, fuqarolarini, ulardagi ijtimoiy potensialini islohotlarga safarbar qilishi darkor. Jamiyat va davlat boshqaruvi siyosiy faoliyat, bu faoliyat moddiy va ma'naviy kuchlarni adolatli, ratsional tashkil etishga da'vat qilingan. Taraqqiyot to'g'risida gap ketganida avvalo ana shu siyosiy faoliyat nazarda tutiladi va uning mohiyati, kelajakka yo'naltirilgan rejalari, mavjud muammolarni hal etish uchun qo'llayotgan taktikasi, moddiy va ma'naviy potensialni safarbar etish texnologiyasi xususida to'xtaladi.

Nazorat savollari:

1. Jamiyat fenomini mohiyati to'g'risida so'zlab bering ?
2. Jamiyatning ibtidosi qanday tipda shakllangan ?
3. Jamiyat va inson dialektikasini sharhlang ?
4. Sivilizatsiya tushunchasini sharhlang ?
5. Fuqarolik jamiyati nima ?

9- mavzu. Inson falsafasi (Falsafiy antropologiya).

Reja:

1. Inson tushunchasi, insoniyatning mohiyati, odam va olam kelib chiqishiga doir diniy va ilmiy-falsafiy qarashlar.

2. Insonga ilmiy-falsafiy yondashishning asosiy tamoyilari.

3. Dunyoda ro'y berayotgan demografik o'zgarishlar va ularning ahamiyati.

4. Insoniyat istiqboli, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy global muammolar.

Tayanch iboralar: *Inson, shaxs, individ, antropologiya, inson ongi, inson biologik mavjudot, inson — ijtimoiy mavjudot, inson faolligi, ekosofiya, insonni asrash, istiqlol va inson kamoloti, jamiyat, jamiyatning tuzilishi, oila, demokratik jamiyat, fuqarolik jamiyati, taraqqiyot, sivilizatsiya, jahon sivilizatsiyasi, madaniyat, qadriyatlar, qadrlash va qadrsizlanish mezonlari.*

Insonni o'rganishga bag'ishlangan falsafa bo'limi **antropologiya**[49] falsafasi deb ataladi. U inson bilan bog'liq ilmiy antropologiya yoki maxsus fanlar kompleksidan tubdan farq qiladi. Ma'lumki, deyarlik barcha fanlar uzoq vaqt davomida insonning yashirin kuchlari yoki o'limidan keyingi hayot muammolarini o'rganish bilan jiddiy shug'ullangan emas edilar. Hozirgi kunda esa insonning bioijtimoiy mavjudot sifatida o'rganish masalalari bilan falsafa va tabiatshunoslik fanlari jiddiy shug'ullanmoqdalar.

Insonning mohiyati muammosi. «Inson»[50] so'zi eng ko'p tarqalgan kundalik va ilmiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu so'zning tagida qanday mazmun-mohiyat yashiringan? Ma'lumki, tirik mavjudotning ma'lum biologik turi bu «Hemo Sapiens» - aqlli odamdir. Uning asosiy belgi va turlari qanday? U bo'yi o'rtacha - 160-180 sm bo'lgan, ikki oyog'i bilan tik yuradigan, oziqlanish usuli aralash (hayvon va o'simlik bilan oziqlanish), ko'payish usuli - jinsiy, miyasi to'liq, qo'llari yaxshi harakatlanadigan, o'rtacha umr uzunligi - 65-85 yosh (XX asrda), ichki organlari, nutqi va aqli rivojlangan mavjudotdir.

[49] Antorologiya (yunoncha anthropos "odam" - logos- "ta'limot") — odamning kelib chiqishi,odamzot irqlarining paydo bo'lishi.odamning tana tuzilishidagi tabiiy farq, tafovut ,o'zgaruvchanlik haqidagi fan.

[50] Inson [arabcha - odam] 1. Odamzod, bashar. 2.Har bir yakka shaxs; odam.

Ammo bu belgilar, uning tabiiy va ijtimoiy tirikchiligi bilan bog'liq tashqi ko'rinishi bo'lib, lekin uning mohiyatini tushunish imkoniyatini bermaydi.

Tafakkur – insonning eng katta boyligi bo'lib, undan mahrum bo'lish insoniy qiyofadan mahrum bo'lish demakdir. Tafakkursiz insonni tasavvur qilish mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Tafakkurni boshqarib bo'lmaydi, uni boyitib, charxlab borish mumkin, xolos.[51]

Tafakkur – inson aqliy faoliyatining eng yuksak shakli, ob'yektiv voqelikning ongda aks etishi, atrof-muhit, ijtimoiy hodisalar, voqelikni bilish jarayonini anglatadi. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar shakllanadi, ular shaxsning ongida tushuncha, hukm, xulosalar shaklida ifodalanadi. Tafakkur til va nutq bilan chambarchas holda namoyon bo'ladi. Insonga xos fikrlash faoliyat nutq bo'lib shakllanadi. Nutq jarayonida hissiy mushohada doirasi kengayib, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham uzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, inson ongli xatti-harakati bilan nutqi va ichki dunyosini namoyon qiladi. Tafakkurning ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida o'zgarishi, voqelikni umumlashtirib narsa va hodisalar o'rtasida umumiybog'lanish va munosat o'rnatib, umumiy xususiyatlar o'rnini va qiymatini anglab yetishiga olib keladi.

Antropogenez muammosi. Antropogenez - bu odamning kelib chiqishi va insonning keyingi rivojlanishi. Hozirgacha bu muammo fan, falsafada va dinida ko'plab munozaralarga sabab bo'lmoqda. XIX va XX asrlarda ilmiy anropologiyasida odamning biologik evolyutsiyasi hukmronlik qilib, uning qaror topishiga ingliz naturalisti Ch.Darvin katta hissa qo'shdi.

Hozirgi madaniy makonda mavjud bo'lgan odamzodning kelib chiqishi haqidagi har xil nazariyalami uchta: teologik, biologik evolyutsiya va kosmik evolyutsiya konsepsiyalariga ajratish mumkin.

Insonning teologik konsepsiyasi. Bu konsepsiya Xudo tomonidan dunyo va odamning yaratilishi – ***kreatsioniz***[52] to'g'risidagi diniy ta'limotning bir qismidir. Xudo o'zining qudratiga binoan "o'ziga o'xshash" odamni yaratadi. Bu jarayon hech qanday evolyutsiyani ko'zda tutmaydi. Injilda aytilishicha odamning jismi, "yer, tuproq"dan yasalgan bo'lib, xudo unga jon kiritgan. Shu tariqa, birinchi mavjudot erkak bo'lgan. Keyinroq xotin uning "qovurg'a"sidan yaratilgan. Boshda ular jannat bog'larida yashaganlar. Diniy aqidaga binoan Xudo insonni ma'lum bir aybi uchun yaxshi va yomonni bilsin, deb ma'lum yerdagi tabiiy hayotga tushirgan, odam urug'i shunday boshlangan va ko'payib borgan.

Insonning biologik konsepsiyasi. Bu tirik tabiat evolyutsion rivojlanishi to'g'risidagi darvinizm nazariyasining oqibati hisoblanadi. Bu konsepsiya tarafdorlari inson ibtidoiy davrda yashagan odamsimon maymundan kelib chiqqan deb faraz qiladilar. Odam va hayvonot dunyosining rivojlanishi, takomillashish tomonga asta-sekin o'zgarish jarayoni evolyutsiya demakdir. Biologik evolyutsiya jarayonida quyidagi omillar, ya'ni genetik irsiyat, genetik o'zgaruvchanlik va tabiiy tanlash hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu omillar mifologik va antropoid maymun, boshqa o'zgarish, jarayonlami ijobiy oqim tomon yo'naltirdilar, oxir oqibatda yangi sifatlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Inson to'g'risidagi kosmik konsepsiya. Bu konsepsiya izdoshlari quyosh tizimidagi planetalardan birining evolyutsion ichki ta'siri natijasida odam hayoti kosmik shaklidan kelib chiqib, yerda paydo bo'ladi, deb hisoblaydilar. Yerda hayot evolyutsiyasi ikki yo'l - astral-psixik (biologik bo'lmagan) va oqsil-nuklin (biologik hayot - birinchi tirik hujayradan murakkab ko'p hujayrali organizmgacha) bilan amalga oshiriladi. X (iks) nuqtasida (taxminan bir nechta million yildan necha o'n million yil oldin) bitta mavjudot hayot evolyutsiyasining ikki oqimi kesishishi sodir bo'ladi. U o'z biologik jismining antral (ruhni) to'ldiri shiga erishadi.

Kosmik evolyutsiya konsepsiyasiga binoan odamning kelib chiqishi va rivojlanishiga qanday asosiy omillar ta'sir qilgan? Bu kosmik yoki ma'naviy omil (kosmosning energetik ta'siri va oliy aqliy mavjudot). Bu biologik omil (naslchilik, o'zgaruvchanlik, tabiiy tanlash). Bu ijtimoiy-madaniy omil (ijtimoiy munosabatiar, mehnat, ta'lim, tajriba almashish). Deyarli yuz yil bu g'oyalar ilmiy dunyo tomonidan e'tiborsiz qoldi. Unga qiziqish faqat XX asr oxirlarida osha tomonidan e'tiborsiz qoldi. Unga qiziqish faqat XX asr oxirlarida osha boshladi. Inson axborot-energetik nazariyasining tarafdorlari, inson kosmik evolyutsiyasi konsepsiyasi kelajakda katta istiqbollarga ega, deb faraz qiladilar.

Inson mohiyati borasidagi ilk tasavvurlar falsafa maydonga kelishidan ancha avval paydo bo'lgan. Mavjudotlar ichida aziz va mukarram qilib yaratilgan inson o'zining aqli, ongi va tengsiz zakovati,

[51] Turkiston gazetasi. 1999-yil 3-fevral.

[52] Falsafa qisqacha izohli lug'at. Mualliflar: M.N.Abdullayeva, M. Abdurashidov, U.Abilov va boshq.: Ma'sul muharir: A Jalolov.-T.: "Sharq", 2004, 303-304 betlar184

odamiylik kabi fazilatlari bilan ulug'dir. Hazrati odam – bilim, aqlu-idrok sabab, muhtaram. Kamolotga yetgan insonni turli tushunchalar bilan tasnif etganlar. Ularga nisbatan "sog'lom inson", "barkamol inson", "haqiqiy inson" degan tushunchalar ishlatilgan.

Inson jismi va ijtimoiy qiyofasi orasidagi aloqadorlikni tushuntirib berishda Arastu o'z o'tmishdoshlaridan ancha ilgarilab ketdi. U inson – "siyosiy maxluq"dir deya ta'kidlaydi. Agar hayvonlarning ovozi quvonch va g'am- alamni ifoda etishga xizmat qilsa, insonning ovozi esa nima foyda va nima zarar ekanligini va shuningdek, nima adolatli-yu, nima adolatsizligini ifodalab beradi.

Arastu fikricha, odamlar tabiatan teng emas. Qul bilan quldor bamisoli hayvon bilan insondir. Birinchi toifadagi insonlar jismoniy mehnat uchun tug'ilgan bo'lib, boshqa birovlarning istak-irodasini amalga oshiradilar. Ular oqillikni tushunadilar, lekin o'zlari aqlga ega emaslar.

Xuddi shunday musulmon falsafasi va uning asosini tashkil etuvchi tasavvuf falsafasi namoyondalarining qarashlarida ham inson mohiyati masalasi alohida o'rin egallaydi. Jumladan, o'rta asr musulmon falsafasining yirik namoyoondalaridan biri bo'lgan Mansur Xalloj insonga ta'rif berar ekan, "Ilohiylik insoniylikda o'zini namoyon qiladi" deb ta'kidlaydi. Mansur Xalloj tomonidan asos solingan hurfikrlik an'analari keyinchalik o'rta asr musulmon falsafasi namoyondalari, jumladan, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Ibn Rushdlar tomonidan rivojlantiriladi.

Ibn Sino ontologiyasida insonning kelib chiqishi muammosi dunyoning kelib chiqishi konsepsiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Ibn Sino o'quvchining e'tiborini muhokama qilinayotgan muammoga qaratish va go'yo uni haqiqatni birgalikda izlashga jalb etish borasida o'zining boshqa asarlarida ham ushbu Aflotunning bayon etish uslubidan foydalanadi. Barcha ibtidolarning boshlanishi nima, yoki boshqacha qilib aytganda, "birinchi navbatda Tangri nimani yaratgan? - degan azaliy savolga Ibn Sino: "O'zini va yaratuvchisini ko'zgu kabi biladigan aynan bilimga o'xshash ommaviy ong" - deb javob beradi. Ibn Sinoning fikriga ko'ra, yaratishning maqsadi ongning namoyon bo'lishi ekan, demak, ongning yaratilishidan maqsad - ibtidoiy Haqiqatning namoyon bo'lishidir.Substansiyaga kelsak (unsur), u ierarxik zinapoyaning to'rtinchi pog'onasini egallaydi. Tabiat mohiyatini bilish maqsadida Ibn Sino o'z o'quvchisini shunday savol bilan o'yga soladi. Shunday qilib,

tabiat, ruh tufayli vujudlarga harakat bergan va uni kamolga yetkazgan: Ibn Sinoning fikricha, vujudning eng oliy kamoloti – "umumiy shakl" (ummulashkol) deb e'tirof qilingan "doira shakli"dir. U boshqa shakllar orasida birinchi bo'lib, ruh dunyosiga taqlid qilishda paydo bo'lgan. Undan keyin "yoy shaklidagi", "uchburchak" va "kub"shakllar joylashgan. Tananing "fozil bo'lishi" (savf) oqibatida undan "Oliy Osmon" (Falaki A'lo) paydo bo'lgan. Keyinchalik unga samoviy ong va samoviy ruh qo'shilgan. Ibn Sinoning fikricha, "Oliy osmon" o'zining tadrijiy taraqqiyotida ketma-ket to'qqizta samoviy jismni yuzaga keltiradi: yulduzsiz osmon sferasi (Falak ul aflok), harakatsiz yulduzlar sferasi (Falak ul burj), Saturn sferasi (Falaki Zuhal), Yupiter sferasi (Falaki Mushtari), Mars sferasi (Falaki Mirrix), Quyosh sferasi (Falaki Shams), Venera sferasi (Falaki Zuhro), Merkuriy sferasi (Falaki Atorut) bo'lib, mazkur qatorni Oy sferasi (Falaki Qamar) yakunlaydi. Oy osti dunyosi evolyusiyaning pasayish chizig'i tabiat tutashgan materiyaning paydo bo'lishiga olib keladi. Tabiat moddiy olamining xilma-xilligining yuzaga kelishiga aynan materiya (modda) xizmat qilgan. Bunday harakatsizlik natijasida namlik va keyinchalik - sovuqlik substansiyasi paydo bo'lgan. O'z navbatida namlik materiyalarning zichligini belgilaydi, u esa quruqlik shakllanishiga olib keladi. "Qaytish" harakati tabiat yoki materiya dunyosini murakkablashtirish g'oyasiga asoslanadi. Ushbu yo'lda birinchi qadam yuqorida aytib o'tilgan to'rtta asl substansiyalarni aralashtirish va ulardan tabiiy olamning xilma-xil turlari va shakllarini hosil qilish jarayoni edi. Ikkinchisida, ruhning ta'siri tufayli, hissiyotning birinchi kurtaklari o'zini namoyon qiladi. Ibn Sinoning nazarida, hayvonot dunyosi darajasida paydo bo'lgan birinchi mavjudotlar sadaf, chig'anoq (gushmohi) bo'lib, ular faqat bitta tuyg'u - sezish qobiliyatiga ega bo'lgan. Rivojlanishning evolyutsion bosqichiga ko'tarilgach, hayvonot dunyosining turlari ham mukammallashib bordi.

Falsafa tarixida inson to'g'risida juda ko'p qarashlar mavjud bo'lib, ulardan ba'zi bir eng ma'lum va xarakterlilarini umumlashtirilgan holda keltiramiz.

- Odam - koinotning qismi, kichik koinot (mikrokosm) - qadimgi hind, xitoy, yunon falsafasi.
- Odam - bu abadiy, mutloq ruh (Atman) - qadimgi hind falsafasi (yoga, vedanta).
- Odam - barcha narsaning o'lchovi - qadimgi yunon sofistlari (Protagor va boshq).

- Odam – siyosiy hayvon – (Arastu).
- Odam – qiyofa va xudoga o'xshash – (O'rta asr nasroniylik teologiya).
- Odam - fikrlovchi mavjudot – (R.Dekart).
- Odam - jonlantirilgan mashina – (J.Lametri).
- Odam-ikkidunyogategishlimavjudot. Tabiiy zaruriyat dunyosiga va axloqiy erkinlik dunyosiga – (I.Kant).
- Odam - tartibsizlik, ziddiyatlardan qo'rqish, aql va jahl urushi. – (B.Paskal).
- Odam – aqlli hayvon – (K.Linney).
- Odam – qurol ishlab chiqaradigan hayvon – (B.Franklin),
- Odam-tanlovchi mavjudot - (S.Krkegor).

Ma'lumki, odamga yuqorida berilganta'riflarning ko'p qismi tor va bir tomonlama bo'lib, uning mohiyatining bir tomonini ko'rsatadi, xolos.

Inson hayotida mehnat asosiy rol o'ynaydi. Mehnat tufayli inson o'zi yashayotgan tabiiy muhitni o'zgartiradi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadi, o'z-o'zini o'zgartiradi. Yuqorida keltirib o'tilgan fikr mulohazalarimiz insonning murakkab, bir butun biosotsial jonzot ekanligidan dalolat beradi.

Inson to'g'risidagi ilk tasavvurlar falsafa maydoniga kelishidan ancha avval ham bo'lgan. Bular tabiat va inson nisbati to'g'risidagi ertaklarda, turli asotirlarda (miflarda) ifodalangan eng sodda fikrlar edi. Ayni shu fikrlar asosida va ular bilan aloqadorlikda insonni falsafiy tushunishga doir ta'limotlar yuzaga keladi.

Umuman insonning mohiyatiga berilgan ta'riflami to'rtta asosiy yondashuvga (boshqalari ham bor) ajratish mumkin.

1. Biologizatorlik. Bu yondashuv tarafdorlarining fikricha, insonning mohiyati - bu uning tabiiy asosi bo'lmish biologik jismlar va insonning tirikligini ta'minlovchi har xil organlarning xususiyatlardan iboratdir. Bunda insonning mohiyatni belgilovchi ijtimoiy va ma'naviy jihatlar qarab chiqilmasdan,faqat biologik jihatlar asos qilib olinadi. Bunday qarashlarni hind falsafasidagi charvak maktabining, yangi dunyo Yevropa faylasuflari J.Lamitri (mexanitsizm), T.Gobbe (mexanitsizm), L.Feerbax va boshqalaming izdoshlari yoqlab chiqdilar.

2. Teologizatorlik. Bu yerda insonning mohiyati «jon» masalasiga bog'lab tushuntiriladi. U biologik jism - tanaga qarama-qarshi qo'yiladi va inson mohiyatining ijtimoiy jihati bu yerda

odatdagiday qarab chiqilmaydi. Inson ruh (ilohiy asos), jon (ilohiy asosning aks ettirilishi, odamning «men»ligi, uning ongi), jismi (tabiiy asos) uyg'unligi sifatida tushuniladi.

Jonni odamga Xudo beradi. shunday qilib ong ham Xudoning tuhfasidir. Biroq, bu konsepsiya, qanday qilib xudo ongni (jon) yaratganligini aniq tushuntirib berolmaydi.

"Tasavvuf falsafasiga ko'ra, inson qarama-qarshi ikki asos- modda va ruhdan iborat. Shuning uchun unda shu ikki asosning xususiyatlari mujassamdir. Agar moddiylik g'alaba qilsa, insonda hayvoniylik va agar ruh tomon ustun kelsa, ilohiylik rivojlanadi".[53]

Naqshbandiya ta'limotiga ko'ra "zikri xufiya", halol luqma va o'z mehnati bilan kun kechirish insonni riyodan poklaydi, uning qalbida hasad, kibr, ta'maga o'rin qoldirmaydi. Ushbu tariqat yo'lini tanlagan solik o'z kasbu-kori orqasidan o'zini, o'z oilasini ta'minlabgina qolmay, ular o'z ota-onalari, qarindosh urug'lari, farzandlari oldidagi burchlarini ham to'la ado etadilar, shuningdek, muhtojlarga ham yordam bera oladigan chiroyli xulq egalari bo'ladilar.

Ibtidoda inson o'ziga qanday mas'uliyat, kuch-salohiyat ato etilganligini his qilolmaydi. Naqshbandiya tariqatining Xoja Ahror Valiydan keyingi davrdagi murshidi, "Shahbozi balandparvozi" ("Balandparvoz lochini"), "Piri shasti"("Oltmish muridni tarbiyalab, kamolot cho'qqisiga yetkazgan pir") unvonlariga ega bo'lgan Maxdumi A'zam ta'limoti insonni shu qudrat sari yetaklaydi.

"Maxdumi A'zam risolalarining bosh mavzusi "inson va uning aql-idroki, axloqiy qiyofasi yaratganning eng muqaddas kashfiyotidir", degan g'oyaga asoslangan. Shunga muvofiq Maxdumi A'zam o'zining ijtimoiy qarashlarida o'ziga xos bo'lgan inson- insoni komil tamoyilini yaratdi.Uning bu tamoyili insonni ilohiyligi zaminidan kelib chiqadi va Alloh taoloning quyidagi "Men (odamni) yerda xalifa qilmoqchiman"(Qur'oni karim, 2-Baqara surasi, 30 oyat) so'zlariga asoslangan".[54] Ana shu sifatlar allomaning barcha asarlarida markaziy o'rinni egallagan.

Maxdumi A'zam "Risolai vujudiya" asarida inson umrining turli bosqichlari haqida ma'lumot berib, ularning har birini tasavvuf nuqtai nazaridan izohlaydi. Shu bilan birgalikda, inson umri oniy, lahzaviy ekanligi, bu o'tkinchi va foniy olamda dunyoga ortiqcha muhabbat

[53] Komilov N.Tasavvuf.Birinchi kitob.-Toshkent: "Yozuvchi".1996.-B.42.
[54] Karimov.S.Maxdumi A'zam Dahbediy tasavvufiy ta'limotining sotsiologik jihatlari/ O'zbekiston fanlari tizimida sotsiologiyaning o'rni.(Ilmiy maqolalar to'plami).-Samarqand:2006,-B.20.

qo‘ymaslik, balki boqiy hayot sanalmish oxirat uchun ko‘proq xayrli ishlar qilib qolish zarurligini ta’kidlaydi. Maxdumi A’zam avvalo inson qanday zot? Parvardigori olam uni nima maqsadda yaratgan? kabi masalalarni yoritib, keyin jism va ruh aloqadorligini falsafiy nuqtai nazardan tahlil etadi. “Inson ruh va badandan tashkil topgan borliq bo‘lib, uning ruhi "ilohiy ruhdan" va "rabboniy amr"dan, badani esa "tuproq" va "loy"- dan tashkil topgan. Latoif ruh jism bo‘lgan badanga kirgach, moddiy unsurlarning unga ko‘rsatgan ta’sirlari natijasida asl sofligiga ziyon yetkazganligidan va inson kamoloti faqatgina ruhning sofligini muhofaza qilish orqali mumkinligi va ruhning badan ustidan g‘alaba qozonishi uchun chora- tadbirlar ko‘rish tasavvufning g‘oyasidir”[55], - degan fikrni ta’kidlaydi. Mutafakkirning fikriga ko‘ra insonda ruh ham bitta, jism ham bitta, faqat ruhning darajalari har xil: jism ruhga, ruh jismga muvofiq, bir-biridan ajralmaydi. Jism bilan ruh birga rivojlanadi va komilikka erishguncha kamolot bosqichlaridan ko‘tarilib boraveradi. Bu nazariya esa insonni ma’naviy barkamollikdan komillikka sari olib chiqish yo‘llari, ya’ni axloqning yetukligi kategoriyasidir.

Ibn Sino inson vujudining ruhga bo‘lgan munosabati haqidagi masalaning falsafiy jihatlarini chuqur tahlil qilgan musulmon Sharqining uyg‘onish davri birinchi faylasuflaridan hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, mutafakkir ta’limotida inson shakllanishi, tarbiyasi, atrof-muhitga munosabati, borliqni o‘rganishi, tabiat qonunlarini bilishga intilishi jarayoni falsafiy talqini asosiy o‘rin egallaydi. U jon va ruhning inson ijtimoiy faoliyatidagi o‘rni haqida falsafiy, ilmiy asoslangan, fikrlarni birlashtirishga harakat qiladi. Shuningdek, substansiyasi jihatidan ruhga juda yaqin va inson vujudining, tananing bevosita harakatlantiruvchisi bo‘lgan oraliq shakl - jon borligini ilmiy jihatdan isbotlaydi. Ibn Sinoning fikricha, odam ikkita substansiyadan - jon va vujuddan tarkib topgandir. Inson vujudini butun a’zolari bilan birgalikda yagona mexanizm, deb faraz qilsak, jon bu tuzilmadan o‘z faoliyati uchun samarali foydalanadi.

Ibn Sino fikricha, tandagi jon substansiyasi nozik bo‘lib, u to‘rt juft element (qon, o‘t, qora o‘t va flegma)dan tashkil topgan. U shuningdek, jon kuchidan tarkib topgan, shuning uchun ko‘ruv nervida to‘siq paydo bo‘lganda, tanada tutqanoq vujudga kelsa, zarb yeganda va falaj holatda inson a’zolarning tanadagi kuchi zaiflashadi.

[55] Zoirov E. Maxdumi A’zamning falsafiy va ijtimoiy siyosiy qarashlari. - T: "Turon zamin ziyo". 2015.- B.73.

Qayd qilish lozimki, mutafakkir fikricha, o‘simliklar - bu tirik organizm bo‘lib, hayvonlar va odamlar kabi oziqlanadi, ko‘payadi va o‘sadi, qariydi, halok bo‘ladi. Ibn Sino ta’kidlashicha, o‘simliklar hayvonlar kabidir, ya’ni rivojlanishning quyi, o‘rta pog‘onasida turishadi. Odamga esa, ong rivojlanish faoliyatining eng yuqori darajasi berilgan. Hayvonlarga “hayvoniy kuch”, ya’ni ixtiyoriy harakat va sezish qobiliyati xosdir. Insonda esa aqliy jon mavjuddir, shu bilan birgalikda hayvon, o‘simliklarning o‘ziga xos jonlari ham mavjud ekanligini qayd qilish lozimki, kishining o‘simlik joni, ya’ni uning o‘simlikka xos hayotini (ya’ni paydo bo‘lish, o‘sish va oziqlanish), hayvon joni - harakat va bilishni, insoniy (aqliy) jon esa, uning aqliy faoliyatini shaklantiradi.

Odam tanasidagi jon kuchi joylashadigan va uning harakatlariga ta’sir o‘tkazadigan manba inson miyasi hisoblanadi. “Tabiiy kuch” ikki turga bo‘linadi: biri odamning avlodini saqlab qolish uchun xizmat qiladi va tuxumdonda joylashadi. Ikkinchisi his qilish va harakatning eltuvchisi bo‘lgan “hayvoniy kuch” manba inson yuragida joylashadi.

3. Sotsiologizatorlik. Bu yerda inson mohiyati ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi sifatida qaraladi. Bu nuqtayi nazar nemis faylasuf K.Marks va uning ko‘p sonni izdoshlariga tegishlidir.

Bu uchta yondashuvda boshqalar zarariga, inson mohiyatining jihatlaridan biriga (biologik, ma’naviy yoki ijtimoiy) haddan tashqari e’tibor qaratilganligini kuzatish mumkin. shunday ekan, qayd qilingan yondashuvlar bir tomonlamadir.

Hozirgi kunda inson mohiyatining har xil jihatlarini birlashtiradigan, sotsiokosmik yondashuv eng qiziqarli bo‘lib ko‘rinmoqda.

4. Sotsiokosmik yondashuv. Bu yerda inson mohiyatining uchta jihati - ma’naviy, ijtimoiy, biologik tomonlari bor, deb taxmin qilinadi. Ma’naviy yoki kosmik jihat insonning ma’naviy mohiyati bilan bog‘liq. Ijtimoiy jihat madaniy ta’sir natijasida jamiyatda shakllangan inson shaxsiga bog‘liq. Biologik yoki moddiy jihat insonning biologik jismi va tabiiy (tug‘ma, sezgi) intilishlariga bog‘liq.

Sotsiokosmik yondashuvga binoan, inson biologik jismlar, shuningdek quyi va oliy energetik jism (qobiq)lardan iborat. Oliy energetik jism inson mohiyatining ma’naviy-kosmik jihatlaridan tashkil topib, o‘lmas va bir moddiy shakldan boshqasiga ko‘chib yuradi.

Sofistlardan Protagor miloddan avvalgi V asrdayoq "Inson barcha narsalar mezonidir, u mavjud narsalarning mavjudligini, yo'q narsalarning esa yo'qligini belgilaydi", deb qayd etgan edi. Suqrot ham haqiqat izlab insonga murojaat etadi. Inson o'z joni faoliyatini boshqara oladi, shu bois dunyoni tushunish yo'li o'z-o'zini bilish orqali o'tadi, deb hisoblaydi.

Inson taqdiri va erkin iroda masalasi azal-azaldan insoniyatni qiziqtirib kelgan. Qadimgi yozuvlarda, Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da, yozma yodgorliklarda, xalq og'zaki ijodida, faylasuflar, tabiatshunos olimlar, shoirlar va diniy ilm vakllarining asarlarida bu masalaga qayta-qayta murojaat qilingan.

Inson falsafasi, mohiyati, olamdagi o'rni, hayot mazmuni olamdagi munosabati masalalari, muammolarini faylasuflar tahlil etar ekan, o'z ichiga 20 turga yaqin oqimlarni oladi. Mana shu 20 oqimning barchasida asosan – inson hayotining mohiyati, mazmuni va nihoyasi mushohada qilinadi.

Tasavvufdagi eng muhim masalalardan biri inson mavzusidir. Ammo insonning vujudiy emas balki, ruhiy tuzilishlari, hol-u harakatlari diqqatga sazovordir. Ma'lumki, inson tana va ruh birligidan iborat bo'lib, tana orqali inson boshqa yaratilganlardan farq qilmasa-da ammo, ruhning mavjudligi ila u insoniylik xususiyatiga egadir hamda aynan shu mohiyat sababli ham u boshqa jonzotlardan ustunroqdir.

Tasavvufning g'oyasi inson ruhidagi ma'naviy kamolotni yuksaltirishdir[56]. Ilk mutasavviflar inson ruhiga uning takomil darajalarini hisobga olib tab', nafs, qalb, sir, ruh kabi nomlar qo'yganlar.

Jaloliddin Rumiy inson va uning shaxsiga yondashar ekan, u insonni olam ichidagi kichik olam sifatida e'tirof etadi va ularni bir qancha turlarga ajratadi (1-rasm). Inson qiyofasida olamdagi barcha mavjudotlarning ifodasini ko'rish mumkin. Chunki u o'zida butun olam borlig'ining mohiyatini birlashtiradi deya ta'kidlaydi mutassavvif olim. Qolaversa, mutasavvif olim insonlarni zohiriy va botiniy olami mutanosibligiga ko'ra, Ya'ni xatti-harakatlari va aql-zakovatiga qarab ham toifalarga ajratadi (1-rasm).

[56] Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. T.: "Istiqlol". 1999-yil. 138-192

1-rasm.

U insonni har tomonlama mukammal qonuniyatlar asosida yaratilgan va takrorlab bo'lmas mo'jiza sifatida ta'kidlaydi hamda "Inson – tangrining usturlobi (teleskop)dir"– deya ta'rif beradi[57]. Haqiqatdan ham tasavvuf ahli fikricha inson shaklan kichik olam bo'lsa-da, mazmunan buyuk olam bo'lishi bilan qatorda hamma insonlar ham Alloh taolo tomonidan berilgan ne'matlarni anglab yetmaydi va ulardan foydalana olmaydi. Rumiy fikriga ko'ra, odam o'z imkoniyatlarini anglab yetmog'i uchun ham aqlga ergashmog'i va ilm olishi kerak. Shu nuqtai nazardan Rumiy "Masnaviyi ma'naviy"da insonlarni uch toifaga ajraatdi:

1. Avom
2. Xos
3. Xosul xos

Bu dunyoga ong va xayoliy olam orqali o'ziga noma'lum bo'lgan ilohiy dunyodan tashrif buyurdi va yerdagi borliq chegaralariga yetdi. Bundan: "Inson nima uchun bu dunyoga keldi?", "Buning sababi nima edi?", "Bu odamning kelishi ixtiyoriymi yoki majburiymi?" kabi savollar kelib chiqadi.Ushbu savollarga javob Ibn Sinoning inson haqidagi esxatologik mulohazalarining asosiy motividir. Mutafakkir fikricha, inson ruhi o'zini moddiy tanadan ozod qilib, ruh tananing asosiy hayvon kuchlaridan xalos bo'lishi sharti bilan u yuborilgan joyga - abadiy mohiyat va saodat dunyosiga qaytadi; aks holda, jahannam eshiklari uni kutmoqda, u yerda abadiy azob va qiynalishlarga mahkum bo'ladi. Ibn Sinoning insonni o'z xatti-harakatlari, qilmishlari, atrofdagilarga munosabati, uning hozirgi va kelajak oldidagi mas'uliyati

[57] Jaloliddin Rumiy "Ichindagi ichindadur". T.: Yangi asr avlod nashriyoti. 2018. 23-bet.

haqida o'ylashga majbur etuvchi bu gaplari yuksak axloqiy qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Insonni takomillashishida va "uning ruhini bilishda Qur'onning muqaddas matnlari" va shariat qonunlari ham, shuningdek nazariy ongning qoidalari ham bir xil qabul qilinadi. Butun O'rta asrlarni (musulmon Sharqida ham, Yevropada ham) keskin qamrab olgan ma'naviy hayot- ong va imon o'rtasidagi, haqiqat va ilohiy vahiyning muqaddasligi o'rtasidagi o'sha dunyoqarashning to'qnashuvini Ibn Sino o'zining ilmiy asarida yoritishga harakat qiladi. Ibn Sino suhbatdoshiga yetkazmoqchi bo'lgan asosiy narsa shundaki, insonni ozod qilish yer yuzida boshlanadi, chunki "do'zax va jannat insonning ichki dunyosidan boshqa narsa emas".

Uchinchi va to'rtinchi savollar o'lim va abadiy yashash muammolariga, ya'ni insonning yer yuzidagi hayoti tugaganidan keyin narigi dunyo hayoti masalalariga daxldor. Ularga ham axloqiy tamoyillarga singib ketgan va boshqa dunyo sohasiga emas, balki, avvalambor, dunyoviy, insoniy tashvish va orzu-umidlarga ta'sir qiladi.

O'lim va abadiy yashash muammosi, boshqacha qilib aytganda, uning yerdagi mavjudligidan keyin insonning holati musulmon dunyosida "Ma'ad" (arabcha "avd" - qaytish) deb nomlanuvchi qaytish yoki ko'tarilish haqidagi esxatologik ta'limot doirasida ko'rib chiqiladi. So'zma-so'z aytganda, "ma'ad", biror narsa joylashgan joy yoki holatni anglatadi, keyin u bu joydan yoki holatdan ajralib, yana unga qaytadi. Buni odamlarning o'limidan keyin bo'ladigan joy yoki holat sifatida belgilash to'g'riroq bo'lar edi.

Inson o'z mavjudligini ta'minlash va erkinligini his qilishi uchun, boshqa o'z-o'zini tabiiy mavjudlikda anglab yetgan ongga ko'rsatishi kerak. O'z o'zini anglashga intilayotgan ikki ong, o'zini boshqasiga isbotlashi kerak. O'zini anglab yetishni orzu qilgan bir taraf hayotini xavfga qo'yib, tabiat bilan bo'lgan kurashda g'alaba qildi. U ikkinchi tomonga o'zini tan oldirdi va xo'jayinga aylandi.

Bu tadqiqotlarda shaxs va u bilan bog'liq atamalarning mazmuni, tushunchasi haqida turlicha yondashuvlar, ayni paytda, bahs munozarali fikrlar ham mavjuddir. Masalan, "Shaxs", "Odam", "Inson", "Komil inson", "Individuallik" ba'zan ilmiy va badiiy adabiyotlarda bu tushunchalarni aynan bir xil ma'noda sinonim tarzida ishlatilishini kuzatish mumkin.

Ma'lumki, "Inson" tushunchasida "tarixiy davrdagi muayyan jamiyat va madaniyat qabul qilgan odob-ahloq normalari, tartib-intizom qonun-qoidalariga ixtiyoriy ravishda rioya qilib, shu asosda harakat yo'nalishi belgilash qobiliyati va irodasiga ega bo'lgan, mabodo bu doiradan beixtiyor chiqib qolsa, vijdon azobiga tushib, o'zini-o'zi kechirmaydigan oliy bir zot, ya'ni jamiyatlashgan odam tushuniladi. Demak, biz boshimizdan kechirayotgan tarixiy davr odamning insonga aylanishi uchun juda kuchli ijtimoiy zaruriyat paydo bo'lganligi bilan e'tiborni o'ziga tortadi". Ya'ni insonni odam bo'lib tug'ilishi va insoniy fazilatlari o'zida shakllantirishi, uning butun tarixiy taraqqiyotini qamrab oladi. Bu jarayon odamning jamiyatlashuv davridan boshlanadi.

Shaxsning shakllanishida esa "ijtimoiy zarruriyatning paydo bo'lishi va u intilayotgan madaniy-ijtimoiy ideallar va bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarning o'rni g'oyat kattadir. Bularni falsafada ijtimoiylashuvi (sotsializatsiya) yo'li bilan shaxsga o'tish deb atash qabul qilingan".

Keyingi o'n-o'nbesh yillardagi faylasuflarning tadqiqotlarida shaxsning shakllanishi darajasi va sifatini yanada kengroq talqin qilishga e'tibor kuchaydi. Agar oldingi tadqiqotlarda olimlar shaxs shakllanishi sifatiga asosan "Shaxs faolligi" asosida qaralgan bo'lsa endilikda "Shaxs siyosiy faolligi", "Shaxs huquqiy faolligi", "Gumanistik tipdagi shaxs" kabi tushunchalarni har birini alohida tahlil qilish o'rin olmoqda. Aksariyat olimlar "Shaxs ijtimoiy faolligi" da shaxsning boshqa faolliklari (siyosiy, huquqiy va b.)ni qamrab oladi, degan konsepsiyaga moyillik bildirsalar, ba'zi olimlar shaxsni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni ajratib qarashni ma'qul ko'rmoqdalar.

Shaxs va shaxs ma'naviyatining sinonimlari **individ** va **individuallik,** shaxs kamoloti kabi tushunchalar ham mazmun-mohiyatini ko'rib chiqishni lozim, deb topdik. Zero, ularning ham shaxs ma'naviyatining shakllanishi va rivojlanishida o'rni bor. Individuallik haqida bioximik, neyrofiziologik, psixologik darajalarda fikr yuritish mumkin. Ammo bu darajadagi individuallik shaxs tushunchasini to'liq ifodalay olmaydi. Chunki birinchidan, shaxs, ong va o'z-o'zini anglash paydo bo'lgan davrdan boshlab shakllana boradi; ikkinchidan, inson mehnat qilish, jamiyatda o'z o'rnini topish, ijtimoiylashuvi davridan e'tiboran shaxs sifatiga ega bo'lib boradi.

Individualizm tushunchasi bilan Sharq va G'arb olimlari ham qiziqganlar, bu masalani o'zlariga xos taxmin qilib muayyan fikrlarni shakllantirganlar. Agar G'arb olimlari individualizmga (individium – bo'linmas) inson hayotining alohidaligi sifatida qaragan bo'lsalar, Sharq olimlari uning mazmunini keng qamrovli ekanligiga e'tibor qaratib, arabchadagi fard yakka, yolg'iz so'zi bilan ifodalaganlar. Olimlarning fikricha, fard so'zi bir necha sinonimlarda ishlatilib kelingan va hammasi deyarlik bir xil mazmunini anglatgan. Masalan, fard deganda: yagona, mujarrad, hamrohsiz, o'zgalarga o'xshamaydigan, bir kishi, ajratilgan kabi ma'nolarda tushunilgan.

Shaxs, uning ma'naviyatini shakllanishi muammosi dolzarb masalalardan bo'lganligi uchun, uning mazmun va mohiyatini yanada chuqurroq tadqiq etishga qiziqish XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida bir muncha jonlandi. Bu yo'nalishda inson shaxsi va ma'naviyati bilan bog'liq falsafiy qarashlar oqimlar vujudga kela boshladi, ana shunday yo'nalishlardan biri personalizmdir.

Personalizm – lotincha personium – shaxs so'zidan olingan bo'lib, shaxsni birlamchi ijodiy-reallik va oliy ma'naviy qadriyat, deb talqin qilindi.

Yana ular olamning mavjudligini oliy yaratuvchi «kuch-xudo» ijodiy faoliyatining namoyon bo'lishi deb tushuntirdilar.

Personalizm XIX asrning oxirlarida Rossiya va AQShda keyinchalik XX asrning 30-yillarida Fransiya va boshqa mamlakatlarida yoyila boshladi. Rossiyada personalizm g'oyalarini N.A.Berdyaev, Amerika personalizmi asoschilari B.Baun. J.Gayyo va ularning izdoshlari U.Xaying, E.Braytmen, J.Junson edilar.

Yevropa olimlarining personalizm g'oyalari xristianlik katolik yo'nalishidagi diniy ta'limot bilan qorishilgandir. Shaxs ma'naviyatining eng oliy cho'qqisi, olam esa o'sha oliy qadriyat – shaxsning ijodiy faoliyati tufayli o'zgarib turadi, degan nazariyaga asoslanadilar. Zero, bu olimlarning personalizm ta'limotlari asosini shaxsning iroda erkinligi tashkil qiladi. Personalizm nuqtai nazaridan ijtimoiy taraqqiyot muammolarining hal etilishi hamma vaqt shaxs faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Bu yerda muammo inson shaxsiga jamiyat va davlat tomonidan belgilangan erkinlik haqida emas, balki cheksiz huquqga ega bo'lgan davlat va jamiyatning ta'siridan holi bo'lgan shaxs erkinligini qaror toptirishi haqida fikr yuritilmoqda.

Inson muammosi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston faylasuf olimlari hozirgi zamon personalizmi haqida fikr yuritib, personalizm muammosi hozirgi kunda assimilyatsiya bo'lib ekzistensialistik va xristian antropologiyasi yo'nalishlarini mushtaraklashtirib, o'ziga xos g'oyalarni ilgari surayotganligiga e'tibor qaratmoqdalar. Bu g'oya asosida turli millat va elat vakillarining o'zaro yaqinlashtirishga ya'ni do'stlikka asoslangan muhabbatni targ'ib qilinib, poyonida uni qaror toptirishni maqsad qilib olmoqdalar. Masalan, «Personalizmda muhabbat «Men»ning «Sen» oldidagi mas'uliyati shaklida talqin qilinmoqda. Shaxs ahloqiy kamolatga erishishning eng oliy cho'qqisi uning xudo shaxsi bilan muloqotidir».

Komil inson. Komil inson tushunchasi birinchi marta Shayxi Kabir nomi bilan mashhur bo'lgan Muhyiddin Ibn-al Arabiy (1165-1240yy) tomonidan muomalaga kiritilganini qayd etmoq joiz. Ibn-al Arabiy nazarida "komil inson-bu aqli avval yoki nafsi avval, aqli kull"[4] tushunchalari bilan ma'nodoshdir. Chunki Allohi taolo ilohiy nurdan ilk marta aqli avvalni yaratdi va uning suratu shaklini komil inson qiyofasida zuhur etdi. Mutafakkirning yozishicha komil insonni yer yuzidagi timsoli payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomdir. U zot vujudida aqliy, ruhiy kamolot, dunyoviy va ilohiy bilimlar mujassam bo'lgan.

Tasavvufda eng ko'p tarqalgan tushuncha komil insondir. Komil inson – barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, qalbi ezgu tuyg'ularga to'lgan pokiza zot. Bu odamlar – jamiyatning tirik vijdoni hisoblanadi. Kishilar ularga qarab xushyor tortadi va dunyo behudaligidan o'ziga kelib, o'z qalbiga, o'zi qiladigan ishlariga razm soladilar, tavba-tazarru qiladilar. Komillik yo'lining bosh asosi ko'ngilni mosivodan xalos etishdir. Bu tushunchani birinchi marta Mansur Xalloj ishlatgan. Keyinchalik Ibn Arabiy "insoni komil" tushunchasining poydevorini qurgan bo'lsa, Imom G'azzoliyning tasavvufiy- falsafiy qarashlarida komil inson va inson kamoloti masalalari atroflicha tahlil qilinganligining guvohi bo'lamiz.

Jumladan, "Hujjat-ul Islom" nomi bilan shuhrat topgan Imom G'azzoliy hazratlari "Ihyo ulumid-din"(Diniy ilmlarini jonlantirish) asarining birinchi kitobi "Ilm kitobi"da shunday yozgan: "Abdulloh ibn Muborakdan: "Komil insonlar kimlar?" deb so'rashdi. "Olimlar", deb javob berdilar". Ibn Muborak olimlardan boshqasini komil inson demadilar. Chunki, insonni hayvonlardan ajratib turadigan asosiy

xususiyati ham ilmdir. Inson nima bilan sharafli bo‘lsa, o‘sha narsa bilan insondir. G‘azzoliy insonni ilm bilan sharafli ekanligini dalillar bilan isbot etadi. Insonlarning afzalligi jismoniy quvvatda emas, deydi G‘azzoliy, zero, tuya insondan ancha baquvvatdir. Jismning kattaligi bilan ham inson afzal emas, zero, fil undan kattaroqdir. Inson afzalligi shijoat bilan ham o‘lchanmaydi, chunki yirtqich hayvon undan ko‘ra shijoatliroq. Yeb-ichish bilan ham inson afzal emas, ho‘kizni qorni unikidan kattaroqdir... demak, inson faqat ilm uchun yaratilgan va ilmni egallagani bilan afzaldir, deb xulosa qiladi G‘azzoliy.

Inson ongining kelib chiqishi. Odamning paydo bo‘lishi muammosi bilan uning ongining kelib chiqishi muammosi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Yuqorida qayd qilingan antropogenez konsepsiyada uning qanday yechilganligini qarab chiqamiz. Inson ongining paydo bodishi kosmik aqlning ta’siri bilan bog’liq bo’lib, kosmosning protoodam organizmiga energetik ta’siri, deb tushunish kerak. Shunday qilib, organizm har xil guruhlariga bunday ta’sirning jadalligi, «Yashirin Doktrina»ning guvohlik berishicha unchalik bir xil emas. Natijada, bir odam mavjudotning aqlliligi (ongning rivojlanishi), boshqa odam mavjudotnikiga nisbatan yuqori bo’ladi. Shuning uchun ham hozirgacha rivojlangan sivilizatsiyali odam (masalan yevropaliklar) va yavvoyi (masalan Okeaniya orollari) orasida uzoq masofa bor.

Insonning ruhiy dunyosi faqat ong sohasi bilan chegaralanmaydi, balki, uning doirasidan uzoqqa tarqaladi. Inson ruhiyatining bu sohasi ong doirasidan tashqariga chiqib, ongsizlik sohasi degan nom oldi. Sharq falsafasi va diniy ta’limotlarida bu sohaga katta e’tibor beraladi. G‘arb falsafasi an’analari to‘g‘risida bunday deb ayta olmaymiz.

Uzoq vaqt ongning har xil jihatlarini o‘rganishga ustun darajada murojaat qilindi. XIX asrda postklassik falsafaning ko‘p oqimlari (hayot falsafasi, teosofiya, intuitivizm va boshqa) an’anaviy ratsionalizmdan chekinadi. Falsafiy ta’limotlarda har xil ongsizlik kuchlari - iroda, tug‘ma his tuyg‘u, intuitsiya, sezgi, yashirin ma’naviy qobiliyatlar birinchi o’ringa chiqadi. XX asrda «psixoanaliz» deb atalgan falsafiy oqimda bu tendensiya rivojlanadi va eng avjiga chiqadi. Talantli avstriya psixologi va psixiatri Zigmund Frayd uning asoschisidir. Ongsizlik sohasini (tush, yanglishish, xato, unutuvchanlik, ixtiyorsiz harakat, gipnoz (ta’siri) tadqiq qilib, frayd shaxsning ruhiy struktura modelini ishlab chiqadi. Unda u uchta asosiy darajani ajratadi: ikkita ongsiz - quyi va yuqori - va bitta ongli.

- Quyi darajadagi inson ruhiyati «U» atamasi bilan ifodalanadi. Bu ongsizlikning quyi sohasi - anglanmagan qiziqish va instiktlaming «qaynayotgan qozoni». Ulaming muhimlari - hayot instinkti (Eros) va o‘lim instinkti (Tanatos) deb Freyd faraz qiladi. Hayot instinkti - avlodni saqlash va davom ettirishga urinish. U ongsiz seksual qiziqishni (libido) avjiga chiqaradi. O‘lim instinkti - bu ongsiz tajovuzkor kuch bo‘lib, avstriyalik psixiatr hayot instinkti keltirib chiqaradigan g‘azablanishlarni tenglashtirish deb qaraydi. «U» hayvonlar va ilk yoshdagi bolalar uchun xos bo‘lgan lazzatlanish tamoyiliga amal qiladi.

- Ikkinchi darajadagi inson ruhiyati «Men» (yego) tushunchasi bilan ifodalandi. Ongning bu sohasi - ongsizlikning katta qorong‘i yer tofiasidagi kichkina alanga shami «Men» tashqi reallikning «iz»i sifatida shakllanadi, lekin shu bilan birga «U»ning qiziqish va instinktlari bilan bog‘liq. Garchi Freyd reallik (istaklarni qondishdan voz kechish qobiliyati) tamoyillariga amal qilib, ongning ba’zi bir mustaqilligidan voz kechmadi, shunday qilib «U», «Men»ning yashirin harakatlantiruvchisi, deb faraz qildi. Ong buni hamma vaqtda ham anglamaydi.

- Uchinchi darajadagi inson ruhiyati «Mendan yuqori- Men» (Super- Yego) atamalari bilan ifodalanadi. Bu ongsizlikning oliy sohasi bo‘lib, tarbiyaviy taqiqlar, ijtimoiy va axloqiy me’yorlar ta’sirida shakllanadi. «Yuqori-Men» - odam axloqiy tamoyillarining manbayi bo‘lib, uning ongida, masalan,vijdon, burch, sharaf sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib inson ruhi oliy va quyi ongsiz kuchlaming doimiy kurash sahnasiga aylandi. Yoki, boshqacha qilib aytganda ma’naviy tamoyillar va hayvon instinktlari o‘rtasidagi kurashdir. Agar instinktlar yengsa, odam o‘zining insoniylik qiyofasini yo‘qotadi. Uning ongi quyi kuchlarga bo‘ysinadi va ongsiz qiziqishlarni doimo amalga oshirishga intiladi. Agar ma’naviy tamoyillar yengsa, qiziqishlar va instinktlar chegaralanadi. Ong quyi ongsizlik ustidan g‘alaba qozonadi va uning ichki turtkilarini nazorat qiladi. Odam ongsizlikning quyi sohasi ustidan ongning nazoratini kengaytirishga intilishi kerak.

Insonning paranormal kuchlari. Eng qadimgi davrdan boshlab Sharq falsafiy ta’limotlarida rivojlanishi va amalga oshishi mumkin bo‘lgan odamda yashiringan ma’naviy, ruhiy va jismoniy imkoniyatlar mavjudligi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Asta-sekin bunday kuchlarni egallashning maxsus uslubiyati ishlab chiqildi. Deyarli, ularning hammasi odamni ma’naviy shakllantiradigan qadimgi amaliy tizimi

Yoga bilan to'g'ri yoki bilvosita bog'liq edi. Yoga usullaridan har xil diniy va ma'naviy-falsafiy ta'limotlarda (buddizm, induizm, daosizm, yangi Aflotunchilik, nasroniylik, islom, teosofiya va boshq) foydalanildi.

Fan uzoq vaqt odam organizmida noma'lum kuchlar mavjudligi mumkinligini rad qildi. Albatta, ortodoksal olimlar odamning shunday qobiliyatlari: xotira, iroda, aql, sezgi organlari, jismoniy kuch va boshqa zahiralari bo'lishi mumkin dedilar. Lekin, odam masalan shunday qobiliyatlarga: levitatsiya, telepatiya, telekinez kabilarga ega bo'lishini noilmiy deb hisobladilar. Ammo, sharq faylasuflari ta'sirining kuchayishi va ilmiy kuzatishlar yig'ilishi natijasida olimlarning odam to'g'risidagi qarashlari o'zgara boshladi. XX asr boshlarida ko'p davlatlarda odamning yashirin kuchlari to'g'risidagi jiddiy tadqiqotlar olib borildi.

Qanday kuchlar va qobiliyatar to'g'risida gap ketayapti ?

- Nojismoniy ko'rish va eshitish qobiliyati (oldindan bilish va oldindan eshitish);
- Telepatiya (masofadan turib fikrlami uzatish va qabul qilish);
- Levitatsiya (odam tomonidan yer tortilishini tugatish, muallaq holatga keltirish);
- Avtonom yashash ongning jismdan tashqariga chiqishi;
- O'limdan keyin odam ongining avtonom yashashi;
- Kelajakni qabul qilish qobiliyati;
- Tez hisoblash va o'qish qobiliyati;
- Noyob xotira;
- Fikrlarning biologik jarayonlarga ta'siri;
- Telekinez (jismoniy predmetlarga boshqacha ta'sir qilish, yoki aloqasiz ko'chirish qobiliyati).

XXI asr boshlarida fan odatiy qarashlar, qobiliyatlar doirasidan tashqari, odamning yuqorida ko'rsatilgan va boshqa noodatiy namoyon bo'lishi to'g'risida ko'p miqdorda omillar yig'adi. Ular «paranormal qobiliyat» degan nom oldilar. Ularni ilmiy-nazariy tushuntirish, hozirgi davrda odamning yangi ilmiy andozasini faol ishlab chiqilish bilan asoslanadi. Uni odamning biomaydon tabiati konsepsiyasi yoki odamning axborot-energetika nazariyasi sifatida ifodalaydi. Bu konsepsiya (nazariya)ning bosh g'oyasi shundaki, odam shunday biologik jism emas, energetik va hujayra - nuklein jismlardan iborat murakkab biomaydon tizimidir.

O'limdan keyingi hayot muammosi. Odamning o'limidan keyin unda nima kechadi? Uni o'ldi deb e'lon qilgandan keyin uning joni, aqli, ongi yoki ruhi yashaydimi? Odimdan keyin jon qayerga ketadi? Yerga yana qaytib kelib, tiriladimi? Hayot va o'limning siri bilan bog'liq bu va boshqa savollar insoniyatni hamma vaqt o'ylantirib kelgan va kelmoqda. Diniy ta'limotlarga ko'ra o'lim bo'sag'asidan keyin odamning hayoti davom etadi, lekin, qanday va qanday turda ekanligi har xil tushuniladi. Falsafiy ta'limot har xil javob berdilar – o'limdan keyin hayotning to'la inkor qilinishidan, odamning ma'naviy hayotining reinkamatsiya (shaklning o'zgarishi yoki ko'chib yurishi)sigacha fan uzoq vaqt ongni miya faoliyatining mahsuli deb hisobladilar. Shuning uchun ko'p olimlar jism va miyaning o'lishi bilan odamning ongi ham o'ladi, o'limdan keyin hech narsa yo'q - faqat yo'qlik podsholigi hukm suradi deb faraz qildilar. Umuman, o'limdan keyingi hayot muammolarining falsafiy yechimini uch guruhga bo'lish mumkin.

- Birinchi guruhga materialistik yo'nalishdagi falsafiy ta'limot kiradi. Bu masalan, qadimgi Hindistondagi charvak maktabi, qadimgi Yunonistondagi epikurchilar; Qadimgi Rimdagi stoiklar; Golbax, Kondilyak, Lamitri; Germaniyada Feerbax, Marks, Engels; Rossiyada Chemi Shevskiy, Plexanov, Leninlar. Materializm tarafdorlari biologik jism o'lganidan keyin odamning hayoti to'xtaydi deb faraz qiladilar. Hech qanday ruh, jon, ong, aql yashamaydi va yashay olmaydi.

- Ikkinchi guruhga an'anaviy va idealistik falsafa kiradi. Masalan, bular: A.Blajinniy, V.Velikiy, F.Akvinskiy, N.Kuzanskiy, V.Solovyov, N.Berdyayev va boshqa nasroniy faylasuflar: Arastu, Dekart, Kant, Gegel va boshqa idealistik falsafa vakillari. Bu mutafakkirlar odamning joni uning jismoniy jismi o'lgandan keyin abadiy ruhiy dunyoda yashashi mumkin, deb hisoblaydilar.

- Uchinchi guruhga bilishning ezoterik an'analariga yaqin falsafiy va diniy ta'limotlar kiradi. Masalan, mif germetizmi, Hind yogasi, vedantlar falsafasi, buddizm, pifagorchilar, Aflotunchilar, islom ismoilitlari, teosofiya, Xram, Jonli Etika (Agni-yoga) ta'limotilari. Bu ta'limotlarning izdoshlari, odamning (ruh) ruhiy asosi abadiy yashashiga va izchil boshqa shakllarga o'tishiga ishonadilar. Boshqa so'z bilan aytganda ular odam ruhiy mohiyatining bir jismdan boshqa jismga o'tishi reinkamatsiya nazariyasini tan oldilar.

Ilmiy o'limdan keyingi hayot muammolarini jiddiy o'rganish XIX asr oxirida boshlandi va XX asrda faol rivojlandi.

Tig'iz moddiy va ingichka ruhiy dunyolar o'rtasida vositachi bo'ladigan odamlar - mediumlar o'rganildi. Boshqa borliq sohasiga tegishli noma'lum kuchlar va mohiyatlar medium orqali namoyon bo'lishi aniqlandi. Ba'zi tadqiqotchilar tomonidan o'lgan odamning joniga o'xshash ingichka moddiy flyuidik fantomlar paydo bo'lishini rasmga va videorasmga olindi.

Odam evolyutsiyasining keyingi istiqbollari. Biologik aqlli mavjudot sifatida odamning kelajagi masalasi falsafiy va ilmiy antropologiyaning muhim masalalari qatoriga kiradi. Lekin, hozirgi ilmiy nazariyalar bu muammoga kam e'tibor bermoqda. U bilan faylasuflar, futurologlar va fantastik yozuvchilar ko'p shug'ullandilar. Inson rivojlanishining istiqbollari to'g'risida qanday qarashlar mavjud?

An'anaviy diniy qarashlarga binoan (nasroniylik, islom va boshq.) inson kelajakda o'zgarishi kerak. Lekin, shunday o'zgarishlar ilohiyotchilar tomonidan evolyutsiya sifatida qaralmaydi. Masalan, islom ilohiyotchilari taqvodor odam o'limidan keyin o'zgaradi, qandaydir ruhiy mavjudot sifatida jannatda abadiy yashaydi deb hisoblaydilar. Diniy ta'limot faqat odamning axloqiy boshqa qiyofaga kirishi to'g'risida gapiradi. Uning jismiy (jismoniy jism o'rniga - ruhiy jism) o'zgarishi to'g'risida bilvosita gapiriladi.

Klassik ilmiy qarashlarga (darvinistlar, marksistlar, pozitivistlar va boshq.) binoan, kelajakda odamni axloqiy, aqliy, jismoniy ma'noda shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, bu guruhning ba'zi bir vakillarining fikricha, kam harakatli turmush tarzi sivilizatsiyasi ta'sirida, ojiz gavda, rivojlanmagan oyoqlari, katta boshi bilan odam kelajakda inqirozga uchraydi. Biroq, bu yerda odatda insonning sifat o'zgarishlari qarab chiqilmaydi. Aqlli odam - Homo-Sapiens bo'lgan va hozirgi yashab turgan odamdan farqi kam bo'lgan holda, kelajakda qaror topgan biologik tur sifatida qolaveradi, deb hisoblanadi. Shunday qilib, bu yerda inson mavjudotning keyingi evolyutsiyasi mohiyatan rad qilinadi.

Dunyo sivilizatsiyasi rivojining texnotron konsepsiyasi tarafdorlarining qarashlariga binoan, kelajakda uning organizmiga har xil texnik qurilmalarning tatbiq qilinishi natijasida odam takomillashishi mumkin. Bular: kompyuter chiplari va portlari, miniatyur yurak stimulyatorlari, gormonal regulyatorlar, sun'iy organ va suyaklar bo'lishi mumkin. Odamni bunday «takomillashtirish» natijasida u butunlay boshqa mavjudot - nafaqat tirik biologik materiyadan, yana

boshqa uning tanasiga o'rnatilgan qurilma, sun'iy yaratilgan elementlardan iborat biokibemetik organizm bo'lishi mumkin. Tirik mavjudotning bu turini *Homo-techno Sapiens - aqlli texno-odam,* deb atash mumkin.

Odam hayoti ma'nosi muammosi. Inson nimaga yashaydi, uning hayotining ma'nosi va maqsadi to'g'risidagi masalalar odamni hamma vaqt o'ylantirib keladi. Ba'zan, bu masalalarni hal qilishga intilish ma'nosiz, hatto zararli deyiladi. Axir hayvonlar yashaydi, lekin o'z hayotining mazmuni to'g'risida o'ylamaydi. Lekin odam - hayvon emas. Uning ruhi, aqli ma'nosiz yashay olmaydi. Shunday vaqt keladiki, bunday hayot odam uchun chidayolmas darajada bo'ladi. Nimaga o'qish, ishlash, kurashish, azob ko'rish, takomillashish kerak? Ruhshunoslar shuni aniqladiki - hayot ma'nosi va maqsadini yo'qotsa odamni axloqiy, ruhiy va jismoniy turg'unlikka, hatto inqirozga olib kelar ekan. Masalan, shu narsa ma'lumki fashistlar konslageridagi mahbuslar o'z hayot ma'nosini izlashni yo'qotib, kasallik va ochlikdan tez halok bo'lganlar.

Fatalizm - bu falsafiy dunyoqarashning bir ko'rinishi bo'lib, unga binoan odamning harakati oldindan belgilangan bo'ladi. Boshqacha aytganda odam amalda hech qachon mustaqil tanlay olmaydi. Odamni harakatini oldindan kim belgilaydi? Ilohiyatchilar va ba'zi bir diniy faylasuflar bu Xudo (islom ilohiyotchilari) deydi.

Taqdirga qadariylar, jabariylar, mo'taziliylar va mutakallimlarning munosabati ham o'ziga xosdir. Islomdagi ilk ilohiyot oqimlaridan biri - qadariya, mutlaq fatalistik qarashlar tarafdorlari bo'lgan jabariylarga qarshi chiqib, odillikni Allohning asosiy sifatlaridan biri deb talqin qiladilar. Shunday ekan, gunoh va savobni u oldindan belgilab qo'yishi mumkin emas, undan faqatgina, adolatli ishni kutish mumkin, gunoh esa odamlarning erkin faoliyati bilan bog'liq, degan fikrda bo'lganlar[58].

Ilmiy adabiyotlarda erkin iroda bu insonning biron ishni bajarishga qaratilgan ongli intilishidir, deb keltiriladi. Uning ma'lum maqsadga qaratilgan irodaviy faoliyati manbai - ob'yektiv olamdan hamda dunyoni o'zgartirishga qaratilgan va tabiatning ob'yektiv qonunlariga tayanadigan predmet - amaliy faoliyatdan iborat. Erkin iroda masalasida falsafa va psixologiyada, dunyoviy va diniy ta'limotlar orasida ko'p asrlardan buyon munozara davom etib keladi. Masalan, fatalizm[59]

[58] Falsafa qisqacha izohli lug'at. Toshkent: Sharq, 2004. -B. 302-303

[59] Fatalizm (Lot. Fatalis - halokatli, oldindan aniqlangan) – tasodif va erkinlikdan tashqari, tabiatda va inson hayotida sodir bo'ladigan narsaning muqarrarligi haqidagi fikr.

tarafdorlari kishilarning barcha hatti-harakatlarini faqat tashqi kuchlar belgilaydi, degan fikrni ilgari surishadi. Boshqalar esa bunday erkinlik tashqi kuchlarga bog'liq emas degan fikrdalar.

Falsafada esa shaxsning faoliyati ob'yektiv sharoitlarga bog'liqligi ta'kidlanadi. Bunday holatda qaysi yo'lni tanlash kishining o'ziga ham bog'liq degan yondashuv ustuvor. Bunga ko'ra sub'yektning ichki sharoitlari (ehtiyojlari, qiziqishlari, istaklari, bilimi va h.k) prizmasi orqali aks ettirilgan ob'yektiv olam uning uchun turli maqsadlarni o'z oldiga qo'yish, qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Bu borada shuni ham aytish kerakki, bunda faqat sub'yektning istaklariga qarab tanlab olinadigan iroda emas, balki ob'yektiv zaruriyatga muvofiq to'g'ri tanlab olinadigan irodagina erkindir. Har qanday harakat yoki faoliyatning irodali xarakteri shundan iboratki, unda inson o'z maqsadiga erishishi uchun tashqi yoki ichki o'siqlarni yengishga to'g'ri keladi. Irodali ish dastlab ma'lum maqsadni oldiga qo'yish, so'ng harakatni boshlash va ishni amalga oshirish bo'yincha usullarni tanlab olishni taqozo etadi. Har qanday erkin iroda asosida amalga oshiriladigan ish, ushbu qarorning bajarilishi bilan baholanadi.

Inson va bioetika muammolari. Bioetika - bu yangi fanlararo ilmiy yo'nalish bo'lib, XX asr oxirida jadal rivojlana boshladi. U bir nechta fanlar - tibbiyot, genetika, filosofiya, etika va huquqning tutashishi natijasida shakllandi. Hozirgi bioetikaning dolzarb muammolari qatoriga quyidagilar: abortlar, evtanaziya, hayotni cho'zish, klonlashtirish, organlarni ko'chirish, surragat onachilik, gen muhandisligi, jinsni almashtirish va boshqalar kiradi.

Nazorat savollari:

1. Inson mohiyati deganda nimani tushundingiz ?
2. Insonni falsafiy tahlil qiluvchi fan qaysi ?
3. Individ, shaxs, odam, inson tushunchalarini sharhlang ?
4. Komil insonni xususiyatlarini sanang ?
5. O'lim va hayot ma'nosini tushuntiring ?
6. Inson va bioetika muammolarini sharhlang ?
7. Fatalzimni diniy va dunyoviy talqinlarini sharhlang ?
8. Insonda iroda erkinligi nima ?
9. Insonning paranormal kuchlariga misollar keltiring ?
10. Personalizm nima ?

10- mavzu. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya).

Reja:

1. *Qadriyat kategoriyasi, uning asosiy shakllari.*
2. *Qadriyatlar mavzusining tarixiy ildizlari.*
3. *Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida qadriyatlarga munosabat.*
4. *Qadriyatlarning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati.*

Tayanch iboralar: *Qadriyat, qadr, qadriyatlar tizimi, qadrlash tamoyillari, qadrlash mezonlari oila, demokratik jamiyat, fuqarolik jamiyati, taraqqiyot, sivilizatsiya, jahon sivilizatsiyasi, madaniyat, qadriyatlar, qadrlash va qadrsizlanish mezonlari, tarixiy ildizlar, ijtimoiy taraqqiyot, qadriyatlarga munosabat, qadriyatning asosiy shakllari, inson hayoti, qadrlash tamoyillari.*

Jahonda har bir xalqning o'z ma'naviy qadriyatlari mavjud bo'lib, ulardan samarali foydalanish mexanizmlari sifatida odamlarning ajdodlar yaratgan merosiga e'tiborni qaratish muhim sanaladi. Ayniqsa, yangi O'zbekistonning bugungi yosh avlodining ruhiyatida insoniylik, Vatanga yuksak muhabbatni kuchaytirish barchamizning qadriyatlarga tayanishimizda namoyon bo'ladi. Keyingi yilllardagi o'zgarishning asl mohiyati bevosita xalqning yuksak tafakkur salohiyati va undagi voyaga yetib kelayotgan yoshlarning aqliy salohiyati yuksalishi, dunyoviy bilimlar darajasining o'sishida ham ifodalanadi. Yoshlar o'zini borliqning bir qismi sifatida anglagan holda tafakkurini shakllantirish masalalari bilan o'zaro munosabatlarini aniqlash har doimgidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan bir qatorda yoshlarning dunyodagi o'rni, XX asr oxirlaridagi yangi tabiiy, ilmiy kashfiyotlar, ma'naviy va dunyoqarashga oid inqirozlarning yengishni asosiy istiqboli va yopirilib kelayotgan ekologik va antropologik halokatlarning oldini olish hamda ularni yengib o'tishning asosiy istiqboliga aylanib boruvchi insoniyat turmushining jamiki strategiyasini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Bunda alohida yoshlarning ma'naviyati insoniyatning keyingi rivojlanishi uchun harakatga keltiruvchi muhim omil bo'lib qolishi mumkinligi ham ko'pgina ijtimoiy- gumanitar fan vakillari tomonidan e'tirof etilmoqda. Bularning barchasi qadriyat fenomenining tabiati, mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini zamonaviy nuqtai nazardan o'rganishni taqozo etmoqda.

Falsafada qadriyatlarni o‘rganadigan yo‘nalish bu aksiologiyadir. “Qadriyat” tushunchasining negizi, substansional mohiyati insonning faoliyati, hayoti va tasavvurlari bilan bog‘liq. Antik davr mutafakkirlarida “qadriyat”, “qadr”, “qadrlash” tushunchalarini ijtimoiy borliq, inson faoliyatining bahosi, baholanishi, boshqalar tomonidan ma’lum bir normalar asosida qadrlanishi tarzida tushunganlar. Masalan, Arastu fikriga ko‘ra, qadriyat hodisalarga baho, munosabat, yaxshilik va yovuzlik, tushunchalarida, shuningdek, insondagi sog‘lik, kuch quvvat, go‘zallik sifatida talqin qilinadi. Sharq mutafakkiri Abu Homid G‘azzoliy inson faqatgina tafakkurga qadriyat sifatida tayanib, u orqaligina dunyoni anglashi mumkinligini uqtiradi.

Q.Nazarov o‘zining “Qadriyatlar falsafasi” asarida qadriyat shakllarini bir- biridan farqlanuvchi ikki katta guruhga bo‘lib, moddiy va ma’naviy yoki umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlar iboralarini qo‘llaydi. Bu olim shuningdek, “Qadriyatlar kategoriyasi va uning tuzilishini tahlil qilganda u bog‘liq bo‘lgan ob’yekt va qadriyatning ahamiyati hamda qadrini sezayotgan, o‘rganayotgan, anglayotgan sub’yekt dialektikasiga alohida e’tibor qaratish zarur”ligini uqtiradi[60].

Qadriyat va qadriyatlar arxitonikasi – tuzilishi, xususiyatlari, belgilari quyidagilardan iborat:

- birinchidan, ular inson ongi, tafakkuri va dunyoqarashi, yon-atrofga, ijtimoiy borliqqa, boshqa “Men”larga sub’yektiv munosabatining ifodasi;
- ikkinchidan, olamni, hayotdagi o‘zgarishlar va hodisalarni anglashga qaratilgan gnoseologik tajribalar mahsuli;
- uchinchidan, ontologik asosga ega bo‘lsa-da, o‘z-o‘zi uchun sub’yektiv voqelik, kognitiv hodisa, affektiv fenomen;
- to‘rtinchidan, ular barqaror tushunchalar sifatida ob’yektiv hodisalar va o‘zgarishlar ketidan ergashib ketavermaydi, balki nisbiy mustaqil fenomen tarzida ularni izohlaydi, talqin qiladi, lozim topsa, rad etadi.

Qadriyat inson ongi, manfaatlari, gnoseologik qiziqishlari orqali ifodalanadigan tushunchadir. Ammo qadriyatlarning sensitiv-kognitiv xususiyatlari ularning ontologik asoslari borligini rad etmaydi. Aynan mazkur ontologik asos, qadriyatlarning inson va jamiyat ma’naviy hayoti bilan bog‘liqligi ularni o‘rganishning ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatadi.

[60] Q.Nazarov. Qadriyatlar falsafasi. (Aksiologiya). – Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati, 2004. – B68.

D.Yum, B.Rassel iborasiga ko‘ra, qadriyat “falsafadan substansiyani quvdi” va barcha narsalarni affektga, persepsiyaga taqadi. Ob’yekt haqida u yoki bu qarash, unga xos sifat D.Yum fikricha, “uni maqtovchi yoki rad etuvchi ruhning faqat his- tuyg‘ulariga bog‘liqdir”. Bu esa narsa, hodisa, xatti-harakatlarning ijobiy yoki salbiy baholanishi va qadrlanishiga, qadriyat insonning affektidir, degan fikrga olib keladi. J.Lokk qadrli narsalarni ikkiga ajratadi: birinchisini tabiat beradi, uni inson tabiatdan tayyor holda oladi; ikkinchisini esa inson mehnati, xatti-harakatlari orqali yaratildi. Faylasufning fikriga ko‘ra, inson mehnati bilan yaratgan narsalar biz uchun qadrliroqdir. Qadriyatlar falsafasining shakllanishiga I.Kant katta hissa qo‘shgan.

Qadriyatlarni tahlil qilish natijasida quyidagi ilmiy-nazariy yondashuv va konsepsiyalarni ajratishimiz mumkin:

1. Nigilistik yondashuv (F.Bekon, R.Dekart, L.Feyerbax, G.Leybnits, F.Nitsshe) tarafdorlari bir tomondan, oliy qadriyatlarning qadrsizlanganini e’tirof etsa, ikkinchi tomondan, yangi qadriyatlar o‘rnatuvchi kuchlar paydo bo‘lishini bashorat qiladi.

2. Fenomenologik yondashuv (E.Gusserl, L.Vitgenshteyn, M.Sheler)da ob’yektni anglatuvchi sub’yektiv hodisani qadriyat ekanligini ta’kidlaydi. E.Gusserlning psixologizmini M.Sheler, L.Vitgenshteyn davom ettirgan. M.Sheler emotsional anglashga, ya’ni his-tuyg‘ular orqali bilishni alohida fenomen, qadriyat darajasida talqin etgan, mehr-muhabbatga yuksak qadriyat yaratuvchi fenomen sifatida qaragan.

3. Ma’naviy-axloqiy yondashuv (A.Shveysar, N.A.Berdyaev, V.V.Rozanov, SHri Aurobindo, O.Shpengler, Xose Ortega-i-Gasset, A.Pechchei, J.Furaste, G.Markuze, T.Adorno)da inson va xudo, dunyoviylik va ilohiylik, ob’yektivlik va sub’yektivlik kabi tomonlar muhokama qilingan.

4. Badiiy-estetik yondashuv (F.Shlegel, P.S.Bollansh, SHatobrian, B.Konstan, J.Juber, Dj.Matssini, Marburg maktabi a’zolari, G.Kogen, Badenlik neokantchilar, E.Kassirer, J.de Mestr, Men de Biran, E.Dyurkgeym, Levi Bryul, G.Zimmel, X.G.Gadamer, A.Bergson, M.Fuko, J.P.Sartr, A.Kamyu, J.Bodriyyar, L.Altyusser, S.L.Frank, V.F.Ern, A.F.Losev) negizida insonning yon-atrofga, hayotga, ijtimoiy munosabatlarga badiiy so‘z, obraz, lavha, musiqa, ohang yoki rangli chiziqlar kabi estetik qarashlar orqali tosh, marmar, jihozlar kabi moddiy qadriyatlar vositasida makonni go‘zallashtirishga intilishi yotadi.

5. Psixologik konsepsiyalar (K.Yung, Z.Freyd, G.Lebon, V.Vundt, A.V.Petrovskiy, V.V.Shpalinskiy, A.M.Donsov, E.Fromm, K.Yaspers, A.Kempinski, A.Adler, A.G.Maslou) tarafdorlari shaxs, guruh yoki etnosning qadriyatlar tizimiga kirgan an'ana, turmush tarzi, mentaliteti, urf-odatlari, muloqot tarzi, e'tiqodi sifatida qaraganlar. Ularning ba'zilari psixologik omillarga e'tibor qaratib, qadriyatlarni ushbu sensitiv ta'sirlar natijasidan keltirib chiqarganlar.

6. Gumanistik konsepsiyalar (E.Fromm, Z.Freyd, S.Frankl, J.Bodriyer, A.Kamyu) negizida qadriyatlarni inson manfaatlari nuqtai nazaridan o'rganish yotadi. Qadriyatlardan ijtimoiy mohiyat izlovchi birorta ham tadqiqotchi gumanizmni, ya'ni hayotdan insoniy fazilatlar izlashni chetlab o'tmagan. Gumanizm qadriyatlarning asosini, ulardagi pozitiv jihatlarning mohiyatini tashkil etadi. Inson manfaatlaridan kelib chiqmagan, ularni qondirishga xizmat qilmaydigan qadriyatlar yo'q. Aynan shu nuqtai nazardan qadriyatlar pozitiv hodisalardir.

7. Evropotsentrizm va amerikotsentrizm (O.Shpengler, J.Soros, S.Xantington) g'arb kishisining hayot tarzi, fikrlash usuli, e'tiqodi, axloqi, huquqiy-demokratik normalarini ifoda etadigan qadriyatlarni himoya qiladi. G'arb jahonga yoyilgan ko'pgina qadriyatlarni shakllantirib, aqlu-tafakkurni yangi qarashlar bilan boyitib keladi. Amerikotsentrizm esa global g'oya, global qadriyat bo'lishga da'vogar oqimdir. Ularning har ikkalasi ham bugun o'z qadriyatlarini, hayot tarzi va qarashlarini dunyoga singdirishga intilmoqdalar.

8. Sharqona konsepsiyalar (G.Myuller, N.Konrad). Mazkur konsepsiyalarda jahon sivilizatsiyasi, ilm-fan va axloqiy-gumanistik ta'limotlar Sharqdan tarqalgan, degan g'oya ilgari surilgan.

9. Antropologik konsepsiyalar (G.Plessner, K.Levit, Dj.Mid, J.P.Sartr, A.Portmak, E.Kassirer, A.Gelen, Yu.Xabermas, G.Rikkert) inson va uning hayotini oliy qadriyat, deb biladi. Barcha sohalar, ularda erishilgan yutuqlar, ijtimoiy o'zgarishlar markazida inson turadi.

10. Milliy tiklanish va rivojlanish konsepsiyasi (O'zbekistonlik olimlar) milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda vatan taqdiriga daxldorlik hissi kuchli bo'lgan vatanparvar shaxslarni tarbiyalashni maqsad qilgan: Shu jumladan ular,

1) totalitar tuzum davrida unutilgan yoki inkor etilgan tarixiy-madaniy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'rganish, qayta tiklash; 2) islomiy qadriyatlarning ijtimoiy-tarbiyaviy va ma'naviy-ruhiy ta'sirini ob'yektiv baholash; 3) ilmiy-falsafiy merosni xolisona

o'rganishni yo'lga qo'yish; 4) tarixiy qadriyatlarga bo'lgan noxolis munosabatlarni milliy taraqqiyot nuqtai nazaridan qayta baholash; 5) milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitiga erishish.

Ma'lumki, "har bir avlod jamiyat shu paytgacha erishgan barcha yutuqlarni tayyor holda o'zlashtiradi, o'z hayoti, faoliyati davomida ularni biroz takomillashtiradi, boyitadi va keyingi avlodga ulardan foydalanishni o'rgatadi. Ushbu jarayon tarbiyaning o'zagini va maqsad-muddaosini tashkil qiladi".

Falsafa va aksiologiyada qadriyatlarning turlari va shakllari masalasini hal etish muhimdir. Aytib o'tish joizki, bu masalada tadqiqotchilar o'rtasida bir xil fikrlar va yondashuvlar ham bo'lib, ular qadriyatlaring turli klassifikatsiyasini (turkumlash) taklif etadilar. Qadriyatlar masalasiga bag'ishlangan barcha falsafiy adabiyotlarda ular asosan moddiy va ma'naviy, umumbashariy, umuminsoniy va milliy turlarga bo'linadi. Ayrim tadqiqotchilar qadriyatlarni yana umumbashariy va hududiy turlarga ham ajratadidar.

Umuminsoniy qadriyatlar. Falsafiy lug'atlarda keltirilishicha, umuminsoniy qadriyatlar – jahondagi barcha odamlar, xalqlar va davlatlar uchun umumiy qadrlash mezoni hisoblangan, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar tizimini ifoda etadigan tushunchadir. U ozodlik, erkinlik, tinchlik, baxt-saodat kabi umumijtimoiy ma'no-mazmun kasb etadigan tushunchalardangina iborat emas. Umuminsoniy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida yashayotgan barcha kishilar uchun umumiy bo'lgan tizimni hosil qiladi, boshqa tamoyillar bilan uzluksiz aloqada, zaruriy bog'lanishda namoyon bo'ladi.

Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, xalqlar uchun ahamiyatga ega, hamma tarixiy davrlar va ijtimoiy tuzumlarga xos bo'lgan, barcha xalqlar tomonidan yaratilgan qadriyatlarning elementlarini o'ziga birlashtiradi. Bunday qadriyatlar tarixiy jarayonning barcha bosqichlarida ham va taraqqiyotning turli davrlarida ham o'zining qadrlilik xususiyatini saqlab qoladi. Masalan, tinchlik, ezgulik, millatlararo do'stlik, ekologik tozalik, o'zaro hurmat, gumanizm, demokratiya, qonunlar ana shular jumlasidandir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, umuminsoniy qadriyatlar tizimida quyidagilar muhim o'rin egallaydi:

– tabiat;

– erkinlik;

– bag‘rikenglik;
– tinchlik;
– din;
– ilm-fan va boshqalar.

Erkinlik. Erkinlik o‘z lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra, kishining o‘z istagi bo‘yicha ish tutishini anglatadi[61]. Ya’ni jamiyatda kishi (ayniqsa, yoshlar) o‘z istagini to‘sqinliksiz amalga oshirish imkoniga ega bo‘lsa, uning xatti- harakatlari u yoki bu narsa, hodisa, jarayon bilan to‘silmasa, aksincha bu vaziyatda o‘ziga xos rag‘bat ko‘rsa, o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarishga urinib ko‘radi. Mana shu holatni hisobga olgan, liberal taraqqiyot yo‘lini tanlagan ko‘plab jamiyatlarda yosh avlod tarbiyasida erkinlikka alohida e’tibor beriladi. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlarida erkinlik bola tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Onalar farzandlarining har soniyalik qiziqishlari va injiqliklarini qondirishga tayyor turishadi. Ikkinchi tomondan, go‘dakligidanoq amerikalik bolakaylar “Sen eng chiroylisan, eng yaxshisan, eng aqllisan, eng qobiliyatlisan”, degan so‘zlarni har kuni eshitgan holda o‘sishadi. Maqsad – mustaqil insonni tarbiyalash! Agarda bola xato qilsa, uni urushmay: “Yana bir marotaba harakat qilib ko‘r! Sen, albatta, buni uddalaysan! Chunki sen zo‘rsan!” deya qo‘llab-quvvatlanadi. Albatta, bunday yondashuv kelgusida o‘zining mevasini beradi.

Ishonch. Shu o‘rinda ishonch haqida ham qisqacha to‘xtalib o‘tish joiz. Ishonch - biror-bir shaxsga uning so‘zi, ishi va xatti-harakatlariga xayrixohlik va simpatiya(rahmdillik) bilan qarash, u bilan hamkorlik qilish, yaqin munosabat o‘rnatishga asos bo‘ladigan ma’naviy omil. U o‘zaro to‘g‘rilik, adolatlilik, insofu diyonat, halollik, samimiylik va iymonga asoslanadi. Kishilar o‘rtasidagi munosabatlar aniq ma’no-mazmun kasb etib borishi bilan ishonch mustahkamlanadi yoki aksincha buziladi.

Bag‘rikenglik. Lug‘atlarda yozilishicha, bag‘rikenglik (tolerantlik) – o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvatli, g‘amxo‘r, saxiy, kengfe’lli bo‘lgan, ana shunday ma’naviy fazilatlarga ega kishilarni ifodalovchi tushuncha hisoblanadi.

Umuminsoniy qadriyatlarni qadrlaydigan, yuksak ma’rifatli inson hech qachon diniy va milliy ayirmachilik yo‘lidan bormaydi, balki barchaga barobar ehtirom va odobda bo‘ladi. Bag‘rikenglik, eng avvalo, insonning huquq va erkinliklarini tan olish asosidagi faol munosabatdir.

[61] Falsafa: qomusiy lug‘at. – Toshkent: Sharq, NMIU, 2004. -B.464.

Bag‘rikenglik amal qilgan sharoitda:
- muomala-munosabatda kamsitish va tahqirlashlarga yo‘l qo‘yilmaydi;
- ayirmachilik yo‘lidan borilmaydi;
- insonning huquq va erkinliklari tan olinadi.

Mazkur sababiy aloqadorlik, eng avvalo, oilaviy munosabatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, oila a’zolari bir-birlariga nisbatan bag‘rikenglik bilan, aybu kamchiliklariga baho berganda, kamsitmagan va tahqirlamagan holda munosabatda bo‘lishsa, bunday munosabat ob’yektida o‘zaro nafrat, biqiqlik va yoki adovat tuyg‘ulari paydo bo‘lishining oldi olinadi. Yoki oila a’zolarini bir-biridan ayri holda ta’rifu tavsiflash, ya’ni birining imkoniyat va qobiliyatlarini boshqasinikidan ustun qo‘yib munosabatda bo‘lish ham, bir tomondan, munosabat sub’yektiga, ikkinchi tomondan, qiyoslanayotgan shaxsga nisbatan ana shunday salbiy hislarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Bag‘rikenglik o‘z mohiyatiga ko‘ra, tenglik kategoriyasini ham o‘z ichiga olishi tufayli uning ham o‘zaro aloqadorligiga to‘xtalish maqsadga muvofiq.

Milliy qadriyatlar. Milliy qadriyatlar ma’lum bir millatning tarixi va hayotiga tegishli bo‘lgan va milliy ehtiyojlarni qondirishga imkon beruvchi qadriyatlardir. Milliy qadriyatlarning ob’yekti millatdir. Millatning rivojlanishi milliy qadriyatlarning rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Millatning tarixida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday o‘zgarish uning qadriyatlari tizimida ham o‘zgarishlarga olib keladi. Jamiyatninng barcha sohalarida yuz berayotgan o‘zgarishlar tabiiyki, qadriyatlarni ham o‘zgartiradi. Aksiologik va ijtimoiy dinamika o‘rtasida dialektik aloqa bor. Bir tomondan, ijtimoiy taraqqiyot qadriyatlarni o‘zgartirsa, ikkinchi tomondan qadriyatlarning o‘zgarishi jamiyatni o‘zgartiradi. Bundan kelib chiqadiki, qadriyatlar umumiy va abstrakt narsa emas.

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlar orasida oliyhimmatlik, hamdard bo‘lishlik, rahmdillik, iltifotlilik kabilar katta o‘rin tutadi. Masalan, oliy- himmatlilik, odamgarchilik, muruvvat yuzasidan qilinadigan yaxshilik, yaxshi ish, yordam, insonga xos tuyg‘u, xislatni anglatuvchi tushuncha bo‘lib, muruvvatlilik, olijanoblik, mardlik, tantilik, saxiylik, qo‘li ochiqlik, saxovatlilik, ulug‘vorlik, buyuklik va hotamtoylik kabilarni o‘z ichiga oladi. Oliy himmatli kishida til va dil yumshoqligi, mehribonlik, so‘z va muomala madaniyati, yomonlik

qilganga ham yaxshilik qila olish kuchi, bag‘rikenglik va dil pokligi mujassamlashgan bo‘ladi. Mehr-muruvvat, bir og‘iz shirin so‘z aytish yoki bir piyola choyga taklif etishdek o‘zbek xalqiga xos fazilatlar himmatlilikning mazmun-mohiyatini ifoda etadi. Bir so‘z bilan aytganda, himmatlilik o‘zining saxovati, mehr-muruvvati bilan odamlar qalbiga singib ketadi, hamisha ezgulikka xizmat qiladi. Shu tariqa muruvvat ko‘rgan kishining ko‘ngli tog‘dek ko‘tariladi, boshi osmonga yetadi. Insonlar o‘rtasida esa mehr-oqibat ortadi.

Rahmdillik ham o‘zgalarga nisbatan mehr-shafqat, mehribonlik, insoparvarlik tuyg‘usini ifodalaydi. Uning tub mohiyati insonni hurmat qilish, qadr-qimmatini bilish hamda ularga mehribonlik ko‘rsatishdan iboratdir. Rahmdillik o‘zgalarga mehr-shafqat ko‘rsatish, amaliy ko‘mak berish kabi insoniy fazilatlarda namoyon bo‘ladi. Insonda achinish hissining mavjudligi uning ko‘ngli rahm sifatiga egaligidan dalolat beradi.

Rahmdillik hamdard bo‘lishni taqozo etuvchi sifat hisoblanadi. U ham insonparvarlik ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, shaxsning boshqalar fikr va tuyg‘ularini tushunishi hamda qo‘llab-quvvatlashni anglatadi. O‘zaro hamdardlik ko‘rsatish insonlar o‘rtasidagi samimiylik, tabassum va beg‘ubor munosabatlarda, o‘z yaqinlari va boshqalarning dardiga malham bo‘lish, e’tibor, boshqalarni o‘ylab yashash, mehmondo‘stlik, muloqot, shirinso‘zlik, yaxshilik qilish kabi munosabatlar madaniyatida namoyon bo‘ladi. Inson hayotining og‘ir, musibatli kunlarida atrofdagi odamlarning hamdardligi kishiga najot, ruhiga tetiklik, qalbiga umid bag‘ishlaydi. Bu bilan mazkur sifat ijtimoiy muhitdagi ma’naviy-ruhiy vaziyatni sog‘lomlashtiruvchi, boshiga musibat tushgan insonning kelajak hayotga ishonch bilan qarashiga sabab bo‘luvchi muhim omil vazifasini bajaradi. Ya’ni insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hamdardlik, mehr-oqibatning kuchayishiga xizmat qiladi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi. Globallashayotgan dunyoda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unlashishini davrni o‘zi taqozoetmoqda. Zero, globallashuv jarayonida chetdan kirib kelayotgan qadriyatlar yoshlarimiz ongiga o‘zining ijobiy ta’siri bilan birgalikda salbiy ta’sirini ham o‘tkazmoqda. Bu yoshlarga “ommaviy madaniyat”ning ta’sirida yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Mamlakatimiz yoshlarini ma’naviy-axloqiy tahdidlardan himoya qilish uchun ularni insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, tolerantlik ruhida

tarbiyalash,ularda o‘z xalqiga, vataniga sadoqat, boshqa millatlarga nisbatan bag‘rikenglik his-tuyg‘ularini, qadriyatlarni shakllantirish oldimizda turgan muhim vazifalardir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unlashuvida qism va butun o‘rtasidagi dialektik aloqalar muhim o‘rin tutadi. Qism bilan butun o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik masalasi Suqrot, Aflotun va Arastu falsafasida keng muhokama qilingan. Suqrot va Aflotun g‘oyasiga ko‘ra, ma’naviy-ruhiy olam, borliq butun, yaxlitdir. Ushbu butun, yaxlitni anglamay qism, bo‘lakni davolash mumkin emas. Aflotun “Xarmid” asarida Suqrot tilidan shunday deydi: “Butun tanani davolamay turib, qandaydir usul bilan boshni davolash mumkin, deb o‘ylash bema’nilikdir”. Boshni butun tana bilan birgalikda davolash mumkin. Qism, bo‘lak noxush ahvolda bo‘lganida, eng avvalo, butun tana haqida qayg‘urish kerak. “Butun yomon ahvolga tushganida qism yaxshi ahvolda bo‘lishi mumkin emas”. Suqrot ma’naviy-ruhiy olamni butun va qismlarga ajratar ekan, deydi: “Bosh va tananing qismlari o‘zini yaxshi sezishi uchun, eng avvalo, qalbni ruhiy davolash lozim”. Arastuning fikricha, “haqiqiy rohat fazilatlarga muvofiq ruhiy faoliyatdir”[62].

Agar jamiyat tarixiga nazar tashlasak, renessans davrida ham yoki undan keyin ham ob’yektiv va sub’yektiv omillar ta’siri ostida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi bir-biridan uzoqlashtirilganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Sotsium tarixida milliy va umuminsoniylikning o‘zaro uyg‘unlikda ba’zan juda ulkan rivojlanish yo‘lidan borganligi, gohida esa ular o‘rtasidagi uzoqlashish erishilgan yutuqlardan chekinish, ba’zi sohalardagi regressiya, taraqqiyot yo‘lidan sekinlashib mamlakat hayotida turg‘unlik holatiga uchrab qolish sabablari ham bo‘lganligining guvohi bo‘lamiz.

Masalan, mustabid tuzum davrida xalqni tobe qilish maqsadida o‘zining mafkurasini singdirish uchun o‘zbek xalqi milliy qadriyatlarining hayotbaxsh namunalari xalqdan uzilib qo‘yilib, majburiy va sun’iy tarzda baynalminallashtirish bayrog‘i ostida olib borilgan siyosat natijasida milliylik va umuminsoniylik o‘rtasidagi dialektik birlik buzilib, rus madaniyatini ustun qo‘yish holatlari vujudga kelgan. Bu siyosat natijasida, milliylik va umuminsoniylik dialektikasi buzilgan edi. Yagona sho‘ro xalqini yaratish tantanasini ta’minlash yo‘lida kurash olib borilayotgan bir davrda milliy qadriyatlar hamda ularda ilgari surilgan g‘oyalarni tarbiya jarayoniga tatbiq etish, hatto

[62] Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – B. 342.

O‘zbekistonni “Vatan” sifatida e’tirof etish ham millatchilikning yorqin ko‘rinishi, “buyuk va qudratli sho‘ro xalqi”ga nisbatan dushmanlik tarzida baholanar edi. Jamiyatda shaxsni umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, insonparvarlik fazilatlariga ko‘ra emas, sinfiy qarashlari, e’tiqod bildirayotgan ta’limotlariga asosan Vatan xoini sifatida e’tirof etildi.

Bu o‘rinda biz katta iqtidor egasi, betakror fikrlari bilan rus falsafasini boyitgan, hatto N.A.Berdyayev, V.V.Rozanov, I.Ilin, L.P.Karsavin, A.F.Losev, N.Bulgakov, N.Fedorov kabi yirik faylasuflarga ta’sir ko‘rsatgan V.V.Solovevning islom ma’naviyati va falsafasiga oid fikrlarini keltirishni ma’qul topdik. “Musulmon Sharqida, - deb yozgan V.V.Solovyev, - barcha narsa diniy qadriyatlarga bo‘ysundirilgan. Barcha sohalar, ma’naviy-diniy hayot ham, dunyoviy hayot ham aralashib ketgan, ular ustidan “bir despot” hukmrondir, u Al-Qur’ondir... Bunday aralashish nazariy sohada ham, aqliy sohada ham hukmron; shu bois musulmon dunyosida ijobiy fan ham, falsafa ham, haqiqiy teologiya ham yo‘q, faqat Qur’onning sayoz dogmalaridan iborat qandaydir qorishma mavjud”. Bu o‘rinda V.V.Solovyevning islom falsafasidan yaxshi xabardor emasligi, islom ta’limotining butun G‘arb mutafakkirlari, ijodkorlari dunyoqarashiga ta’sir etganidan bexabarligi ko‘zga tashlanadi, undan Gegelning hidi keladi. Gegelning Sharq, islom falsafasi dindan iborat, degan salbiy fikri barchaga ma’lum. Bizning fikrimizcha, V.V.Solovev Gegeldan kelib chiqqan.

V.V.Solovyevning fikri keyinchalik sho‘rolar davri falsafasida davom ettirildi, hatto islomdagi diniy-irfoniy, ijtimoiy-axloqiy va huquqiy merosni inkor qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, butun kommunistik mafkura ularga qarshi qo‘yildi.

Diniy qadriyatlar. Diniy qadriyatlar har bir dinning muqaddas kitoblari, ta’limotlari bilan bog‘liq holda izohlanadi. Din avvalo borliqni Yaratuvchi, Boshqaruvchi, adolat va boshqalar orqali nozil bo‘ladigan barkamollikning oliy namunasi sifatida Xudoga nisbatan munosabat buyuk ruhiy qadriyatdir.

Diniy qadriyatlar tizimi ideal tarzda namoyon bo‘ladi, shuningdek inson ilohiy qonunlarni muqaddas qadriyat sifatida qabul qiladi. Diniy e’tiqod hamisha insoniyat axloqining poydevorini tashkil etib kelgan. Har bir dindagi ilohiy qadriyatlar san’atda timsol sifatida yaratiladi.

Qadriyatlar masalasi diniy dunyoqarashlar va ularning eng qadimgi shakllarida ham o‘z aksini topgan, har bir din o‘ziga xos va mos

ilohiy qadriyatlar tizimiga ega. Ular bir-birlaridan ana shu dinlarining asosiy kitoblari Veda, Upanishadalar, Tavrot, Qur’on, Injil va boshqalarda muayyan ilohiy qadriyat tizimlari o‘z ifodasini topgan. Dinlarning tarixiy shakllari takomillashib borgani sari, ulardagi qadriyatlar tizimi ham yangi qirralarini namoyon qilib boravergan.

Diniy qadriyatlar, marosim va an’analarning shakllanishi uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Ibtidoiy din shakllaridan boshlangan bu jarayon milliy va jahon dinlari shakllanib, keng yoyila boshlagan paytlarda ancha rivojlangan.

Bizningcha, bir tomondan, aksariyat diniy ta’limotlar insonlararo o‘zaro mehr-muhabbat, mehr-oqibat va mehr-shafqatni shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o‘ylab yashash, yaxshilik, qanoat, saxovat, mehr-shafqat kabi fazilatlar ko‘plab boshqa omillar qatori diniy qadriyatlar ta’sirida ham rivojlanadi. Ikkinchi tomondan, dinlarning keng tarqalishida ham mehr bilan bog‘liq qadriyatlarning targ‘ib qilinishi muhim o‘rin tutadi. Shu asosda aytishimiz mumkinki, din va mehr o‘rtasidagi bog‘liqlik shu darajadaki, ular o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchanlik xususiyatiga ega. Boshqacha aytganda, din mehrsiz, mehr muqaddaslik omilisiz mavjud bo‘lishi mumkin emas.

Milliy va diniy g‘oyalarning targ‘ibot-tashviqotida va shakllanishida o‘zbek xalqi hayotida islom joriy etgan hayitlar, muqaddas kunlar muhim o‘rin egallagan. Chunki bunday tantanali kunlar diniy mazmundan tashqari ko‘pincha milliy bayram sifatida nishonlanadi. Bunday bayramlarda butun oila a’zolaridan tashqari aholining turar joylarida ham unga katta e’tibor beriladi.

Shunday bayramlardan biri Qurbon Hayitdir. Musulmon mamlakatlarida bu hayitga tayyorgarlik katta bo‘ladi; masjidda maxsus ibodat bajariladi, va’zxonlik-amri ma’ruf qilinadi. Hayit uch kun davom etadi. Mustaqillikka erishgan O‘zbekistonda ham bu bayram keng nishonlanadigan bo‘ldi va xalqimiz unga yangicha mazmun baxsh eta boshladi. Mustaqillik yillari dinga berilgan erkinlik tufayli islomiy qadriyatlarga rioya qilish ancha jonlandi. Shulardan biri har haftada bo‘ladigan juma namozidir.

Islomning «shulasi» ham olamga ayni juma kuni tushgan. Yana bir rivoyatda «Odam alayhissalom yaratilgan kun, jumadir, shu kuni jannatga kirgan va yer yuziga tushgan, qiyomat ham shu kuni bo‘ladi. Alloh nazdida u kun “Yavmul Mazid”dir.

Farishtalar osmonda unga bu ismni berishadi. U jannatda mo‘minlar Allohni ko‘radigan kundir”[63]. Shu sababli musulmonlar ushbu muborak kunda imkon qadar savobli ishlar qiladilar.

Milliy ma’naviyatimizning qadimiy ildizlari, shu jumladan islomiy qadriyatlari, noyob va betakror namunalarini tadqiq etish, ularni bugungi kun talablari bilan bog‘liq holda boyitib targ‘ib etish yangi bunyod etilayotgan fuqarolik jamiyati uchun ahamiyati kattadir. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 - yil 25 - avgustda qabul qilingan «Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida» gi Qarorida ta’kidlanganidek, “Yurtdoshlarimizni muqaddas islom dini va falsafasi, aziz-avliyolarimizning ibratli hayoti, qutlug‘ qadamjolariga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat-ehtirom va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzi, millatlararo totuvlik, o‘zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy dasturlarni amalga oshirish” vazifasi qo‘yilgan.

O‘zbekistondagi etnosiyosat va diniy masalalardagi vazifa ham konfrontatsiya(bo’linish)ga yo‘l bermasdan, jamiyatda barqarorlikni, rivojlanishni ta’minlashga qaratilgandir. Mustaqillik yillaridagi tajribalar ko‘rsatadiki, ilohiy qadriyatlarga e’tibor berib, metafizik qadriyatlarga xos hurfikrlilik, o‘z e’tiqodiga ergashish, u yoki bu dinga ixtiyoriy e’tiqod qilish prinsipi buzilsa, mutaassiblikka, fundamentalizmga yo‘l ochiladi.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, islomning “arkon-ad-din” besh asosiy amaliy va marosimchilik talablarini islom diniga e’tiqod qiluvchi kishilarning shaxsiy va ijtimoiy hayotiga singdirilishi ularda diniy ongning shakllanishi va mustahkamlanishi olib kelgan; ikkinchidan, diniy ongga ega bo‘lgan har bir kishining turmush tarzi va ijtimoiy hayotida diniy va milliy qadriyatlar uyg‘unlashib, muayyan maqsadlar sari yetaklovchi g‘oyaga aylangan; uchinchidan, islomning urf-odat va marosimchilik talablarining aksariyati o‘zbek xalqining milliy xususiyatlari bilan nafaqat qorishib ketishi, balki milliy qadriyatlarni rivojlanishi uchun keng yo‘l ochgan hamda ta’siri kuchli bo‘lgan. Jumladan, a) qurbon va ramazon hayiti va marosimchiligi asrlar davomida xalqimiz ongi va shuuri, turmush tarziga shunday chuqur singib ketganki ko‘p hollarda hayit milliy bayram deb qabul qilinadi; b) bu diniy bayramlar va

[63] Rahmatulloh Qori Obidov, Dilfuza Sarvarova. Muqaddas oyda va mustajob duolar. – Toshkent: 2003. – B.150.

marosimchilik uchun islom ta’limoti tomonidan belgilangan talablardan tashqari o‘zbek xalqi bularning mazmunini ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy qadriyatlar bilan boyitgan; v) bu tantanali kunlarning oilada, mahallada, jamoatchilik joylarida o‘tkazilishi, yosh avlodni ma’naviy- axloqiy ruhda tarbiyalashga, millatga, Vatanga bo‘lgan hurmatini shakllantirishda ahamiyati katta bo‘lgan.

Globallashuv davrida qadriyatlar muammosi. XX asrning oxiri va XXI asr boshlaridagi xalqaro vaziyat, davlatlar, xalqlar o‘rtasidagi aloqalar globallashuv jarayonlarining nihoyatda chuqurlashib ketayotganligi bilan xarakterlanadi. Globallashuv tendensiyasi, bir tomondan, turli millat va elat vakillari orasidagi munosabat va aloqalarni nihoyatda intensivlashtirdi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, globallashuv millatlarning o‘ziga xos jihatlari takomillashuviga zamin yaratdi. Bu, albatta, ijobiy holat. Lekin, ikkinchi tomondan, aynan globallashuv natijasida turli millat va elatlar vakillarining turmush tarzi, tili, adabiyoti, san’ati, an’analari, qadriyatlari, ta’lim va tarbiya tizimida unifikatsiya (yagona tizimga keltirish) jarayonlari sodir bo‘la boshladi. Masalan, bunday jarayonlarni avvalo turmush tarzida ko‘rish mumkin. Fan va texnika yutuqlari umumbashariy xarakter kasb etgani, bu yutuqlarning jahon bo‘ylab yoyilishi yengillashgani, kashfiyot va ixtirolarning inson turmushiga kirib borishi umumsayyoraviy tus olgani sayin turli millat vakillari turmushidagi tafovutlar kamayib, o‘xshashliklar esa ortib bormoqda.

Eng e’tiborlisi, globallashuv sharoitida g‘arb qadriyatlari umuminsoniy qadriyatlar sifatida e’tirof etilib, targ‘ib qilinmoqda. Bu haqda taniqli faylasuf S.Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nomli asarida batafsil mulohaza yuritiladi. G‘arb qadriyatlarining barcha millat va elatlar uchun universal xarakterga ega bo‘lgan tizim sifatida taqdim etilishi turli mamlakatlarda, xususan O‘zbekistonda milliy qadriyatlar jamiyatdagi mavqeiga distruktiv(buzg‘unchi) ta’sir ko‘rsatayapti.

Milliy xususiyatlar takomillashib borgani sari har bir etnosning axloqiy normalari va qadriyatlari rivoj topadi. Ammo ushbu rivojiga qarama-qarshi olamning ob’yektiv qonuniyati sifatida unga muqobil ravishda amoralizm – axloqsizlik ham shakllana boradi. Shu nuqtai nazardan fikrlaganda, axloqsizlik axloq kabi insoniyatning mudom yo‘ldoshi bo‘lib kelgan. Biroq XX asrda axloq olamida tub o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi: axloq va axloqsizlik o‘rtasidagi muvozanat buzildi,

Yirik mutaxassis va amaliyotchilardan U.Gelbreyt, E.Reyshauer, R.Nibur, S.Xantington, G.Kissinjer, I.Vallerstayn (AQSh), A.Toynbi (Angliya), A.Turen (Fransiya), ilmiy-amaliy muassasalar va jamg'armalardan esa "Rim klubi" va "Paguosh" tinchlik harakati "tahdid" fenomeni bo'yicha jiddiy ishlar olib borishgan. Hozirgi kunda siyosiy, ijtimoiy, milliy xavfsizlikka nisbatan xavf- xatarlar va tahdidlarni o'rganish borasida Jorj Marshall nomidagi Xalqaro munosabatlar va xavfsizlik muammolari Yevropa Instituti faoliyati alohida e'tiborga molik.

Hozirgi kunda mutaxassislar oldida tahdidlar, uning asosiy tushunchalari, strukturalari, funksiya va vazifalari, ularni hal etish yo'llarini yoritish orqali ijtimoiy tahdidlarga moyil oilalar muhitini barqarorlashtirish, tahdidlar to'g'risidagi turli qarashlarni tahlil qilish va ularning mazmun-mohiyatini yoshlar ongi va yoshi nuqtai nazaridan ochib berish, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda katta avlod tajribalarining rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish masalalari ko'ndalang bo'lib turibdi.

Biz tahdidlarning zamonaviy ko'rinishlarini quyidagicha klassifikatsiya(tasnif) qilishimiz mumkin.

Birinchisi, bu ijtimoiy tahdidlar bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin. Ya'ni:

- daromadlar o'rtasida asossiz tafovutlarning yuzaga kelishi va tafovutning keskin ortib borishi, qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarining buzilishi;
- bandlik masalasining hal etilmasligi natijasida, ishsizlar sonining ko'payishi, keksa va yosh avlodga oid davlat siyosatini amalga oshirishdagi sustkashliklar:
- ta'lim sifatidagi sustkashliklar va marifiy-tarbiyaviy ishlarning besamarligi, ta'lim tizimi, infratuzilmaning zamon talablariga mos kelmay qolishi;
- fuqarolarning, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy faol emasligi va boshqalar.

Ikkinchisi, bu siyosiy tahdidlar. Siyosiy tahdidlar (separatizm, vesternizatsiya, "vijdon erkinligi", rangli inqilob, neofashizm, gegemonizm, bo'lib tashlab – hukmronlik qilish, konservatizm, neokonservatizm, etnotsentrizm, anarxizm, shovinizm, buyuk davlatchilik shovinizmi, irqchilik, mafkuraviy poligon, pansovetizm, fashizm, "demokratiya"ni olg'a surish);

Uchinchidan, ma'naviy-g'oyaviy tahdidlar bo'lib, ularga millatlarning tarixiy ma'naviy-axloqiy, etnik-madaniy ildizlaridan ajrab qolishi, ularga nisbatan bepisandlik, g'oyaviy bo'shlik paydo bo'lishi, "Ommaviy madaniyat", ta'lim-tarbiyaning zamonaviy talablarga mos kelmay qolishi, ko'r-ko'rona yondashuvga asoslangan piyar texnologiyalarni kiritishimiz mumkin.

Bizningcha, ma'naviy-axloqiy tahdidlarning bir necha jihatlari diqqatni tortadi. Shu ma'noda, quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1) Ma'naviy-axloqiy tahdidlarning xususiyatlari:

a) til bilmaydi;

b) din tanlamaydi;

v) e'tiqod tanlamaydi.

Boshqacha aytganda, ma'naviy tahdidlar odamning qaysi tilda so'zlashi, qaysi dinda ekani va e'tiqodining qandayligidan qat'iy nazar insonga daxl qiladi.

2) Ma'naviy-axloqiy tahdidlarning zarari:

a) inson axloqiga daxl qiladi;

b) insonning ruhiy dunyosini izdan chiqaradi;

v) g'arazli maqsadda amalga oshiriladi.

3) Ma'naviy-axloqiy tahdidlarning turlari:

a) mafkuraviy;

b) g'oyaviy;

v) informatsion.

To'rtinchidan, ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar ("Dunyo fuqaroligi" kosmopolitizm, "qayerda yashash yaxshi bo'lsa, o'sha joy vatan", amoralizm, migratsiya, starizm, beshinchi kolonna, liberalizm, neoliberalizm, konservatizm, neokonservatizm, sotsial-demokratiya, barbi "madaniyati", volyuntarizm, vandalizm, varvarlik, gedonizm). Diqqat qilinsa, mafkuraviy tahdid ma'naviy- axloqiy tahdid turlaridan biri. "Mafkuraviy tahdid – ijtimoiy-siyosiy harakat,oqim yoki siyosiy kuch o'z manfaatini ifodalovchi mafkurasini qo'rqituv, zo'rlik yo'li bilan boshqalarga tiqishtirish.

Beshinchidan, ekotahdidlar bo'lib, ularga ekologik tanglik, genofondning buzilishi, ekologik omillarga nisbatan bepisandlik, atrof-muhit va aholi sog'lig'i uchun zararli ishlab chiqarishlar, sifatsiz utilizatsiya, ichimlik suvi tanqisligi, zararli oziq-ovqatlar va farmakologiya mahsulotlari hamda tabiiy va texnogen ofatlarni kiritishimiz mumkin.

Oltinchidan, iqtisodiy tahdidlar. Ularga makroiqtisodiyotdagi, investitsiyaviy muhitdagi beqarorlik, raqobatning yo'qligi kabi iqtisodiy tahdidlar (ilmoqli qarz, asotirli qarz, peniyafobiya, besamar investitsiya);

Ye*ttinchidan,* diniy tahdidlar, suitsid, panislomizm, radikalizm, atanizm satanizm, missionerlik va prozelitizm, fundamentalizm, islom fundamentalizmi, terrorizm, fanatizm, radikalizm, ekstremizm, mutaassiblik va "g'ulu" tushunchalari, ularning paydo bo'lish sabablari va oqibatlari, soxta salafiylik, diniy aqidaparastlik, islom aqidaparastligi, diniy ekstremizm, islom modernizmi, islom traditsionalizmi.

Nazorat savollari:

1. Qadriyat tushunchasining ma'nosi nima ?
2. Qadriyalarni o'rganuvchi falsafa sohasi nima deb ataladi ?
3. Milliy qadriyatlarni sanang ?
4. Umuminsoniy qadriyatlarga misol keltiring ?
5. Diniy qadriyatlarni tushuntiring ?
6. Unitilayotgan qadriyatlarga misol keltiring ?
7. Qadriyatlarning ahamiyatini tushuntiring ?
8. Unitilayotgan qadriyalarni saqlab qolish bo'yicha taklif ayting ?

11- mavzu. Axloq falsafasi (Etika).

Reja:

1. *"Etika" fanining predmeti, mohiyati va tuzilmasi.*
2. *Axloqning mohiyati va paydo bo'lishiga oid qarashlar tasnifi.*
3. *Etikaning kategoriyalari, tamoyillari va namoyon bo'lish shakli.*
4. *Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov, gedonizm va evdemonizm.*

Tayanch iboralar: *Etika, axloq, odob, xulq, xulq-atvor atamalari, etikaning obyekti, etikaning predmeti, etikaning turli aspektlari (sohalari), etikaning boshqa fanlar bilan aloqasi, gedonizm, evdemonizm, axloq va ma'naviyat, etika kategoriyalari, muhabbat va nafrat, yaxshilik, yomonlik, adolatlilik, adolatsizlik, vijdon, shon-sharaf (sha'n), or-nomus, burch, baxt, hayot mazmuni.*

Axloqshunoslik (etika) odob-axloq falsafasi hisoblanadi. Axloqshunoslik (etika) (grek tilida olingan bo'lib, "axloq - odob, urf – odat" degan ma'noni anglatadi) - tadqiqot ob'yekti axloq - odob va odob qoidalari bo'lgan, falsafaning amaliy sohalaridan biri hisoblanadi. Ushbu so'zning boshlang'ich o'zagi - etos, birgalikdagi istiqomat qilish joyi va umumiylikda hayot kechirish, iboralari ma'nosi asosida vujudga kelgan, jamiyatni jipslashtirishga xizmat qiluvchi qoidalar, me'yorlar, individualizm va tajovuzkorlikka barham berish ma'nosini anglatadi. Jamiyat rivojlanishi bilan ushbu ma'no tarkibiga vijdon, ezgulik va yovuzlikning o'rganilishi, hamdardlik, do'stlik, hayotning mazmun-mohiyati, o'z - o'zini bag'ishlash va hokazo ma'nolar qo'shilgan.

Fanda axloqshunoslik tushunchasi orqali bilimlar sohasi tushiniladi, axloq yoki odob tushunchalari orqali esa ushbu bilimlar sohasining o'rganish predmeti tushiniladi. Jonli tilda ushbu nuqtai nazardan qaraganda aniq farqlanishlar, chegaralanishlar hali mavjud emas. Shuningdek, axloqshunoslik *(etika)* atamasi ayrim holatlarda ma'lum bir aniq ijtimoiy guruhlarning axloq - odob yuzasidan me'yorlari tizimini ifodalash uchun foydalaniladi.

Axloqshunoslik paydo bo'lgan dastlabki davrlardan boshlab, falsafa bilan chambarchas bog'liqlikka ega hisoblanadi. Bu atama dastlab Arastu tomonidan tadqiqotlarning alohida darajada xususiyatlarga ega bo'lgan sohasi ya'ni, *«amaliy»* falsafani ifodalash maqsadlarida foydalanilgan, ya'ni bu holatda u *«Biz nima qilishimiz kerak"* savoliga javob izlash mazmunida qaror topgan.

Axloqiy xulq - atvorning asosiy maqsadi sifatida Arastu baxtni ya'ni, ezgu oliyhimmatlilikning barkamolligida ruhiyatning faoliyatini, yoki boshqacha aytganda o'z - o'zini ro'yobga oshirishni ko'rsatib o'tadi. Odamning o'z - o'zini ro'yobga oshirishi - bu aql - idrok asosida harakatlarni amalga oshirish, favqulotda chegaraviy vaziyatlardan qochish va oltin o'rtalikni (oltin mo'tadillik) saqlashga harakat qilishdan tashkil topadi. Shu sababli, asosiy ezgulikka asoslaniluvchi oliyhimmatlilik - bu mo'tadillik va mulohaza bilan ish yuritishdan tashkil topadi.

Axloq, umuman olganda, universal xususiyatga ega. Axloqdan mutlaqo mosuvo bo'lgan, o'z faoliyatini axloqiy mezonlar bilan o'lchab ko'rishga odatlanmagan kishining bo'lishi mumkin emas. Shu nuqtai nazardan fikrlaganda, axloq – murakkab mazmun va tarkibga ega ijtimoiy-madaniy fenomendir.

Axloq nafaqat alohida olingan individning xulq-atvori va turmush tarziga, balki butun jamiyatning borlig'iga ta'sir o'tkaza boradi. Masalan, jamiyat iqtisodiy tizimida axloq mezonlariga mos bo'lgan iqtisodiy munosabatlargina saqlanib qoladi, axloqdan yiroq munosabatlar esa vaqt o'tishi bilan yo'qlikka yuz tutadi. Siyosiy voqelik xususida ham shunday deyish mumkin: axloq mezonlariga javob bermagan siyosiy tizim ham, siyosiy institutlar, siyosiy munosabatlar ham vaqt o'tishi bilan kun tartibidan tushadi. Faqat adolat va ezgulikka yo'naltirilgan siyosiy tizim va munosabatlargina saqlanib qoladi. Ijtimoiy turmushning turli sohalari axloq nuri bilan yo'g'rilganini ortiqcha isbotlab o'tirishning hojati yo'q. Axloqiy normalarga tayangan ijtimoiy munosabatlar an'ana tusini oladi va ajdodlardan avlodlarga o'tib keladi. Axloqsizlikka eltuvchi ijtimoiy aloqalar ertami-kechmi inqirozga yuz tutadi. Shuningdek, axloqning ijtimoiy ongning boshqa shakllariga ta'sirini ham tilga olib o'tish zarur. Xullas, axloq jamiyatning turli sohalariga muttasil ta'sir ko'rsatib turuvchi, bu sohalardagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi omildir.

Odob - axloqning asl mazmun - mohiyati, kelib chiqishi va funksiya bajarishi bo'yicha ushbu fan sohalari tomonidan amalga oshiriluvchi tadqiqotlar natijalari nazariy axloqshunoslikda umumlashtiriladi va foydalaniladi. ***xulq*** - kishilarning amaliy xatti-harakatlari, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlardir; ***axloq*** - ijtimoiy ong bilan bog'liq bo'lib, mazkur xatti-harakat tamoyillari va qoidalari- ning axloq talablari shaklida ifodalanishidir.

Axloq kategoriyalari. Kategoriya so'zi (yunoncha *kategoria* - mulohaza, fikr, belgi) - predmet va hodisalarning umumiy hamda muhim tomonlari xususiyatlari yoki munosabatlarini aks ettiruvchi eng umumiy tushunchalarni anglatadi.

Yaxshilik - eng muhim fazilat bo'lib, inson faoliyatining asl va azaliy mohiyatini anglatadi. U insonga kuchli ruhiy lazzat bag'ishlashi bilan birga uni shaxs sifatida shakllanishining muhim ko'rsatkichidir. Yaxshilik halollik, to'g'rilik, rostgo'ylik, kamtarlik, xushmuomalalik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, umumxalq ishiga sadoqat, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uyg'unligi, so'z va ish birligi, mehnatsevarlik, millatlararo do'stlik, birodarlik kabi insonning axloqiy fazilatlarida namoyon bo'ladi.

Yomonlik - yaxshilikning muqobili bo'lib, shaxs va jamiyat rivojiga to'sqinlik qiluvchi illatdir. U yolg'onchilik, pastkashlik, munofiqlik, behayolik, rahmsizlik, nomardlik, xiyonat kabi tushunchalarda o'z ifodasini topadi.

Burch - shaxsning jamiyatga yoki kishilarga nisbatan bo'lgan axloqiy majburiyatidir. Burch, oddiy qilib aytganda, ado etilishi, bajarilishi shart bo'lgan vazifa, majburiyatdir.

Vijdon. Vijdon deganda, odatda, kishining o'z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoattchilik oldidagi mas'uliyat hissi tushuniladi.

Adolat. Adolat - ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va huquqiy tushuncha bo'lib, kishilar ijtimoiy-siyosiy ongida katta rol o'ynaydi. Muayyan ijtimoiy guruhlar va ayrim shaxslarning tushunchalarini o'zida aks ettiradi. Siyosiy xatti- harakatlar, huquq va burch me'yorlari, axloqiy munosabatlar, mehnat va taqdirlanish, jinoyat va jazo, xizmat va uni tan olish, qadr-qimmatni e'tirof qilish va hokazolarga mazkur tushuncha orqali baho beriladi. Adolat tushunchasi muayyan tarixiy shart-sharoit va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi. Adolatning ijtimoiy-falsafiy jihati jamiyat a'zolarining xilma-xil munosabatlaridagi o'zaro tengligini nazarda tutadi.

Or-nomus. Axloqiy tushunchalar bo'lmish «or-nomus» ("sha'n") insonda shaxsning ijtimoiy ahamiyati va axloqiy qadri hosil bo'ladigan fazilatlarning mavjudligini ko'rsatadi. *Or* deganda, odatda, o'ziga nomunosib yoki ep ko'rmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, nomus qilish tushunilsa, *nomus* deganda kishining o'z obro'sini ulug'lashi va ardoqlashi, oriyat, diyonat, sharm, hayo tushuniladi.

Baxt-saodat tushunchasi, inson hayotiga falsafiy mazmun baxsh etuvchi, uni ijtimoiy borliqda ma'no, mazmun izlab, mamnun yashashga undovchi fenomen. Baxt - hayotimizni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotga sabab bo'luvchi hayotiy qadriyatdir.

Axloqining konstruksiyasi bir necha pirinsiplardan iborat bo'ladi. «Prinsip» lotincha - *«principium» - «asos, negiz»; «ibtido»* so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida: 1) biror nazariya, ta'limot, dunyoqarash va shu kabilarning asosiy qonun-qoidasi; faoliyat uchun asos qilib olinadigan bosh g'oya, qonun- qoida; 2) "xulq-atvor, xatti-harakat me'yorini belgilaydigan, kishi qattiq ushlab olgan va og'ishmay amal qiladigan ichki ishonch, nuqtayi nazar, qarash, maslak degan ma'nolarni anglatadi".

*1.**Insonparvarlik prinsipi.*** Insonparvarlik ikki ma'noda: birinchidan, amaliy faoliyat, ya'ni insonning tenglik va ozodlik uchun olib boradigan kurashi; ikkinchidan, mafkura, dunyoqarash, axloq, siyosat, tarbiya sifatida tushuniladi.

*2.**Jamoatchilik prinsipi.*** Jamoatchilik prinsipi, deb insonlarning o'z burchini bajarishda shaxsiy manfaatni ko'pchilik manfaatiga ongli ravishda bo'ysundirishga asoslangan o'rtoqlarcha hamkorlik, o'zaro yordam munosabatlari bilan bog'liq ixtiyoriy, ongli xatti-harakatlarini belgilovchi qoidalar majmuiga aytiladi.

*3.**Qonuniylik prinsipi.*** Qonuniylik prinsipi, deb insonlarning Konstitutsiyada, qonunlardagi normalarining talablarini og'ishmay amalga oshirishlari, o'ziga yuklatilgan xizmat vazifasini mavjud qonunlarga qat'iy bo'ysungan holda bajarishlariga aytiladi. Qonuniylik prinsipidan og'ishmay ishni tashkil qilishda ham axloqning ixtiyor erkinligi ustuvorlik qiladi.

*4.**Vatanparvarlik prinsipi.*** Kishining vatanparvarligi uning Vatanni his qilishida, Vatanga bo'lgan tuyg'usida ifodalangan bo'ladi. Vatan ravnaqi g'oyasi Vatanga daxldorlik hissi mazmunini, har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga undovchi konstruktiv(bunyodkor) g'oyadir.

*5.**Adolatlilik prinsipi.*** Adolat - axloq va huquq kategoriyasi sifatida rahbar xodimlarning o'zaro va fuqarolar bilan bo'ladigan axloqiy-huquqiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, ularning faoliyatiga baho beradigan zaruriy o'lchov hisoblanadi. Ana shu o'lchov unga prinsip maqomini beradi.

Muomala madaniyati. Tabiatga razm soladigan bo'lsak, undagi har bir mavjudotning o'zaro muloqotini his etish mumkin. Gullar o'zining yoqimli iforini atrofga taratib dilni xushnud etsa, qushlar o'zining xonishi orqali tabiatga o'zgacha joziba baxsh etib, o'zaro muloqot usulini vujudga keltiradi. Insonlarda esa bu jarayon turli xildagi ularning ichki olamidan, ruhiy holati, xarakter– xususiyatlaridan kelib chiqib, o'zini o'rab turgan jamiyat a'zolariga nisbatan vujudga keladi. Muomalani yaratilayotgan asar deb qaraydigan bo'lsak, uning qay darajada qalbga iliq kirib borishi samimiylik baxsh etishini ta'minlash faqatgina ijodkorlargagina bog'liq hisoblanadi. Yoqimli muloqot ham inson qalbiga hech qanday burilishsiz yo'l oladi. Shu jihatdan inson o'zining u yoki bu darajadagi muomalasi uchun o'zi o'z ijodkorligiga, ya'ni o'z muomala madaniyatiga ega bo'lishga intilishi lozim. Ayniqsa, ta'lim tizimida faoliyat olib boradigan har bir inson bu masalaga jiddiy qarashi talab etiladi. Chunki, bugungi ilm talabi har kunlik xush muomalani talab etadi. Ilm istagan har qanaday qalb, albatta, chiroyli muomalaga, go'zal nutq va ifodaga oshufta bo'ladi. Zamonaviy ta'lim va tarbiyada nutq madaniyatiga ega bo'lish har bir ustoz-murabbiy uchun muhimdir. O'qituvchining nutqi o'quv jarayonida o'quvchilar tomonidan fanlarni puxta o'zlashtirilishini ta'minlashda muhim ahaiyat kasb etadi. O'qituvchi nutqidagi har bir harf, tovush to'g'ri aytilishi ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Individual suhbat paytida baland ovozdan talaba, o'quvchi o'zini aldanayotgandek his qiladi. Bu o'qituvchiga ishonchsizlik bilan qarash hissini uyg'otishi mumkin. Ayrim mutaxasislar tovush tug'ma xususiyat deb, aytishadi. Lekin hozirgi ekspremental fiziologiya tovush sifatini o'zgartirish mumkinligini tasdiqlaydi.

Bugungi kunda nutq texnikasi bo'yicha bir necha mashq majmualari ishlab chiqilgan. Ular asosan teatr pedagogikasi tajribasiga asoslangan bo'lib, so'zlashish paytida nafas olish, tovush hosil qilish va uni ma'noli ifodalash malakalarini takomillashtiradi, bu esa o'qituvchiga o'z so'zi mazmunini o'quvchilarga yanada to'laqonli qilib yetkazish imkonini beradi.

Kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan odamlar o'rtasidagi muloqotga ham ehtiyoj sezilgan. Jamiyat a'zolarining bir-birlari bilan o'zaro munosib muloqotlari shu jamiyatning har tomonlama taraqqiyotiga zamin bo'ldi. Muomala kishini qaysi millatga xosligini emas, aksincha muayyan mamlakatga shaxs yashab turgan geografik

hududga bog‘liqligini ifodalovchi tushunchadir. Muomala aslida odamlar o‘rtasidagi munosabatni belgilovchi inson yuragini ko‘zguda aks ettiruvchi vositadir. Muomala axloq ko‘rki hisoblanib, har bir kishi qanday dunyoqarashga ega ekanligini, bilimliligi uning muomalasidan payqash mumkin. Undan tashqari, muomala insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa vositasidir. Muomalada asosiy vosita til hisoblanib, tilni ijobiy ma’nodagi “aloqa quroli” sifatida qarash mumkin. Muomala – axborot jarayoni hisoblanib, bu jarayonda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida ikki tomonlama axborot uzatish va qabul qilish holati yuz beradi. Muomala o‘zaro munosabatlar doirasida sodir bo‘ladi. Munosabatlardagi ko‘rkamlikni oshirish uchun insonda muomala madaniyati yuksak darajada bo‘lmog‘i kerak.

Axloqiy gradatsiya – jamiyatdagi axloqiy muhitdagi ilg‘or o‘zga- rishlarning tendensiyaviy tus olganini ifodalovchi tushunchadir. Ijtimoiy kapital konsolidatsion(birlashma, jipslashish) xususiyati axloqiy muhit, undagi o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq ekan, axloqiy gradatsiya uning takomillasha borishiga zamin hozirlaydi. Axloqiy gradatsiya jadallashgani sayin ijtimoiy kapitalning millat hamjihatligini ta’minlashdagi roli ham kuchayadi. Binobarin, ijti-moiy kapitalning konsolidatsion xususiyatini mustahkamlash uchun axloqiy gradatsiyani ta’minlamoq darkor. Bu borada qator choralarga e’tibor berish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, kishilarni axloq normalariga rioya qilmaslikka undovchi holatlarni bartaraf eta borish zarur. Turli ijtimoiy mexanizmlarning maqsadga muvofiq ishlamasligi, ijtimoiy tengsizlikning kattaligi, kambag‘al kishilar toifasining ko‘pligi, ishsizlik darajasining yuqoriligi, “ijtimoiy liftning” ishlamasligi, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimidagi adolatsizliklar, milliy urf- odat, marosim va an’analarning “qimmatligi” kishilarni axloq normalariga e’tiborsiz qilib qo‘yishi mumkin.

Ikkinchidan, Axloq kishilik jamiyatining muhim atributi ekan, unga befarqlik jamiyatdagi ishonch muhitini yemiruvchi va oxir-oqibatda uni tanazzulga eltuvchi eng asosiy omillardan biridir. Axloqiy befarqlik kishilarni ijtimoiy norma va qadriyatlardan chalg‘itadi, axloqsizlik elementlarining keng ildiz otishiga sabab bo‘ladi, milliy hamjihatlikka rahna soladi. U ijtimoiy kapital elementlarini yuksaltirish, uning konsolidasion xususiyatini saqlashga ham xalal beradi. Chunki axloqiy befarqlik elementlari mavjud bo‘lgan jamiyatda kishilar bir-

biriga ishonmay qo‘yadilar, shaxslararo hamkorlik sifati pasayadi, o‘zaro yordam hollari kamayadi. Shu boisdan axloqiy befarqlikni millat borlig‘iga tahdid sifatida qabul qilmoq lozim.

Albatta, mamlakatimizda “jamiyatning ma’naviy-axloqiy negizini mustahkamlash bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda, barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda”.[65] Biroq, shunga qaramasdan, jamiyatda axloqiy be- farqlikning ayrim elementlari saqlanib qolmoqda. Ularning bartaraf etilishi ijtimoiy kapital konsolidatsion xususiyatini mustahkamlagan bo‘lardi. Bu o‘rinda quyidagi tavsiyalar ish berishi mumkin, deb hisoblaymiz:

a) axloqiylik barcha sohalardagi faoliyatning asosiy mezonlaridan biriga aylantirilishi zarur. Buning uchun kino, teatr, muzey, boshqa madaniyat maskanlarining axloqiy-tarbiyaviy funksiyalarini kuchaytirish kerak bo‘ladi. Hozirgi vaziyatda mazkur maskanlarning axloqiy-tarbiyaviy funksiyasi siyosiy- mafkuraviy va gedonistik funksiyalar soyasida qolib ketmoqda;

b) axloq mavzulariga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop risolalar nashrini ham talab darajasida deb bo‘lmaydi. To‘g‘ri, mamlakatimizda ma’naviyat va mafkuraning umumiy mavzulariga bag‘ishlangan risolalar ko‘plab chop etil- moqda. Biroq ularda axloq mavzulariga maxsus to‘xtalinmaydi, uning ijtimoiy ahamiyati ochib berilmaydi. Axloqiy befarqlikning ijtimoiy oqibatlariga bag‘ishlangan risolalar esa barmoq bilan sanoqli holatda qolmoqda;

v) barcha turdagi korxona va tashkilotlarda keksa avlod vakillari bilan uchrashuvlarga davriy tus berish zarur bo‘lmoqda. Bunday uchrashuvlardagi nasihatlar ayrim pallalarda turli maskanlar faoliyati, risolalarning tarbiyaviy ta’siridanda unumliroq bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, ommaviy axborot vositalari faoliyatini axloq mezonlari asosida tubdan qayta ko‘rib chiqish zaruriyati vujudga kelmoqda. Ommaviy ax- borot vositalarining jamiyatdagi axloqiy muhitni barqarorlashtirishdagi va uning orqali ijtimoiy kapitalni mustahkamlashdagi roli benihoya kattadir. Biroq bunday ijtimoiy ahamiyatli vazifani uddalash uchun ularning axloqiy-tarbiyaviy funksiyasi tizimli ravishda amalga oshirilishi darkor.

[65] Mirziyoyev Sh.M. Inson huquqlari bo‘yicha Osiyo forumi ishtirokchilariga.// Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. J.3.- T.:O‘zbekiston, 2019.- B.361.

Mamlakatimizda keyingi yillarda oshkoralik muhiti qaror topdi. Jamiyat a'zolari mavjud ijtimoiy muammolar, kishilarning orzu-umidlari va ehtiyojlari xususida ochiq mulohaza yurita boshladilar. Bunday muhit ommaviy axborot vositalari faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatdi, albatta. Gazeta, jurnal, radio, televidenie va Internet-nashrlarda nashr erkinligi oshdi, taqdim qilinayotgan materiallar turkumi boyidi, tanqidiy yondashuv vujudga keldi. Xususiy ommaviy axborot vositalarining ko'payishi nafaqat oshkoralik, balki raqobatchilik muhitini ham rivojlantirdi. Biroq ommaviy axborot vositalari taqdim qilayotgan ko'plab materiallarda gedonistik elementlar ustuvorligicha qolmoqda. Ularning aksariyati o'quvchi yoxud tomoshabinni zerikishdan asraydi, xolos. Masalaning axloqiy jihati esa e'tibordan chetda qolmoqda. Bu o'rinda, ayniqsa, keyingi yillarda urchib ketgan seriallar alohida o'rin tutmoqda. "Hayotiy mavzular deb, tomoshabinni qiziqtirish uchun jinsiy va oilaviy zo'ravonlik, fahsh va vahshiylik aks etgan sahnalar ko'payib ketmoqda. Natijada, odamlarda haddan tashqari agressiya hosil bo'lyapti, tomoshabinlarning ko'zi shunga moslashib, bundan-da vahshiy yoki dahshatli manzaralarni ko'rgisi keladi, diydasi qotadi, didi sayozlashadi va hayratlanish tuyg'usi yo'qoladi". Ommaviy axborot vositalarining bunday faoliyati, bir tomondan, jamiyat axloqiy degradatsiyasiga turtki beradi, ikkinchi tomondan esa, ijtimoiy kapital konsolidatsion xususiyatini butkul yemiradi. Shu boisdan bugungi vaziyatda quyidagi choralarga e'tibor berish zarur, deb hisoblaymiz:

a) tayyorlangan materiallarning axloqiy saviyasini tahririyat kengashlari, badiiy kengashlarda muhokama qilish amaliyotini qayta tiklash zarur. Bu amaliyotning nafaqat davlat, balki xususiy ommaviy axborot vositlarida ham amal qilishini ta'minlash kerak;

b) fuqarolarda axloqiy madaniyatni, axborotdan foydalanish madaniya-tini shakllantirishga xizmat qiladigan risolalar, bukletlar, flaerlar, taqdimotlarni ko'paytirish ham foydadan xoli bo'lmaydi. Negativ va axloqsiz axborotlarning shaxs ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sirini ochib beruvchi ijtimoiy reklamalarni yaratishni yo'lga qo'yish zarur.

To'rtinchidan, uzluksiz axloqiy ta'lim tizimini takomillashtirish masalasi kun tartibida turibdi. Axloqiy gradatsiya stixiyali ravishda kechadigan jarayon emas. U jamiyatda kishilarni axloqiy yetuklikka undab turuvchi muayyan mexanizmning mavjud bo'lishini talab qiladi. Ana shunday mexanizm vazifasini uzluksiz axloqiy ta'lim tizimi o'taydi.

Beshinchidan, uzluksiz axloqiy tarbiya tizimini takomillashtirish o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Bu o'rinda ham yuqoridagi fikrlarga monand mulohazalarni keltirish mumkin. Kishilarning axloqiy qiyofasi takomil topa borishi uchun shunday funksiyani maxsus ijro etadigan ijtimoiy mexanizm bo'lmog'i shart.

Amoralizm. Masalaning aynan ildizini qidiradigan bo'lsak, jamiyatda kuzatiladigan amoralistik jarayonlarni atroflicha o'rganib chiqishimiz mazkur mavzuning muhim masalasi sanaladi. Avvalo amoralizm tushunchasining mohiyati nimalardan iborat ekanligiga to'xtalib o'tsak. Amoralizm lotincha- yo'q, moralis-axloq, ma'naviy hayot va shaxslararo munosbatlarda axloq me'yorlarining buzulishi hamda ularni inkor etish, umume'tirof etilgan xulq- atvor mezonlariga e'tiborsizlik va ularga yengil-yelpi munosabatda bo'lishdir. Ushbu holatni axloqsizlik, ma'naviyatsizlik, kishilar botinida yuzaga keladigan havasning jamiyatga ta'sir etishi kabi jarayonlar bilan bilan qiyoslashimiz mumkin. Amoralizm jamiyat hayotida ikki xil tarzda, individual hamda ijtimoiy guruh sifatida namoyon bo'ladi. Guruhlarga xos amoralizm esa jamiyatning biror bir qatlami, ijtimoiy guruhlar orasida tarqalgan amoralistik xatti- harakatlarning avj olishi, yoyilishi kuzatiladi. Bunga misol qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatda kuzatiladigan buzg'unchilik, narkomaniya, alkogolizm, fohishabozlik, korrupsiya va shunga o'xshash keti uzilmaydigan razilliklarni keltirib o'tishimiz mumkin. Bundan tashqari, amoralizmning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy ko'rinishlari mavjud. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, amoralizmik jarayonlar faqat shaxsning o'zigagina emas, balki atrof- muhit va jamiyat a'zolariga salbiy ta'sir etishi shubhasiz. Bunday holatlarning oldini olish hozirgi kundagi muammolarni, o'z-o'zidan begonalashuv, atrofga loqaydlik, beparvolik, mas'uliyatsizlik, ma'naviy ongsizlik, axloqiy betaratiblik kabi o'nlab salbiy holatlar avj olayotgan bir vaqtda dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Amoralizm holatiga tushib qolgan kishilar jamiyatida ham ma'naviy nosog'lom muhit hukmron bo'ladi. Demakki, bunday muhitda ma'naviy nosog'lom raqobat ham yuzaga keladi. Sh.Negmatova bunday raqobat xususiyatlariga quyidagicha ta'rif beradi:

1. Pinhoniylik, ya'ni o'zining maqsad-muddaolarini kishilarning nazaridan yashirgan, maxfiy, sir tutgan holda amalga oshirish;

2. Yovuzlikka yo'naltirilganlik, ya'ni jamiyatni faqat yovuzlik bilan boshqarish asosida uni tanazzulga uchratishga qaratilganligi;

3. G‘arazgo‘ylik, ya’ni o‘y-fikrlar va sodir etilayotgan xatti-harakatlarning o‘zgalarning yutuqlarini ko‘rolmaslik alamidan chiqish uchun qilinayotganligi;

4. Diyonatsizlik, ya’ni har bir ishni vijdonini sotish, yuzaga kelgan muammolarni esa insofsiz tarzda, shafqatsizlarcha hal etishga qaratilganligi;

Ommaviy madaniyat. Bu mavzu doirasida izlanishlar olib borgan rus tadqiqotchisi A.V.Kostina mazkur «g‘ayrimadaniy» yo‘nalishning yuzaga kelish tarixi xususida quyidagilarni bayon qilgan: “Ommaviy ravishda ma’nosiz xatti- harakatga uzluksiz yo‘nalgani, uning asosiy funksiyasi esa ko’ngilxushlik hisoblanadi”. Shuningdek mazkur ijtimoiy-madaniy hodisaning vujudga kelishi to‘g‘risida “Ommaviy madaniyat tahdidi” asarida quyidagicha ma’lumot beradi “...AQSh sotsiologi D.Uayt fikricha esa, ommaviy madaniyatning dastlabki unsurlari sifatida minglab tomoshabinlarni o‘ziga jalb etgan Rim gladiatorlari o‘rtasidagi janglarni keltirish mumkin”.

Ba’zi ma’lumotlarga binoan, ommaviy madaniyat XIX asrning 50-yillarida beva ayollarning farzand ko‘rishi holatini tabiiy bir hodisa deb qarash Yevropada boshlangan. Keyinchalik bu kabi holat AQShga ko‘chadi. XX asr o‘rtalariga kelib butun Yevropa va AQSh olamida ommaviy madaniyat tushunchasiga yana erkin muhabbat g‘oyasi qo‘shiladi. Axloqiy buzuqlik eng tuban faoliyat bo‘lib, u “erkin muhabbat”dan asta-sekin “bir jinslilar o‘rtasida nikoh tuzish”gacha bo‘lgan bosqichlarga ko‘tariladi va yoshlarni ma’naviy, axloqiy-estetik jihatdan aynitib, minglab yillardan bo‘yon ardoqlanib kelinayotgan muqaddas muhabbat an’anasi o‘rniga zinokorlikni taqdim qiladi. Masalan, “bugungi kunda AQShning 30 foiz ayollari nikohga kirgunga qadar kamida ikki marta bola oldiradilar, shuningdek, qizlar ham ana shu ruhda tarbiya topmoqda. Aksariyat saylovchilar bu kabi turmush tarziga xalaqit beruvchi har qanday siyosatga qarshi ovoz beradilar”.

Ommaviy madaniyat substansiyasini G‘arb faylasuflari tahlil qilar ekanlar (M. Veber, F. Nisshe, Z. Freyd, O.Shpengler, N. Berdyaev, K. Yung, E. Fromm, Dj. Bentam, D. Rismen, F. Livis, R. Vilyams, D. Tompson,), uni barcha xususiyatlarini inson ma’naviy olamini inqirozga olib keluvchi negativ sifatida baholaganlar, u barcha etnoslarni urf-odat va madaniyatlarini yillar davomida shakllangan an’anaviy shakllarining o‘rniga kelgan maxsus zamonaviy madaniyat turi deb qaraganlar.

G‘arb faylasuflari asarlarida ommaviy madaniyat insonda ruhiy krizis, irodaviy erksizlikning to‘liq ifodasi, kishilar o‘rtasida beganolashuvni, kosmopolitizm (dunyo odami, vatansizlik)ni vujudga keltiruvchi ijtimoiy mexanizm deb ataganlar. Xususan, faylasuf O.Shpengler ommaviy madaniyatni butun dunyo sivilizatsiyaning inqirozi debochasi sifatida talqin qilgan edi. Ommaviy madaniyat axloqiy buzuqlik muammosi birinchi o‘ringa qo‘yilganligi bejiz emas. Bu tushunchalarga chuqurroq nazar solsak quyidagi xulosalarga kelamiz:

1. Axloqiy buzuqlik. Axloqiy buzuqlik dastavval oilaga dahl qiladi, keyin esa u nasl pokligiga putur yetkazadi. Vaholanki, bizda oila muqaddasligi, nasl pokligi masalasi muhim qadriyat hisoblanadi. Har turdagi axloqsizlik haqida hadislarda quyidagicha marhamat qilinadi: “Mo‘min insonda ikki xislat jamuljam bo‘lmas: biri-baxillik, ikkinchisi-badxulqlik”.

Bugungi axborot aylanishi jadallashgan va globallashuv sharoitida ommaviy madaniyat - mafkuraviy urush quroli sifatida rol o‘ynamoqda. Uning qaynoq urush qurollaridan farqi shundaki, bu “yumshoq kuch” shaklida sekin- astalik bilan, madaniyat niqobi ostida jamiyatimizga kirib kelmoqda. Ta’kidlash kerakki, ommaviy madaniyat yakka tushuncha sifatida qo‘llanilgani bilan u ko‘pdan-ko‘p shakllarda o‘zini nomoyon etadi. Jumladan, uning shakllari sifatida:

– *kitch* - badiiy-estetik qimmatga ega bo‘lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish;

– *vandalizm* - madaniy yodgorliklarni, qadriyatlarni vahshiylarcha vayron, oyoq osti qilish, yo‘qotish;

– *nigilizm* - jamiyatning ma’naviy norma va ustunlari, umume’tirof etilgan tarixiy va madaniy qadriyatlarning inkor etish, shuningdek, ularga nisbatan mutlaqo salbiy, o‘ta tanqidiy munosabatda bo‘lish;

– *komiks* - tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa - rasm mahsulotlari;

– *starizm* - sub’yektiv ehtiroslarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyor, sportchi va telediktorlarni ideallashtirish;

- *LGBT* - (lezbiyan, gomoseksual, biseksual va transgender so‘zlarining qisqartmasi);

– *Nimfomaniya* - (kelib chiqishi qadimgi yunon mifologiyasi bilan bog‘liq) – bu hayvonsifat tarzda ayollarning haddan tashqari jinsiy

maylga berilib ketishini, ya'ni ayollarning behayo qiliqlarini targ'ib qilishga qaratilgan umuminsoniy axloqqa zid buzg'unchi g'oyadir;

– *Kinizm (kinisizm)* – bu axloqiy me'yorlar, axloq qoidalari va madaniy qadriyatlarga nisbatan ochiqdan-ochiq nafratlanish, shuningdek, an'anaviy axloq normalari, qonunlari, urf-odatlari va boshqalarni to'g'ridan- to'g'ri rad etishdir.

Ommaviy madaniyat amaliyotda yuqoridagi harakat shakllaridan tashqari, butun bir millatning milliy madaniyatiga qarama-qarshi bo'lgan submadaniyatlarni ham hosil qila oladi. Submadaniyat deganda, muayyan insonlar guruhining hayot tarziga ta'sir qiluvchi ijtimoiy psixologik va g'oyaviy belgilar (norma, qadriyat, steriotip, did) majmuasi tushuniladi. Submadaniyat – muayyan ijtimoiy guruhga xos bo'ladi va u jamiyatdagi hukmron madaniyatdan til, kiyinish, odatlar va boshqa jihatlari bilan farqlanadi. Ilmiy izlanishlarimiz xulosalariga tayangan xolda, submadaniyatning turlariga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

– *Emolar* - submadaniyat ko'rinishlaridan biri bo'lib, shu nomli musiqa yo'nalishi negizida vujudga kelgan. Uning vakillari noodatiy bezak va kiyimlari bilan ajralib turishadilar;

– *Gotlar* - XX asrning 70-yillarida post-pank talqini ostida paydo bo'lgan. Gotlarning o'ziga xos xususiyatlari: maxsus imij, got musiqasiga qiziqish, kiyimlari asosan qora rangda, ko'proq erkaklarga xos odatlar, tishlari uchli vampirsimon ko'rinishda bo'lishi bilan xarakterlanadi;

– *Beatniklar* - 1950 va 1960 yillarda AQShda shakllangan va dastlab ular amerikaliklarning mumtoz qadriyatlariga, giyohvand moddalar iste'moli, jinsiy erkinlik va anti-materializmga qarshi chiqishgan. Ularning odatiy kiyimi fransuz bereti, quyoshdan saqlovchi ko'zoynak va qora sviter hisoblanadi.

– *Modlar* - 1960 yillarda AQShda shakllangan. Kiyinishda erkaklar o'ziga xos italiyan kostyumidan, ayollar esa mini yubka va etiklardan foydalanishadi. Shuningdek, ular dubulg'aga o'xshash sochlari va mototsiklda yurishlari bilan ham ajralib turishadi;

– *Hippilar* - 1970 yillarda paydo bo'lishgan. Ular boshqa submadaniyatlardan uzun sochlari va rang-barang kiyimlari, sandal kiyishlari hamda ongni kengaytirish usuli sifatida giyohvand moddalar bilan tajriba o'tkazishi bilan ajralib turadi. Ayni vaqtda ular jamoat hayoti, jinsiy inqilob va erkin sevgi g'oyalarini targ'ib qiladilar;

– *Punklar* – 1970 yillarning o'rtalarida paydo bo'lishgan. Ular o'z mafkurasida anarxiya (hokimiyatsizlik, beboshlik)ni targ'ib qiladi. Ko'rinish jihatidan ular Mohican soch turmagi, charm kurtka va qulflangan yoqa bilan boshqalardan ajralib turardilar.

Amaliyotda submadaniyatning yana rokchilar - rok-roll kabi musiqa fanatlari, metallistlar - metal nishonlarga ixlos qo'yganlar, geymerlar -video o'yin muxlislari, gotiklar - motam va o'limga talpinuvchi va targ'ib etuvchilar kabi turlari ham uchraydi. Submadaniyatlar ommaviy madaniyatning hayotdagi amaliy ko'rinishi hisoblanadi. Ushbu submadaniyatlar orqali quyidagilar urfga kirmoqda

"Got"lar tufayli quyidagi rusumlar urfga kirgan:

- tor shimlar;
- tirnoqlar, qosh-qovoqlarni qora rangga bo'yash;
- qizlar orasida soch qirqib (kare) qora rangga bo'yash;
- "Rok" musiqalari kabilar.

Bugunga kunga kelib "rok" musiqalari butun dunyoda keng ommalashib, xit darajasiga ko'tarildi. G'arbda "Rok qirollari" deb nom olgan, asl maqsadi ommaviy madaniyatni targ'ib qilishdan iborat bir qancha rok-n-rolchilar mavjud. Ulardan eng yiriklari: "Ramsstein", "The Rasmus", "Chimical Brothers"lardir.

Bugungi kunda "Emo" guruhi vakillari tomonidan mamlakatimiz hududida bir qator rusumlarni ommalashtirganliklariga guvoh bo'lish mumkin. Jumladan:

- soch ulash va sochlarni turli ranglarga (och yashil, pushti) bo'yash;
- och rangli pardoz-andoz vositalaridan foydalanish;
- yengil rok musiqalarini tinglash kabilar.

Achinarli tomoni shundaki, ayrim kliplar, kinofilmlarda ham o'zbek millatiga mansub "Emo" qizlarining tashqi ko'rinishlari, xatti-harakatlari, turmush tarzi, hayotga, oilaga bo'lgan munosabati, keng targ'ib qilinmoqda. Bunday xatti-harakatlarni ommaviy madaniyatni oshkora targ'ib qilishga intilish sifatida baholash mumkin.

Temir-tersakli ovsarlar, ya'ni metalliklar guruhi vakillari, o'zlarini turli temir-tersaklar bilan bezashga intiladilar. Metalliklarning shiori "faqat bugungi kun uchun yashash"dan iborat. Ular badanlarining turli a'zolari, jumladan, burun, qoshlarning tepa qismi, til va hatto kindiklariga ham temir bezaklar taqadilar.

maylga berilib ketishini, ya'ni ayollarning behayo qiliqlarini targ'ib qilishga qaratilgan umuminsoniy axloqqa zid buzg'unchi g'oyadir;

– *Kinizm (kinisizm)* – bu axloqiy me'yorlar, axloq qoidalari va madaniy qadriyatlarga nisbatan ochiqdan-ochiq nafratlanish, shuningdek, an'anaviy axloq normalari, qonunlari, urf-odatlari va boshqalarni to'g'ridan- to'g'ri rad etishdir.

Ommaviy madaniyat amaliyotda yuqoridagi harakat shakllaridan tashqari, butun bir millatning milliy madaniyatiga qarama-qarshi bo'lgan submadaniyatlarni ham hosil qila oladi. Submadaniyat deganda, muayyan insonlar guruhining hayot tarziga ta'sir qiluvchi ijtimoiy psixologik va g'oyaviy belgilar (norma, qadriyat, steriotip, did) majmuasi tushuniladi. Submadaniyat – muayyan ijtimoiy guruhga xos bo'ladi va u jamiyatdagi hukmron madaniyatdan til, kiyinish, odatlar va boshqa jihatlari bilan farqlanadi. Ilmiy izlanishlarimiz xulosalariga tayangan xolda, submadaniyatning turlariga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

– *Emolar* - submadaniyat ko'rinishlaridan biri bo'lib, shu nomli musiqa yo'nalishi negizida vujudga kelgan. Uning vakillari noodatiy bezak va kiyimlari bilan ajralib turishadilar;

– *Gotlar* - XX asrning 70-yillarida post-pank talqini ostida paydo bo'lgan. Gotlarning o'ziga xos xususiyatlari: maxsus imij, got musiqasiga qiziqish, kiyimlari asosan qora rangda, ko'proq erkaklarga xos odatlar, tishlari uchli vampirsimon ko'rinishda bo'lishi bilan xarakterlanadi;

– *Beatniklar* - 1950 va 1960 yillarda AQShda shakllangan va dastlab ular amerikaliklarning mumtoz qadriyatlariga, giyohvand moddalar iste'moli, jinsiy erkinlik va anti-materializmga qarshi chiqishgan. Ularning odatiy kiyimi fransuz bereti, quyoshdan saqlovchi ko'zoynak va qora sviter hisoblanadi.

– *Modlar* - 1960 yillarda AQShda shakllangan. Kiyinishda erkaklar o'ziga xos italiyan kostyumidan, ayollar esa mini yubka va etiklardan foydalanishadi. Shuningdek, ular dubulg'aga o'xshash sochlari va mototsiklda yurishlari bilan ham ajralib turishadi;

– *Hippilar* - 1970 yillarda paydo bo'lishgan. Ular boshqa submadaniyatlardan uzun sochlari va rang-barang kiyimlari, sandal kiyishlari hamda ongni kengaytirish usuli sifatida giyohvand moddalar bilan tajriba o'tkazishi bilan ajralib turadi. Ayni vaqtda ular jamoat hayoti, jinsiy inqilob va erkin sevgi g'oyalarini targ'ib qiladilar;

– *Punklar* – 1970 yillarning o'rtalarida paydo bo'lishgan. Ular o'z mafkurasida anarxiya (hokimiyatsizlik, beboshlik)ni targ'ib qiladi. Ko'rinish jihatidan ular Mohican soch turmagi, charm kurtka va qulflangan yoqa bilan boshqalardan ajralib turardilar.

Amaliyotda submadaniyatning yana rokchilar - rok-roll kabi musiqa fanatlari, metallistlar - metal nishonlarga ixlos qo'yganlar, geymerlar -video o'yin muxlislari, gotiklar - motam va o'limga talpinuvchi va targ'ib etuvchilar kabi turlari ham uchraydi. Submadaniyatlar ommaviy madaniyatning hayotdagi amaliy ko'rinishi hisoblanadi. Ushbu submadaniyatlar orqali quyidagilar urfga kirmoqda

"Got"lar tufayli quyidagi rusumlar urfga kirgan:

- tor shimlar;
- tirnoqlar, qosh-qovoqlarni qora rangga bo'yash;
- qizlar orasida soch qirqib (kare) qora rangga bo'yash;
- "Rok" musiqalari kabilar.

Bugunga kunga kelib "rok" musiqalari butun dunyoda keng ommalashib, xit darajasiga ko'tarildi. G'arbda "Rok qirollari" deb nom olgan, asl maqsadi ommaviy madaniyatni targ'ib qilishdan iborat bir qancha rok-n-rolchilar mavjud, Ulardan eng yiriklari: "Ramsstein", "The Rasmus", "Chimical Brothers"lardir.

Bugungi kunda "Emo" guruhi vakillari tomonidan mamlakatimiz hududida bir qator rusumlarni ommalashtirganliklariga guvoh bo'lish mumkin. Jumladan:

- soch ulash va sochlarni turli ranglarga (och yashil, pushti) bo'yash;
- och rangli pardoz-andoz vositalaridan foydalanish;
- yengil rok musiqalarini tinglash kabilar.

Achinarli tomoni shundaki, ayrim kliplar, kinofilmlarda ham o'zbek millatiga mansub "Emo" qizlarining tashqi ko'rinishlari, xatti-harakatlari, turmush tarzi, hayotga, oilaga bo'lgan munosabati, keng targ'ib qilinmoqda. Bunday xatti-harakatlarni ommaviy madaniyatni oshkora targ'ib qilishga intilish sifatida baholash mumkin.

Temir-tersakli ovsarlar, ya'ni metalliklar guruhi vakillari, o'zlarini turli temir-tersaklar bilan bezashga intiladilar. Metalliklarning shiori "faqat bugungi kun uchun yashash"dan iborat. Ular badanlarining turli a'zolari, jumladan, burun, qoshlarning tepa qismi, til va hatto kindiklariga ham temir bezaklar taqadilar.

maylga berilib ketishini, ya'ni ayollarning behayo qiliqlarini targ'ib qilishga qaratilgan umuminsoniy axloqqa zid buzg'unchi g'oyadir;

– *Kinizm (kinisizm)* – bu axloqiy me'yorlar, axloq qoidalari va madaniy qadriyatlarga nisbatan ochiqdan-ochiq nafratlanish, shuningdek, an'anaviy axloq normalari, qonunlari, urf-odatlari va boshqalarni to'g'ridan- to'g'ri rad etishdir.

Ommaviy madaniyat amaliyotda yuqoridagi harakat shakllaridan tashqari, butun bir millatning milliy madaniyatiga qarama-qarshi bo'lgan submadaniyatlarni ham hosil qila oladi. Submadaniyat deganda, muayyan insonlar guruhining hayot tarziga ta'sir qiluvchi ijtimoiy psixologik va g'oyaviy belgilar (norma, qadriyat, steriotip, did) majmuasi tushuniladi. Submadaniyat – muayyan ijtimoiy guruhga xos bo'ladi va u jamiyatdagi hukmron madaniyatdan til, kiyinish, odatlar va boshqa jihatlari bilan farqlanadi. Ilmiy izlanishlarimiz xulosalariga tayangan xolda, submadaniyatning turlariga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

– *Emolar* - submadaniyat ko'rinishlaridan biri bo'lib, shu nomli musiqa yo'nalishi negizida vujudga kelgan. Uning vakillari noodatiy bezak va kiyimlari bilan ajralib turishadilar;

– *Gotlar* - XX asrning 70-yillarida post-pank talqini ostida paydo bo'lgan. Gotlarning o'ziga xos xususiyatlari: maxsus imij, got musiqasiga qiziqish, kiyimlari asosan qora rangda, ko'proq erkaklarga xos odatlar, tishlari uchli vampirsimon ko'rinishda bo'lishi bilan xarakterlanadi;

– *Beatniklar* - 1950 va 1960 yillarda AQShda shakllangan va dastlab ular amerikaliklarning mumtoz qadriyatlariga, giyohvand moddalar iste'moli, jinsiy erkinlik va anti-materializmga qarshi chiqishgan. Ularning odatiy kiyimi fransuz bereti, quyoshdan saqlovchi ko'zoynak va qora sviter hisoblanadi.

– *Modlar* - 1960 yillarda AQShda shakllangan. Kiyinishda erkaklar o'ziga xos italiyan kostyumidan, ayollar esa mini yubka va etiklardan foydalanishadi. Shuningdek, ular dubulg'aga o'xshash sochlari va mototsiklda yurishlari bilan ham ajralib turishadi;

– *Hippilar* - 1970 yillarda paydo bo'lishgan. Ular boshqa submadaniyatlardan uzun sochlari va rang-barang kiyimlari, sandal kiyishlari hamda ongni kengaytirish usuli sifatida giyohvand moddalar bilan tajriba o'tkazishi bilan ajralib turadi. Ayni vaqtda ular jamoat hayoti, jinsiy inqilob va erkin sevgi g'oyalarini targ'ib qiladilar;

– *Punklar* – 1970 yillarning o'rtalarida paydo bo'lishgan. Ular o'z mafkurasida anarxiya (hokimiyatsizlik, beboshlik)ni targ'ib qiladi. Ko'rinish jihatidan ular Mohican soch turmagi, charm kurtka va qulflangan yoqa bilan boshqalardan ajralib turardilar.

Amaliyotda submadaniyatning yana rokchilar - rok-roll kabi musiqa fanatlari, metallistlar - metal nishonlarga ixlos qo'yganlar, geymerlar -video o'yin muxlislari, gotiklar - motam va o'limga talpinuvchi va targ'ib etuvchilar kabi turlari ham uchraydi. Submadaniyatlar ommaviy madaniyatning hayotdagi amaliy ko'rinishi hisoblanadi. Ushbu submadaniyatlar orqali quyidagilar urfga kirmoqda

"Got"lar tufayli quyidagi rusumlar urfga kirgan:

- tor shimlar;
- tirnoqlar, qosh-qovoqlarni qora rangga bo'yash;
- qizlar orasida soch qirqib (kare) qora rangga bo'yash;
- "Rok" musiqalari kabilar.

Bugunga kunga kelib "rok" musiqalari butun dunyoda keng ommalashib, xit darajasiga ko'tarildi. G'arbda "Rok qirollari" deb nom olgan, asl maqsadi ommaviy madaniyatni targ'ib qilishdan iborat bir qancha rok-n-rolchilar mavjud. Ulardan eng yiriklari: "Ramsstein", "The Rasmus", "Chimical Brothers"lardir.

Bugungi kunda "Emo" guruhi vakillari tomonidan mamlakatimiz hududida bir qator rusumlarni ommalashtirganliklariga guvoh bo'lish mumkin. Jumladan:

- soch ulash va sochlarni turli ranglarga (och yashil, pushti) bo'yash;
- och rangli pardoz-andoz vositalaridan foydalanish;
- yengil rok musiqalarini tinglash kabilar.

Achinarli tomoni shundaki, ayrim kliplar, kinofilmlarda ham o'zbek millatiga mansub "Emo" qizlarining tashqi ko'rinishlari, xatti-harakatlari, turmush tarzi, hayotga, oilaga bo'lgan munosabati, keng targ'ib qilinmoqda. Bunday xatti-harakatlarni ommaviy madaniyatni oshkora targ'ib qilishga intilish sifatida baholash mumkin.

Temir-tersakli ovsarlar, ya'ni metalliklar guruhi vakillari, o'zlarini turli temir-tersaklar bilan bezashga intiladilar. Metalliklarning shiori "faqat bugungi kun uchun yashash"dan iborat. Ular badanlarining turli a'zolari, jumladan, burun, qoshlarning tepa qismi, til va hatto kindiklariga ham temir bezaklar taqadilar.

Shundan kelib chiqqan holda ommaviy madaniyatning asosiy belgilarini aniq ajratib ko'rsatish mumkin. Jumladan:

- iste'mol qilinadigan vositalarning seriyali xarakterga ega bo'lishi;
- odamlar orasidagi munosabatlar va hayotning oddiy, jo'n, sodda standartlariga asoslinishi;
- hordiq chiqaruvchilik, vaqtichoqlik qilishga undovchi, tantiqlikni targ'ib qiluvchi xarakterga egaligi;
- keskinlik ruhidagi ifodalar, zo'ravonlik, lazzatlanish va badiiy madaniyat asarlarida shahvoniylikni targ'ib qiluvchiligi;
- kuchli shaxs – kuchli hayotiy muvaffaqiyat degan g'oyani ilgari suruvchi qarashlar kabilar.

Ko'pchilik tadqiqotchilar ommaviy madaniyatni past saviyali kishilar uchun yaratilishi, ijodga emas, balki iste'molga yo'naltirilganligi, odamlarda san'atga nisbatan yuqori darajadagi ehtiyojni shakllantirmasligi, balki didsizlikni tarbiyalashini ta'kidlaydilar. Bugungi kunda zamonaviy tadqiqotlarda ommaviy madaniyatning uchta asosiy ko'rinishi ajratib ko'rsatilmoqda.

*1. **Kich-kultura.*** Kiborlar madaniyati bunda ommaviy madaniyat kam sinalgan madaniyat sifatida namoyon bo'ladi. Agar kiborlar madaniyatining dastlabki ko'rinishlari faqatgina amaliy san'atda keng tarqalgan bo'lsa, keyinchalik u san'atning barcha turlarini egallab oldi.

*2. **Mid-kultura.*** An'anaviy madaniyatning bir qator xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan ommaviy madaniyat hisoblanadi. Bunday madaniyat ommaviy madaniyatning ko'plab xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ommaviy madaniyatning mazkur shakli oldingisiga nisbatan bir qadar yuqoriroq (o'rtacha) darajani ifodalaydi. Bunda ommaviy madaniyat an'anaviy madaniyat standartlariga ma'lum darajada tayanadi.

*3. **Art-kultura.*** "Ommaviy madaniyat namunalarining muayyan badiiy mazmun va estetik ifodaga ega bo'lgan ko'rinishidir. Bu ommaviy madaniyatning yuqori darajasi bo'lib, o'qimishli va talabchan shaxslardan iborat auditoriyalarga mo'ljallangan. Mazkur yo'nalishdagi ommaviy madaniyatning asosiy vazifasi – maksimal darajada an'anaviy me'yorlar va standartlarga yaqinlashishdan iborat".

Yuqoridagilardan xulosa qilib, «ommaviy madaniyat»ni ijtimoiy-madaniy voqelik sifatida tahlil qilish natijasida uning asosiy jihatlari deya quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- gomogen auditoriyaga yo'nalganligi;
- his-tuyg'ular, irratsional ongsizlikka tayanishi;
- eskeypizm (ijtimoiy qadriyat va normalardan qochish);
- tezlik bilan jalb etish;
- tezda unutish;
- an'anaviy qadriyatlarga noodatiy munosabatlar «cheksiz erkinlik timsoli» sifatida taqdim qilinib, ba'zi davlat hukumatlari tomonidan dastaklanishi;
- o'rta darajadagi til semiotik me'yorlarini ishlatilishi;
- sayoz darajadagi didsizlik.

Nazorat savollari:

1. Axloqni mohiyatini tushuntirib bering ?
2. Axloqni tadqiq qiluvchi falsafa sohasi qaysi ?
3. Axloqiy gradatsiya nima ?
4. Axloq prinsiplariga nimalar kiradi ?
5. Axloq me'yorlari qaysilar ?
6. Axloq kategoriyalarini sanang ?
7. Or-nomus kategoriyasini sharhlab bering ?
8. Ommaviy madaniyat belgilarini tushuntirib bering ?
9. Kich-kultura nima ?
10. Art-kultura mohiyatini tushuntiring ?
11. Ommaviy madaniyatni asosiy jihatlarini ko'rsating ?
12. "Got"lar tufayli qaysi rusumlar urfga kirgan ?

12-mavzu. Nafosat falsafasi (Estetika).

Reja:

1. "Estetika" fanining ob'ekti, falsafiy mohiyati va tarixi.

2. Estetika kategoriyalarining an'anaviy va zamonaviy tasnifi.

3. Go'zallik tushunchasi va uning muqobillari, estetik qarashlar.

4. Ulug'vorlik kategoriyasining falsafiy mohiyati, fojiaviylik kategoriyasi.

Tayanch iboralar: *Estetika, go'zallik falsafasi, badiiy ijod, san'at falsafasi, hissiy bilish, metodologik, uslubiy asos, san'atshunoslik, adabiyotshunoslik, san'at sotsiologiyasi, kategoriya, go'zallik, chiroylilik, hunuklik, ulug'vorlik, tubanlik, "axloqiy havfsizlik", fojiaviylik, fojiaviy to'qnashuv, forig'lanish, fojiaviy ziddiyat, fojiaviy qahramon, kulgulilik, kulgili holat, hazil, mutoyiba, kinoya, istehzo.*

Estetika go'zallik, go'zallikning xususiyatlari, qonuniyatlari, tabiat va san'atdagi go'zallik to'g'risidagi fan bo'lib, u ko'p asrlar davomida falsafa fani tarkibida taraqqiy etib kelgan.

"Estetika" atamasi yunoncha so'z (aisthetikos – sezish, his etish, idrok qilish)dan olingan bo'lib, kishining olamga bo'lgan dunyoqarashini nafosat tushunchalari va qonun-qoidalariga bog'liq holda o'zlashtirish, ichki va tashqi his-tuyg'ularining voqelikda namoyon bo'lish jarayonidir. Estetika, umuman, dunyoni bilish, sezish bilan bog'liq bo'lib, insonning yorug' olamga kelishi, jamiyat a'zolari bilan aloqada bo'lishi jarayonida shakllana boradi. Insonning butun hayoti davomida estetik tafakkuri rivojlanib, murakkablashib boraveradi. Mana shu tarzda insonlarda voqelikni go'zallik asosida o'zlashtirish jarayoni sodir bo'ladi. Inson ong tafakkurga ega bo'lgan oliy mavjudot bo'lib, uning dunyoni aql, mantiq, sezgi yordamida bilishi estetika fanining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Estetika atamasini birinchi marta XVIII asrda nemis faylasufi **Aleksandr Baumgarten** (1714-1762yy) o'zining «Poetik asarning ba'zi bir masalalari to'g'risida falsafiy mulohazalar» (1735-yil yozilgan) nomli asarida qo'llagan. Ammo bu faylasufga qadar estetika so'zi ishlatilmagan bo'lsa-da, shu ma'noni anglatadigan "ezgulik", "chiroyli", "go'zal" kabi bir qancha so'zlar ishlatilgan.

Bizga ma'lumki, qadimdanoq estetika haqidagi qarashlar falsafa fani bilan bog'liq holda o'rganib kelingan. Shunga ko'ra, biz Baumgartenni estetika fanining asoschisi deya olmaymiz.

Estetika tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning ko'p asrlar davomida rivojlanib kelganligini ko'rish mumkin. Qadimdan fanlarning rivojlanishi bilan estetik qarashlar, turli xil estetikaning predmetiga oid savollar vujudga kelgan. O'sha davrlarda falsafaning bir qismi sifatida estetika dunyoning go'zal manzarasini o'zida ifodalab bergan. Markaziy Osiyoda Uyg'onish davrida estetika "Ilmi badia", "Ilmi husniya" degan iboralar bilan ifodalangan. G'arbiy Evropoda Uyg'onish davrida Leonardo da Vinchi san'at va tabiatning o'zaro munosabati masalasini tushuntirib berishga harakat qilsa, XVIII asrda Aleksandr Baumgarten san'at dunyoni bilishdagi hissiy yo'ldir, degan fikrni bayon qiladi.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib «Estetika» mustaqil fan sifatida shakllana boshlaydi. Bu davrda yashagan nemis faylasufi Georg Vilgelm Gegel estetikani «Go'zallik falsafasi» deb ataydi.

Estetika insonning borliqqa bo'lgan munosabatlarini o'zida ifoda etib, narsalar va hodisalardagi hamohanglik, go'zallik, uyg'unlik, qarama-qarshilik kabi jihatlarni ham o'zida aks ettiradi. Shu boisdan insonlar hamisha o'zlari anglab yoki anglamagan holda estetikaga amal qilib kelishadi. Masalan, har bir kishining oynaga qarashi, turli liboslar tanlashi, yam-yashil dalalar, qushlarning ohangrabo ovozlari, olam haqidagi orzu-xayollari va hokazolar inson kayfiyatini ko'taradi.

Ilm-fan va texnika-texnologiyaning rivoji jamiyatda estetik madaniyatning ham o'sib borayotganligini ko'rsatmoqda. Uning tarkibiy qismlari inson faoliyatining go'zallik dunyosi bilan uyg'unlashishga olib keladi. Bular:

Estetik idrok – bu narsa va hodisalarning hissiyotlarga bevosita ta'sir ko'rsatadigan barcha xilma-xil xususiyatlari va tomonlarida aks ettirish jarayonidir. Uning mohiyati badiiy-estetik ilhom asosida inson ongida ijtimoiy hayotga nisbatan intilishlarini ifodalaydi.

Estetik qiziqish – bu yoshlarning atrofdagi real voqelikka bo'lgan estetik munosabatining, hissiy tajribalar bilan chambarchas bog'liqligining ko'rsatkichidir. Reallikka nisbatan bu tanlangan munosabat estetik faoliyatga bo'lgan ehtiyojda namoyon bo'ladi.

Estetik did – ongli faoliyat olib boradigan shaxsning tashqi olamdagi jarayonlarni idrok etishida o'zining u yoki bu tarzdagi munosabatlarining aks etish jarayoni sanaladi. Estetik did orqali har bir

inson go'zallikni xunuklikdan, ezgulikni yovuzlikdan, kulgulilikni didsizlikdan ajratib oladi. Bu tushuncha har bir insonning his-tuyg'u va kechinmalarini aks etib, jamiyatdagi salbiy illatlarning yo'qolishiga xizmat qiladi. Did bevosita shaxsning ijtimoiy hayot tajribalari va ma'naviy olami yuksalishida o'zligini keng aks ettiradi. U insonlarni faollikka undaydi va ko'proq rag'bat mexanizmining shakllanishiga olib keladi.

Estetik ehtiyoj – insonning narsa va hodisalarga tomon intilishi, borliqdagi jarayonlardan rohatlanish natijasida o'zining go'zallikka shaydolik tuyg'usini namoyon etishidir.

Estetik zavq – borliqdagi narsalarning inson tomonidan o'zlashtirilishi asosida paydo bo'ladigan ilhomlanish jarayoni sanaladi. Bunga eng yuqori inson tajribasi, deb murojaat qilish odatiy holdir. U avvalambor, yoshlarni idrok etish xususiyatlari bilan belgilanadi.

Estetik tuyg'u- o'z navbatida inson axloqi va aqliy kamoloti mahsuli sifatida vujudga keladi. Insondagi barcha hislar bevosita go'zallik oshna qalblarning voqelikni in'ikos ettirishi bilan xarakterlanadi. Unda axloq bilan estetika dialektik birlikda bog'lanib, inson his-tuyg'ularning rivojlanishini ta'minlaydi.

Mazkur tarkibiy qismlar insonning go'zallik bilan uyg'unlashgan zamonaviy tafakkur mahsuli sifatida dialektik yondashuvni vujudga keltiradi. Estetik madaniyatni shakllantirishdagi faoliyat shaxsni mafkuraviy tayyorlash va g'oyaviy maqsadga qaratiladi.

Estetikaning insonning voqelikka bo'lgan munosabatlarini o'zida aks ettirishi ma'naviyat olamida o'zining yangi jabhalariga ega bo'lishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, insonlarda yangicha fikrlash, olamni go'zal manzarasini yaratish va hayotning xilma-xil serjilo ko'rinishlarini vujudga keltiradi. Hayotga bo'lgan intilish insondagi betakror g'oyalar dunyosi, estetik ideal, san'at ko'rinishlari, bir-biridan go'zal ma'naviyatni yaratadi. Har bir xalqning ma'naviyati shu tarzda jamiyatda ma'naviy va moddiy qadriyatlarni, estetik meroslarning rivojlanishiga olib keladi. Xususan, O'zbekistonda ham mustaqillik ma'naviyati kishilarning dunyoviy ishlarga bo'lgan qiziqishlari, o'tmishga nisbatan jozibador qilib rivojlantirishga qaratilgan.

Insoniyatning estetik qarashlari juda qadim zamonlardan boshlab Sharq mamlakatlarida shakllana boshlagan. Bu davrlarda insoniyatning dastlabki ma'naviy boyligi hisoblangan, umumiy nafosat olami rivojlana boshlagan. Estetik fikrlar rivojlanishida dunyodagi barcha xalqlar kabi

Sharq xalqlari ham o'zlarining bebaho ulushlarini olam go'zalligiga qo'shishgan. Ayniqsa, Misr, Bobil, Xitoy, Hindiston, Eron va Turon, Xorazm kabi qadimiy mamlakatlarda estetik g'oyalar o'zining rang-barangligi bilan ajralib turgan.

Fan va madaniyatning estetik ko'rinishlari qadimgi Xitoy xalqi dunyoqarashida go'zallik qonunlariga muvofiq ifodalangan. Xitoyliklar qadimdan hunarmandchilik bilan shug'ullanishganliklari sababli butun dunyo xalqlari tomonidan «Chin» mamlakati degan nomga sazovor bo'lishgan. Xitoyda ijtimoiy-estetik fikr rivojida Konfutsiy (mil.av. 551-479yy) alohida o'rin tutadi. U o'zining estetik g'oyalarga boy qadimiy yodgorligi bo'lgan «Qo'shiqlar kitobi», «Bahor va kuz», deb nomlangan kitoblarida tabiatning xushmanzara ko'rinishi, zilol suvlar jilvasi, butun mavjudotning chiroyini tarannum etadi. Shuningdek, insonning his-tuyg'ulari tug'ma xususiyatlar asosida shakllanadi. Lekin bu xususiyatlar hayot davomida nafosat va go'zallik, uyg'unlik va muvofiqlik, fantaziya hamda san'at kabilarga bog'liq ravishda o'zgarib boradi, deb ta'kidlaydi. Qadimdan davrlardan boshlab Xitoy musiqasi jahonning eng avvalgi madaniyatlaridan biri hisoblangan. Uning manbayi milloddan avvalligi ikki minginchi yillarda rivojlangan qo'shiq va raqslarga borib taqaladi. Xususan, Konfutsiyning «Qo'shiqlar kitobi»da 3000 dan ortiq xalq qo'shiqlari, marosim madhiyalari, nodir san'at durdonalari va qadimiy yodgorlik sifatida saqlanib qolgan. Shu bilan birga, tasviriy san'at sohasida ham xitoyliklar alohida o'ringa ega bo'lganlar.

Qadimgi Hindistondagi dastlabki estetik fikrlar «Ramayana», «Mahobhorat» kabi asarlarda o'z aksini topgan. Bu asarlar o'zining yuksak nafosat va mangu hikmat xazinasi bo'lganligi hamda hind xalqining ilk urf-odatlari va an'analari, axloq-odobi, estetik ideallari, madaniyati mukammalligi bilan kishini o'ziga jalb etadi. Bu davrlarda hindlarda musiqa san'ati kuchli rivojlangan. Ular eng qadimiy, nihoyatda o'ziga xos musiqa madaniyatiga ega edilar. Azaldan hindlarda har qanday musiqa asari an'anaviy usul-ritm yo'llaridan biri ragalar asosida yaratilgan. Raga musiqa estetikasida asosiy tushuncha, har fikrda chuqur ma'no, ma'lum bir badiiy obrazga ega so'z. Masalan, raga vasanta-bahorni ifoda qiladi, raga-kamala nilufarni bildirsa, raga- shiringara sevgi tuyg'usini ifoda etadi. Hindlarning yana estetikaga oid ilmlari mujassamlashgan adabiyot «Veda»dir. Bu «Veda»larda turli xil xalq og'zaki ijodi ilohiy kuy va qo'shiqlar, madhiyalar tarzida ifodalangan.

Xitoy maktablari singari hind maktablarida ham estetik fikrlar talqin etiladi. Xususan, qadimgi yoga maktabi haqida quyidagi fikrlar mavjud: «Menga muhabbat va ixlos bilan barg, gul, meva yoki ozroq suv hadya etgin, va Men uni qabul qilaman»[1]. Bu yerda yoglarning o'zlariga xos ovqatlanish tarzi va lazzatlanish g'oyalari ifodalangan. Eron va Turon, Xorazm kabi davlatlarning ilk estetik qarashlari o'sha davr yodgorliklari va bebaho diniy, estetik, falsafiy g'oyalarga boy «Avesto»da tasvirlangan. «Avesto»da bu xalqlarning turmush tarzi, yashashi, madaniyati, ma'naviyati, qiziqarli nafosat dunyosi o'z aksini topgan. «Avesto»da insoniyat tarixi davrlari o'ziga xos go'zallik qonunlariga boy tarzda quyidagicha tasvirlangan:

Oltin davr. Bu davrda insonlar orasida go'zallik va sevgi muhabbat, hayot va nafosat, ko'rk, qahramonlik hukmron bo'lib, odamlar abadiy yashagan. Xudo Axura Mazda abadiy bahorni yaratgan, hamma yoqda gullar ochilib, bulbullar sayrab turgan, unda odamlar baxtli va farovon yashashgan. Lekin odamlar vaqt o'tishi bilan o'z kuchlariga ishonib Axura Mazda ta'qiqlagan hayvon va mevalarni iste'mol qilishgan. Natijada, yomonlik xudosi Axrimanning jahli chiqib odamlarni «oltin davr»dan mahrum etgan.

1. **Yaxshilik va yomonlik davri.** Bu davrda Axriman odamlarni bir-biri bilan urushtirib, o'lim, kasallik, qarilik va do'zaxni yaratgan. Ammo Axura Mazda bu yovuzliklarga chiday olmagan va ikki xudo o'rtasida kurash ketgan. Bu kurashda Axura Mazda g'alaba qozonadi. Oqibatda, insonlar yana ilgarigi hayotga qayta boshlaydi.

2. **Insoniyatning kelajak davri.** Bu davrga kelib hammayoq qaytadan gulistonga aylanib, odamlar to'q-farovon yashay boshlashgan, baxtli hayot saltanati vujudga kelgan. Mana shu tarzda «Avesto»da insoniyat tarixining estetik ko'rinishi tasvirlanib, kishilarning madaniyat, ilm, nafosat olamiga bo'lgan qiziqishlari go'zal his-tuyg'ular bilan ifodalangan.

Qadimgi dunyo estetikasi. Yunon falsafasiga monand holda vujudga keldi. Shu asosda tartibga solingan ko'plab estetik nazariyalar shakllanib turli-tuman estetik g'oyalar va fikrlar rivojlanishiga zamin bo'lib xizmat qildi.

Mana shunday estetik qarashlarni Yunon faylasuflari Pifagor, Geraklit, Demokrit, Suqrot, Aflotun, Arastu va Rim estetikasida Lukresiy Kar kabilar ilgari surishdi.

Qadimgi Yunonistonda dastlabki estetik g'oyalarni vujudga keltirib, rivojlantirgan faylasuf va matematik olim Pifagor (mil.av. 580-500yy) edi. Pifagor va pifagorchilar olamdagi narsa va hodisalar mohiyatini raqamlar bilan tushuntiradi. 1 raqami hamma narsa va hodisalar nafosati olamining asosidir, 2 raqami tabiatdagi qarama-qarshiliklar, ya'ni go'zallik va xunuklik, yorug'lik va zulmat, erkak va ayol kabi tushunchalarning asosidir, deb ta'kidlaydilar.

Pifagorchilarning fikricha, "yer dunyoviy olovsimon markaz atrofida aylanib, alohida balandlikka ega bo'lgan monoton tovush chiqaradi. Masalan, oyning tovushi baland va o'tkir. Bu tovushlar birgalikda hamohang kuyni yaratadi, buni faqat Pifagor eshitishi mumkin edi, go'yo u nihoyatda ajoyib tinglash qobiliyatiga ega edi".[66]

Estetik fikrlar rivojida Geraklit (mil.av. 540-480) Yunon falsafasida yangi estetik g'oyalarni ilgari surdi. Uningcha, nafosat moddiy dunyoning o'zidan kelib chiqadi, ya'ni barcha go'zallik dunyoviy olov asosida vujudga keladi. Geraklit nafosat nisbiyligini tushuntiradi. U kishilarning hayoti – «bolalarning o'yiniga» o'xshaydi. Ular o'z xohishlarining qulidirlar. Baxt tananing farog'atidan emas, balki to'g'ri fikrlash va to'g'ri gapirish, shodlik va xurramlik, tabiatga muvofiq harakat qilishdan iboratdir.

Suqrot (mil.av.469-399yy) qadimgi Yunon faylasufi bo'lib, o'zining go'zallik haqidagi fikrlarini inson kechinmalari va san'at bilan bog'liq holda tushuntirdi. Uningcha, insonning yashashi san'atdan iborat. Hayot bu san'at, san'atni sayqallashtirishda san'atning o'zi bo'lishi lozim, deydi. Suqrot birorta yozma asar yozmagan. U haqida Ksenofanning «Esdaliklari»dan, hamda shogirdi Aflotunning «Suqrot haqida» deb nomlangan dialoglaridan o'z davrining mashhur notiqlik san'atining ustasi bo'lganligini bilamiz. Shuning uchun u hayotni bevosita hayot bilan bog'lab tushuntiradi. Aflotun Suqrot haqidagi dialoglaridan birida Shunday yozadi: Suqrot bilan Gippiy bahslashadi va Suqrotning go'zallikka nimalarni kiritish mumkin? degan savoliga Gippiy go'zallikka go'zal qiz, go'zal bayt, go'zal lira (Yunonlarning torli musiqa asbobi), go'zal biya kabilar taalluqlidir, deydi. Bir zumda ko'plab savollarni aytaverib Suqrot Gippiyni chalg'itib yuboradi va Gippiy bir vaqtning o'zida bir narsa ham go'zal, ham xunuk bo'lishi mumkin degan qarorga kelishga majbur bo'ladi. Suqrot Gippiyning go'zal qiz, deganda uning tashqi ko'rinishi go'zal bo'lishi mumkin,

[66] С.А.Юлдошев. Антик фалсафа. -Т.: 1999. 26-бет.

ammo ichki dunyosi bilan xunuk bo'lishi ham mumkin. Biz bunday qizni hech vaqt go'zal deya aytolmaymiz. Lekin qizning tashqi ko'rinishi xunuk bo'lgani bilan ichki dunyosi go'zal bo'lishi mumkin. Shu boisdan kishi yoki biror narsa bir vaqtning o'zida ham go'zal, ham xunuk bo'lishi mumkin, degan fikrga keladi faylasuf.

Aflotun (mil.av.427-347yy)ning estetik ta'limotlari «Katta Gippiy», «Davlat», «Fedon», «Sofist», «Bazm», «Qonunlar» kabi asarlarida o'z aksini topgan. Aflotun o'z hayotida doimo go'zallikni izladi. U ezgulik va nafosat haqida «Qonunlar»da Shunday deydi: «...qonuniy nikohlarga, hirs va ehtiroslarni tartibga solishga, ulardan faqat qonun talab qilgan miqdorda o'zlashtirishga taalluqlidir. Bu yana qo'rqinch va g'azab, mudhish va go'zal ishlar hamda ezgulikka olib boruvchi boshqa vositalarga tegishlidir».

Aflotun rahbarlik ham san'at ekanini, uni har kim ham uddalay olmasligini ta'kidladi. Uningcha, rahbar bahs va suhbatdagi mohirligi, so'z boyligi, notiq so'zamolligi va mahorati bilan boshqalardan ajralib turishi lozim.

Aflotun san'atning ikki ilohiy turi haqida gapiradi. Tartibli san'at va shirin san'at. Birinchisida shoir san'ati va bilimi bilan ijod qilmay, balki ilohiy quvvatdan ijod qiladi, ikkinchisida musavvir va shoir o'zlari nima qilayotganliklarini bilmay ijod qiladilar. Haqiqiy san'at ilohiyliksiz bo'lmaydi, deb hisoblaydi.

Arastu (mil.av.384-322yy) estetik qarashlarini «Poeziya san'ati», «Ritorika», «Poetika» asarlarida ifodalaydi. Vatandoshlari singari go'zallik tushunchasini tahlil etadi. Uningcha, go'zallik olamdagi batartiblik, me'yoriylik va aniqlik asosida kelib chiqadi. Go'zallik o'z jilvasini barcha narsa va hodisalarda aks ettirib, insonlarni madh etadi. Obyektiv dunyodagi chiroy go'zallikda aks etib, tashqi reallikni tartibga soladi. Go'zallik olamdagi mutlaqlik va abadiylik belgisidir.

Arastu estetik fikrlarida san'atga ham katta e'tibor berib, san'at insonning hayotga qiziqishini kuchaytiradi, nafis va nozik his-tuyg'ularni shakllantiradi. Shu asosda inson go'zallik olamiga kirib boradi va jamiyatda baxtli hayot, quvonch, hayotdan zavqlanish, ehtirosli kayfiyatni vujudga keltiradi, deydi.

Arastu san'at xususida so'z yuritib, inson bevosita yoqtirmagan va qo'rqadigan narsasining tasvirini ko'rishga harakat qiladi. Lekin asl holatni ko'rishdan o'zini olib qochadi. Aytish mumkinki, inson yirtqich hayvonlarning tasvirini ko'rishga qiziqadi, ammo yolg'ondan, qara,

orqangda ilon deb aytilgan so'zni eshitishi bilan dahshatga tushadi. Mana shu asosda inson ba'zan go'zal yoki xunuk jonivorlardan hadiksiraydi, deb ta'kidlaydi.

Borliqdagi narsa va hodisalar mohiyatini inson sezgilari orqali his qiladi. Bu sezgilar estetik idrok jarayonida hosil bo'ladi. Xususan, musiqani tinglashni sevgan kishi o'zi ham chalishni biladigan bo'lsa, unda estetik kechikmalar yuksak va beg'ubor tuyg'ularga to'la bo'ladi. Borliqni estetik idrok etish yoki ijtimoiy hayot voqealaridan estetik lazzat olish bizning ko'rishimiz yoki eshitishimiz orqali namoyon bo'ladi. Agar biron-bir san'at asarini tomosha qilsak, undagi estetik rang-baranglik bizning hislarimizga ta'sir etib, estetik huzur baxsh etadi.

Ijtimoiy hayotdagi narsa va hodisalarga inson estetik munosabatda bo'lar ekan, beixtiyor unda yo zavqlanish, yo quvonch, yo g'azablanish yuzaga keladi. Shu boisdan insondagi ko'p fazilat va xislatlar uning sezgilariga bog'liq. Ayniqsa, mana shunday holat adabiyot va san'at asarlarini bevosita idrok etganda hosil bo'ladigan estetik zavq, ma'naviy lazzatlanishga boy bo'ladi. Mabodo inson ijodiyotdan estetik lazzat olishga intilsa, unda muayyan asarni o'zi o'qishi, tasviriy san'at asarini o'z ko'zi bilan ko'rishi, musiqiy asarni tinglashi lozim.

Borliqqa insonning estetik munosabatlari oddiy biologik hissiyotlardan ustun turadi, ya'ni ijobiy tuyg'ular insonning ma'naviy olamiga ta'sir etadi. Agar sevgi tuyg'ulari biologik hissiyotga bog'lanib, aql-idroksiz yuzaga kelganda edi, unda ishq-muhabbat, eng sof va orombaxsh hissiyotlar ham o'zining estetik ko'rkini yo'qotib, hirs va beboshlik yuzaga kelar edi. Demak, insondagi estetik hissiyotlar oliyjanob va yuksak fazilatlarni o'stiradi.

Inson estetik faoliyatida borliqning turli tuman go'zalliklarini his qila borib, o'zlarining hayotga bo'lgan estetik munosabatlarini hissiy idrok etib, ulardan rohatlanish, zavqlanish, estetik lazzatlanish hosil qilganlar.

Estetika kategoriyalari. Estetika fanining asosiy kategoriyasi (grekcha kategoria–ko'rsatma, guvohlik) - **go'zallikdir**. Aflotun g'oyalarida go'zallik bevosita aqlga bog'liq holda tushuntirilib beriladi. Aflotunning shogirdi Arastu «Go'zallik – batartiblik, me'yoriylik va aniqlikdir», deb aytadi. Arastuning fikricha, go'zallik olamdagi narsa va hodisalarda bir xil tartibda bo'lishi lozim. Shu sababdan go'zallik inson hayotiga bezak bo'lishi kerak.

XVIII asr nemis faylasufi Gegel go‘zallikni ongdan tashqarida bo‘lgan ilohiy kuch, ya’ni «mutloq g‘oya» ko‘rinishiga ega ekanligini ta’kidlaydi. Go‘zallik tabiat, jamiyat va inson faoliyatida o‘ziga xos ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib, u go‘zallik obyektining jozibadorligi, mukammalligi, rang-barangligini ifodalaydi. Shu bilan birga, go‘zallik insonda ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi, ya’ni tashqi va ichki ko‘rinishdir. Insonning go‘zalligida, asosan, mazmun va shakl birligi taqozo qilinadi. Qolaversa, bu insonning tashqi ko‘rinishiga bog‘liq tarzda ishlatiladigan chiroyli, ko‘rkam, kelishgan, suluv kabi so‘zlarni o‘z ichiga olsa, ichki go‘zallik insondagi eng yaxshi xulq-atvor, fazilatlarni, xushmuomalalikni, odamiylikni ifodalaydi.

Xunuklik. Estetikaning tushunchalaridan biri xunuklik go‘zallikning aksidir. Xunuklik voqelikdagi narsa va hodisalarning, badiiy ideallarning ijtimoiy munosabatlar, inson go‘zalligi, sha’ni, qadr-qimmati, tabiatning saxiyligiga mos kelmaydigan tushunchadir. Xunuklik ba’zan go‘zallikka qisman bir jihatdan mos kelsa-da, lekin insonda g‘azab xarakteridagi kulgini yuzaga keltiradi. Masalan, xalq tomoshalarida ilonlar bilan har xil o‘yinlar qilinsa-da, bu holat kishilarda jirkanch hamda kulgili vaziyatni yuzaga keltiradi.

Xunuklik go‘zallikka nisbatan umuman zid kelsa jirkanchli, hattoki dahshatli hodisalarni vujudga keltirib, kishilar ongida shunga yarasha hissiy munosabatlarni yuzaga keltiradi. Ammo bu narsa bo‘lmasa, u xunuk ekan degan ma’no kelib chiqmaydi. Xunuk so‘zini ko‘pincha narsaning shakli buzilsa yoki o‘zgartirilsa uning ko‘rinishiga qarab ishlatamiz.

Hayot go‘zalligini his etish, undan ma’naviy ozuqa olish uchun inson narsa va hodisalarning mohiyatini, mazmunini o‘rganadi. Shunga ko‘ra o‘z bilimlarini takomillashtirib boradi. Inson har bir buyumni yaratishdan oldin, dastlab uning foydali va zaruriy tomonlarini ko‘zlasada, birinchi galda estetik ko‘rinishiga e’tibor beradi. Shuningdek, hamma foydali narsalar har doim go‘zal bo’lavermaganidek, hamma go‘zal narsalar bevosita moddiy foyda keltirmasligi ham mumkin. Masalan, bulbul kishiga moddiy foyda keltirmasada, uning shirali ovozi olamni go‘zallikka burkaydi. Shu sababdan, yoqimli ovoz sohiblarini bulbulga qiyos qilishadi. Bu fikrlar kishi qalbida nozik kechinmalar uyg‘otib, ma’naviy quvonch bag‘ishlaydi.

Insonga bevosita foydasi tegmaydigan kapalak, ba’zi o‘simliklar, qushlar, yulduzlar, oy va hokazolar ham go‘zal hisoblanib, ular kishilarda hayotga nisbatan yuksak estetik tuyg‘ular, mehr-muhabbat uyg‘otadi, olamning nozik jilvasini his qilish imkoniyatini beradi va insonni ma’naviy barkamollikka chorlaydi. Har bir narsadagi go‘zal va foydalilikka nisbatan kishilarda ruhiy estetik kechinmalar paydo bo‘ladi. Estetik hissiyot kishilarning mehnatga, ijtimoiy hayotga nisbatan tasavvurlari, g‘oyalarini ma’lum bir maqsadga yo‘naltiradi. Insoniyatning yuksak go‘zallik tuyg‘ulari foydalilik tarzida ko‘rinishlarga ega bo‘lishi mumkin. Bunday holat ko‘pincha buyuk allomalar g‘oyalari orqali jamiyatga tatbiq etilgan. Xususan, Samarqand, Buxoro, Xorazm shaharlarida barpo etilgan me’moriy obidalar hozirgi kunda bir tarafdan xalqning buyuk o‘tmishini o‘zida aks ettirsa, ikkinchi tomondan turizm sohasi natijasida butun dunyo sayyohlarini o‘ziga jalb etib ma’lum darajada foydalilik ahamiyatiga ham ega bo‘lmoqda.

Har bir insonning ma’naviy, aqliy, estetik tafakkuri kamol topishi doimo ularning go‘zallikka oshno qalblari natijasida sodir bo‘ladi. Kishilarning turmush tarzi xatti-harakatlari bilan bog‘liq holda shakllanib o‘ziga xos xulq- atvor birligida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun go‘zallik va xulq-atvor hamisha bir-biri bilan bog‘liq ravishda jamiyatda amal qiladi. Xulq-atvor kishilarning intilishi lozim bo‘lgan axloq-odob qoidalarigina bo‘lib qolmasdan, balki yurish- turish, fikrlash tarzini ochib beradi. Shu bilan birga, xulq-atvor ijtimoiy hayotdagi har bir sohada turlicha bo‘lib, ayniqsa go‘zallik insonni o‘zining quliga aylantirishi mumkin. Chunki go‘zallikka oshno bo‘lish inson hayotining mag‘zidir. Ko‘p kishilar go‘zal qalblarga xizmat qilish uchun harakat qiladilar. Bu borada Shunday fikrlar mavjud: «Bir chimdim husn-u jamol bir dunyo mulku moldan yaxshiroqdir. Go‘zallik dardmand ko‘ngillarning malhami-yu zulf eshiklarining kalitidir. Tabiiydirki, kishilar uning suhbatini orzu ideallari deb biladilar va unga xizmat etmakni faxr hisoblaydilar».[67] Hamma insonning bu hayotda yashashidan maqsadi, avvalo, tashqi va ichki go‘zallikka intilish, yuragida mehr-muhabbat, ona Vatanga bo‘lgan yuksak farzandlik his-tuyg‘usi barq urib turishi, ertangi kunini porloq qiladigan xulq-atvorga ega bo‘lish g‘oyalariga burkanishi lozim.

[67] Sa’diy. Guliston. G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, – T.: 1968. 106-bet.

Go‘zallik va xunuklik badiiy asarlar (ya’ni badiiy hunarmandchilik, xalq amaliy san’ati, badiiy-estetik g‘oyalar ob’yektivlashtirilgan boyliklar, artefaktlar)ning tashqi ko‘rinishida, shaklida yorqin aks etadi.

Ma’lum bir ijobiy badiiy-estetik tuyg‘u uyg‘otmaydigan beshakl, betartib narsalar, yon-atrofdagi xaos bizda noqulaylik, jirkanish, ayniqsa, ko‘rinishi iflos, chang yoki mog‘or bosgan narsalar dilimizda tug‘yon uyg‘otadi. Shuning uchun ham mutaxassislar shaklsiz narsaga shakl, betartib narsaga tartib, iflos narsalarga tozalik, ozodalik baxsh etish estetik diddan darak beradi, deb hisoblaydilar.

To‘g‘ri, hamma shakl olgan yoki tartibga solingan narsalar ham go‘zal bo‘lavermaydi. Unda biz bir joyga to‘plangan xazon va shox-shabbalarni, g‘ayriinsoniy, g‘ayriaxloqiy g‘oyalar bilan sug‘orilgan varaqlar to‘plami – kitobni go‘zal deyishga majbur bo‘lamiz. Masalan, markiz de Sad tasvirlagan fohishabozlik, zo‘ravonlik, hayvoniy mayl-istaklar tasvirlangan syjetlarga qurilgan kitoblar hozir go‘zal ko‘rinishda, yuqori did bilan bezatilgan shakllarda Rossiyada chop etilmoqda. Ulardagi ichki mohiyat kitoblarning tashqi qiyofasi, shakliga mutlaq ziddir. Seksual sadizm (de Sad nomidan olingan, keng tarqalgan ibora)ni targ‘ib etuvchi bunday kitoblarni go‘zallik timsoli deyish uchun insoniy-axloqiy qadriyatlardan chekinish lozim. Demak, narsalarning faqat shaklini go‘zal qilish yetarli emas, mazmun bilan shakl go‘zalligining uyg‘unligi, mutanosibligi zarur. Inson yaratadigan barcha narsalarda go‘zallik, nafislik bo‘lishi lozim, inson go‘zal olam yaratishi bilan boshqa maxluqotdan farq qiladi, o‘zining ijodkorligini isbotlaydi. To‘g‘ri, inson barcha faoliyatida ham go‘zallik yaratishni maqsad qilib qo‘ymaydi, shuning uchun uning badiiy-estetik faoliyatidan, ijodi va san’ati namunalaridan boshqa sohalarda go‘zallik yaratish maqsadi yorqin ko‘zga tashlanmaydi. Masalan, dehqon ekin ekayotganida, haydovchi avtomobil haydayotganida, sotuvchi iste’mol buyumlarini sotayotganida go‘zallik yaratishni xayoliga keltirmaydi, ularning funksional vazifasi boshqadir. Lekin ularning faoliyati ham estetik elementlardan mutlaq xoli emas.

Ulug‘vorlik. Inson hayotida ko‘p ishlatadigan estetik tushunchalardan biri ulug‘vorlik kategoriyasi hisoblanadi. Ulug‘vorlik kategoriyasi narsa va hodisalarning ijobiy jihatlari katta kuchga ega ekanligini bildiradi. Lekin inson duch keladigan ko‘pgina narsa yoki hodisalar o‘zining ulkanligi yoki qudratli kuchga egaligi bilan

ulug‘vorlikni bildirmaydi. Masalan, ijtimoiy hayotdagi yovuzlik tushunchasini tahlil etish mumkin. Har qanday qudratli kuch-qudratga ega bo‘lgan yovuz maxluqlarni hech vaqt ulug‘vor deya olmaymiz. Ammo inson buning qanchalik qudratini sezib tursada, undan hech qachon va hech vaqt estetik his-tuyg‘u hosil qilmaydi. Agarda hayqirayotgan dengizni tomosha qilib turilsa, unda kishi suvning qanchalik katta kuch-qudratga ega ekanligi va uning ulug‘vorlik bilan kishilarni dahshatga solib turishini ko‘ramiz.

Ulug‘vorlik faqat katta va ulkan narsalarda bo‘lmay, balki kichik narsada ham namoyon bo‘lishi mumkin. Xususan, biz ko‘pincha uyimizda yashaydigan chumchuq, musicha kabi qushlarni foydasiz, deb bilamiz. Ammo ular hovlimizdagi keraksiz hashoratlar va qurt-qumursqalarni terib yeb, hovlimizni zararkunandalardan tozalab turadi.

Nafosatshunoslik tarixida ulug‘vorlik muammosi qadimdan o‘rganib kelingan. Dastlabki ulug‘vorlik g‘oyalarini ilgari surgan Sitsiliyalik notiq Longin III asrda «Ulug‘vorlik to‘g‘risida» nomli risolasini yozgan, deb taxmin etiladi. Risolada ulug‘vorlik kategoriyasining tabiatdagi o‘rni qanday, kishilar hayotida ulug‘vorlikning ta’siri mavjudligini qanday tushunish mumkin? degan savollarga javob berish orqali ulug‘vorlikning mohiyati tushuntirib berilgan. Uningcha, ulug‘vorlik bevosita insonning ruhiyatiga ta’sir etadi. Chunki ulug‘vorlikni kishilar bir-birlariga so‘zlar orqali his-hayajon bilan tushuntirishadi. Bu ehtiroslar kishiga bevosita eshitgan so‘ziga nisbatan kuchli his-tuyg‘ular hosil qilib, kishilarda bir tomondan quvonch, ikkinchi tomondan esa hayratlanish va qo‘rqinchni hosil qiladi.

Ulug‘vorlik tushunchasini tahlil etib, uning o‘ziga xos jihatlarini ochib bergan I.Kant hisoblanadi. U ulug‘vorlik va go‘zallik tushunchalari o‘rtasida umumiylik va farq borligini ta’kidlaydi. Faylasufning tushuntirishicha, ulug‘vorlik va go‘zallik insonning maqsadga muvofiq manfaatlarini ifodalaganligi bilan umumiydir.

Qolaversa, ular o‘rtasidagi farq shundaki, go‘zallik o‘zining ichki va tashqi mohiyati bilan kishida ko‘tarinkilik va beg‘uborlikni ifodalasa, ulug‘vorlik o‘zining har xil hayratlanarli tasavvurlari bilan kishini o‘ziga rom etadi.

Ulug‘vorlikda kishini hayratga, hatto vahimaga soluvchi jihatlar bo‘lishi lozim. Masalan, Farhodning ulkan, besanoq lashkarga qarshi chiqishi, ularga tog‘dan toshlar otib, mag‘lub etishi hayrat ham, vahima ham uyg‘otadi.

Aslida, bosh qahramonning bu jasorati xalq dostonlariga xos fantaziya, giperbola mahsulidir. Ammo behad kuchga, son-sanoqsiz askarlarga ega qo'shinni yengish uchun xalq shoiri bo'rttirma, badiiy to'qimadan foydalanishga majburdir. Shu tariqa oddiy xatti-harakat, niyat yovuz va jirkanch kuchlardan, pastkashlikdan ustun turuvchi, ulug'vor hodisaga aylanadi. Mazkur evrilishni doim ijtimoiy determinizm bilan izohlash to'g'ri emas.

Ulug'vorlik tabiat va jamiyat rivojining o'ziga xos xususiyatlarini ham ifodalab keladi. Tabiatdagi ulug'vorlik chaqmoq nurining, momaqaldiroqning guldurashi va osmon hamda yer manzarasining ko'rkam va jozibador jihatlarini his etish kabilarda estetik ta'sirga egadir. Bu ulug'vorlik tuyg'ulari kishilarni bevosita tabiat hodisalariga nisbatan dahshatga tushmaslikka chorlaydi.

Insonlar hayotida ulug'vorlik axloqiy qoidalar asosida yuzaga keladi. Ayniqsa, san'atning turli ko'rinishlari kishilarda ulug'vorlikning rang-barang tasvirlanishiga olib keladi. Dunyoning yetti mo'jiza (Bobil osma bog'lari, Misr piramidalari va hokazo)sida ulug'vorlik nafis me'morchilik san'ati asosida tasvirlangan. Bunda yangicha ulug'vorlik timsoli bo'lgan ko'rinishlar, hayratlanarli va betakror naqshkor bezaklar kishilar diqqatini o'ziga tortadi. Shunday qilib, ulug'vorlik tushunchasi insonning tabiatga va jamiyatga bo'lgan munosabatlarida mukammal va nafis xususiyatlarni o'zida aks ettiradi.

Ulug'vorlik va tubanlik borasidagi ilmiy-nazariy bahslar tugamagan, shu bois ular haqida turli, goho ziddiyatli qarashlar mavjud.

Ko'rinib turibdiki, ta'riflar o'rtasida farqlar mavjud. Bundan tashqari, ulug'vorlik his-tuyg'usiga mukammallik xosmikan?, degan savol uyg'onadi. Masalan, jo'shqin dengiz, okean, tog' cho'qqilariga nisbatan mukammal tushunchasini ishlatish o'rinlimikan? Bizning fikrimizcha, yo'q.

Ulug'vorlik turg'un narsalarda, ob'yektlarda darrov ko'zga tashlanadi. Masalan, O'zbekiston Milliy banki binosiga ko'zimiz tushgan zahoti uning ulug'vorligini sezamiz, bizga u behad ulkan, qandaydir yirik, buyuk maqsadlarni o'ziga jo etgan, hatto qandaydir sir yashiringan ob'yektdek tuyuladi. Farhod GESiga yaqinlashgan kishi undagi son-sanoqsiz agregatlar, ayniqsa, bejilov suv to'lqinidan hayajonga tushadi, bahaybat bir korxona o'z salobati bilan vahima, qandaydir qo'rquv hissini uyg'otadi. Suv toshqini sizni o'z qa'riga olib, beayov sudrab, oqizib ketadigandek tuyuladi.

Biroq ong tubiga mazkur bahaybat korxona, ufurib oqayotgan toshqin inson qo'lining mo'jizasi, degan fikr yashiringan, aynan u bizga kuch-qudrat beradi, natijada qo'rquv faxrga aylanadi. Inson aqli, qo'li mo'jizalar yaratishini anglab xalqning ulug'vor ekaniga ishonamiz.

Tubanlik. Tubanlik ulug'vorlikning aksidir. Ular bir-birini mudom taqozo etadigan, mudom bir-biriga dialektik bog'liq nur va soya kabi voqeliklar emas. Ulug'vorlik o'z holicha ulug'vor, tubanlik o'z holicha tuban hodisa sifatida kelishi mumkin. Qayerda ulug'vorlik bo'lsa, shu yerdan tubanlik, qayerda tubanlik bo'lsa, shu yerdan ulug'vorlik izlash xatodir.

Tubanlik insonning xatti-harakatlari, g'ayriinsoniy, g'ayriaxloqiy munosabatlari orqali namoyon bo'ladi. Tuban odam yo'q, unda tuban qiliqlar, munosabatlar mavjud. Eng tuban ataladigan, insoniy fazilatlardan yiroq kishida ham qandaydir axloqiy-estetik belgi, xislat topiladi. Tubanlik tabiiy hodisa emas, u orttiriladigan hislatdir. Orttiriladigan hislatni esa ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin. Biroq xalq ijodi va san'atida tubanlik kamdan-kam holda ijobiy tomonga o'zgaradi, ko'pincha tubanlashgan kishi asar oxirigacha tuban hislatli tasvirlanadi yoki tuban hislatlari tufayli mahv etiladi. Shuning uchun xalq ijodi va san'atida tubanlik ochiqdan-ochiq qoralanadi, u o'quvchida nafrat uyg'otadi.

Xalq ijodi va san'atida tubanlik grotesk(voqea va hodisalarni ataylab kuchaytirish) tasvirlangan. Inson darrov, birdaniga tuban, past maxluqotga aylanmaydi, mazkur illatlarning nafaqat biologik, shuningdek, sotsial asosi ham mavjud. Kishilik tarixi ko'rsatadiki, mol-mulk, taxt, davlat atrofidagi kurashlar, ularga diniy mutaassiblikning qo'shilishi zo'ravonlikni, nohaqlikni, g'ayriaxloqiy hodisalarni oson yengib bo'lmaydigan borliqqa, xislatlarga aylantirgan. Kishilar mudom beayov, dahshatli, asotsial borliqqa ro'para yashaganlar, ularga groteks tasvirlangan fantastik kuchga, behad qudratga va beqiyos go'zal, oliyjanob, ulug'vor fazilatlarga ega qahramonlargina qarshi turishi mumkin edi. Xalq fantastik obrazlarni, qahramonlarni muayyan shaxslar deb qabul qiladi, ularni o'z hayotida, tarixida muhim rol o'ynagan buyuk kishilar sifatida e'zozlaydi. Shuning uchun ham ulug'vorlik va tubanlik faqat alogenetik (kishilar xatti-harakatlari, faoliyatidan kelib chiqqan) emas, shu bilan birga ideogenetik (kishilar tasavvurlari, g'oyalari, fantaziyalaridan kelib chiqqan) hodisalardir.

Fojiaviylik. Fojiaviylik masalasi doimo falsafiy va estetik tafakkur sohasida faoliyat olib borgan mutafakkirlarni qiziqtirib kelgan masalalardan biridir. Inson hayotida fojiaviylik ko'pincha o'lim yoki o'lim xavf solib turgan holat, kishilarning og'ir turmush tarzi, baxtsiz hayoti, halokatli jarayonlarni o'zida ifodalab keladi. Bundan tashqari fojiaviylik kishilardagi ulug'vorlik tuyg'ularini aks ettirib, ulardagi bir so'zlik, mardlik, jasurlik, kabi axloqiy tushunchalar bilan bog'lanib ketadi. Bu fikrlarning isboti sifatida Elikbek haqidagi afsonani bir eslaylik. «Fidokor Elikbek el-yurtini halokatdan qutqarib qolmoq uchun dushmanlarga qarshi jangga otlanadi. U bir chorrahada son- sanoqsiz jinlarga duch keladi, ular kishilarni burdalab, qonini surib, ichak-chavoqlarini badanlariga o'rab olgan ekanlar. Jinlar yana vahima solib, qurol ishlatib, Elikbekni mahv qilmoqchi bo'ladilar. Biroq Elikbekka bas kelmaydilar». Bu yerda xalq boshiga tushgan fojiani oldini olish maqsadida Vatan uchun kurashgan Elikbekning bukilmas irodasi, qudrati, ehtirosi va kuchli qiyofasi turli xatti-harakatlar bilan ifodalangan.

Fojiaviylik o'zida azob-uqubatlarni tasvirlashi bilan kishilarni tushkinlikka tushirmaydi. Balki fojiadagi qahramonning usullari, xatti-harakatlari, mardona azm-u qarori, ko'zlagan maqsadi kishilarga hayotdan adashmaslik uchun saboq bo'ladi. Fojiaviy qahramonlar ko'pincha jaholatlarga, eskiliklarga, qarama-qarshi voqealarga va o'z dushmanlariga qarshi kurash olib boradi. Bunday holatlar XX asrning oxiri va XXI asrning boshida terrorizmga qarshi kurashda O'zbekistonda, qolaversa, butun dunyoda fojiali vaziyatlarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, 2001-yil 11-sentabrda AQSHdagi fojiaviylikni tahlil qilaylik. Bu qonli va vahshiyona fojia uch mingdan ortiq begunoh kishilarning qurbon bo'lishiga olib kelib, jamiyatdagi bunday fojiaviy holatlarni sodir bo'lishini oldini olish uchun butun dunyo xalqlari bir tanu bir jon bo'lib birlashmog'i, kurashmog'i muhim va dolzarb vazifadir. Estetikaning fojiaviylik mezoniy tushunchasi estetik ideal tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir.

Adabiyotda fojiaviylik masalasi iztirobli, ko'pincha sharmandalilik, g'urur kabi g'oyalar bilan sug'orilgan bo'ladi. Qadimgi Yunonistonning buyuk fojianavisi sanalgan Sofokl (mil.av. 496-406) ning «Shoh Edip» fojiasi har bir kishini hayajonlantiradi. Edip obrazida boshiga kulfat tushgan, oldindan belgilangan taqdir fojiasidan kuyib kul bo'lgan kishining chekkan iztiroblari hikoya qilinadi.

Yevropa Uyg'onish davrida fojiaviylikning badiiy ifodasini Shekspir o'z asarlarida yuksak mahorat bilan yaratdi. Uning «Gamlet» tragediyasida fojiaviylik his-hayajonga to'la estetik tuyg'ular va estetik kechinmalarga boy qilib tasvirlangan.

Inson hayotining o'zi fojia, degan falsafiy-fatalistik fikr aslida kishining tabiat, borliq oldida ojizligini tuyishdan kelib chiqqan. Bunday falsafiy-fatalistik qarash va ta'limotlar barcha dinlarda uchraydi, ularning ko'rinishlari hozirgi hayotda ham mavjud. Xalq ijodi va san'ati asarlarida ular dunyoning o'tkinchi ekani bilan bog'lab talqin etiladi. Inson baribir o'limga mahkum, hech nima uni ushbu fojiadan xalos qilolmaydi. Shuning uchun ham uning hayoti fojialidir.

Uy-hovlini supurish, suv sepish, idish-tovoqlarni uzoqroqda saqlash, mayit kiyim-kechaklarini "kuf-suf" qilib o't, chiroq bilan tozalash, yosh bolalarni, homilador ayolni xonadondan yiroqlashtirish kabi urf-odatlarda etnoestetik belgilar namoyon bo'ladi. Bunday belgilarni o'zbek etnomadaniyatiga kirgan har bir marosimda uchratish, ko'rish mumkin. Kishining jon berish holati – fojia. Uni tinch kuzatib turishning o'zi qayg'ulidir. Mazkur dramatizm o'ziga xos urf-odatlar, etnoestetik harakatlar bilan yumshatilgan, boshqalarga ma'lum qilingan. Masalan, kishi o'lgan zahoti yig'i qo'shiqlari aytilgan, o'g'il bolalar maxsus chopon kiyib, beliga belbog' bog'lab, boshiga yangi do'ppi kiygan.

Fojiaviylik qahramonning imkoniyatlaridan kuchli, keng to'siqlar sifatida keladi. Uni qahramon sehrli kuch yoki xalq, yurt yordamisiz hal etolmaydi. Shunday sehrli kuchlar vazifasini o'zbek xalq ertaklarida sehrli chiroq, sehrli oyna, sehrli uzuk, to'qmoq, maymun, kiyik kabi magik narsalar va hayvonlar bajaradi. Ushbu sehrlangan kuchlar go'zal, chaqqon, baquvvat sifatlarga ega bo'ladilar, ular qahramonga beg'araz yordam beradilar, yovuzlardan, fojialarga yetaklovchi xatti-harakatlardan qutqaradilar. Goho o'zlari halok bo'lib yoki fojiali holatga tushib qahramonni asrab qoladilar. Ularning bu jasorati nafaqat axloqiy, shuningdek, estetik mohiyatiga ko'ra ham go'zaldir.

Fojiaviylik kuchli achinish uyg'otadi. Hatto, u bartaraf etilganida ham kishi qalbida uyg'ongan achinish mehr-shafqat, hamdardlik bilan uyg'unlashadi va xayolda uzoq saqlanadi. Xalq xayolida saqlanadigan achinish esa avlodlardan avlodlarga o'tadi, ma'lum bir etnomadaniy va etnoestetik funksiyani bajaradi. Masalan, xalqimiz qalbida Majnunga nisbatan uyg'ongan achinish, u chekkan iztiroblarni fojia, deb hisoblash

hamon uchraydi. Bor vujudi bilan sevadigan kishini xalqimiz hozir ham Majnun, bechora junun deb ataydi, uni aftodahol, o'zligini unutgan, deb biladi.

Adabiyotda fojiaviylikning o'ziga xos qirralarini o'zbek adiblari ijodida ham ko'rish mumkin. Masalan, A.Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanida Kumushning o'z sevgilisiga yetishib, fojiali tarzda qurbon bo'lishi, M.Behbudiyning «Padarkush» dramasidagi obrazlarning fojialarga to'lib- toshganligi kishini hayajonlantiradi.

Fojiaviylik san'atda his-tuyg'ular va kechinmalarga boy qilib ifodalanadi. San'atdagi fojiaviylik hayotdagi to'qnashuvlar, har xil qiyofalar, voqelikda yuzaga kelgan holatlarning badiiy in'ikosi sifatida o'z o'rnini topadi. San'atdagi har bir fojiaviy jarayon o'zining to'laqonli ehtiroslarga boyligi, kuchli va ta'sirchan mudhish voqealarni tasvirlashi bilan kishi diqqatini o'ziga tortadi. Bu jihatdan fojiaviylik o'z falsafiy mohiyatining chuqur va sermazmunligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ijodkor yaratayotgan san'at asarida real hayot voqealarining tasvirlanishi, o'z davri nopok va buzuq illatlarining ochib berilishi fojiaviylikning san'atda namoyon bo'lishi bilan xarakterlidir.

Kulgililik va hajviylik. Estetikada kulgililik – xunuklik bilan go'zallik o'rtasidagi ziddiyat ifodasi (Arastu), kutilayotgan voqelikning ahamiyatliligi va natijaning arzimasligi (Kant), mohiyati jihatidan pastkash, soxta, ahamiyatsiz va shakli jihatidan ahamiyatli (Gegel), timsol va g'oya (Fisher), bexosdan sodir bo'lgan va jonli muloqot natijasi (Bergson) kabi ta'riflar ana shunday bir tomonlama xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularning oqil tomoni kulgililikni qarama-qarshilik bilan bog'lab mushohada etishga intilishdir", deb ta'rif beriladi. Ushbu ta'riflar ob'yektning turli jihatlariga e'tibor qaratadi, Arastu xunuklik bilan go'zallik o'rtasidagi ziddiyatga, Kant kutilayotgan natijaning arzimasligiga, Gegel voqea-hodisalarning ahamiyatliligiga, Fisher timsol va g'oya uyg'unligiga, Bergson tasodifiy sodir bo'lgan voqea va jonli muloqot natijasiga e'tibor qaratadi. Ushbu ta'riflarni tahlil qilish bizning vazifamizga kirmaydi. Ammo ulardagi umumiy bir jihatni aytish zarur. U shundaki, kulgililik voqea-hodisalar, xatti-harakatlar va muloqot mantig'iga bo'lgan munosabat natijasi sifatida keladi. Ushbu mantiq buzilganini yoki uning real borliqqa, hayotiy talablarga, sotsiumda qabul qilingan axloqiy-estetik normalarga muvofiq kelmaganini anglash, payqash kulgi uyg'otadi. Kulgililik badiiy-estetik hodisa sifatida asosan latifa, masxarabozlik, payrov, hajviy ertaklar va

hikoyalar, aytishuv, hazil-mutoyiba kabi xalq og'zaki ijodi va tomoshalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Hayotda va kishilar xatti-harakatlarida uchraydigan beo'xshovliklar kulgi manbai hisoblanadi. Demak, kulgi insonga xos fazilatdir. Hayvonlar kulgi nimaligini, boshqa jonzodlar ustidan kulish mumkinligini bilishmaydi. Faqat inson tabiat, hayvon va kishilar ustidan kulish yo'llarini ham, sabablarini ham biladi.

Nasriddin Afandi, Aldar ko'sa bilan bog'liq latifalar, masxarabozlik tomoshalari kulgi epizodlariga to'ladir. Kulgi xalq madaniyatining tarkibiy qismi, xalq kulgi orqali dunyoga badiiy-estetik munosabatini ifoda etadi. Chunki kulgi shunchaki o'tkinchi, bir onlik kayfiyat mahsuli emas. To'g'ri, ayrim olingan epizod yoki yo'l-yo'lakay aytilgan ibora, o'xshatish, qochiriq yoki masxaraomuz fikr kulgi uyg'otishi mumkin. Biroq, ular negizida mavjud voqelikdan yiroqlashgan vaziyatni idrok etish, payqash, xullas, yuqoridagi real munosabatlar mantig'iga zid hodisalarga nisbatan oldindan shakllangan badiiy- estetik, ma'naviy-ruhiy holat, shaylik bo'lishi lozim. Bunday ma'naviy-ruhiy va badiiy-estetik holatga shay bo'lmagan kishida eng zamonaviy latifa ham kulgi uyg'otolmaydi.

Illatlardan kulish hajviya, latifalarning maqsadidir. Jamiyat, kishilar hech qachon illatlardan xoli bo'lmaganlar, birovga ular yon-atrofdan yuqqan, boshqa birovlar esa tabiatan kulgi uyg'otadigan ko'rinishlarga (pakananing oddiy kishilarga taqlidi, o'zidan uzun bo'yli ayol ketidan yurishi), xislat yoki illatlarga ega bo'ladilar.

Latifalar, hajviyalarda ko'proq umuminsoniylik bo'rtib turadi. Shuning uchun bir xil mavzularni, hikoyalarni turli xalqlar og'zaki ijodida uchratamiz. Shu bilan birga ularda etnomadaniy, etnoestetik belgilar ham ko'zga tashlanadi. O'lkamiz xalqlari hayoti, turmush tarziga yaqin qumg'onda choy qaynatish, shippakda yurish, eshak aravada yuk tashish, sandal, cho'kka tushib o'tirish, jazirama issiqda tandirda non yopish, nosqovoqni belboqqa o'rab yurish kabi ko'pdan-ko'p xatti-harakatlarda etnomadaniy va etnoestetik belgilar namoyon bo'ladi. Eng muhim etnomadaniy va etnoestetik belgi beg'arazlik, beg'uborlikdir.

Kulgililikning estetik mohiyati yana shundaki, u doimo kishida psixofiziologik holatni keltirib chiqaravermaydi. U qarama-qarshi qutbdagi tomonlarni oqlovchi yoki qoralovchi kulgidir. Boshqacha qilib aytganda, mazkur kulgi jamiyat va shaxs hayotidagi ziddiyatli hodisa, jihatlarga ijtimoiy- estetik ideal mezoni bo'yicha beriladigan bahodir.

Shunga ko‘ra u mohiyatan ijtimoiy ahamiyatga molik kulgi bo‘lib, u ayni paytda kishida qayg‘urish, achinish, azoblanish his-tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Kulgililik san’atning komediya, satira, yumor kabi janrlarida ifodalanadi. Komediya dramatik janr turi bo‘lib, u go‘zallikning muqobili bo‘lgan xunuklikni turli xil obraz, xarakterlar to‘qnashuvida yuzaga keladigan kulgili holatlarda ifodalaydi. Kulgili holat esa Arastu ta’kidlaganidek, xunuklikning bir qismi, xolos. Masalan, Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasida qaynona- kelin munosabati tasviri zamirida xunuk ijtimoiy fojialar keltirib chiqargan sobiq ittifoqning ma’muriy-buyruqbozlik boshqarish tizimi ustidan bo‘lgan kulgi yotadi. Sadriddin Ayniyning “Qori Ishkamba” hikoyasidagi Qori obrazi insondagi xunuklik, ma’naviy tubanlikni go‘zallik muqobilida tasvirlaganligi uchun kulgi uyg‘otadi.

San’atda hajviylik voqea-hodisalarni kulgili tarzda aks ettirib, ko‘pincha, muvofiqlik, tekintomoqlik, kekkayishlik, yengil tabiatlilik kabi xislatlarni yo‘q qilishga qaratilgan bo‘ladi. Hajviylik san’atda tanqidiylik tarzida namoyon bo‘lib, unda jamiyat hayoti shuningdek, ayrim guruh yoki shaxslarning asosan salbiy tomonlari tasvirlanadi. Hajviy asarlarda tanqid qilinadigan voqea- hodisalar masxarali yoki kulgili bo‘lib, asarning g‘oyaviy mazmunini ochib beradi. Agar biz yutuqlarimizdan qanchalik quvonsak, nuqsonlarimiz va kamchiliklarimizni ham yo‘q qilishga intilishimiz lozim. Bu xatolarni tuzatishda hajviylik yo‘li bilan insonlarga hikoyali va kulgili tarzda murojaat qilinadi.

Hayotdagi nuqsonlar hajviylik bilan qanchalik chuqur ishonarli ochib berilsa, ularni tuzatish imkoniyati va zarurati shunchalik tez amalga oshiriladi. Shuning uchun barcha kulgili tarzda aytilayotgan hajviyalarni chuqur tahlil etib, ularning asl ma’nosini bilib olish kerak. Qayerda tanqid bo‘lsa, o‘sha yerda beparvolik va xotirjamlikka yo‘l qo‘yilmaydi. Lekin mana shu tanqid hajviylik tarzida kishilarga yetkazib berilsa, o‘z navbatida hech kimning diliga ozor yetmaydi. Natijada, har bir inson hajviylik orqali o‘z xatti-harakatlarini, qilayotgan ishlaridagi kamchilikni anglab oladi.

Hajviylik turli janrlar bilan yozilib, san’at yoki teatr orqali tomoshabinga yoki o‘quvchiga yetkaziladi. Masalan, «O‘lik jonlar» (N.V.Gogol), hajviy roman shaklida, «Revizor» (N.V.Gogol), «Maysaraning ishi» (Hamza), «So‘nggi nusxalar» (A.Qahhor),

Hajviy peysa shaklida, «Sudxo‘rning o‘limi» (S.Ayniy), «Qabrdagi tovush» (A.Qahhor) hajviy hikoya shaklida, «To‘yi Iqon bachcha», «Bachchag‘ar» (Muqimiy) hajviy she’r shaklida yozilgan.

Bularda kishilarning bevosita xulq-atvori va xatti-harakatlaridagi kamchiliklar hajv ostiga olinadi. Demak, yaratilayotgan har bir hajviy asar yoki fikr insonlarning ma’naviy ongini o‘stirish, ularning har bir qo‘yayotgan qadamini bilib bosishi uchun ogohlikka chorlab turishda har doim ham muhim ahamiyatga ega bo‘lmog‘i lozimdir.

Voqelikdagi go‘zallik, shodlik, zavq-shavq, baxt-saodat kabi yuksak tuyg‘ularning ziddi bo‘lgan xunuklik, yovuzlik, johillik, maishatparastlik, jaholatparastlik kabi yomon illatlar adabiyot va san’atda yumor va satira tarzida xalqqa yetkazib beriladi. Ko‘pincha kishilar yumor va satirani bir xilda tushunishadi. Ammo ular o‘rtasida farq mavjud. Yumorning satiradan farqi shundaki, u ma’lum ijtimoiy hodisani butunlay barham berishga targ‘ib qilmasdan, balki undagi nuqson va kamchiliklarni yo‘qotishga undaydi.

Jamiyat rivojida **yumor**ning o‘z o‘rni bo‘lib, u xalqning turmush tarzi va hayot farovonligini oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Adabiy tanqidchi D.Nikolaev «Yumor» so‘zining uch xil ma’nosini ko‘rsatib beradi. Birinchidan, «yumor» so‘zi kulgi bilan sug‘orilgan asarni bildiradi. Ikkinchidan, bu so‘z yumor sezgisiga ega bo‘lgan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Uchinchidan, yumor kulgi, mazax shakllaridan biridir. Yumor orqali kishilar o‘rtasidagi ba’zi bir mayda chuyda kamchiliklar va nuqsonlarni yo‘qotish maqsad qilib olinadi. Yumor bevosita kulgili tarzda amalga oshiriladi. Shuning uchun har qanday yumor kulgili voqealarga boyligi, rang-barangligi bilan qiziqarlidir. A.Qahhor o‘zining asarlarida birinchi navbatda yumor va satirani o‘stirishga harakat qilgan. Shuning uchun ham uning bu sohadagi merosi boy va xilma-xildir. A.Qahhor bilan bir qatorda G‘.G‘ulom o‘zining yumor va satiralarga boy bo‘lgan maqolalari, ocherklari va hikoyalarini yozgan.

“Satira” so‘zi yunon mifologiyasida milloddan avvalgi davrlarda paydo bo‘lgan. Afsonaviy Dionis (Xudo)ning xushchaqchaq va mast yo‘ldoshlari satirlar deb aytilgan. O‘sha davrda Dionis sharafiga satrlar aytilib, keyinchalik adabiyotda va san’atda ham qo‘llanila boshlagan. Sharq adabiyotida dastlabki satiralar xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lgan. «Ming bir kecha», «Panchatatra» kabi yozma adabiyotlarda satira rivojlantirilgan.

O‘zbek xalqida satira va hajviya kabilar xalq dostonlari, terma va aytishuvlar Nasriddin Afandi, Aldar ko‘sa kabi obrazlarda o‘z aksini topgan.

Satiraning o‘ziga xos xususiyati shundaki, muallifning dunyoqarashi, ma’naviy qiyofasi, birinchi galda kulgi orqali izhor etiladi. Satirada kulgi-kishi dunyoqarashi, davr muhitini namoyon qiladigan asosiy vosita bo‘lib, ularni keng namoyish qilishga imkon yaratib beradigan vaziyatdir. Bunday holatdan unumli foydalanishda ustasi farang bo‘lgan o‘zbek xalqining sevimli latifachisi va satirigi Nasriddin Afandini eslash joizdir. U o‘zidagi donolik, sof vijdonlilik, uddaburonlik, tadbirkorlik, hozirjavoblikni satirik tarzda kulgiga boy qilib tasvirlaydi. Nasriddin Afandi o‘z dushmaniga qarshi doimo aqlli, quvnoq, dadil, dono va tashqi qiyofasi bilan kuchsizroq qo‘rinadi. Lekin o‘zining yumor va satiralari bilan hammani lol qoldiradi.

Hozirgi vaqtda satirani inkor etuvchi kishi topilmasa kerak. Chunki xalqimiz satirani sevadi va uni inkor etish kulgili bir narsadir. Kishi haqiqiy satirik asarni o‘qib, mazza qilib, hordiq chiqarib kuladi.

San’at. Ko‘pincha san’at zavq manbai, hayotning aksi va eng muhimi, shaxsiy rivojlanish salohiyati deb aytiladi. Insonni san’at bilan tanishtirish orqali unda yuksak axloqli, bilimli, ko‘p qirrali shaxsni tarbiyalash mumkin. Ma’naviy va kundalik hayotda, ishda, tabiat, inson bilan muloqotda – bularning barchasida chiroyli, hayratlanarli, fojiali, kulgili muhim rol o‘ynaydi. Go‘zallik juda ko‘p mehribon, samimiy his-tuyg‘ularni beradi, o‘qish va ishlashga, qarindoshlar va yaqinlar bilan muloqotda turtki beradi. Bu holat har bir shaxsning hayotdan mazmunli va zavqlanib yashash tuyg‘ulari mavjudligini ko‘rsatib, o‘zining mohiyatini namoyon etib boradi.

Mazkur yondashishni, fikrni tabiatga ham, ijtimoiy hayotga ham butunlay tatbiq etib bo‘lmaydi, unda biz tabiatdagi, ijtimoiy hayotdagi barcha narsalar go‘zal degan noreal va noob’yektiv xulosaga kelamiz. Oddiy kuzatishlarimiz ham ko‘rsatadiki, tabiatdagi hamma narsalar, ijtimoy hayotning barcha ko‘rinishlari ham go‘zal emas, ularda nomukammallik, noqislik, yovuzlik va xunuklik ko‘p. Agar tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha narsalar go‘zal bo‘lganida insonning vaqt, kuch sarflab, azoblanib, tunu kun orom bilmay go‘zallik yaratishini bema’nilik, deb atashga to‘g‘ri kelardi. Masalan, balchiqni, unda ag‘nab yotgan cho‘chqani, kiyikning qornini yorayotgan yo‘lbarsni, ovqatga qo‘ngan pashshani hech kim go‘zal demaydi. Kalamush, kaltakesak,

qurt-qumursqalarni ham go‘zal deya olmaymiz. To‘g‘ri, ushbu jonivor va hasharotlarni iste’mol qiladigan, ularni yeb huzur topadigan kishilar bor, ular nazaridagi go‘zallik biznikidan farq qiladi.

Xunuklik, pastkashlik, tubanlik xalq ijodi va san’atining barcha shakllarida ham tasvirlanmaydi. Masalan, xalq naqqoshligi, kandakorligi, ganch san’ati, bayram tomoshalari, kashtachiligi, marosim folklori, ashulachiligi, xalq tabobati va pazandachiligi kabilarda, umuman, ularni tasvirlovchi syjetlar uchramaydi. Ular kishida badiiy-estetik didni shakllantiradi, hayotning betakrorligini, olam nafosat qonunlariga muvofiq yaratilganligini anglashga undaydi, go‘zallikni tarannum etadi. Hatto motam marosimlarida ham badiiy- estetik mohiyat unutilmagan. Arastu xunuklikni xunuklik tarzida aynan ko‘chirishni nazarda tutayotgani yo‘q, u ijodkor xunuklikni tasvirlayotganda badiiy-estetik vositalardan foydalanishi orqali xunukni go‘zal qilib ko‘rsatish kuchiga ega ekanini nazarda tutayapti. Demak, ijodkor hatto xunukni ham (uni tasvirlash zarurligi g‘oyasidan voz kechmasa-da, hatto voz kecha olmaydi ham, chunki u hayotning atributidir) tasvirlaganida ixtiyorida badiiy-estetik vositalar borligini unutolmaydi.

O‘zbek xalq ijodi va san’atida fojiaviylik hamda kulgililik insonga xos xususiyatlar sifatida tasvirlanadi. Tabiat va hayvonot olamida ular tasvirlanmaydi, maxsus badiiy-estetik hodisalar sifatida kelmaydi. To‘g‘ri, tabiat va hayvonot olamida fojialar, kulgili holatlar yetarlicha topiladi. Yerning o‘pirilishi, cho‘kishi, aholi turar joylarini yuvib, oqizib ketuvchi sel, daryo toshqini, zilzila – fojialardir. Mushukning ip ketidan sakrashi, kuchukning avtomashina ketidan yugurishi, to‘tiqushning egasi so‘zlariga taqlid qilishi kabilar esa kulgililikka misol bo‘ladi.

Nazorat savollari:

1. Estetikani predmetini tushuntirib bering ?
2. Estetika tushunchasini fanga kim kiritgan ?
3. Estetikani boshqa fanlar bilan aloqadorligini tushuntiring ?
4. Sharq xalqlari estetikasi haqida gapirib bering ?
5. G‘arb xalqlari estetik qarashlarini tushuntirib bering ?
6. Estetika kategoriyalarini sharhlang ?
7. O‘zbek xalq ijodida fojiaviylik kategoriyasini sharhlang ?

13-mavzu. Globallashuv va barqaror taraqqiyot falsafasi.

Reja:

1. Globallashuv – yangi falsafiy mavzu, globallashuv va globalistika.
2. Global jarayonlar va hodisalarning falsafiy shakllanish tarixi.
3. Hozirgi davrning asosiy muammolari tasnifi va falsafaning roli.
4. Global jarayonlarni bashorat qilishning ahamiyati, turlari va metodlari.

Tayanch iboralar: *Globallashuv, globalistika, global muammolar, prognozlash, global rivojlanish modellari, Rim klubi, texnooptimizm, texnopessimizm, urush va tinchlik muamolari, ekologik muammolar, energetik muammo, demografik muammo, ijtimoiy-iqtisodiy qoloqlik, etikologiya muammosi, terrorizm, fan-texnika taraqqiyoti, integratsiya, global onglilik.*

Globallashuv tushunchasi. O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab avj olgan globallashuv tendensiyasi, bir tomondan, turli millat va elat vakillari orasidagi munosabat va aloqalarni nihoyatda tezlashtiradi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, globallashuv millatlarning o‘ziga xos jihatlari takomillashuviga zamin yaratdi. Masalan, bunday jarayonlarni avvalo, turmush tarzida ko‘rish mumkin. Fan va texnika yutuqlari umumbashariy xarakter kasb etgani, bu yutuqlarning jahon bo‘ylab yoyilishi yengillashgani, kashfiyot va ixtirolarning inson turmushiga kirib borishi umumsayyoraviy tus olgani sayin turli millat vakillari turmushidagi tafovutlar kamayib, o‘xshashliklar esa ortib bormoqda. To‘g‘ri, jahon mamlakatlaridagi kishilar turlicha shaklda bunyod etilgan binolarda istiqomat qiladilar, biroq ularning kundalik turmushda qo‘llaydigan texnika vositalari, iste’mol qiladigan mahsulotlari, foydalanadigan xizmatlari, hatto hayotiy ehtiyoj va manfaatlari tobora unifikatsiya (bir xillik)lashmoqda.

Globallashuvni makonda sodir bodishiga ko‘ra planetar va regional, zamonda yuz berishiga qarab doimiy, uzoq va qisqa muddatli turlarga ajratish mumkin.

Globallashuv jarayonining xususiyatlari. Globallashuv jarayonlariga xos bo‘lgan ba’zi bir xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1) inson hayotining barcha jabhalari bo‘yicha xalqlar va mamlakatlaming bir-birlariga bog‘liqligi va o‘zaro aloqadorligining o‘sib borishi;

2) bozorlaming planetar miqyosda kengayishi natijasida umumjahon moliya iqtisodiy makonining paydo bo‘lishi, alohida iqtisodiy tizimlaming global iqtisodiyotga qo‘shilib ketishi va yangi iqtisodiy tartibning vujudga kelishi;

3) axborot sohasida yangi kompyuter va mediatexnologiyalar, global televideniya, intemetning keng ko‘lamda ishlatilishi asosida butun jahon aloqa va muloqot tarmog‘ining paydo bo‘lishi;

4) obyektiv mazmundagi demokratiya va turli xil g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlardan subyektiv maqsadlarda foydalanishning kuchayishi va boshqalar.

XXI asrga kelib insoniyat o'zining hayot sharoitini yanada yaxshilash uchun tabiat, jamiyat, inson tafakkuri sir-asrorlari qonunlarini yanada chuqurroq o‘rganish orqali buyuk kashfiyotlami amalga oshirishga kirishdi. Bularga eng arzon va qulay energiya manbaini topish borasida qilinayotgan kashfiyotlar, masalan, yer qobig'i issiqligidan ("geotermal" bunda "geo"-yer, ''termal"- issiqlik), odam tanasining doimiy tebranma harakatlanishidan hosil bo‘luvchi issiqlik energiyasidan foydalanishni yo‘lga qo‘yish uchun ishlab chiqilgan "energetik kastyum", odamlaming yo'laklarda yurishidan hosil bodadigan "yo‘l- yo‘lak energiyasi" hamda "vodorod yonilg‘isi", kishilarning o‘sib borayotgan oziq ovqatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan "transgen mahsulotlar", ichimlik suvi muammosini yechishga bag‘ishlangan "tegirmon suvi", kompyuterlashtirishga asoslangan "aqlli uy", ''aqlli shahar", yashash joyiga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan *"gidropolislar"* (suv osti shaharlari), *"suzib yuruvchi shaharlar", "sehrli mojizakor nur"* (lazer), super aqlli robitlar, shuningdek, uzoq yashash bo‘yicha olib borilayotgan "genmuhandisligi" borasidagi bir qator "ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan" ilmiy tadqiqot ishlarini kiritish mumkin.

Globallashuv jarayonlarining ijobiy va salbiy oqibatlari. AQShdagi Florida universiteti professori Garri Dams "Kapitalizm transformatsiyasi" asarida globallashuv jarayonining ijobiy va salbiy jihatlari haqida to‘xtalib:"Bu jarayonning afzalliklari haqida so‘z ketganda, birinchidan, dunyo miqyosida sifatli mahsulot hajmining ortib borayotgani, unga nisbatan talab-ehtiyojning kengayishi; ikkinchidan, avto va aviatransport, turizm hamda aholi migratsiyasining kuchayishi; uchinchidan, kompyuter, internet, sun’iy yo‘ldosh orqali teleko‘rsatuvlami uzatish tizimining mislsiz darajada rivojlanishi; to‘rtinchidan, yangi kashfiyot va zamonaviy texnologiyalar vositasida

o‘simlik va hayvonot olamida irsiyatni o‘zgartirish orqali oziq-ovqat ishlab chiqarish hamda o‘ta xavfli irsiy kasalliklami bartaraf etish imkoniyati tug‘ilayotganini e’tirof etish darkor. Ammo mazkur jarayonning salbiy jihatlaridan ham ko‘z yumib bo’lmaydi. Xususan, texnologik inqilob, haddan tashqari sanoatlashtirish jarayonining sayyoramiz iqlimiga global ta’sir etishi oqibati insoniyat salomatligiga jiddiy xavf tug‘ilmoqda. Madaniyatlaming bir xillashuvi esa milliy davlatlar, turli xalqlar qadriyatlariga putur yetkazmoqda”[68], - deb yozgan edi. O‘zbek xalqi ham barcha odamlar kabi globallashuvdan chetda qolayotganicha yo‘q.

Globalistika. Globalistikaning shakllanishini to’rt bosqichga bo‘lish mumkin:

1. 1960-yillarning oxiri-70-yillaming boshlari. Bu bosqich individual global muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan va ularni ajralmas tizimga birlashtirmagan davri hisoblanadi.

2. 1970-yillarning ikkinchi yarmi. Eng muhim nazariy yo‘nalishlarni shakllantirish va tadqiqot obyekti doirasini aniqlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi..

3. 1980-yillar. Amaliy harakatlarga urinish bo‘lib, u "global miqyosda o'ylang, mahalliy darajada harakat qiling" tamoyiliga asoslanadi.

4. 1980 yillarning oxiri-1990 yillar. Xavfsizlikni ta’minlash muammolari ayniqsa, keskinlashmoqda va siyosiy globallashuv rivojlanmoqda. Davning muhim bosqichi BMTning atrof-muhit va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi (1992y) bo‘lib, unda barqaror rivojlanish konsepsiyasi ilgari surildi.

XX asrning oxiridan boshlab, global tadqiqotlarda aniq tendensiya mavjud bo‘lib, unga ko‘ra olimlar, tadqiqotchilar va siyosatchilarning e’tibori alohida global muammolardan globallashuv jarayonlariga va turli mamlakatlar, xalqlarning o‘zaro bog’liqligining o‘sib borishiga o‘tishni boshladi. Xalqaro terrorizm, sayyoramizning alohida mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi farqlar va yangi dunyo tartibini o‘rnatish masalalari ham birinchi o‘ringa chiqdi. Buning sababi shundaki, ba’zi global muammolami tushunish va ulami yengib o‘tish tajribasi umuman qoniqarli emas, shuningdek ularning paydo bo‘lishining asosiy sabablarini va taktikasi kuchayib borayotganini aniqlash edi.

[68] Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: Iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy jihatlari. - T.: “Ma’naviyat”. 2006.14- 15.

1990-yillarning ikkinchi yarmida jahon hamjamiyati asosan sotsialistik tizim qulashi natijasida yuzaga kelgan tub o‘zgarishlardan qutildi va yangi vaziyatni tushuna boshladi. Aynan o‘sha paytda globallashuv jarayonlarini faol anglashi tufayli o‘ziga xos "ikkinchi shamol" ga ega bo‘lgan global tadqiqotlarga qiziqishning "ikkinchi to‘lqini" paydo bo‘ldi.

XXI asming dastlabki ikki o‘n yilliklarida globallashuv jarayonlariga jiddiy e’tibor belgisi ostida o‘tdi, bu esa global tadqiqotlaming asosiy mavzusiga aylandi

Hozirgi global muammolar. Insoniyat jamiyati har xil muammolar bilan to‘qnash keldilar. Ammo ulaming hammasi ham global emas. Jahonda ko‘p odamlar kambag‘allik chizig'idan pastda yashaydilar. AQShda terroristlar butun dunyo savdo markazi Pentagonni vayron qildilar. Angliyada protestant va katoliklar o‘rtasida to‘qnashuvlar bodmoqda. Bu barcha muammolarning barchasi jiddiy bo'lib, ko‘p odamlaming hayoti bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, ular butun insoniyat manfaatlarini ko‘zlaydi. Shuning uchun ham ular global emas. O‘z xususiyatlariga ko‘ra butun insoniyat hayoti va farovonligiga ta’sir qiladigan o‘tkir dunyo muammolari global muammolarga kiradi.

XXI asr boshlarida shundan muammolardan eng muhimlari quyidagicha:

- ma’naviy inqiroz.
- ommaviy kasalliklarning tarqalishi.
- ommaviy qirg‘in qurollari bilan urush xavfi.
- planeta tabiiy resurslarining tugab borishi.
- ekologik inqirozning chuqurlashishi.
- demografik muammo.
- terrorizmning o‘sishi.
- ob-havoning global o‘zgarishi.

Yuqorida qayd qilingan muammolar u yoki bu darajada ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan tan olinadi. Lekin, shunday global muammolar borki, ularning muhokamasi tor doiradagi malakali-tadqiqotchilar tomonidan yakunlanib, ularning hammasi ham bunday muammolaming mavjudligini insoniyat uchun real xavfini tan olmaydilar. Buning yaqqol misoli sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

Yerning kosmik jismlar (meteorit, kometa, asteroidlar) bilan to‘qnashuvining kuchli xavfi bo‘lib, undan hozirgi kunda himoya

vositasi yo‘q. Bunday to‘qnashuv juda xavfli bo‘lib, butun insoniyat va dunyo hayvonot dunyosining halokatiga olib kelishi mumkin.

Ruhiy-energetikani sayyoraning “ichki koinot ” - nozik olam dunyosiga salbiy ta’siri. Bunday ta’sir insoniyatning ma’naviylik va noosferasi o‘rtasidagi uyg‘unlikning buzilishiga sabab bo‘ladi. Hozirgi odam tabiiy balansni buzish osonligi, uni tiklashning qiyinligi, yer ekologik tizimining qanchalik murakkabligini va shu bilan birga qanchalik nozikligini, planeta taqdiri uchun shaxsiy javobgarligini to‘la anglashi kerak. Insoniyat o‘zining tarixiy rivojlanishida shunday chegaraga keldiki, terroristlar, dovullar, yer qimirlashlar, sunamilar, ekologik fojialar, chegarani bilmaydigan epidemiyalar kabi o‘z davlati chegaralariga yaqin dunyo muammolaridan chetda turishi mumkin emas.

Endi global muammolardan ba’zilarini batafsil qarab chiqamiz, ularni qanday tugatishni tushunishga harakat qilamiz. Insoniyatning ma’naviy rivojlanishi hamma vaqtda murakkab va ziddiyatli bo‘lgan. Shunday bo‘lsa ham XX asr - XXI asr boshida ma’anaviy madaniyat, jamiyatning axloqiy negizlari shunday sinovlarga duch keldiki, bunday davrni tarixda topish qiyin. “Ma’naviy inqiroz” tushunchasining hozirgi falsafly va ilmiy so‘z boyligiga kirishi tasodifiy emas.

Hozirgi ma’naviy inqiroz nimalarda namoyon bo’ladi! Shaxsning ma’naviy negizini qo'porishda va buzg‘unchi ijtimoiy hodisalarning o‘sishida. Bunday hodisalar qatoriga bizning ba’zi hozirgi zamondoshlarimizning hayot ma’nosini yo‘qotishi, ichkilikbozlik va nashavandlik, fohishabozlik va jinsni o’zgartirishlar, ko‘p odamlarning faqat moddiy boyish va sezgi lazzatlanishga intilishi, jinoyatchilik va zo‘ravonlikning o‘sishi, ommaviy hayajon va ruhiy kasalliklar, ijtimoiy xudbinlik va chidamsizlik va boshqalar kiradi.

Ommaviy kasalliklarning tarqalishi to‘g‘risida gapirganda, eng avvalo yurak-qon tomirlari, onkologik, yuqumli va ruhiy kasalliklar nazarda tutiladi. Masalan, yer yuzida har yilgi yurak-qon tomirlari va onkologik kasalliklardan o’lganlar millionlab hisoblanadi. SPID kasalligi tez tarqayapti. Buning ustiga koronovirus pandemiyasi ham qo‘shildi. Jahonda 80 milliondan ortiq odam shu kasallikka chalingan. Kasalliklar soni o‘sishining sababi juda ko‘p bo’lib, ular noto‘g‘ri turmush tarzi va ovqatlanish, atrof-muhitning ifloslanishi, hayajonlar va ko‘pchilik odamlarning o‘z ichki dunyosi ustidan nazorat qila olmasligi, jinsiy chekinishlar va ruhiy energiyaning yetishmovchiligidir.

Mutaxassislar fikricha, ommaviy kasalliklar muammosi ikki tomonlama yechilishi kerak.

Birinchidan, sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy va aqliy faollikni moslashtirish, profilaktika, jismoniy mashqlar va parhez ovqatlanish va boshqalar zarur.

Ikkinchidan, tibbiy terapiyaning yangi usullarini, yangi dorilar va ommaviy kasalliklarni davolashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish lozim.

Urush va tinchlik. XX asrda insoniyat ommaviy qirg‘in qurollarni (yadro, kimyoviy, biologik) ishlab chiqishni o‘rgandi. Ilm, fan bu sohada ko‘zga ko‘rinarli “yutuqlar”ni qo‘lga kiritdi. Harbiy ximik reaktivning bir tomchisi butun ko‘lni zaharlashga etadi. Bitta suvosti yadro raketa tashuvchi butun bir davlatni xarobaga aylantirishi mumkin. XXI asr boshlariga kelib, NATO bloki davlatlari, Rossiya, Xitoy, Hindiston va boshqa davlatlar aslaha xonasida minglab tonna ximik va biologik zaharlovchi modda, minglab yadro harbiy kallaklar saqlanib, yerdagi barcha tirik jonlami, yer sharidagi barcha shaharlarni ko‘p marta yakson qilishga yetadi. Nimaga odamlarga buncha miqdordagi xonavayron qiluvchi qurol kerak ?

Ommaviy qirg‘in quroli bilan urush, g‘oliblar va mag‘lublarni tenglashtirishini olimlar andazalashtirdi va isbotladi. Kuchli radiatsiya, atrof muhitning ifloslanishi yoki “Yadro qish” hamma g‘oliblar va mag‘lublarni bir xil sharoit - hayot bilan o‘lim orasiga qo‘yadi. Hozir ommaviy qirg‘in quroli yo‘qotilmas ekan, planeta miltiq dori yerto‘lasi botib, barcha insoniyatga o‘lim xavfini tug‘diradi. Planeta barcha mamlakatlari uchun ommaviy qirg‘in qurollarni ishlab chiqarishni asta-sekin qisqartirish, keyin yo'qotish va to‘la man qilish zarur.

Xom-ashyo. Insoniyat o‘tgan asrda birinchi marta o‘z planetasida tabiiy resurslar - neft, ko‘mir, ruda, mineral xomashyolar, ichimlik suv zaxirasining, o‘rmon va hosildor yerlarning, baliqlar va boshqalaming tugashi xavfini angladilar. Hozircha bu muammo eng dolzarb emas. Ammo, agar xomashyodan shu suratda foydalanish davom etsa, jamiyat XXI asrdayoq neft zaxirasining to‘la tugashi bilan to‘qnashib, kimyoviy ishlab chiqarishning ko‘p turlari va boshqa sanoat korxonalari, avto, avia va suv transportlarining paralich(muvozanatning buzilishi) bo’lishiga olib keladi.

Qanday yo'l topish mumkin? Olimlar chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyasini, xomashyoni iqtisod qiluvchi ishlab chiqarishni ishlab chiqish va tadbiq qilishni, quyosh, shamol, suv, yadro energiyasidan faol foydalanish, energiyaning yangi manbalarini izlashni, resurslarni iste'mol qilishni chegaralash, quyosh tizimi planetasining yer osti boyliklariga sanoat ishlov berishni amalga oshirishni taklif qilmoqdalar.

Ekologik muammo. Hozirgi davrning o'tkir muammolaridan biri ekologik inqiroz. Masalan, o'rmonlarning ommaviy kesilishi kislorod foizini kamaytirib, atmosferada uglekisliy gaz miqdorini ko'paytirmoqda. Mintaqa suv balansining o'ylamay buzilishi (to'g'onlar qurilishi yoki daryo oqimining o'zgarishi) sahro va botqoqlikning paydo bo'lishiga, zararli hasharotlaming tarqalishiga, hayvon va o'simliklarning ko'p turlarining halok bo'lishiga olib kelmoqda.

XX asrda fan sayyoramizda global ob-havo o'zgarishlaming o'sib borishini qayd qildi. Olimlar asta-sekin o'sib borayotganligini aytmoqdalar. Ba'zi bir mamlakatlarda, masalan, Rossiyada oxirgi chorak asrda mutaxassis bo'lmaganlarda ham bu holat ma'lum bo'lmoqda. O'rta kenglikda qish kam qorli, yozda juda issiq bo'lmoqda, qutblarga muzlarning va qorlaming erishi natijasida Evropa qirg'oqlarida, Atlantika okeanida suv sathining ko'tarilishi kuzatilmoqda.

Shu bilan birga dunyoning ko'p davlatlarida ob-havo animiyasi kuzatilmoqda. Masalan Afrika va Amerikaning janubiy kengliklarida ko'p yog'moqda. Butun yer yuzida meteorologlarning kuzatishicha, tempratura, bosimining tez o'zgarishi xavfli atmosfera hodisalarining (dovul, shamol, tayfun, yirik do'l, to'satdan kuchli qor) ko'payishi qayt qilinmoqda.

Oxirgi bir necha yuz yillikda yer qari yillik faolligining oshib borishi kuzatib borilmoqda. Yer qimirlash tez va vayronagar bo'layapti. Suv osti yer qimirlashlari katta okean to'lqinlari sunamilarga olib kelmoqda. Masalan, 2004- yilda janubiy sharqiy Osiyodagi kuchli sunami 250 mingdan ko'p odamni halok qildi.

Har bir global muammo o'z xususiyatiga, shuningdek, o'z yechim usullariga ham egadir. Lekin shu ma'lumki, birorta global muammo bitta millat yoki davlatning harakati bilan hal bo'lmaydi. Shuning uchun ham, mamlakat va xalqlarning keng xalqaro hamkorligi va ularning harakatlarini muvofiqlashtirish kerak. Biroq, dunyo muammolari insoniyatdan yagona planetar hamjamiyatga siyosiy, iqtisodiy va madaniy integratsiyalashishni talab qilmoqda.

Ekologik muammolarni hal qilish butun kompleks choralarni ko'rishni talab qiladi. Ularning orasida eng muhimi atrof-muhitga odamlar munosabatining o'zgarishi, ishlab chiqarishda tozalovchi binolarning qurilishi, issiqlik elektrostansiyalarni almashtirish, atmosferaga uglekisliy gaz va freonlaming chiqishini qisqartirish, mintaqalarda tabiiy ekologik balansni saqlash va boshqalar.

Terorizm va **zo'ravonlik** muammosi ijtimoiy-madaniy ildizga ega. Biroq u nafaqat axloq-odob tamoyillariga, balki inson huquqiy ongiga ham tayanishi kerak. Ko'p xollarda terorizm-o'z dunyoqarashi, huquqi uchun jamiyatga qarshi kurashning ashaddiy usulidir.

Xalqlarning bir-birini tushinishda, qadriyat va an'analami hurmat qilishda madaniyatlararo muloqotni kengaytirish muhim ahamyatga ega. Jamiyatga qarshi, ijtimoiy xavfli guruhlarning kriminal sabablarga bog'liq terroristik faoliyati alohida muammo. Bu yerda hal qiluvchi so'z qonunchilik va huquqni himoya qiluvchi organlar tomonida bo'ladi. Shu bilan birga ularning terrorizmga qarshi kurashida huquqiy baholashning yagona standartini ishlab chiqishda xalqaro hamkorlik juda dolzarbdir. Bunday siyosat o'z mohiyatiga ko'ra xavfli bo'lib, jahon hamjamiyatiga terrorizmga qarshi hamjihat bo'lib kurashish imkoniyatini bermaydi.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo va Shimoliy Kavkaz respublikalari, Afg'oniston, Pokiston, Iroq, Liviya, Suriya, Mali, Misr kabi mamlakatlarda, Yaqin Sharq mintaqasida diniy-ekstremistik guruhlar o'z maqsadlariga erishish vositasi sifatida kuch ishlatishdan foydalanmoqda.

Mutaxassislar tomonidan terrorizm turli mezonlar bo'yicha tasniflanadi. Xususan, terrorchilik guruhlarini o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga ko'ra besh guruhga ajratish mumkin:

1. Millatchilik terrorizmi muayyan davlatdagi milliy ozchilikni tashkil etuvchi etnik guruhning siyosiy manfaatlarini himoya qilish shiori ostida amalga oshiriladi. Aksariyat holatlarda bosh g'oya sifatida separatizm, ya'ni amaldagi davlatdan ajralib chiqish g'oyasi ilgari suriladi. Ayrim holatlarda millatchilik terrorizmi mamlakatda ko'pchilikni tashkil etuvchi muayyan millat vakillari tomonidan milliy ozchilikka qarshi tashkil etiladi. Millatchi terrorchilik guruhlariga «Irlandiya respublikachilar armiyasi» (IRA, Shimoliy Irlandiya), «Basklar Vatani va ozodligi (ETA, Ispaniya), «Tamil Ilamni ozod etish yo'lbarslari» (Shri-Lanka) guruhlarini ko'rsatish mumkin.

2. So'l terrorizm kapitalistik tuzumni ag'darib tashlash g'oyasi ostida 1970-80-yillarda keng rivojlangan bo'lib, sotsialistik tuzum barbod bo'lgandan so'ng keskin susaygan. So'l terrorchilik tashkilotlariga «Qizil brigadalar» (Italiya), «Baader-Meynxof guruhi» (Germaniya), «Qizil Armiya» (Yaponiya), «Sendero Luminoso», «Tupak Amaru» (Peru) misol bo'ladi.

3. O'ng radikal terrorizm G'arb mamlakatlarida kuchayib borayotgan neofashistik kayfiyatni ifodalaydi. O'ng radikal terrorchilik tashkilotlari o'ta murosasiz irqchilik va millatchi-shovinistik g'oyalarini targ'ib qiladilar. Ular qatorida «Oriylar Millati» (AQSh) yoki Yevropada qator millatchi va fashistik guruhlarni birlashtiruvchi «Yangicha Yevropa tartibi», «Yevropa harakati» kabi uyushmalarni qayd etish mumkin. 2000-2006-yillarda Germaniyada faoliyat yuritayotgan «Milliy-sotsialistik podpole» neonatsistlar guruhi a'zolari tomonidan 8 nafar turk va 1 ta grek tadbirkori o'ldirilgan.[69] 2011-yilning 22-iyul kuni norvegiyalik millatchi, protestant fundamentalisti, «Muqaddas Pavel» mason jamiyati a'zosi Anders Beering Breyvik Oslo shahrida yasama bomba portlatishi va Utoyya orolidagi yoshlar lagerida dam olayotganlarni otib tashlashi oqibatida 77 kishi halok bo'lgan.[70]

4. Anarxistik terrorizm XIX asrning oxiri, XX asrning boshida asosan Rossiyada har qanday hokimiyatga qarshi kurash olib borilgan.

5. Diniy terrorizm jamiyatni muayyan din ta'limotiga majburan bo'ysundirish uchun ushbu maqsadga to'sqinlik qiluvchilar, deb hisoblanganlarga nisbatan kuch ishlatish bilan bog'liq. Bunday harakatni amalga oshirayotgan guruhlar mavjud diniy ta'limotlardan niqob sifatida foydalanmoqdalar.

Diniy-ekstremistik guruhlarni diniy, siyosiy, geografik omillar asosida turlicha tasniflash mumkin. Islom dunyosidagi diniy-ekstremistik guruhlarni tarixiy-geografik jihatdan shartli ravishda to'rt toifaga bo'lish mumkin:

- birinchi toifa: 1928 yili Misrda vujudga kelgan «Musulmon birodarlari» tashkiloti, uning turli mamlakatlarda tuzilgan bo'linmalari, shuningdek, ushbu tashkilotdan ajralib chiqqan, g'oyaviy jihatdan «Musulmon birodarlari»ni qo'llab-quvvatlovchi guruhlar, ularning xorijiy bo'linmalari. Ular qatorida «Al-jamoa al-islomiya», «al-Jihod», «At-takfir val-hijra», «Jundulloh» (barchasi Misrda), «Qurollangan

[69] Правоэкстремистский террор в Германии. Сайт «РОДОН». URL:http://rodon.jhu/plit-1112021100l3

[70] Сайт «Википедия». URL:http://ru.wikipedia.org/wiki/_ Брейвик, Андерс Беринг.

islom guruhi» (Jazoir), «Jumaymana al- Utaybiy» (Saudiya Arabistoni) va «Hizbut tahrir al-islomiy» tashkilotlarini ko'rsatish mumkin;

- ikkinchi toifa: Yaqin Sharqda arablarning Isroil bilan qarama-qarshiligi davomida yuzaga kelgan guruhlar: HAMAS (Harakat al-muqovama al- islomiya), «Islom jihodi» (Falastin), «Hizbulloh», «Amal» (Livan) va h.k.;

- uchinchi toifa: musulmon dunyosida Afg'onistonda 1970-yillarning oxiridan buyon davom etib kelayotgan qurolli mojarolarda bevosita ishtirok etish yoki moliyaviy yordam, qurol-yarog', jangarilar yetkazib berish asnosida yuzaga kelgan guruhlar bo'lib, aksariyati Afg'oniston va Pokistonda tuzilgan: «Harakat ul-Mujohidin», Tolibon harakati, «Al-Qoida», «Hizbi islomiya», «Lashkar-ye-Toiba» va h.k.

- to'rtinchi toifa: «sovuq urush» barham topib, o'z homiylari va «dolzarbligini»ni yo'qotgan «Al-Qoida» yetakchiligida global qurolli jihod g'oyasi ostida tuzilgan «Salibiylar va yahudiylarga qarshi yagona islom fronti» uyushmasi, diniy-siyosiy mafkura jihatidan «Al-Qoida» tashkilotiga bevosita bo'ysungan yoki g'oyaviy ergashgan diniy-ekstremistik guruhlar hamda sho'rolar tuzumi parchalanib ketgandan so'ng MDH hududida vujudga kelgan diniy-ekstremistik guruhlar. Ular qatorida «Iroq va Shom islom davlati» (avvalgi nomi - «Al-Qoidaning Iroq bo'linmasi» (Iroq), «Al-Qoidaning islom Mag'ribidagi tashkiloti» (Jazoir), «Al-Qoidaning Indoneziya tashkiloti» (Indoneziya), «Arabiston yarim orolidagi Al-Qoida» (Yaman), «Ash-Shabab» (Somali), «Ansor ash-sharia» (Liviya), «Jabat al-nusra» (Suriya), «Sharqiy Turkiston islom harakati (Shinjon-uyg'ur avtonom rayoni), «Imarat Kavkaz», «Kavkaz mujohidlari uyushmasining oliy harbiy sho'rosi», «Ichkeriya va Dog'iston xalqlari kongressi», «Yarmuq», «Jannat» (Rossiya), «Turkiston islom harakati», «Islom jihodi ittihodi», «Bay'at», «Jayshul Mahdiy», «Jundul Xalifat» (Markaziy Osiyo) va hokazolarni ko'rsatish mumkin.

Milliylikning yo'qolib borayotgani ijtimoiy sohada sodir bo'layotgan yagona destruktiv(buzg'unchi) jarayon emas, albatta. Shuning bilan bir qatorda zamonaviy jamiyatda ***ijtimoiy tengsizlikning*** kuchayib borayotgani destruktiv rol o'ynamoqda. Sirasini aytganda, kishilik jamiyati taraqqiyotining biror bir bosqichida tabaqalar o'rtasida ijtimoiy tenglik hukm surgani yo'q. Barcha davrlarda jamiyat a'zolarining bir guruhi mavjud ijtimoiy ne'matlardan maqbulroq foydalanish imkoniga ega bo'lgan bo'lsa, boshqa guruh bu borada

cheklangan imkoniyatlarga ega bo‘lgan. Tarixiy taraqqiyot mobaynida turli mamlakatlarda yuzaga kelib turgan ixtilof, kelishmovchilik, inqilob, qo‘zg‘olonlarning tub sabablaridan biri ham ana shu tengsizlikka borib taqaladi. Shu boisdan mutafakkirlar ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni saqlash uchun ijtimoiy tenglikni ta’minlash yoki loaqal tengsizlikning shiddatli tus olishiga yo‘l qo‘ymaslik zarurligini mudom ta’kidlab kelganlar. Bu ta’kidlarga bir qadar quloq tutilgan davrlarda imkoniyatlari cheklangan jamiyat a’zolariga yordam ko‘rsatish, ularni qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rilgan. Biroq, shunga qaramasdan, ijtimoiy tengsizlik muammosi nafaqat bartaraf etilmadi, balki XXI arafasiga kelib ijtimoiy barqarorlikka jiddiy tahdid solayotgan hamda taraqqiyot sur’atlarini sezilarli ravishda sekinlashtirayotgan destruktiv omilga aylandi.

Ma’lumotlarga qaraganda, bugungi kunda jahon aholisining 1 foizi qolgan 99 foizidan ko‘proq mulk va daromadga ega. Xususan, jahonning eng boy kishilaridan biri bo‘lgan Ilon Maskning mol-dunyosi 203,4 mlrd. dollarga baholanmoqda. Unga tegishli bo‘lgan Tesla kompaniyasi jahon bozorida 125 mlrd. dollarga, Space X kompaniyasi 31 mlrd. dollarga narxlanmoqda. Bundan tashqari, Business In-sider yangiliklar portalining ma’lum qilishicha, uning Bel- Eyr va Shimoliy Kaliforniyada 22,3 mln. dollarlik saroyi, 7,8 mln. dollarlik ranchosi, 20 million dollarlik olti yotoqxonali uyi, 4,9 mln. dollarlik to‘rt yotoq- xonali uyi, 27,3 mln. dollarlik olti yotoqxonali uyi, 4,2 mln. dollarlik uyi, 27,2 mln. dollarlik saroyi bor. Ayni paytda jahonda 1,4 milliard-dan ortiq kishi qashshoqlikda umr kechiradi. Ularning kunlik daromadi Jahon Banki tomonidan kambag‘allik me’yori sifatida belgilangan 1,9 dollardan ortmaydi. Afsuslanarli yana bir tomoni shundaki, vaqt o‘tgani sayin sayyoraning boy kishilari daromadi muttasil oshib, kambag‘al kishilarning daromadi esa muttasil kamayib bormoqda. Buning natijasida 8 milliardlik jahon aholisining bir foizi – qariyb 80 million kishi hashamatli dargohlarda istiqomat qilayotgan, ijtimoiy ne’matlardan haddan ziyod foydalanayotgan bir sharoitda, 1,5 milliard kishi o‘zini oddiy boshpana, ichimlik suvi, eng zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh, ta’lim olish va sog‘lig‘ini saqlash imkoniyatlari bilan ta’minlay olmayapti. Bunday holat, birinchidan, ijtimoiy guruh va sinflar manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni buzmoqda. Ikkinchidan, tengsizlik barcha jamiyatlarda ijtimoiy tuzumdan norozi kishilar, jinoyatlar, tartibbuzarliklar sonining oshishiga olib kelmoqda.

Ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi ***oila instituti inqiroziga*** yo‘l ochdi. Buning turkum sabablari mavjud. Ma’lumki, “...oila qurishning ilk motivi insonning ierarxik, jinsiy va o‘z-o‘zini asrash instinktlariga asoslangan shaxsiy ehtiyojlari bilan bog‘liq”. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, inson muayyan ehtiyojlarini qondirish uchungina oila quradi. Ehtiyojlar tizimidagi har qanday yangilanish, evrilish uning oilaga munosabatini ham tubdan o‘zgartiradi. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi – boylarning yanada boyishi, kambag‘allarning yanada kambag‘allashishi - ana shu mexanizmning harakatga kelishiga turtki berib yubordi va oila institutining inqiroziga olib keldi.

Ijtimoiy ne’matlardan foydalanish borasida beqiyos imkoniyatlarga ega bo‘lib borayotgan kishilarning oilaga muhtojligi qolmayapti. U o‘z fiziologik, maishiy, jinsiy, ma’naviy ehtiyojlarini taqdim etilayotgan ijtimoiy xizmatlardan foydalangan holda qondira oladi. Oilaning yo‘qligi uning shaxsiy ozodligi va to‘plagan mol-dunyosiga rahna solmaydi, oila a’zolari uchun mas’uliyatni zimmasidan soqit qiladi. Shu boisdan boylar orasida oila qurishga moyil bo‘lmagan yoki ajrashgan kishilar soni ortmoqda. Masalan, 11,2 mlrd. dollarlik mol-dunyoga ega bo‘lgan “Brooklyn Nets” basketbol klubi egasi M. Proxorov, 3,4 mlrd. dollarlik mol-dunyoga ega bo‘lgan “Vkontakte” ijtimoiy tarmog‘i egasi P. Durov, 3,3 mlrd. dollarlik mol-dunyoga ega bo‘lgan “Sheremetevo” xalqaro aeroporti egalaridan biri A.Skorobogatko hanuzga qadar bo‘ydoq bo‘lsa, 13 mlrd. dollarlik mol-dunyoga ega bo‘lgan “Alfa-Grupp” va “Letter One” egasi M.Fridman, 11,3 mlrd. dollarlik mol-dunyoga ega bo‘lgan “Millhouse” investkompaniyasi egasi R.Abramovich, 6,6 mlrd. dollarlik mol-dunyoga ega bo‘lgan “Uralkaliy” egasi D. Ribolovlev umr yo‘ldoshlari bilan ajrashishni ma’qul ko‘rdilar.

Kambag‘allikda umr kechirayotgan kishilarga keladigan bo‘lsak, ularning oila qurishga ehtiyojlari katta. Lekin, biz yuqorida aytib o‘tganimizdek, oila nafaqat shaxsiy ehtiyojlarni qondirish imkonini beradigan institut, balki uning a’zolari oldidagi mas’uliyat ham demakdir. Mas’uliyat esa oila a’zolarining munosib turmushini ta’minlash, ko‘plab maishiy mummolarni hal qilish, farzandlarni voyaga yetkazish, ularning kelajagi uchun muayyan investitsiyalar qilishni taqozo etadi. Kambag‘allik yoki moddiy yetishmovchilik esa mazkur funksiyalarni to‘laqonli qondirishga xalal beradi. Shu boisdan, o‘rtahol kishilar, ayniqsa kambag‘allar orasida ma’lum muddat oila qurishdan

o‘zini tiyayotgan kishilar soni ko‘paymoqda. Oqibatda, dunyo bo‘ylab nikohlar soni kamaymoqda. Masalan, bugungi kunda Shveysariyada har 1000 kishidan atigi 4,8 tasi, Gresiyada – 4,7 tasi, Buyuk Britaniyada – 4,4 tasi, Norve-giyada – 4,4 tasi, Bolgariyada – 4 tasi, Belgiya – 3,9 tasi, Niderlandiyada – 3,8 tasi, Ispaniyada – 3,78 tasi, Fransiyada – 3,5 tasi, Italiyada – 3,2 tasi oila qurishga qaror qilmoqda.

Oila instituti inqirozi bugungi zamona kishisini ***yolg‘izlik*** girdobiga uloqtirdi. Zamonaviy jamiyatda oilaning yo‘qligi boyni ham, kambag‘alni ham kommunikativ izolyatsiya girdobiga tashlamoqda. Aynan shu sababga ko‘ra, barcha mamlakatlarda yolg‘iz kishilar soni ko‘payib borayotgani ko‘zga tashlana-di. Mazkur muammo rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, dolzarblashmoqda. Xususan, AQShda 1970-yillarda fuqarolarning 17 foizi yolg‘izlikda yashagan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ularning soni 25 foizga yetdi. Ular turkumiga nafaqat hayot taqozosi bilan yolg‘iz qolgan kimsalar, balki o‘z ixtiyori bilan izolyatsiyada yashayotgan kishilar ham kiradi. Italiyada jamiyat a’zolarining 27 foizi yolg‘izlikda umr kechirmoqda. Mamlakatning shimoliy mintaqalari-da vaziyat ayniqsa tashvishlanarli: bu hududda aholining qariyb yarmi yolg‘izlikda yashaydi. Yaponiyada fuqarolarning 30 foizi o‘z oilasiga ega emas. Mamlakatda yolg‘izlik fenomenining turli jihatlari “xikimori” (muloqotdan voz kechish) va “kodokusi” (yolg‘iz o‘lim) tushunchalari yordamida ifodalanadi. O‘z umrini yolg‘izlikda yakunlayotgan qariyalar soni 5 milliondan oshib ketdi. Buyuk Britaniyada aholining 35 foizi yolg‘izlikda yashaydi. Bugungi kelib, 75 yoshdan oshgan mamlakat fuqarolarining yarmidan ko‘pi har qanday muloqotdan benasib qolmoqda. Vaziyat shu qadar jiddiy tus oldiki, hukumat mazkur masalalar shug‘ullanadigan maxsus vazirlik tashkil qilishga majbur bo‘ldi. Shvetsiyada esa yolg‘izlik muammosi misli ko‘rilmagan miqyosga yetdi: Yevropa statistik tashkilotlari jamlagan ma’lumotlarga qaraganda, mamlakatda aholining 50 foizi yolg‘izlikda yashaydi.

Yolg‘izlik muammosini tizimli ravishda hal qilishga intilayotgan mam- lakatlarda budjetdan ushbu maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘ miqdori barqaror o‘sib bormoqda. Bundan tashqari, bu mamlakatlarda kishilarni yol- g‘izlikdan qutqarishga mo‘ljallangan turfa xizmatlar tashkil qilinmoqda. Ularning ayrimlari o‘zining nihoyatda noodatiyligi bilan e’tiborni tortadi. Masalan, AQShda 1987 yildan buyon er, xotin, hatto butun boshli oilani ijaraga berib turuvchi agentliklar (therentawife

sayti) faoliyat ko‘rsatdi. Portlenddagi “Cuddle Up To Me” do‘konida 60 dollar evaziga yolg‘izlarni quchoqlab qo‘yishadi. Avstriyada buvilarni ijaraga berib turuvchi “Ijaraga buvi” kompaniyasi ish olib bormoqda. Gollandiyada “Eenmaal” nomli yolg‘izlar kafesi ish olib boradi. Fransiyada “adopteunmec” tanishuvlar sayti tashabbusi bilan yolg‘iz erkaklarni sotuvchi do‘kon ochilgan. Xitoyda “Tao-bao” veb- servisi yolg‘izlarning dardini eshitish xizmatini ko‘rsatmoqda. Bunday choralardan qat’iy nazar barcha mamlakatlarda yolg‘izlar soni muttasil ko‘payib bormoqda, yolg‘izlik esa ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlik-ka, milliy yaxlitlikka rahna soluvchi destruktiv omil sifatida qolmoqda. Buning ustiga, aksariyat hollarda narkomaniya, taksikomaniya, ichkilikbozlik, fohishabozlik kabi ijtimoiy illatlar, turli jinoyatlar ham yolg‘izlikdan ildiz olmoqda.

Demografik muammolarning mohiyati planetaning ba’zi bir mintaqalari va mamlakatlarida (Xitoy, Hindiston, Janubiy Amerika) aholining yuqori sur’atda ko‘payishida namoyon bo‘lmoqda. Evropa, Shimoliy Amerika, Rossiyada tug‘ilish kamaysa ham yer yuzi aholisining umumiy miqdori tezlik bilan o‘sib bormoqda. Bu nima bilan xavf tug‘diradi? Ba’zi bir tahlilchilar yer cheklangan odamlar miqdorini boqishga qodir deb faraz qiladi. Ba’zilar 10 milliarddan oshsa muvozanat buziladi deydi. Agar shunday o‘sish sur’ati saqlansa, 7 mlrdlik sivilizatsiya bir nechta o‘n yillikda unga etishi mumkin.

Oila instituti inqirozining chuqurlashishi, yolg‘izlikning umumbasha-riy muammoga aylanishi yana bir destruktiv jarayon – *umumjahon demografik disbalansiga* yo‘l ochib berdi. Bugungi kunda jahonning turli mintaqadagi demografik vaziyat bir-biridan tubdan farq qiladi. Xususan, G‘arb mamlakatlarida oila instituti inqirozi, yolg‘izlikda yashashni ma’qul ko‘ruvchi kishilarning ko‘payishi tug‘ilish ko‘rsatkichlarining pasayishiga sabab bo‘ldi. Masalan, 2020 yilda tug‘ilish koeffitsienti Shvetsiyada 1000 kishiga atigi 12,1 tani, Fransiya va Buyuk Britaniyada - 11,9 tani, Belgiyada – 11,1 tani, Ispaniyada – 8,7 tani, Germaniyada – 8,6 tani, Italiyada – 8,4 tani tashkil etdi. Tug‘ilish ko‘rsatkichlarining pastligi, bir tomondan, demografik o‘sish sur’atlarini sekinlashtirdi.

Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti taqdim qilgan ma’lumotlarga qaraganda, ko‘rsatilgan yilda Shvetsiyada aholi soni 0,67 foizga, Fransiyada – 0,25 foizga, Buyuk Britaniya-da – 0,61 foizga, Belgiyada – 0,53 foizga, Ispaniyada – 0,04 foizga, Germaniyada – 0,48

foizga oshgan, xolos. Aksincha, Italiyada aholi soni 0,04 foizga kamayib ketgan. Ikkinchi tomondan, tug'ilish ko'rsatkichlarining pastligi G'arb mamla-katlari aholisi tarkibida yoshlar sonining kamayishiga, keksalar sonining esa ko'payishiga olib keldi. Buni biz tilga olgan mamlakatlar aholisining yosh tarkibi misolida ko'rib chiqsak:

№	Davlatlar	*0-14 yosh*	*15-24 yosh*	*25-54 yosh*	*55-64 yosh*	*65 dan yuqori yosh*
1	Shvetsiya	17,7	10,8	39,0	11,9	20,6
2	Fransiya	18,3	11,9	36,8	12,5	20,5
3	Buyuk Britaniya	17,6	11,5	39,7	12,7	18,5
4	Belgiya	17,2	11,2	39,2	13,2	19,2
5	Ispaniya	15,0	10,0	43,5	13,0	18,5
6	Germaniya	12,9	9,8	38,6	15,7	23,0
7	Italiya	13,4	9,6	40,9	14,0	22,1

Ayni paytda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida kam- bag'allik, ma'rifatsizlik, oila a'zolari taqdiriga mas'uliyatsizlik, o'zini yolg'izlikdan sug'urta qilishga bo'lgan intilish mutlaqo o'zgacha demografik vaziyatni yuzaga keltirmoqda. Deyarli barcha statistik tahlillarda bu mintaqalarda tug'ilish ko'rsatkichlarining yuqoriligi qayd qilinadi. Jumladan, 2020 yilda Nigeriyada tug'ilish koeffitsienti 1000 kishiga 47,5 tani, Angolada – 42,7 tani, Ugandada – 42,3 tani, Malida – 42,2 tani, Beninda – 42,1 tani, Chadda – 41,7 tani, Kongo Demokratik Respublikasida – 41,0 tani, Zambiyada – 40,4 tani, Malavida – 40,1 tani, Janubiy Sudanda – 38,8 tani tashkil etdi. To'g'ri, mazkur mamlakatlarda o'lim koeffitsientlari ham kattaligi bilan tavsiflanadi, lekin tug'ilish ko'rsatkichlarining haddan ziyod kattaligi aholi o'sishining yuqori sur'atlarini saqlab qolmoqda. Xususan, Nigeriyada aholi o'sish sur'atlari 3,82 foizni, Angolada – 3,29 foizni, Ugandada – 3,59 foizni, Malida – 2,99 foizni, Beninda – 2,73 foizni, Chadda – 3,04 foizni, Kongo Demokratik Respublikasida
– 3,22 foizni, Zambiyada – 2,93 foizni, Malavida – 2,66 foizni, Janubiy Sudanda
– 0,87 foizni tashkil qilmoqda.

Tabiiyki, tug'ilish ko'rsatkichlarining haddan ziyod balandligi Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi aholi tarkibiga salmoqli ta'sir o'tkazmoqda. Xususan, bugungi kunda Nigeriyada 24 yoshgacha bo'lgan bolalar, o'smirlar va yoshlar aholining 70,5 foiziga,

Angolada – 66,5 foiziga, Ugandada –68,5 foiziga, Malida – 66,7 foiziga, Beninda – 65,9 foiziga, Chadda 67,1 foiziga, Kongo Demokratik Respublikasida – 65,8 foiziga, Zambiyada – 65,7 foiziga, Malavida – 66,4 foiziga, Janubiy Sudanda –62,8 foiziga teng.

Demografik disbalans jiddiy oqibatlarga olib kelayapti. U, avvalo, jahon hamjamiyatining bir maromda, barqaror rivojiga to'sqinlik qilayapti. Demografik vaziyatdagi muvozanatning buzilishi mintaqalar turmush darajasidagi tafovutni kengaytirib yuborayapti. Xususan, G'arbda farovonlik va to'kin-sochinlik misli ko'rilmagan me'yorlarga yetgan bir vaziyatda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ko'plab mamlakatlarida ochlik hukm surmoqda. BMT Umumjahon Oziq-ovqat dasturi rahbari taqdim qilgan ma'lumotlarga qaraganda, 2021-yilda bu mintaqalarda ochlikdan iztirob chekayotgan kishilar soni 828 milliondan oshib ketdi. Shuningdek, demografik disbalans turli mintaqa vakillarining ta'lim olish va sog'lig'ini tiklashdagi imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutni ham kengaytirib yuborayapti.

Shuning bilan bir qatorda, demografik disbalans boshqa destruktiv jarayonlarning avj olishiga zamin yaratmoqda. Jumladan, mintaqalardagi demografik muvozanatning buzilishi *ish o'rinlaridagi nomutanosiblikni* vujudga keltirdi. Bir tomondan, G'arb mamlakatlarida mehnatga layoqatli aholi soni qisqarib borayotgan bir sharoitda ish o'rinlari soni kattaligicha qolayapti. Masalan, Germaniyada 2015-yilda mehnatga layoqatli kishilar aholining 57,9 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilga kelib bu ko'rsatkich tug'ilish koeffitsientining pasayishi va aholining qarishi evaziga 57,6 foizga qadar qisqargan. Shuningdek, Fransiyada bu ko'rsatkich 49,8 foizdan 49,3 foizga, Italiyada – 42,6 foizdan 42,5 foizga tushdi. Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham shunday tendensiya ko'zga tashlanadi. Buning ustiga, vaqt o'tgani sayin bu pasayish borgan sari jadallashmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti yaqin kelajakda bu ko'rsatkichning keskin pasayishini va 2050 yilga borib, jahondagi mehnatga layoqatli aholining 7 foizini tashkil etishini bashorat qilmoqda. Natijada Yevropa mamlakatlarida turli iqtisodiyot tarmoqlarida ishchi kuchi tanqisligi vujudga kelmoqda. Birgina Shvesiyaning akkumulatorlar ishlab chiqaruvchi "Northvolt AB" kompaniyasi 3000 dan ortiq ishchiga ehtiyoj sezmoqda. Maxsus malaka talab qilmaydigan sohalarda esa bu tanqislik ayniqsa kattaligicha qolmoqda.

Ikkinchi tomondan esa, Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarida mehnatga layoqatli kishilar soni oshayotgan bir vaziyatda ish o'rinlari yetmayapti. Bu mintaqada bugunning o'zidayoq mehnatga layoqatli kishilar aholining salmoqli qismini tashkil etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining ma'ruzasida ta'kidlanishicha, yaqin kelajakda mehnatga layoqatli aholi sonining Afrikada 653 million kishiga, Osiyoda 440 million kishiga ko'payishi kutilmoqda. Vaholanki, mintaqa iqtisodiy salohiyati mehnatga layoqatli kishilarning barchasini ish o'rinlari bilan ta'minlash imkonini bermayapti. Oqibatda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining aksariyat mamlakatlarida ishsizlik darajasi oshib ketmoqda. Ayrim mamlakatlarda bu ko'rsatkich milliy xavfsizlikka tahdid soladigan darajaga yetdi. Masalan, Angolada ishsizlik darajasi 32,9 foizni, Nigeriyada – 33,3 foizni, Namibiyada – 33,4 foizni, Janubiy Afrika Respublikasida – 34,5 foizni tashkil qilmoqda. Ish o'rinlarining yetishmasligi, ishsizlik mintaqa-da istiqomat qilayotgan ko'plab kishilarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, ularning tushkunlikka tushib qolishlariga sabab bo'lmoqda. Ishsizlik, shuningdek, kishilar kasbiy malakasini tushirib yubormoqda, ichkilikbozlik, narkomaniya kabi ijtimoiy illatlarning ildiz otishiga, jinoyatchilik darajasining oshishiga olib kelmoqda.

Ish o'rinlaridagi bunday nomutanosiblik *mehnat migratsiyasini* o'ta jadallashtirib yubordi. Kishilarning turli sabablarga ko'ra bir hududdan boshqasiga ko'chib o'tishi barcha davrlarga xos bo'lgan tendensiyadir. Masalan, Iroq, Suriya, Afg'oniston va Ukrainadagi harbiy harakatlar millionlab jafokashlarni yurtni tark etishga majbur qildi. Myanmadagi ijtimoiy ixtiloflar roxinjalarning Bangladeshga qochishiga sabab bo'ldi. Mozambik va Filippinda yuz bergan keskin iqlim o'zgarishlari mahalliy aholining ma'lum qismini bexavotirroq hududlarga yetakladi.

Biroq migratsiyaning bu ko'rinishlari tendensiyaviy xarakterga ega emas, chunki ular muayyan hududda ijtimoiy keskin vaziyatlar yuz berganidagina sodir bo'lib turadi. Ulardan farqli o'laroq, mehnat migratsiyasi tendensiyaviy xarakterga ega va tobora intensiv tus olib borayapti. Jumladan, 2017 yilga kelib, o'zga yurtlarda istiqomat qilayotgan migrantlarning umu-miy soni 272 milliondan oshib ketdi. Ularning qariyb uchdan ikki qismi mehnat migrantlaridir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan tayyorlangan migratsiya haqidagi ma'ruzada keltirilishicha, mehnat migrantlarining 96 millionini

mehnatga layoqatli yoshdagi erkaklar, 68 millionini esa shu yoshdagi ayollar tashkil etadi. Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarida munosib ish topishning uddasidan chiqmagan, shu sababli o'z kunda-lik ehtiyojlarini qondirishga ojizlik qilgan millionlab kishilar jahonning yetakchi mamlakatlariga ish ilinjida yo'l olmoqda.

E'tiborli jihati shundaki, keyingi yillarda Yevropa Ittifoqi va AQShda iqtisodiyotning jadal modernizatsiyalashayotgani va raqamlashayotgani tufayli malakali va iqtidorli mutaxassislarga talab oshib bormoqda. Bu esa rivojlanayotgan mamlakatlarga taalluqli bo'lgan salmoqli iqtisodiy salohiyat, mehnat resurslarining rivojlangan mamlakatlarga oqib o'tishiga olib kelmoqda. Oqibatda shundoq ham iqtisodiy taraqqiyotga muhtoj Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojlanishni ta'minlashga qodir bo'lgan mehnat resurslarisiz qolmoqda.

Mehnat migratsiyasi migrantlarni qabul qilib olgan mamlakatlarda ham jiddiy muammolarni vujudga keltirayapti. Ma'lumotlarga qaraganda, 2017-yilga kelib, migrantlar Fransiya aholisining 12,2 foizini, Buyuk Britaniya aholisining 13,4 foizini, Germaniya aholisining 14,8 foizini, AQSh aholisining 15,3 foizini, Kanada aholisining 21,5 foizini, Avstraliya aholisining 28,8 foizini, Saudiya Arabistoni aholisining 37 foizini, Birlashgan Arab Amirligi aholisining 88,4 foizini tashkil etdi. Jamiyatda migrantlar ulushining ortishi bu mamlakatlarda jiddiy ijti-moiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy o'zgarishlarga, xususan, davlat budjeti xarajatlarining oshishiga, iqtisodiy munosbatlar tansformatsiyasiga, marginal kishilarning ko'payishiga, jinoyatchilik darajasining o'sishiga, madaniyatlar to'qnashuviga olib kelmoqda. Shunga asoslanib, mehnat migratsiyasini ham qisman zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy- destruktiv jarayonlar turkumiga kiritish mumkin.

Jinoyatchilik. Afsuski, global dunyo nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki jinoyatchilikning soni oshib borishi bilan ham namoyon bo'lib bormoqda. Jinoyatchilik ko'lamining kengayib borishi har qanday jamiyat ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy barqarorligining jiddiy kushandasi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, jinoyatchilik axloqsizlikning bir ko'rinishi ham hisoblanadi, diniy normalar (xususan, islom dinidagi shariat qoidalari) ham jinoyatchilikka qarshi kurashadi. Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashishda asosiy e'tiborni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga ko'proq qaratish sermahsul natija beradi.

Agarda faqat jazolash yo'li to'g'ri vosita bo'lganida edi, musulmonlar istiqomat qiladigan hududlarda shariat ahkomlari asosida chiqarilgan hukmlar jinoyatchilikni allaqachon butkul barham topishiga jiddiy turtki bergan bo'lardi.

Globallashuv davrida avj olayotgan yana bir illat ***ichkilikbozlik*** (alkogolizm) hisoblanadi. Ushbu illat insoniyatga qadim davrdan beri ma'lum va u hamisha boshqa turdagi barcha axloqsizlik shakllarini keltirib chiqargan. Azaldan insonlar mast qiluvchi ichimliklarni tayyorlash tajribalariga ega bo'lganlar. Ilgari bunday ichimliklar juda qimmat narxda bo'lib, ularni asosan o'ziga to'q kishilar iste'mol qilishgan. Har bir davr va jamiyat azaldan ichkilikbozlikka qarshi kurashib kelgan. Chunki, bu illat xalq uchun moddiy va ma'naviy zarar manbai bo'lgan. Shuningdek, alkogol iste'moli ayrim xalqlarning diniy rasm-rusumlari va dafn marosimlarining ajralmas qismi bo'lgani bizga tarixiy manbalardan yaxshi ma'lum.

Hozirgi kunda alkogol ichimliklarini iste'mol qilish hodisasi dunyoviy jamiyatlar hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Ko'pgina rasmiy marosimlar, ijtimoiy rasm-rusumlar, bayramlar, korporativ tarzda hordiq chiqarishlar bevosita alkogol iste'moli bilan mustahkam bog'liqligini kuzatish mumkin. Lekin bu salbiy ijtimoiy hodisa jamiyat a'zolariga juda qimmatga tushayapti. Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, aksariyat holda mayda bezorilik, jiddiy jinoyatlarni sodir etilishi va oilalarni barbod bo'lishida spirtli ichimliklarni iste'mol qilish omili asosiy sabab bo'lar ekan. Islomiy manbalarda bejizga ichkilikbozlik – gunohlarning onasi deyilmagan. Alkogolga qarshi kurashishning eng sermahsul vositasi bu – ta'lim va tarbiya omilidir. Bunda islom qadriyatlari ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Islom dini kishilarga mast qiluvchi barcha ichimlik va boshqa moddalarni iste'mol qilishni keskin tarzda ta'qiqlagan. Islom arkonlariga muvofiq "xamir", ya'ni mast qiluvchi barcha vositalar kishini nafaqat bu dunyoda, balki oxiratda ham xor bo'lishiga olibkelishi Qur'oni Karim oyatlari va hadislarda batafsil bayon qilingan. Xususan, Qur'oni Karimning quyidagi oyati oxirgi hukm sifatida ichkilikni qat'iy tarzda harom qilgan, ya'ni: «Ey mo'minlar, aroq (mast qiladigan ichkilik ichish), qimor (o'ynash), butlar (ya'ni ularga sig'inish) va cho'plar (ya'ni, cho'plar bilan folbinlik qilish) shayton amalidan bo'lgan harom ishdir. Bas, najot topishingiz uchun ularning har biridan uzoq bo'lingiz! Ichkilik, qimor sababli

shayton o'rtalaringizga bug'zu adovat solishini hamda sizlarni Allohni zikr qilishdan va namoz o'qishdan to'sishni istaydi, xolos! Endi to'xtarsizlar!» («Moida» surasi, 90, 91-oyatlar).[71]

Global dunyodagi zararli illatlardan biri ***giyohvandlik*** hisoblanadi. Afsuski, ushbu illat ham dunyo bo'ylab keng tarqalib bormoqda. Hozirda u G'arb jamiyatida "ommaviy madaniyat"ning norasmiy elementiga aylandi. Hatto, ayrim mamlakatlardagi dorixonalarda giyohvandlikka ro'para bo'lgan fuqarolarga marixuana erkin tarzda sotilmoqda. Masalan, Gollandiya va AQShning ba'zi shtatlarida bunday holatlarni kuzatish mumkin. Islom dinida giyohvandlik ham mast qiluvchi mahsulot sifatida qoralanadi. Xususan, "mastlik beruvchi har qanday narsa sharob hukmidadir. Mast qiluvchi narsaning ko'pi ham, ozi ham haromdir", degan hadis mavjud. Demak, islom dini nafaqat bunday moddalarni iste'mol qilishni, balki ularni yetishtirish va tarqatishni yana ham jiddiy tarzda ta'qiqlaydi.

Yana bir deviant xulq-atvor ko'rinishlaridan biri – ***suitsid*** ya'ni o'z joniga suiqasd qilishdir. Suitsid hodisasiga nisbatan turli zamon va makon hamda madaniyatlarda o'ziga xos munosabatlar shakllangan. Aksariyat jamiyatlarda bu hodisa g'ayri insoniy odat va og'ir gunoh sifatida qat'iy qoralangan. Xristianlikda ham, islom dinida ham muammoga nisbatan shunday munosabatni ko'rish mumkin. Biroq, ayrim davrlar va mamlakatlarda nafaqat uni amalga oshirishga ruxsat berilgan, hatto bu majburiy milliy-diniy rasm-rusum ham hisoblangan. Bunga Hindistonda beva ayollarni turmush o'rtoqlari vafoti tufayli tiriklayin yoqib yuborilishiga majbur qilinishi, yoki Yaponiyada samuraylarning dushman qo'liga tiriklayin tushmaslik uchun o'z joniga qasd qilishini misol tariqasida keltirish mumkin.

Bizning yurtda bunday og'ishma xulq-atvor azaldan keskin tarzda inkor etilib kelingan. Chunki diniy va milliy urf-odatlarimizning tamoyillari odam tabarruk zot ekanligi va o'zini nobud qilish esa nafaqat o'zi, balki yaqinlari va hatto millati hamda islom diniga qilingan ulkan zarar sifatida murosasiz qoralanadi

Bugungi kunda global muammoga aylanib boryotgan yana bir "qadimiy illat" ***prostitutsiya*** ya'ni fohishabozlik hisoblanadi. Ushbu atama lotincha "prostituere" so'zidan olingan bo'lib, bevosita "o'zini namoyishkorona taklif qilmoq" ma'nosini anglatadi.

[71] Alouddin Mansur "Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri". Toshkent-2007. 123 b.

Odatda prostitutsiya sifatida ma'lum bir mablag' evaziga benikoh jinsiy aloqa xizmatini ko'rsatish tushuniladi. Bugungi kunda fohishabozlik Yevropaning 8 mamlakatida (Gollandiya, Germaniya, Avstriya, Shvetsariya, Turkiya, Gretsiya, Vengriya va Latviya) to'liq qonuniylashtirilganligi G'arbning axloqiy tanazzulini ko'rsatib beradi. Amerika psixiatorlari assotsiatsiyasi bergan ma'lumotlarga ko'ra, elektron savdoning 20 foizi pornografiyaga aloqador bo'lib, o'zini "seks-eddikts", deb atovchi 2 million kishi har kuni bir necha soatlab vaqtini shunga sarflaydi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, elektron pornografiya reklama uchun eng kam mehnat va mablag' sarflab, katta foyda beruvchi soha hisoblanadi. Yangi elektron bozorning 70 foizini pornografiya, 4 foizini video o'yinlari, 2 foizini esa sport tashkil etmoqda. G'arb mamlakatlaridagi ko'plab korxona va tashkilotlarda xodimlarning ish vaqtida personal kompyuterlar orqali pornosaytlarga kirishi, bu bilan mehnat unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi odatiy holga aylanib qolmoqda. Yuksak ma'naviyat, hamjihatlik, bir so'z bilan aytganda, milliy mafkuramiz egotsentrizm kabi illatlardan qutulishning yagona yo'li bo'lib qoldi.

Axloqiy buzuqlikning bu kabi ko'rinishi xristianlikda ham, islom dinida ham keskin va jiddiy qoralanadi. Tarixda islom huquqida zino uchun hattoki o'lim jazosi ham qo'llangan. Axloqiy buzuqlik eng tuban faoliyat bo'lib, u «erkin muhabbat»dan asta-sekin «bir jinslilar o'rtasida nikoh tuzish»gacha bo'lgan bosqichlarga ko'tariladi va yoshlarni ma'naviy, axloqiy-estetik jihatdan aynitib, minglab yillardan buyon ardoqlanib kelinayotgan muqaddas muhabbat an'anasi o'rniga zinokorlikni taqdim qiladi.

Bugungi global axloqiy buzuqlikning eng jirkanch ko'rinishi – ***gomoseksualizm***, ya'ni o'z biologik jinsiga mansub kishi bilan jinsiy munosabatga kirishish ham G'arb mamlakatlarida ko'payib bormoqda.

Jamiyat a'zolarining aksariyat qismini bu toifa kishilarning g'ayriinsoniy xulq- atvoriga o'ta liberal va beparvo munosabatda bo'lishi dunyoning ayrim rivojlangan mamlakatlarida oxir-oqibat yanada ham jirkanch ahvol – bir jinsli nikohlarning rasmiy jihatdan ruxsat etilishiga olib keldi. Bugungi kunda dunyoning 23 mamlakatida to'liq, Buyuk Britaniyaning katta qismida va Meksikaning ba'zi shtatlarida bir jinsli nikoh qonuniylashtirilgan.

To'g'ri, Sharq mamlakatlari hayotida ham bunday behayolik uchragan va uchramoqda. Gomoseksual munosabatlar an'anaviy yahudiylik, xristianlik va islomda og'ir gunohlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Lekin afsuski bugungi kunga kelib ba'zi nasroniy cherkovlari va yahudiy jamoalarida gomoseksualizmga nisbatan neytral munosabat shakllanmoqda.

Xususan, XX asr vabosi sifatida ta'riflanayotgan OITS (SPID) aynan narkomaniya, prostitutsiya va gomoseksualizmning "mahsuli" ekanligini tibbiyot allaqachon isbotlab berdi. Agarda zamonaviy tibbiyotning ushbu xastalikka davo topishga hozircha nochorligi ma'lum ekan, unda butun insoniyatni jiddiy tashvishga solayotgan bu balo-qazoni bartaraf qilish, pirovardida, jamiyatni bunday makro falokatdan asrashning yagona omili sifatida barcha odamlarni ularning irqi, jinsi, millatidan qat'iy nazar ta'kidlab o'tilgan g'ayriinsoniy, jirkanch xulq-atvordan yiroq bo'lishga to'liq erishishni e'tirof etish lozim.

Nazorat savollari:

1. Globallashuv tushunchasini sharhlab bering ?
2. Globallashuv jarayonini ijobiy jihatlarini ko'rsating ?
3. Globalistika nima ?
4. Global muammolarni sanang ?
5. Urush va tinchlik muammosi ahamiyatini tushuntiring ?
6. Ekologik muammolar oqibatlarini gapirib bering ?
7. Terror so'zini mohiyatini tushuntiring ?
8. Qanday terroristik harakatlar nomlarini bilasiz ?

14-mavzu. Korrupsiyaga qarshi kurashning jahon tajribasi.

Reja:

1. Korrupsiya tushunchasining tasnifi.
2. Korrupsiya turlari va shakllanish tarixi.
3. Korrupsiyagani keltirib chiqaruvchi omillar.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro tajribasi.

Tayanch iboralar: *Korrupsiya, Artxashastra, siyosat ilmi, poraxo'rlik, tovlamachilik, firibgarlik, mulkni o'zlashtirish, fitna, hokimiyatni suiste'mol qilish, vertikal korrupsiya, gorizontal korrupsiya, davlat tijoriy korrupsiyasi, korporativ korrupsiya, axloqiy korrupsiya, oq korrupsiya, qora korrupsiya, kulrang korrupsiya, parlament, korrupsiya uchun axloqiy va jinoiy javobgarlik.*

Davlat va jamiyatning barqaror rivojida salbiy illat sifatida namoyon bo'ladigan korrupsiya hodisasi va uni bugungi kun voqeligida ijtimoiy–falsafiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Korrupsiya insoniyat tarixida ko'p uchraydigan ijtimoiy hodisalardan biridir. Qadim zamonlardan beri insoniyat korrupsiya va poraxo'rlikni yaxshi biladi, u jamiyatning eng xavfli kasalliklaridan biridir. Bu illatga qarshi kurashish davlat boshqaruvi uchun muhim ijtimoiy soha ekanligi tarixiy manbalardan ma'lum. Tarixiy manbalarga ko'ra, shumerliklarning loy taxtachalarga yozilgan qadimgi qo'lyozmalarida hisob-kitob va poraxo'rlikka qarshi kurashish masalalari aks etgan. Bu davrda davlat boshqaruvida turgan shaxslarning korrupsiyaga moyil bo'lishi ko'proq davlatning obro'siga putur yetkazishi hukmdorlarni tashvishga solgan.

Davlat va jamiyatning boshqaruvi tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu jarayon ko'proq dinning hukmronligi ostida amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu jarayon har bir davrda huquqiy-me'yoriy normalar sifatida yahudiylarda "Tavrot", nasroniylarda "Injil", musmonlarda "Qur'oni Karim" amal qilgan. Bu ilohiy kitoblarda tovlamachilik va poraxo'rlik masalalari qattiq qoralangan. Diniy manbalarda ham sovg'a ko'rinishidagi poralarni olish ta'qiqlangani aytib o'tilgan. Jumladan, musulmon dunyosining muqaddas kitobi "Qur'oni Karim"ning 188 – oyati, ya'ni Baqara surasida "Mol (va boylik)laringizni o'rtalaringizda botil (yo'llar) bilan yemangiz?

Shuningdek, bila turib, odamlarning haqlaridan bir qismini gunoh yo'li bilan yeyish (o'zlashtirish) maqsadida uni hokimlarga havola etmangiz!" –, deyilgan.

Aflotun (Platon) o'zining "Davlat" nomli asarida: "Tuhfalar xudolarni ham, buyuk shohlarni ham xursand qiladi. Tuhfalarni qabul qilish agar tuhfalar bo'lmasa, g'azabdan qolmaslikni maqtab bo'lmaydi..agar hukumdor fuqarolar orasidan, ish uchun kerakli bo'lgan folbinlar, yo shifokorlar yoki mohir me'morlardan kimki yolg'on gapirganini bilib qolsa, davlatni kemaday to'ntarib yuboruvchi halokatli odatni joriy etishda ayblab, unga jazo berishi"[3] haqida yozadi. Bu bilan u korrupsiyaning kelib chiqishiga nimalar sabab bo'lishi va uning qanday oqibatlarga olib kelishi, ularga qarshi qanday jazo qo'llanilishi haqida o'zining mulohazalarini yozib qoldirgan.

Aristotelning ta'kidlashicha, amaldorlar "pora" olish uchun tez-tez davlat ishlarini qurbon qilib turadi. Shuning uchun ularni fuqarolar nazorat qilishi, ular orasida birinchi navbatda o'rta sinf vakillari bo'lishi kerak. Aristotel o'z asarlarida korrupsiyaga qarshi konsepsiyaga asos solgan, unda fuqarolik jamiyati davlat hokimiyatining nazoratchisi sifatida ishlaydi va amaldorlarning korrupsion faoliyatiga qarshi chiqadi. Antik davr yunon faylasufi Aristotel shunday degan edi: "Har qanday davlat tizimida - qonunlar va boshqa farmoyishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerakki, unda mansabdor shaxslarni noqonuniy yo'l bilan boyishiga yo'l qo'ymaslik lozim".

Korrupsiyaning davlat taraqqiyoti uchun xavfini oldini olish borasida har bir mamlakat o'z qonunlari asosida islohotlarni amalga oshiradi. Bunday ijtimoiy jarayon jahonda XVIII asrdan boshlab davlat va jamiyat boshqaruvi sohasiga kirib kelgan. Natijada, bu ko'plab normativ-huquqiy me'yorlar va qonunlarda aks etgan. Birgina 1787 yilda AQShda qabul qilingan. Konstitutsiyaga ko'ra, Prezidentning pora olishi uni impeachment (iste'fo)ga olib boradigan ikkita jinoyatning biri qilib belgilangan.

Ko'plab taniqli G'arb faylasuflari va davlat arboblari korrupsiyaning namoyon bo'lishini o'rganishga katta e'tibor berishgan. T. Gobss korrupsiya har doim va barcha vasvasalar bilan qonunlarni hurmat qilmasdan kelib chiqadigan ildiz, deb hisoblaydi. N.Makiavelli haqli ravishda davlatning ishlash mexanizmlarini, shu jumladan, korrupsiya munosabatlarini chuqur o'rganganlardan biri hisoblanadi.

Olimning korrupsiya to'g'risidagi qarashlari hozirgi kungacha o'z dolzarbligini saqlab qoldi. Uning korrupsiyani iste'mol bilan taqqoslashini eslash kifoya, uni dastlab aniqlash oson, ammo davolash qiyin, agar kasallikka e'tiborsiz bo'lsa, uni aniqlash oson, ammo davolash juda qiyin.

Yangi asrning boshlanishi, Yevropada markazlashgan davlatlarning paydo bo'lishi korrupsiyaning o'zgarishiga va jamiyat tomonidan korrupsiyaning yangi ko'rinishdagi qirralari shakllanishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida yangi illatlarning odamlar tomonidan jamiyatning bir kasalligi emas, balki turmush tarzi sifatida kirib kelishiga xizmat qildi.

Korrupsiya o'zining zamonaviy ma'nosini XV-XVII asrlarda oldi. XVIII asrda Angliyada birinchi marta ular "parlamentdagi" korrupsiya holatlari haqida gapira boshlashdi. XX asrda korrupsiya hodisalari ularni yanada rivojlantirdi. Dunyoning turli xil ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimlarga ega bo'lgan ikkita lagerga bo'linishi korrupsiya muammosini yo'q qilmadi, aksincha, korrupsiyaning universalligini, o'zgaruvchan tashqi va ichki sharoitlarga moslashish uchun yuqori imkoniyatlarini namoyish etdi.

Zamonaviy korrupsiya konsepsiyasi zamonaviy davr boshida markazlashgan davlatlar va amaldagi tizimlarning shakllanishi bilan boshlanadi.

Korrupsiya (lot. *Corrumpere - buzmoq*) termini, odatda, "mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi"[2].

Faylasuflar korrupsiya jinoyatining quyidagi belgilarini ajratib ko'rsatadilar:

1) hokimiyatga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa manfaatlarga bevosita zarar yetkazish;

2) davlat xizmatchilari oladigan har qanday imtiyozlarning noqonuniyligi;

3) davlat xizmatchisining o'z maqomidan davlat xizmati manfaatlariga zid ravishda foydalanishi;

4) davlat hokimiyati manfaatlariga davlat xizmatchisining obyektiv ravishda zarar yetkazadigan harakatlarni (harakatsizlik aktini) sodir etish niyati;

5) mansabdorning yollanma yoki boshqa manfaatdorligi.

Bizning fikrimizcha, korrupsiya ijtimoiy hodisa sifatida norasmiy almashinuv munosabatlarining qonuniy yo'l qo'yiladigan normalarga rioya qilmaslik asosida almashinadigan barqaror, qayta tiklanadigan tizimdir. Korrupsiya har doim ham murakkablikni nazarda tutadi. Korrupsiya bir nafar inson bilan amalga oshmaydi. Shu bilan birga, korrupsiya harakati ikki tomonlama bo'lsa ham, u har doim ushbu akt amalga oshiriladigan manfaatlarning buzilishi tufayli uchinchi tomon – jamiyatning mavjudligini nazarda tutadi. Korrupsiya tizim ekanligi sababli, uning sifati va hajmi faqat korrupsion o'zaro ta'sirlarda ishtirok etadigan shaxslar soniga qarab belgilanmaydi.

Bugungi kunda dunyoda korrupsiyani salbiy illat sifatida gavdalantiradigan ta'rifi ham, tavsifi ham ko'p. Korrupsiyani keltirib chiqaradigan obyektiv va subyektiv omillar, uni oldini olishga qaratilagan samarali yo'llari, paradigmalari bo'yicha har yili sohalar kesimida minglab tadqiqotlar o'tkaziladi. Hattoki, korrupsiyani bartaraf etadi deya prognoz qilingan turli xil formulalar tuzib chiqiladi. Ammo, bu sohada eng samarali formula hali ishlab chiqilmagan. Chunki, bu illat oddiy jinoyat bo'lib ko'ringani bilan aslida uning keltirib chiquvchi sabablari nihoyatda chigal, moslashuvchan, murkkab fenomendir. Dunyoning bir hududida samara bergan usul boshqasi uchun samarasiz bo'lishi mumkin. Shu sababli har qaysi davlat bu illatga qarshi kurash texnologiyasini o'zi ishlab chiqishi, jahon tajribasi bilan omixtalashtirishi lozim.

Yana bir ta'rifga ko'ra, korrupsiyaga "Davlatning ichki va tashqi faoliyatidagi funksiyalarni bajarishga qaratilgan faoliyat jarayonida mansabdor shaxslarning o'z lavozimlaridan qonunga zid ravishda turli yo'llar bilan boylik orttirishi, davlatning mablag'larini talon-taroj qilishi, shuningdek, bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishi", – degan fikr ilgari surilgan.

Korrupsiya haqida bir qator nazariy-metodologik va ilmiy-amaliy ahamiyatga molik bo'lgan ta'riflar berilgan. Masalan, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da: "Korrupsiya mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadida bevosita suiste'mol qilishidan iborat amaliyot. Mansabdor ham shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi deyiladi".

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da: "Korrupsiya shaxslarning o'zlariga ishonib topshirilgan huquqlari va hokimiyat vakolatidan

shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish, degan ta'riflar berilgan. U.Mamadaliyev fikriga ko'ra: ".. korrupsiya bu ikki tomonlama kelishuvdir, ya'ni, davlat xizmatida bo'lgan xizmatchi noqonuniy ravishda o'z vakolati xizmatini sotadi, sotib oluvchida esa davlat va boshqa tarmoqni o'z maqsadi yo'lida ishlatish imkoniyati paydo bo'ladi", - degan ta'riflarni berishgan.

Korrupsiyaning mohiyati shundaki, u jamoat munosabatlarini, jamiyatdagi narsalarning normal tartibini buzadi, buning natijasida jamiyatda tanazzul sodir bo'ladi. "Korrupsiya", hokimiyatning "yemirilishi"dir.[72] Davlat boshqaruvi tizimida bunday holatlar bevosita jamiyatdani parokandalik, davlat mulkining boshqalar tomonidan o'zlashtirilishi va ko'plab ob'yektiv omillarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shunday qilib, "korrupsiya" tushunchasidan foydalanish uchta asosiy xususiyat bilan tavsiflanadi:

Birinchisi, har qanday faoliyatda ham o'z manfaati yo'lida kimgadir nima berish yoki nimadir olish evaziga ehtiyojini qondirishi bevosita korrupsiyaga bog'liq bo'ladi;

Ikkinchisi, pora beruvchi va pora oluvchi tomonlar ko'pincha pul evaziga amalga oshirilishi kerak bo'lgan muayyan harakatlar to'g'risida emas, balki oldindan kelishib olishadi. Bunday holda, pora predmeti mustaqil emas, balki xaridorga bog'liq bo'lgan shaxsga aylanadi: u sotilmoqda – u o'z obro'sini, kelajagini o'ylamasdan, mavjud imkoniyatdan foydalanib qolish yo'larini izlaydi. Bunday holat har qanday shaxsning amalga oshirayotgan mehnat faoliyatidagi pillapoyalariga salbiy ta'sir qiladi. Chunki sotuvchi tomon haq evaziga nima qiladi, u qanday mukofot oladi va buzuq odam nima qiladi, unga nima kerak.

Uchinchisi, korrupsiya uyushgan jinoyatchilik va terrorizmning yaqin aloqasi bilan bog'liq bo'lib, bu BMTning ko'plab hujjatlarida ta'kidlangan. Asosiy korrupsiyalashgan odamlar bu iqtisodiy va boshqa uyushgan jinoyatchilar, terroristik va boshqa jinoiy guruhlar, ular tomonidan boshqariladigan qonuniy yoki huquqiy tuzilmalardir.

Korrupsiyaning eng xavfli ko'rinishlari bu ma'lum bir davlat funksiyalarini bajaruvchi shaxs tomonidan o'zining rasmiy mavqeidan noqonuniy ustunliklarga (korrupsiya) ega bo'lish maqsadida foydalanishi, boshqa tomondan esa, manfaatdor shaxs tomonidan

[72] Александров С.Г. Юридическая дефиниция «коррупция»: понятие, особенности методологического познания // С.Г. Александров // История государства и права, – 2007. № 11. – С. 2-5.

imtiyozlar berish (poraxo'rlik) bilan ifodalanadi. Korrupsiya tarqalishini cheklashning eng samarali modelini topish uchun bu tomonlarni ajratib bo'lmaydi. Korrupsiyaga qarshi kurash har qanday davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining hujjatlarida korrupsiyaning xalqaro- huquqiy ta'rifi quyidagicha: korrupsiya – bu davlat hokimiyatidan shaxsiy manfaatlar uchun, uchinchi shaxslar va guruhlar maqsadlarida foydalanish.

Oddiy qilib aytganda, korrupsiya – bu mansab mavqeidan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanish hisoblanadi. Korrupsiyaning eng keng tarqalgan namoyon bo'lishi bu–poradir.

Bugungi kunda korrupsiya atamasiga xilma-xil ta'riflar berilgan bo'lib, jamiyatdagi muvozanatni buzishni o'zida ifodalab keladi. Ko'plab adabiyotlarda "korrupsiya" tushunchasidan foydalanib, mualliflar nimani anglatishini turlicha talqin qiladilar.

Korrupsiyani o'rganadigan aksariyat ekspertlar saylov paytida ovozlarni sotib olishni ham o'z ichiga oladi. Bu yerda, haqiqatan ham, korrupsiyaning barcha o'ziga xos belgilari mavjud. Konstitutsiyaga binoan, saylovchida "hokimiyat kuchi" deb nomlangan resurs mavjud. U bu vakolatlarni saylangan shaxslarga muayyan qaror turi – ovoz berish orqali beradi. Saylovchi o'z vakolatlarini, uning fikriga ko'ra, o'z manfaatlarini ifoda eta oladigan shaxsga topshirish masalasi asosida qaror qabul qilishi kerak. Lekin ayrim joylarda nomzodlarning ba'zi bir saylovchilarga pora evaziga o'ziga og'ishtirib olishlarini ko'rishimiz mumkin. Bu davlat va jamiyat boshqaruvidagi korrupsiyaning siyosatdagi ko'rinishlaridan bir hisoblanadi.

Xalqaro miqyosda korrupsiya tushunchasining xilma-xil ta'riflari o'rtaga tashlanmoqda. Jumladan "korrupsiya – bu pora berish va davlat yoki xususiy sektorda javobgarlikka tortilgan shaxsning o'zining ijtimoiy mavqeidan kelib chiqadigan majburiyatlarini buzadigan boshqa har qanday xatti-harakatidir. Jamoatchi, xususiy xodim, mustaqil agent yoki boshqa shunga o'xshash maqomga ega va o'zi yoki boshqa shaxs uchun har qanday turdagi noo'rin ustunliklarni olishga qaratilgan" degan ta'rifda shaxsning manfaatdorligi masalalari aks etgan. Rossiyalik huquqshunos O.I.Korotkov fikricha, "davlat xizmatchisi qonunda belgilangan maqsadlarga va ijtimoiy tasdiqlangan madaniy va axloqiy me'yorlarga asoslangan qarorlar qabul qilishga majburdir".

Shunga ko'ra, BMT bu mudhish jinoyatga qarshi kurash borasida o'ndan ortiq hujjat qabul qilgan. Bundan tashqari, Yevropa Kengashi va Yevropa Ittifoqi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida hamda boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ham o'ndan ortiq hujjat imzolanganligiga qaramasdan, ko'zda tutilgan samarani bermayotganligi xalqaro jamoatchilikni tashvishlantirmoqda.

Korrupsiya amaldor, rahbar xodimlarning o'z mansab vakolatidan foydalangangan holda shaxsiy ehtiyojlar yo'lidagi jinoyati bo'lib, bunday faoliyat xufiyona tarzdagi jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Aslida, korrupsiyadan ko'zlangan maqsad davlatning muayyan rahbarlik lavozimidan foydalanish asosida shaxsiy manfaatlarini amalga oshirish uchun fuqarolardan ehtiyojini qondirish yo'li bilan manfaatdorlikka erishish, qonunni buzgan holda pul mablag'larini yoki narsa ko'rinishidagi daromadga egalik qilish holati hisoblanadi.

Hamma shuni ham unutmasligi lozimki, har doim ham korrupsiyani amalga oshirishning tashabbuskori amaldor bo'lavermaydi, balki tadbirkorlarning o'zlari ham uning tashabbuskori bo'lishlari mumkin. Hozirgi vaqtda davlat boshqaruvi sohasida va boshqa organlardagi korrupsion holatlar dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi eng muhim muammolardan biriga aylangan. Bunday jinoyatlarning muhim tomoni shundaki, ko'pincha, joylarda korrupsiyani huquqni muhofaza qiluvchi yoki davlat boshqaruvida turgan yuqori mansabdagi shaxslarning o'zlari amalga oshiradilar. Ko'pgina davlatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham bunday jinoiy faoliyat turi mavjud bo'lib, ayniqsa, davlat va jamiyat boshqaruvi xodimlarining o'zi korrupsiyani sodir etuvchi shaxsga aylanishi, egallagan mansabini suiiste'mol qilishi kabi xatarli jinoyatlarga qo'l urishi natijasida ularga nisbatan murosasiz choralarni qo'llashga undamoqda. Jahonda korrupsiya illatining mudhish basharasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha davlatlarda ayovsiz kurash olib borishga doir ma'lumotlari bazasida ham o'z aksini topgan bo'lib, "Korrupsiya – bu barcha faoliyatda o'z shaxsiy manfaatlarini birinchi darajali qilib belgilash va davlatning kuchidan o'z ehtiyoji yo'lida foydalanish"dir, deb baholangan.

Shunga ko'ra, BMT bu mudhish jinoyatga qarshi kurash borasida o'ndan ortiq hujjat qabul qilgan. Bundan tashqari, Yevropa Kengashi va Yevropa Ittifoqi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tomonidan ham o'ndan ortiq hujjat imzolanganligiga qaramasdan, samara bermayotganligi xalqaro jamoatchilikni tashvishlantirmoqda.

Umuman olganda, korrupsiya bugungi kunda bir qator turlarni o'z ichiga oladi: 1) muayyan sub'yekt sifatidagi yo'nalishga ko'ra:

- mamlakat boshqaruvida ishtirok etayotgan xodimlar faoliyatidagi korrupsiya;
- ayrim shaxslarning xususiy sektor negizidagi korrupsion jarayon;
- davlat boshqaruvidagi shaxslarning siyosiy korrupsiyasi;

2). Muayyan daraja maqomiga ko'ra:

- oddiy daraja ko'rinishida;
- yuqori darajali ko'rinishda;
- vertikal ko'rinishda;
- gorizantal ko'rinishda.

3). Davlat va jamiyat boshqaruvidagi xavflilik holatiga ko'ra:

- korrupsiyaning salbiy illatligi;
- korrupsiyaning – jamiyatdagi jinoyat ekanligi.

Mazkur ijtimoiy illatlar jamiyatda korrupsiya va uning ishtirokchilari motivasiyasining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Y.Nisnevichning fikricha, "davlat hokimiyatiga intilish sabablari orasida asosiy turtki turlarini o'z ichiga olgan ikkita segmentni ajratib turadi. Bunday holda, bizni "tabiatda salbiy xudbinlik bilan bog'liq bo'lgan motivlar segmenti" qiziqtiradi, bu foyda uchun tashnalik deb ta'riflanishi mumkin. Ushbu segment moddiy va nomoddiy niyatlarni, ochko'zlikdan va o'z manfaatlaridan tortib to ochko'zlik va shuhratparastlikni o'z ichiga oladi. Bunday ko'rinishlarning tagida bevosita qaysidir shaxslarning o'z manfaatlarini amalga oshirish aks etadi. Davlat boshqaruvi jarayonida ham mazkur holatlarning keltirib chiqaruvchi omillari negizida mansabdorlarning katta daromad topishi, hukumatning kuchi yo'li bilan o'z maqsadlarini amalga oshirishi mavjud bo'ladi.

Bunday ijtimoiy ong davlat boshqaruvi bilan uzviy ravishda nodavlat yoki xususiy sektorlarda faoliyat olib borayotgan tashkilotlarda ham korrupsiyaning mavjudligini ko'rsatib bermoqda. Aslida, har bir tashkilotning ustavida korrupsiya bilan bog'liq jarayonlarga qarshi kurashish belgilangan bo'ladi. Lekin ba'zi tashkilot rahbarining o'z shaxsiy manfaatini ustun qo'yishi natijasida davlatning mol-mulki talon-taroj qilinadi. Bunday dunyoqarash, ko'pincha, davlat yoki nodavlat tijorat banklaridan muayyan maqsad asosida kredit mablag'lari olish evaziga yoki pora berish asosida davlat moddiy boyliklarini arzon narxlarda o'zlashtirish natijasida amalga oshiriladi.

Davlat boshqaruvida korrupsiya ko‘proq 3 ta shaklda namoyon bo‘ladi.

Ular:

- ijtimoiy muhitdan kelib chiqqan holda amaldor shaxs o‘z mansabidan foydalanib, tanish-bilish yoki qarindosh-urug‘lari orqali qonunga qarshi harakatlarni amalga oshiradi;
- ayrim kimsalarning o‘z maqsadi yo‘lida mansabda turgan shaxsni pora evaziga o‘ziga qaram qilishi va shunday manfaat ko‘rishga asoslanadi;
- korrupsiyaning bu shaklida jinoyatchilik bilan bog‘liq faoliyat asosiy maqsad bo‘lib, unda mansabdor shaxsni jinoyatga olib boradigan yo‘llar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Natijada, mansabdor shaxs o‘zi anglamagan yoki tushungan holda mazkur jinoyatni amalga oshiradi. Korrupsiyadagi bunday falsafiy ko‘rinish bir necha kishining uyushgan jinoyatchilikni xoh majburiy, xoh ixtiyoriy bajarishi bilan yakun topadi.

Korrupsiyaning quyidagi asosiy turlarini ajratish mumkin:

- maishiy;
- xizmat bilan bog‘liq;
- professional belgisiga ko‘ra.

- Maishiy korrupsiya fuqarolarning kundalik hayoti va oilaviy ahvoli bilan bog‘liq bo‘lib, shaxsiy hayotiy ehtiyojlar - davolanish, ta’lim olish, dam olish, uy-joyga ega bo‘lish, shaxsiy himoya va boshqalar bilan qondirish jarayonida kelib chiqadi.

Davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaning ko‘p uchraydigan shakli asosan kimdandir pora olish va kimgadir pora berish bilan bog‘liq. Ko‘pincha, saylovlarda ba’zi bir saylanuvchilarning siyosatni amalga oshiruvchi sub’yektlarga pora berishi namoyon bo‘ladi.

Korrupsiya jarayonida o‘z mansabini suiiste’mol qilib, xizmat mavqeidan foydalangan holda jamiyatning ijtimoiy illati girdobiga tushib qolish, muyanyan shaxs yoki davlatning pullarini noqonuniy ravishda o‘zlashtirish bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida aks etadi. Ayrim davlat amaldorlari o‘z korporasiyalarini rivojlantirish uchun muayyan davlat imtiyozlarini o‘zlashtiradi, ba’zida foyda ko‘rish maqsadida ommaviy axborot vositalariga tazyiq asosida o‘zlarining manfaatlarini ko‘zlaydi.

Ko‘pincha korrupsion holatlar insonlarning o‘z maqsadlari yo‘lida o‘zaro kelishuvlari asosida ham amalga oshiriladi. Bu borada bugungi kunda har bir davlatning o‘z qarashlari va korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari bor. Shu boisdan har bir davlatning jamiyatni boshqaruv mexanizmlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning xilma-xilligi mavjud. Bunda davlatning milliy qadriyatlari, urf-odatlari, diniy mansubligi ham aks etishi mumkin. Lekin har qanday korrupsiya bevosita davlat va jamiyat boshqaruvida o‘zining salbiy illatlarini namoyon etib boradi. “Korrupsiya – bu jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan illatdir”.[73]

Bunday salbiy illatning oldini olish bo‘yicha jahonda ko‘plab ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, bu boradagi muammolar yangicha ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda.

Korrupsiyaning davlat boshqaruviga salbiy ta’sirini Birinchi Prezdentimiz I.A.Karimov quyidgicha tavsiflaydi: “Korrupsiya vujudga kelib, u, eng avvalo uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo‘lish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanadi”. Shu boisdan, jamiyatning taraqqiyotida davlatning xizmatchisi turli yo‘llar orqali o‘z mansabidan foydalanib, jamiyatning taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladigan holatlarni keltirib chiqarishi, xalqning kelajagiga to‘siq bo‘lish kabilar korrupsiyaning avj olishiga xizmat qiladi. Natijada, korrupsiya bevosita jamiyatning parokanda bo‘lishi, fuqarolarning boshqaruv tizimiga ishonchining yo‘qolishi singari holatlarga olib keladi. Birinchi Prezdentimiz I.Karimov o‘z fikrlarida jamiyatda korrupsiyaning davlat boshqaruviga ta’sirini kamaytirish, jamiyatda barcha sohalarda inson manfaatlari uchun xizmat qiladigan shaffoflikni ta’minlash borasida o‘z qarashlarini bayon etgan. Shunday ekan, biz ham davlat boshqaruvidagi islohotlarda doimo korrupsiyashga qarshi kurashish dolzarb ijtimoiy muammolardan biri bo‘lib kelganligini anglab yetishimiz mumkin. Bizga tarixdan ma’lumki, korrupsiyaning dastlabki ko‘rinishlari qadimdan paydo bo‘lgan bo‘lib, qabilada o‘z mavqeini oshirish uchun sardorlarga narsa ko‘rinishidagi sovg‘alarni berishdan kelib chiqqanligi haqida fikrlar mavjud. Bu jarayon o‘sha paytlarda odatiy hol sifatida jamiyatda keng amal qilgan.

[73] Крючков А.В. Антикоррупционная политика в России: политологический анализ // Философия права. 2010. – №5. – С. 123.

BMTning korrupsion holatlarni oldini olishga doir konvensiyasida asosan korrupsiya insonlar hayotiga doimiy ravishda o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Bunda:

1) davlatning zaiflashuvi;

2) milliylikning yo‘qolishi;

3) qonunlarning ishlamasligi;

4) taraqqiyotdan tanazzul tomon borishi sodir bo‘ladi.

Bundan tashqari, ba’zi olimlar korrupsiyaga jamoat munosabatlariga tizimli qo‘shilishi nuqtai nazaridan e’tibor qaratmoqdalar. L.V.Geveling ta’kidlashicha, korrupsiya – bu ijtimoiy munosabat va odob-axloq normalariga nisbatan halokatli bo‘lgan ijtimoiy aloqalar tizimi bo‘lib, u moddiy va nomoddiy imtiyozlarni olish maqsadida rasmiy vakolatlardan suiiste’mol qilinishi bilan tavsiflanadi.

Fikrimizcha, korrupsion munosabatlar tipologiyasining quyidagi turlarini ko‘rsatish mumkin:

1. Poraxo‘rlik - insonlarning o‘z manfaatlarini ko‘zlab, jamiyatda ikkinchi yoki uchinchi shaxslar bilan til biriktirishi asosida qonunlarga zid faoliyat olib borishidir.

2. Proteksionizm – mansabdor shaxs tomonidan yollangan foyda olish maqsadida kimnidir ehtiyojlari evaziga o‘zining manfaatlarini amalga oshirish mexanizmidir.

3. Xufiya lobbizmi – qonun chiqaruvchi hokimiyat organlari huzuridagi yirik biznes tashkilotlari va agentliklari tizimi.

4. Favoritizm – katta mansabdor shaxsdan homiylik va aldash, noqonuniy imtiyozlarni olish.

5. Nepotizm – daromadli manbalarni qarindoshlariga, tanishlari va do‘stlariga tarqatish maqsad qilinadigan lavozimlar, martabalar.

6. Siyosatdagi korrupsion holatlarga bevosita siyosatchi yoki hokimiyat egasining o‘z maqsadlari yo‘lida lavozimidan foydalanib, korrupsiyani amalga oshirishdir.

Mazkur salbiy illatlarning davlat va jamiyat boshqaruviga ta’sirini korrupsion omillar ekanligini quyidagicha ko‘rsatish mumkin.

Fuqarolarda huquqiy savodxonlik va falsafiy mushohadaning kamligi, – ko‘pincha, fuqaroning o‘z haq-huquqlarini yaxshi anglab yetmasligi, jamiyatning mavjud qonunini chuqur tahlil etmaslik asosida rahbarlarga o‘z manfaati uchun keng shart-sharoitlarni yaratib berishidir.

Davlat va jamiyat boshqaruviga xufyona iqtisodiyotning ta’siri natijasida jahonning ko‘plab mamlakatlarida axloqsiz munosabatlarining vujudga kelishi, natijada, insoniyat hayotida korrupsiya bilan bog‘liq tahdidlarning kuchayib borishini Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham tan oldi. Shuning uchun, BMT tomonidan Meksikaning Merida shahri mezbonligida 2003-yil 9-dekabrda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan 3 kunlik xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Unda ishtirok etgan 100 dan ziyod davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro konvensiyani imzolashdi. Shu konferensiyada har yili 9-dekabr jahonda “Butunjahon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” sifatida belgilandi.

Ushbu Konvensiyadan ko‘zlangan maqsad jahonda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida barcha davlatlarni birlashtirish, ayniqsa, xalqaro jinoyatchilikni kamaytirish, diiny ekstremizm va terrorizmning xavfini kamaytirish, turli insoniyat uchun xavf soladigan illatlarga qarshi barcha millatlarning kurashishi masalalari ifodalangan.

O‘zbekiston BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi”ga O‘RQ-158-sonli Qonuni asosida 2008-yil 7-iyuldan a’zo bo‘lgan. Mazkur Qonun doirasida O‘zbekistondagi barcha davlat organlari o‘z faoliyatlarini xalqaro miqyosda olib boradi. Konvensiyada aks etgan ayrim korrupsiyaga doir jinoyat va holatlar O‘zbekistonning Jinoyat Kodeksidagi bir nechta moddalar bilan bog‘langan.

Davlat va jamiyatning boshqaruvi sohasida korrupsiyaning kamayishiga xizmat qiladigan muhim omillardan bir sifatida xodimlarning oylik ish haqlarini bugungi kundagi bozor talablari darajasiga olib chiqib bo‘lib hisoblanadi. Bu borada keyingi yillarda O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarda mazkur holatlarni yaxshilash, fuqarolarning mehnatiga yarasha haq to‘lash masalalari o‘z yechimini topmoqda.

Korrupsiyani keltirib chiqaradigan omillar bevosita boshqaruvda turgan shaxslar bilan quyi bug‘indagi shaxslarning o‘zaro til biriktirib, qonunlardagi me’yorlarga amal qilmasdan, o‘z manfaatlari yo‘lida jinoyatga qo‘l urishlari ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Yevropa olimlari mazkur jarayonning sabablari borasida o‘z qarashlarini quyidagi tarzda aks ettiradilar:

Korrupsion holat = boshqaruv + manfaat-mas’uliyat.

Ushbu formuladan ko‘rinadiki, ko‘plab davlatlarda boshqaruv mexanizmlari bevosita korrupsiya bilan bog‘lanib qolgan.

Ilmiy manbalarga qaraganda, 1913-yil boshida Rossiyada A.Ya.Estrin birinchi marta "korrupsiya" atamasini ilmiy muomalaga kiritgan. U ma'muriy va jinoiy jazolanishi mumkin bo'lgan korrupsiya aktlarini ajratib ko'rsatdi. Bunday yondashuvlardan biri "korrupsiya" so'zi "poraxo'rlik" va "pora berish, olish" kabi talqin qilinishi mumkinligini aks ettiradi.

Shunday qilib, "korrupsiya" tushunchasidan foydalanish uchta asosiy xususiyat bilan tavsiflanadi:

Birinchisi, har qanday faoliyatda ham o'z manfaati yo'lida kimgadir nima berish yoki nimadir olish evaziga ehtiyojini qondirishi bevosita korrupsiyaga bog'liq bo'ladi;

Ikkinchisi, pora beruvchi va pora oluvchi tomonlar ko'pincha pul evaziga amalga oshirilishi kerak bo'lgan muayyan harakatlar to'g'risida emas, balki oldindan kelishib olishadi. Bunday holda, pora predmeti mustaqil emas, balki xaridorga bog'liq bo'lgan shaxsga aylanadi: u sotilmoqda – u o'z obro'sini, kelajagini o'ylamasdan, mavjud imkoniyatdan foydalanib qolish yo'larini izlaydi. Bunday holat har qanday shaxsning amalga oshirayotgan mehnat faoliyatidagi pillapoyalariga salbiy ta'sir qiladi. Chunki sotuvchi tomon haq evaziga nima qiladi, u qanday mukofot oladi va buzuq odam nima qiladi, unga nima kerak.

Uchinchisi, korrupsiya uyushgan jinoyatchilik va terrorizm bilan bog'liq bo'lib, bu holat BMTning ko'plab hujjatlarida ta'kidlangan.

Korrupsiya jamiyatda mavjud muhitni salbiy tomonga ketishiga, ijtimoiy jarayonlar buziliga sabab bo'ladi:

- ma'muriy huquqbuzarliklar, masalan, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksning tarkibiga kiruvchi byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari va ko'plab tashkilotlarning ichki ishlariga aralashish orqali mablag'larni noqonuniy o'zlashtirish;

- mansabdor shaxslarning o'z lavozimlaridan foydalangan holda shaxsiy ehtiyojlari uchun muayyan mablag'larini qo'lga kiritishi;

- ta'qiqlangan fuqarolik bitimlari (masalan, sovg'ani qabul qilish, uchinchi shaxslarning davlat xizmatchisiga xizmat ko'rsatishi va boshqalar).

Korrupsiyaning iqtisodiy oqibatlarini quyidagicha keltirish mumkin:

1. Yashirin iqtisodiyot – korxona va tashkilotlarda mansabdor bo'lgan shaxslarning vakolat doirasidan chiqib, ayrim kimsalarning

manfaatlari yo'lida davlat mulklarini talon-taroj qiladilar. Mazkur faoliyatlar jarayonida har qanday tashkilotlarning mavjud mablag'lari noqonuniy jarayonlarga sarf qilinadi. Shu tarzda ko'plat davlat boshqaruvida turgan korxonalardagi mablag'larning samarasiz ishlatilishi, muayyan rahbarlarning ehtiyojiga sarf etilishi natijasida kamomadlarning kelib chiqishini ko'rishimiz mumkin.

2. Bozordagi beg'araz raqobatbardosh muhitning mexanizmlari buziladi, chunki hamma korxonalar raqobatdosh emas, bunda noqonuniy ravishda ustunlikka erishgan korxona g'olib bo'ladi.

3. Davlatning byudjet mablag'larini turli yo'lar bilan o'zlashtirish sodir bo'ladi, xususan, davlat buyurtmalari va qarzlarni taqsimlashda mamlakatning byudjet muammolarini yanada kuchaytiradi.

4. Narxlar buzilganda va "qo'shimcha xarajatlar" tufayli ortib boradi. Oqibatda mansabdor suvdan qurib chiqib, uning jabrini yana pastdagi xodimlar ko'radi[1].

Korrupsiyaning jamiyatda siyosat bilan uyg'un jihatlari mavjud:

1. Siyosat maqsadlarida umummilliy rivojlanishdan ma'lum "klan"lar hukmronligi ta'minlanadi.

2. Hokimiyatning obro'si pasayib, jamiyatdan uzoqlashadi. Shunday qilib, hokimiyatning har qanday yaxshi tashabbuslari tanqidga uchraydi.

3. Davlat va jamiyatning boshqaruvi sustlashuvi evaziga odamlarda hukumatga nisbatan ishonchsizlik kayfiyati sodir bo'ladi. Buni bugungi Afg'oniston misolida ko'rish mumkin.

4. Davlatda siyosatchilarning islohotlari samara bermay qo'yadi. Natijada, xalqning davlat boshqaruviga ishonchi yo'qolib, kelishmovchiliklar sodir bo'ladi.

5. Yangicha ko'rinishdagi demokratiyaning inqirozi korrupsiyani rivojlanishiga olib kelib, shu asosda, paydo bo'lgan diktaturaning keng tarqalgan ssenariysi kuchayib boradi.

Jahon tajribasi. Shvetsiya davlati XIX asrdayoq o'ziga xos korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yaratgan. Davlat rahbari o'z islohotlarini o'tkazish jarayonida jamiyatni modernizatsiya qilish masalasida o'ziga xos strategiyani ishlab chiqdi. O'z strategiyasida davlat amaldorlarning qarashlariga zid bo'lgan yangicha islohotlarni amalga oshirdi. Jamiyatda soliq imtiyozlarini oshirib, xalqqa turli imtiyozlar berildi. Ayniqsa, davlat boshqaruvi sohasida har bir fuqaroga korrupsiyaga qarshi kurashda davlat qanday ishlash mexanizmlarini ko'rsatib berdi. Davlat tomonidan Shvetsiya parlamenti va mansabdor

shaxslar uchun axloqiy me'yorlar ishlab chiqildi. Natijada, bir necha yilda halollik xalq orasidagi asosiy hurmat-e'tiborga aylandi. Davlat xizmatchilarining ish haqlari bir necha barobarga ko'paydi, lekin vaqt o'tishi bilan mamlakat hukumatining qasddan harakatlari natijasida bu farq ikki baravar pasaydi. Shu boisdan, "Shvetsiya bugungi kunda dunyoda poraxo'rlikning deyarli uchramaydigan hududlaridan biriga aylagngan mamlakat ekanligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi".[74]

Bu davlatda cherkovning va jamoatchilikning fikri korrupsiyaning oldini olishda alohida o'rinda turadi. Shved fuqarolari davlat amaldorlarining faoliyatini doimiy nazorat qilib boradi. Unda jamoatchilik fikri birinchi o'rinda bo'lib, agarda biror-bir korrupsiya holatlarini topadigan bo'lsa, bunday mansabdor shaxsni iste'foga chiqarishga majbur qiladi. Jamoatchilik nazorati ostida korrupsiyaga qo'l urgan shaxs biron-bir joyda mehnat qilishiga yo'l qo'yilmaydi. Mazkur davlatda korrupsiyaga qarshi qaratilgan islohotlarning natijasida insonlarning to'g'ri fikr yuritishi, korrupsiyaning jinoyat ekanligi, uning natijasi kelajakda avvalo davlatning, qolaversa, o'zlarining farzanlarining taqdiriga bog'liqligi to'g'ri tushuntiriladi.

Bugungi kunda jahonda tez rivojlanib borayotgan davlatlardan biri **Singapur** bo'lib, mustaqillikning dastlabki yillarida korrupsiyaning rivojlanishi tez sur'atlarda amalga oshgan. Lekin korrupsiyaga qarshi kurashish asosida Singapur tezlik bilan nochor davlatlar qatoridan chiqib, deyarli uchramaydigan o'ziga xos korrupsiyasiz davlatga aylandi. Bunga sabab, jamiyat boshqaruvida amaldorlarning faoliyatlari qonun bilan mustahkamlanib, ortiqcha buyruqbozlikdan voz kechildi.

Davlatda kuchli boshqaruv mexanizmi ishlab chiqilib, korrupsion holatlarga barham berish borasida barcha imkoniyatlar ishga solindi. Natijada oddiy insonlarning davlat amaldorlariga murojaat qilishi uchun shart-sharoitlar yaratildi. Li Kuan Yu davlatda korrupsiyaga qarshi samarali faoliyatni yo'lga qo'yib, o'z xalqini korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashishga erishdi. Shu tarzda Singapur jahonda o'zining xavfsizligi va korrupsiyasiz davlatga aylanganligini ko'rsatish bilan birga, o'z imidjiga, yuqori iqtisodiyotga ichki va tashqi investitsiya muhitini yaratishga erishdi. Shu bilan birga, davlatda sud tizimini isloh qilish masalasi doimiy jarayonga aylanib, sud'yalarning maqomi oshirildi, turli imtiyozlar berildi va ularga yuqori maoshlar belgilandi.

[74] Моисеев В. В. Государственная политика противодействия коррупции в современной России. – М.: Директ-Медиа, 2014. – 405 с.

Sudyalarga berilgan imtiyozlarning samarasi o'laroq, sudga kelish yoki unga qatnashmaslikka intilgan shaxslarga nisbatan ham qonuniy choralarni qo'llash mamlakatda keng joriy etilib, barchaning qonun oldidagi tengligini ta'minlashga asosiy e'tibor qaratildi. Bugungi kunda Singapur korrupsiya, iqtisodiy erkinlik va rivojlanish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi. Singapurning sobiq bosh vaziri Li Kuan Yu "Qachonki hokimiyat xalq ishonchini oqlash uchun emas, shaxsiy boylik orrtirish uchun faoliyat yurita boshlasa, bu axloq muammosi hisoblanadi". Uzoq vaqt mavjud bo'lishni istagan jamiyat halollik pirinsiplariga amal qilishi lozim.

Korrupsiyani to'xtatib qolishning eng oson usuli mansabdor shaxslarni o'z bilganlaricha harakat qilish imkoniyatlarini kamaytirish"[75], degan edi.

Jahonda o'zining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mexanizmiga ega bo'lgan davlatlardan biri **Janubiy Koreya** hisoblanadi. 1999 yilda Seul hokimi Gox Kun tomonidan ishlab chiqilgan "Ochiq korrupsiyaga qarshi dastur" davlat va jamiyat boshqaruvida mansabdor shaxslarning faoliyatini nazoratga olish imkoniyatini berdi.

Bunday faoliyatni amalga oshirishda Seulning o'sha davrdagi meri fuqarolarga keng imkoniyatlar berish yo'li orqali odamlarni jamoatchilik asosida birlashtirgan va o'z takliflarini kartalarga yozishni taklif qilgan. Shaxsan o'zi bu ma'lumotlar bilan tanishdi. U alohida-alohida tadbirkorlarning kartalariga amal qildi. Ish beruvchi va xodim o'rtasida tuzilgan shartnoma qoidalari buzilib, pora bilan bog'liq murojaatlar bo'ladigan bo'lsa, mansabdor hech qanday tushuntirishlarsiz ishdan olindi. Qaysi amaldor shu qoidani buzsa, amaldor o'z lavozimidan iste'foga chiqqan.

Janubiy Koreya o'zining taraqqiyoti ilm-fan asosida milliylik bilan uyg'unlashtirib, tezda rivojlandi va jahonda o'ziga xos yangi korrussiyaga qarshi tizim yaratilganligini nomoyon etdi.

Bunday tajriba bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi tomonidan joriy etilgan "Open justice" (Ochiq adliya) dasturi orqali tizimda amal qilmoqda.

Xitoy xalq respublikasi tajribasi tahlili Shuni ko'rsatadiki, unda korrupsiyachilar uch katta guruhga ajratiladi guruhdagilarning aybli qilmishlarga yarasha jazolanadi.

[75] Qobilov Sh.R. Korrupsiya kelib chiqish sabablari va jahon tajribasi. Ilmiy ommabop nashr.-T.2011.-b.64.

Birinchi guruhga kiruvchilar "Yo'lbarslar" deb ataladi, ularga mamlakat uchun eng xavfli bo'lgan katta miqdordagi korrupsiyaga aralashgan partiyaning yirik boshliqlari kiradi. Ularni tabiiyki qattiqroq jazolalashadi, aniqrog'i, 2016- yilda qabul qilingan Xitoy qonunchiligiga binoan, o'lim jazosi faqatgina 463 ming dollardan ortiq pora bilan yoki davlat mulkini o'g'irlash bilan qo'lga tushgan amaldorlarga nisbatan qo'llaniladi. 2000-yilning boshidan buyon korrupsiya uchun 10 mingga yaqin odam o'lim jazosiga hukum qilingan.

Ikkinchi guruhga kiruvchilar "tulkilar" deb ataladi, ularga o'g'irlaganlarini chet elga olib chiqib ketishni uddasidan chiqqanlar kiradi. Xitoyga jahonning 90 ta mamlakatida yashirinib yurgan 2,5 ming "pokdomon" amaldorlar va milliardlab dollar mablag'ar qaytarili. Bularga nisbatan ham o'lim jazosi qo'llaniladi.

Uchinchi guruhga kiruvchilar "pashshalar" deb ataladi, ularga joylardagi mayda poraxo'rlar kiradi. Bu masalada Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 2000 yilning boshiga kelib, Xitoyda "korrupsiyaga qarshi urush" strategiyasi e'lon qilindi. Bu strategiya o'zining qattiqligi, keng ko'lamliligi va "tarbiyaviy maqsadni ko'zlagani" bilan ham dunyo hamjamiyatini larzaga solib kelmoqda.

Masalan, 2000 yildan beri Xitoyda sudlar tomonidan 10 ming amaldor otishga hukum qilingan, yana 120 ming nafari esa 10 yildan 20 yilgacha bo'lgan muddatga qamoq jazosiga tortilgan. Xitoyda korrupsionerlarning mol-mulki musodara qilinib, ularning oilasiga qatl paytida ishlatilgan ikki dona o'q uchun 8 yuan miqdorida hisob ham yuboriladi.

Xitoyda korrupsiyaga qarshi samarali choralardan yana biri barcha bo'g'indagi davlat organlarida kadrlar rotatsiyasidir. Xitoy kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasi va Siyosiy byurosi tegishlicha 51,5 va 36 foizga yangilandi. Markaziy intizom komissiyasi tarkibi esa qariyb 80 foizga yangilanadi.

AQShning korrupsiya borasidagi tajribasi xilma-xil va keng hisoblanadi. Mamlakatning korrupsiya guvohlarini himoyalash tajribasi katta qiziqish uyg'otmoqda. AQSh dunyoda birinchi marta guvoh shaxsni himoyalashga doir standartni aks ettirgan federal qonunni ishlab chiqdi. Bu 1970 yilda "Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi qabul qilingan qonundir. Mamlakatdagi deyarli barcha shtatlar o'zlari guvohlarni himoyalash dasturlarini ishlab chiqqan va bu mavjud federal dasturdan farq qiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda **Fransiya** davlati ham o'ziga xos boshqaruv mexanizmlariga ega. Davlat boshqaruvi tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish jarayoni o'tgan asrning 90-yillaridagi siyosiy jarayonlar bilan bog'langan. Davlat tomonidan amaldorlarning korrupsiyaga berilmasligi uchun har bir xodimning o'z mol-mulkilari va barcha daromadlari bo'yicha tegishli tashkilotlarga doimiy ma'lumot berib borish majburiyati yuzasidan qaror chiqarildi.

Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish usuli sifatida davlatning nazorat faoliyatini kuchaytirish uchun prefekturalarda qonunga barchaning birdek amal qilishi yuzasidan nazoratchilar sonini oshirish bo'yicha bir qator huquqiy asoslarni ifodalaydigan qarorlar ishlab chiqildi.

Fransiyada Hisob palatasining vakolatlari doirasini oshirib borish, jumladan, tashkilotlarda korrupsiyaning illatlaridan himoyalanish maqsadida doimiy ravishda ichki auditni kuchaytirish hamda nazoratni amalga oshirishga doir faoliyatlarni ko'paytirish borasida qarorlar chiqarildi. Natijada, hukumat tomonidan Adliya vazirligining huzurida "Korrupsiyaga qarshi kurash markaziy xizmati"ni tuzish bo'yicha qaror qabul qilindi.

Niderlandiyada ham hukumat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha aniq maqsadli mexanizmlar yaratildi. Davlat boshqaruvida korrupsiyaning oldini olishga doir qarorlar, xususan, poraxo'rlikni kamaytirish, xizmat xizmatchisining mavqeiga salbiy ta'sirlarni kamaytirish uchun mamlakatning mavjud "Jinoyat kodeksi"ga o'zgartirishlar kiritilib, ayrim jinoyat jazolari og'irlashtirilgan choralar bilan almashtirildi. Bunday ijtimoiy muhit davlat xizmatchisining o'z mansabini saqlab qolishi, mavqeiga putur yetkazmaslik, xizmat jarayonida o'z vazifasini sidqidildan bajarish uchun ishlashiga majbur qildi. Lekin ayrim xizmatchilar ba'zi bir jinoiy guruhlarning manfaati yo'lida mansablaridan ayrildi. Davlatning jahondagi obro'sini oshirish va davlat xizmatchisining korrupsiyaga moyilligini kamaytirish yoki tugatish uchun zaruriy choralar va tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, davlat xavfsizlik xizmatining jinoyatchilikka qarshi kurashishi uchun ayrim mansabdor shaxslarning jinoiy guruhlar bilan aloqalari aniqlanib, tegishli davlat organlari faoliyati natijasida qonun doirasida choralar ko'rildi.

Rossiyada ham davlat va jamiyat boshqaruvini optimallashtirish, hukumatning korrupsiyaga qarshi kurashishi doirasida bir qator me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan. Jumladan, "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish to'g'risida"gi Qonunda korrupsiyaning oldini olish uchun ekspertiza tizimining tartiblari, yangi qoidalari, huquqiy asoslar yaratilgan. Normativ-huquqiy hujjatlarda majburiy ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ekspertizadan o'tkazish, tekshirishning natijasiga ko'ra korrupsiyaga moyil jihatlarni aniqlanish hamda xavfni yo'qotishga doir faoliyat olib borish yo'lga qo'yildi.

Demak, davlat va jamiyat boshqaruvidagi korrupsiyaga qarshi kurashish va bu boradagi masalalar nafaqat bir mamlakat uchun, qolaversa AQSh, Kanada, Italiya, Germaniya, Singapur, Xitoy va boshqa bir qator davlatlar uchun ham muhim va dolzarbdir.

Xorij tajribasida korrupsiyaga qarshi kurashda ma'rifiy omillardan samarali foydalanish amaliyoti ham mavjud. Jumladan, **Avstriyada** korrupsiyaga qarshi kurashish byurosi tomonidan 14 yoshdan 18 yoshgacha bolalarga mo'ljallangan "korrupsiyaga qarshi trening" loyihasi yo'lga qo'yildi. Mazkur loyiha talabalar va yoshlar qatlamini qamrab olgan bo'lib, unda qanday qilib korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqiy savodxonlikni oshirish masalalari o'rin oldi. Qolaversa, yoshlarga korrupsiyaga duch kelganda har bir shaxsning bu hodisaning oldini olishga qaratilgan filmlar namoyishi ko'paytirildi.[76]

Buyuk Britaniya ham poraxo'rlikka nisbatan yangi mexanizmlar ishlab chiqilgan. Bu davlat boshqaruvida ishtirok etadigan fuqarolar uchun maxsus korrupsiyaning oldini olishga doir intensiv kurslar mavjud.

Bu davlatda korrupsiyaning oldini olishga doir asosiy organ – bu firibgarlik bo'yicha kurashish boshqarma (SFO, Serious Fraud Office)si bo'lib, davlat va jamiyat boshqaruvida davlat ta'limiga katta e'tibor qaratiladi. Davlatning mavjud fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqalari kuchli bo'lib, korrupsiyaning oldini olish borasida birgalikda maxsus ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan.

[76] By Melissa Klein Aguilar Tue. Meet Austria's Anti-Corruption Authority.Sep.28, 2019. https://www.complianceweek.com/meet-austrias-anti-corruption-authority/4725.article.

Nazorat savollari:

1. Korrupsiya so'zining lug'aviy ma'nosi nima ?
2. Korrupsiya bilan antik davrda qanday usullar bilan kurashilgan ?
3. Korrupsiyani ta'rifini keltiring ?
4. Korrupsiyaning sabablari nimada ?
5. Korrupsiyaga qarshi kurashishda jahon tajribasini gapirib bering ?
6. Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish usullariga taklif bering ?

15-mavzu. O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurash siyosati.

Reja:

1. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish.

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni sabab va oqibatlari.

3. O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurash siyosati.

4. O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmonni mazmun-mohiyati.

Tayanch iboralar: *Maishiy korrupsiya, siyosat va huquqiy savodxonlik, nepotizm, mansab vakolati, nepotizm, mulkni o‘zlashtirish, fitna, hokimiyatni suiste’mol qilish, vertikal korrupsiya, gorizontal korrupsiya, davlat tijoriy korrupsiyasi, korporativ korrupsiya, axloqiy korrupsiya, oq korrupsiya, qora korrupsiya, kulrang korrupsiya, parlament, PF-5618-son farmon.*

Har bir davlat organi korrupsiyaga qarshi kurashga o‘z munosabatini bildiradi, mustaqil ravishda ushbu kurashda yo‘naltirilgan choralarni ko‘radi. Ushbu yo‘nalishda hali katta yutuqlarga erishmagan davlatlardagi korrupsiyaga qarshi kurash tahlili tadqiqot ishining muammolarini hal qilishda ham muhimdir. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarning tajribasidan samarali foydalanish, mazkur jarayonlarni milliylik bilan uyg‘unlashtirish dolzarb masalalardan sanaladi. Jahonda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida Yevropa davlatlaridan Finlyandiya, Shvetsiya, Yangi Zellandiya singari davlatlarning tajribalarini o‘rganish, Osiyodagi rivojlangan davlatlardan Yaponiya, Janubiy Koreya singari davlatlar tajribasiga e’tibor qaratish lozim. Ushbu rivojlangan davlatlar tomonidan amalga oshirilgan islohotlar samarasi natijasida korrupsiyaning oldini olinishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Ular ayni paytda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘zlarining alohida milliy qonunchilik tizimiga ega. Mazkur jarayonlarni o‘rganayotgan O‘zbekiston ham o‘z qonunchilik bazasini yaratib, sohaga doir islohotlarni jadal sur’atlarda izchil davom ettirmoqda. Bunda har bir soha uchun korrupsiyaga qarshi kurashish sxemasi ishlab chiqilib, maxsus idoralar faoliyat olib bormoqdalar.

O‘zbekiston ham o‘z qonunchiligi nuqtai nazaridan ko‘pgina xalqaro hujjat va aktlarga qo‘shilib, mamlakatda korrupsiya darajasini aniqlashga doir tashkiliy mexanizmlarni yaratgan.

Avvalo, 2008-yilda BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi”ga, 2010-yilda “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti”ning korrupsiyaning oldini olish borasida “Istanbul harakat rejasi”ga qo‘shilgan. Bularning barcha xalqaro miqyosda mamlakatning huquqiy mexanizmlari shakllanganligini ko‘rsatadi.

Davlat organlari rahbarlarining korrupsiya sohasidagi qarashlari, mansabdor shaxslarning huquq sohasidagi bilimlarini boyitish, shu jumladan, huquq sohasidagi bilimlar darajasini kuchaytirish maqsadida tadbir davomida xalq xizmatida korrupsion holatlarni kamaytirish, hukumat xodimi yoki organ xodimlarining shaxsiy manfaatlarini oldini olish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Shu bilan birga, korrupsion holatlarni vujudga keltiruvchi ba’zi holatlarni ham inobatga olish zarur, deb hisoblaymiz. Korrupsion holatlarning yuzaga kelish sabablari haqida quyidagi fikrlarni keltirish maqsadga muvofiq.

- muayyan mansabda turgan shaxslarning o‘z lavozimidan foydalanib, fuqarolarning manfaatlarini hal qilib berish jarayoni mavjudligi;
- fuqarolarning joylarda o‘z lavozimiga noloyiq ishlarni qo‘llab-quvvatlashi;
- davlat va jamiyat boshqaruvida turgan mansabdorlarning hukumat tomonidan beriladigan topshiriqlarni ko‘r-ko‘rona bajarishi va mazkur jarayonda o‘z manfaatlari yo‘lida huquqni buzishi;
- mansabdor shax xatti-harakatining rahbariyat tomonidan tegishli nazorati yo‘qligi.

Yuqoridagi sabablar korrupsiyaning vujudga kelishi va keskin avj olishining asosiy sababi, deb hisoblaymiz. Ana shunday salbiy holatlarning oldini olish uchun xalqaro tashkilotlar tomonidan turli shakldagi davra suhbatlari, tadbirlar va uchrashuvlarni muntazam o‘tkazib turmoqda. Jumladan, 2003-yil Istanbulda tashkil etilgan “Harakatlar rejasi”ning faoliyatini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Darhaqiqat, mazkur tashkilotning monitoring natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan Istanbul harakatlar rejasi doirasidagi barcha tavsiyalar bo‘yicha yutuqlarini e’tirof etdi. Korrupsiyaga qarshi kurash doirasida Istanbul uchrashuvida sakkizta ishtirokchi davlatlarning o‘zaro baholash va monitoring dasturi tahlil etilib, unda O‘zbekiston reytingdagi barcha talablarni bajargan, bu esa O‘zbekistonning Istanbul harakatlar rejasidagi natijasidir.[77]

[77] O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashi ilk bor ijobiy baholandi.// 02.24.2019 https://prokuratura.uz

2008-yilda mamlakatimiz qo‘shilgan Korrupsiyaga qarshi BMT konvensiyasida keltirilgan ta’rifga ko‘ra, korrupsiyaning oldini olish borasida doimiy ravishda uzluksiz targ‘ibot va tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashda faqatgina jazo choralarini qo‘llash samara keltirmasligini e’tiborga olish lozim. Agar Fransiyada javobgar kompaniya yoki tashkilot Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi nazorati ostida belgilangan muddatda o‘zining korrupsiyaga qarshi kurash dasturini ko‘rib chiqish va takomillashtirish majburiyatini olsa, jinoiy va ma’muriy sanksiyalarni cheklash imkoniyati mavjud bo’ladi.

Oxirgi yillarda jahonning ko‘plab davlatlarida o‘tkazilayotgan sotsiologik tadqiqotlar natijalari va ommaviy axborot vositalari orqali namoyish etib borilayotgan xalqaro miqyosdagi korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlari shuni ko‘rsatmoqdaki, “Transparency International”ning keyingi yillarda dunyoda so‘z erkinligini ta’minlash, jamiyatda ommaviy axborot vositalariga nisbatan ijobiy munosbatning faollashuvi namoyon bo‘lmoqda.

Eslatib o‘tish joizki, Reporters without Bordersga ko‘ra, matbuot erkinligi so‘nggi indeksi bo‘yicha O‘zbekiston 180 mamlakat ichida 165 o‘rinni, Transparency Internationalga ko‘ra, korrupsiyani o‘zlashtirish indeksi bo‘yicha 180 mamlakat ichida 157 o‘rinni egallaydi. Ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi aloqa mutlaqo ravshan. Transparency Internationalning hukumat va korxonalarga, ularning faoliyatini doimiy ravishda nozorat qilib boradi. Shu boisdan O‘zbekiston ham xorij tajribasini o‘rgangan holda o‘z milliy qonunchiligi doirasida korrupsiya sohasida aniq statistik ma’lumotlar bazasini shakllantirib, har bir sohaning korrupsiyadan holi hudud qilish borasida samarali faoliyat olib bormoqda. Bu fuqarolik jamiyati va boshqa manfaatdor tashkilotlarga korrupsiyaning turli shakllarini yanada faol usullari orqali aniqlash imkonini beradi.[78]

Mamlakatimizda 2017-2018 yillarda korrupsiya sohasiga dior qabul qilingan dasturda korrupsion holatlarni kamaytirish ishlarining samaradorligini oshirish va ushbu yo‘nalishda kuchli ijtimoiy siyosatni yo‘lga qo‘yish borasida keng ko‘lamli tadbirlarni ishlab chiqilishi lozimligini aytish joiz.[79]

[78] How do you define corruption? // Transparency International. URL: http://www.transparency.org 20.07.2018.
[79] Gulnoza Muhamedova, Fransiya taraqqiyot agentligining (FTA) komplayens masalalari bo‘yicha yuridik maslahatchi, “Buyuk kelajak” eksperti. Korrupsiya bilan qanday kurashish lozim? Samarali usullar va xorijiy tajriba // 19.02.2019. http://interkomitet.uz.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ham bir qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ularning faoliyati natijasida xalqaro miqyosda barcha davlatlarni korrupsiyaga qarshi kurashishlari uchun birlashtirishga qaratilgan uzluksiz sa’y-harakatlarning davom etishi dolzarb sanaladi. Chunki bugungi kunda jahon boylik ilinjida mansabdorlarning korrupsiyani keltirib chiqarayotganliklari va uning oqibatida muayyan davlatlardagi parokandaliklar buni namoyon etmoqda.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish doirasida ko‘plab davlatlar o‘z tajribalariga ega. Xususan, Singapur davlatida antikorrupsion byuro faoliyatini mustahkamlashga, Yaponiya esa davlat xizmatchisi egallagan lavozimiga birinchi o‘rinda kasb etikasi orqali loyiqligini inobatga oladi, rivojlangan Buyuk Britaniya AQSh singari mamlakatlarda sudyaning kasb etikasi muhim mezon sifatida etirof etiladi. Demak, rivojlangan davlatlar faoliyatida nodavlat-notijorat tashkilotlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishda o‘z ta’sir kuchiga ega bo‘lgan zamonaviy mexanizmlar mavjud.

Jahon mamlakatlari tajribasiga e’tibor qaratar ekanmiz har biri faoliyati davomida asosiy yo‘nalishlarini belgilab, funksiyalariga egaligini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ular jamiyatni rivojlanishida davlat organlarining korrupsiyani oldini olishga qaratilgan choralarini ob’yektiv holatda ishlab chiqqan.

Davlatning bir qator (milliy xavfsizlik, mudofaa, ichki tartib qoidalarga amal qilishni nazorat qilish) vazifalari doimiy hisoblanib, bu funksiyalarni bajarish zamonaviy davlatchilik uchun o‘ziga xos xususiyati bo‘lib qolmoqda.

Davlatchilik tarixi davomida bu ko‘rinishdagi vazifalar makon va zamonda o‘z ko‘rinish va xususiyatini o‘zgartirib kelgan bo‘lsada, bugungi davrda ham o‘z ahamiyatini aks etib kelmoqda. Davlatchilik rivojining zamonaviy boshqichlarida jamiyat farovonligini ta’minlash maqsadida bir qator yangi tipdagi funksiyalar ham paydo bo‘lib, o‘z ahamiyatini ko‘rsata boshladi.

Bugun biz jahondagi barcha mamlakatlarning korrupsiyaga qarshi kurashishi borasidagi faoliyatlarini o‘rganishlar natijasini tahlil qiladigan bo‘lsak, deyarli hamma davlatlarning bu salbiy illatga qarshi turli mexanizmlarni ishlab chiqqanligini ko‘rishimiz mumkin. Rivojlangan AQSh, Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqalarning barchasiga bu illatning tag-tomiri bilan yo‘qolib

ketmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, korrupsiyani jahonda yenggan biror bir davlat mavjud emas, lekin bu illatni o‘z jamiyatida keskin kamaytirgan, fuqarolarini unga qarshi tarbiyalan davlatlar mavjud.

1. Jahondagi bo‘layotgan iqtisodiy o‘zgarishlar qaysi bir davlatning taraqqiyotiga xizmat qilayotgan bo‘lsa, yana qaysi birining tanazzul tomon yuz tutayotganligini ko‘rsatmoqda. Bunday vaziyatda ko‘proq rivojlangan davlatlar o‘z iqtisodiyotining ustunligi tufayli katta foyda ko‘radi. Jahon bozorida ishlab chiqaradigan mahsulotlarining tezroq ketishi, globallashuv jarayonida korrupsion holatlarga ham yo‘l qo‘yishlari uchun keng imkoniyatlar mavjud bo‘ladi. Vaholanki, endi rivojlanayotgan yoki qashshoq davlatlarning iqtisodiyoti shu tufayli ko‘proq korrupsiya botqog‘iga botib, jamiyatda o‘zining nufuzini tushirib yuborishi mumkin. Bu holatlarning oldini olish uchun avvalo har bir davlat o‘zining mustaqil tovar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishi, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro hamkorlikni barcha sohalarda amalga oshirishi iqtisodiyotda yaxshi samara beradi.

2. Jahonda sodir bo‘layotgan diniy aqidaparastlik, terrorizm, narkotik moddalarning savdosi, mahalliychilik, uyushgan jinoyatchilik va hokazolarda korrupsiyaning o‘rni katta bo‘lmoqda. Mana shunday illatlarga qarshi bugun barcha davlatlar yakdil bo‘lib kurashishlari, insoniyatni bu balolardan asrash uchun kurashishlari lozim. Bundan foyda ko‘radigan ayrim tashkilotlarning faoliyatlarini to‘xtatish, ularning korrupsion sxemalarini bartaraf etishda xalqaro hamjamiyatning hamkorligini kuchaytirish lozim.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashayotgan davlatlarning o‘z faoliyatlarida aniq mexanizm va chora-tadbirlari bo‘lishi lozim. Chunki ayrim davlatlarda haligacha davlat boshqaruvida o‘ziga xos ichki korrupsion holatlarning mavjudligini ko‘rish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, davlatning taraqqiyotga salbiy ta’sir etibgina qolmasdan, fuqarolarning yashashi, turmush tarzi, madaniyatiga o‘zgarishlar olib kelishi mumkin.

Albatta, aytilganlar rivojlangan va o‘tish davri bo‘lgan ko‘plab davlatlar korrupsiya xavfini tushunmaydi, degani emas. Faqat korrupsiyaga qarshi himoya choralari ma’lum bir eskirgan ko‘rinishini faqat jinoyat yoki intizomiy huquqbuzarlik sifatida aks ettiradi. Bunday nuqtai nazar zararli bo‘lib, davlat korrupsiyaga qarshi an’anaviy strategiyalarni – “ongli passivlik” yoki “urush”, deb e’tirof etadi.

Inson taraqqiyoti butun dunyo uchun korrupsiya xavfining keskin oshishiga olib keldi. Ammo taraqqiyot, shuningdek, uni keltirib chiqaradigan salbiy hodisalar va tahdidlardan himoya qilish tizimini yaratishga xizmat qilishi mumkin. Yangi voqelik bizni jamiyatda korrupsiya xavfiga qarshi turishi mumkin bo‘lgan vositalardan oqilona foydalanishga majbur qiladi.

Butun jahonda korrupsiya va uning ko‘rinishlari keskin kengayib bormoqda. Ushbu illat doimo rivojlanish xususiyatiga ega. Agar unga qarshi doimiy samarali siyosat olib borilmasa, jamiyatni tanazzul tomon yetaklab boraveradi. Faqatgina oqilona olib borilgan strategiya korrupsiyadan himoyalanishni bugungi kundagi samarali yechimi hisoblanadi.

Bizning nazarimizda korrupsion holatlarni oldini olishga qaratilgan davlat siyosati bu avvalo fuqarolarni himoya qilishga qaratilganligidir. Agar mamlakatlar korrupsiyaga qarshi kurashda, o‘z siyosat doirasiga kiritib, shu pozitsiyadan turib himoya qilsa, bu jarayon nafaqat davlatlarning huquqlarini himoya qiladi, balki, kelajagi uchun mustahkam poydevorni yaratadi. Bugun barcha mamlakatlar rivojlanishi va o‘z-o‘zini saqlab qolishning tabiiy tuyg‘usi hisoblangan potensial xavfni qaytarishga doimo tayyor turishiga undaydi. Korrupsiyaga qarshi kurash funksiyasi bir xil tabiiy holatga aylanishi kerak.

Albatta, doimiy korrupsiyaga qarshi siyosat strategiyasi va uning hayotiyligi va xalqchilligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu strategiyaning afzalliklari korrupsiyaga qarshi kurash siyosati mamlakatdagi korrupsiya darajasini haqiqatan ham pasaytirishi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy samara berishi mumkinligi nuqtai nazaridan muhim strategiya hisoblanadi.

Korrupsiyani oldini olishga qaratilgan davlat siyosati birinchi navbatda jamiyat hayotining turli sohalarida ushbu illatni keltirib chiqaruvchi, rivojlanishiga sabab bo‘luvchi va sharoit yaratib beruvchi holatlarni aniqlash lozim.

Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatini belgilash, eng avvalo uning asosiy sabablarini tushunishdan boshlanadi. Bu sabablar hozirgi kunda har bir hududga xosdir, hattoki, korrupsiya bizda yo‘q deb jar solayotgan xalqlar uchun ham. Yana bir holat – ijtimoiy hayotdagi har bir sohaga ta’alluqli aniq mezonlar mazmun-mohiyatini ishlab chiqish kerak. Shu bilan birga, korrupsiyani oldini olishga doir davlat funksiyalarining mazmuni nafaqat xususiy amallarni bajarganda, balki nazariy

yondashuvga asoslangan korrupsiyani chuqur tahlil qilish natijalarini, xususan, korrupsiya sabab va oqibatlarini mufassal o‘rganib chiqqandan so‘ng ham hisobga olinishi kerak. Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, korrupsion holatlarni oldini olishda doimiy mexanizmlarni ishlar chiqish va tizimli vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Bizning fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi doimiy choralar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) Makon va zamonda korrupsiyaga qarshi aniq chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, ya’ni ma’lum bir davr uchun asosiy strategiya yo‘nalishlarini umulashtirgan hujjatni yaratish;

b) ma’lum bir davr uchun korrupsiyaga qarshi rejalarni ishlab chiqish, ya’ni korrupsiyaga qarshi kurash dasturini belgilaydigan va tuzadigan hujjatlarni ishlab chiqish;

v) korrupsiyaga qarshi dastur va rejalarning amalga oshirilishini monitoring qilish, ularga kerakli tuzatishlar kiritish va ularni amalga oshirish darajasini baholash tizimini yaratish;

d) korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ixtisoslashtirilgan organlarning faoliyatini tubdan isloh qilish;

j) korrupsiyaga qarshi ta’lim va tarbiya tizimini kuchaytirish.

Ko‘rinib turibdiki, bu turli davlatlar uchun universal bo‘lgan chora-tadbirlar tizimidir.

korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak.

- qonunlarni qo‘shimcha va o‘zrartirishlar kiritish;
- hokimiyatning asosiy institutlari o‘rtasidagi tiyib turish tamoyili asosida hisobdorlik tizimini mustahkamlash;
- davlat ijro etuvchi hokimiyat tizimidagi barcha bo‘g‘inlarning funksiyalarini qayta ko‘rib chiqib, bevosita aholi bilan ishlaydigan qismiga alohida e’tibor qaratish;
- har bir davlat xizmatchisi faoliyati davomida daromadlarini deklaratsiya qilib, mulkiy holati xususida axborot berib borishi;

O‘zbekistonda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan davlat siyosati barcha sohalarda jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Bu borada jahon tajribasi o‘rganilib, har bir mansabdor shaxs yoki davlat xizmatchisining jamiyatdagi maqomini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. Davlatning barcha tuzilmalarida korrupsiyaning inson hayotidagi xavfli jihatlari bo‘yicha tegishli me’yoriy hujjatlar yaratildi.

Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashishni samarali tizimini yaratish maqsadida 2017-yil 3-yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning kuchga kirishi bu sohadagi islohotlarni yangicha bosqichga olib chiqdi. Bundan ko‘zlangan maqsad jamiyatda adolatni o‘rnatish, har bir fuqaroning davlat boshqaruvida korrupsiyani oldini olishda faol bo‘lishi muhimligi ko‘rsatib o‘tildi.

Xalqaro va milliy qonunchilikda davlat xizmatchilarining korrupsiyaga moyillik va imkoniyat yaratayotgan omillarni bartaraf qilish barcha huquqni muhofaza qiluvchi xodimlarning doimiy vazifasiga aylanmoqda.

Yurtimizda barcha sohalarda bo‘layotgan islohotlar singari ta’lim, tibbiyot, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimlarida ham korrupsiyaga qarshi kurashish borasida tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, 2018-yilning o‘zida 1177 ta amaldorlarning korrupsiya uchun javobgarlikka tortilishining o‘zi bu sohani qiyinligini ko‘rsatib beradi. Bu haqda Prezident Sh. Mirziyoyev ta’kidlab, shunday deydi: “Korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar qanchalik harakat qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga murosasizlik bo‘lmas ekan, ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatmas ekan, bu baloga qarshi samarali kurashni tashkil eta olmaymiz”.[80]

O‘zbekiston o‘z qonunchiligida korrupsiyaga qarshi kurashishga milliy va xalqaro tajriba asosida yondashib, bir qator yo‘nalishlarga e’tibor qaratgan:

Birinchidan, mamlakat boshqaruvida korrupsion holatlarni kamaytirishga yo‘naltirilgan dasturlar asosida fuqarolarning savodxonligi, huquqqa doir qarashlarni rivojlantirish muhim ijtimoiy jarayon sanaladi. Bu yo‘nalishda davlat va jamiyat boshqaruvining asosi sifatida “ta’lim, xabardorlik va targ‘ibot” (Education, Awareness and Advocacy) tamoyilini joylarda yoshlarga targ‘ib qilish lozim.

Shu asosda jamiyat boshqaruvida “samaradorlik, shaffoflik va hisobdorlik” (effectiveness, transparency, accountability) tamoyilidan kelib chiqqan holda davlatning sohaga doir izchil siyosatini olib borish lozim. Shuningdek, davlatning jahonda (xususan, Singapurda) “one size fits all” (“barcha uchun bir xil mezon”) deb nomlangan korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmi negizida jamiyatda barqaror va samarali

[80] Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild, – T.: O‘zbekiston, 2019. 65-bet.

tizimni yaratish, ayniqsa, doimiy ravishda davlat organlari faoliyatini aholi orqali nazorat qilib borish, imkon darajada inson omilisiz shaffof monitoringni tashkil etish katta natija beradi.

Ikkinchidan, korrupsion holatlarga doir jarayonda boshqaruv organlarining faoliyatidagi integratsiyalashtirishdir. Mazkur faoliyatida davlatning nodavlat tashkilotlariga ishonch bildirishi, ularning sherikchiligida turli loyihalarni ishlab chiqishi ko'zda tutiladi. Davlat o'z boshqaruvchilik faoliyatida korrupsiyaning oldini olishda milliy davlat boshqaruvi va dunyo miqyosidagi tuzilmalar ishtirokida jamiyatning manfaati uchun kurashishi maqsadga muvofiqdir. Bunda O'zbekistonning sohaga doir biror–bir birlashishga erishish uchun to'siqlar bo'ladigan bo'lsa, darhol integratsiyalashish tizimini yaratish kerak. Vaholanki, bugungi kunda mamlakatda bunday aniqlikka ega statistik ma'ulumotlar yoki shunga o'xshash biror bir tizim mavjud emas. Shuning uchun ham, davlat korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida integratsiya masalasiga alohida e'tibor berib, yangicha yo'nalishda ishlashi lozim.

Uchinchidan, korrupsiyaga moyil ayrim qaror va qonunlarlarni xalqaro standartlarga moslash va amaliyotga to'g'ri joriy etishdir. Ushbu islohot bevosita mansabdor shaxsning "qonunga xilof boylik orttirishi", "amaldorning shaxsiy manfaati yo'lida pora talab qilish", "o'z shaxsiy manfaati uchun ta'magirlik" singari bir qator huquqiy me'yorlarni takomillashtirish, jamiyat boshqaruvida insonning oliy qadriyat sifatidagi rolini mustahkamlash masalalari kun tartibidagi asosiy muammodir.

To'rtinchidan, uzluksiz ravishda korrupsiyaning oldini olish bo'yicha davlat dasturini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etishdir. Mazkur sohada mamlakatda to'liq huquqiy baza shakllangan deyishga hali erta. Bu jarayonda mamlakatda jamiyatni boshqaruviga doir mukammal huquqiy mexanizm yaratish ishlari davom etmoqda. Ayniqsa, davlat xizmatchisining axloqiy me'yor va normalari mustahkamlanishi, shaffoflik tamoyilining to'liq amal qilishiga erishish masalalari atroflicha hal etilishini taqazo etadi.

Beshinchidan, mamlakatda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan va dunyoviy tendensiyalarni o'zida ifodalaydigan milliy strategiya tizimini yaratishdir. Bu tendensiyadan ko'zlangan maqsad asosida davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaning oldini olish uch bosqichli bo'ladi: birinchidan, respublika miqyosida barcha sohalarni o'zida

mujassamlashtirgan, erkin ma'lumotlar almashinishini ta'minlaydigan milliy tizimni yaratishdan iborat; ikkinchidan, jahonda rivojlangan zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida korrupsion holatlarni oldini olishga qaratilgan mexanizmni vujudga keltirishdir; uchinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashishda mavjud muammolarga doir masalalarni ertaroq bartaraf etish bo'yicha jamiyatda fuqarolarning faolligini oshirish va jamoatchilik nazoratini rivojlantirish mexanizmini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Bunday tendensiyalar asosida mamlakatda barcha sohalarda izchil korrupsiyaning oldini olish borasida boshqaruv mexanizmini ishlab chiqish, korrupsiyaga moyillik holatlarini aniqlashga qaratilgan zamonaviy ucullarni yo'lga qo'yish, korrupsiyaga qarshi kurashishda ekspertizani yanada kuchaytirish, bu borada davlatning monitoring tizimini amaliy jihatdan boyitish, dunyo reytingdagi indikatorlarga erishishda shaffoflikni ta'minlash nazarda tutiladi.

O'zbekistonda fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishi va unga moyillik munosabatlarini kamaytirish borasida davlat va jamiyat boshqaruvini yanada kuchaytirish, har bir sohasini "Korrupsiyasiz soha"ga aylantirishga qaratilgan, bu borada kechiktirib bo'lmaydigan uzluksiz islohotlarni amalga oshirish mexanizmlari shakllanib bormoqda.

Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi chiqargan farmonidan kelib chiqqan holda yurtimizda korrupsion holatlarning oldini oladigan Agentlikning faoliyati yo'lga qo'yilishi bu borada dolzarb ijtimoiy tizimga aylandi. Ushbu Agentlikning korrupsion holatlarni bartaraf etish borasida jamiyat boshqaruvi tizimini takomillashtirishni ko'zda tutgan holda, barcha sohalarda davlatning islohotlarini qonun asosida amalga oshirishi uchun muhim mexanizmga aylandi. Bu agentlikning to'g'ridan-to'g'ri davlat rahbariga bo'ysunishi va Oliy Majlisning palatalari oldida hisob berishi belgilandi. Bu Agentlik bevosita respublikamizda va xalqaro miqyosda davlatning korrupsiyaga qarshi kurashishi doirasida ichki va tashqi manfatlarini himoya qiladi. Davlatning jahondagi imidjini oshirish uchun o'z vakolatlari doirasida korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi qonunchilik negizida faoliyat olib boradi.

Ushbu Agentlikning quyidagi huquq va majburiyatlari belgilangan:

- davlat byudjeti mablag'lari, davlatning aktivlarini taqsimlanishi,

investitsion loyihalarga mablag‘ ajratilishi va hukumat dasturlarining ijrosi yuzasidan doimiy nazorat va monitoring olib borish;

- davlatdagi boshqaruv organlari, xo‘jalik sub’yektlari va amaldorlar faoliyatining monitoringi asosida korrupsiyaga moyillik mavjud bo‘lganda ular ijrosiga doir majburiy tarzdagi taqdimnomalar tayyorlash.

Ushbu Agentligining davlat va jamiyat boshqaruvidagi bir qator vazifalarini ko‘rsatish mumkin:

Birinchidan, davlatning boshqaruvida korrupsion holatlarni tahlil qilib borish, korrupsiyaning jamiyatga xavfini sezgan hollarda bu sohada jinoyatlar sodir bo‘lishining sabablari va moyilliklarni monitoring qilib borish;

Ikkinchidan, jamiyatda har bir fuqaroning huquqiy savodxonligini doimiy ravishda oshirib borishga doir tizimli dastur va loyihalarni amalga oshirib borish, korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha qonuniy axborotlar berib borish, joylarda muntazam ravishda korrupsiyasiz sohaga bag‘ishlangan maqsadli o‘quv kurslarini amalga oshirish natijasida davlat boshqaruvida uchrashi mumkin bo‘lgan korrupsiya holatlariga barham berish dasturlarini ishlab chiqish;

Uchunchidan, davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatidagi korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha yo‘nalishni mustahkamlash, davlatning boshqaruvda vazirlik va idoralar, davlat va nodavlat sektoridagi mas’ullarining bu masalalarni hamfikr bo‘lib yechimini topish samaradorligini yo‘lga qo‘yish;

To‘rtinchidan, davlatning boshqaruvida hukumat va xususiy korxonalar ustav kapitalini nazorat qilib borish, banklarning korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmini muntazam nazoratga olish, korrupsion holatlarga mas’ul xalqaro tashkilotlar bilan samarali faoliyatni yo‘lga qo‘yish;

Beshinchidan, qonun va me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan huquqiy normativ me’yorlar asosida korrupsiya holatini kamaytirishga doir ekspertizaning yanada samarador ishlash tizimini shakllantirish, davlat taraqqiyotiga xavf soladigan illatlarga nisbatan huquqiy me’yorlarni mustahkamalash, jahon standartlariga mos xalqaro tajribani rivojlantirish yuzasidan doimiy ravishda taklif va tavsiyalarni ishlab chiqqan holda hayotga tatbiq etish;

Oltinchidan, davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etayotgan mansabdorlarning daromadlari, mol-mulklarini deklaratsiyalash tizimini yo‘lga qo‘yish hamda uning faoliyatini samarali tashkil etish,

deklaratsiyada aks etgan mablag‘larning qonuniyligini nazorat qilish, bu faoliyatda ko‘rsatilgan kamchilik yoki mavjud korrupsion holatlarni vaqtida hal etish tizimini rivojlantirish;

Yettinchidan, davlat xizmatchisi, mansabador shaxslarning halol va pok ishlash mexanizmini yaartish va jamiyatda manfaatlar ustunligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarni ko‘rish, bu borada davlat standartini amaliyotga joriy qilish, ularga amal qilish mexanizmlarini shakllantirishdan iborat.

Sakkizinchidan, byudjet mablag‘laridan, xorijiy davlatlar tomonidan beriladigan qarzlardan samarali foydalanib, davlatning aktivlari realizatsiyasini oshirish, davlatning xaridlar sohasidagi korrupsiyaning oldini olishga doir nazorat tizimi samaradorligini kuchaytirish, bu boradagi mexanizmlarni rivojlantirish;

To‘qqizinchidan, mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurash tizimini isloh qilishi asosida barcha davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlash, davlatning mavqeini oshiradigan xalqaro reyting tizimida o‘rin olishga doir samarali mexanizmni yaratish;

O‘ninchidan, korrupsiya uchun sabab bo‘ladigan omillarning jamiyatda ochiqligini ta’minlash, shaffof va mo‘tadil muhitni yaratish, joylarda to‘rtinchi hokimiyatning rolini oshirish, davlat va nodavlat sektorlarining faoliyatini kuchaytirish hisoblanadi.[81]

Yurtimizdagi huqushunoslar fikriga ko‘ra, mazkur agentlikning imkoniyatlari keng bo‘lib, uning faoliyatida fuqarolar ham o‘z mas’uliyatlarini yaxshi anglashlari lozim. Shundagina oldimizga qo‘ygan bu boradagi islohotlarni izchillik bilan hal etishimiz, korrupsiyaga qarshi kurashish doirasida milliy va xalqaro dasturlarni amalga oshirishimiz mumkin bo‘ladi. Agentlikning faoliyatida uning mustaqilligiga erishish lozim. Chunki Agentlik mamlakatda antikorrupsion jarayonda davlatdagi yuqori lavozimli shaxslarni ham javobgarlikka tortadi.

Shuning uchun ham, Agentlikning rahbar va xodimlari doimo aniq mezonlar asosida shaffof va oshkoralik tamoyiliga asoslanib tanlab olinishi zarur. Aks holda, jamiyatda biror bir o‘zgarish yoki yangiliklarning bo‘lishi amri maholdir. Shu boisdan, mazkur Agentlik rahbariyati o‘zining nizomidan kelib chiqqan holda xodimlarni erkin tanlaydi va ularni ishga oladi. Ikkinchidan, Agentlik bajaradigan

[81] O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida // http://uza.uz. 29.06.2020.

topshiriqlar aniq va barcha shart-sharoitlarga ega bo‘lishi lozim. Ya’ni ularda axborotlashgan jamiyatning texnologiyalariga tayanishi, moddiy ta’minlanganlik darajasi, Prezidentdan tashqari sohalarga qaramlik bo‘lmasligi kerak. Shuning uchun ham, ushbu Agentlikning turdosh davlat organlari o‘rtasidagi mavjud farqlarini aniqlashtirish, alohida funksiyalarga ega bo‘lish singari vakolatlarga ega bo‘lishi darkor.

Taraqqiyotga to‘sqinlik qiladigan real xavflardan biri korrupsiya hisoblanadi. Ayniqsa, bu borada O‘zbekistondagi holatni bartaraf etishga doir yangi ijtimoiy mexanizm shakllanmoqda. Yillar mobaynida O‘zbekiston korrupsiya ildiz otgan davlatlar xalqaro reytingida peshqadamlardan bo‘lib kelgan. Shu bilan birga, bu balo barcha sohalar rivojiga va boshlangan islohotlar samaradorligiga jiddiy ta’sir qilib kelmoqda. Ana shundan ijtimoiy muhitning mohiyatini chuqur anglab yetgan hukumatimiz tomonidan korrupsiyaga nisbatan mamlakat miqyosida jiddiy harakat boshlandi. Natijada, Prezident SH.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 3-yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning imzolanishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bunda korrupsiyaga qarshi kurashishda barcha imkoniyatlarni birlashtirish va tizimli yondashuv ustuvorlik kasb etdi. Mazkur qonunning 4-moddasida shu sohaga oid prinsiplar belgilandi: “qonuniylik; fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi; korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi; javobgarlikning muqarrarligi”.[82]

Prezidentning 2017-yil 2-fevraldagi Farmoniga asosan 2017 - 2018 yillarda korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha davlatning alohida dasturi tasdiqlangan edi.

Ushbu dasturda korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha beshta yo‘nalishdan iborat 51 ta chora-tadbirlarni bajarish belgilandi. Bulardan ba’zilarini sanab o’tamiz.

- Ijtimoiy hayotda korrupsiyaga qarshi kurasha oladigan mexanizm asosida barchaning ishtirokini ta’minlash;

- Davlat va jamiyat boshqaruvida mavjud korrupsion illatlarning kelib chiqish sabablarini o‘rganish, bunday jarayonga imkoniyat yaratmaslik, ularning yechimiga doir chora-tadbirlar qilish;

- Jamiyatda korrupsiyaning oldini olishga doir tashkiliy tadbirlar, tadqiqotlar, xalqaro hamkorlik.

[82] “Korrupsiyagaqarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni.

Buning uchun quyidagilarga e’tibor qaratishimiz muhim hisoblanadi: Birinchidan, jamoat birlashmalari tomonidan mansabdor shaxslarning harakatlarini qat’iy tartibga solish, mavjud to‘siqlarni bartaraf etish, jamiyatning tartib-qoidalari asosida faoliyatini doimiy nazoratga olish lozim. Bu borada har bir davlat xizmatchisining amal qilishi kerak bo‘lgan me’yoriy hujjatlarni yana mukammlashtirish darkor. Fuqarolarimiz qonunlarda aks etgan me’yorlar doirasida faoliyat yuritishi va uning faoliyati shaffof bo‘lishi muhim. Buning uchun har qanday mansabdorning harakatlari va faoliyati ochiq bo‘lishi kerak. Jamoatchilik uning nima qilayotganligini, rejalarini, erishayotgan yutuqlari va kamchiliklarini kuzatib turish imkoniyatiga ega bo‘lishi muhim.

Bu mansabdor shaxsning har qanday qarorga mas’uliyat bilan yondashib qabul qilishini, ayniqsa, har qanday korrupsion holatlarga moyillikni oldini oladi. Bunday nazorat va shaffoflikka qaysi mexanizmlar bilan erishish mumkin? Bunga jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va mavjud ma’lumotlarni OAVlarga o‘z vaqtida tarqatish orqali erishish mumkin. Shu o‘rinda mentalitetimizda ham bir qancha qusurlar borki, ular ham ana shu ijtimoiy mexanizmni ishlashiga salbiy ta’sir qilmoqda. Bu qusurlarni ochib berish uchun “Suyunchi” badiiy filmdagi bir epizodni eslab o‘tish joiz. Yosh nevara oila a’zolari orasida mavjud bo‘lgan yondashuvni buviga shartta aytadi. “Buvi sizni hamma yomon ko‘radi. Chunki siz hammani ishiga aralashaverasiz”, deydi. Xuddi shunday yondashuv bugun ham mavjud. Jamoatchilik institutlarining u yoki bu masalaga aralashuvini biz oddiy bir norma sifatida qabul qilolmaymiz, bu borada jonbozlik ko‘rsatayotganlarni esa unchalik ham xushlamaymiz. Yana bir oddiy holat, kimdir yo‘l harakati qoidasini buzdi. Ikkinchi kishi uni videoga olib tegishli manzilga jo‘natdi. Shundaylarga nisbatan bugun jamiyat orasida negativ yondashuv kuchliroq. Aslida, bu shu harakati bilan kimnidir hayotini saqlab qolganligini yoki qonunbuzarni jilovlab qo‘yganligini anglamaymiz. Tasavvur qilaylik, katta bir korrupsion holatni ochishda ko‘maklashgan shaxs yoki jamoatchilik birlashmasi qanchalik kuchli bosim ostida qoladi. Bugun biz ayrim kuchlar tomonidan yetkazilishi mumkin bo‘lgan ana shunday bosimlardan himoyalanish mexanizmlari haqida ham bosh qotirishimiz muhim hisoblanadi.

Bunday mexanizmlardan biri davlat tomonidan mana shunday qahramonlikni amalga oshirganlarni nafaqat moddiy va ma'naviy rahbatlantirish hamda sohalar, hududlar kesimida "eng faol jamoatchilik nazorati", "korrupsiyaga qarshi kurashgan yil qahramoni" kabi nominatsiyalarda mukofotlar joriy qilish hisoblanadi.

Yana bir muhim masala, korrupsiyaga qarshi kurashda biz kurashni pastdan emas, yuqoridan boshlashimiz maqsadga muvofiq. Ya'ni, bu baloga qarshi kurashda kichik mansabdorni qo'lga tushirib yuqori lavozimdagi mansabdorlarni korrupsiyalashganligiga ko'z yumishimiz yigirma besh yil mobaynida korrupsiyani ildiz otishiga sabab bo'ldi. Shu o'rinda bir misolni oliy ta'lim tizimidan keltirish mumkin. Masalan, o'tgan yillar mobaynida oliy o'quv yurtiga kirish jarayonidagi noqonuniy jarayonga ishtiroki uchun yuzlab o'qituvchi, talaba javobgarlikka tortildi. Ammo rektor yoki vazir o'rinbosari, vazirni bu bilan aloqadorligi bilan bog'liq jinoiy ishlar qariyib ochilmagan. Aslida qaysi birini ijtimoiy xavfliligi yuqori. Ya'ni, Singapur rahbari Li Kuan Yu ta'kidlaganidek, davlat qachon korrupsiyaga qarshi samarali kurasha oladi. Qachonki, vazirlar va yuqori lavozimdagilarni sotib olib bo'lmasa.[83]

Navbatdagi masala korrupsiyaga olib keladigan jihatlardan biri imtiyozlar masalasi hisoblanadi. Avvalo, har qanday imtiyozlarni joriy qilishdan tiyilish bu boradagi korrupsiyani oldini olishning eng samarali usuli hisoblanadi.

Bu borada bizda ahvolni yaxshi deb bo'lmaydi. Imtiyozlarni ham ikkiga ajratish mumkin. Birinchisi, butun soha vakillariga, masalan, tadbirkorlarga, o'qituvchilarga yoshlarga va hokazo. Ikkinchisi, tanlanganlarga, masalan ayrim tadbirkorlik sub'yektiga, ayrim yoshlarga va hokazo. Ikkinchi tur ko'proq korrupsion holatni shakllantiradi. Shu sababli, avvalo, davlat siyosatida mana shunday imtiyozlarni ko'payishiga yo'l qo'ymaslik muhim. Endi har qanday sharoitda bunday sub'yektlar mavjud bo'ladi bunday holatlarda korrupsiyani oldini olishda ularning faoliyatini shaffof nazorati muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman shaffoflik korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali usuli hisoblanadi. Bunda ijtimoiy tarmoqlarning, OAVlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni beqiyos hisoblanadi. Uni amalga oshirish mexanizmi qanday qilib uning yuqoridagi sub'yektlar faoliyatida ma'lumotlarni ochiqligiga erishishda, yuqoridagi tashkilotlarning bu

[83] Ли Куан Из третьего мира –в первый. История Сингапура. "Манн" 2000 – С.37.

ma'lumotlardan samarali foydalana olishlarida muhim hisoblanadi. Masalan, bugungi kunda bizning avtomobil sanoatimiz bilan bog'liq muammolar ijtimoiy tarmoqlarda, hattoki, siyosiy doiralarda, Parlament deputatlari orasida keng muhokama qilinmoqda. Sababi oddiy, bizda avtomobil ishlab chiqarilsa ham, avtomobil bizda qimmat, nima uchun? degan savol hammani qiynamoqda. Ko'pchilik xorijdan olib kelinayotgan ehtiyot qismlarning qimmatligini asos sifatida ko'rsatmoqda, ammo ma'lumotlarning ochiq emasligi uchun ekspertlar ularni tahlil qilolmadi. Biz qanchaga olib kelyapmiz. O'sha mahsulot jahon bozorida qancha nega aynan o'sha kompaniyadan olinmoqda? kabi o'nlab savollar ochiq qolmoqda.

Agar shu ma'lumotlar ochiq bo'lganda bu sohodagi aniq kamchiliklar yoki aybdorlarni aniqlash imkoniyati mavjud bo'lar edi. Eng muhimi, mana shu masalaga mutassaddilar ham ana shundan kelib chiqib faoliyatlarini yo'lga qo'ygan bo'lar edilar. Bunday holatni boshqa sohalar kesimida ham ko'rish mumkin. Bu boradagi yana bir muhim masala ayrimlarga beriladigan imtiyozlarni amal qilish muddati va undan foydalanishning aniq mexanizmlari ishlab chiqilishi kerak. Bu borada eng kichkina savolga ham o'rin qoldirmaslik muhim. Har qanday imtiyoz bilan bog'liq qaror loyihasi tayyorlanganda, avvalo, uning ana shu jihatlari bilan bog'liq mexanizmlar ishlab chiqilishi imtiyozli qarorlar qabul qilishda batafsil aks etishi kerak. Bu masalaning yana muhim jihati mana shunday imtiyozlar beriladigan sub'yektlarga yoki toifalarga nisbatan jamoatchilik nazoratini kuchaytiruvchi ijtimoiy mexanizmlar bilan ta'minlashimiz zarur.

Boshqaruvni demokratlashtirish, har bir davlat xizmatchisining ishida adolatni ta'minlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Ekspertlar davlat boshqaruvidagi yuqori darajadagi shaffoflik korrupsiyaning oldini olishning asosidir, degan fikrni doimiy ravishda qayd etadilar. BMTning tavsiyasiga hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasining tegishli moddalariga binoan har bir davlatda korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshiruvchi oldini olishga doir mexanizmlarni yaratadigan tegishli organ bo'lishi taklif etiladi. Ana shularni inobatga olib bizda ham alohida Agentlik shakllantirildi va bu tashkilot faoliyatini boshladi. Nazarimizda, bu tashkilot masalaga ilmiy yondashib uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishi va uni ekspertlar yordamida ekspertizadan o'tkazishi samarali hisoblanadi.

Bu borada Agentlik davlat va nodavlat tashkilotlar bilan samarali hamkorlik qilishi muhim. Shu bilan birga davlatimizda kelajakdagi korrupsiya va uni oldini olish bilan bog‘liq analitik markaz shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu markazning asosiy vazifasi davlat mexanizmida korrupsiyaga qarshi olib borillayotgan ishlarning amaliy natijalarini, shu jumladan, davr o‘zgarishi bilan ushbu sohalardagi ijobiy natijalarni har tomonlama, monitoring qilishi maqsadga muvofiqdir. Xuddi shunday ish jarayoni jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda olib borilib, ishning natijalari yuzasidan o‘z qarashlarini bildirib borishi muhimdir.

Davlat va jamiyatning taraqqiyotiga salbiy ta’sir etuvchi bunday omillarning oldini olish, insonlarni shaffof va demokratik islohotlar negizida ijtimoiy hayotga jalab etish muhim falsafiy jarayondir. Buning uchun har bir fuqaroning ongida korrupsion holatlarni oldini olishga doir mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb falsafiy masala hisoblanadi. Fuqaroning mafkuraviy immunitetini shakllantirish va rivojlantirish bevosita adolatli, demokratik jamiyatni barpo etish bilan bog‘liq bo‘lib, bunda O‘zbekistonda yashayotgan boshqa millat va xalqlarning milliy mentalitetini adolatli jamiyatni barpo etishga qaratish lozim.

Bugungi kunda davlat va jamiyat boshqaruvida “korrupsiyasiz soha” umumiy ob’yekt sifatida inson va uning manfaatlari o‘rtaga qo‘yildi. Insonning ongli mavjudot sifatida aqlli, idrokli xatti-harakatlari, axloqiy ideallari, yurish-turishlari, turmush tarzi, muomalasi, odobi, urf-odatlari korrupsiyaga qarshi kurashish mezoni milliy mentalitetda o‘z ifodasini topdi. Bunday mafkuraviy- ma’naviy jarayon, o‘z navbatida, har bir yosh avlodni millatiga, irqiga, naslu nasabiga, diniga, e’tiqodiga qaramasdan shaxs sifatida shakllanishida adolatli tuzumning bosh mezoni hisoblanadi. Chunki adolatli farovon ijtimoiy hayot faqatgina bir millat yoki mamlakat uchun mansub bo‘lmasdan, balki bashariyat orzu qilgan ma’naviy ehtiyojdir. Ana shunday o‘z shaxsini millat taqdiri bilan, millat taqdirini umumbashariyat taqdiri bilan bog‘lashga da’vat etish va shunday yoshlarni tarbiyalab, voyaga yetkazish korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining asosiy vazifasidir.

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi.

Strategiya (yun. strategia = stratos – qo‘shin + ago – boshlab boraman) – ko‘chma ma’noda ijtimoiy siyosiy kurashga rahbarlik qilish san’ati, shuningdek, umuman, boshqaruvni to‘g‘ri va istiqbolli rejalashtirish san’ati kabi ma’nolarni anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunida “strategiya” mamlakat yoki muhim tarmoqlarni o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirishning eng asosiy yo‘nalishlarini belgilaygan hujjat ekanligi qayd etilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi deb mamlakatimizda mavjud bo‘lgan moddiy va ma’naviy resurslardan samarali foydalanishorqali korrupsiyani batamom yo‘q qilish uchun uzoq muddatga mo‘ljallangan vazifalarni belgilab olish va uni bajarishga qaratilgan tadbirlarni ilmiy-amaliy jihatdan tashkil qilish san’atiga aytiladi.

Korrupsiyaga qarshi milliy strategiya tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) korrupsiyani davlat xavfsizligiga tizimli tahdid soluvchi xavf deb tan olish. Mazkur illatga qarshi kurashish elementlari avvaldan ham milliy qonunchiligimizning ayrim hujjatlarida aks etgan bo‘lsada, korrupsiyani mamlakatimiz taraqqiyoti uchun asosiy xavflardan biri ekanligi tan olinmagan va unga qarshi kurashish asosan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy faoliyati deb qaralgan.

2) korrupsiyaga qarshi kurashishning tizimliligi. “Oldini olish» va
«profilaktika» tushunchalarining ma’nosi bir biriga juda yaqin. Shu bilan birga korrupsiyaga qarshi kurashish milliy strategiyasida korrupsiyaga qarshi kurash masalasining ajratib olinishi uni faqat Jinoyat kodeksi hamda alohida huquqni muhofaza qiluvchi yoki xavfsizlik organlarining harakatlari hajmi bilan chegaralanib qolmaydi. Milliy strategiya korrupsiya barcha holatlarining ta’sirini kamaytirish (minimallashtirish) yoki yo‘q qilishni taklif qiladi. Korrupsiyaga qarshi milliy strategiya davlatning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan uzoq muddatli va har tomonlama xarakterga chora- tadbirlar tizimini taklif qiladi.

3) korrupsiyaga qarshi siyosatning uzoq muddatli xarakterga ega ekanligini inobatga olib, unga qarshi asosiy chora-tadbirlarning uzluksizligi ta’minlanganligidir. Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi ayrim vazifa va chora- tadbirlarni amalga oshirish uchun uzoq muddat talab etiladi. Masalan, jamiyatda korrupsiyaviy xulqqa nisbatan toqatsizlik munosabatini shakllantirishga bir oy yoki biryil oralig‘ida erishib bo‘lmaydi va fuqarolarning bir necha avlodi bilan tegishli tadbirlarni olib borishni taqozo etadi

Yurtimizda korrupsiyaning davlat va jamiyat hayotiga tahdid solayotgan bir qator jarayonlariga e'tibor berish muhim sanaladi:

- korrupsiya va uning oqibatlari jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy hayotga salbiy ta'sir etayotganligi, uning ijtimoiy xavf darajasi xalqchil hamda ravon tilda ma'naviy jihatdan sharhlangan holda jamoatchilikni xabardor qilishga qaratilganligi;

- amalga oshirilayotgan huquq-tartibot sohasidagi ishlarda ilm-fanning rolini oshirishga doir zamonaviy qonunchilik bazasini yaratish asosida milliy qonunlarimizni yanada kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalarni berish;

- korrupsiyani keltirib chiqaradigan omillarni tag-tomiri bilan yo'qotadigan milliy siyosat tizimini yaratish va bu jarayon orqali korrupsiyaga olib keluvchi holatlarni bartaraf etish yo'llarini topish;

- jamiyatda korrupsiya jinoyatini sodir etgan shaxslarga doir, ya'ni korrupsionerlarga hamisha jazoning mavjudligi yurtimizda qonunning ustuvor bo'lishi, barcha ommaviy axborot vositalarining doimiy tarzda ma'lumotlarni xalqqa yetkazib berishini ta'minlash;

- har bir sohada korrupsion holatlarni tahlil etishda keng jamoatchilik, shu jumladan, davlat va nodavlat tashkilotlarida targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish va ularning korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ishlarini jonlantirish;

- insonning moddiy ehtiyojlari va ma'naviy olamini boyitishga qaratilgan ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish, ortiqcha to'siqlarga barham berish, tadbirkorlikka oid taomillarni yanada soddalashtirish;

- davlatning boshqaruv faoliyati hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini doimiy ravishda nazorat qilib borish va tegishli tavsiyalarni berish.

Davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaning oldini olish borasida to'rtta boshqaruv mexanizmlariga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir:

Fuqarolarda halollik va poklikni shakllantiradigan rag'bat tizimi. Ushbu jarayon orqali hammaga mehnatiga yarasha haq to'lash, ayrim korrupsiyani oldini olishda xizmat ko'rsatgan fuqarolarni rag'batlantirish, halollik bilan yashayotgan va ishlayotgan shaxslarni davlatning lavozimlarida ishlash tizimini ishlab chiqish ijtimoiy hayot talabidir.

1. Korrupsiyaning oldini oladigan milliy va xalqaro ta'sir tizimi. Ushbu faoliyatda davlat boshqaruviga mansabdor shaxslar aralashuvini

kamaytiradigan axborot texnologiyalarini joriy etish asosida inson omilining ta'sir kuchini kamaytirish, jamiyatda barcha sohalarda raqamli iqtisodiyotga o'tish tizimini kuchaytirish, davlatning monitoring jarayoni nazoratida raqamlashtirish, lavozimlarga tayinlash jarayonida tanlovning haqqoniyligini ta'minlash, davlatda xarid tizimini shaffofligi va soddaligiga erishish lozim. Davlatning qonunlarini xalqaro normalariga mosligi va ularning jahon tajribasiga rioya etilishini nazoratini oshirish kerak. Bunda xalqaro hujjatlarda korrupsiyaning oldini olish, xorijiy hamkorlarga keng imkoniyatlar yaratish bo'yicha turli korrupsion holatlarning kamayishiga erishish singari masalalar yechimini topishi lozim.

2. Korrupsiyaning oldini olishda oshkoralik tizimi. Ushbu jarayonda birinchi navbatda davlat boshqaruvida turgan shaxslarning faoliyatini uzluksiz ravishda kuzatish, davlatda barcha boshqaruv organlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, davlat amaldorlarining xalqqa hisobdorlik tizimini kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashishda faol bo'lgan nodavlat-notijorat tashkilotlarning nazorat tizimini mustahkamlash, jamiyatda "to'rtinchi hokimiyat"ga qonun doirasida keng imkoniyatlarni berish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari:

1. Korrupsion holatlarning yuzaga kelish sabablari haqida gapirib bering ?
2. Korrupsiyaga qarshi kurashishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarni sanang ?
3. Korrupsion holatlarni oldini olishga qaratilgan davlat siyosati nimadan iborat ?
4. Korrupsiyaga qarshi kurashda xorijiy davlatlarning amalga oshirayotgan aniq mexanizm va chora-tadbirlari qaysilar ?
5. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish taktikasi qanday ?
6. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi va taktikasi o'rtasidagi farq nimadan iborat ?
7. Mamlkatimizdakorrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi o'z takliflaringizni ayting ?

Xulosa.

Yangi O‘zbekistonda islohot fenomenining barcha talab va mezonlariga javob beradigan amaliy ishlar olib borilmoqda. Har qanday hodisa, tushuncha yoki atamaning o‘ziga xos shakllanish jarayoni bor. Yangi O‘zbekiston fenomeni ham bundan mustasno emas. Ushbu tushuncha mamlakatimizning zamonaviy qiyofasini shakllantirish, yurtimizda demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi islohotlarimizning tayanch g‘oyasini ifoda etadi. Ana shu g‘oya asosida yurtimizda “Yangi O‘zbekiston - Uchinchi Renessans sari,” degan shior ilgari surilayotgani ham bejiz emas.

Yangi O‘zbekistondagi adolatli siyosat uchun asos bo‘layotgan va unda o‘z aksini topayotgan asosiy jihatlar, mezonlar quyidagilardan iborat:

- butun mamlakatimizda keng ko‘lamda islohotlarni amalga oshirilayotgani, eng muhimi, raqobatbardosh va tashqi dunyo uchun ochiq ijtimoiy-iqtisodiy makonni barpo etishga sobitqadamlik bilan kirishilgani;

- bu tarixiy jarayonda dasturilamal bo‘lib xizmat qilayotgan, mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasini to‘liq amalga oshirish mas’uliyati butun xalqimiz tomonidan chuqur his etilayotgani;

Prezidentimizning turli darajalardagi chiqishlari, intervyu hamda nutqlariga diqqatimizni qaratsak, uning davrga nisbatan “eski zamonning umri tugab, yangi zamon boshlanayotgan lahzalar”, “milliy tariximizning eng keskin va tahlikali davri», «notinch zamon», «notinch mintaqa”, “global moliyaviy inqiroz”, “xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlar kuchayib borayotgan”, “turli mintaqalarda hamon davom etayotgan qurolli to‘qnashuvlar” singari konseptlarning ta’kidlanishi, yangi o‘zbek davlati bugun o‘zini qay tarzda namoyon etmog‘i, davlat strategiyasini belgilashda davrdan chiqishning ma’no- mazmuni o‘z o‘zidan ayon bo‘ladi.

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar hozirgi zamon insoniyat taraqqiyotining talabi bo‘lib, bu davomiylik jamiyatni modernizatsiyalash sari yetaklaydi. Shu asosda o‘zbek falsafasidagi yangilanish tarixan zarur va muqarrar bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Bunda bir millat, butun xalq manfaati yagona maqsadli mafkuraga ya’ni yakdil birlikka aylanadi.

Tabiiyki, yagona birlikka aylangan xalq, bir butun bo‘lib, uning turmush tarzi, hayot qoidalari ham bir ruhiyatga birlashadi. Bu ijtimoiy falsafiy tafakkur tarixida umumiylik qoidasi mazmunini bildirib, shu xalqning birdamligini ta’minlaydi.

Jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan adolatli islohotlar chuqur o‘ylangan, ilmiy asoslangan rejalarga muvofiq amalga oshiriladi. O‘zining strategik maqsadini belgilab olgan jamiyat qayerga borayotganini aniq bilishi zarur, bu maqsadga borish uchun davlat va boshqaruv institutlari faoliyatini adolatli, ratsional tashkil etishi, fuqarolarini, ulardagi ijtimoiy potensialni islohotlarga safarbar qilishi darkor. Jamiyat va davlat boshqaruvi siyosiy faoliyat, bu faoliyat moddiy va ma’naviy kuchlarni adolatli, ratsional tashkil etishga da’vat qilingan.

Taraqqiyot to‘g‘risida gap ketganida avvalo ana shu siyosiy faoliyat nazarda tutiladi va uning mohiyati, kelajakka yo‘naltirilgan rejalari, mavjud muammolarni hal etish uchun qo‘llayotgan taktikasi, moddiy va ma’naviy potensialni safarbar etish texnologiyasi xususida to‘xtaladi.

Falsafaning rivojlanish qonunlaridan ma’lumki, butun koinot, borliq, tabiat va bashariyat doimiy o‘zgarishda, rivojlanishda, yangilanishda, xuddi shuningdek, insoniyat ham ana shu azaliy qonuniyat asosida yashaydi va hayot kechiradi. Har qanday yangilanishning mazmun-mohiyati, namoyon bo‘lish xususiyati shunday kechadi. Davrlar o‘taveradi, zamonlar almashaveradi. Bu yorug‘ olamga kelgan har bir odamzot avlodi turli o‘zgarish va yangilanishlar sari intilaveradi. Ayni paytda xalqlar tarixida o‘ziga xos tub yangilanish davrlari borki, bunday zamonlarda muayyan millat dahosi, uning o‘z salohiyatini namoyon etishga intilishi, yaratuvchanlik faoliyati eng yuksak cho‘qqilarga ko‘tariladi.

Hozirgi davrda xalqimiz eng rivojlangan mamlakatlarga xos hayot darajasiga erishish, yangi jamiyat qurishdek ulug‘vor maqsadlar bilan yashamoqda. Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, yangi O‘zbekistonni barpo etish vatandoshlarimizning asosiy maqsad- muddaosiga aylandi.

Ayni paytda biz erishilgan yutuqlar bilan kifoyalanib qolmasligimiz, xotirjamlikka berilmasligimiz lozim. Bu yo‘lda ko‘zlagan marralarimizga erishish bilan bog‘liq dolzarb vazifalarimiz borligini yaxshi anglaymiz.

O‘z navbatida, ushbu maqsadga yetish borasidagi serqirra faoliyatning tizimli va samarali tashkil etilishi, ishlarimizning samaradorligiga erishish islohotlarimizning mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi.

Shu bois, oldimizda bir qator dolzarb savollar tug’ilishi tabiiydir.

Ya’ni: yaqin va o‘rta istiqbolda yangi O‘zbekiston strategiyasi qanday bo‘lishi kerak?

Ushbu strategiyaning bugungi zamon talablariga javob beradigan ijtimoiy shakl-shamoyili qanday bo‘lishi lozim?

Unda shakl va mazmun birligi, imkoniyat va voqelik uyg‘unligiga doir muhim nazariyalar qay tarzda o‘z ifodasini topishi zarur?

Keyingi o‘n yilliklardagi faoliyatimizni belgilaydigan taraqqiyot tamoyillari va vazifalarning qaysi birlari eng ustuvor va dolzarb bo‘lib hisoblanadi?

“Taraqqiyot strategiyasi”da jamiyat hayotining barcha jabhalari va yo‘nalishlarini to‘la-to‘kis aks ettirish uchun nimalarga asosiy e’tibor qaratishimiz darkor ?

Keyingi yillarda qabul qilingan konsepsiya va harakat dasturlarida belgilangan ma’naviy-ma’rifiy sohadagi islohotlarning samarasini oshirish uchun qanday chora- tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi”.[84]

Bugungi kunda yangi O‘zbekiston strategiyasi hayotbaxsh xususiyat kasb etmoqda, xalqimizni yorug‘ kelajakka chorlab va yangilanishga safarbar qilib, umumiy maqsadlar yo‘lida birlashtirib turadigan yaxlit ma’naviy asos va mezonga aylanib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etishdek ulug’ maqsadga erishish yo‘lida asosiy tayanchimiz bo‘lgan azmu shijoatli yoshlarga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga barcha sohalarda o‘z iqtidori va salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, mamlakatimiz hayotida ilm-fan, xususan falsafaning rivojlanishida buyuk burilish davri bo‘ldi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O‘zbekistonning yangi davri falsafasidagi institutsional o‘zgarishlar sababi determinatsion aloqadorlik bilan bog‘liq bo‘lib, uning negizida qonuniyatli genetik holatni kuzatish mumkin.

[84] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekistion, 2021. – B. 6.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Rasmiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - Toshkent.: “O‘zbekiston” NMIU, 2023.
2. “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.05.2018 y., 06/18/5430/1164-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2017-yil 3-yanvar. O‘RK 419-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 2017-yil 7-fevral.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2017-yil 19-may.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. 2016-yil 28-dekabr.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab- quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2017-yil 5-iyul.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizmini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. 2020- yil 6-noyabr.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. –T.: O‘zbekiston, 2017-yil.
2. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. –T.: O‘zbekiston, 2017-yil.

3. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. T.: “O‘zbekiston” NMIU 2017-yil.

4. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz”. 1-jild.-T.: “O‘zbekiston” NMIU 2017-yil.

5. Mirziyoyev Sh.M. “Xalqimizningroziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir”. 2-jild.-T.: “O‘zbekiston” NMIU 2018-yil.

6. Mirziyoyev Sh.M. «Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘, va kelajagi farovon bo‘ladi». 3- jild.-T.: «O‘zbekiston» NMIU 2019-yil.

III. Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, monografiya va risolalar:

1. Abdulla Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq». –Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

2. Sayid Rizo Alizoda. «Turkiston-bizning Vatanimiz» // “Sho‘lai inqilob” jurnali. 1919-yil 4-soni.

3. Salomov G‘. (G‘aybulla as-Salom) Movarounnahr farzandi // O‘zbekiston adabiyoti va san’at, jurnali. 1992. -№ 20-son.

4. Kamilov K. «Globallashuv sharoitida diniy soha rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari»Fal. fan. nom diss. avtoref. – T.: TIU, 2011.

5. Xo‘janova T.J. «Mafkuraviy profilaktika – yosh avlodni g‘oyaviy himoyalash omili (ijtimoiy-falsafiy tahlil) ». –T.: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati. 2019-yil.

6. Juraqulov F. «Fuqarolik jamiyatini qurish sharoitida davlat ijroiya hokimiyati tizimini modernizatsiyalash»: Siyosiy fanlar doktori (DSs) dissertatsiyasi avtoreferati. – 2018-yil.

7. Yaxshilikov J.Ya. Muhammadiyev N.E. Texnika va informatsion texnologiyalar falsafasi. Darslik. Samarqand: SamDU, 2019-yil.

8. Yaxshilikov J.Ya.Muxammadiyev N.E. «Milliy g‘oya va mafkura». Monografiya- T.: «Fan», 2015-yil.

9. Falsafa: qomusiy lug‘at. Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov.- T.:
«Sharq», 2004-yil.

10. Negmatova O‘zbekistonda “Sog‘lom raqobatni rivojlantirishning ma’naviy, axloqiy va huquqiy jihatlari”. Monografiya. T.: «Fan», 2016.

11. Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik.-T.: «O‘zbekiston», 2013-yil.

12. Avesto. «Sharq», 2001. - B.34 Tarixiy-adabiy yodgorlik.

13. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. -T.: «Yangi asr avlodi», 2016-yil.

14. Al-Buxoriy, Abu Abdullox Muxammad Ibn Ismoil. Hadis. 4-kitob. K.1. Al-jomi’ As-Saxix: (Ishonarli to‘plam). -T.: Komuslar bosh tahririyati, 1991-yil.

15. Aflotun. Davlat: nasriy doston. T.: «Yangi asr avlodi», 2015.

16. Arastu. Axloqi kabir. - T.: «Yangi asr avlodi», 2015-yil.

17. Aliyev B, Hakimov R. “Korrupsiyaga qarshi kurash”. Monografiya. Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2012-yil.

18. Abdusamadov A.E. Dinshunoslik. Darslik. Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2018 yil.21. Islom ensiklopediya. - Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi». 2017-yil.

19. Sharipov M. Mantiq. -T.: O‘zMU.2003 76.

20. Туйчиев Б.Т. Социальная философия. Тошкент: УзМУ,2017.

21. J.Rumiy. Yetti majlis. -Toshkent: « Yangi asr avlodi», 2018.

22. J. .Rumiy. Ichindagi ichindadur. (falsafiy-ma’rifiy asar) - Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2018.

IV. Xorijiy adabiyotlar:

1. Кант И. Сочинения. В 8-ми томах т. Т.5.М.: 1994.

2. Бзежинский 3. Выбор: мировое господство или глобалное лидерство. - М.: Международные отношения, 2004.

3. Збигнев Бжезинский. Великая шахматная доска (Господство Америки и его геостратегические императиви) Перевод О.Ю. Уралской. -М.: Международние отношения. 1998.

4. Буянов В.С. Сущность глобализации //Глобализация: Учебник - М.: Изд-во РАГС,2008.

5. Кастельс М. Информационная эпоха: Экономика, общества, культура. - М.: Изд-во. 2000.

6. Чернов А. А. Становление глобалного информационного общества. Проблемы и перспективы -М.: Дашков К : 2003.

7. Винер Н. Кибернетика и общество. -М.: Наука, 1991.

8. Попов Л. Информациология и информасционная политика. - М.:Луч, 1999.

9. Эшби Р. Массовая информация: стратегия и тактика потребления. – М.:Луч, 1998.

10. Стич Л.П. Социалная информациология. М.: Алгоритм, 2004.12. "Экономическая безопасност хозяйственных систем. Учебник. М. РАГС, 2001.

11. Окиновская Н.А. Хартия глобалного информационного общества Дипломатический вестник. М.: 2000.- № 8.

12. Жол К.К., Сиволов Ю.В. Информация, общественные, наук управление (Философско-экономический анализ). Киев, Науко, 1991.

V. Internet saytlari va materiallari:

1. www.api.uz. – O'zbek matbuot va axborot agentligi.
2. www.gov.uz. – O'zbekiston Respublikasining hukumat portali.
3. www.bilim.uz. – Ilmiy-ommabop sayt.
4. www.philosophy.ru. – Философский портал.
5. www.ziyonet.uz. – Ziyonet internet tarmog'i.
6. www.lex.uz. – O'zbekiston qonun hujjatlari sayti.

MUNDARIJA

Kirish... 3
1-mavzu: Falsafa va uning jamiyat hayotidagi roli 7
2-mavzu: Falsafiy tafakkur taraqqiyot bosqichlari: Sharq falsafasi 25
3-mavzu: Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: G'arb falsafasi 52
4-mavzu: Borliq (Ontologiya) va rivojlanish falsafasi 81
5-mavzu: Bilish falsafasi (Gnoseologiya).... .103
6-mavzu: Mantiq.... .127
7-mavzu: Tafakkur shakllari: tushuncha, hukm va xulosa.... .146
8-mavzu: Jamiyat falsafasi.... ..166
9-mavzu: Inson falsafasi (Falsafiy antropologiya).... ..183
10-mavzu: Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya).... ..205
11-mavzu: Axloq falsafasi (Etika) .... .223
12-mavzu: Nafosat falsafasi (Estetika).... .238
13-mavzu: Globallashuv va barqaror taraqqiyot falsafasi .... .260
14-mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashning jahon tajribasi .... .282
15-mavzu: O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurash siyosati .... .302
Xulosa... .322
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.... ..325

Usmanov Abdumo‘min Xolmo‘min o‘g‘li

FALSAFA
O‘quv qo‘llanma

Muharrir: F. Bo‘riyev
Musahhih: D. Namozov
Dizayner: A. Bo‘riyev

Bosishga 09.07.2025-yilda ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi 84x1081/32.
Nashriyot hisob tabog‘i 20,6. Shartli bosma tabog‘i 20,9. Adadi 100 dona.
Буюртма № 102.

“OLTIN QALAM NASHRIYOTI”
Manzil: Toshkent shahar
Yangihayot tumani,
Do‘stlik ko‘chasi.

ISBN: 978-9910-8228-8-9